


DARSLIK



XALQARO HUQUQ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**



XALQARO HUQUQ

DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan “Yurisprudensiya” yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim oladigan talabalarga darslik sifatida tavsiya etilgan.

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603-sonli buyrug'iga asosan talabalar uchun darslik sifatida chop etishga tavsiya etilgan.

KBK:67.412

X22

Xalqaro huquq. Darslik. Mas'ul muharrir y.f.n., prof. G.Yuldasheva // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYU nashriyoti, 2018. – 450 bet.

Mualliflar jamoasi: y.f.n., prof. G.Yuldasheva (I, II, III, X boblar), y.f.n. SH.Raxmonov (IV bob), N.Gafurova (V, VI boblar), y.f.n., dots. N.Nugmanov (VII, XVI boblar), y.f.n., dots. A.Muminov (VIII bob), J.Jumaniyazov (IX bob), F.Fazilov (XI bob), Z.Borsiyeva (XII bob), B.Xudaybergenov (XIII, XVII, XVIII boblar), y.f.n., dots. N.Rajabov (XIV bob), y.f.n. D.Umarxonova (XV bob).

Taqrizchilar:


B.Ismoilov – Yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra mudiri, y.f.d.

X.Yunusov – JIDU, YUNESCONing “Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasida dotsenti, y.f.n.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ–1990-sonli va 2017-yil 28-apreldagi “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–2932-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, talabalarda Xalqaro huquq fani bo'yicha nazariy bilimlarni va xalqaro huquq normalarini qo'llashga doir ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ushbu darslik ishlab chiqildi.

Darslikda xalqaro huquqning asosiy tushunchalari, normalari, prinsiplari, manbalari, subyektlari, xalqaro huquqda aholi va hudud masalalari, shuningdek hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqining asosiy sohalari, ya'ni xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, xalqaro gumanitar huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro ekologiya huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro havo huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi keng yoritib berilgan.

Ushbu darslik bakalavriat bosqichi 5380100 – Yurisprudensiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.



© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018

MUNDARIJA

Kirish	4
I BOB. Hozirgi zamon xalqaro huquqi tushunchasi, predmeti va tizimi	7
II BOB. Xalqaro huquq normalari va manbalari.....	23
III BOB. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari.....	40
IV BOB. Xalqaro huquq subyektlari.....	67
V BOB. Xalqaro huquqda aholi.....	88
VI BOB. Xalqaro huquqda hudud.....	103
VII BOB. Xalqaro shartnomalar huquqi.....	119
VIII BOB. Xalqaro tashkilotlar huquqi.....	160
IX BOB. Xalqaro-huquqiy javobgarlik.....	188
X BOB. Diplomatik va konsullik huquqi	221
XI BOB. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq.....	247
XII BOB. Xalqaro gumanitar huquq.....	272
XIII BOB. Xalqaro iqtisodiy huquq.....	304
XIV BOB. Xalqaro ekologiya huquqi.....	321
XV BOB. Xalqaro jinoyat huquqi.....	343
XVI BOB. Xalqaro axborot huquqi.....	386
XVII BOB. Xalqaro havo huquqi	399
XVIII BOB. Xalqaro xavfsizlik huquqi	422

KIRISH

Hozirgi paytda dunyodagi barcha davlatlar qayerda joylashishidan qat'i nazar, bir-biri bilan bir qancha shartnomalar, bitimlar, majburiyatlar, diplomatik, savdo, konsullik va boshqa xalqaro munosabatlarga kirishgan.

Xalqaro huquq mustaqil huquqiy normalar tizimidan tashkil topib, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishi turlicha bo'lgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Barcha davlatlar, ularning katta-kichikligidan, jo'g'rofiy joylashishidan, iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, xalqaro munosabatlarning teng huquqli ishtirokchilari, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zolari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyektiga aylanishi bilan o'zining mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirib kelmoqda va uning huquqiy asoslari va mexanizmlari joriy etildi.

2012-yil 10-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqaro munosabatlar zamonaviy tizimining transformatsiyasiga baho berilgan va mamlakatning asosiy maqsadlari, prinsiplari, vazifalari, tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab o'tilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni 1-ilova bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati bilan bog'liq quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi:

– chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash;

– mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekt sifatidagi o'mi va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil

qo'shnichilik muhitini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash;

– mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

Xalqaro huquqni qo'llash doirasi yildan yilga kengaymoqda. Atom energiyasining kashf etilishi, o'ta kuchli muzyorar kemalarning, tovushdan tez uchadigan havo kemalarining paydo bo'lishi, yer sun'iy yo'ldoshining, kosmik kemalar va orbital stansiyalarning parvozi va boshqa fan-texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro huquq oldida yangidan yangi muammoli masalalar paydo bo'ldi. Bu ulkan yutuqlar behisob boyliklar yashirib yotgan dengiz tubi, qutbdagi joylari, shuningdek dunyo okeanini o'zlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro huquqiy rejim o'rnatish zaruratini belgilaydi.

Xalqaro tashkilotlar hozirgi xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynamoqda. Bunday tashkilotlar orasida dunyodagi deyarli barcha davlatlar a'zo bo'lgan, butun dunyoning universal tashkiloti – Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim o'rinni egallaydi. Unga 193 davlat a'zo. Tashkilotning yuridik negizi – BMT Ustavi hozirgi zamon xalqaro huquqining o'ziga xos kodeksi deb asosli ravishda e'tirof qilingan.

Xalqaro huquq normalarining ichida agressiya, aparteid, genotsid va xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash, qurollanish, ommaviy qirg'in qurollarini va boshqa yadroviy qurollarni taqiqlashda davlatlar hamkorligini tartibga soladigan normalar alohida o'rin tutadi.

Mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan ushbu darslik hozirgi zamon xalqaro huquqi masalalariga bag'ishlangan, unda ushbu fanning umumiy tavsifi, tizimi, manbalari, prinsiplari, tartibga solish predmeti va mavzulari, xalqaro huquq normalarini amalga oshirish mexanizmlari, mazkur fan sohasi va huquq tizimining rivojlanish yo'nalishlari bayon etilgan.

Darslikni o'rganish jarayonida talabalar, xalqaro huquq sohasida umumiy bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni haqida ham amaliy misollar yordamida tasavvurga ega bo'ladi.

Ushbu darslikning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, xalqaro huquq ilmini chuqurroq o'rganish uchun darslikdagi ma'lumotlar

bilan bir qatorda mualliflar tomonidan har bir mavzu doirasida amaliy misollar, atamalar (glossariy), nazariy va muammoli savollar hamda kazuuslar berilgan.

I BOB. HOZIRGI ZAMON XALQARO HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI

Xalqaro huquq tushunchasi. Xalqaro huquq predmeti, maqsadi va mohiyati. Xalqaro huquq funksiyalari. Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro huquq tizimi. Xalqaro huquq va milliy huquqning o'zaro munosabatlari. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq.

Xalqaro huquq tushunchasi

“Xalqaro huquq” tushunchasiga ta'rif berish, ya'ni bu hodisaning mazmunini yoritish huquq fani va huquq nazariyasi, xususan, xalqaro huquq (doktrinasi) fani va uning tarkibiy qismi – xalqaro huquq nazariyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Xalqaro huquq – davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari xohish-irodasini muvofiqlashtirish yo'li bilan vujudga keladigan, ular o'rtasidagi turli munosabatlarni tartibga soladigan, xalqaro huquq subyektlari tomonidan xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladigan xalqaro shartnomalar va odat normalari tizimi, umum tan olingan prinsiplar yig'indisi.

Xalqaro huquq subyektlari, ya'ni davlatlar, xalqlar, xalqaro tashkilotlar ishtirok etadigan munosabatlarda ularning harakatlari xalqaro huquq bilan tartibga solinadi, individual xarakter kasb etmaydi. Xalqaro huquq nazariy jihatdan xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq shaklida o'rganiladi. Biroq adabiyotlarda “xalqaro ommaviy huquq” tushunchasi o'rnida “xalqaro huquq” atamasi keng qo'llaniladi¹.

***Xalqaro huquq* – tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik prinsiplar va normalar majmui.**

Xalqaro huquq uzoq vaqt davomida ijtimoiy munosabatlarning rivoji natijasida vujudga keldi. Uning paydo bo'lishi va shakllanishi urug' jamoasi va qabilalararo munosabatlar davriga to'g'ri keladi.

Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, ibtidoiy jamoa tuzumi rivojining dastlabki bosqichlaridanoq qabilalar o'rtasida yozilmagan odatlar mavjud bo'lgan. Qabilalar o'rtasidagi munosabatlar faqat tashqi

¹Sec e.g. Malcolm N. Shaw International law. Sixth edition. Development of International law. Cambridge University Press. New York. 2008. P 169. This term was first used by J. Bentham: see Introduction to the Principles of Morals and Legislation, London, 1780.

himoyani ta'minlashga qaratilmasdan, balki tez-tez qo'llanishi natijasida odatlarga aylangan boshqa bir qator xulq-atvor qoidalarini ham o'z ichiga olgan. Shu boisdan Qadimgi Rimda davlatlar o'rtasidagi, davlatlar paydo bo'lgunga qadar xalqlar (qabilalar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi "xalqlar huquqi" (Jus gentium) paydo bo'lishiga va ushbu masalalarga doir normalar tizimlashtirilishiga olib keldi. Masalan, Rim imperiyasi va varvar qabilalari o'rtasidagi munosabatlar. Xalqaro huquq paydo bo'lishining dastlabki va muhim shartlari sifatida insoniyat tarixida ehtiyojlarning o'sib borishi, insonni o'rab turgan dunyo bilan o'zaro munosabatlarining murakkablashishi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo'lishi va boshqalarni keltirish mumkin.

Xorijiy huquqshunos Martti Koskenniemi, xalqaro huquq tushunchasiga turli xil xalqaro subyektlarning siyosiy qadriyatlarini hamda manfaatlarini amalga oshirilishi vositasi sifatida yondashadi. Uning ta'kidlashicha, xalqaro huquq davlatlararo munosabatlarda adolatni ta'minlash bo'yicha nazorat olib boradi¹.

Xalqaro huquq xalqaro munosabatlarning ajalmas qismi hisoblanadi va bir-biriga ta'sir qilib turadi. Bunday ta'sir insoniyat jamiyati rivojining manbalaridan biri hisoblanadi. Shunga muvofiq, xalqaro munosabatlarning rivoji xalqaro huquqni muntazam o'zgartirib turadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, xalqaro huquq rivoji bosqichlari xalqaro munosabatlar rivoji bosqichlariga mos keladi.

Xalqaro huquqning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari.

Xalqaro huquq tarixi jamiyat rivojlanish tarixining bir qismi hisoblanadi. Shunga qaramasdan, u ijtimoiy hodisa sifatida o'zining alohida tarixi va spetsifikasiga ega.

¹What is International Law for?, Martti Koskenniemi. International Law. Malcolm D.Evans. Oxford University Press, 2003 p 89.

Xalqaro huquq rivojining bosqichlari

Qadimgi dunyo xalqaro huquqi

O'rta asr xalqaro huquqi (VI-VI asrlar)

Klassik xalqaro huquq (o'rta asrlar oxiridan ikkinchi jahon urushigacha)

Zamonaviy xalqaro huquq – BMT Ustavi huquqi

Ibtidoiy to'da davrlarida xalqaro munosabatlar lokal (mahalliy) xarakter kasb etgan. Bu davr odatlarning paydo bo'lish davri sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro munosabatlar rivojining keyingi bosqichi diniy ahamiyat kasb etgan. Bu davrda xalqaro huquqda dinlarning o'rni katta bo'lgan.

Davlatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi, fan, texnika, aloqa vositalarining rivoji xalqaro munosabatlarning taraqqiy etishiga olib keldi va, o'z navbatida, bu xalqaro huquqning universal xususiyatlarini ochib berdi.

Xalqaro huquqning universallashtirishi "sivilizatsiyalashgan" va boshqa xalqlar huquqida davrlarga bo'linishidan oldin yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda xalqaro huquq davlatlar tomonidan tan olinish va qo'llash bosqichida bo'lishiga qaramasdan, mintaqaviy tendensiya hali ham davom etmoqda, deyish mumkin (Yevropa jamiyati huquqi shakllanishi to'g'risidagi, musulmon huquqi amaliyotida xalqaro huquq spetsifikasi to'g'risidagi va boshqalar).

Xalqaro huquq rivojining davrlarini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Uning rivoji ham insoniyatning bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tishi bilan bog'liqdir. Har bir tuzum ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, uning tabiatini ham ishlab chiqarish munosabatlari tashkil etadi. Shuningdek, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tegishli tuzilmalarni o'z ichiga oladi (davlat, huquq, xalqaro huquq, axloq, tafakkur, huquqiy ong, borliq va boshqalar).

Yuqoridagilarga asoslanib, xalqaro huquq tarixini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1) qadimgi dunyo xalqaro huquqi – miloddan avvalgi 4- mingyillikdan milodning 476-yiligacha. Bu davr quldorlikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga to'g'ri keladi.

2) 476–1648-yillar – o'rta asr xalqaro huquqi. Bu davr feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga to'g'ri keladi.

3) 1648–1919-yillar – klassik xalqaro huquq. Bu davr kapital ishlab chiqarishning paydo bo'lish va rivojlanish davriga to'g'ri keladi.

4) zamonaviy xalqaro huquq. Bu davr 1919-yildan XXI asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Xalqaro huquq predmeti, maqsadi va mohiyati

Xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar "xalqaro ommaviy munosabatlar" tushunchasi bilan bir xil deb qaraladi. Bunday munosabatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) davlatlararo (ikki tomonlama, mintaqaviy, universal) munosabatlar;

2) davlatlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar;

3) davlatlar va davlatlarga o'xshash tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar;

4) davlatlar va o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar o'rtasidagi munosabatlar;

5) xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar.

Yuqorida ta'kidlangan barcha munosabatlar davlatlararo munosabatlar sifatida qaraladi. Davlatlararo munosabatlar deganda, davlatlar ishtirok etadigan har qanday ommaviy munosabatlar tushunilishi mumkin.

Xalqaro huquqning asosiy predmeti hisoblangan xalqaro davlatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda turli guruhlariga ajratish mumkin:

1) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan, davlatlarning ichki organlari vakolatlariga kirmaydigan masalalar (xalqaro xavfsizlik, qurolsizlanish, global ekologik muammolar) bilan bog'liq munosabatlar;

2) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lmagan, ammo davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan masalalar: davlatlar chegaralarining o'rnatilishi, huquqiy yordam ko'rsatish, chet elga chiqishning viza va vizasiz tartibi bilan bog'liq munosabatlar;

3) davlatlarning ichki vakolatlariga tegishli bo'lgan, lekin xalqaro hamjamiyat manfaatlarini ifoda qiladigan masalalar: inson huquq va erkinliklarining himoyasi, xalqaro jinoyatlar sodir qilinganda jinoiy

yurisdiksiyaning amalga oshirilishi, yadro quroli portlashi natijasida huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar.

Xalqaro huquqning predmeti – davlatlar manfaatlarini ifoda qiladigan u yoki bu shakldagi har qanday ommaviy-huquqiy munosabatlar.

Xalqaro huquqning maqsadi – davlatlararo munosabatlarni tartibga solish va ularning manfaatlarini ifodalash.

Xalqaro huquqda vijdonlilik, soflik, xalqaro odatlarga hurmat bilan qarashga qattiq rioya qilinadi. Bugungi kunga kelib davlatlar o'rtasidagi iltifotli munosabatlar amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar bir-biriga vijdoniy nuqtayi nazardanmas, balki mavjud huquqiy holatdan kelib chiqib imtiyozlar (masalan, diplomatlar uchun) yaratadi.

Xalqaro huquqning quyidagi o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) tartibga solish predmeti – tinchlik va ko'p tomonlama hamkorlik sohasida suveren va mustaqil davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar;

2) xalqaro huquq subyekti – suveren davlatlar, o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar, xalqaro tashkilotlar va davlatlarga o'xshash tuzilmalar;

3) xalqaro huquq obyeksi – moddiy va nomoddiy boyliklar (manfaatlar), ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa harakatlar yoki harakatlardan tiyilish;

4) norma ijodkorligining o'ziga xosligi – xalqaro huquq subyektlari xohish-irodasini muvofiqlashtirish, xalqaro majburiyatlarni ixtiyoriy qabul qilish yo'li bilan tuziladi;

5) norma realizatsiyasining o'ziga xosligi – ixtiyoriy va erkin bajariladi, xalqaro qonunchilik buzilishi natijasida individual va kollektiv majburiy choralar qo'llashni o'z ichiga oluvchi xalqaro javobgarlik alohida belgilanadi.

Xalqaro huquqning mohiyati shundan iboratki, xalqaro maydonda geostrategik hamkorlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda, shuningdek iqtisodiy, siyosiy, gumanitar, fan-texnika, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi.

Xalqaro huquq barqaror, adolatli va demokratik jamiyatni shakllantirish maqsadida dunyo jarayonlariga ta'sir qiluvchi, butun xalqaro hamjamiyat va davlatlar xavfsizligiga tahdid qiluvchi harakatlarning oldini olish va qarshi kurashuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro-huquqiy mulohazalar tarkibidagi zaxira vositalaridan foydalanish

xalqaro darajada tinchlik, xavfsizlik va qonuniyligni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro huquq funksiyalari

Xalqaro huquq funksiyalari ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi, ular nafaqat xalqaro-huquqiy obyektlarga ta'sir ko'rsatishi bilan, balki u yoki bu munosabatlar sohasida erishilgan xalqaro-huquqiy tartibga solish darajasi bilan baholanadi. Xalqaro huquqning ta'siri natijasida qandaydir munosabatlar paydo bo'ladi, tartibga solinadi, to'xtatiladi yoki bekor bo'ladi.

Xalqaro huquq funksiyasi – xalqaro-huquqiy tartibga solish predmeti hisoblangan munosabatlarga xalqaro huquq tomonidan ta'sir ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari

Quyidagi funksiyalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1) **barqarorlashtirish** – uning mazmuni shundan iboratki, xalqaro-huquqiy normalar dunyo hamjamiyatini birlashtirishga, muayyan xalqaro tartibotni mustahkamlashga, ko'proq barqaror holatga keltirishga chaqiradi;

2) **tartibga solish** – uning qo'llanish chog'ida ijtimoiy munosabatlar tegishli yo'llar bilan tartibga solinadi va xalqaro tartibot o'rnatiladi;

3) **muhofaza qilish** – xalqaro-huquqiy munosabatlarni lozim darajada himoya qilishni ta'minlashdan iborat. Xalqaro huquq subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlar mavjud.

4) **ta'minlash** – xalqaro huquq javobgarlik haqidagi normalarni ham o'z ichiga oladi, ushbu funktsiya xalqaro huquqning umum tan olingan normalariga xalqaro huquq subyektlari tomonidan rioya qilinishini ta'minlaydi. Xalqaro majburiyatlar buzilganligi uchun xalqaro huquq subyektlariga xalqaro huquq yo'l qo'yadigan javobgarlik chorolari va sanksiyalarni qo'llash mumkin;

5) **axborot-tarbiya** – davlatlar tomonidan to'plangan tajribalarni bir-biriga yetkazish, kishilarning o'z huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish, kishilarni qadriyatlar va inson manfaatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro huquq milliy huquq bilan bir qatorda turuvchi alohida huquq sohasi hisoblanadi. Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro huquq xalqaro xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarni, davlatlar chegarasi doirasiga kiradigan va davlatlarning ichki vakolatlariga kirmaydigan munosabatlarni tartibga soladi.

2. Xalqaro huquq normalari xalqaro hamjamiyat ishtirokchilarining teng huquqliligiga asoslangan holda xalqaro huquq subyektlari tomonidan yaratiladi.

3. Xalqaro-huquqiy normalarning bajarilishini ta'minlash xalqaro huquq subyektlarining o'zlari tomonidan amalga oshiriladi (alohida xalqaro-huquqiy javobgarlik instituti orqali yoki kollektiv – BMT Xalqaro Sudi, BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyasi, turli qo'mita va komissiyalar orqali)

4. Xalqaro huquq manbalari xalqaro huquq subyektlari tomonidan xohish-irodani muvofiqlashtirish yo'li bilan xalqaro shartnoma va xalqaro odat shaklida yaratiladi.

5. Xalqaro huquq subyektlari suveren davlatlar, o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan millatlar va xalqlar, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, davlatga o'xshash tuzilmalar.

Yuqoridagi xususiyatlar xalqaro huquq tizimini ichki davlat huquqi tizimidan tubdan ajratib turadi.

Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning normalari aynan xalqaro huquq subyektlari tomonidan yaratiladi. Xalqaro shartnoma va xalqaro odat xalqaro huquq normalarini yaratishning asosiy ikki yo'li hisoblanadi.

Xalqaro huquq normalari rang-barang sanksiyalardan iborat bo'lishi, ya'ni huquqbuzarga taqiq qo'yish, majburlov choralari shular jumlasidan. Masalan, BMT Ustavining 41-moddasiga muvofiq huquqbuzarga Xavfsizlik Kengashi qarori bilan turli xildagi sanksiyalar qo'llanilishi mumkin: iqtisodiy munosabatlarni, temiryo'l, dengiz, havo, pochta, telegraf, radio va boshqa aloqalarni to'liq va vaqtinchalik to'xtatib qo'yish, shuningek diplomatik aloqalarni uzish va boshqalar.

Xalqaro huquq tizimi

Huquq tizimiga umumiy ma'noda ta'rif beriladigan bo'lsa, bu ijtimoiy munosabatlarning xarakteri bilan bog'liq bo'lgan huquqning ichki tuzilishi bo'lib, u huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat'iy ilmiy izchillikda joylashgan tartibi. Shunday ekan, xalqaro huquq tizimini o'rnatish uchun uning elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish, boshqacha aytganda, uning ichki tuzilishini belgilab olishi lozim.

Xalqaro huquq murakkab tizimdan iborat bo'lib, bir tomondan, u umume'tirof etilgan norma-prinsiplar yig'indisi hisoblansa, boshqa tomondan tartibga solish predmatiga muvofiq keluvchi normalar yig'indisidan iborat sohalarni o'z ichiga olgan.

Xalqaro huquq tizimi – xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir-biriga bog'liq norma va prinsiplar yig'indisi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqining yadrosi, uning “konstitutsiyasi” xalqaro ommaviy huquqning asosiy prinsiplari hisoblanadi. Asosiy prinsiplar – universal xarakter kasb etuvchi va yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan muhim xalqaro-huquqiy normalar. Ular butun xalqaro-huquqiy tizimni, boshqa barcha xalqaro-huquqiy normalarni, shuningdek asosiy prinsiplarga mos bo'lgan xalqaro huquq subyektlarining harakatlarini qamrab oladi.

Xalqaro huquq tizimiga, bir tarafdin umumiy prinsiplar va yuridik normalar, boshqa tarafdin bir turdagi sohalar va ichki sohaviy institutlar va normalar kiradi.

Xalqaro huquq tizimi – xalqaro huquqning elementlari, umum tan olingan prinsiplar, yuridik normalar, shuningdek institutlar yig'indisi

Shunday qilib, xalqaro huquq tizimini quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin:

- 1) xalqaro munosabatlarni tartibga solishning xalqaro-huquqiy mexanizmlari uchun ahamiyatli bo'lgan va yadrosi hisoblangan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari;
- 2) davlatlar yoki boshqa xalqaro huquqning subyektlari o'rtasidagi umummajburiy hisoblangan xalqaro huquq normalari;
- 3) muayyan funksional normalar kompleksini o'zida jamlagan xalqaro huquq institutlari. Xalqaro huquq subyektliligi to'g'risidagi, xalqaro huquq

ijodkorligi to'g'risidagi, xalqaro javobgarlik to'g'risidagi, davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi xalqaro huquq institutlari;

4) xalqaro huquq sohalari. Ular xalqaro huquq tizimining nisbatan yirikroq bo'limlari hisoblanadi va kengroq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro ommaviy huquqning bir qator sohalari shakllangan bo'lib, bu haqida quyida qisqacha to'xtalamiz:

– xalqaro shartnomalar huquqi. Bu soha xalqaro huquqning tayanch sohasi hisoblanib, davlatlarning turli sohalarda hamkorligini belgilaydigan xalqaro shartnomalarni tuzish va uni bajarish jarayonlarini tartibga soladigan munosabatlarni qamrab oladi;

– xalqaro tashkilotlar huquqi. Xalqaro huquqning bu sohasi xalqaro (hukumatlararo) xarakterga ega bo'lib, davlatlar hamkorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar huquqi xalqaro (hukumatlararo) tashkilotlar va birlashmalarning huquqiy maqomi, ularning tarkibiy tuzilishi, vakolatlari, organlarining faoliyat yuritish tartibi, hujjatlarining yuridik kuchi va qo'llanilishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalar yig'indisidan iborat;

– diplomatik va konsullik huquq. Bu soha davlatlararo munosabatlarda vakilligi masalalarida davlat organlarining yuridik maqomi va funksiyalari, faoliyat yuritish tartibi, tuzilishi bilan bog'liq xalqaro-huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Mazkur soha negizini diplomatik huquq normalari va konsullik huquqi normalari tashkil etadi;

– inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Bu soha xalqaro huquqning alohida sohasi sifatida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipiga asoslanib, ijtimoiy hayotning turli sohalarda inson huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi normalardan iborat;

– xalqaro gumanitar huquq. Bu soha inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilishning yuridik imkoniyatlarini inobatga olgan holda davlatlar tomonidan qurolli to'qnashuvlar paytida yaradorlarga yordam berish, harbiy harakatlar olib borishning taqiqlangan usul va vositalarini aniqlash yo'li bilan urush falokatini cheklashga va urush qurbonlarini himoyalashga qaratilgan huquqiy normalar majmuidir;

– xalqaro iqtisodiy huquq. Mazkur soha iqtisodiy munosabatlar sohasida davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi normalar va prinsiplar yig'indisini o'z ichiga olganligi bilan xarakterlanadi. Bu soha hamkorlikning juda keng yo'nalishlarini o'ziga qamrab oladi: savdo, ishlab chiqarish, fan-texnika, transport, moliya-valyuta, bojxona va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy

munosabatlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: tovar va xizmatlarning oldi-sotdisi (eksport-import operatsiyalari), pudrat ishlari, texnik yordam ko'rsatish, yo'lovchi va yuklarni tashish, kreditlar ajratish yoki xorijiy manbalardan kreditlar olish, bojxona masalalariga doir nizolarni hal qilish va boshqalar;

– xalqaro ekologiya huquqi. Bu soha tabiat resurslaridan ekologik asoslangan holda, ratsional foydalanish bo'yicha, hozirgi va kelajak avlodning manfaatlari yo'lida Yerda qulay hayot sharoitlarini saqlash uchun subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi norma va prinsiplar tizimidan iborat;

– xalqaro jinoyat huquqi. Davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi prinsiplar va normalar majmui. Uning o'ziga xos jihati shundaki, aniq kishilar, jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar huquqiy tartibga solish obyekti sifatida ko'rinadi. Xalqaro jinoyat huquqini tartibga solish sohasiga xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va odatdagi jinoiy ishlarga qarshi kurashda hamkorlik kabilar kiradi;

– xalqaro axborot huquqi. Bu xalqaro huquq subyektlarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanish jarayonida foydalanadigan (yoki foydalanishga ruxsat beradigan) huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi maxsus xalqaro tamoyil va normalar majmuidir;

– xalqaro xavfsizlik huquqi. Bu soha xalqaro munosabatlarda qurollanishni cheklash va qisqartirish, harbiy kuchlarni qo'llashga qarshi kurashish maqsadida davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi harbiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi prinsip va normalarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro huquq va milliy buquqning o'zaro munosabatlari

Ikki huquqiy tizim – xalqaro va milliy (yoki ichki davlat) huquqning o'zaro aloqasini ta'minlash bugungi kunda har qanday davlat tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Hammaga ma'lumki, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar globalizatsiya yo'lidan ketmoqda va bu jarayon davlatlar o'rtasida turli darajada va turli sohalarda davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugun dunyoviy jarayonlar globallashayotgan, turli davlatlar va butun-butun mintaqalarning o'zaro integratsiyalashuv jarayonlari tezlashayotgan bir davrda yashamoqdamiz¹.

¹ Выступление И.А.Каримова на международной конференции по развитию транспортного коридора Европа – Кавказ – Азия (ТРАСЕКА) // Каримов И.А. Своё будущее мы строим своими руками. Т.7. –Т.: Узбекистон, 1999.

Hozirgi kunda milliy va xalqaro huquqiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlar eng dolzarb masalalardan biridir. Ularning maqsadi, umuman, munosabatlarni tartibga solish bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida bir qator farqlar mavjud. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi bilan, tartibga solish obyekti bilan milliy huquqdan ajralib turadi. Milliy huquq esa u yoki bu davlat hududi chegarasi doirasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Ikki tizimning o'ziga xos jihati sifatida shuni ta'kidlash lozimki, ular doimiy ravishda bir-birining normalarini o'zlashtirib turadi.

Xalqaro huquq va milliy huquqning umumiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni quyida keltiramiz:

1. Ikki huquq tizimi majburiy tartibda bajarilishini ta'minlovchi yuridik prinsiplar va normalar yig'indisini ifodalaydi.


2. Huquq tizimlari o'ziga xos tuzilmalarga ega: ikkita tizimda ham asosiy prinsiplar mavjud, ikki tizim ham soha va institutlarga bo'linadi, ikkita tizimning dastlabki elementi norma hisoblanadi.

Xalqaro huquq va milliy huquq o'rtasida turli farqlar va o'xshashliklar bo'lishiga qaramasdan, ikki huquq tizimi doimiy ravishda bir-birini taqozo qiladi, biri-biriga ta'sir qilib turadi. Bu masala xalqaro huquq doktrinasida o'zining nazariy asoslariga ega.

Dualistik nazariya (uning ko'zga ko'ringan vakillari — Tripsl, Ansilotti, Kamarovskiy) XIX asr oxirida paydo bo'lgan bo'lib, bu nazariyada xalqaro va davlat milliy huquqining o'ziga xos jihatlari inobatga olingan holda tartibga solish obyekti, huquqiy munosabatlar subyektlari tarkibi, yuridik normalarning paydo bo'lish manbalari jihatdan bu ikki tizim bir-biriga bo'ysunmasligi ta'kidlanadi. Dualizm tarafdorlari ikki huquqiy tizim o'rtasida hech qanday to'qnashuv kelib chiqmasligini, ular turli darajada tartibga solish bilan shug'ullanadi, har birining tartibga solish sohasi turlicha ekanligini bildirishadi.

Faqat vaqt o'tishi bilan ikki tizim o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi va usiz bu tizimlarning hech biri o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmasligi haqida fikrlar ilgari surila boshlandi. Bunday qayta yo'nalish olish "dialektik dualizm" deb ta'riflandi. U xalqaro huquqning ichki huquqdan ustunligini tan olgan holda, xalqaro huquq va davlat ichki huquqining uzviy bog'liqligini e'tirof etish bilan tavsiflanadi.

Dualistik nazariyadan farqli o'laroq, monistik konsepsiya (Lasson, Kaufman, Kelzen, Russo v. b.) ko'rilayotgan ikki tizimning birligini asoslaydi, ammo ularning biri ikkinchisidan ustuvorligini. Monistik yo'nalishlardan birining qarashiga ko'ra xalqaro huquq go'yo



milliy huquqiy tizimlarning davomi yoki yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi yoxud normalari faqat davlat ichki huquqiga u yoki bu tarzda kiritilgandagina yuridik kuchga ega bo'ladigan "davlat tashqi huquqi"ning davomi hisoblandi. Monistik nazariyaning boshqa yo'nalish vakillari esa, aksincha, xalqaro huquqni faqat ichki huquqning harakat doirasinigina emas. balki uning butun normativ qoidalari mazmunini ham belgilovchi yuqori huquqiy tizim sifatida tan olish tarafdorlaridir.

Xalqaro huquq va davlat ichki huquqi tizimlari o'rtasidagi munosabatlar sohasidagi hodisalarning aniq holatini ko'rib chiqish xronologik nuqtayi nazardan milliy huquqning xalqaro huquqqa ta'siri birlamchi ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Bu keyinchalik xalqaro huquq tarkibiga kirgan yuridik normalarning aksar qismi avval davlat ichki huquqi qoidalari sifatida shakllanganligi bilan izohlanadi. Xuddi shunday norma yaratish jarayonining amalga oshishi va huquqning ko'rib chiqilayotgan ikki tizimining o'zaro ta'siriga shaxs huquq va erkinliklarini tartibga solish sohasi misol bo'la oladi. Bu soha avvaldan turli mamlakatlarning qonunchiligida mustahkamlangandir.

Zamonaviy xalqaro huquqning ko'pgina asosiy prinsiplari ham shunga guvohlik beradi. Ular dastavval xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, davlat hududining yaxlitligi, chegaralarning buzilmasligi bo'yicha shartnoma majburiyatlarini va boshqa shartnomalarni sidqidildan bajarish prinsiplarini o'z ichiga olgan davlat ichki huquqiy tizimlari doirasida shakllangan va samarali amal qilgan. Xalqaro huquq tomonidan milliy huquqiy tizimlar doirasida paydo bo'ladigan va davlatlar faoliyatining turli maxsus sohalarini tartibga solishga qaratilgan: milliy tabiiy resurslar va boyliklar ustidan davlat ustunligining ajralmasligi, chegaralar o'rnatish va chegara tartibini qo'llab-quvvatlash, chegaraoldi hududlardan foydalanishni tartibga solish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va boshqa ishlarda xalqaro hamkorlik kabi normativ mazmundagi qoidalarni qabul qilish asosli ravishda ta'kidlanadi.

Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida ichki davlat huquqi eslatib o'tiladi. Amaldagi har bir shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi va ular tomonidan vijdonan bajarilishi kerak. Ishtirokchi shartnoma bajarmasligini oqlash uchun o'z ichki huquqi qoidalarini ko'rsatishi mumkin emas. Davlat uning roziligi haqiqiy emasligi asosida shartnoma u uchun majburiy ekanligiga roziligi ichki huquqining shartnoma tuzish vakolatiga doir u yoki bu qoidasini buzgan holda ifoda etilganligi holatini, agar ushbu qoidabuzarlik shubhasiz

va ichki huquqining alohida muhim ahamiyatdagi normasiga tegishli bo'lmasa, ko'rsatishga haqli emas.

Agar qoidabuzarlik ushbu masalada vijdonan va oddiy amaliyotga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi har qanday davlat uchun xolisona ayon bo'lsa, qoidabuzarlik shubhasiz hisoblanadi¹.

Xalqaro va milliy huquq manbalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular o'rtasida umumiylik va alohidalik mavjud. Xalqaro va milliy huquq manbalarining umumiylikni ularning tabiati, xarakteri va hatto nomlanishida ham ko'rish mumkin. Masalan, huquqiy shartnomalar, doktrina, odat va sud qarorlari. Xalqaro va milliy huquq manbaalarining alohidaligini ularning mazmuni, qabul qilinishida ko'rish mumkin. Xalqaro va milliy huquqni xarakterlaydigan yuqoridagi umumiylik va alohidalik boshqa xususiyatlar mavjudligini inkor etmaydi. Xalqaro va milliy huquqning o'ziga xos jihatlari turli sohalarda ularning institutlari va normalarning amaliyotda qo'llanishi, inson huquqlarini huquqiy himoya qilish bilan bog'liq masalalarda ko'rinadi².

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq

Ikkinchi Jahon urushiga qadar xalqaro huquq xalqaro ommaviy va xususiy huquq normalarini o'zida jamlagan. Shunga qaramasdan XX asrning boshlarida xalqaro xususiy huquqning sohalari va prinsiplari paydo bo'lish jarayonlari boshlangan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin xalqaro huquq ikki qismga ajraldi: xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq. "Xalqaro ommaviy huquq" atamasi BMT Xalqaro Sud Satutining 38-moddasida va 1946-yil 11-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining "Xalqaro huquqni rivojlantirish va uning kodifikatsiyasi to'g'risida"gi Rezolyutsiyasi bilan mustahkamlandi. Rezolyutsiyaning muqaddima qismida, xalqaro huquq va uning kodifikatsiyasi sohasida har tomonlama puxta tadqiqot olib borish va xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq shakllanishi va rivoji yo'lida rasmiy va norasmiy muassasalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozimligi ta'kidlangan edi.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro ommaviy huquq alohida huquqiy tizimni o'zida aks ettiradi. Xalqaro ommaviy va xususiy huquq normalari turli sohalarda xalqaro munosabatlarni ko'p tomonlama rivojlantirishning

¹ Венская конвенция о праве международных договоров (Вена, 23 мая 1969 г., присоединение РУз в соответствии с Постановлением ОМ РУз от 24 февраля 1995 года N 29-1, вступление в силу для РУз 11 августа 1995 года), статья 46 // Сборник международных договоров. Icx uz

² Марченко М.Н. Сравнительное правоведение. Общая часть. Учебник для юридических вузов. — М.: Издательство "Зерцало", 2001. — С.220–221.

huquqiy shartlarini belgilashga qaratilgan. Xalqaro xususiy huquq xalqaro xarakter kasb etuvchi xususiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qamrab oladi.

Xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi farqlarni quyidagi asoslar bo'yicha aniqlash mumkin:

1) **ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning mazmuni** bo'yicha xalqaro ommaviy huquq tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar xalqaro davlatlararo xarakter kasb etadi. Xalqaro ommaviy huquqni ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyati – suverenitet hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquq 'nosiyosiy' sohalarda jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi;

2) **munosabatlar subyektlari bo'yicha** – xalqaro ommaviy huquqning asosiy subyektlari davlat hisoblansa, xalqaro xususiy huquqning subyektlari sifatida jismoniy va yuridik shaxslar chiqadi;

3) **manbalari bo'yicha** – xalqaro ommaviy huquq manbalari xalqaro shartnomalar, xalqaro-huquqiy odatlar, xalqaro tashkilotlar hujjatlari va xalqaro konferensiyalar hujjatlari hisoblansa, xalqaro xususiy huquq manbalariga har bir davlatning qonunchiligi, xalqaro shartnomalar, xalqaro-huquqiy odatlar va sud pretsedentlari kiradi;

4) **xalqaro xususiy huquq tarkibini ikki shakldagi normalar tashkil qiladi:** moddiy-huquqiy (bevosita huquq va majburiyatlarni belgilovchi) va kollizion (aniq bir davlatning milliy huquqiga havola qiluvchi);

5) **nizolarni ko'rib chiqish tartibi** – xalqaro ommaviy huquqda nizolar yo davlatlar miqyosida (davlatlararo nizolar) yoki inson huquqlari himoyasi bo'yicha ixtisoslashgan organlarda (inson huquqlari sohasida huquqbuzarlikka doir nizolar) ko'rib chiqiladi;

6) xalqaro xususiy huquqning xalqaro ommaviy huquq va milliy-huquqiy tizimdan ajralib turuvchi xususiyati shundan iboratki, uning huquqiy tizimi mavjud emas.

Xalqaro xususiy huquq atamasidagi "xalqaro" so'zini shu ma'noda tushunish zarurki, xorijiy elementga ega aniq bir fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish – bir davlat huquq tartiboti doirasidan chiqishni va berilgan hodisaga boshqa davlatlar huquqlarining qo'shilishini talab etadi. Boshqacha aytganda, bu holda bir necha davlat huquq tartiboti o'zaro munosabatda bo'ladi, bir necha davlatlar bilan munosabatlar vujudga keladi, shuning uchun ham bunday fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish xalqaro tus oiadi.

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq, ayniqsa, iqtisodiy aloqalarni huquqiy tartibga solishda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Aytilganlarni quyidagi misol bilan tushuntirish mumkin. Ikki davlat o'zaro savdo shartnomasi tuzadi va unda bu davlatlarning savdo munosabatlarini tartibga solish prinsiplari belgilanadi. Mazkur shartnoma qoidalari bilan bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni savdo masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlar tartibga solinadi. Boshqacha aytganda, bunday davlatlar o'rtasidagi munosabatlar shu savdo shartnomasidagi xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ko'rsatilgan shartnoma asosida bir davlatning yuridik va jismoniy shaxslari ikkinchi davlatning yuridik va jismoniy shaxslari bilan savdo bitimlari tuzadi hamda ularning bu bitimlar bo'yicha munosabatlari xalqaro xususiy huquq orqali tartibga solinadi.

Shuningdek xalqaro ommaviy huquq va qiyosiy huquqshunoslik to'g'risida to'xtalish lozim. Qiyosiy huquqshunoslik va xalqaro ommaviy huquq alohida fan sifatida o'ziga xos umumiylikka ega. Agar qiyosiy huquqshunoslik turli huquqiy tizimlarni taqqoslasa, xalqaro ommaviy huquq xalqaro huquq subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, ularning har biri milliy huquqiy tizimlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ikki yuridik fan mavjud ko'pgina milliy huquqiy tizimlarga asoslanadi. Ikki fan o'rtasida keng, o'zaro aloqa mavjud bo'lib, ular doimiy ravishda bir-biriga ta'sir qilib turadi¹.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro huquq bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
3. Xalqaro hamjamiyat deganda nima tushuniladi? Qanday tuzilmalar xalqaro hamjamiyat subyektlari hisoblanadi?
4. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
8. Xalqaro huquq va diplomatiya (tashqi aloqalar huquqi) o'rtasida qanday aloqa mavjud?
9. Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
12. Xalqaro ommaviy huquqning qaysi sohalarini yangi paydo bo'lgan sohalar hisoblanadi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

¹ Саидов А.Х. Взаимодействие международного права и сравнительного правосъдения: вопросы теории и практики. Журнал "Юрист-международник" - 2006. -№ 4.

2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи / Халқ сўзи. – 2010. –21 сентябрь.

4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза// 2010 йил 12 ноябрь – Т.: Ўзбекистон, 2010.

5. Биринчи Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи. –2015. –24 январь. –№ 16 (6199).

6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha brifingda so'zlagan nutqi// 2016-yil 30-iyun. <http://press-service.uz/uz/news/5291/>

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2014.

8. 2012-yil 10-sentabrdagi O'RBQ – 330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – № 9/1 (1437).

9. BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>

10. Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – Т., 2002.

11. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari// Darslik. – Т.: Adolat, 2006.

12. Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. Cambridge University Press. – New York, 2008.

II BOB. XALQARO HUQUQ NORMALARI VA MANBALARI

Xalqaro huquq normalari. Xalqaro huquq manbaalari tushunchasi. Xalqaro odatlar. Xalqaro shartnomalar. Madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari. Sud qarorlari. Xalqaro-huquqiy ta'limot (doktrina).

Xalqaro huquq normalari

Huquq sohasida shakl alohida ahamiyatga ega. Qadimgi Rimda shunday deyilardi: forma legalis forma essentialis (yuridik shakl muhim). Agarda xalqaro huquqni uning tartibga solayotgan munosabatlari bilan o'zaro aloqasini ko'radigan bo'lsak, unda u davlatlararo munosabatlarning yuridik shakli sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zining nisbatan mustaqilligi (o'ziga xosligini) imkoniyatidan kelib chiqib ushbu shakl davlatlararo munosabatlarga tartibga soluvchi ta'sirni ko'rsatadi¹.

Xalqaro huquq normasi – bu subyektlarning kelishuvi asosida yaratilgan, ular uchun huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi rasmiy qat'iy qoida bo'lib, uni amalga oshirish yuridik mexanizm bilan ta'minlanadi.

Norma so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda qoida, yetakchi, asosiy qonun, namuna degan ma'nolarni bildiradi. Norma xalqaro huquq binosini qurish uchun ishlatiladigan g'isht bo'lib xizmat qiladi. Uning alohida jihati huquqiy tizim elementlari ekanligi bilan belgilanadi. Xalqaro huquq normasi deganda davlatlar, boshqa xalqaro huquqning subyektlari tomonidan yuridik jihatdan muqarrar sifatda tan olingan axloq (yurish-turish) qoidalari tushuniladi. Xalqaro huquq normalarini, masalan, xalqaro huquq subyektlarining o'zaro munosabatlari davomida ham rioya etiladigan odatlardan farqlash lozim. Agar xalqaro huquqiy normalar – bu yuridik jihatdan majburiy bo'lgan qoidalar bo'lsa, odatlar yuridik majburlikdan mahrum bo'lganidir. Xalqaro huquqiy normani buzish xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi, odat normalarini buzish esa bunday javobgarlikni keltirmaydi.

¹ Лукашук И. И. Международное право. Общая часть. Учебник для студентов юридических факультетов и вузов. – Изд. 3-е, перераб. и доп. – М.: Волтерс Клаувер, 2005. – С. 25.

Xalqaro huquq normalarining maznuni davlatlar. boshqa xalqaro huquqning subyektlarining huquq va majburiyatlarini tashkil qiladi. O'zaro munosabatlarga kirishgan xalqaro huquqning subyektlari o'z huquqlarini amalga oshiradilar hamda xalqaro huquqiy normalarda o'atilgan majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

Xalqaro huquqiy norma mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda xalqaro huquq subyektlari o'zlarining xatti-harakatlari va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining munosib harakatlari haqida o'ylab ko'radilar. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy normalar xalqaro munosbatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga soladi, ya'ni subyektlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi rolni bajaradi. Xalqaro munosabatlar tartibga solingan xalqaro-huquqiy normalar bilan birgalikda xalqaro-huquqiy xarakterga ega bo'ladi. Xalqaro huquq subyektlari u yoki bu xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish bilan birga ular o'zlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshiradilar.

Shu bilan birga, quyidagi jihat e'tiborga molik: shakllanayotgan butundunyo huquqiy kompleksining tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro huquq davlatlarning huquqiy tizimlarini, ya'ni davlatning ichki, milliy huquqiy tizimlarini o'z ichiga oladi. Bunda shunday nuqtayi nazar ta'kidlanadiki, xalqaro huquqning ma'lum bir normalarining o'zaro muvofiqlashuv va munosabatlar doirasida tartibga solishdagi ishtiroki, albatta, davlatning huquqiy tizimi sohasida ham bevosita qo'llaniladi¹.

Mazkur masala shundan dalolat beradiki, xalqaro huquq normalarining nafaqat davlatlararo munosabatlar qoidalari sifatida tavsiflanadi, balki ularning o'z yurisdiksiyalari doirasidagi o'zaro kelishuv asosida qabul qilgan eng maqbul harakatlar qoidalari sifatida, shuningdek davlatlarning umumiy manfaatleri asosida boshqa subyektlarning maqomi va faoliyatiga taalluqli qoidalar sifatida tavsiflanadi.

Xalqaro huquq normalari – bu davlatlar va boshqa subyektlarning faoliyati va o'zaro munosabatlarining umumijamoiy qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyati va tizimi uning tuzilishiga bog'liq, ko'pgina normalar faqat dispozitsiyadan iborat, sanksiyalar esa tizim asosida belgilanadi. Konkret sanksiya normalari qonun buzilish holatlarida alohida shartnomalarda mustahkamlanadi.

¹ Международное право. Учебник для вузов. Ответственные редакторы — проф. Г. В. Игнатенко и проф. О. И. Тиунов. — М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА. — М., 1999. — С. 10

Malcolm D.Evans fikriga ko'ra, an'anaviy xalqaro huquqqa asosan ikki turdagi xalqaro huquqiy manbalar mavjud. Bular xalqaro huquqning moddiy va rasmiy manbalaridir. Moddiy manba qoidalar aks etadigan hujjat hisoblanadi. Bularga shartnomalar, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari, Birlashgan Millatlar Xalqaro huquq komissiyasining takliflari va boshqa shu kabi hujjatlar kiritilishi mumkin.

Xalqaro huquqning rasmiy manbasi esa davlatlar tomonidan huquqiy norma sifatida tan olingan qoidalar hisoblanadi. Xususan, Xalqaro Sud Statutining 38-moddasida aks etgan manbalar rasmiy manbalarga misol bo'la oladi¹.

Xalqaro huquq normalari, avvalo, xalqaro huquq subyektlarining roziligi bilan yaratiladi. Rozilikni izhor etish shakli huquqni yaratish jarayoni kabi turlicha bo'lishi mumkin. Rozilik berish tinch kelishuv tarzida bo'lishi mumkin.

Xalqaro-huquqiy normalar o'zining mazmun va shakliga ko'ra bir xil emas. Ularni quyidagicha asoslarga muvofiq tasniflash mumkin:

1. Yuridik kuchi bo'yicha:

– **imperativ (jus cogens)** aniq, tushunarli axloq (yurish-turish) chegaralari (me'yor) ni o'rnatadi. 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 58-moddasiga muvofiq norma jus cogens (umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi) deb davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan va tan olingan umumiy xalqaro huquq normasi bo'lib, undan og'ishga yo'l qo'yilmaydi, u faqatgina ushbu mazmundagi umumiy xalqaro huquq normasi bilan o'zgartirilishi mumkin. Jus cogens normasining boshqa turdagi imperativ xarakterdagi normalardan farqi shundan iboratki, jus cogens normasini har qanday tarzda rad etish davlatlarning sa'y-harakatlarini ahamiyatsiz qilib qo'yadi. Jus cogens normalari xalqaro aloqalarning har qanday sohasida qo'llanilishi va ularga rioya etilishi zarurdir. Jus cogens normalari umumiy xalqaro huquqning normalari va ularning asosiy prinsiplari hisoblanadi;

– **dispozitiv normalar**, davlatlar o'zaro kelishuv asosida ulardan voz kechishi mumkin, agarda ushbu chekinish boshqa davlatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa.

2. Amal qilish doirasi bo'yicha:

– **universal normalar**, barcha davlatlar yoxud dunyodagi ko'pchilik davlatlar ishtirokidagi munosabatlarni belgilaydi. Misol uchun, BMTning Nizomi, 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi;

¹ The Sources of International Law, Hugh Thirlway. International Law. Malcolm D.Evans. -Oxford University Press, 2003. – p.118-119.

– **mintaqaviy** normalar, bitta geografik jihatdan joylashgan hududlardagi davlatlar ishtirokidagi munosabatlarni belgilaydi. Misol tariqasida, ushbu normalarga 1992-yildagi Yevropa kengashi to'g'risidagi shartnoma taalluqlidir. Mintaqaviy normalar tarixan ilgari universal tarzda namoyon bo'lgan va ilgari normalar negizida ularning tajribasi asosida yangilari yaratilgan. Endilikda ushbu jarayon yana ham davom etmoqda. Shu bilan birga, universal normalar mintaqaviy tizim rivojiga ko'maklashadi, ularga boy tajribani yetkazib beradi; lokal normalar xalqaro huquqning ikki yoki bir nechta subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

3. Ta'sir qilish tavsifiga ko'ra:

- taqiqlovchi;
- ruxsat beruvchi;
- vakolat beruvchi.

4. Tizimdagi funksiyasi bo'yicha: moddiy va protsessual: protsessual norma xalqaro huquqni yaratish va amalga oshirish jarayonlarini tartibga soladi.

5. Manbasiga ko'ra:

- oddiy;
- shartnomaviy;
- xalqaro tashkilotlarning qarorlari normasi.

Shuningdek, **havolaki** normalar ham mavjud, ular boshqa normalarda qayd etilgan qoidalarga murojaat etishni talab qiladi. Turli xildagi bir nechta normalar hisoblangan tashkiliy normalar ham ajratilgan. Ularning vazifasi xalqaro organlar va tashkilotlar faoliyatini tartibga solib turadi.

Shuningdek xalqaro huquq normalarining bir qancha tasnifi mavjud.

Mavjud buyruqlarning tavsifi bo'yicha:

- prinsiplar;
- ajrimlar;
- huquqqa egalik;
- majburiyatlar;
- taqiqlar.

Xalqaro-huquqiy tartibga solish mexanizmidagi roli bo'yicha:

- tartibga soluvchi;
- muhofazalovchi.

Axloq qoidalarining mazmuni bo'yicha:

- moddiy;
- protsessual.

Amal qilish doirasi bo'yicha:

- universal;
- mintaqaviy;
- mahalliy.

Amal qilish vaqti bo'yicha:

- muddatli;
- muddatsiz.

Xalqaro huquq manbalari tushunchasi

Normalarni amal qilishi bevosita emas, balki ular ma'lum bir manbalarda mustahkamlangandagina amalga oshiriladi. Xuddi shu manbaalar orqali huquq normalari subyektlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi, ushbu xatti-harakatlarga yuridik ahamiyatga ega xususiyat beradi. Xalqaro huquq normalari har doim ma'lum bir huquqiy manbada aks ettirilgan shaklda namoyon bo'ladi.

Xalqaro huquq manbalarini xalqaro-huquqiy normaning ifodasi shakli sifatida hisoblash odat tusiga kirgan.

Xalqaro huquq normalari ikkita ma'noda tushuniladi: moddiy (jamiyat hayotining moddiy sharoiti) va rasmiy (huquq normasining ifodalanganlik shakli). Ular davlatlar tomonidan tan olingan biron bir davlatning erkini, istak-xohishini muvofiqlashtirish natijasining namoyen qilish shakli, shuningdek xalqaro-huquqiy normalarni qayd qilish shakli hisoblanadi. Xalqaro huquqda barcha manbalar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: **asosiy** va **yordamchi**. Xalqaro huquqda aniq o'rnatilgan manbalari ro'yxati mavjud emas. Xalqaro huquqning asosiy manbalari bo'lib xalqaro shartnomalar va odatlar hisoblanadi.

Ayrim olimlar xalqaro huquqning manbalari ro'yxatiga BMT ning Xalqaro sudi Nizomining 38-moddasini kiritadi, unda qayd etilishicha:

“O'ziga biriktirilgan nizoli ishlarni xalqaro huquq normalari asosida hal qilish majburiyatiga ega bo'lgan sud quyidagilarni qo'llaydi:

a) nizolashuvchi davlatlar tomonidan ma'lum jihatdan tan olingan, qoidalarni o'rnatuvchi, umumiy va maxsus xalqaro konvensiyalar;

b) umumiy tajribaning isboti sifatida huquqiy norma sifatida tan olingan xalqaro odat normalari;

d) madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy prinsiplari;

e) huquqiy normalarni belgilash uchun yordamchi vosita sifatida sud qarorlari va malakali mutaxassislarning turli millatlarning ommaviy huquqqa oid ta'limoti (doktrina) va 59-moddada qayd etilgan izoh".

Mavjud normalarni izohlashda xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining roli beqiyos.

Umumiy xalqaro konvensiyalar deb barcha davlatlar ishtirok etadigan yoxud ishtirok etayotgan hamda barcha xalqaro hamjamiyat uchun umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan normalarni o'zida aks ettirgan shartnomalar, ya'ni umumiy xalqaro huquq normalari tushuniladi. Maxsuslariga esa ma'lum bir cheklangan ishtirokchi davlatlar ishtirok etgan shartnomalar tushuniladi.

Xalqaro odatlar xalqaro huquq normalarini tashkil etib, u shunday yurish-turish qoidasiki, unda xalqaro huquq subyektlarining har doim takrorlanuvchi bir turdagi o'xshash xatti-harakatlarining mahsuli sifatida namoyon bo'lib, huquqiy norma sifatida tan olinadi.

Takrorlanuvchi bir turdagi o'xshash xatti-harakatlar ularni takomillashuvini bildiradi. Lekin qaysi davrda odat normalarini shakllantirish zarurligini xalqaro huquq belgilamaydi. Hozirgi aloqa va transport vositalari orqali davlatlar bir-birlarining xatti-harakatlaridan darhol xabardor bo'lishlari mumkin. Albatta, ularga munosabat bildirgan holda u yoki bu harakat shaklini amalga oshiradilar. Bu esa vaqt omili hozirda oldingiday odatlarni vujudga kelish jarayonida hech qanday muhim ahamiyat kasb etmasligiga olib keldi.

Davlatlarning kelishilgan ifodasi bo'lmish **xalqaro tashkilotlarning qarorlari** odatlarni tashkil topishning tayanch fursati bo'lishi mumkin.

Yurish-turish qoidalarining vujudga kelishi bilan odatlarni tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetmaydi. Faqatgina davlatlarning huquqiy norma sifatida ularni tan olishi davlatlarning u yoki bu harakatlari odat tusiga aylanib qoladi.

Odat normalari shartnomalar kabi shunday yuridik kuchga ega bo'ladi. Yurish-turish qoidalarini odat sifatida baholash murakkab masala hisoblanadi. Shartnomalardan farqli o'laroq odatlar qandaydir bir yagona aktlarda yozma shaklda rasmiylashtirilmaydi. Shuning uchun odatlarni mavjudligini belgilash uchun yordamchi vositalar, ya'ni sud qarorlari, doktrinalar, xalqaro tashkilotlar qarorlari, bir tomonlama aktlar va davlatlarning xatti-harakatlari asosida o'rnatiladi.

Yordamchi vosita hisoblangan **sud qarorlariga** BMT Xalqaro sudi, boshqa xalqaro arbitraj va sud organlarining qarorlari kiradi. BMT Xalqaro sudi va boshqa xalqaro sud organlariga nizoli ishlar bilan murojaat

qilinganda davlatlar ko'pincha nizolashayotgan taraflar uchun majburiy bo'lgan odat normalarining mavjudligini belgib berishni so'rashadi.

BMT Xalqaro sudi o'zining amaliyoti davomida odatlarning mavjudligini tasdiqlash bilan cheklanmay balki ularga ma'lum darajada aniq ifoda (ta'rif) bergan. Misol tariqasida BMT Xalqaro sudining 1951-yildagi baliqchilik to'g'risidagi ingliz-norvegiya nizosi haqidagi qarorini keltirish mumkin, jumladan, odat normalarini aniqlashda qirg'oqbo'yi davlatlar o'zlarining hududiy suv havzasining oxirgi chegrasi sifatida ularni aniqlash uchun to'g'ri chiziqni ham qo'llash mumkinligi bayon etilgan.

Xalqaro odatlar

Xalqaro odatlar shartnomalar kabi xalqaro huquqning manbasi ham hisoblanadi. 1969-yilgi "Xalqaro shartnomalar huquqi" deb nomlangan Vena konvensiyasi shuni qayd etadiki, xalqaro odat normalari xalqaro munosabatlarning muhim masalarini oldingiday hal qiladi.

Odatlar xalqaro huquqiy munosabatlar subyektlarining yetarli darajadagi uzoq muddatli takrorlanuvchi harakatlari davomida yuzaga keladi. Misol tariqasida, davlat suverenitetining yuqori chegarasini hamda davlat hududining yer sathida 100 km yuqoridagi chegarasini aniqlashda; kosmik kemalarning uchish va qo'nishida moneliksiz o'zga davlatlarning havo havzasi orqali uchib o'tishi va boshqalarni keltirish mumkin. Odat normalarining ko'pchiligi davlatlar va hukumatlarning tan olish va huquqiy vorislik, xalqaro iqtisodiy huquq kabi institutlarini o'z ichiga olsa, gumanitar huquq esa harbiy mojarolar davrida ko'pincha "urush qonunlari va odatlari" nomini oladi.

Boshqa xalqaro-huquqiy normalar kabi xalqaro huquqning odat normalari ikkita bosqichda paydo bo'ladi:

- 1) yurish-turish qoidalarini kelishib olish;
- 2) kelishilgan yurish-turish qoidalariga xalqaro-huquqiy normaning yuridik kuchini berish.

U yoki bu qoidani odat normasi sifatida qabul qilish xalqaro huquq subyektlariga bog'liq tarzda bo'ladi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'ladi (davlat organlarining yuridik ahamiyatga ega harakatlari, qonunchilik va sud organlarining rasmiy bayonoti, yozishmalari, qarorlari).

Shuningdek, yurish-turish qoidalarini odat normasi sifatida tan olinishi faol harakatlar orqali yoxud ushbu harakatdan o'zini tiyish orqali ham

amalgaga oshirilishi mumkin. Biron davlatning xalqaro huquqning boshqa bir subyektining xatti-harakatlariga nisbatan qarshilik bildirmasligi ushbu harakatning qonuniyligini tan olganligidan dalolat beradi.

GFR bilan Daniyaning va GFR bilan Niderlandiyaning 1969-yildagi Shimoliy dengizning kontinental shelfi bo'yicha nizoli ishida BMT Xalqaro sudi odat huquq normasini shakllantirishning ikki xil shartini belgiladi. Sudning fikricha, "tegishli xatti-harakatlar mavjud amaliyotni tashkil qilishi, lekin ushbu harakatlar shunday amalgaga oshirilishi kerakki, unda mazkur amaliyot huquq normasining mavjudligi bo'yicha umumijamiiy tarzda bo'lishi lozim. Ushbu qat'iy ishonchning muhimligi, ya'ni subyektiv elementning opinio juris sive necessitates tushunchasi bilan o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Davlatlar o'zlarining xatti-harakatlarini yuridik jihatdan mavjud majburiyatlarga mosligini fahmlashlarini (tushunishlarini) his qilishlari lozim".

Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari ham ma'lum bir sharoitlarda odat normasi sifatida chiqishlari mumkin. Jumladan, Nogironlarni teng miqyosdagi imkoniyatlar bilan ta'minlashning standart qoidalarning 14-bandida (BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-dekabrda rezolyutsiyasi)ga muvofiq: "Garchi ushbu qoida majburiy bo'lmasa ham, agarda xalqaro huquq normalariga rioya etish xohish-istagini bildirayotgan ko'pgina davlatlar tomonidan ushbu qoida qo'llanilsa, xalqaro odat huquqining normasi bo'lishi mumkin".

1998-yilgi Vengriya va Slovakiya o'rtasidagi Dunay daryosi dambasi bo'yicha vujudga kelgan nizoli ishda BMT Xalqaro sudi shuni tasdiqladiki, unda umumiy tarzda shartnomani izohlash va ijro qilish maqsadida shartnomani qonuniy kuchga kirish sanasidagi mavjud odat huquqini Sud tan oldi, ammo shartnomaga muvofiq tegishli maqsadlarga erishish uchun ham boshqa odat normalari ko'rsatilgan sanadan keyin rivojlanish oqibaidi ham qo'llanilishi nazarda tutilgan edi.

Xalqaro-huquqiy odatdan yuridik majburiy sifatga ega bo'lmagan xalqaro huquqiy munosabat subyektlarining oddiy – yurish-turish qoidalari ajratish lozim bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, odatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro huquq normasi sifatida tan olinmaydi. Shuning uchun odatlarga rioya etilmaslik xalqaro huquq subyektlari tomonidan oddiy bir huquqbuzarlik deb faqatgina nodo'stona hujjat sifatida qaraladi. Misol tariqasida, qoidaga ko'ra yana qaytadan kelgan chet el elchisini aeroport yoxud vokzalda Tashqi ishlar vazirligining protokol xizmatining rahbari kutib oladi.

Garchand odat asosiy manbaa bo'lib qolsa ham, zamonaviy xalqaro huquqning ildam rivojlanishida shartnomaviy masalalar muhim hisoblanadi.

Xalqaro shartnomalar

Shartnoma – subyektlar o'rtasida yuridik jihatdan bajarilishi shart bo'lgan normalarni yaratish haqidagi ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydigan o'zaro kelishuvning oshkora ifodasidir.

Xalqaro sud Nizomining 38-moddasiga muvofiq xalqaro huquqning manbalari ta'kidlab o'tilganda birinchi o'ringa "nizolashayotgan davlatlar tomonidan aniq tan olingan, qoidalarni o'ratuvchi, umumiy hamda maxsus yo'sindagi xalqaro konvensiyalar" qo'yilgan. "Xalqaro konvensiyalar" atamasi bunda xalqaro shartnomalarni anglatadi. 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasiga muvofiq "shartnoma" davlatlar o'rtasida yozma shaklda tuzilgan va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan, bunday kelishuv bitta hujjatda yoxud bir nechtasida o'z ifodasini topganligidan, shuningdek uning nomlanishidan qat'i nazar, xalqaro kelishuv ma'nosini anglatadi (2-m.). Hozirgi zamon xalqaro huquqida uning manbasi hisoblangan xalqaro shartnomalarning roli oshmoqda.

Xalqaro shartnoma – bu davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yozma shaklda tuzilgan, bunday kelishuv bitta, ikkita hujjatda yoxud bir nechtasida o'z ifodasini topganligidan, shuningdek uning aniq nomlanishidan qat'i nazar, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan kelishuv hisoblanadi¹.

Garchi unda og'zaki shakldagi shartnoma haqida biron-bir so'z deyilmagan bo'lsa-da, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'zaro rozilik asosida Vena konvensiyasining 1969-yilgi va 1986-yillardagi qoidalarini og'zaki kelishuvlarga nisbatan ham joriy qilishlari mumkin.

Xalqaro shartnomaning tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunida aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – respublikaning bir yoki bir necha

¹Xalqaro shartnomalar tuzilishidagi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq (1969 й. Vena konvensiyasi) va 1986 йилги Davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar ekin xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquki tuzilishidagi Vena konvensiyasi.

davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir¹.

Hozirgi paytda xalqaro shartnomalar normalari ma'lum sabablar bois xalqaro huquqda asosiy o'rinda turadi, jumladan:

1) odat normalarini yaratish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ba'zan ularni aniq mohiyatini o'rnatishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Shartnomaviy normani yaratish jarayoni uncha uzoq davom etmaydi hamda xalqaro huquq subyektlarining erkleri ma'noli xususiyatga ega;

2) shartnomalarni tuzish va ijro etish jarayoni batafsil belgilangan va ishlab chiqilgan (Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi va 1986-yillardagi Vena konvensiyasi);

3) shartnomaviy shakl subyektlarning erklarini ifodalanishiga yanada imkoniyatlarni yaratadi.

Ushbu va boshqa sabablar xalqaro-huquqiy normalarni yaratishning shartnomaviy jarayonini juda keng miqyosda qo'llanilishini yuzaga keltiradi. Xalqaro huquq subyektlari xalqaro munosabatlarda shartnomalarning muhim rolini inobatga olishadi hamda ularning xalqaro huquq manbasi sifatida yuksak ahamiyatini va davlatlar o'rtasidagi tinchlik yo'lidagi hamkorligini tan olishadi.

Shartnomalarning umumijburiyligiga rozilik bildirish shartnomalarni imzolash yo'li bilan amalga oshiriladi, agarda:

- a) shartnomani imzolash shunday kuchga ega bo'lishini nazarda tutsa;
- b) muzokaralarda ishtirok etuvchi davlatlarning boshqacha tarzda o'rnatilgan kelishuvi imzolanganligi shunday ahamiyat kasb etsa;
- d) davlatlarning imzolash jarayoniga shunday ahamiyat berish niyati ularning vakillarining vakolatlari orqali yuzaga kelishi yoki muzokoralar paytida qayd etilgan bo'lsa.

Xalqaro shartnomalarning muhimligi shundan dalolat beradiki, xalqaro huquqda alohida bir soha – xalqaro shartnomalar huquqi mavjud.

Madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari

“Madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari” kategoriyasi xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lgan turli davlatlar huquqlarining bir xillashtirish va uyg'unlashtirishni ta'minlovchi muhim vositasi hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикасининг 22.12.1995 й. N172-I “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларни тўғрисида”ги Қонушнинг 3-моддаси.

Xalqaro sud Nizomining 38-moddasi 1-bandining “s” kichik bandiga muvofiq “Sud o‘ziga berilgan nizoli ishni xalqaro huquq asosida hal qilishda “millatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari”ni qo‘llaydi”.

Huquqning umumiy prinsiplari deb nimaga aytilishi haqidagi tushunchani belgilovchi u yoki bu xalqaro-huquqiy aktlar mavjud emas.

Shu asnoda xalqaro-huquqiy adabiyotlarda huquqning umumiy prinsiplarining huquqiy tabiati haqida bir nechta nuqtayi nazar yuzaga keldi. Bir guruh olimlar huquqning umumiy prinsipi deb xalqaro huquqning umume’tirof etilgan asosiy prinsiplari deb hisoblaydilar. Boshqa bir olimlar esa buni inkor etib, huquqning umumiy prinsiplari deb xalqaro huquqning asosiy manbalarida, shartnomalarda, odat normalarida aks ettirilganlari hisoblanadi, “umumiy prinsiplar” ko‘pgina davlatlarda o‘zlarining milliy huquqiy tizimlarida yuridik asosiy qonunlar deb tushuniladi.

Ushbu masalaga oid turli xil fikrlar mavjud. Umumiy tarzda tushunish tarafdorlari ushbu tushuncha tabiiy huquq va adolatlilikning umumiy prinsiplarini qamrab oluvchi xalqaro huquqning alohida manbasi jihatini qamrab oladi deb hisoblaydilar. Ushbu nuqtayi nazar xalqaro huquqning tabiatiga zid keladi hamda amaliyotda qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Ularga qarshi fikrlovchi tarafdorlar esa umumiy prinsip tushunchasi deb xalqaro huquqning asosiy prinsipi hisoblanishini ta’kidlaydi. Biroq huquqning umumiy prinsip tushunchasi xalqaro huquqning asosiy prinsipi tushunchasini tan olinishidan oldin paydo bo‘lgan. Shu asnoda umumiy prinsip deb milliy huquqiy tizimi uchun joriy etilgan umumiy prinsip tushuniladi. Bunda normalarni xohlagan huquqiy tizimda qo‘llanilish qonuni aks ettirilishi haqida fikr ilgari suriladi. Xalqaro huquq uchun ushbu prinsiplar protsessual huquqning rivojlanmaganlik imkoniyati juda muhimdir. Prinsipning xalqaro huquq tizimiga kiritilishi uchun uning milliy huquqiy tizimlar uchun umumiy bo‘lishi yetarli emas, balki u mazkur tizimlarda joriy etilishi uchun yaroqliligi muhimdir.

BMT ning Xalqaro sudi biron marta ham xalqaro huquqning umumiy prinsiplari bo‘yicha o‘z qarorlarini asoslantirmagan. Ushbu prinsiplar ularning huquqning umumiy prinsiplari ekanligi haqida ta’kidlanmasdan qo‘llanilib kelingan. Bular halollik, huquqni suiiste’mol qilmaslik, huquqbuzilishlar uchun javobgarlik. Aksariyat protsessual prinsiplar qo‘llanilmoqda (misol uchun, hech kim o‘ziga taalluqli ishda sudya bo‘lishi mumkin emas, nizoda taraflarning tengligi, maxsus qonunlarning ustvorligi v.b.).

Umumiy prinsipning amal qilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Xalqaro miqyosda uni qo'llanilishining asosiy sohasi inson huquqlari hisoblanadi. Xususan, ushbu prinsiplar inson huquqlari va jinoiy tribunallar bo'yicha sudlar tomonidan qo'llaniladi. Shu bilan birga, ushbu prinsiplarning qo'llanilish spetsifikasini inobatga olish darkor.

Sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro tribunal ayblanuvchining Tribunal yurisdiksiyasiga qarshi asosli e'tirozini ko'rib chiqdi. Ayblanuvchi yuqorda qayd etilgan konvensiya bilan mustahkamlangan umumiy prinsipga murojaat qilgan va sud vaqat qonuniy yo'l bilan tashkil etilishini bayon qilgan. Tribunal faqat ijroiya organ qarori bilan (Xavfsizlik kengashi) tuzilgan edi. Tribunal o'zining 1995-yil 2-oktabrdagi qarorida ushbu e'tirozni asosli emas, deb topib, uni xalqaro sudga nisbatan tatbiq etilmasligini bayon qilgan. Bunda Tribunal BMT da hokimiyatlar bo'linish prinsipi mavjud emasligi, xalqaro munosabatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat mavjud emasligi kabi faktlarga tayandi. Binobarin, "tribunalni qonun bilan tuzish degan talab xalqaro-huquqiy sohada qo'llanilmaydi. Ushbu prinsip faqat davlatga uning ichki milliy qonunchilik tizimi uchun majburiyat yuklaydi"¹.

Sud qarorlari

Yordamchi vosita sifatidagi sud qarorlariga BMT ning Xalqaro sudi va boshqa xalqaro sud va arbitraj sud qarorlari taalluqli hisoblanadi.

Sud qarorlari Xalqaro sud Nizomining 38-moddasiga muvofiq ushbu Nizomning 59-moddasida mustahkamlangan qoidalarga rioya etilgan holda huquqiy normalarni o'rnatish uchun yordamchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Unda qayd etilishicha: "Sudning qarorlari faqatgina unda ishtirok etuvchi taraflarga va aynan shu ishga taalluqli hamda majburiy hisoblanadi".

Ayrim hollarda sud qarorlari xalqaro huquqning odat normalarini shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro sudning qarorlariga ko'pincha xalqaro huquqning odat normalarining mavjudligini isbotlash uchun murojaat qilinadi. Xalqaro sudning qarorlarining takomillashuvi uning xalqaro huquq rivojiga innovatsion tarzdagi ta'siri bilan izohlash mumkin.

Buyuk Britaniya va Norvegiya o'rtasidagi nizoli masala bo'yicha qarorda (1951) sud ayrim to'g'ri aniq chegaralar bo'yicha muhim yuridik

¹Criminal Law Forum, -1996. -№ 1. -P.74-76.

qoidalarni izohladi. Ushbu qoidalarni BMT ning xalqaro huquq Komissiyasi keyinchalik qabul qildi, bu Komissiyaning faoliyati to'risidagi Dokladda (1956) o'z aksini topdi. Keyinchalik ushbu qoidalar xalqaro shartnomada, aynan 1958-yildagi Hududiy dengiz va tutash mintaqa to'g'risidagi Jeneva konvensiyasida o'z aksini topdi.

Sud qarorlari, albatta, nizoli ish ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi. Xalqaro sud Nizomining 59-moddasining ushbu normasi BMT Nizomining 94-moddasida belgilangan normaga juda yaqin turadi, unga ko'ra BMT ning har bir a'zosi Sudning qarorlarini aynan shu ishda ishtirokchi bo'lsa, so'zsiz bajarishi lozim. Bir tomonning Sud qarorini bajarmasligi BMT ning Xavfsizlik kengashi ikkinchi tarafning iltimosiga ko'ra tavsiya berishi yoxud qarorni ijro etish chorasini ko'rish mumkin.

Milliy sudlarning qarorlari hattoki ularda xalqaro huquqning shartnomaviy yoki odat normalari qo'llanilgan bo'lsa, Xalqaro sud tomonidan xalqaro huquqning manbasi sifatida tasniflanmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqaro huquqning manbasi nafaqat BMT Xalqaro sudining qarorlari, balki mintaqaviy va boshqa xalqaro sudlarning qarorlari ham bo'lishi mumkin (masalan, BMTning Xalqaro jinoiy sudi, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi v.b.).

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi 2003-yilning iyun oyida Rossiya Federatsiyasi hukumatini Tamara Rakevichga ma'naviy zarar sifatida 3 ming yevro miqdoridagi pul mablag'ini to'lash majburiyatini yukladi, negaki unga nisbatan 1950-yilgi Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi qoidalari buzilgan edi. Uni majburan ruhiy kasalliklar shifoxanaga olib kelishgan hamda davolash ishlarini amalga oshirishgan edi. Mazkur Konvensiyada shaxsning erkinligini cheklash uchun qonun yoxud Konvensiyaga muvofiq asos mavjud bo'lishi, shuningdek shaxsning erkini cheklash yoki undan mahrum qilish masalasi zudlik bilan sud tomonidan hal qilinishi lozimligi mustahkamlangan. Modomiki, RF 1950-yilgi Yevropa konvensiyasi a'zosi hisoblanadi, ushbu ish yuzasidan Strasburgda chiqarilgan qarorni ijro etish ushbu davlatning 1992-yilgi "Psixiatrik yordam va uni ko'rsatishda fuqarolarning huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga sabab bo'ldi. RF qonuni mazkur Konvensiya talablariga moslashtirilishi lozim hamda unda fuqarolarni kasalxonaga joylashning noqonuniyligi ustidan erkin tarzda shikoyat bilan murojaat etish huquqini ta'minlashi kerak edi.

Alohida mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya v.b.) ning milliy sud qarorlarini xalqaro huquqning manbasi sifatida hisoblash lozimligi to'g'risida hech qanday asos mavjud emas. Birinchidan, BMT Xalqaro sud Nizomi davlatlarga nisbatan bunday tabaqalashtirishni taqozo etmaydi, ya'ni asos mavjud emas, ikkinchidan esa har qanday davlatda o'zining malakasi va axloqiy sifatga ega bo'lgan sudyalar mavjud hamda o'zining asoslilikiga ko'ra turli xildagi sud qarorlari mavjud.

Xalqaro - huquqiy ta'limot (doktrina)

Xalqaro Sud Nizomiga muvofiq Sud "huquqiy ta'limot normalarini aniqlash uchun yordamchi vosita sifatida turli millatlarning ommaviy huquq bo'yicha o'ta malakali mutaxassislarini qo'llaydi".

F.F.Martensning fikriga ko'ra, "xalqaro huquqning tarixi va fani mavjud xalqaro odatlar va bitimlarning haqiqiy ma'nosini aniqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi; ular odat normalari va bitimlarda aks ettirilgan xalqlarning huquqiy ongini sof holda tasavvur etishlari imkonini beradi, hamda u, shak-shubhasiz, xalqaro huquqning manbasi qatoriga kiradi"¹.

Ta'limot (doktrina)ga uni xalqaro huquqning manbasi sifatida qaralmaydi. U faqatgina normalarni aniqlash uchun yordamchi vosita sifatida gavdalanadi. Agar ta'limot huquqni qo'llash bosqichida qo'llanilsa, unda huquq ijod qilish bosqichida foydalanishga ancha ko'p asos bo'ladi. Fanni xalqaro huquq ijodkorligida keng foydalanish zarurati Xalqaro huquqning instituti tomonidan asosli ravishda ko'rsatib o'tiladi².

Hozirgi paytda xalqaro huquqqa oid yirik asarlarga havola qilishni BMT ning xalqaro huquq Komissiyasi materiallarida, arbitraj va ayrim sud qarorlarida, Xalqaro sud a'zolarining alohida fikr-mulohazalarida kuzatish mumkin. Ta'limot xalqaro huquq yordamida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni, xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini, usul va yo'llarini zamonaviy tarzda tushuntirishni taqozo etadi.

Albatta, xalqaro huquq masalalarini chuqur o'rganish bo'yicha yuridik jihatdan benuqson, asoslantirilgan xulosalar xalqaro sudyaning, hakamning, xalqaro huquq Komissiyasi a'zosining, muzokaralarda qatnashayotgan delegatsiyaning huquqiy maslahatchisining tegishli fikrlarini shakllanishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

¹ Мартенс Ф. Ф. Современное международное право цивилизованных народов. — М., 1996. Т. 1. — С. 151.

² См.: *Annuaire de l'Institut de Droit International*. — P. 84.

Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari

Xalqaro tashkilotlarning qarorlari Xalqaro Sud Nizomining 38-moddasida ko'rsatilgan ro'yxatda qayd qilinmagan. Shunday bo'lsa ham, ilmda shunday qarorlar (asosan BMT doirasidagi) ko'pincha xalqaro huquqning yordamchi manbasi sifatida kiritiladi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning hujjatlari maqomi ularning Nizomlariga muvofiq belgilanadi. Vakolat doirasida ushbu tashkilotlarning organlari asosan tavsiyaviy xarakterga ega hujjatlar yoxud huquqni qo'llashga oid hujjatlarni qabul qiladilar. BMT Nizomining 10-, 11-, 13-moddalariga muvofiq Bosh Assambleya "tavsiya berish" vakolatiga egadir, ammo 25-moddaga ko'ra BMT a'zolari Xavfsizlik kengashining qarorlariga itoat etishlari lozim, lekin ushbu qarorlar huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liq.

O'z-o'zidan xalqaro tashkilot xalqaro "qonun chiqaruvchi"ga aylanib qolish huquqiga ega emas. Shu bilan birga, tashkilot a'zolari – davlatlar ushbu tashkilot hujjatlaridan foydalanishlari mumkin. BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida xalqaro shartnomalar doirasida ishlab chiqilgan (tayyorlangan), tashkilot nomidan ma'qullanganlikni belgilovchi rezolyutsiyalar qabul qilinadi.

Bu 1968-yildagi Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma, 1971-yildagi Kosmik obyektlar orqali etkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya, 1966-yilgi Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, 1979-yilgi Insonlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya va boshqa hujjatlarga nisbatan ham taalluqlidir. Ushbu holda hujjatning matni Bosh Assambleya rezolyutsiyalariga ilova sifatida BMT ning hujjatlarida chop etiladi. Aynan shartnoma (uni davlatlar tomonidan imzolanishi va kuchga kirishi bilan) rezolyutsiya emas, xalqaro huquq manbasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro sud tomonidan 1996-yildagi Yadro qurolini qonuniyligi va undan foydalanish xususida konsultativ xulosasida: "Bosh Assambleya rezolyutsiyasida, agarda ular umummajburiy bo'lmasa ham, ba'zida normativ qiymatiga ega bo'ladi. Ular ayrim sharoitlarda opinio juris ni vujudga kelishiga va uni mavjudligidan muhim dalolat berishi mumkin"¹.

Shu munosabat bilan xalqaro tajribada "yumshoq huquq" tushunchasi qo'llanilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi, boshqa tashkilotlar, jumladan,

¹ЕМТ Халқаро судиянинг қарорлари ва консултатив хулосалари бўйича қисқача маълумот (1948 — 1991). — Нью-Йорк, 1993. — № R. 92. — V. 5

BMT ning maxsus muassasalari tomonidan xalqaro munosabatlarning turli masalalar bo'yicha ko'p miqdordagi rezolyutsiyalar, tavsiyalar va boshqa hujjatlarni qabul qilinishi xalqaro huquq subyektlarida qiziqish ahamiyatiga ega. Ushbu hujjatlar asosan tavsiyaviy xarakterga ega.

Misol tariqasida, BMT Bosh Assambleyasining 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1960-yilgi Mustamlaka davlatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi Deklaratsiya, 1974-yilgi Xalqaro huquqning Agressiyani aniqlash haqidagi prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya, 1994-yilgi Xalqaro terrorizmga barham berish choralari to'g'risidagi Deklaratsiyalarni keltirish mumkin.

Bunday rezolyutsiyalar o'zida yurish-turish namunalarini ifoda etadi. Ular xalqaro huquq normalarining paydo bo'lish jarayonida ma'lum o'ringa ega: ushbu hujjatlarda ifodalangan yurish-turish qoidalari keyinchalik (xalqaro huquq subyektlari tomonidan tegishli tarzda tan olinganda) shartnomaviy yoki odat xalqaro-huquqiy normalariga aylanshi mumkin. Bunday ahamiyatga 1975-yilgi Yakuniy akt, 1990-yilgi Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi, YXHK ning boshqa hujjatlari ega. Bularning barchasi o'z-o'zidan yuridik jihatdan majburiy hisoblanmaydi, biroq YXHK ga a'zo davlatlar uchun majburiy bo'lgan hujjatlar mavjud. Misol tariqasida, 1975-yilgi Yakuniy aktda e'lon qilingan chegaralarning mustahkamligi prinsipini keltirish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro huquq manbalari deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro huquq manbalariga nimalar kiradi?
3. Xalqaro huquqda dispozitiv va imperativ normalarga misollar keltiring.
4. Xalqaro shartnomaga ta'rif bering.
5. Xalqaro huquq manbasi sifatida xalqaro odatga ta'rif bering va misollar keltiring.
6. Xalqaro tashkilotlar hujjatlari xalqaro huquq manbasi hisoblanadimi?
7. Xalqaro huquqiy doktrinalar xalqaro huquq manbasi sifatida.
8. Sud qarorlari xalqaro huquq sifatida.
9. Hozirgi davrda xalqaro huquqning rivojlanishi va kodifikatsiyasi.
10. Xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. — Т.: Ўзбекистон, 1997.

2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. – 2010. – 21 сентябрь.

4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза// 2010 йил 12 ноябрь – Т.: Ўзбекистон, 2010.

5. Биринчи Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2015. – 24 январь. – № 16 (6199).

6. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo‘yicha brifingda so‘zlagan nutqi// 2016-yil 30-iyun. <http://press-service.uz/uz/news/5291/>

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O‘zbekiston, 2014.

8. 2012-yil 10-sentabrdagi O‘RQ–330-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – №9/1 (1437).

9. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida. 1995-yil 22-dekabrdagi 172–I-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <http://mfa.uz/uz/about/legalacts/>

10. БМТ Низоми. 1945-йил. <http://www.un.org/>

11. Халқаро Суд статuti. <http://www.un.org/>.

12. Халқаро шартномалар ҳуқуқи то‘г‘risidagi Вена Конвенцияси, 1969-йил. Халқаро шартномалар ҳуқуқи то‘g‘risidagi Вена Конвенциясига қо‘shilish ҳақида. 1995-йил 24-fevraldagi 29–I-sonli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori. <http://mfa.uz/uz/about/legalacts/>.

13. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – Т., 2002.

14. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – Т.: Adolat, 2006.

III BOB. XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI

Xalqaro huquq prinsiplari tushunchasi. Davlatlarning suveren tengligi prinsipi. Zo'rvonlik tahdididan yoki xalqaro munosabatlarda uni qo'llashdan o'zini tiyish prinsipi. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi. Boshqa davlatlarining ichki vakolati hisoblangan ishlariga aralashmaslik prinsipi. Davlatlarning bir-birlari bilan hamkorlik qilish majburiyati. Xalqlarning o'z taqdirini o'zi beqilash va ularning teng huquqliligi prinsipi. Davlat chegaralarining mustahkamligi prinsipi. Davlatlarning hududiy butunligi prinsipi. Inson huquqlari va uning asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipi. Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi.

Xalqaro huquq prinsiplari tushunchasi

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari – xalqaro munosabatlar subyektlarining xalqaro hayotdagi to'plangan eng muhim masalalarga oid ifodalangan hamda umumlashtirilgan, umume'tirof etilgan yurish-turish normalaridir.

Xalqaro huquq prinsiplari xalqaro huquqning eng muhim g'oyasi, maqsadi, asosiy (bosh) mazmunining ifodasi hisoblanadi. Ular xalqaro huquqning muhim ustuvor huquqiy tajribasida namoyon bo'ladilar hamda xalqaro huquqning ichki samarali va kelishilgan tizimini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. "Prinsip" tushunchasini anglash uchun quyidagi terminlar qo'llaniladi: "huquqning umumiy prinsiplari", "xalqaro huquqning tarmoq prinsiplari", "asosiy prinsiplar", xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari" v.b.

Xalqaro huquqning umumiy prinsiplari sifatida quyidagilar: xalqaro huquq va milliy-huquqiy tizimlar uchun umumiy, milliy va xalqaro huquqda mazmunan bir xil bo'lgan prinsiplar.

Xalqaro huquqning tarmoqqa oid prinsiplari xalqaro huquqning aniq bir tarmog'i uchun o'ziga xoslikdadir. **Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari** – bu umumiy xalqaro huquqda mustahkamlangan o'ta muhim, "o'zak" xalqaro-huquqiy norma hisoblanadi.


"Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari" atamasi tarmoq va asosiy prinsiplarni belgilash uchun qo'llaniladi. Bunday yondashuvda umume'tirof etilgan prinsiplar – bu jus cogens normalari hisoblanadi. Ular deyarli barcha davlatlar tomonidan rasman tan olingan majburiy norma deb talqin etiladi.

BMT Nizomining 2-moddasi bilan mustahkamlangan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada yettita prinsip asosiy prinsip deb e'lon qilingan. 1975-yilda xalqaro huquqning uchta asosiy prinsipi "qo'shilgan"ligi qayd etilgan: davlat chegaralarining mustahkamligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklarni hurmat qilish.

Ushbu qaydni hisobga olgan holda xalqaro huquqning o'nta prinsiplarini asosiy deb hisoblash bo'ladi:

- 1) davlatlarning suveren tengligi;
- 2) kuch bilan tahdid qilish va uni xalqaro munosabatlarda qo'llanishida o'zini tiyish;
- 3) xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 4) davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- 5) tashqi sohada davlatlar hamkorligining majburiyligi;
- 6) xalqlarning o'zini o'zi anglashi va teng huquqliligi prinsipi;
- 7) davlat chegaralarining mustahkamligi;
- 8) davlatlarning hududiy daxlsizligi;
- 9) inson huquqdari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish;
- 10) xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Ular qo'llash sohasi bo'yicha universal hisoblanadi (xalqaro munosabatlarning xohlagan jabhasida). Ularga nisbatan tarmoq prinsiplarining zid kelishi mumkin emas. Shu jihatdan ular imperativ norma deb e'tirof etiladi.



1969-yilda qabul qilingan Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi BMT Nizomi asosida tuzilgan bo'lib, xalqaro huquq tizimida asosiy prinsiplarning o'рни, belgisi, boshqa normalar bilan uzviyligi hamda aloqadorligini aniqlab berdi. Ushbu manbaga ko'ra uning muhim belgisi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xalqaro huquqning barcha subyektlari uchun majburiyligi. BMT Nizomining 2-moddasi 6-bandiga muvofiq: "tashkilot a'zosi hisoblanmagan davlatlarning ushbu prinsiplarga muvofiq harakat qilishlarini ta'minlaydi. Modomiki, bu xalqaro miqyosda tinchlik va barqarorlikni (xavfsizlikni) ta'minlashni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi";

- xalqaro huquqning qolgan barcha prinsiplariga nisbatan birinchi darajadagi ahamiyatligi (BMT Nizomining 3-moddasi, 1969-yilgi Vena konvensiyasining 53-moddasi);

- nomuvofiq normalarga nisbatan, asosiy prinsiplardan oldin paydo bo'lgan normalarga nisbatan orqaga qaytish kuchining mavjudligi (Vena konvensiyasining 64-moddasi).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, asosiy prinsiplar nafaqat xalqaro huquq tizimiga boshchilik qiladi; davlatlarning konstitutsiya normalariga kiritilishi barobarida milliy huquqiy tizim normalariga ham o'z ta'sirini o'tkazib, huquqiy tizimlarning o'zaro aloqasini yaqqol namoyon qiladi (masalan, 1947-yilgi Italiya Konstitutsiyasining 10-moddasi, 1978-yilgi Ispaniya Konstitutsiyasining III bobi, 1958-yilgi Fransiya Konstitutsiyasining muqaddimasi, 1949-yilgi Germaniyaning Asosiy qonunining muqaddimasi, 1975-yilgi Gretsiya Konstitutsiyasining 2-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga asoslanadi¹.

Xalqaro sud Statutining 38-moddasi birinchi qismi "c" bandiga muvofiq "Sud o'ziga berilgan nizoli ishni xalqaro huquq asosida hal qilishda "millatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqning umumiy tamoyillari"ni qo'llaydi"².

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014. 8-bet

² Xalqaro sud statutining 38-moddasi, birinchi qism "c"-banchi. <http://www.un.org/>

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi

Suverenitet davlatning ichki ishlarida ustunligi, tashqi aloqalarda erkinlik va mustaqillik ifodalangan siyosiy-huquqiy xususiyati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, davlatlar xalqaro huquq subyekti sifatida o'zining huquqiy holati bo'yicha teng hamda bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaydilar. Mazkur prinsip BMT Nizomining 2-modda, 1-bandida mustahkamlangan: "Tashkilot o'zining barcha a'zolarining suveren tengligi prinsipi asosida barpo etilgan". Mazkur prinsip federativ davlatlarning subyektlariga nisbatan tatbiq etilmaydi deb hisoblanadi, agarda ular Konstitutsiyalarida o'zlarini suveren davlat deb e'tirof etishsalar ham.

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi davlatlar, agarda ular bir xildagi barcha huquq va majburiyatlarga ega bo'lsalar, xalqaro munosabatning teng huquqli a'zosi bo'ladilar: ular xalqaro munosabatlarning boshqa a'zolarining suverenitetini hurmat qilishlari lozimligini angladi.

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi (davlatlarning teng huquqlilik prinsipi) baravar subyektlar huquqi (par in parem not habet imperium) sifatida xalqaro huquqning asosiy fazilatini namoyon qiladi.


Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyaga muvofiq davlatlar o'zlarining turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, bir xildagi huquq va majburiyatlarga ega hamda xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Mazkur Deklaratsiyaga muvofiq davlatning suveren tengligi konsepsiyasi (mohiyati) quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi, jumladan: 1) barcha davlatlar yuridik jihatdan teng; 2) har bir davlat "odatdagi butun suverenitetlik" huquqidan foydalanadilar; 3) har bir davlat boshqa davlatning qonuniy subyektligini hurmat qilishi lozim; 4) davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsizdir; 5) har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimini mustaqil ravishda tanlashi va uni rivojlantirish huquqiga egadir; 6) har bir davlat o'z xalqaro majburiyatlarini to'liq va vijdonan bajarishi lozimdir.

1975-yilgi Yakuniy akt ham shunday xususiyatga ega boshqa qoidalarni ham e'tirof etadi. Ular har bir davlatning huquqiga taalluqlidir, masalan? erkinlik va siyosiy mustaqillik; o'z qonuni va ma'muriy qoidalarini o'rnatishi; xalqaro normalar asosida o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa davlatlar bilan aloqalarni belgilash va amalga oshirishi; xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lishi; ikki va ko'p tomonlama shartnomalarga,

shuningdek ittifoqchilar bitimlariga qo'shilishi yoki qo'shilmaslgi; betaraflik.

Davlatlarning suveren tengligi ularning (xalqaro ishlardagi iqtisodiy, siyosiy v.b. roli), haqiqatan ham, teng ekanligini bildirmaydi. Mazkur prinsip huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining yuridik-formal tengligini, ularning o'zaro huquq va majburiyatlari mutanosibligini mustahkamlab, aslida tenglikka erishishlariga to'sqinlik qilmaydi. Xalqaro huquq rivojlanayotgan davlatlarga ko'maklashish tartibini yaratishni, halokatdan, qurolli mojaro yoxud to'qnashuvlardan aziyat chekkanlarga

yordam ko'rsatishni rag'batlantirishni diskriminatsiya (kamsitish) va teng huquqlilik prinsipining buzilishi deb qarash emas, balki umumhuquqiy adolat prinsipiga amal qilish, deb tushunish lozim.



Teng huquqlilik prinsipining keng tarqalganlik ifodasi xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish formulasi hisoblanadi, ya'ni bitta davlat – bitta ovoz, vakillar (delegatlar)ning teng tarkibi hisoblanadi.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya va 1975-yilgi Yakuniy hujjatning mazmuniga ko'ra har bir davlat boshqa davlatning xavfsizligiga ziyon yetkazmasdan o'z xavfsizligini ta'minlashda bir xil huquqqa ega bo'ladi. Davlatlarning suveren tengligi prinsipining namoyon bo'lishi deb boshqa bir davlat yurisdiksiyasidan har bir davlatning daxlsizligi hisoblanadi.

Davlat huquqi tenglik prinsipi tufayli hamkorlikning barcha qonuniy turlariga barcha bilan teng holda kirishish huquqi xalqaro mexanizm orqali teng himoya qilinishida namoyon bo'ladi.

Davlatlarning majburiyati shartnomalarni tuzishda yuridik jihatdan tenglikni o'zaro tan olishlik, unda subyektlar huquq va majburiyatlarini bir xildaligini ta'minlash, bir-birlarining xalqaro huquqiy subyektligini hurmat qilishlari, kamsitishning har qanday holatlariga yo'l qo'ymasliklari va boshqalardan iborat.


Zo'rvonlik tahdididan yoki xalqaro munosabatlarda uni qo'llashdan o'zini tiyish prinsipi

1919-yilgi Millatlar ligasi Nizomi davlatlarning urushni ishga solish huquqiga cheklovlarni o'rnatdi. Mazkur Liga agressiv urushni qoralovchi qator hujjatlarni qabul qildi. Briana-Kelloga Paktining 1-moddasiga muvofiq uning ishtirokchilari "xalqaro nizolarni hal qilishda urushni ishga solishni qoralaydi va milliy siyosatining dastagi (vositasi) sifatida o'zlarining o'zaro munosabatlarida bunday unsurdan voz kechadilar". BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandiga asosan BMTning barcha a'zo davlatlari BMT maqsadlariga zid bo'lgan zo'rvonlik tahdididan yoki xalqaro munosabatlarda uni hududiy daxlsizlikka yoxud har qanday davlatning siyosiy mustaqilligiga qarshi qo'llashdan o'zini tiyadilar.

Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslik prinsipi davlatlarning zo'rvonlik tahdididan yoki xalqaro munosabatlarda uni hududiy daxlsizlikka yoxud har qanday davlatning siyosiy mustaqilligiga qarshi qo'llashdan o'zini tiyishlarini anglatadi.

Mazkur prinsip Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada, 1975-yilgi Yakuniy hujjatda, 1987-yilgi Zo'rvonlik tahdididan yoki xalqaro munosabatlarda uni qo'llashdan o'zini tiyishlari

prinsipini samaradorligini kuchaytirish to'g'risidagi Deklaratsiyada mustahkamlangan.



Mazkur prinsip obyekti insonning nozo'ravon hayotdagi yashash huquqi, shuningdek nizoliy masalalarni kuch ishlatish va tahdid qilish bilan hal qilishni cheklash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Munosabatlar predmeti BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandiga binoan har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoxud siyosiy mustaqilligi, shuning bilan birga, BMT maqsadlariga mos kelmaydigan boshqa xatti-harakatlar hisblanadi. Mazkur prinsip asosida davlatlarning majburiyatlari davlatlar BMT Nizomi talablarini buzgan holda bir-birlariga qarshi birinchilardan bo'lib qurolli kuch ishlatmaslikdan iborat.

Hamjamiyatning barcha a'zolari vakolatli organlar bo'lmish BMT Xavfsizlik kengashi, uning rahbarligidagi mintaqaviy siyosiy

tashkilotlarning agressor (tajovuzkor) larga qarshi sanksiyalarda ishtirok etishga, shuningdek agressorni moddiy hamda ma'naviy jihatdan qo'llamaslikka majburdirlar. Agressorga nisbatan qurolli kuch ishlatish prinsip buzilgan deb hisoblanmaydi. Agressiya qurboni bo'lgan davlat individual yoki kollektiv jihatdan mudofalanish, agressor va uning hamkorlariga nisbatan moddiy va nomoddiy sanksiyalarni qo'llash, urush harakatlarini rejalashtirish, moliyalashtirish va uni olib borishda aybdor bo'lganlarni javobgarlikka tortish huquqiga egadirlar. Har qanday davlat jahon hamjamiyati e'tiborini xalqaro huquq normalari buzilishlarining har qanday holatlari yuzasidan jalb etish huquqiga egadirlar.

BMT Nizomining 51-moddasida shunday deyilgan: "Mazkur Nizom agarda BMT a'zosiga nisbatan qurolli hujum qilinsa, individual yoki jamoaviy o'zini o'zi himoya qilishning ajralmas huquqlariga aslo daxl qilmaydi, qanchonki, Xavfsizlik kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun hech qanday chora ko'rmasa...". O'zini o'zi himoya qilish huquqi azaldan BMT Nizomidan qat'i nazar, davlatlarga tegishli. Ammo ushbu tahdidga munosabat bildirmoqchi bo'lgan BMT a'zo davlatlari Xavfsizlik kengashiga uning qanday qaror qabul qilishi vakolatiga va uning oqibatida kelib chiqadigan mas'uliyatiga daxl qilmasdan o'zlarining qabul qilgan chora-tadbirlari haqida xabar berishlari lozim. Hozirgi sharoitda 51-modda ba'zan davlatlarga ularga nisbatan qurolli hujum sodir etilishiga aniq tahdidlar mavjud bo'lgan taqdirda kuch ishlatish huquqini berilishi kabi ma'noni tushuntirib beradi (oldindan harakat qilingan o'zini o'zi himoya qilish). Mazkur prinsipni amalga oshirishda BMT Xavfsizlik kengashi alohida rol o'ynaydi. Mazkur kengash kuch ishlatilishi faktlarining mavjudligini aniqlaydi, BMTga a'zo davlatlar bilan harbiy tuzilmalarni, moddiy yordamlar, texnikalarni kengash ixtiyoriga berilishi haqida kelishuv bitimlarini imzolaydi, harbiy kontingentlar ustidan rahbarlikni amalga oshiradi.

Xalqaro prinsiplar to'g'risidagi Deklaratsiya quyidagi maqsadlarda, ya'ni: 1) boshqa bir davlatning xalqaro mavjud chegaralarini buzilishi yoki xalqaro nizolarni hal etish vositasi, shu bilan birga davlat chegaralari bilan bog'liq hududiy nizolar yoxud masalalar sifatida; 2) xalqaro chegara chizig'ini, shu jumladan vaqtinchalik sullivan buzish; 3) kuch ishlatish bilan bog'liq repressiya hujjatlari; 4) xalqlarning erkinlik, mustaqillik va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum qiluvchi zo'rovonlik harakatlari; 5) qurollangan guruhlar, nomuntazam kuchlarni, shuningdek boshqa davlat hududiga bostirib kiruvchi yollanma askarlarni tashkil etish yoki ularni rag'batlantirish; 6) boshqa davlatlarda har qanday fitna, fuqarolik

urushlarida yoki terroristik harakatlarini tashkil etish yoki ishtirok etish yoxud ushbu harakatlarni o'z hududida takrorlash; 7) davlatlar hududlarini kuch ishlatish xavfi natijasida harbiy tahdid tufayli bosib olish yoki egallab olishdan o'zini tiyish majburiyatini ajratib ko'rsatadi.

Do'stona bo'lmagan munosabatlar yoki xalqaro jinoyat alomatlari bo'lmagan huquqbuzilishlarga nisbatan davlatlar kuch ishlatish tahdididan yoxud uni qo'llashdan o'zini tiyishda qurolli kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lmagan o'zgacha tartibda (retorsiya yoxud repressaliya)ga murojaat qilishlari mumkin. Bunday chora-tadbirlarning ro'yxati BMT Nizomining 41-moddasida mustahkamlangan, bular: iqtisodiy, dengiz, havo, temiryo'l, pochta, telegraf, radio va boshqa aloqalarni to'liq yoki qisman uzish, shuningdek diplomatik aloqalarni uzish.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi, boshqacha qilib aytganda, asosiy prinsiplar tizimida protsessual prinsip hisoblanadi. Hamkorlikning barcha sohalarida u davlatning tinchlik yo'lidagi hamkorligini ta'minlashining takomillashgan mexanizmlari, bir qator usullari va yo'llarini anglatadi.

1907-yilgi Xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Konvensiyada davlatlarni "kuch ishlatishga murojaat qilishni imkon qadar oldini olish"ga (1-modda) hamda "qurol ishlatishdan oldin avvalo mavjud imkoniyatlar asosida tinchlikka va murosaga chaqirish" (2-modda) ta'kidlanadi.

Millatlar ligasi Nizomining 12-moddasiga muvofiq uning a'zolari agarda ular o'rtasida uzilishlarga olib keluvchi nizo kelib chiqqan taqdirda, ushbu masalani hal qilish uchun yo hakamlik sudiga, yo bo'lmasa sud muhokamasiga yohud Millatlar ligasi Kengashiga murojaat qilishlarini kelishib oladilar. Ular, shuningdek sudning yoki hakamlik sudining qarori yoxud Millatlar ligasi Kengashining masalaning hal etilishi to'g'risidagi dokladining uch oylik muddati o'tmagunicha hech qachon urushni ishga solmasliklari lozimligi to'g'risida ham kelishib oldilar. Briana-Kelloga Paktining 2-moddasi ilk marotaba: "ahdlashuvchi tomonlar, ular o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchiliklar va mojarolarning kelib chiqishi va xususiyatidan qat'i nazar, faqat tinch yo'l bilan hal qilinishi"ni e'lon qildi.

BMT Nizomining 2-moddasi 3-bandida mazkur prinsip quyidagicha talqin qilingan: "BMTning barcha a'zolari o'zlarining xalqaro miqyosdagi

nizolarini tinch yo‘l bilan hal qilish va bunda xalqaro tinchlikka va xavfsizlikka hamda adolatga tahdid solmasligi lozim”. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishning aniq vositalari hamda uni qo‘llanilish tartibi BMT Nizomining VI bobida mustahkamlangan. Jumladan, Nizomning 33-moddasiga muvofiq: “1. Har qanday nizoda ishtirok etuvchi taraflar, ushbu nizoning davomiyligi xalqaro tinchlikka va xavfsizlikka tahdid solib turgan taqdirda muzokaralar olib borish, ishni tekshirish, vositachilik, yarashish (kelishish), hakamlik (arbitraj), sud muhokamasi, mintaqaviy organlarga murojaat qilishlik yoki bitim va boshqa tinch yo‘llar bilan hal etishlari lozim. 2. Xavfsizlik kengashi zarur deb hisoblagan taqdirda taraflardan mazkur nizolarni yuqoridagi vositalar yordamida hal etishlikni talab qiladi”.

Davlatlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: nizoni hal etish yo‘lining eng maqbul usullarini izlash jarayonlarini to‘xtatmasliklari; nizoni hal qilishda ikkita tomonning manfaatlaridan kelib chiqishlari; nizolarni hal etish jarayonida sharoitni yomonlashuviga olib keluvchi har qanday xatti-harakatlardan o‘zlarini tiyishlari yoki eng maqbul yo‘lni izlab topish jarayoniga zarar yetkazmasliklari lozim; ular hamkorlikda qabul qilingan qarorlarni o‘z ixtiyorlari bilan bajarishlari lozim. Agarda nizo jiddiy tusga ega bo‘lib, uning davomiyligi tinchlikka va xavfsizlikka xavf solgan taqdirda BMT Xavfsizlik kengashi taraflarga mazkur nizoni hal qilishlikni aniq bir usuli yoki jarayonini tavsiya etish vakolatiga egadir. Zarur hollarda u davlatlar hamjamiyatiga vaziyat yomonlashuvining oldini olish maqsadida BMT Nizomining 40-41-moddalaridagi nizom normalarini qo‘llashga chaqirish bilan murojaat qilishi mumkin.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi tuzilishining o‘ziga xos xususiyati uning hal qilish usullari ro‘yxatining mukammal darajada kengligidadir. BMT Nizomining o‘zida o‘ntagacha – muzokaralar (oxirgi paytlarda 1907-yilgi Xalqaro to‘qnashuvlarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi Konvensiyada ta’kidlangan maslahatlar bilan to‘ldirilgan), tekshiruvlar, vositachilik (XX asr oxirlaridan odat sifatida BMT bosh kotibi, uning o‘rinbosarlari va vositachilar jalb qilina boshlangan), yarashtiruv, arbitraj (hakamlik), sud muhokamasi, shuningdek BMTning barcha asosiy organlari va mintaqaviy tashkilotlarni jalb qilish (33-38-modda) usullari mavjud. So‘nggi paytlarda davlatlar qo‘llaniladigan choralar ko‘lamini kengaytirdi, shu bilan birga boshqa xalqaro davlatlararo tashkilotlarni ham jalb etishni boshladi. Hal qilishning yangi, davlatlar uchun maqbul usullarini izlab topish yana ham davom etmoqda (masalan, 1999-yil Ruanda bilan Uganda davlati o‘rtasidagi mojaroni hal etishda

AQSH prezidenti maslahatchisi G.Smitning shaxsan o'zi ishtirok etgan; shu-yili Kolumbiya davlati hukumatining partizanlar bilan bo'lgan muzokarlarda kuzatuvchilar sifatida (vositachi emas) Ispaniya, Meksika, Venesuela, Kosta-Rika, Italiya, Shvetsiya va Norvegiya davlatlari jalb qilingan). Umuman, barcha nizolarda BMTning o'zi vositachi sifatida ishtirok etadi (misol uchun, 2002-yilning oxirlarida BMT tomonidan Kiprning turk va grek jamoati uchun muzokaralar asosi sifatida tan olingan nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish rejasi ishlab chiqildi). Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi mazmuni nizolarni hal etish hamda ularni qo'llashning yangi usullarini ishlab chiqish hisobiga doimo murakkablashib bormoqda.

Mazkur prinsip quyidagi hujjatlarda mustahkamlangan:

- Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya;
- 1975-yilgi Yakuniy hujjat;
- BMT Bosh Assambleyasining qator rezolyutsiyalari (1982-yilgi xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Manila Deklaratsiyasi);
- Arab davlatlar ligasi Pakti (V modda);
- Amerika davlatlari tashkiloti Nizomi (V bob);
- Afrika Kengashining ta'sis akti (4-moddasi);
- MDH Nizomi (IV bo'limi)

Ko'pgina boshqa ikk itomonlama va ko'p tomonlama shartomalar yo mazkur prinsipga havola qiluvchi normalardan iborat, yo bo'lmasa shunday mazmundagi normani kiritadi.

Xalqaro nizolar davlatlarning suveren tengligi prinsipi, adolatlilik prinsipi, nizolarni hal etish vositalarini tomonlarning erkin tanlashlari prinsipi asosida hal etiladi.


Boshqa davlatlarining ichki vakolati hisoblangan ishlariga aralashmaslik prinsipi

Mazkur prinsipning asosiy mazmuni BMT Nizomida o'z aksini topgan. Ushbu Nizom BMTga har qanday davlatning ichki ishlariga aralashishiga vakolat bermaydi hamda a'zo davlatlardan ishlarni Nizom asosida hal etish uchun bunday ishlarni talab qilmaydi. Faqatgina bitta istisno – VII bobga asosan choralar ko'rishga prinsip daxl qilmaydi¹.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi, shuningdek suverenitetlikning mavjudligi bilan uzviy bog'liq hamda uning

¹ Ушаков Н.А. Невмешательство во внутренние дела государств. – М., 1971.

XALQARO NIZOLARNI TINCH HAL ETISH PRINSIPI:



elementlaridan biri bilan – davlatlarning o'z ichki vakolatini amalga oshirishda mustaqilligi kabi elementiga asoslanadi.

BMT Nizomida mazkur prinsip shunday ifodalangan: "Mazkur Nizom BMTga har qanday davlatning ichki ishlariga aralashishiga vakolat bermaydi, hamda tashkilotga a'zo davlatlardan ishlarni Nizom asosida hal etishlik uchun bunday ishlarni talab qilmaydi; biroq mazkur prinsip VII bobda aks ettirilgan majburiy choralar ko'rishga daxl qilmaydi" (2-modda, 7 band). Ushbu prinsip Amerika Davlatlari tashkiloti Nizomining 18-moddasida, MDH Nizomining 3-moddasida va boshqa ko'pgina xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan.

1998-yil qabul qilingan Xalqaro jinoyat sudi Nizomining muqaddimasida shunday deyilgan: "Hech narsa Nizomda biror bir

davlatga har bir davlatning ichki ishi sohasi hisoblangan qurolli mojaroga aralashish huquqini bermaydi". Mohiyatan, agarda bitta davlatning geografik chegarasi doirasida sodir bo'laygan, xavfsizlik va xalqaro barqarorlikka xavf solayotgan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga zid tarzda bo'lsa, ichki ishlariga taalluqli emas deb e'tirof etiladi. Ammo "ichki ishlar"i deb davlatning to'liq mustaqil tarzda hal etish huquqini (xalqaro kelishuvlardagi ishtiroki yoki har bir masalada o'zining mustaqil o'rniga (pozitsiya) ega bo'lish) "tashqi ishlar" deb tushunish ham mumkin.

Xalqaro shartnomalarda qayd etilgan nazorat, inspeksiya va tekshiruv choralarini amalga oshirish ichki ishlarga aralashmaslik deb hisoblanadi. Bunda mazkur chora-tadbirlar a'zo davlatlar suverenitetini hurmat qilish orqali amalga oshirilishi lozim.

Ichki vakolatlariga taalluqli va taalluqli bo'lmagan ishlar o'rtasidagi chegara turg'un emas. 1923-yilgi Xalqaro odil sudlov Doimiy palatasining konsultativ xulosasida ta'kidlanganidek: "Davlatning favqulodda yurisdiksiyasida mavjud bo'lgan ishlar haqidagi masala o'z mohiyatiga ko'ra nisbiy masala bo'lib xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga bog'liq bo'ladi"¹. Davlat hayotini internatsionallashtirish sharoitida ichki vakolatga taalluqli ko'p sonli barcha ishlar u yoki bu tarzda xalqaro-huquqiy tartibga solishning predmetiga aylanadi.

Hozirda inson asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari davlatning g'oyatda ichki ishlari sohasi sifatida qaralamayapti. YXHKning 1991-yilgi Inson mezonini to'g'risidagi Moskva kengashining hujjatida ushbu sohada davlatlarning qabul qilgan majburiyatlari "barcha ishtirokchi davlatlar uchun g'oyatda ichki ish sifatida emas, balki bevosita va qonuniy manfaat sifatidagi masala hisoblanadi". Ammo boshqa bir davlatning inson huquqlari buzilishida "aralashish huquqi"ning, masalan, ichki qurolli mojaro vujudga kelganda aralashishni anglatmaydi.

Prinsipga muvofiq davlat mustaqil tarzda, chetdan hech bir aralashuvsiz yoki har qanday tazyiqlarsiz o'z siyosiy, iqtisodiy tizimini o'rnatish; tabiiy resurslarini mustaqil tasarruf etish; buni mustaqil tarzda yoki shartnoma asosida ishlab chiqish; soliq va boshqa yig'implarni joriy qilish; bojxona qoidalarini, xorij fuqarolarining o'z davlat hududlariga kelish tartibini o'rnatish huquqiga ega.

Mazkur prinsip doirasida davlatning majburiyatlari boshqa bir davlatning ichki ishlariga aralashmaslikdan iborat, ya'ni boshqaruv

¹ Консультативное заключение относительно законов о гражданстве, изданных в Тунисе и Марокко// РСИУ. 1923. Сер. В. - N4. - P.24.

shaklini o'rnatish, referendum va plebitsit (juda muhim masalalarni hal qilishni umumxalq ovoziga qo'yish)ni o'tkazish, qonunlar qabul qilish, qarzlarni tasarruf qilish v.b. Davlatlar alohida huquq va ustunlikka ega bo'lish maqsadida noqonuniy tarzda tazyiq o'tkazish sifatida qaraladigan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlari lozim. Bu esa moliyaviy bosim, kreditlar ajratilganda ularga qandaydir imtiyozlar berishni va'da qilish, kreditor davlat mahsulotini sotib olish sharti bilan kredittlash, territoriyadan voz kechish v.b. Shuningdek ichki ishlarga aralashish deb davlatning roziligisiz uning hududida eshittirishlar (radio, televideniya) tashkil qilish ham hisoblanadi.

Prinsipni noqonuniy tarzda buzish maqsadida davlatga tazyiq qilish bo'yicha har qanday xatti-harakat xalqaro tashkilotlar orqali individual yoki jamoaviy tarzda ushbu harakatga javoban choralar (repressial, kontrchora) ko'rish huquqini beradi.

Davlatlar o'z vakolat doirasini o'zlari belgilashi va uni atrof-muhitni muhofaza qilish, umumiy xavfsizlik, boshqa global muammolarni hal etishlikdagi xalqaro hamkorlik manfaatlarida cheklashlari mumkin. Bunday cheklovlar o'zlariga olingan xalqaro majburiyatlarni bajarishda, xususan inson huquqlarini himoya qilish, yaro quroli ustidan nazorat, atrof-muhit muhofazasi sohasida zarur hisoblanadi.

Davlatlarning bir-birlari bilan hamkorlik qilish majburiyati

Xalqaro hamkorlik prinsipi – davlatlarning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insonparvarlik xarakterdagi muammolarni hal qilishda xalq farovonligini oshirish, xalqaro barqarorlik va tinchlikni, o'zaro ishonch va hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'zaro yordam berishlarini anglatadi.


Mazkur prinsip BMT Nizomining 2-moddasida mustahkamlanmagan. Ammo u hozirgi zamon xalqaro huquqning asosiy prinsipi sifatida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatining asosini tashkil etadi.

BMT Nizomining 1-moddasi 3-bandida qayd qilinadiki, BMTning asosiy maqsadalaridan biri bo'lib "xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va insonparvarlik xarakterdagi muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlik" hisoblanadi.

BMT Nizomining IX bobi ("Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik") Nizomning 55-moddasida nazarda tutilganidek davlatlararo hamkorlikni tashkil etish va uni rivojlantirishga maxsus ajratilgan. Nizomning 56-moddasiga muvofiq esa "BMTning barcha a'zolari 55-moddada mustahkamlangan maqsadlarga erishish uchun tashkilot bilan

hamkorlikning mustaqil tarzda va hamkorlikdagi harakat chora-tadbirlarini ko'rishlari lozim"ligi qayd etilgan.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyaga muvofiq "davlatlar bir-birlari bilan ularning turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimidagi farqlanishdan qat'i nazar, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni, xalqaro iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot, xalqlarning umumiy farovonligini qo'llab-quvatlashni maqsad qilgan, kamsitishdan holi bo'lgan xalqaro hamkorlikning turli sohalarida hamkorlik qilishlari lozim"ligi qayd etilgan.



1975-yilgi Yakuniy hujjatda (unga qo'shilgan xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya) IX prinsip "davlatlar o'rtasidagi hamkorlik" deb nomlangan. Ushbu prinsipga muvofiq a'zo davlatlar "BMT Nizomi prinsiplari va maqsadlariga muvofiq barcha sohalarida bir-birlari bilan yoinki barcha davlatlar bilan bo'ladigan hamkorliklarini rivojlantiradilar". Shunga qaramay, yuzaga kelgan o'z suverenitetligi tufayli har bir davlat tashqi aloqalar sohasida o'zining hamkorlik shaklini tanlashida erkin hisoblanadilar.

Davlatning hamkorlik prinsipi, shuningdek xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish prinsipi kabi xalqaro huquqning funksional prinsipi

hisoblanadi. Hamkorlik bu davlatning o'z manfaatlarini amalga oshirishning yagona qonuniy usulidir, negaki ularning hech qaysisi avtarkiya (zarur narsalarni chetdan olmasdan o'zi etishtirishga asoslangan milliy xo'jalik tizim), iqtisodiy va siyosiy jihatdan ajralib qolinishi sharoitida omon qolmaydi. Aksincha, hamkorlikdan voz kechish (ya'ni aloqani uzish) BMT Nizomi (5, 6, 40, 41-moddalari)ga muvofiq qattiq (shafqatsiz) sanksiya turlaridan biri hisoblanadi.

Misol tariqasida, Iroq davlati bilan bog'liq vaziyat bo'lib, unda ommaviy qirg'in quollarini yo'q qilish bo'yicha universal shartnomalarni buzishlikda ayblanishi, Janubiy Afrika Respublikasi bilan BMT Xalqaro sudining irqiy ayirmachilikka oid jinoyatlarga barham berish (yo'q qilish) bo'yicha qarorini bajarmaganlik holatlari hisoblanadi.


Hamkorlik prinsipini aniqlash BMT Bosh Assambleyasi deklaratsiyalari normalarida berilgan, jumladan, 1970-yilgi davlatlarning do'stona munosabatlariga taalluqli xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada munosabatlarning anchayin keng doirasini qamrab oluvchi hamkorlik obyektlariga e'tibor qaratilsa, Xelsinki'dagi 1975-yilgi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengashning Yakuniy hujjati hamkorlikning uslubi va jarayonlariga e'tibor qaratadi. Hamkorlik prinsipining qat'iy talabi (amri) ga muvofiq davlatlar hamkorlikning shakl va turlarini tanlash, hamkorlikdan qonuniy (haqqoniy), agarda u xalqaro huquq yoki davlatning oliy manfaatlar doirasida bo'lsa, voz kechish huquqiga egadir. Shartnomada qayd etilgan shartlarda davlatlar hamkorlikning imtiyozli tartibini o'rnatishlari mumkin, masalan, Yevropa hamdo'stligi, MDH, Britaniya hamdo'stligi, Fransuz birlashmasi davlatlari.

Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va ularning teng huquqliligi prinsipi

Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va ularning teng huquqliligi prinsipi o'z nomidan kelib chiqib davlatlarning sivilizatsiyasi rivojlanishining eng muhim sohasi, rivojlanishning turli bosqichida joylashgan etnoslarning mojarolarsiz hayot kechirish bo'yicha munosabatlarini tartibga solishni ko'zda tutadi. Xalq, millat davlat suvereniteti hamda uning mavjudligi haqidagi fakt kabi bosh negiz hisoblanadi. BMT Nizomi, avvalo, o'z nomidan kelib chiqib xalq erkiga, keyin davlat erkiga murojaat qiladi.

Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash va ularning teng huquqliligi prinsipi – barcha xalqlar erkin tarzda chetdan aralashuvsiz o'zlarining siyosiy maqomlarini belgilash hamda o'zlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishlarini o'zlarining tarixiy, jug'rofiy, madaniy, diniy va boshqa urf-odatlariga xos bo'lgan hamda o'z tasavvurlaridan kelib chiqib belgilash huquqiga ega ekanligini anglatadi.

Har bir davlat BMT Nizomiga muvofiq mazkur huquqni hurmat qilishga majburdir.



O'z taqdirini o'zi belgilash prinsipining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi kabi davlatlar huquqlariga emas balki o'zga xalq va millatlarning paydo bo'lishiga bag'ishlangan. Inson huquqlari bo'yicha paktlar xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini inson huquqlari bilan o'zaro aloqasini mustahkamladi (1-modda). Natijada, xalqaro huquq subyektlari bo'lmaganlarning huquqlari xalqaro huquqda mustahkamlandi, davlatlarga

esa ularning huquqlarini hurmat qilish va uni ta'minlash vazifasi yuklandi. O'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi tarixda shunday muhim rol o'ynadiki, bunda o'nlab xalqlar mustamlaka zulmidan ozod bo'ldilar.

1966-yilgi ikkita inson huquqlari bo'yicha xalqaro Paktda aynan o'xshash modda mavjud: "Barcha xalqlar o'z taqdirini o'zlarini belgilash huquqiga egadirlar. Ushbu huquqqa binoan ular erkin tarzda o'zlarining siyosiy maqomlarini o'rnatadilar va erkin tarzda o'zlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishlarini ta'minlaydilar".

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada mazkur yuqoridagi prinsip quyidagicha aks ettirilgan: "Barcha xalqlar erkin tarzda, chetdan aralashuvsiz o'zlarining siyosiy maqomlarini o'rnatishlari va o'zlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishlarini amalga oshirish huquqiga egadir hamda har bir davlat BMT Nizomi talablariga muvofiq ushbu huquqlarni hurmat qilishga majburdirlar".

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada shuningdek o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish usullari ham ko'rsatib o'tilgan: "mustaqil va suveren davlatni barpo etish, mustaqil davlat tarkibiga erkin tarzda qo'shilish yoki birlashish yoxud xalq tomonidan erkin tarzda boshqa bir har qanday siyosiy maqomni o'rnatish". Ammo bir paytning o'zida mustaqil suveren davlatning siyosiy birligi yoki hududiy yaxlitlikni to'liq yoxud qisman buzish hamda taqsimlashga olib keladigan har qanday harakatga yo'l qo'yib bo'lmaslik ta'kidlanadi. Binobarin, mazkur huquqni xalqning bir qismini boshqa bir tarkibiy qismdan ajralib chiqish huquqi bilan aralastirmaslik lozim.

Milliy-madaniy avtonomlik, agar ushbu xalqning etnik o'ziga xosligi saqlanib qolingan taqdirda doimo xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishlarini qondirilishi uchun samarali vosita bo'lib, unda rivojlanish, ta'lim, din, til, manadiyat masalalari hal etiladi.

O'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi nafaqat hududiy yaxlitlik bilan, balki xalqaro huquqning boshqa prinsiplari bilan, birinchi navbatda inson huquqlariga nisbatan hurmat prinsipi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Davlat chegaralarining mustahkamligi prinsipi

Davlat chegaralarining mustahkamligi prinsipi davlatlarni ajratib turgan hudud chegaralarini o'rnatish (delimitatsiya, demarkatsiya, rektifikatsiya) va muhofaza qilish (qo'riqlash) hamda chegara bo'yicha nizoli masalalarni hal qilish bo'yicha munosabatlarni qat'iy belgilaydi. Azaldan shu narsa ma'lumki, chegaralarni buzish qurolli kuchlarni

qo'llash uchun qonuniy bahona hisoblanadi. Havo, dengiz va quruqlikdagi chegaralar davlatning harbiy kuchlari orqali diplomatik apparat, siyosiy ittifoqchilik shartnomalariga muvofiq himoya qilinadi.

Chegaralarning mustahkamligi prinsipi hududlar daxlsizligi prinsipini to'ldiradi. 1970-yilgi Deklaratsiyada uning mazmuni kuch ishlatmaslik prinsipi bo'limida mustahkamlangan. "Har bir davlat boshqa bir davlatning mavjud xalqaro chegaralarni buzish maqsadida yoki xalqaro nizolar, jumladan, davlat chegarasiga oid hududiy nizo va masalani hal etish vositasi sifatida zo'rvonlik tahdididan yoki uni qo'llashdan o'zlarini tiyishlari lozim". Davlatlar nafaqat chegaralarni, balki chegaralarni aniqlash chizig'ini buzish maqsadida zo'rvonlik tahdidi yoki uni qo'llashdan o'zlarini tiyishlari lozim. Bunda vaqtinchalik yoki dastlabki chegaralar, shu jumladan vaqtinchalik sulh chizig'i ham nazarda tutilgan.

1975-yilgi Yakuniy hujjatda mazkur prinsip shunday bayon qilingan: "A'zo davlatlar bir-birlarining barcha chegaralarini Yevropaning barcha davlatlari chegaralari kabi mustahkam (buzilmaydigan) sifatida qabul qilishadi va shuning uchun ham ular mazkur chegaralarga hozir hamda kelajakda har qanday tajovuz qilishlaridan o'zlarini tiyib turadilar". Ushbu Yakuniy hujjatning a'zolari bo'lib AQSH va Kanada ham hisoblanadi, mazkur "1975-yil varianti" dagi prinsip Yevropa doirasidan tashqariga ham chiqadi. 1992-yil 9-oktabrda MDH ga a'zo davlatlar o'z tashqi chegaralarida Barqaror vaziyatni ta'minlash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi kelishuvga imzo chekdilar. Kelishuv muqaddimasida tomonlar "chegaralar mustahkamligi to'g'risidagi Xelsinki Yakuniy hujjatining qoidalariga o'z sodiqligini" tasdiqladilar hamda o'zlarining "bundan buyon ushbu chegaralarning daxlsizligi va mustahkamligini ta'minlashlarini" (MDH ning tashqi chegaralarini) qat'iyiligini izhor qildilar. 1993-yil 7-avgustda MDH ga a'zo davlatlar Chegaralar daxlsizligi to'g'risidagi Deklaratsiyaga imzo chekdilar, 1994-yil 15-aprelda esa MDHga a'zo davlatlar suverenitetligi, chegaralarining daxlsizligi va hududiy butunlik (yaxlitlik)ni himoya qilish to'g'risidagi Deklaratsiyaga imzo chekdilar.

Mazkur prinsipga muvofiq davlatlarning huquqlari o'rnatilgan chegaralarning mutlaq mustahkamligini, ularni o'zaro kelishuvsiz va bosim ostida kuch ishlatish va kuch ishlatishga tahdid qilish orqali o'zgartirishning noqonuniy ekanligini talab qilishdan iborat. Davlatlar chegaralarni kesib o'tish joylari rejimini, chegaralarni davlatlarning jismoniy shaxslari, tovarlar, xizmatlar, transport vositalarini kesib o'tishi bo'yicha qandaydir bir cheklovlarni o'rnatish va ushbu cheklovni bekor

qilishni o'zlari belgilashadi. Shu nuqtayi nazardan davlatlarning majburiyatlari ham xalqaro huquqqa muvofiq o'rnatilgan chegaralar, ajratuvchi va chegarani aniqlash chiziqlari, shu jumladan vaqtinchalik sulh (mazkur chiziqlar vaqtinchalik chegaralar sifatida qaralayotgan doimiy amal qiluvchi shartnomani tuzishga qadar yarashuv ahdi davrida) chiziqlari, chegaraviy nizolarni faqat tinch yo'l bilan hal etish, mazkur prinsipni buzuvchi davlatlarga yordam ko'rsatmaslikka qat'iy rioya etish mavjuddir.

1964-yilda Afrika birligi tashkiloti mazkur qoidani afrika davlatlari chegaralariga nisbatan qo'llanishini tasdiqladi. Mazkur qoidalar sobiq Yugoslaviya hududidagi chegaralar to'g'risidagi masalani hal etishda ham qo'llanildi. Shu bilan birga ushbu qoida BMT Xalqaro sudi tomonidan hududga oid nizolarni hal etishda ko'p marotaba qo'llanilgan. Bunda sud ushbu normani xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normasi ekanligini ta'kidladi¹.

Chegaralarni buzish xalqaro jinoyat sifatida qaralib, oqibatda eng qattiq javob choralari qo'llashni taqozo qiluvchi, shu jumladan BMT Nizomining 39–47-moddalarida qayd etilgan jazo choralari: qurolli kuchlarni qo'llash, favqulodda xususiyatga ega boshqa sanksiyalar, shu asnoda aybdor davlatning suverenitetligini cheklash kabi choralarni qo'llashni taqozo etadi.

Davlatlarning hududiy butunligi prinsipi

Hududlar davlatning moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Hududsiz davlat mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun davlat o'z hududining butunligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. BMT Nizomi davlatlarning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch ishlatish va kuch ishlatishni tahdid qilishdan o'zini tiyishni talab qiladi. 1970-yilgi Deklaratsiya ushbu prinsipni mustaqil prinsip sifatida ajratmaydi. Uning mohiyati boshqa prinsiplarda o'z aksini topgan. Kuch ishlatmslik prinsipi har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch ishlatish va kuch ishlatishni tahdid qilishdan o'zini tiyishni talab qiladi. Ushbu maqsadda hattoki siyosiy, iqtisodiy yoxud boshqa shunga o'xshash tazyiqlar qo'llanilishi mumkin emas.

¹Карант: Решение по спору о границе между Буркина-Фасо и Мали // Краткое изложение решений, консультативных заключений и постановлений Международного Суда (1948–1991). Организация Объединенных Наций. – Нью-Йорк, 1993. – № R.92. V.5 // un.org.

Davlatni hududiy daxlsizlikka va butunlikka bo'lgan huquqini himoya qiluvchi davlatlarning hududiy butunligi prinsipi davlat suverenitetini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandi a'zo davlatlarni kuch ishlatish va kuch ishlatishni tahdid qilishdan, bundan tashqari, "har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligi" qarshi o'zini tiyish majburiyatini mustahkamlagan.

Hududiy birlik prinsipining ilk ko'rinishi umumjahon tinchlik va hamkorlik to'g'risidagi Bandung Deklaratsiyasida (1955) aks ettirilgan bo'lib, unga ko'ra "har qanday mamlakatning siyosiy mustaqilligiga va hududiy birligiga qarshi agressiya aktlari yoki kuch ishlatishdan o'zini tiyish" ning zarurati mustahkamlangan. "Bandung formulasi" ikki tomonlama shartnomalarda uni keng qo'llanilishiga erishdi. Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga erkinlik berilishi to'g'risidagi Deklaratsiyada "barcha xalqlar ularning milliy hududlarining butunligiga bo'lgan ajralmas huquqqa ega" ekanligi, shuningdek milliy birlik va mamlakat hududiy yaxlitligini to'liq yoki qisman yo'q qilishga qaratilgan urinishlar BMT Nizomi prinsiplari va maqsadlariga to'g'ri kelmasligi ta'kidlandi.

Davlatlar o'rtasidagi ularga tegishli hududlar va resurslarga bo'lgan huquqni himoya qilish bilan hog'liq munosabatlar davlatning hududiy yaxlitligi prinsipining obyekti hisoblanadi.

Ushbu prinsipga muvofiq davlatning va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining majburiyatlari quyidagilardan iborat: davlat hududiga, uning bir qismiga yoki resurslariga kuch bilan yoki kuch ishlatish tahdidi yordamida bevosita yoxud bilvosita tajovuz qilmasliklari lozim. Ular davlat hududi yoki uning bir qismiga bevosita yoki bilvosita ziyon yetkazuvchi har qanday harakatlardan o'zlarini tiyishlari, shuningdek buzg'unchi davlatlar va ularning sheriklarini qo'llab-quvvatlamasliklari lozim.

Davlat hududi BMT Nizomi talablarini buzgan holda kuch ishlatish natijasida harbiy mustamlaka obyekti yoki kuch ishlatish yoxud kuch ishlatish tahdidi natijasida boshqa bir davlatning qo'lga kiritish obyekti bo'lishi mumkin emas. Bunday egallab olish qonuniy deb tan olinmaydi.

Hududiy yaxlitlik haqida mintaqaviy birlashmalarning ta'sis hujjatlarida ham e'tirof etib o'tilgan. Amerika davlatlari tashkilotining Nizomida hududiy yaxlitlikni himoya qilish asosiy maqsadlardan etib belgilandi (1-modda). Shunga o'xshash qoida Afrika birligi tashkilotining Xartiyasida ham o'z ifodasini topgan (2, 3-moddalar).

Inson huquqlari va uning asosiy erkinliklarini hurmat qilish prinsipi

BMT Nizomiga muvofiq asosiy maqsad insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqli ekanligiga hamda ko'p va kam sonli millatlarning teng huquqliligi e'tiqodiga qat'iy ishonitirish hisoblanadi.

Nizomning aniq moddalari bilan inson huquq va uning asosiy erkinliklarini himoya qilish yanada mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda hamda 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda davlat tomonidan o'z yurisdiksiyasi doirasida joylashgan barcha shaxslarga tegishli qonunchilik hujjatlari va boshqa choralarni qabul qilish orqali berish majburiyati yuklangan asosiy inson huquq va erkinliklari sanab o'tiladi. Shu bilan birga qonuniy cheklovlarga ham yo'l qo'yilgan, misol uchun davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi sog'ligi va axloqini yoxud boshqa shaxslarhuquq va erkinliklarini himoya qilishlikka ham yo'l qo'yiladi. 1975-yilgi Yakuniy hujjat prinsiplari Deklaratsiyasida VII prinsip "inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, shu jumladan erkin fikrlash, e'tiqodi, dini va imonini" hurmat qilish mavjud.

Nizomga muvofiq BMT doriasida inson huquqlariga oid bir qancha universal konvensiyalar qabul qilindi. Bir qancha inson huquqlariga oid konvensiyalar mintaqaviy miqyosda, ayniqsa, Yevropa Kengashi doirasida qabul qilindi. Natijada xalqaro huquqning alohida sohasi – "inson huquqlari xalqaro huquqi" tashkil topdi, buning negizida inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi yotadi.

Inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning subyekti davlatlar va davlatlararo xalqaro tashkilotlar hisoblanadilar. Ularga yuqorida qayd etilgan hujjatlar asosida yaratilgan standartlarga muvofiq mazkur prinsipning manbasi hisoblangan inson huquqlarini ta'minlash va uni himoya qilish bo'yicha asosiy majburiyatlar yuklatilgan. Inson huquqlarining qator ro'yxati doimo ko'payib bormoqda, shu bilan birga standartning umumiy darajasi va ushbu huquqni himoyasi oshib bormoqda. Jumladan, XX asrning oxirgi choragida insonlarning tajovuzsiz hayotda, yadrosiz zaminda va ekologik jihatdan toza muhitda yashash huquqi kabi huquqlari paydo bo'lmoqda va qonuniy ta'minlanmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro standart doirasida jahon hamjamiyati, uning timsolida sifatidagi organlar – BMT Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik kengashi va Xalqaro sudi, YXHT, Amerika davlatlari tashkiloti, Yevropa kengashi v.b. hisoblanadi. Mazkur organlar ma'lum bir davlatda buzilayotgan inson huquqlarini himoya qilishni talab qilish bo'yicha xohlagan davlatga murojaat qiladilar. Ayniqsa, genotsid, irqiy ayirmachilik (aparteid), irqiy kamsitish, qiynoq va boshqa harakatlar kabi qo'pol hamda doimiy tarzda inson huquqlarini buzilishi xalqaro jinoyat hisoblanib, bu davlatlarning, davlat rahbarlarining, hukumatning, harbiy idoraning, jinoiy buyruqlarni amalga oshiruvchi konkret ijrochilarning javobgarligini keltirib chiqaradi, bunga nisbatan xalqaro sud organlari – tribunallar ad hoc (Nyurnberg, Tokio – Ikkinchi Jahon urushi natijalari, Yugoslaviya, Ruanda bo'yicha), shuningdek doimiy sud organlari – Xalqaro jinoyat sudi tashkil qilinadi.

Inson huquqlarini oliy ijtimoiy qiymat sifatida tan olish g'oyasi ijtimoiy jihatdan o'z tasdig'ini topgan. Na davlat, na boshqa bir guruhlar yoki qandaydir shaxs xalqaro tan olingan barcha inson huquqlarini yo'q qilishga yoxud uni noqonuniy cheklashga qaratilgan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega emas (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 5.1-moddasi). Ushbu esa inson huquqining xalq va davlat huquqidan ustun ekanligini aslo anglatmaydi. Inson o'z huquqlarini amalga oshirishda davlat va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning huquqlarini hurmat qilishi lozim. Busiz na davlat va na jamiyat mavjud bo'la oladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: "Har bir inson jamiyat, ya'ni uning shaxsi erkin va to'liq shakllanadigan jamiyat oldida o'z majburiyatiga ega". Inson huquqlarini cheklash faqat "demokratik jamiyatning umumiy farovonligi" manfaati yo'lida ekanligi nazarda tutilgan (29-m.).

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi

Ushbu prinsip xalqaro huquq bilan bir vaqtda vujudga kelgan hamda "shartnomalarga rioya qilinishi lozim" (pacta sunt servanda) kabi prinsip sifatida mashhur bo'lgan. Ushbu prinsipsiz xalqaro huquq mavjud bo'lmas edi, chunki unda ushbu huquqning yuridik kuchi mavjud.

1919-yilgi Millatlar Ligasi Nizomi muqaddimasida ligaga a'zo davlatlar "davlatlarning yurish-turish amaldagi qoidalari sifatida tan olingan xalqaro huquqning ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish"lari mustahkamlandi.

BMT Nizomining muqaddimasiga muvofiq a'zo davlatlar "shartnoma shartlaridan va xalqaro huquqning boshqa bir manbalaridan kelib chiqib, adolatga rioya qilinadigan, majburiyatlarga hurmat bilan qaraladigan sharoit" yaratishga kelishib olganlar. Bundan tashqari, BMT Nizomining 2-moddasida shunday deyilgan: "Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlar ushbu nizomga muvofiq o'z zimmlariga olingan majburiyatlarni vijdonan bajaradilar".

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya "Ushbu Nizomga muvofiq barcha davlatlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini vijdonan bajaradilar" mazmundagi prinsipni mustahkamlagan. Shu vaqtning o'zida Deklaratsiya mazkur prinsipning amalga oshirishining juda keng kontekstini ochib beradi: "har bir davlat xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalaridan kelib chiqqan holda o'z zimmlariga olingan majburiyatlarni vijdonan bajarishga majburdirlar". Bu norma 1975-yilgi Yakuniy hujjatda ham o'z aksini topgan.

Vijdoniylik ushbu holatda shuni anglatadiki, bunda tegishli majburiyat halollik bilan o'z vaqtida aniq va uning mazmuniga muvofiq bajarilishi lozim. Bunda davlat o'zining ichki qonunchiligi qoidalarini xalqaro majburiyatini bajarmaslikka sabab qila olmaydi. Hech qanday boshqa vaziyatlar davlatning xalqaro majburiyatini bajarmaslik asosi sifatida xizmat qila olmaydi.

Yadro sinovlari ishlari bo'yicha Xalqaro sudning qarorida shunday deyilgan: "yuridik majburiyatni yaratuvchi va amalga oshirishni tartibga soluvchi, uning manbasi qandayligidan qat'i nazar, asosiy prinsiplardan biri halollik prinsipi hisoblanadi"¹. Normalarni qo'llashda davlat va jahon hamjamiyati manfaatlarini vijdonan oydinlashtirishni, haqiqiy vaziyatni vijdonan aniqlashni, vijdonan normalarni qo'llanilishini, normalarning mohiyati va formal tomonlariga aniq muvofiqligini ta'minlashni, huquq orqali suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

"Pacta sunt servanda" prinsipi bir tomondan 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi va 1986-yilgi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida mustahkamlangan mustaqil, sohaviy xalqaro shartnomalar prinsipi sifatida harakat qilsa, ikkinchi tomondan esa u xalqaro majburiyatni vijdonan bajarish umumiy prinsipining ifodasi hisoblanadi.

Xalqaro majburiyatni vijdonan bajarish prinsipini himoya qilish obyektida davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlarining xalqaro

¹ICJ Reports. 1974. - P.268

odat normalari va shartnomalarini yaratish, joriy qilish va joriy qilinishini to'xtatish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi. Davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tegishli xalqaro huquqiy shartnoma va odat normalariga rioya etilishini talab qilish huquqiga egadirlar; ularda ishtiroki yuzasidan manfaat topishlari, ularda belgilangan ko'rsatmalarni zaruriy amalga oshirilishini himoya qilishlari; huquqi buzilgan davlatlarga yordam ko'rsatish; ba'zi hollarda xalqaro huquqqa muvofiq davlatlar odat normalari va shartnoma shartlaridan kelib chiqib vaziyatni o'zgartirish yoki uni bir tomonlama bekor qilishlari ham mumkin.

Mazkur prinsipga asosan davlatlarning majburiyati xalqaro qonun ijodkorligi sohasida bir-birlarining huquq subyektililigini o'zaro hurmat qilishlari; milliy huquqqa nisbatan xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarning ustunligini tan olish; milliy qonunchilikni o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarga muvofiq keltirish; xalqaro yurish-turish qoidalari va shartnomalarini tuzish va qo'llash jarayonida vujudga keladigan nizolarni faqat tinch yo'l bilan hal etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalqaro shartnomalarga so'zsiz amal qilish prinsipi ham mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq qat'iy va majburiy ravishda rioya etmog'i lozim".

Quyida keltirilgan misol asosida nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipining mohiyatini yoritib bering.

1990-yil Xavfsizlik kengashi BMT Nizomining 39-moddasiga muvofiq Iroq davlatining xatti-harakatlarini "Iroq qurolli kuchlarini Quvayt davlatiga hostirib kirish" deb baholadi hamda shu munosabat bilan buni "xalqaro tinchlik va xavfsizlik buzilishi alomatlari mavjud" deb hisobladi. Shundan keyin Xavfsizlik kengashi mazkur vaziyatni "Iroqning Quvaytga nisbatan qurolli hujumi va Quvaytni zabt etish", "Quvaytning bosib olinishi" va h.k. deb baholadi. Izzchilik bilan harakat qila boshlagan Xavfsizlik kengashi BMT Nizomining 40-moddasi (vaziyatni bartaraf etishga qaratilgan vaqtinchalik choralar)ni bajarish masadida Iroq davlatidan o'z qo'shinlarini Quvayt hududidan olib chiqib ketishni talab qildi hamda tomonlarni vaziyatni hal etish uchun muzokaralarni olib borishga chaqirdi. Shu tarzda ushbu vaqtinchalik choralarini bajarilmasligini hisobga olgan holda Xavfsizlik kengashi BMT Nizomining 41-moddasiga tayanmasdan (havola qilmadan) Iroq davlatiga qarshi iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash to'g'risida qaror qabul qildi. Oqibatda ushbu sanksiyalar dengiz va havo blokadası (boshqa davlat bilan aloqasini uzib qo'yish) kabi choralar bilan to'ldirildi.

Masalan, Serbiya politsiyasi 2001-yil 1-aprel kuni sobiq Yugoslaviya prezidenti Slobodan Miloshevichni hibsga oldi va uni poytaxt qamoqxonasiga joylashtirdi. Bunga oldingi Belgrad rahbariyatiga nisbatan bo'lgan qudratli tashqi pressing sababdir. 31-mart Vashington tomonidan "X kuni" deb e'lon qilinib, unda bir qator ultimatum talablari bajarilishi, shulardan asosiyi Miloshevichni hibsga olish edi. Faqatgina ushbu talablarni bajarilishi evaziga Kosovadagi

¹ "Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси 22.12.1995 й. 172-1-сонли Қонуни билан қабул қилинган. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. - 1995. - №12. - 262-модда.

separatizm muammolari bilan to'qnash kelayotgan Belgrad tashqaridan qo'llab-quvvatlashning davom etishiga "yashil chiroq" bo'lishi mumkin edi.

AQSHning ushbu harakati davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini buzilishi deb hisoblanishi mumkinmi?

Nazorat savollari:

1. Xalqaro huquq prinsiplari bu nima?
2. Xalqaro huquqning asosiy va umum tan olingan prinsiplari orasida farq mavjudmi?
3. Xalqaro huquqning sohaviy prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
4. Qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarda xalqaro huquq prinsiplari o'z ifodasini topgan?
5. Xalqaro huquqning har bir prinsipi to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
6. O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida xalqaro huquq prinsiplarining ifodalanishini ko'rsating.
7. Xalqaro huquqning inson huquqlarini himoya qilish prinsipiga O'zbekiston Respublikasida qay tarzda rioya qilinmoqda?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. —4 январь 2015 йил. — №16 (6199).

Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш — энг олий саодатдир. — Т.: Ўзбекистон, 2015. — 243 б.

О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha brifingda so'zlagan nutqi. 30.06.2016. <http://press-service.uz/uz/news/5291/>.

О'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Т.: О'zbekiston, 2014.

2012-yil 10-sentabrdagi O'RQ-330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. — 2012. — №9/1 (1437).

BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>.

Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya. 1970-yil. <http://www.un.org/>.

YXHT Yakulovchi hujjati. 1975-yil. <http://www.osce.org/>.

Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T., 2002.

Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006.

Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. Cambridge University Press. – New York, 2008.

IV BOB. XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARI

Xalqaro huquq subyektliligi tushunchasi va mazmuni. Xalqaro huquqning birlamchi va ikkilamchi subyektlari. Davlat xalqaro huquqning subyekti sifatida. Oddiy (unitar) va murakkab davlatlarning xalqaro huquq subyektliligining o'ziga xos xususiyati. Doimiy betaraf (neytral) davlatlarning huquq subyektliligi. Millat va xalqlarning xalqaro huquq subyektliligi. Davlatga monand tuzilmalarning xalqaro huquq subyektliligi masalalari. Xalqaro tashkilotlarning huquq subyektliligi. Jismoniy (indivud) va yuridik shaxslarning xalqaro huquq subyektliligi to'g'risidagi masalalar.

Xalqaro huquq subyektliligi tushunchasi va mazmuni

Xalqaro huquq subyektliligi – bu u yoki bu tuzilmaning unga xalqaro huquq subyekti maqomini beruvchi yuridik xossasidir.

Xalqaro huquq subyektliligi mazmuni o'zi ichiga huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati, xalqaro-huquqiy normalarni buzgan taqdirda javobgar bo'lish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquq subyektliligi xalqaro huquq subyekti bo'lgan tuzilma o'z huquqlarini uning huquqi buzilgan taqdirda da'vo qilish yo'li orqali o'z huquqlarini himoya qilish layoqatiga egaligini taqozo qiladi. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro huquq subyektliligi xalqaro huquq subyektlarini javobgarlikka tortish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Xalqaro huquqning barcha subyektlari tegishli huquq va majburiyatlarga ega. Ushbu xususiyat huquq subyektliligi deb nomlanadi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro huquq butunlay davlatning ichki huquq tizimidan farq qiladi. Shu munosabat bilan xalqaro huquqda va davlatning ichki huquqida qo'llaniladigan xuddi shunday tushunchalarning mazmuni ko'p hollarda biri biriga mos kelmaydi. Bu ham "xalqaro huquq subyektliligi" tushunchasiga taalluqlidir. Qator xalqaro shartnomalarning rus tilidagi matni asliga to'g'ri bo'lib, bunda "huquqiy layoqat" termini ham uchraydi. Haqiqatdan ham, xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 6-moddasiga muvofiq "har bir davlat shartnomalar tuzish uchun huquqiy layoqatga egadir". Bunda huquqiy layoqatni

shartnomalar tuzishga qonuniy huquqqa egalik sifatida tushunish lozim bo'radi. Hamda bu huquqiy layoqat xalqaro huquqdan kelib chiqadi.


Xalqaro huquq subyektiligi ichki huquqdagi huquq subyektiligidan farqli o'laroq o'z ichiga xalqaro huquq normalarini yaratish jarayonida ishtirok etish huquqini ham kiritadi. Xalqaro-huquqiy normalarni yaratuvchi alohida xalqaro organ mavjud emas ekan, faqatgina xalqaro huquq subyektlari ushbu normalarni yaratilish jarayonida ishtirok etadilar.

Xalqaro huquq subyekti – bu xalqaro huquqdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'luvchi, uni himoya qiluvchi hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarga kirishuvchi hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyektlari shunday namoyon bo'ladiki, unda subyektlar xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarga kirishadilar. Huquqiy munosabat faqatgina subyektlar o'rtasida vujudga kelishi mumkin.

Huquq subyekti ikkita asosiy tarkibiy elementni o'z ichiga oladi: birinchidan, huquqqa egalik layoqati va majburiyatni bajarish (huquqiy layoqat), ikkinchidan, mustaqil tarzda huquqni amalga oshirish va majburiyatni ado etish (muomala layoqati).

Xalqaro huquq subyektlari ikkita asosiy toifaga bo'linadilar, bular – asosiy (birlamchi) va hosila (ikkilamchi).



Xalqaro huquq subyektlari orasida millatlar va xalqlar alohida o'rin egallaydilar. Biroq hamma xalq va millatlar ham xalqaro huquq subyektiligiga ega bo'la olmaydilar. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, faqat o'z davlatini tuzish maqsadida mustaqillik uchun kurashayotgan mustamlaka qaramligida bo'lgan millat va xalqlar ularni xalqaro huquq subyektivlik deb tan olishlari uchun da'vogarlik qilishlari mumkin.

1986-yilgi Xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasida yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 6-moddasiga muvofiq har qanday hukumatlararo tashkilot xalqaro shartnomalarni tuzish layoqatiga ega bo'ladi.

1950-yilgi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasiga muvofiq xohlagan odam, agar unga nisbatan huquqbuzilishlar sodir etilayotgan deb hisoblasa, ushbu Konvensiya bilan kafolatlangan holda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. Biroq ushbu shaxs 1950-yilgi Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan o'z mamlakatida huquqlarni himoya qilishning barcha imkoniyatlaridan foydalangan bo'lishi kerak.

1950-yildan Yevropa Kengashiga ko'rib chiqish uchun juda ko'plab shikoyatlar beriladi. Mazkur shikoyatlarning asosini yuridik fakt, ya'ni inson huquq va erkinliklarining buzilishi tashkil etadi.

Xalqaro huquqning birlamchi va ikkilamchi subyektlari

Xalqaro huquq oldingi davrlarda faqat davlatlar tomonidan yaratilgan. Albatta, hozir ham davlatning xalqaro normalarni yaratilishidagi roli hanuzgacha hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Davlatlarning xalqaro huquq subyektliligi ular paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Taxminan XX asrgacha davlatlar yagona subyekt bo'lganlar. Vaziyat xalqaro tashkilotlar dunyoda muhim ahamiyatga ega bo'la boshlaganlaridan, birinchi navbatda Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan keyin o'zgarib boshladi. Biroq xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatlarini shunday yuridik sifat bo'lgan xalqaro huquq subyektivligi sifatida tan olmasdan samarali amalga oshira olmadilar. Ayniqsa, bu xalqaro arenada BMT paydo bo'lganida aniq ravshan bo'ldi. BMT Xalqaro sudi o'zining 1949-yilgi konsultativ hujjatida shuni ta'kidladiki, BMT o'zining Nizomi va vakolati doirasida ma'lum bir xalqaro huquq subyektivlikka ega bo'ladi. Biroq xalqaro tashkilotlarning huquq subyektliligi davlatlarning huquq subyektliligidan farq qiladi. Birinchidan, davlatlar huquq subyektivligi ular paydo bo'lishlari tufayli ega bo'ladilar. Buning natijasida ular xalqaro huquqning asosiy subyektlari hisoblanadilar.

Xalqaro tashkilotlarning huquq subyektliligi yasama hisoblanadi. Huquq subyektlilik xususiyatini xalqaro tashkilotlarga xalqaro huquqning nafaqat asosiy subyekt hisoblangan davlatlar beradi, aynan ular tufayli xalqaro tashkilotlar ta'sis etiladi. Ikkinchidan, agar davlatning huquq

subyektliligi universal hisoblansa, unda xalqaro tashkilotlarning huquq subyektliligi, shu bilan birga ularning faoliyat maqsadlari va vakolatlari ta'sis hujjatlari bilan cheklanib qo'yiladi. Shuning uchun ularning huquq yaratish jarayonidagi roli ham cheklangan.

Asosiy (birlamchi) subyektlar davlat hisoblanadi. Hosila (ikkilamchi) subyektlar toifasi – bu, ayniqsa, xalqaro hukumatlararo tashkilotlardir. Ularning yuridik tabiatining o'ziga xos xususiyati, birinchidan, ular o'z qarorlarini ta'sis hujjatlarda qayd qilib qo'ygan holda davlatlarning xohishi bilan tashkil etilgan, ikkinchidan esa, ularning huquqiy maqomining mazmuni va ko'lami har bir tashkilotning vakolatiga va belgilanganligiga aniq muvofiq bo'lgan ta'sis hujjatlarida qayd etilgan (shunday qilib, ularning huquq subyektliligi individuallashtirilgan, funksional hisoblanadi).

Xalqaro huquqning qator subyektlari qatorida maxsus o'rinni milliy suverenitet negizida o'z davlatini qurish uchun mustamlakachilikka, chet el hukmronligiga qarshi kurashayotgan millat va xalqlar egallaydi.

Noan'anaviy subyektlar turi va maqomi to'g'risidagi masala hatto ularni xalqaro huquq subyektliligi tan olingan taqdirda ham bir xilda hal etilmaydi. Shunday bo'lsada, bunday subyektlarning bir nechtasini aytish mumkin. Xalqaro-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarda ularning ishtiroki, binobarin, ularning ma'lum bir xalqaro huquq va majburiyatlar sohibi sifatidagi maqomi real ahamiyat kasb etadi. Bular xalqaro nohukumat tashkilotlar, xalqaro xo'jalik birlashmalari, milliy individ (jismoniy shaxs) va yuridik shaxslar.

“Xalqaro huquq subyektliligi” atamasining o'zi ilmiy terminologiyaga o'ziga xos tarzda aloqadordir hamda xalqaro-huquqiy hujjatlarda u kamdan kam foydalaniladi.

Misol tariqasida, BMT Nizomi asosida davlatlarning o'zaro hamkorlik va do'stona munosabatlariga taalluqli Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya qoidalarini keltirish mumkin, unda “har bir davlat boshqa bir davlatning huquq subyektliligini hurmat qilishga majburdir” deya e'tirof etilgan, shu bilan birga BMT ning dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyasining 176-moddasiga asosan dengiz tubi bo'yicha Organ “o'z maqsad va vakolatiga erishish uchun muhim bo'lgan xalqaro huquq subyektliligiga egadir” deyilgan. Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti Nizomining 5-moddasi 1-qismida “institut hukumatlararo tashkilot maqomiga muvofiq xalqaro huquq subyektliligiga egadir” deb keltirilgan.

Davlat xalqaro huquqning subyekti sifatida

Xalqaro huquqning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bunda, avvalo, u davlatlar tomonidan yaratiladi hamda davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat mavjud bo'lishi barobarida xalqaro huquqning subyekti hisoblanadi. Biroq u yoki bu tuzilma davlat sifatida faqatgina yuridik mezonga (belgi) javob bergan taqdirdagina tan olinadi. Xalqaro huquqda avvallari ushbu mezonlarni o'rnatuvchi odat normalari ishlab chiqilgan edi. Ularning ba'zilar 1993-yilda Montevideoda (Urugvay) tuzilgan davlatlarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi Amerika mamlakatlari Konvensiyasida o'z aksini topgan edi. Ushbu normada ta'kidlanishicha, "davlatlar xalqaro huquqning subyekti sifatida quyidagi belgilarga ega bo'lishi lozim: a) doimiy (turg'un) aholisi bilan; b) ma'lum hududga egaligi; s) hukumatning mavjudligi; d) boshqa davlatlar bilan aloqaga kirishish qobiliyatining mavjudligi". Garchi ushbu konvensiya mintaqaviy xarakterga ega bo'lsa ham bunda odat xususiyatiga ega umumiy xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari o'z aksini topgan edi.

Davlatlarni BMTga qabul qilish to'g'risidagi konsultativ xulosada Xalqaro sud davlatlarning xalqaro majburiyatlarni qabul qilish va uni amalga oshirish sifatlarining mavjud bo'lishi ham ta'kidlanadi. Mazkur sud Nizomning 4-moddasi, 1-bandini tahlil qilib, quyidagi beshita shartni e'tirof etdi, ya'ni nomzodlar: 1) davlat sifatiga ega bo'lishi; 2) tinchliksevar bo'lishi, 3) Nizomga muvofiq zimmasiga majburiyatni olishi; 4) ushbu majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lishi; 5) uni amalga oshirish uchun xohish-irodaning mavjud ekanligi. Ushbu shartlarning barchasi BMT tomonidan, ya'ni Xavfsizlik kengashi va Bosh Assambleya hamda tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan baholanishi lozim.

Davlatning huquq subyektiligi xalqaro huquqning boshqa subyektlarining xohish istaklaridan qat'i nazar, uning mavjudligiga qadar saqlanib qolishi lozimdir.

Doimiy (turg'un) aholi va hudud – bu davlatning katta ahamiyatga ega bo'lgan belgisi hisoblanadi. Aholi soni va hudud o'lchami davlatning xalqaro huquq subyektiligiga ta'sir qilmaydi.

Hukumat yoki davlat hokimiyati organlari – bu aholi va hududlarni boshqarish va nazorat qilish davlat hokimiyatining ma'lum bir organlari amalga oshiradi hamda ushbu organlar xalqaro miqyosda davlat vakili sifatida qatnashadilar. Amalga oshiriladigan nazorat va boshqaruv ma'lum darajada samarali bo'lishi lozim bo'ladi.

Xalqaro munosabatlarga kirishish qobiliyati – bu davlatning xalqaro huquq subyekti sifatidagi zarur belgisi bo'lib hisoblanadi. Xalqaro

huquqning boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishayotgan davlat xalqaro huquqdan kelib chiqqan holda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi.

Davlatning muhim belgilaridan yana biri bu **suverenitet** hisoblanadi. Aynan suverenitetning mavjudligi davlatning xalqaro huquqning boshqa barcha subyektlaridan ajratib turadi. Suverenitet davlatning mustaqil siyosiy-hududiy tuzilma sifatida tavsiflaydi. Suverenitet – davlatning o'z hududi doirasidagi ustunligi va uning tashqarisida, aniqrog'i xalqaro munosabatlarda mustaqilligidir.

Ayrim holatlarda, masalan, mustamlakada davlat o'zining suverenitetligini vaqtinchalik amalga oshira olmaydi. Ammo ushbu holatda ham davlat o'zining suverenitetini yo'qotmaydi, biroq u faqat vaqtincha ma'lum vaziyatlarga ko'ra uni to'liq tarzda amalga oshira olmaydi.

Davlat suverenitetligi mutlaq (**absolut**) emas. Davlat suverenitetni o'z hududi doirasida shunday amalga oshiradi, xalqaro miqyosda ham xalqaro huquq normalariga rioya etgan holda amalga oshiradi. Xalqaro huquqning ko'pgina normalari, masalan, inson huquq va erkinliklari sohasida ichki qonunchilikka o'z ta'sirini o'tkazadi. Xususan, davlat uning hududida joylashgan o'z fuqarolariga va boshqa shaxslarga huquq va erkinliklar taqdim qilar ekan, albatta, u tegishli qonunchilik normalarini qabul qilishi, birinchi navbatda, o'zining xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarishi lozim. Davlatning suveren tengligi prinsipi umume'tirof etilgan hamda umumiy xalqaro huquqning imperativ normalari qatoridadir (**jus cogens**).

Xalqaro huquq subyekti davlat organlari va uning mansabdor shaxslari emas, davlatning o'zi hisoblanadi. Ushbu haqda "hukumatlararo kelishuv", "hukumatlararo tashkilot" kabi terminlarni uchratganda unutmash lozim. Davlat o'z organlari faoliyati uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Shunga muvofiq davlat xalqaro huquqning zarur (muqarrar) subyekti hisoblanadi. Shuning uchun uning xalqaro huquq subyektiligini inkor etish xalqaro huquqning o'zini inkor etish bilan barobardir.

Oddiy (unitar) va murakkab davlatlarning xalqaro huquq subyektililigining o'ziga xos xususiyati

Davlatlar o'z ichki tuzilishidan qat'i nazar, oddiy (unitar) va murakkab (federatsiya)ga bo'linadilar. Unitar davlat yagona davlat hokimiyati, yagona huquqiy tizimga ega yagona davlat tuzilma hisoblanadi. Uning ma'muriy-hududiy birliklari xalqaro munosabatlarda mustaqil sifatga ega bo'lmaydi hamda ularning xalqaro huquq subyektiligi haqidagi masala vujudga kelmaydi. Xalqaro munosabatlarda davlatning o'zigina xalqaro huquqning subyekti sifatida ishtirok etadi.

Murakkab davlat – bu federatsiya. Federatsiya qoidaga binoan suveren davlatlar tomonidan xalqaro shartnomalarga muvofiq tuzilgan. Federatsiya a'zolari (subyektlar) ma'lum bir darajada o'z erkinligini federativ davlat doirasida saqlab qolganlar va shu paytning o'zida xalqaro huquq subyektiligini yo'qotgan edilar. Federatsiya davlat sifatida xalqaro huquq subyektlarining xususiyatini olgan edi. Xalqaro huquqda federatsiya a'zolarining xalqaro huquq subyektilikka ega bo'lish xususida hech qanday norma mavjud emas. Ichki davlat tuzilishi davlatning ichki vakolatlarga oid masalalar qatoriga kiradi. Umumiy xalqaro huquq unitar va federativ davlat o'rtasidagi farqlanishni amalga oshirmaydi.

Ba'zi federativ davlatlar Konstitutsiyalari, masalan, GFR federativ davlat subyektlari suveren davlatlar bilan tor doiradagi masalalar yuzasidan, ya'ni madaniy, ilmiy, texnik hamkorlikka bag'ishlangan shartnomalar tuzish imkoniyatlarini mavjudligini e'tirof etadi. Biroq mazkur xalqaro shartnomalar faqatgina tegishli federativ davlat organlarining roziligi asosida tuzilishi mumkin. Bunda shunday xulosaga kelish mumkinki, butunlay ushbu shartnomalarda qayd qilingan majburiyatlarni federativ davlat subyektlari emas, balki davlatning o'zi zimmasiga oladi. Hamda federativ davlat subyektlari o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalarni buzganlik uchun javobgarlik butunlay federativ davlat zimmasiga yuklatiladi.

Tarix yana shunday tuzilma bo'lmish konfederatsiyalar haqida voqif bo'lgan. Konfederatsiya xalqaro shartnomaga asosan suveren davlatlarning umumiy faoliyatlarini amalga oshirishlik uchun, asosan mudofaa va tashqi siyosat masalalari bo'yicha tuziladigan vaqtinchalik ittifoqi hisoblanadi. Uning a'zolari o'zlarining xalqaro huquq subyektiligini saqlab qolganlar. Binobarin, konfederatsiyaga xalqaro huquq subyektlarining xususiyatlari taqsimlab berilmagan. Biron-bir maqsadga erishilganidan so'ng davlatlarning ushbu ittifoqi parchalanib ketadi yoki federatsiyaga aylanadi.

Oldin Niderlandlar (1580–1795), Amerika Qo'shma Shtatlari (1778–1787), Shveysariya Konfederatsiyasi (1291–1798; 1815–1848), Germaniya ittifoqi (1815–1866) kabi konfederatsiyalar mavjud bo'lgan.

Ma'lumki, Shimoliy Amerika, Shveysariya va Germaniya konfederatsiyalari ma'lum bir federatsiyalarga aylangan edi. Garchi rasman Shveysariya konfederatsiya sifatida nomlanib kelinsa-da, hozirgi davrda konfederatsiyalar mavjud emas.

Doimiy betaraf (neytral) davlatlarning huquq subyektiligi

Hozirgi zamon xalqaro huquq shunisi bilan ajralib turadiki, bunda davlatlar maxsus huquqiy maqomga egadirlar. Bularga neytral, ya'ni betaraf davlatlar kiradi. Doimiy neytral davlatlar instituti XIX asrda vujudga kelgan. Bunday ilk davlatlardan biri 1815-yildagi Vena kongressida Napoleon ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng ittifoqchilar tomonidan tuzilgan shartnomaga asosan Shveysariya tan olingan. Mazkur shartnoma Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya, Portugaliya, Prussiya, Ispaniya va Shvetsiya davlatlari Shveysariya davlatining doimiy betarafliyini tan olishlarini ko'zda tutadi. Ushbu shartnoma jamoaviy kafolatni ham nazarda tutdi. Shveysariya mazkur shartnomaga qo'shildi. Shveysariyaning doimiy neytralitetlik maqomi hozirgacha amalda.

Doimiy neytralitet – davlatning sodir bo'layotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday urushlarda ishtirok etmaslik va davlatning shunday urushlarga jalb etilishiga undovchi har qanday harakatlardan o'zini tiyish yuzasidan majburiyatni olgan xalqaro-huquqiy maqomi hisoblanadi.

Ko'pincha doimiy neytralitet maqomi xalqaro shartnoma sifatida ham davlatning milliy huquqiy hujjati sifatida ham mustahkamlangan. Har bir davlat xalqaro huquq normalari va prinsiplarini hisobga olgan holda o'zining tashqi siyosatini mustaqil belgilashga oid suveren huquqqa egadir. Mazkur huquqning ko'rinishi bo'lib davlatning o'z doimiy neytralitetini o'rnatish vositalarini tanlash hisoblanadi. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur maqom faqatgina davlat tomonidan va uning tegishli ichki me'yoriy hujjatlari qabul qilish asosida belgilanadi. Faqatgina bunday hollarda mazkur maqom boshqa davlatlar tomonidan e'tirofqa sazovor bo'lishi muhimdir.

Doimiy neytralitet maqomi davlatning xalqaro qurolli to'qnashuvlarda ishtirok etmaslik, boshqa davlatlar bilan nizo va boshqa kelishmovchiliklarni hal etishda qurolli kuchlarni ishga solmaslik, o'zini himoya qilish vaziyati bundan mustasno harbiy bloklar va ittifoqlarda qatnashmaslik, harbiy masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalarni

tuzmaslikni talab qiladi. Davlatlar o'z hududlarini chet davlatlar harbiy bazalari yoki qurolli kuchlarni joylashtirish, jumladan ushbu kuchlarni olib o'tish (tranzit)ga ruxsat bermaslik majburiyatini ham oladilar. Doimiy neytralitet maqomiga ega bo'lgan barcha davlatlar, hozirda BMT a'zolari hisoblanadi. Bunday davlatlar BMT Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni tiklash uchun BMT Xavfsizlik kengashi tomonidan o'tkaziladigan tinchlik o'rnatishga qaratilgan harbiy harakatlarda ishtirok etishlari lozim. Bunday tinchlik o'rnatishga qaratilgan harbiy harakatlar, jumladan, qurolli kuchlarni ishga solish orqali o'tkaziladi. Shu munosabat bilan doimiy neytralitet maqomining bunday harbiy harakatlarda ishtirokining bir-biriga to'g'ri kelishi yuzasidan savol tug'iladi. Shuni qayd etish lozimki, BMT Xavfsizlik kengashi qurolli kuchlarni ishga solib tinchlik o'rnatishga qaratilgan harbiy harakatlarni amalga oshirishda doimiy neytralitet maqomini BMT Nizomining 48-moddasiga muvofiq bunday davlatlar faqatgina mojarolardan keyin tinchlikni barpo etishda ishtirok etishlarini o'rnatishi mumkin. Doimiy neytralitet maqomi davlatlarning xalqaro huquq subyekti sifatidagi o'rnini kamsitmaydi. Doimiy neytralitet maqomiga ega davlatlar tomonidan zimmlariga olingan cheklovlar ular tomonidan ixtiyoriy ravishda bir tomonlama qabul qilingan.

Faqatgina xalqaro huquqning teng huquqli subyekti – davlat doimiy neytralitet maqomiga ega bo'lishi mumkin. Mazkur maqomdan kelib chiqadigan majburiyatlar uning suverenitetligini cheklashga xizmat qilmaydi.

Shveysariya, Avstriya va Malta davlatlari o'z ichki qonunchiligiga asosan boshqa mamlakatlar tomonidan tan olingan doimiy neytral davlat hisoblanishadi. Turkmanistonning doimiy neytraliteti "Turkmaniston Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni hamda 1995-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Turkmanistonning doimiy neytralitetligi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni bilan e'lon qilindi. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi bilan 1995-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Turkmanistonning doimiy neytralitetligi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Turkmaniston Konstitutsiyasining 1-moddasida ko'rsatilgan hujjatlarning mazmuni xulosalangan va "jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan Turkmanistonning neytraliteti uning ichki va tashqi siyosatining asosi hisoblanadi" kabi qoida mustahkamlangan.

Millat va xalqlarning xalqaro huquq subyektiligi

Avval ta'kidlanganidek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan subyektlari davlatlar va davlatlararo tashkilotlar hisoblanadi. Mustaqil davlat tuzish uchun kurashayotgan millatlar va xalqlarning xalqaro huquq subyektiligi to'liq tan olingan emas.

Millatlar deb tarixan yuzaga kelgan quyidagi alomatlar bilan belgilanadigan odamlarning birligi tushuniladi: hududlarning birligi; iqtisodiy hayotning birligi; madaniyat umumiyligida namoyon bo'lgan ruhiy uyg'unligi.

Bunday huquq subyektilik konsepsiyasi rivojlanayotgan va sotsialistik mamlakatlar tomonidan ilgari surilgan. BMT hujjatlarida bunday holatlarda "milliy-ozodlik harakati" iboralari qo'llaniladi. Bunday ibora bir muncha to'g'ri ekanligi ta'kidlandi. Kurashayotgan millatlarning alohida maqomi to'g'risidagi masala ushbu kurashning milliy ozodlik harakati darajasiga yetganida vujudga keladi. Bunday sharoitda ma'lum bir hududni nazorat qiluvchi hokimiyat organlari mavjud bo'ladi. Aslida gap davlatning uning tashkil topish jarayoni haqida ketmoqda.

Xalqlarning teng huquqligi va o'z-taqdirini o'zi belgilash prinsipi BMT Nizomida mustahkamlangan (1-modda 2-band). Ushbu prinsip asosida tashkilotning o'zi millatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. Mazkur prinsipni implementatsiya qilishda BMT o'z rahnamoligida individual kelishuvlar asosida kiritilgan shunday hududlarni boshqarish va kuzatish uchun xalqaro vasiylik tizimini yaratdi. BMT Nizomining 76-moddasiga muvofiq ushbu tizimning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib ushbu vasiylik ostidagi aholining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti, ta'lim sohasidagi rivojlanishiga, ularning o'z-o'zini boshqarish yoki mustaqillikka qaratilgan rivojlanishlariga yordam berish hisoblanadi.

Huquq subyektilik bunda vaqtinchalik va cheklanganlik ifodasida namoyon bo'ladi. Uning vazifasi ma'lum hududlarni nazorat qiluvchi hukumat bilan huquqiy munosabatning mumkin ekanligini belgilashdir. Boshqa bir vazifasi esa mazkur harakatni xalqaro huquqning, avvalo, xalqaro gumanitar huquq qaramog'i ostiga qo'yishdan iborat.

1977-yilda qabul qilingan 1949-yildagi Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasiga qo'shimcha I protokol hamda xalqaro (davlatlararo) qurolli mojarolar qurbonlariga taalluqli masalalar mazkur tushunchalar bilan "xalq tomonidan o'z taqdirini o'zi belgilash

huquqini amalga oshirishda mustamlakachilikka va chet el bosqiniga va rasist rejimiga qarshi kurashlari” kabi mojarolarni ham qamrab olinishini ta’kidladi (1-modda). Bu shuni anglatadiki, ushbu mojarolarga xalqaro gumanitar huquqi davlatlar o’rtasidagi mojarolarga ham bir hil qo’llaniladi.

Xalqaro huquqning subyekti faqat o’z milliy ozodligi va mustaqil davlat qurish uchun kurashayotgan millat va xalqlar hisoblanadi. Bunday milat va xalqlarning xalqaro huquqning subyektlari qatoriga qo’shish qoidaga muvofiq ular tomonidan qandaydir bir kurashni muvofiqlashtiruvchi organ (masalan, bunday ogran Palastinni ozod qilish tashkiloti hisoblanadi), keyinchalik ushbu organ mustaqil davlat tashkil qilinishigacha ular nomidan ish olib boruvchi tashkil qilingandagina vujudga keladi.

Mazkur harakatlarning cheklangan huquq subyektliligi paydo bo’lishi bilan umumiy xalqaro tashkilotlarda ular teng huquqli a’zo emas, balki kuzatuvchilik maqomiga ega bo’ladilar. Ushbu holat ayrim hollarda ularga mintaqaviy tashkilotlarning teng huquqli a’zosi bo’lishlari uchun to’sqinlik qilmaydi. Masalan, Falastinni ozod qilish tashkiloti bunday mintaqaviy tashkilotlar, jumladan Arab davlatlari ligasi, Afrika birligi tashkilotining a’zosi hisoblanadi. Bunday a’zolik BMT da va boshqa universal tashkilotlarda kuzatuvchi maqomini olish uchun ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribadan shuni kuzatish mumkinki, umumiy xalqaro huquq metropoliya davlatlardan mustamlaka qaramligidagi millat yoki xalqlarning xalqaro huquq subyektliligini olish imkoniyatini ham tan oladi. Agar shunday xalq yoki millat o’z ozodligi uchun kurashni boshlasa hamda hudud va xalqlarning anchagina qismi ustidan boshqaruv va nazoratni amalga oshirsa, bunday kurash mobaynida xalqaro huquq normalariga rioya qilsa, xalqaro miqyosda xalq nomidan qatnashuvchi ozodlik organini tuzsa, u holda uning xalqaro huquq subyektliligi tan olinadi. Mohiyatan, mazkur shartlarga rioya etilishida o’z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar ma’lum bir davlatchilik belgilariga ega bo’ladilar. Hamda ushbu xalqlar yangi davlat barpo etish bosqichida xalqaro huquq subyektliligiga ham ega bo’ladilar.

Davlatga monand tuzilmalarning xalqaro huquq subyektliligi masalalari

Davlatga monand tuzilmalarga Vatikan (Muqaddas Taxt) taalluqlidir. 1870-yilgacha Papa hukmronligi davlati mustaqil tuzilma sifatida va

tashkilotlarning qoidalari, ya'ni qaror, rezolyutsiya va amaliyotga murojaat qilish lozimdir. Ushbu qoidalar asosida davlatlar tomonidan xalqaro tashkilotlarning huquq subyektililigini tan olish faktini o'rnatish mumkin bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar ularning yuridik tabiatiga muvofiq davlatlar bilan solishtirilganda cheklangan huquq subyektilikka ega. Hukumatlararo tashkilotlardan tashqari xalqaro huquqning subyekti bo'lib o'zga xalqaro organlar hisoblanishi mumkin. Masalan, xalqaro jinoyat sudining Rim Nizomiga muvofiq (1998) mazkur sud xalqaro huquq subyektilikka ega. Albatta, Xalqaro jinoyat sudining huquq subyektiligi shunday hukumatlararo tashkilotlarga qaraganda cheklangan bo'ladi. Xalqaro jinoyat sudi o'z vakolati doirasida maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquq subyektilikka ega.

Davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi 1986-yilgi Vena konvensiyasining 6-moddasiga muvofiq har qanday hukumatlararo tashkilot xalqaro shartnomalarni tuzish bo'yicha huquqiy layoqatga ega.

Hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquqning subyekti bo'lib hisoblanishining sababi ularning ta'sis hujjatlari tashkilotlar o'rtasidagi va ularning a'zo davlatlari o'rtasidagi, aniqrog'i, o'z tavsifiga ko'ra davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu ta'sis hujjatlar birinchi navbatda tashkilotga a'zolik, uning maqomi, xalqaro shartnomalarni tuzish vakolatiga taalluqli masalalarni aniq belgilaydi. Ular tashkilotning maqsad va vazifasi, uning organlari vakolatini, unga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tartibini belgilovchi boshqa normalarni ham mustahkamlaydi.

Davlatlararo tashkilotlarning xalqaro huquq subyektiligi umume'tirof etilgan. U ko'pgina xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan va umumiy xalqaro huquqning institutlaridan biriga aylandi. Davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi 1986-yilgi Vena konvensiyasining muqaddimasida shunday deyilgan: "Xalqaro tashkilot uning maqsadlariga erishish va vazifalarini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan shartnomalarni tuzish bo'yicha huquqiy layoqatga ega. Xalqaro tashkilotlarning o'zaro yoki davlatlar bilan shartnomalarni tuzish amaliyoti ularning ta'sis hujjatlariga muvofiq tarzda bo'lishi lozim". Tashkilotning huquq subyektiligi BMT Xalqaro sudining qarori bilan ham tasdiqlangandir. Bunda ushbu huquq subyektilikning o'ziga xos qirralari qayd qilingan. Xalqaro huquqning mustaqil subyekti bo'lgan tashkilot umumiy xalqaro huquq normalaridan kelib chiqqan holda majburiyatlarga ham egadir. Demak, tashkilot uchun

uning ishtirokisiz davlatlar tomonidan yaratilgan normalar ham majburiydir.

Xalqaro sud qaror qildiki, hech narsa xalqaro tashkilotni "davlatdan ustun" shakl sifatida ko'rishga asos bo'la olmaydi. Tashkilot – bu davlatlar hamkorligining organidir, davlat ustidan hukmron hokimiyat emas. BMT Bosh Assambleyasi bir necha bor ta'kidladiki, Tashkilotning kuch-qudrati uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning hamkorligiga bog'liqdir¹.

Har bir xalqaro tashkilotda uning nizomi bilan belgilanadigan ko'lam, xususiyat va shartnomaviy huquqiy layoqat o'ziga xosdir.

Hozirgi davrda birmuncha ma'lum bo'lgan tashkilotlar Birlashgan millatlar tashkiloti, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, Afrika mamlakatlari birligi tashkiloti, MDH v.b. hisoblanadi.

Qator hollarda xalqaro tashkilotlarning vorisligi amalga oshirilmogda, bunda ularning vazifalari uzluksizligini qo'llab-quvvatlash maqsadida ma'lum vakolatlar ular tugatilganidan keyin davlatlar tomonidan yangi ta'sis etilgan tashkilotga beriladi. Misol uchun BMT Millatlar Ligasining xalqaro shartnomalar qatori uning huquq va majburiyatlarining vorisi hisoblanadi.

Xalqaro huquq xalqaro tashkilotning javobgarligini ular tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar va ta'sis hujjalari qoidalarining hamda umume'tirof etilgan xalqaro – huquqiy prinsip va normalarni buzgan taqdirda tan oladi.

Ko'pgina hukumatlararo tashkilotlarning ta'sis hujjalari ushbu tashkilotlarning huquq subyektiligi to'g'risida aniq ravshan qoidalarni o'z ichiga olgan. Bunga misol sifatida Yevropa Ittifoqining (211-m.), Markaziy Amerika iqtisodiy integratsiya bankining (1-m.), Afrika taraqqiyot banki (50-m.)ning Nizomlarini keltirish mumkin.

Jismoniy (indivud) va yuridik shaxslarning xalqaro huquq subyektiligi to'g'risidagi masalalar

Inson huquqlari xalqaro huquqi – bu shaxs (indivud)larning huquqlari va asosiy erkinliklarini xalqaro himoya qilishni tartibga soluvchi hamda milliy huquq uchun xalqaro standart sifatida g'aydalanuvchi xalqaro huquq prinsiplari va normalari

¹ 1951 йил 25 мартдаги Халқаро соғлиқни сақлаш ташкilotи билан Миср ўртасидаги Келлишуви тохлат. 20 декабрь 1980 йилги Консултатив хулоса. // Краткое изложение решений, консультативных заключений и постановлений Международного Суда (1948–1991). Организация Объединенных Наций. – Нью-Йорк, – 1993. – №R.92. V.5

Inson hamda fuqarolar huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan ko'pgina universal yoki mintaqaviy xalqaro shartnomalarda bir ko'rinishda individ (shaxs)ga qaratilgan qoidalar o'z aksini topgan. Boshqacha aytganda, bunday shartnomalar indvidlarning huquq hamda erkinliklarini bevosita yaratayotgandek tuyuladi. Shu orada shartnomalar davlatlar tomonidan tuziladi va shu asnoda davlatlar o'z yurisdiksiyasi ostidagi indvidlarning tegishli huquq va erkinliklarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Agar a'zo davlat mazkur majburiyatlarni bajarmasa shartnomaga a'zo boshqa davlatlar ushbu majburiyatlarni buzilayotganligi haqida da'vo qilish huquqiga egadirlar. Indvidlar o'z davlatlariga bu haqda da'vo qilishlari mumkin, agar inson huquqlari va erkinliklariga oid milliy qonunchilik normalari bajarilmayotgan bo'lsa. Aksariyat hollarda agar xalqaro shartnomalar milliy qonunchilikka qabul qilingan, ya'ni o'zgartirilgan bo'lsa, indvidlar, shuningdek o'z davlatlariga mazkur xalqaro shartnomani bajarilmayotganligi haqida da'vo (shikoyat) qilish huquqiga egadirlar. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, milliy qonunchilik bilan o'rnatilgan jarayonga muvofiq shikoyat inson huquq va erkinliklarini buzgan davlat organlariga nisbatan beriladi.

Qator xalqaro shartnomalar ishtirokchi davlatlarning o'z fuqarolariga davlatning huquqiy himoya vositalarining batamom tugashi bilan xalqaro organlarga, qolaversa, sud organlariga huquq va erkinliklari buzilganligi munosabati bilan shikoyat qilish huquqini ta'minlash majburiyatini nazarda tutadi. Bunday organlarda davlat ham o'z fuqarolari kabi teng huquqlardan foydalanadi. Shunday xulosa qilish mumkinki, indvidlar xalqaro huquq subyektililigining ba'zi xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Indvidlar uchun xalqaro huquq tomonidan bevosita huquq va majburiyatlar yaratishda o'zgacha hol bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda ichki qonunchilik yordami bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Nyurnbergdagi xalqaro harbiy Tribunalning hukmida shunday deyilgan: xalqaro huquqqa nisbatan jinoyat abstrakt tuzilmalar tomonidan emas faqat odamlar tomonidan sodir etiladi hamda ushbu jinoyatni sodir etgan indvidlarni jazolash yo'li bilan xalqaro huquqning ko'rsatmalari majburiy ravishda amalga oshirilishi mumkin".

Xalqaro huquqning hozirgi holati indvidga qaratilgan normalarni shartnomalarga to'g'ridan to'g'ri kiritilishiga yo'l qo'yishni qayd qiladi.

Ular shartnomalar bilan o'rnatilgan inson huquqlari, ham ularning majburiyatlari va javobgarligiga taalluqli. Ilk marotaba shunday normalar mavjud ediki, bunda ma'lum bir shaxslarning harbiy jinoyatlari, tinchlik va insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlari uchun xalqaro jinoiy javobgarlik haqida so'z boradi. Yuridik shaxslar, eng avval transmilliy korporatsiyalar jismoniy shaxslar kabi xalqaro huquq subyektiligiga ega bo'lmaydilar. Garchi ushbu kompaniyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlararo shartnomani eslatuvchi shartnomalarni davlatlar bilan imzolasalarda aksariyat hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur shartnomalar xalqaro huquq ta'siri ostida bo'lmaydi. Tegishli davlat hududidagi korporatsiyalarning faoliyati ushbu davlatlarning milliy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ular xalqaro huquq subyektlari emas, balki u yoki bu davlatning subyektlari hisoblanadilar. Individ-huquqbuzarlar ishtirokidagi huquqiy munosabatlarni aniq belgilashda xalqaro ahamiyatdagi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar muhim rol o'ynaydi. Siyosiy va fuqarolik huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (15-m.) shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish imkoniyatini nafaqat davlatning ichki qonunchiligi, balki xalqaro huquqqa mosligini bog'laydi. Bevosita individ ishtirokidagi xalqaro miqyosdagi huquqiy munosabatlar individni inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha davlatlararo organlarga murojaat qilish huquqini mustahkamlovchi va aniq belgilovchi shartnomaviy hujjatlarda mustahkamlangan. (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga Fakultativ protokol, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi №11 Protokol bilan birgalikda v.b.).

Hozirgi vaqtda individning huquq va majburiyatlari yoxud davlatning ularga nisbatan huquq va majburiyatlari ko'pgina xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan. Bular ichida eng muhimi bo'lib 1949-yilgi Amaldagi armiya safida kasal va yaradorlarning qismatini (og'ir hayotini) yaxshilash to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi; 1949-yilgi Harbiy asirlar bilan muomalada bo'lish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi; 1949-yilgi Urush davrida aholini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi; 1945-yilgi Xalqaro harbiy Tribunal Nizomi; 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi; 1948-yilgi Genotsid jinoyati va uning uchun jazo to'g'risidagi Konvensiya; 1956-yilgi Qul savdosi va qullik hamda qullikka o'xshash odat normalari va institutlariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya; 1953-yilgi Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konvensiya; 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi

konvensiya; 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt; 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt; 1984-yilgi Qiynoqqa qarshi va boshqa kasmituvchi yoki g'ayriinsoniy, shafqatsiz muomala va jazo turlariga qarshi Konvensiya; Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ma'qullangan bir qator konvensiyalar hisoblanadi. Masalan, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 6-moddasida shunday deyilgan: "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uning huquq subyektliligini tan olishga bo'lgan huquqqa egadir"

1995-yilgi Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi MDH konvensiyasida shunday deyilgan: "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, uning huquq subyektliligini tan olishga bo'lgan huquqqa egadir" (23-m.).

Insonning tan olingan asosiy huquqlaridan biri bo'lib, uning huquq va erkinliklari amalga oshiriladigan xalqaro tartibga bo'lgan huquqi hisoblanadi (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 28-m.). BMT Nizomi inson huquqlarini xalqaro himoya qilishning davlatlararo xususiyatini yetarli darajada aniq belgilab berdi: "Inson huquqlariga va uning asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni rivojlantirish va rag'batlantirishda... xalqaro hamorlikni amalga oshirish". Davlatlar hamkorlikni amalga oshirib, o'z zimmasiga individning ma'lum bir huquqlarini tan olishni, uni amalga oshirishning tegishli va xalqaro mexanizmlarini yaratish majburiyatini oladi.

Masalan. RF Tashqi ishlar vazirligi vakili o'z rasmiy bayonotida RF subyektlari xalqaro huquq subyekti maqomiga ega emasliklarini, RFning ular bilan tuzgan kelishuvlari xalqaro shartnoma sifatida qaralmasligini ta'kidladi.

Ushbu bayonotni sharhlang.

Masalan. O'tgan asrning 40-yillar oxirida Britaniya mustamlakasi Hindistonni Pokiston va Hiniston davlatlariga bo'lish natijasida huquqiy vorislik masalasi paydo bo'ldi. Britaniya mustamlakasi ostidagi Hindiston BMT ning ta'sischilaridan biri edi. Mamlakatni taqsimlashda dominion (1947-yilgacha Britaniya imperiyasiga kirgan, formal jihatdan mustaqil bo'lgan davlat) – Hindiston oldingi Britaniya mustamlakasi ostidagi davlat kabi xalqaro miqyosdagi siymo ekanligi va BMT ning a'zosi sifatida qolishiga da'vo qildi. Boshqa tomondan Pokiston ham Britaniya mustamlakasi ostidagi davlatning huquq subyektliligi taqsimlanganligi va ikkita yangi davlat BMTga a'zolikka nisbatan huquqiy voris ekanliklarini ta'kidladi.

Aytingchi, qay bir davlatning nuqtayi nazari xalqaro huquqqa muvofiq deb e'tirof etiladi?

Xalqaro huquqda tan olish va huquqiy vorislik

Tan olish – davlatning ixtiyoriy ravishda, bir tomonlama qabul qilgan hujjatidir. Unda davlat bevosita yoki bilvosita biron bir davlatni xalqaro huquq subyekti sifatida tan olishi va u bilan rasmiy munosabat o‘rnatish maqsadi borligi yoki davlatda yoxud uning bir qismida g‘ayrikonstitutsiyaviy yo‘l bilan kelgan hokimiyatni xalqaro munosabatlarda ushbu davlatning yoki shu hududda yashaydigan xalqning vakili sifatida samarali ishtirok etish mumkin deb hisoblanish to‘g‘risida bayonot beradi.

Xalqaro huquqiy tan olish - bu xalqaro huquqqa muvofiq davlatlar tomonidan yangi davlatni yoki hukumatni yoxud rasmiy yoki norasmiy, to‘liq yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan davlat tomonidan qabul qilingan hujjat.

Tan olish majburiyati mavjud emas. Bu davlatning huquqidir.



Xalqaro huquqiy tan olishning de-yure va de-fakto shakllari an'anaviy hisoblanadi.

Hech qanday shartsiz rasmiy tan olish to‘g‘risidagi de-yure va de-fakto tan olish to‘g‘risidagi diplomatik aloqalar o‘rnatish yoki shunga rozi bo‘lish haqidagi bayonotlar rasmiy tan olish hisoblanadi.

Norasmiy tan olish u yoki bu davlatning hukumati rasmiy ravishda tan olinmagan mamlakat hukumati bilan aloqaga kirishish, ba‘zan adhoc

xalqaro huquqiy tan olish deb ataladigan, bir-birini tan olmaydigan davlatlar tomonidan xalqaro konferensiyalarda yoki xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilishi hisoblanadi.

Tan olayotgan taraf tomonidan zarurat bo'lganda bevosita xalqaro huquqiy munosabatlarga kirish niyatini tasdiqlovchi guvohnoma xalqaro huquqiy tan olishni rasmiylashtiruvchi hujjatdir. Shu bilan birga bu yangi davlat va hukumatni tuzish vositasi hisoblanmaydi.

Huquqiy vorislik – huquqda belgilangan tartib va qoidalarga muvofiq bir subyektga tegishli huquqlarning boshqa subyektga o'tishidir.

Demak, huquqiy vorislik huquqda nazarda tutilgan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan yuridik hodisa, ya'ni yuridik faktdan kelib chiqadigan yuridik oqibatlarni ifodalaydigan tushunchalardir, degan xulosa kelib chiqadi. Bunda bir subyektga tegishli huquq va majburiyatlarning boshqa subyektga o'tishi bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlar haqida gap ketyapti. Bunday hol huquq subyektini o'z faoliyatini tugatishi va yangi subyektning vujudga kelishi munosabati bilan boshqa subyekt bilan birlashishi; ikki yoki undan ortiq xalqaro huquq subyektlariga ajralishi natijasida sodir bo'ladi.

Xalqaro huquqqa binoan huquqiy vorislik deganda, xalqaro huquqda belgilangan holatlarda xalqaro huquq subyektiga tegishli huquq va majburiyatlarning boshqa subyekt yoki subyektlarga o'tishini tushunish lozim.

Nazorat savollari:

1. Milliy huquq va xalqaro huquq subyektlarining belgilarini solishtiring.
2. Davlatning xalqaro huquq subyektini sifatida belgilari nimalardan iborat.
3. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning ikkilamchi subyektini sifatida namoyon bo'lish xususiyatlarini ko'rsaring.
4. Davlatlarning birlashishi yoki bo'linishida xalqaro huquq subyektliligi masalasi qanday hal qilinadi?
5. Qaysi holatlarda tan olish bildiriladi?
6. Xalqaro huquqiy tan olishning ahamiyati nimada?
7. Xalqaro huquqiy tan olishning shakllari va turlarini bayon qiling.
8. Davlatlarning huquqiy vorisligi mazmunini yoriting.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2015. – 24 январь. – №16 (6199).
2. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – 243 б.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha b'rifingda so'zlagan nutqi. 30.06.2016. <http://press-service.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2014.
5. 2012-yil 10-sentabrdagi O'RQ–330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – №9/1 (1437).
6. BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>.
7. Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya. 1970-yil. <http://www.un.org/>.
8. YXHT Yakulovchi hujjati. 1975-yil. <http://www.osce.org/>.
9. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – Т.: 2002.
10. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – Т.: Adolat, 2006.
11. Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. Cambridge University Press. New York, 2008.

V BOB. XALQARO HUQUQDA AHOLI

Xalqaro huquqda aholi tushunchasi. Fuqarolik va fuqarolikka ega bo'lish. Fuqarolikni yo'qotish va fuqarosizlik. Chet el fuqarolari. Mehnatkash-migrantlarning maqomi. Qochoqlar maqomi. Boshpana huquqi

Xalqaro huquqda aholi tushunchasi

Hozirgi kunga kelib, Yer yuzida aholi soni kundan kunga o'sib borishi kuzatilmoqda.

Aholi deganda, ma'lum bir davlat hududida yashab kelayotgan va ushbu davlatning yurisdiksiyasi ostidagi barcha jismoniy shaxslar nazarda tutiladi.

Ma'lum hududda yashab kelayotgan jismoniy shaxslar mazkur davlatda ega bo'lgan o'z huquqiy maqomiga ko'ra turli kategoriyalarga tasniflanadi:

1. Fuqarolar;
2. Chet el fuqarolari, ya'ni boshqa davlat fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar;
3. Apatridlar, ya'ni fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar;
4. Bipatridlar, ya'ni ikki fuqarolikka ega bo'lgan shaxslar.

Lekin Latviyada, yana bir maxsus maqomga ega aholi kategoriyasi mavjud, ya'ni "fuqaro emaslar". Ushbu qo'shimcha maqom dunyo bo'yicha faqat Latviyada bor va "fuqaro emaslar" turkumiga 400 mingga yaqin rus millatiga mansub jismoniy shaxslar kiradi. Ular asosiy siyosiy va fuqarolik huquqlariga ega emaslar. Ushbu holat xalqaro huquq normalariga zid, albatta.

Barcha davlatlarda aholining huquqiy maqomi bir xil emas. Ma'lumki, aholining huquqiy maqomi uning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi va har bir davlatning ichki qonunchiligiga, siyosiy-iqtisodiy rivojlanganligiga ko'ra shakllanadi. Har bir davlatda o'rnatilgan siyosiy tartibga ko'ra, undan tashqari, davlatda diniy qarashlarning o'rniga, ma'naviy milliy urf-odatlariga ko'ra belgilanadi. Va, albatta, har bir davlatning o'z milliy qonunchiligida fuqarolar, apatridlar, bipatridlar, chet el fuqarolarning huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy aktlar mavjud. Shubhasiz, faqat davlat fuqarolari davlat oldida eng keng doirada huquq va majburiyatlarga egadir.

Ma'lumki, SBSEning 1989-yilgi Vena Yakunlovchi hujjati va 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga binoan, har bir davlatning milliy, ya'ni ichki qonunchiligi xalqaro huquqning normalariga moslashtirilishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratilgan, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks ettirilgan normalarga muvofiqlashtirilgan.

Shunday qilib, ma'lum bir davlat hududida yashab kelayotgan barcha jismoniy shaxslar mazkur davlat yurisdiksiya ostida, fuqarolar esa maxsus yurisdiksiya ostida hisoblanadi.

Faqat diplomatik va konsullik vakolatxona xodimlari, maxsus missiyalar xizmatchilari va ularning oila a'zolari mazkur davlat yurisdiksiyasi ostida bo'lmaydilar.

Fuqarolik va fuqarolikka ega bo'lish

Fuqarolik – bu jismoniy shaxs va davlatning bir-biriga nisbatan mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlariga asoslangan uzluksiz huquqiy bog'liqligi.

Mazkur bog'liqlik fuqaroning yashash joyidan qat'i nazar, tug'ilishi bilan boshlanadi va butun umri davomida yoki fuqarolikdan chiqishiga qadar uzluksiz davom etadi.

Har bir davlat o'z qonunchiligida (o'z Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy aktlarida) ushbu huquq va majburiyatlarni alohida belgilagan. Masalan, 1992-yilgi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik to'g'risidagi qonunlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida qabul etilgan ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining shu Qonunga muvofiq chiqariladigan boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Mazkur Qonunning 1-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi.

O'z hududidan tashqarida, ya'ni biron-bir boshqa davlat hududida istiqomat qilayotgan davlat fuqarosi o'z davlati bilan yuridik bog'liqlikni uzluksiz saqlab qoladi, ya'ni o'z davlatida ega bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarini, davlat oldidagi o'z fuqarolik burchlarini bajarib keladi. Davlat esa, o'z navbatida, o'z fuqarosini qayerda bo'lishidan qat'i nazar davlat himoyasi bilan ta'minlaydi va fuqarolik huquqlarining

buzilmasiligini kafolatlaydi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi ham o'z hududi va uning tashqarisida fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qiladi.

Fuqarolikka ega bo'lish usullari ikkita asosiy guruhga bo'linadi. Birinchi guruhda fuqarolikka ega bo'lish sabablari quyidigicha:

- tug'ilganligi uchun;
- naturalizatsiya, ya'ni fuqarolikka qabul qilinganligi uchun.

Ikkinchi guruh esa in'om etish yoki istisno tariqasida:

- transfert (katta aholi guruhlariga avtomatik ravishda fuqarolikni taqdim etish);
- optatsiya (fuqarolikni tanlashda);
- reintegratsiya (fuqarolikni tiklashda);
- fuqarolikni in'om etishda.



Inson tug'ilganida davlat tomonidan fuqarolik avtomatik ravishda taqdim etiladi, ya'ni mazkur tug'ilgan jismoniy shaxsning xohish-istagidan qat'i nazar. Bu fuqarolikka ega bo'lish turi filiatsiya deb ataladi, jismoniy shaxsning kelib chiqishiga qarab davlat tomonidan beriladi. Filiatsiya holatida ikki xil prinsip qo'llanishi mumkin. Birinchisi, milliy, ya'ni qon huquqi (jus sanguinis), ikkinchisi esa tuproq huquqi, ya'ni hududiy (jus soli) deb ataladi.

<p>Qon huquqi prinsipi qo'llanilganda, fuqarolik tug'ilgan bolaning ota-onasi fuqaroligiga qarab beriladi. Bu holatda tug'ilgan joyi e'tiborga olinmaydi. Masalan, ushbu prinsip ko'pchilik arab davlatlarning qonunchiligida qo'llaniladi.</p>	<p>Tuproq huquqi prinsipi qo'llanilganda esa bolaning ota-onasi fuqaroligi qayerda bo'lishidan qat'i nazar, fuqarolik tug'ilgan yerida beriladi, ya'ni farzand qonunchiligida tuproq huquqi prinsipi qo'llanadigan davlatda tug'lsa, unga mazkur davlatning fuqaroligi beriladi. Ushbu prinsip 1969-yilgi Inson huquqlari Amerika konvensiyasida mustahkamlangan.</p>
---	---

Ko'pchilik davlatlar o'z qonunchiliklarida ikki prinsipni ham qo'llaydi. Misol uchun, nafaqat o'z fuqarolarini farzandlari uchun, balki ma'lum holatlarda chet elliklarning farzandlariga ham fuqarolik taqdim etish mumkin bo'ladi.

“O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, tug'ilgan paytida ota-onasi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bola O'zbekiston Respublikasi hududida yoxud O'zbekiston Respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi, ya'ni ushbu moddada qon huquqi prinsipi qo'llanadi.

Mazkur Qonunning 14-moddasida esa tuproq huquqi prinsipi quyidagicha ifodalangan: ota-onasining fuqaroligi har xil bo'lib, ulardan biri bola tug'ilgan paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan quyidagi hollarda bola O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi:

1) agar u O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;

2) agar u O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug'ilgan bo'lsa-yu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa.

Fuqarolikka naturalizatsiya tarzida ega bo'lishdan filiatsiyaning farqi shundan iboratki, ushbu tarzda fuqarolik taqdim etilmoqchi bo'lgan jismoniy shaxsning roziligi mavjud bo'lishi kerak hamda fuqarolik taqdim qilmoqchi bo'lgan davlatning qonunchiligiga to'g'ri keladigan shart-sharoitlar bo'lishi joiz, masalan, voyaga yetish. Naturalizatsiya tarzida fuqarolikka ega bo'lish mumkin bo'lgan jismoniy shaxslar mazkur davlatning tug'ilishi bilan fuqarosi bo'lmagan shaxslar, ya'ni chet elliklar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin. Masalan, oila qurganda turmush qurganlar ikki davlatning fuqarolari bo'lgan hollari bunga misol bo'lishi mumkin. Ushbu holat uchun 1933-yilgi Ayollarning fuqaroligi to'g'risidagi Konvensiya (Urugvay) hamda 1957-yilgi

Turmushga chiqqan ayolning fuqaroligi to'g'risidagi Konvensiya (Nyu-York) qabul qilingan. Ushbu Konvensiyalarga ko'ra ayollar boshqa davlat fuqarolariga turmushga chiqqan hollarda naturalizatsiya ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, naturalizatsiya yo'li bilan umuman fuqaroligi bo'lmagan shaxs ham fuqarolikka ega bo'lishi mumkin. Undan tashqari, bir davlatning fuqarolidan voz kechib boshqa davlatning fuqaroligiga ega bo'lishi mumkin hamda qonunchilikda ikki fuqarolik nazarda tutilgan hollarida eski fuqaroligini saqlab qolgan holda ham boshqa davlatning fuqaroligiga ega bo'la oladi.

Agar ota-onalar naturalizatsiya tarzida biron davlatning fuqaroligiga ega bo'lsalar, ularning farzandi uchun ham avtomatik ravishda fuqarolik beriladi, ya'ni avtomatik naturalizatsiya amalga oshiriladi.

Bolalarni farzandlikga olishda ham qoidalar mavjud. Masalan, bir davlatning fuqarosi bo'lgan bolani boshqa davlat fuqarolari farzandlikka olmoqchi bo'lsa, farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining fuqaroligiga ega bo'ladi. Shunday hollarda farzandlikga olinayotgan bolani ham, farzandlikga olayotgan ota-onaning ham fuqaroligi bo'lgan davlatlarining qonunchiligiga rioya qilinadi. Agar ikki davlatning qonunchiligiga asosan kolliziya yuzaga kelsa, farzandlikka olinayotgan bola yashayotgan davlatning qonunchiligiga amal qilinadi.

Maxsus tarzda fuqarolikka ega bo'lish yo'llaridan biri—bu **fuqarolikni in'om etish**. Ya'ni jismoniy shaxsning davlat uchun ko'rsatgan jasoratlari yoki xizmatlari uchun fuqarolikni in'om etilishi mumkin.

Ma'lum bir davlatning bir qismi ikkinchi davlatning tasarrufiga o'tib, boshqa davlatning huquq tarkibiga kirganda ixtiyoriy fuqarolikni tanlash yo'li — **optatsiya** deyiladi.

Ma'lum bir hududiy, siyosiy o'zgarish sababli ba'zi hollarda (hududni bir qismi boshqa davlat tasarrufiga o'tganida) avtomatik fuqarolikning o'zgarib ketishi — **transfert** amalga oshiriladi. Lekin hozirgi paytda xalqaro huquqda transfert usuli qo'llanilmaydi.

Maxsus tarzda fuqarolikka ega bo'lishning yana bir usuli — bu **birlamchi fuqarolikni yangidan qayta tiklash**, ya'ni **reintegratsiya** hisoblanadi.


Reintegratsiya masalalari har bir davlatning ichki qonunchiligiga ko'ra amalga oshiriladi.

Repatriatsiya – bu o'zining tarixiy vataniga qaytish deb tushuniladi va mazkur tushuncha, asosan, majburan ko'chirilgan shaxslar, qochoqlar, emigrantlar, asirga tushgan shaxslar uchun qo'llaniladi.

Masalan, yahudiylarni Isroilga, ya'ni ularning tarixiy Vatanlariga qaytarilishi; repressiyaga uchragan va Uralorti hamda O'rta Osiyo davlatlariga ko'chirilgan polyaklarning Polshaga qaytarilishi va boshqalar.

Fuqarolikni yo'qotish va fuqarosizlik

Xalqaro huquqda fuqarolikni yo'qotish holatlari ham mavjud. Fuqarolikni yo'qotishning uch xil shakli mavjud: avtomatik ravishda, fuqarolikdan ixtiyoriy chiqish va fuqarolikdan mahrum etilish.



Avtomatik ravishda fuqarolikni yo'qotish jismoniy shaxs tomonidan boshqa bir davlatning fuqaroligini olganida yuzaga keladi (ekspatriatsiya erkinligi doktrinasida).

Ekspatriatsiya – bu vaqtinchalik yoxud doimiy ravishda, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda o'z Vatani hududidan chiqarib yuborilish, ya'ni bu doktrinada jismoniy shaxsning o'z ixtiyoriga ko'ra fuqaroligining to'xtashi va Vatanini tark etishi nazarda tutilgan.

Hozirgi paytda avtomatik ravishda fuqarolikni yo'qotishdan ko'pchilik davlatlar o'z qonunchiliklarida voz kechgan.

Fuqarolikdan ixtiyoriy chiqish manfaatdor jismoniy shaxsning o'z ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi. Fuqarolikdan chiqish shartlari va tartibi

mazkur davlatning qonunchiligi bilan belgilanadi. Ko'pchilik davlatlarning qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa yoki sud hukmi kuchga kirgan bo'lsa, fuqarolikdan ixtiyoriy chiqish amalga oshirilmaydi.

Fuqarolikdan mahrum qilish – asosan jismoniy shaxsning ixtiyoriga qarshi amalga oshiriladi va uning ma'lum bir xatti-harakatlari natijasida davlat tomonidan qo'llaniladi

Bu juda og'ir sanksiya va hozirgi paytda ko'pchilik davlatlar bunday sanksiyadan voz kechgan. Fuqarolikdan mahrum qilish sobiq SSSRning qonunchiligida 1980-yillargacha mavjud bo'lgan.

Ma'lum bir holatlarda jismoniy shaxs ikki fuqarolik maqomiga ega bo'lishi mumkin – bipatrizm, ya'ni ikki davlat fuqarosiga aylanishi mumkin.


Bipatrizm – ikki davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs

Ba'zi holatlarda ikkidan ortiq davlatlarning fuqarosi bo'lish ham mumkin, lekin bu holat kamdan kam uchraydi. Ikki fuqarolik eng ko'p uchraydigan holat. Bu holat faqatgina qaysi ikki davlatning qonunchiligida ikki fuqarolikka ruxsat berilgan bo'lsa, faqat mazkur ikki davlat fuqarolariga tegishlidir. Ammo ikki fuqarolikka ega bo'lgan jismoniy shaxslarga bir qator qulayliklar mavjud bo'lgani bilan noqulay holatlar ham, ya'ni turli kolliziyalar yuzaga keladi. Uning sabablari ikki davlat tomonidan jismoniy shaxs uchun nafaqat huquqlar, balki majburiyatlar ham mavjudligidir. Masalan, harbiy xizmatni ado etish, soliq to'lovlarini amalga oshirish va hokazo. Shuning uchun ham ko'pchilik davlatlar bipatrizmga qarshilik bildiradi. 1930-yilgi Fuqarolik bo'yicha qonunchilikdagi kolliziyalarning ba'zi masalalari bo'yicha Gaaga konvensiyasida ikki fuqarolikka qarshilik bildirilib, bir fuqarolikning afzalligi haqida bayon qilingan. Bundan tashqari, 1930-yilgi Ikki fuqarolikda harbiy majburiyatlar bo'yicha Gaaga protokolida ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan shaxs eng ko'p istiqomat qiluvchi davlatda harbiy xizmat majburiyatini ado etadi va boshqa fuqaroligi bo'lgan davlatda harbiy xizmatdan ozod etiladi deb ta'kidlangan.

Turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi yuzaga kelgan fuqarolik masalalari bo'yicha kolliziyalar sababli jismoniy shaxs umuman fuqaroliksiz bo'lib qolishi ham mumkin.

Masalan, oldingi fuqaroligini yo'qotgan jismoniy shaxs ba'zi bir kolliziyalar yoki boshqa subyektiv sabablarga ko'ra boshqa davlatning fuqaroligiga ega bo'la olmaganida apatrid maqomiga ega bo'lib qolishi mumkin.

Fuqarosizlik absolut va nisbiy bo'lishi mumkin.



Absolut apatrizm jismoniy shaxsning tug'ilgan vaqtidan boshlab yuzaga keladi, nisbiy apatrizm esa jismoniy shaxsning fuqaroligini yo'qotganida yuzaga keladi. Apatrid maqomi juda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin, chunki fuqarolarga mansub bo'lgan huquqlar bilan to'laqonli ravishda foydalana olmaydi hamda yashab kelayotgan davlatga nisbatan fuqarolik burchlarini ado etmaydi. Har bir davlatda apatridlarning huquqiy maqomi har bir davlatning o'z ichki qonunchiligi bilan belgilanadi. Ammo ko'pchilik davlatlarda fuqarolik bo'yicha o'z milliy qonunchiligi 1954-yilgi Apatridlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya, 1961-yilgi Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi konvensiyalarning norma va prinsiplariga moslashtirib shakllantirilgan. 1954-yilgi Apatridlar maqomi to'g'risidagi konvensiyada apatridlarning huquqlarining chet elliklarni huquqlari bilan tenglashtirilishni davlatlardan talab qiladi. 1961-yilgi Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi konvensiyada esa fuqarolikdan mahrum etish fuqarosizlikka olib keladigan bo'lsa, man etiladi. Faqatgina yangi fuqarolik olish sababi sharti bilan fuqarolikdan mahrum etish, ya'ni fuqarolikni tugallash mumkinligi qat'iyon belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarini ado etadilar deb belgilangan.

Chet el fuqarolari

Chet el fuqarosi – ma'lum bir davlatning fuqarosi bo'lmagan, ammo uning hududida doimiy yoki vaqtincha ravishda istiqomat qiladigan va, albatta, boshqa bir davlatning fuqaroligiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Har bir davlat o'z ixtiyoriga ko'ra chet el fuqarolarining o'z hududiga kiritish tartibini hamda ularning yashash shartlarini o'z qonunchiligi asosida hal qiladi. Ma'lumki, ko'pchilik davlatlar o'z hududiga chet el fuqarolarining kirib kelishi uchun ma'lum vaqtga maxsus ruxsat(viza) berishlari kerak. Ma'lum bir hududiy tashkilotlar doirasida mintaqaviy kelishuv asosida viza rejimi bekor qilingan. Masalan, MDH davlatlar doirasida 1992-yilgi MDH davlatlari fuqarolarining ishtirokchi davlatlar hududida vizasiz harakatlanishi to'g'risidagi Kelishuv asosida vizasiz rejim qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi doirasida esa ham a'zo davlatlar uchun vizasiz rejim o'rnatilgan. Chet el fuqarolari uchun yagona viza doirasi, ya'ni Shengen zonasi mavjud.

Har bir davlatda chet el fuqarolari uchun o'z huquqiy rejimi mavjud, ya'ni ularning huquq va majburiyatlarini davlatning ichki qonunchiligi va xalqaro huquq normalari doirasida belgilanadi. Davlatlar amaliyotida quyidagi chet el fuqarolari uchun huquqiy rejimlarga rioya qilinadi:

a) *milliy rejim* – mazkur davlatning chet el fuqarolariga davlatning o'zini fuqarolariga mansub bo'lgan barcha huquqlarni taqdim etish. Ya'ni chet el fuqarolari davlatning o'zini fuqarolari bilan huquqlari tenglashtirilish;

b) *maxsus rejim* – milliy qonunchilikka ko'ra yoki xalqaro huquqiy normalarga rioya qilgan holda chet el fuqarolari uchun maxsus huquqlar taqdim etish;

d) *ko'proq qulaylik yaratish rejimi* – chet el fuqarolari uchun maksimal darajada davlat tomonidan qulayliklar yaratish. Mazkur rejim asosan davlatlararo shartnomalarda e'tirof etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida davlat tomonidan o'z fuqarolarining boshqa davlat hududida himoya qilinishi diplomatik va konsullik vakolatxonalari orqali amalga oshiriladi.

Chet el fuqarolari harbiy xizmatni ado etmaydi, lekin ba'zi davlatlarda (Rossiya, AQSH, Fransiya) shartnoma asosida harbiy hizmatga yo'llanishlari mumkin.

Chet el fuqarosining oddiy fuqarolardan ikki barobar mas'uliyati ko'proq bo'ladi, chunki u istiqomat qilayotgan yurisdiksiya ostida hamda o'z davlatining yurisdiksiyasi ostida hisoblanadi va ikkala davlat oldida majburiyatlari mavjud. Chet ellik fuqarolarning maqomi xalqaro huquqda 1985-yilgi BMTning fuqaro bo'lmagan shaxslarga tegishli inson huquqlari Deklaratsiyasida hamda 1928-yilgi Amerikalarga chet elliklar maqomi to'g'risida Konvensiyalarda aks ettirilgan. Ushbu hujjatlarda har bir davlatning chet elliklarga nisbatan o'z rejim o'rnatish huquqi, har bir chet el fuqarosiga o'z davlatining diplomatik va konsullik vakolatxonasiga murojaat qilish imkoniyatini yaratib berilishi, chet el fuqarolarining istiqomat qilayotgan davlat oldidagi majburiyatlari va boshqalar belgilangan.

1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktda belgilangan har bir huquq fuqarolar va chet el fuqarolari uchun bir xilda kamsitishsiz davlat tomonidan ta'minlanishi shartligi ta'kidlangan.

Ba'zi istisno holatlarda ma'lum huquqlar faqat fuqarolarga yoki faqat chet el fuqarolariga tegishli bo'lishi mumkin.

Barcha chet el fuqarolari istiqomat qilayotgan davlat oldida javobgarlikka egadirlar. Ko'pincha chet el fuqarolari istiqomat qilayotgan davlat hududida jinoyat sodir etganlarida, mazkur davlat qonunchiligi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar (Rossiya Federatsiyasi). Lekin ushbu holatda ikki davlat o'rtasidagi ikkit omonlama shartnomalarda yoki boshqa xalqaro shartnomalarda belgilanligiga qarab chet el fuqarosi javobgarlik amalga oshiriladi.

1963-yilgi Konsullik aloqalari bo'yicha Vena Konvensiyasining 36-moddasiga ko'ra chet el fuqarolari istiqomat qilayotgan davlat vakolatli organlari konsullik vakolatxonasiga mazkur okrugga tegishli fuqaro qamoqqa olingani haqida ma'lumot berishi shart. Masalan, ushbu Konvensiyaning normasining buzganligida AQSHni ayblab bir qator davlatlar (Meksika, Paragvay, GFR) BMTning Xalqaro sudiga murojaat qilganlar. Sud AQSH tomonidan norma buzilishi holatini tasdiqlagan (La Grand ishi bo'yicha Sud qarorlari, 2001-yil).

Ekstraditsiya – jinoyat sodir etgan jinoyatchini ma'lum bir davlat tasarrufiga berish

Chet el fuqarolari jinoyat sodir etgan hollarda mazkur fuqaro istiqomat qilib turgan va uning hududida jinoyat sodir etilgan davlat tomonidan ekstraditsiya amalga oshiriladi. Yoki uchinchi davlat hududida jinoyat sodir etilgan davlatga jinoyat sodir etgan chet el fuqarosi beriladi,

ya'ni ekstraditsiya qilinadi. Ushbu holatda ikkita elementni aniqlash kerak: jinoyatchining fuqaroligini va jinoyat sodir etilgan hududni. Ekstraditsiya ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnoma yoki bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Mehnatkash-migrantlarning maqomi

Ko'pincha, nisbatan iqtisodiy rivojlangan davlatlarda boshqa davlatlar fuqarolari, ya'ni mehnat haqi, mablag' olish maqsadida mehnat qilib yashab kelayotgan chet el fuqarolari mavjud. Ular xalqaro huquqda alohida "mehnatkash-migrantlar" maqomiga ega.

<p>Mehnatkash-migrantlar – mehnat haqi, mablag' olish maqsadida boshqa davlatda mehnat qilib yashab ketayotgan chet el fuqarolari.</p>

Ushbu maqom 1990-yilgi Barcha mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro Konvensiyada belgilangan. Ushbu Konvensiyaga ko'ra mehnatkash-migrantlar maqomiga mazkur davlat hududiga qonuniy ruxsat asosida kirib kelgan, mehnat haqi olish maqsadida xalqaro shartnomalar, bitimlar va milliy qonunchilikka rioya etgan holda qonuniy yollangan shaxslar ega bo'lishlari mumkin. Keltirilgan hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslar mamlakatga yashirin noqonuniy kirib kelgan hisoblanib davlat hududidan o'z fuqarolik davlatiga majburan qaytariladi, ya'ni deportatsiya amalga oshiriladi. Mazkur Konvensiyada mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari foydalanishi mumkin bo'lgan huquqlar aniq belgilangan.

Shu bilan birga, Konvensiya shuni ta'kidlaydiki, mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari mazkur davlatning qonunlariga rioya qilishlari shart. Ushbu Konvensiya bajarilishi mexanizmini amalga oshirish maqsadida Konvensiya asosida BMTning konvensiyaviy organi – Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya etish bo'yicha Qo'mita tashkil etilgan.

Qochoqlar maqomi

Qochoqlar tushunchasi xalqaro huquqda ilk bor Birinchi Jahon urushi davrida paydo bo'ldi.

Qochoqlar deb, harbiy harakatlar sababli o'z mamlakatlarini tark etishga majbur bo'lgan jismoniy shaxslar tushuniladi

1926-yilgi Rus va arman millatiga mansub qochoqlar uchun shaxsni aniqlashtiruvchi hujjat berish bo'yicha Bitimda "qochoq" tushunchasi keltirilgan. Unga ko'ra qochoqlar deb, aniq kelib chiqish ildizlariga ega bo'lgan, o'z davlati himoyasida bo'lmagan va boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar nazarda tutilgan edi. 1948-yil 20-avgustda Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot tuzildi. Ushbu tashkilot barcha qochoq maqomiga ega bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatib kelgan. 1951-yilda Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy Komissarining Boshqarmasi deb o'zgartirildi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida qochoqlarni huquqlarini himoya etuvchi uchta universal xalqaro-huquqiy hujjat mavjud:

- Boshqarma Nizomi;
- 1951-yilgi Qochoqlar maqomi to'g'risida Konvensiya;
- 1967-yilgi Qochoqlar maqomi bo'yicha Protokol.

Mazkur hujjatlarga binoan qochoq maqomini olish uchun jismoniy shaxs uchta shartga javob berishi kerak: tug'ilgan fuqaroligi bo'lgan davlat hududidan tashqarida bo'lishi; ta'qib qilinishi xavfi mavjudligi; ta'qib qilinish sabablari, irqiy, fuqarolik, ma'lum ijtimoy guruhga mansubligi va siyosiy qarashlariga asosan sodir etilayotgan bo'lishi kerak.

Falastin qochoqlariga 1949-yilgi BMTning Yaqin Sharq agentligi tomonidan yordam ko'rsatiladi. Afrikada ham qochoqlarning mintaqaviy o'ziga xosligini hisobga olgan holda 1969-yilgi Konvensiya qabul qilingan.

MDH doirasida 1993-yil 24-sentabrda Qochoqlar va majburiy ko'chmanchilar to'g'risidagi Bitimga ishtirokchi davlatlar tomonidan qo'l qo'yilgan. Unga binoan qochoqlar keltirilgan sabablarga ko'ra tark etgan davlatlarining fuqaroligini yo'qotgan bo'lsa ham, majburiy ko'chmanchilar xuddi shunday ta'qib etilsa-da, o'z fuqaroligini saqlab qoladilar. Ularning farqi fuqarolik mavjudligida. Shunday qilib, 1993-yil 24-sentabrda Qochoqlar va majburiy ko'chmanchilar to'g'risidagi Bitim "majburiy ko'chmanchilar"ga xalqaro huquqiy xarakter berdi.

Xalqaro huquqning qochoqlar masalalari bo'yicha universal shartnomalariga ko'ra (1951-yilgi Konvensiya va 1967-yilgi Protokol) ishtirokchi davlatlar qochoqlarga ushbu davlat hududida chet el fuqarolari ega bo'lgan huquqiy rejimni ta'minlab berishi shart.

1951-yilgi Konvensiya davlat tomonidan qochoqlarga nisbatan qo'llanishi kerak bo'lgan quyidagi rejimlarni belgilagan:

1. Milliy rejim, ya'ni qochoqqa mazkur davlat fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan rejim (sudga murojaat qilish, diniy erkinlik va h.k.);

2. Qochoqqa o'zi qochoq maqomini olguncha yashab kelgan davlat fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan rejim (ixtirolarga bo'lgan huquqlarga ega bo'lish, adabiyot asarlariga, savdo belgilariga va h.k)

3. Ko'proq qulaylik yaratish rejimi (ya'ni chet el fuqarolariga nisbatan qo'llaniladigan rejim).

Bundan tashqari, qochoqlar uchun bir qator maxsus huquqlar va qulayliklar 1951-yilgi Konvensiyada belgilab qo'yilgan. Masalan, qochoqlar boshqa davlatga noqonuniy kirib kelganlari uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Lekin davlat hududiga kirib kelishi bilan davlatning vakolatli organlariga kirib kelganlari haqida ma'lumot berishlari shart. Agar qochoqlarning hayotiga o'z Vatanida ta'qib etayotgan tomondan xavf mavjud bo'lsa, Konvensiya qochoqlarni kollektiv ravishda vataniga qaytarishni man etadi. Agar qaysidir qochoqning mazkur davlatda bo'lishi davlat xavfsizligiga xavf tug'dirsagina, sud qarori asosida qochoq o'z yurtiga qaytarilishi mumkin. Qochoqlar mazkur davlatning qonunchiligiga qat'iy rioya etishlari shart.

Boshpana huquqi

Boshpana berish deganda, o'z fuqaroligi bo'lgan davlat tomonidan siyosiy, diniy qarashlari yoki ilmiy ishlari, adabiyot asarlari uchun ta'qib etilayotgan shaxsga boshqa davlat o'z hududiga kiritishi va boshpana berishi nazarda tutiladi.

1967-yilgi BMTning Hududiy boshpana haqidagi Deklaratsiyasi davlatlar boshpanani o'z suvereniteti ostida berishini ta'kidlaydi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi har bir inson boshpana huquqiga ega ekanligini belgilaydi. Boshpana bergan davlat mazkur jismoniy shaxsni o'z davlatiga bermaydi.

Boshpana huquqi davlatlarning milliy qonunchiligida aks ettirilgan bo'ladi. Masalan, ilk bor 1793-yilgi Fransiya Konstitutsiyasida boshpana huquqi belgilangan edi. Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasida ham (63-modda) boshpana huquqi mavjud.

Xalqaro huquqda xalqaro jinoyatlar yoki jinoyat sodir etgan shaxsga boshpana huquqi berilmaydi.

Boshpana huquqi xalqaro huquqda quyidagi shartnomalar asosida amalga oshiriladi:

1967-yilgi BMTning Hududiy boshpana to'g'risidagi Deklaratsiyasi, Yevropa Kengashining 1922-yilgi Hududiy boshpana to'g'risidagi Deklaratsiyasi, 1928-yilgi Boshpana to'g'risidagi Gavana Konvensiyasi va 1954-yilgi Diplomatik boshpana to'g'risidagi Konvensiyalar bu sohadagi asosiy hujjatlar hisoblanadi. 1954-yilgi Konvensiyaga ko'ra diplomatik va konsullik vakolatxonalar hududida, harbiy kemalarda, harbiy bazalar hududida boshpana berilishi mumkin. Ammo 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Konvensiya diplomatik va konsullik vakolatxonalar hududida diplomatik boshpana berish huquqini tan olmaydi.

Nazorat savollari:

1. Fuqarolikka ega bo'lishning yo'llari ikkita asosiy guruhga bo'linadi: umumiy va maxsus. Umumiy shakldagi filiatsiya va naturalizatsiyaning asosiy farqi nimada deb o'ylaysiz?

2. MDH doirasida 1993-yilgi 24-sentabrda Qochoqlar va majburiy ko'chmanchilar to'g'risidagi Bitimga qo'l qo'yilgan. Ushbu Bitimda majburiy ko'chmanchilarga xalqaro huquqiy maqom berilgan. Ushbu Bitimga ko'ra qochoqlar va majburiy ko'chmanchilarning asosiy farqi nimada?

Kazus 1. A davlatda istiqomat qilib keladigan oila juftligi mazkur davlatning hududida (bog'ida) tashlandiq, hech qanday hujjatsiz bir chaqaloqni topib olishadi. Chaqaloqning tashlandiqligi ma'lum bo'lgach, juftlik chaqaloqni farzandlikka olishga qaror qilishadi. Ammo juftlikda erkak A davlatning fuqarosi, ayol esa B davlatning fuqarosi bo'ladi. A davlat qonunchiligida fuqarolikka qon huquqi asosida ega bo'lish mumkin edi. B davlatda esa tuproq huquqi asosida.

Savol: Xalqaro normalarga va A va B davlatlarning milliy qonunchiligiga asosan asrab olingan farzandga qaysi davlat fuqaroligi beriladi?

Kazus 2. To'rt nafar farzandga ega bo'lgan qochoqlar oilasi A davlatdan noqonuniy ravishda chegarani kechib o'tib, B davlatning hududiga kirib keladi. Sabab: A davlatda ularning ma'lum bir millatga mansubligiga ko'ra qurollangan jangarilar tomonidan shafqatsiz xunrezliklar amalga oshirilgan edi. Qochoqlar oilasi B davlatning hududida qisqa muddat ichida o'ziga uy topib yashashni boshlashdi, ammo tegishli organlarga mazkur davlat hududiga kirib kelishganligi haqida ma'lum qilishmagan edi.

Savol: Mazkur oilaga nisbatan B davlatning mas'ul organlari qanday choralar ko'radi? Ularni o'zlari ilgari istiqomat qilgan A davlatiga qaytarib yuborishning huquqiy asoslari qanday?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Международное право Учебник. // Под ред. В.И.Кузнецова и Б.Р.Тузмухамедова.– М.,2010.
2. Боярс Ю. Вопросы гражданства в международном праве. – М., 1986.
3. Бакаева Ф.Х. Международное право беженцев. Учебное пособие. – Т, 2004.
4. Аксёнов А.Б. Современные тенденции в международно-правовом регулировании вопросов гражданства в связи с правопреемством государств. Монография. – М.: RAP, 2011.
5. Яковлев А.А. Использование термина “гражданство” в международном и внутригосударственном праве: сравнительный анализ // Международное публичное и частное право – М., 2002. – №3. – С.9-14.
6. Аду Й.Н. Проблема государственного регулирования приобретения гражданства в меняющемся мире // Актуальные проблемы права: материалы международной научной конференции. М., 2011. – С.126-128.
7. Гудвин-Гилл Г. Статус беженца в международном праве/ Г.Гудвин-Гилл. – М., 1997.
8. Лазарев Л.В. Иностранцы граждане (правовое положение) – М., 1992.
9. The right to Citizenship under International law/ Julia Harrington.africanargument.org/2009.

VI BOB. XALQARO HUQUQDA HUDUD

Xalqaro huquqda hudud tushunchasi. Davlat hududi. Xalqaro huquqda hududiy o'zgarishlar. Hududiy nizolar. Davlat chegaralari. Xalqaro daryolar. Xalqaro kanallar. Antarktikaning xalqaro huquqiy rejimi


Xalqaro huquqda hudud tushunchasi

Xalqaro huquqda "hudud" deb yerdagi boshqa maydonlardan ma'lum yuza (chegara) bilan chegaralangan, yuridik maqom va shunga mos ravishda huquqiy tartibga ega bo'lgan yerdagi, shuningdek yerdan tashqaridagi kosmik maydon tushuniladi.

Ma'lumki, xalqaro huquq davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Davlatning asosiy belgilaridan biri suverenitetligi bo'lgani uchun har bir davlat hududiy suverenitetga, hududiy ustuvorlikga va xalqaro munosabatlarda o'z mustaqilligiga egadir. Hududiy ustuvorlik faqatgina davlatga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi, chunki hech qachon yuridik yoki jismoniy shaxs hududiy ustuvorlikga ega bo'la olmaydi. Shu sababdan xalqaro huquqda hudud masalalariga katta e'tibor beriladi, chunki aynan hudud va hududiy ustuvorlik ko'plab nizolarning sababi bo'ladi.

Shunday qilib, umumiy olganda, hudud deganda butun Yer shari, ya'ni quruqlik va suv havzalari, yer osti boyliklari bilan birga, quruqlik va suv ustidagi havo maydoni, kosmik hudud, undagi Oy va boshqa kosmik jismlar tushuniladi. Aytib o'tilgan hududiy doira va xalqaro huquqiy rejimiga ko'ra hududlar uch turga ajratiladi:

- 1) davlat hududi;
- 2) xalqaro rejimli hudud;
- 3) aralash rejimli hudud.



Davlat hududi deganda, ma'lum bir milliy davlatning suvereniteti ostida bo'lgan hududlar tushuniladi.

Bir tomondan ushbu hududning davlatga tegishliligi, ikkinchidan, mazkur hududda ushbu davlatning ustuvorligi davlat hududining asosiy belgilari hisoblanadi. Davlat hududining asosiy belgilaridan bittasi— bu mazkur hudud davlatning tasarrufida, ya'ni davlatning suverenitet ostida bo'lishidir. Davlat o'z hududiga nisbatan hududiy ustuvorlikka ega bo'ladi. Ya'ni tegishlilik va hududiy ustuvorlik davlat hududiga xos belgilar hisoblanadi. Har bir davlat o'z hududida xalqaro huquq norma va tamoyillariga rioya etgan holda o'z yurisdiksiyasini, mutlaq hokimiyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika"ligi hamda 3-moddasida davlat hududi va chegarasi daxlsizligi va bo'linmasligi ta'kidlab o'tilgan.

Xalqaro rejimli hududlar deganda, davlat chegarasidan tashqaridagi quruqliklar va suvlar, ya'ni hech bir davlatning suvereniteti ostida bo'lmagan quruqliklar, ochiq dengiz va ular ustidagi havo bo'shlig'i, kontinental shelfdan tashqarida joylashgan dengiz osti hududlari tushuniladi.

Xalqaro rejimli hududlarga davlat chegarasidan tashqaridagi quruqliklar va suvlar kiradi, ya'ni hech bir davlatning suvereniteti ostida bo'lmagan quruqliklar, ochiq dengiz, va ularning ustidagi havo bo'shlig'i, kontinental shelfdan tashqarida joylashgan dengiz osti hududi kiradi. Undan tashqari, xalqaro shartnomalarga binoan xalqaro rejim alohida maxsus hududlarga nisbatan qo'llanishi mumkin, masalan, neytrallashtirilgan, demilitaritsiyalashtirilgan hududlar. Maxsus xalqaro rejimli hudud deb 1959-yilgi Shartnomaga binoan Antarktika hududi e'lon qilindi.

Xalqaro rejimli hududga Oy va boshqa kosmosdagi jismlarni, kosmik fazoni misol keltirsa bo'ladi. Mazkur hududlar barcha davlatlar uchun insoniyatning taraqqiyoti uchun xalqaro huquqiy normalar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun ochiq hisoblanadi.

Aralash rejimli hudud milliy va xalqaro rejimga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.

Aralash rejimli hududga dunyo okeanining quyidagi kengliklari kiradi: dengiz iqtisodiy zonalari, kontinental shelf hamda hududiy dengizga tutash zonalari. Ushbu hududlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular tutash davlatlarning suvereniteti ostiga va davlat hududi tarkibiga kirmaydi. Lekin xalqaro huquqqa muvofiq, qirg'oqbo'yi

davlatlar ushbu hududlarni tabiiy zaxiralarini qazib olish va foydalanish, ishlab chiqish va saqlashga nisbatan suveren huquq, shuningdek ushbu hududlarning atrof-muhitini himoya qilish huquqiga ega. Mazkur normalar Kontinental shelf to'g'risidagi 1958-yilgi Jeneva konvensiyasi va 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyada belgilangan.

Dunyo okeanining imtiyozli, iqtisodiy zonasi davlat sohilidan boshlab 200 dengiz milyasigacha davom etadi. Ko'pincha, ushbu zonalar ochiq baliqchilik zonasi sifatida foydalaniladi. Faqatgina qirg'oqbo'yi davlat imtiyozli iqtisodiy zonalarda baliq ovlash yoki boshqa tabiiy resurslaridan foydalanish huquqiga ega. Boshqa davlatlar esa mazkur qirg'oqbo'yi davlatlarning tegishli vakolatli organlaridan ruxsat olganidan so'ng ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Lekin ular qirg'oqbo'yi davlatning ruxsatisiz ham harbiy, savdo, turistik kemalari bilan o'tish huquqiga egadir. Ushbu holda qirg'oqbo'yi davlatlar to'sqinlik ko'rsata olmaydi.

Kontinental shelf – bu dengizbo'yi quruqlik qirg'og'ini suv ostidagi tabiiy davomidir.

Uning kengligi 200–350 dengiz milyasiga teng bo'lishi mumkin. Agar kontinental shelfda dengiz milyasining kengligi 200 dengiz milyasidan keyin boshqa tutash davlatning yurisdikdiksiyasi boshlanmasa, unda shelf 350 dengiz milyasigacha cho'zilishi mumkin. Ushbu holat, ko'pincha, kontinental shelf zonalarida neft va boshqa tabiiy qazilmalar topilganda kuzatiladi.

Undan tashqari, aralash rejimli hudularga xalqaro dengizlar, bo'g'ozlar, xalqaro kanallar, orollar kirishi mumkin. Masalan, bir qator orollarning maqomi xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi (Shpitsbergen arxipelagi, Aland orollari, Dodekaness orollari).

Davlat hududi

Davlat hududining tarkibiga quruqlik va uning yer osti boyliklari, ichki va tashqi suv havzalari, ma'lum balandlikkacha havo kengligi kiradi. Davlat chegarasigacha bo'lgan havo kengligi ham davlat hududiga tegishli hisoblanadi va uning balandligi odatiy normalarga binoan taxminan Jahon dengizining sathidan 100–110 km balandlikkacha boradi. Davlatning hududi doirasidagi yer osti boyliklari mazkur davlatga tegishli hisoblanadi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi davlatning yer osti hududini chuqurligini

aniq belgilamagan, ammo ba'zi davlatlarning milliy huquqida aniqlangan bo'lishi mumkin. Davlat hududining quruqlik kengligi faqat quruq yer kengligidan iborat bo'lishi mumkin yoki suv havzalari bilan chegaralangan bo'lishi mumkin, ba'zi hollarda esa boshqa biron davlat hududi bilan ajratilgan bo'lishi ham mumkin (anklav). Anklav hududi tegishli davlat "anklav" iborasini o'rniga "eksklav" iborasi ishlatiladi. "Anklav" iborasini esa boshqa davlatlar qo'llashadi.

Anklav – boshqa bir davlatning hududi ichida har tomonidan o'ralgan va dengizga chiqish imkoni bo'lmagan ikkinchi davlatning hududi. Dengizga chiqish imkoniyati bo'lgan anklavlar – yarim anklav deb ataladi.

Anklav misolida Italiyada joylashgan Vatikanni keltirish mumkin.

Masalan, yarim anklav sifatida Malaziya va Janubiy Xitoy dengizi bilan o'ralgan Bruneyni, Ispaniya va Atlantika okean bilan o'ralgan Portugaliyani keltirish mumkin.

Shunday qilib, jo'g'rofik joylashishidan va geologik tuzilishidan qat'i nazar, barcha davlat hududida joylashgan quruqlik va uning yer osti boyligi, ichki va tashqi suv havzalari xalqaro huquq normalariga binoan yagona davlat hududini tashkil etadi va ushbu hudud davlat suvereniteti ostida hisoblanadi.

1982-yilgi BMTning Dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyasiga binoan sohildan 24 dengiz milyasigacha bo'lgan barcha suvlar davlat suvereniteti ostida hisoblanadi (hududiy dengiz).

Xalqaro huquqdagi davlatlarning suveren tengligi prinsipi asosida har bir davlat o'z hududi doirasida hududiy ustuvorlikka ega. Ya'ni mazkur hududdagi barcha jismoniy (fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar) va yuridik shaxslarga nisbatan davlat oliy hokimiyat hisoblanadi. Hududiy ustuvorlik mazkur hududda davlatning mutlaq hokimiyatidan boshqa hokimiyat bo'lishi mumkin emasligini bildiradi. Agar har ikki xalqaro shartnomada o'zgacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, davlatning qonun chiqaruvchi, ijrochi va sud hokimiyati mazkur davlat hududida barcha jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan hududiy ustuvorlikni amalga oshiradi.

Ammo hududiy ustuvorlik degani barcha narsa mumkin degani emas. Masalan, 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyasiga ko'ra davlatlar o'z hududida boshqa uchinchi davlatga nisbatan ikkinchi davlat tomonidan agressiyaga doir xatti-harakatlarni amalga oshirishi taqiqlanadi. Ya'ni davlat hududiy ustuvorligini amalga oshirganida, o'zining milliy huquqi hamda xalqaro huquqiy norma va

standartlariga rioya etgan, xalqaro majburiyatlarni bajargan holda amalga oshirishi shart. Shundan kelib chiqadiki, davlat tomonidan o'z ichki huquqi va xalqaro majburiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar davlat yurisdiksiyasiga kiradi. Masalan, V.A.Nezabitovskiy hududning davlatga tegishli bir mulk emas, balki davlat hukumatini ta'sir qilish doirasidir, deb fikrlagan.

Xalqaro huquqda hududiy o'zgarishlar

Qulchilik va feodallik tuzumi davrlarida hududiy o'zgarishlarning eng asosiy sababi bu urush orqali hududlarni bosib olish va unga ega chiqish hisoblanardi. U davrda hudud monarxning yoki davlatning absolut mulki hisoblanardi. Burjua inqiloblaridan so'ng xalqaro huquqda davlat hududi deb, davlat o'z suverenligini, ustuvorligi va yurisdiksiyasini amalga oshirish mumkin bo'lgan hudud deb atalishni boshladi.

Turli huquqiy adabiyotlarda hududiy o'zgarishlarning har xil ko'rinishlari aks ettirilgan. Masalan, ba'zilarida hududiy o'zgarishlar birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lingan. Birlamchiga okkupatsiya (egallash), qo'shimcha qo'shib olish, sessiya (o'z xohishi bilan voz kechish), bosib olish, tarixiy qo'shib olishlar kiradi. Qolganlari esa ikkilamchiga kirib ketadi, masalan, Rim Papasi tomonidan in'om etilishi, hududdan o'z xohishi bilan voz kechish, Xalqaro sud qaroriga binoan hududga ega bo'lish.

Boshqa manbalarda esa hududiy o'zgarishlar qonuniy va noqonuniy hududiy o'zgarishlarga bo'linadi. O'rta asrlarda okkupatsiya deb biron-bir davlat tomonidan yangi ochilgan yerlarni o'zlashtirish hisoblangan. Ammo okkupatsiya iborasi boshqa lug'aviy ma'nolarga ham egadir:

Okkupatsiya – vaqtinchalik bir davlatning hududini va suverenitetga ega bo'lish maqsadi bo'lmagan holda egallab olish.

Masalan, BMTning Xalqaro sudi G'arbiy Saxara hududi bo'yicha o'z konsultativ xulosasida ta'kidlaganki, agar okkupatsiya qilingan hudud okkupatsiya vaqtida terra nullius maqomiga ega bo'lsa, ya'ni hech kimga tegishli bo'lmasa, okkupatsiyaning hududiy egallashning qonuniy yo'li deb belgilagan. Okkupatsiyani anneksiya bilan adashtirmaslik lozim, chunki:

Anneksiya – bu bir davlat tomonidan ikkinchi davlatning butun hududini yoki bir qismini bir tomonlama tartibda qo'shib olish.

Ammo ba'zi g'arb olimlari Osiyo va Afrika davlatlari hududlarini kolonizatsiyalash ham okkupatsiya bo'lishini ta'kidlashadi, vaholanki, bu yerda urush, bosqinchilik orqali bosib olish amalga oshirilgan (debellatio).

Qo'shimcha qo'shib olish ham qonuniy hududiy o'zgarish turiga kiradi. Lekin bu kamdan kam yuzaga keladigan holat. Tabiatdagi o'zgarishlar hisobiga biron daryo yoki dengiz hududida vulqonlar hisobidan paydo bo'lgan orollar va boshqa bir o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Misol uchun, Italiya hududiga tegishli O'rta yer dengizida paydo bo'lgan Pantelleriya vulqonini keltirish mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi hududiy o'zgarishlarni faqatgina xalqaro huquqning norma va prinsiplariga, xalqaro shartnoma va kelishuvlar asosida tartibga soladi hamda tinch yo'l bilan hal etish prinsipiga tayanadi.

Hududiy o'zgarishlar aholini o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlarini hurmat qilgan holda amalga oshiriladi, masalan, biron-bir davlat o'z davlat hududini boshqa bir davlatning hududiy tarkibiga qo'shilish yoki alohida ajralib chiqishi va mustaqil davlat yuzaga kelishi jarayonida. Shunda hududiy tegishlilik masalasi ham xalqaro huquq norma va prinsiplariga asosan o'z yechimini topadi.

Ba'zi davlatlar xalqaro munosabatlarni amalga oshirayotganida ma'lum bir holatlarda o'z xohishiga binoan boshqa davlat bilan o'z hududlarini almashishlari mumkin, ya'ni xalqaro huquqda bunday holat sessiya deb ataladi.

Sessiya – bu o'z hududini ma'lum qismini o'z xohishi bilan boshqa davlatga turli kompensatsiya almashuvi asosida boshqa davlat tasarrufiga berish

Masalan, 1951-yilgi SSSR va Polsha Lyublinsk va Lvov tumanlardagi chegaradosh hududlarni almashuvini amalga oshirishgan. Sessiya amalga oshirilganida, aholi uchun optatsiya huquqi berilgan, ya'ni ular ikki davlatdan birining fuqaroligini tanlaydi.

Ikkinchi jahon urushining yakunida ma'lum bir hududiy o'zgarishlar agressiv urush boshlagani va uning natijalari uchun xalqaro huquqiy javobgarlik sifatida Germaniya, Italiya va Yaponiyaga nisbatan amalga oshirilgan. 1945-yilgi Postdam deklaratsiyasiga binoan Sharqiy Prussiyaning shimoliy qismi SSSR tasarrufiga o'tkazilgan (Kaliningrad tumani), janubiy qismi esa Polshaga.

Hududiy o'zgarishlar bo'yicha xalqaro nizolar hal qilinayotganida 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 45-moddasida belgilangan estoppel konsepsiyasiga murojaat qilinishi mumkin.

Ya'ni estoppel konsepsiyasi davlatning ma'lum bir holatga nisbatan sukunat saqlashi yoki ilgari tan olinganligi inobatga olib ushbu holat bo'yicha o'z qarashlarini o'zgartirmasligidir.

Masalan, BMTning Xalqaro sudi 1962-yilgi Kambodja va Tayland o'rtasidagi Preax Vixear ibodatxonasi bo'yicha nizoni Kambodja foydasiga qaror chiqargan, chunki Tayland 15yil davomida ushbu masala bo'yicha hech qanday e'tiroz bildirmaganligi uchun Tayland tomonidan ma'qul deb hisoblangan va shu sababli estoppel prinsipi qo'llanildi.

Hududiy nizolar

Tarixiy voqealar sababli yuzaga kelgan hududiy nizolar ko'plab chegaradosh hududlarda yillar davomida o'z yechimini topmagan. Masalan, yangi yerlar ilk bora topilgan paytlarda yoki kolonizatsiya davrlarini aytib o'tish mumkin. Hozirgi paytda ham yer osti boyliklari mavjud bo'lgan hududlar uchun ko'plab nizolar yuzaga kelmoqda va ko'p yillar davom etmoqda. Misol tariqasida, Janubiy Xitoy dengizidagi hech bir davlatga tegishli bo'lmagan kimsasiz Spratli orollarini keltirish mumkin. 1971-yilgi orollar Tayvan tomonidan okkupatsiya qilingan. Spratli orollariga Bruney, Malayziya, Filippin, Tayvan, Vetnam ega chiqish uchun hanuzgacha harakatda.

Xalqaro huquqda hududiy nizolarni subyektlari faqat davlatlar bo'lishi mumkin. Chunki faqatgina davlatlar hududiy ustuvorlikga ega bo'lishlari mumkin. Shunda nizoni obyektini hudud, predmeti esa mazkur obyektga tegishli xalqaro huquqiy normalar hisoblanadi. Ko'pincha chegaralarga tegishli nizolar demarkatsiya (chegaralarni joyida belgilash) vaqtida kelib chiqadi. Masalan, 1843-yilgi chegaralar bo'yicha xalqaro nizodan keyin delimitatsiya va demarkatsiya amalga oshirilgan. Chegaralar to'g'risidagi konvensiyaga xilof ravishda xatolarga yo'l qo'yib belgilanganligi bo'yicha Niderlandiya Belgiyaga qarshi da'vo qo'zg'agandi. Belgiya va Niderlandiya o'rtasidagi nizoni BMT Xalqaro sudi 1959-yilda ko'rib chiqib, Belgiya foydasiga qaror chiqargan.

BMTning Xalqaro sudi hududiy nizolar bo'yicha o'z qarorlarini qabul qilishda egalik qilish muddatiga ham e'tibor beradi (50 dan 200 va

undan ham ko'proq yilgacha). Ba'zi hollarda sud intertemporal huquqining doktrinasini qo'llashi mumkin, ya'ni qaysi payt hududiy nizo yuzaga kelgan bo'lsa, nizo o'sha davrning xalqaro huquqiy normalarini hisobga olib bartaraf etilishi kerak, chunki o'tmishdagi yuridik faktlarni hozirgi zamon xalqaro huquqiy normalar bilan baholash noto'g'ri deb hisoblanadi.

Xalqaro sud va arbitrajlarini amaliyotida nizoli hududda o'z suverenligi, ustuvorligini amalga oshirganligi haqida da'vogar davlat tomonidan isbot dalil bo'lishi kerak. Masalan, boshqarilganligi haqidagi biron-bir normativ akt. 1953-yilda Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi Menke va Eerkos ikki guruh kichik orollar bo'yicha nizoda Buyuk Britaniya foydasiga qaror chiqarilgan. Ushbu qarorga "Britaniya hukumati XIX va XX asrlar davomida ikkala orol guruhlariga nisbatan davlat funksiyalarini amalga oshirib kelganligi ..." asos bo'lib xizmat qilgan.

Shunday qilib, hududiy va chegaraviy nizolar, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va xalqaro huquqni boshqa norma va prinsiplariga tayangan holda o'z yechimini topishi kerak.

Davlat chegaralari

Quruqlikda belgilangan davlat chegaralari – bu bir davlatning hududini qo'shni davlat hududidan yoki aralash, xalqaro rejimli hududdan, ya'ni qo'shni hududdan ajratib turadigan chiziklardir.

Ikki davlat o'rtasidagi chegaralar ikki tomonning shartnomasi asosida belgilanadi.

Hududni chegaralaridagi tabiiy to'g'anoqlarni (tog'lar, daryolar, ko'llar, dengizlar va h.k.) hisobga olgan holda belgilangan chegaralar **orfografik** deyiladi.

Hududiy kenglikda bir nuqtadan ikkinchi nuqtagacha tekis geometrik chiziqlar tortish bilan belgilangan (Afrika davlatlari), chegaralar **geometrik** deyiladi.

Parallel va meridianlar bo'yicha belgilangan davlat chegaralari esa **geografik** deb nomlanadi.

Daryolar va ko'llarda chegara davlatlarni kelishuvlari bo'yicha belgilanadi. Kemalar harakatlanadigan daryolar bo'yicha daryo farvaterining o'rtasidan o'tkaziladi yoki daryo talvegasidan, ya'ni eng chuqur bo'lgan joylardan chegara o'tkaziladi. Kemalar

harakatlanmaydigan daryolarda esa chegara ko'pincha daryoning o'rtasidan belgilanadi.

Dengizlardagi davlat chegaralari bo'lib davlatga tegishli hududiy dengizni eng tashqi chegarasi xizmat qiladi. Yoki chegaradosh davlatlarning hududiga tegishli hududiy dengizdagi chegara chiziqlari hisoblanadi. Shunga ko'ra davlatlarning geografik joylashishiga qarab, davlat chegaralari xalqaro huquqning norma va prinsiplariga tayangan ichki normativ aktga yoki qo'shni davlat bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnomaga asosan belgilanishi mumkin.

BMTning 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha Konvensiyasiga binoan hududiy dengizning chegarasi 12 dengiz milyasigacha belgilanadi.

Davlat hududining havo chegaralari uning havo kengligining quruqlikdagi va suvdagi yon chegarasi bo'lib, vertikal sathidan iborat bo'lgan havodagi tasavvur qilingan chiziqlardan iborat. Havo yon chegaralari to'g'risida hech qanday bitim tuzilmaydi. Havo kenligini fazo (kosmos) kengligidan ajratib turuvchi hududning aniq chegarasi xalqaro huquqda odat tarzida dengiz sathidan 90–120 kmgacha cho'ziladi.

Davlat chegaralarini belgilash 2 jarayondan iborat: delimitatsiya va demarkatsiya. Delimitatsiya amalga oshirilganda kelishuv tomonlari chegara chiziqlarining umumiy yo'nalishdarini aniq muhokama qilib shartnomaviy kelishuv asosida jug'rofiy xaritaga tushirishadi. Mazkur xarita shartnomada ilova sifatida keltiriladi. Shundan so'ng mazkur shartnoma asosida taraflar demarkatsiya ishlarini amalga oshirishadi. Buning uchun mutaxassislardan iborat aralash komissiya tuziladi. Mazkur komissiya topografik ishlarni bajaradi, mahalliy hududni aerofotos'yomka qiladi va shular asosida chegaraning aniq chiziqlari bilan belgilangan topografik karta tuziladi.

1999-yilda Botsvana va Namibiyaning o'rtasidagi Choba daryosidan belgilangan chegara va daryodagi Kasikili/Sedudu orolining tegishliligi bo'yicha nizoni BMT Xalqaro sudining qarorida taraflar taqdim qilgan orolning tegishliligi bo'yicha xaritani inobatga olmad, chunki xalqaro shartnomaga ilova qilinmagan xarita hududiy ustuvorlikga huquqiy asos bo'la olmaydi.

Demarkatsiya va redemarkatsiya bo'yicha hujjatlar taraflarning ichki qonunchiligiga asosan tasdiqlanilishi shart. So'ng ikki taraf hujjatlarning tasdiqlanganligi to'g'risida bir-biriga ma'lum qilganidan so'ng kuchga kirgan hisoblanadi.

Davlat chegara rejimi esa har bir davlatning ichki qonunchiligiga ko'ra amalga oshiriladi. Chegara rejimi qo'shni davlatlar bilan shartnoma

asosida belgilanadi. Davlat chegaralarini himoya qilishda xalqaro huquqning davlatlar chegaralarini buzilmasligi prinsipiga rioya qilinadi.

Davlat chegaralari bo'yicha shartnomalar faqat ikki tarafning roziligi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bir tomonlama tartibda bunday masala hal qilinmaydi. Xalqaro huquqda 1978-yilgi Xalqaro shartnomalar bo'yicha Vena konvensiyasiga binoan davlatda hududiy suveren o'zgariganida yoki mazkur davlatda tarkibiy o'zgarishlar yuzaga kelib huquqiy vorislik amalga oshirilgan holda ham davlat chegaralarini o'zgartirish huquqi berilmaydi. Ya'ni chegaralar to'g'risidagi shartnomalar o'ziga xos barqarorligi bilan ajralib turadi. Chegaralar bo'yicha shartnomalar vaqf bo'yicha cheklanmaydi. Bu davlat chegaralarini umuman o'zgartirib bo'lmaydi, degani emas. EXHTning 1975-yilgi Yakunlovchi aktida davlat chegaralarining buzilmasligi prinsipini ta'kidlagan holda "xalqaro huquqning norma va prinsiplariga asoslanib, tinch yo'l bilan kelishuv asosida" hal qilish mumkinligi aytilgan.

Qurolli nizo va uning ketidan yarashuv amalga oshirilgandagi **demarkatsion chiziqlarni** davlat chegaralari bilan adashtirmaslik joiz. Masalan, Yaqin Sharqda 1949-yil, Koreyada 1953-yil (38-parallel) va Vetnamda 1954-yilda demarkatsion chiziqlar belgilangan.

Demarkatsion chiziqlar – davlat chegarasini belgilash emas, balki vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib siyosiy-harbiy maqsadlarga (yarashuv, qurolli nizoni to'xtalishi va h.k.) xizmat qilishga mo'ljallangan chegaradir.

Xalqaro daryolar

Xalqaro daryolar deb, bir necha davlatlar hududida oqib boradigan yoki ikki va undan ko'p davlatlar hududining chegarasi o'tadigan daryolar hisoblanadi.

Xalqaro daryolar qirg'oqbo'yi davlatlari o'rtasidagi xalqaro-huquqiy munosabatlarning predmeti hisoblanadi. Xalqaro daryolar qatoriga Yevropada Dunay, Reyn, Afrikada Nil, Kongo, Niger, Senegal, Amerikada La-Plato, Amazonka, Osiyoda Yefrat, Mekong, Braxmaputra, Irtish, Amudaryo va Sirdaryo daryolari kiradi.

Xalqaro daryolardan tashqari milliy daryolar ham mavjud.

Milliy daryolar bir davlat chegarasida joylashgan va faqat uning yurisdiksiyasi ostida bo'ladi.

Kemalar harakatlanadigan daryolarda kemalar suzish erkinligi prinsipi qo'llaniladi. Pozitiv xalqaro huquqda xalqaro daryolarda kemalarning

harakatlanish huquqi bilan barcha davlatlar foydalanishi mumkinligini inkor etadi. Ushbu huquq qirg'oqbo'yi davlatlar uchun taalluqli hisoblanadi. Xalqaro daryolarda kemalarni harakatlanish rejimini qirg'oqbo'yi davlatlar o'z shartnomalarida belgilaydi. Boshqa davlatning tasarrufidagi xalqaro daryoning qismida harakatlanayotgan kemalar mazkur davlatning tartib-qonunlariga rioya qilishlari shart. Xalqaro daryolarda qirg'oqbo'yi davlatlar savdo kemalarini harakatlanishlari uchun kemalarni erkin harakatlanish prinsipiga amal qilishadi.

Xalqaro huquqda 1815-yil Vena kongressida kemalarning xalqaro daryolarda harakatlanishi bo'yicha ilk shartnomasi qabul qilingan. Unga ko'ra xalqaro daryolarda faqat qirg'oqbo'yi davlatlar kemalari erkin harakatlanishi mumkin.

1966-yilgi suvlardan foydalanish bo'yicha xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan Xelsinki qoidalarida esa qirg'oqbo'yi bo'lgan va qirg'oqbo'yi bo'lmagan davlatlarning xalqaro daryolarda harakatlanish qoidalaridagi farqi belgilangan (qirg'oqbo'yi davlatlarning navigatsiya huquqi bilan foydalanishi xususida).

Hozirgi paytda suvlardan foydalanishga doir xalqaro hujjatlardan biri Transchegaraviy suvlarni va xalqaro ko'llarning saqlash bo'yicha 1992-yilgi Xelsinki Konvensiyasi hisoblanadi (mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi 2007-yilda qo'shilgan). Unga ko'ra suvlarni ifloslagan va zarar keltirgan davlat o'z budjeti hisobidan kelib chiqqan muammoni bartaraf etadi va transchegaraviy suvlardan oqilona, tutash davlatlarga zarar yetkazmagan holda foydalanadi.

1997-yilda BMTning suvlardan foydalanish bo'yicha Doiraviy konvensiyasida ham xalqaro suvlardan oqilona foydalanish masalari atroflicha belgilangan. Shunday qilib, hozirgi zamon xalqaro huquqda qirg'oqbo'yi davlatlarning o'z hududidan oqib o'tadigan xalqaro daryolarga nisbatan chegaralanmagan huquqqa egaligi to'g'risidagi Xarman doktrinasini tamoman inkor etilgan.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida xalqaro daryolardan foydalanish tartibi xalqaro huquqiy shartnomalar va kelishuvlarda aniq belgilangan va shular asosida amalga oshirilishi kerak.

Dunay. 1948-yildagi Dunayda kemalar harakatlanishi rejimi bo'yicha Konvensiyada savdo kema qatnovining qoidalariga rioya etilgan holda barcha fuqarolar, savdo kemalari va savdo tovarlari uchun teng huquqlik asosida harakatlanish rejimi ochiq va erkin hisoblanadi.

Dunay bo'ylab qirg'oqbo'yi davlatlar bo'lmagan davlatlarning harbiy kemalari harakatlanishi taqiqlanadi. Dunay daryosida kemalar qatnovini

tartibga solish nazorat mexanizmi sifatida Dunay komissiyasining faoliyati katta ahamiyatga ega. Masalan, Dunay komissiyasi 1970-yil Dunay bo'yicha harakatlanish qoidalarini ishlab chiqqan va amalda qo'llagan.

Reyn. Reyn daryosi bo'ylab kemalarning harakatlanishi bo'yicha 1868-yilgi Mangeym konvensiyasi qabul qilingan. Mazkur Konvensiya Reyn daryosi bo'ylab kemalar harakatlanishi rejimi bo'yicha 1831-yilgi konvensiyani qaytadan ko'rib chiqilgan shakli hisoblanadi. Ushbu hujjatda qirg'oqbo'yi bo'lgan va bo'lmagan davlatlar uchun kemalar harakatlanishi bo'yicha rejimlar o'ratildi. Ya'ni konvensiyaga ko'ra qirg'oqbo'yi bo'lgan va bo'lmagan davlatlar uchun bir xil teng rejimlar faqatgina Reynbo'yi davlatlarning kemalari uchun belgilangan.

1919-yilgi Versal shartnomasiga ko'ra konvensiyaga qirg'oqbo'yi bo'lgan va qirg'oqbo'yi bo'lmagan davlatlarning kemalari uchun rejimlarni tenglashtirish bo'yicha bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Undan tashqari, Reyn daryosi bo'ylab kemalar harakatlanishi bo'yicha Markaziy komissiya a'zolari qatoriga Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiyani kiritdi.

Bundan tashqari, 1922-yilgi Markaziy komissiya tomonidan Reyn bo'ylab kemalarni harakatlantiruvchilar uchun patenlar berish rejimi qabul qilingan. 2002-yilda Markaziy komissiya tomonidan Mangeym konvensiyasiga qo'shimcha №7 Protokol qabul qilindi. Unga ko'ra, Reyn bo'ylab harakatlanish uchun kerakli hujjatlar faqat Reynbo'yi davlatlar tomonidan emas, balki Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tomonidan ham berilishi mumkinligi tasdiqlandi.

Xalqaro kanallar

Xalqaro kanallar – bu okean va dengizlarni birlashtiruvchi va quruqlik hududni kesib o'tuvchi hamda xalqaro kemalar harakatlanishi yo'lida foydalaniladigan sun'iy gidrotexnik qurilmalar.

Ular dengiz kengliklarni eng qisqa va qulay yo'llar bilan kesib o'tgan holda davlatlar uchun iqtisodiy, navigatsion tomonlama samarali hisoblanadi. Xalqaro kemalarni harakatlanishi uchun katta ahamiyatga ega kanalar sifatida Suvaysh, Panama, Kil kanallarini ko'rsatish mumkin. Mintaqaviy muhim kanallar qatoriga esa Korinf va Saymen kanallari kiradi.

Ularning xalqaro xarakteri, avvalombor, ularning jo'g'rofiy joylashishlariga bog'liq. Masalan, Atlantik va Tinch okeanlarini Panama kanali bog'lab turadi. Hind okeaniga chiqadigan O'rtayer dengizi va Qizil

dengizlarni Suaysh kanali bog'laydi, Atlantika okeaniga chiqadigan Baltika va shimoliy dengizlarni Kil kanali bog'laydi, Korinf kanali uch dengizni – Egey, Ionika va Adriatikalar, Saymen kanali esa Sayma ko'llarini, Boltiq dengizini Fin qo'ltig'i bilan bog'laydi.

Kanallar asosan bir davlatning hududidan o'tadi va uning yurisdiksiyasi ostida bo'ladi. O'z suverenitetidan kelib chiqqan holda kanal kesib o'tgan davlat kanalni ijaraga berishi mumkin va xalqaro huquqiy rejimi subyektiv faktor – davlatning xohishiga ko'ra belgilanadi.

Xalqaro kanallarning huquqiy asosini quyidagilar tashkillashtiradi:

1) kanal bo'ylab barcha davlatlarning tenglik asosida kemalarini erkin harakatlanishini ta'minlash;

2) kanal kesib o'tgan davlatlarning suveren huquqlarini hurmat qilish;

3) kanal zonasini demilitarizatsiya va neytralizatsiya qilish.

Masalan, Suvaysh kanalining xalqaro huquqiy rejimi Suvaysh kanalidan erkin foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi 1888-yilgi Konstantinopol konvensiyasi bilan amalga oshiriladi. Konvensiya barcha harbiy va savdo kemalarni erkin harakatlanishi tartibga soladi. Ammo kanal bo'ylab erkin harakatlanishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan barcha harbiy xatti-harakatlar man etiladi. Suvaysh kanali bo'ylab harakatlanish qoidalariga rioya etilishi Suvaysh kanali Ma'muriyati (1957) nazorat ostida amalga oshiriladi.

Panama kanalining xalqaro-huquqiy rejimi 1850-yilgi AQSH va Angliya o'rtasidagi shartnoma bilan belgilangan. Kanaldan foydalanish neytralizatsiya va kemalar harakatlanishi erkinligi prinsipi asosida amalga oshiriladi. 1903-yil AQSH Panama bilan shartnoma tuzdi. Shartnomaga asosan 10 milya kengligida kanalda AQSH o'z qurilmalarini barpo etish va ekspulatsiya qilish huquqiga ega bo'ldi, ya'ni chegaralanmagan yurisdiksiyaga ega bo'ldi. Lekin qurilmalar barpo etilgach, boshqa davlatlarning harbiy va savdo kemalarining harakatlanishi uchun erkin bo'lib qoladi. 1977-yilda qaytadan ko'rib chiqilgan Panama shartnomasiga ko'ra barcha kemalar uchun teng huquqlik asosida tranzit yo'llari neytrallashtirildi, harakatlanish uchun tranzit ochiq deb belgilandi.

Antarktikaning xalqaro huquqiy rejimi

Xalqaro huquqda Antarktika deb, Antarktida qit'asi va unga tutash bo'lgan

Uning xalqaro-huquqiy rejimi xalqaro-huquqiy hujjatlar tizimi, jumladan, Vashingtonda qabul qilingan 1959-yilgi Antarktika to'g'risidagi shartnoma (1961-yil kuchga kirgan) bilan tartibga solinadi. Mazkur shartnomaga asosan Antarktida demilitarizatsiyalashgan, neytrallashtirilgan va yadrodan xoli zona hisoblanadi.

Mazkur shartnoma barcha davlatlar tomonidan Antarktikada hech qanday kamsitilishsiz erkin ilmiy izlanishlar olib borish huquqini belgilangan. Shartnomaning amalga oshirilishi bo'yicha nazorat mexanizmi sifatida 1991-yilda Konsultativ Kengash tuzildi. Hozirgi paytga Konsultativ Kengash a'zolarining soni 30ga yetgan. Bundan tashqari yana bir nazorat mexanizmi sifatida Inspeksiya instituti tuzilgan. Konsultativ Kengashning a'zolari o'z fuqarolaridan chegaralamangan miqdorda shartnomani vijdonan amalga oshirilishi uchun o'z kuzatuvchilarini belgilaydi. Kuzatuvchilar o'z davlatlari yurisdiksiyasi ostida bo'ladi.

Kazus 1. Kemalar harakatlanuvchi xalqaro daryoning o'rtasida tabiiy vulqonlar sababli kichik orol yuzaga kelib qoldi. Mazkur orolga 2 ta qirg'oqbo'yi davlat A va B da'volik qilgan, chunki orol bo'yicha hech qanday shartnoma mavjud emas edi. Mazkur orolga da'vogar ikki qirg'oqbo'yi davlatda ham ushbu orol tegishliligi bo'yicha ikki xil xarita mavjud. Ammo A davlatning xaritasi B davlatnikidan 100 yil oldin tuzilgan. A davlat o'z xaritasini yuridik dalil sifatida B davlatnikidan ustuvor deb ta'kidlaydi. Chunki uning xaritasi avvalroq tuzilgan edi.

Savol: Xalqaro daryoda hosil bo'lgan orol bo'yicha qaysi bir qirg'oqbo'yi davlat foydasiga BMTning Xalqaro sudi qaror chiqarishi lozim?

Kazus 2. Amazonkadagi terra nullius maqomiga ega bo'lgan o'rmonlarni A davlat okkupatsiya qilib o'zlashtirgan. Ammo ushbu o'rmonlardan foydalanganligi haqida hech qanday ma'muriy hujjatlar mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, 50 yil davomida davlat o'rmonni o'z hududiga tegishli deb hisoblab tabiiy boyliklaridan foydalanib kelgan. Natijada o'rmonga tabiiy zarar yetkaza boshlagan. 50 yildan so'ng o'rmon hududida yashab kelayotgan bir qabila sardori BMTning Xalqaro sudiga murojaat qilgan va mazkur o'rmonni o'z qabilasining tarixiy vatani deb, okkupatsiya qilgan davlat o'rmon hududini tark etishini talab qilgan.

Savol: BMTning Xalqaro sudi agar bu da'voni ko'rib chiqsa, qanday qaror chiqaradi?

Nazorat savollari:

1. Xalqaro kanallarning huquqiy rejimini xalqaro daryolarning huquqiy rejimlaridan qanday farqi bor?
2. Delimitatsiya va demarkatsiyaning o'zaro bog'liqligi va bir-biridan farqi nimadan iborat?
3. Aralash rejimli hududlar bilan xalqaro rejimli hududlarning asosiy farqi nimadan iborat?
4. Davlat chegarasini belgilash jarayonini ketma-ketligini aniq keltirib tushuntiring.
5. Kema qatnovli transchegaraviy daryolar bilan kema qatnovsiz transchegaraviy daryoda chegara o'rnatishda qanday farq bor?
6. Antarktikaning xalqaro huquqiy rejimining o'ziga xosligi nimadan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Голицин Б.Б. Антарктика: тенденции и перспективы развития. – М., 2004.
2. Гуреев С.А., Тарасова И.М. Международное речное право. – М., 2004.
3. Клименко Б.М. Мирное разрешение территориальных споров. – М., 1982.
4. Лопатин Л.М. Международные проливы и каналы: правовые вопросы. – М., 1985.
5. Международно-правовые основы недропользования / отв.ред. А.Н.Вилегжанин. – М., 2007. - 526 с.
6. Колосов И.М. Действующее международное право. Учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям "международные отношения", "регионоведение". Т.2. – М.: Международные отношения, ЮРАИТ, 2007.
7. Черниченко С.Б. Контуры международного права. Общие вопросы. – М.: Научная книга, 2014. - 592 с.
8. Вилегжанин А.Н. Решения Суда ООН по спорам и делимитации морских пространств. – М., 2004.
9. Douglas M/Gibler / Territory, Democracies, and their Disputes / Cambridge UP, 2012.

10. Shaw Malcolm M., "International Law", 5th Edition Cambridge: Cambridge University Press, 2003, 1288p.

11. Speech by H.E. Judge Rosalyn Higgins, President of the International Court of Justice, to the General Assembly of the United Nations, 01.11.2007.

12. Laws of the Territory Northwest of the River Ohio: including the laws of the Governor and judges, and Maxwell code , and the laws of the three sessions of the territorial legislature , 1833.

VII BOB. XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQI

Xalqaro shartnomalar huquqini vujudga kelishi. Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi va predmeti. Xalqaro shartnomalar huquqi subyektlari. Xalqaro shartnomalarni tasniflanishi va tarkibi. Xalqaro shartnomani tuzish. Xalqaro shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirish. Xalqaro shartnomalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish. Xalqaro shartnomalarning vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi. Xalqaro shartnomalarni tatbiq qilish. Xalqaro shartnomani haqiqiy emas deb topish, amal qilishini tugatish va to'xtatib turish.

Xalqaro shartnomalar huquqini vujudga kelishi

Shartnomalar huquqi doirasidagi kodifikatsiyalashning ilk urinishlari olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday kodifikatsiyalar (tizimga kiritish) doktrinali deb ataladi. Kodifikatsiyalashga Y.Blyunchli (kodeks ko'rinishida bayon etilgan zamonaviy Xalqaro huquq 1868-yil), D.Fild (Xalqaro Kodeks asoslarining loyihasi, 1872-yil) kabilar ko'proq e'tibor qaratishgan. O'z davrining nafaqat tajribasi, balki doktrinasidan ham oldinlab ketgan Y.Blyunchlining loyihasi alohida ahamiyatga ega. Boshqa bir qator mualliflar asosiy protsessual jarayonlardagi kodifikatsiya va shartnomalarning tuzilish tartibi bilan cheklangan bo'lsalar, Y.Blyunchli esa shartnomalarning xalqaro huquq me'yorlari masalasiga ham murojaat qilgan.

Shartnomalar huquqining doktrinal kodifikatsiyasi XX asrda ilmiy institut (idoralar) tomonidan ham amalga oshirilgan. 1935-yildagi Garvard universitetidagi mualliflar kollektivi (jamoasi) tomonidan tayyorlangan Xalqaro shartnomalar huquqi haqidagi Konvensiya loyihasi ancha mashhur. Loyiha shartnomalarning tuzilishidagi jarayonlarga ham bag'ishlanadi. Ichki huquqqa biror-bir istisnalarsiz shartnomalarni bajarmaganligini oqlovchi qo'shimchalar yoki o'zgartirishlarni kiritishga yo'l qo'yilmasligi alohida e'tiborga molik.

Shartnomalarga tegishli normalarning rasman kodifikatsiyalanishi XIX asrning boshlariga kelib dolzarblashdi. Vaziyat murakkab edi. Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Garvard konvensiyasi loyihasining izohida shunday deyiladi: "... Xalqaro shartnomalarning aniq va ravshan huquqlari mavjud emas ... shartnomalar huquqi sohasi o'zida xavotirlar avj olib

borayotgan va hozirgi kunda yaxlit kelishuv va umumiy standartlar juda ham kam o'ratilgan doirani aks ettirgan".

Shunga o'xshash fikr 1926-yil Millatlar Ligasining Xalqaro huquqni kodifikatsiyalash bo'yicha ekspertlar qo'mitasi tomonidan ham bildirilgan.

Rasmiy kodifikatsiyaning birinchi akti 1928-yil Amerika davlatlarining konferensiyasida qabul qilingan xalqaro shartnomlar Konvensiyasi hisoblanadi. Tarkibi jihatidan Konvensiya juda ham chegaralangan edi, shunga qaramay u baribir kuchga kirmadi.

Shartnomalarga tegishli normalarni kodifikatsiyalashga bo'lgan navbatdagi urinish Millatlar Ligasi doirasida bo'ldi. 1924-yil Xalqaro huquqning istiqbolli kodifikatsiyasi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi tuzildi. Kodifikatsiyalash uchun tayyor bo'lgan xalqaro huquq tarmoqlari bilan bir qatorda qo'mita shartnomalarga oid normalarni ham ko'rsatib o'tdi. Shuningdek, qo'mita shartnomalarning tuzilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilangina cheklandi, qolaversa, bu masalalar konferensiya ishining bir qismi sifatida ko'rib chiqildi. Qo'mitaning o'zi ham e'tirof etganiday bu darajadagi cheklangan yondashuv ko'zlangan natijalarni berolmasdi. Uning 1927-yilda Liga Ittifoqi axboroti uchun qabul qilingan yakuniy xulosasida shunday deyiladi: "Konferensiya jarayonining tartib qoidalarini avvaldan ko'ra bilish va uni qay tarzda amalga oshirish yoki Konvensiyada shartnomalarning tayyorlanish metodlari va shartnoma matnlarini tuzib chiqishni avvaldan belgilash qiyin".

Bularning barchasi shartnoma huquqining shakllanish jarayoni qanday qiyinchiliklar bilan kechganligidan dalolat beradi. Shartnoma huquqi butun bir xalqaro huquqning harakatlanishida asosiy ishga tushiruvchi qurilma (sterjen) vazifasini bajarishi bilan izohlanadi. U normalar yaratilishi tartibini, haqiqiylikini, qabul qilinishini (iste'molini) va faoliyati to'xtatilishini belgilab beradi.

Natijada shartnomalar huquqining rasmiy kodifikatsiyasi va uning jadal rivojlanishi faqatgina XX asrning 2-yarimiga kelib BMT doirasida boshlandi. Usibu masalaning yechimini topish, uni hal etish zarurati yanada yaqqolroq sezila boshlandi. Xalqaro huquqning faoliyati keng ko'lamda bog'liq bo'lgan xalqaro huquq tarmog'i betartib (chigal) ahvolda edi. 1949-yilgi BMT Bosh Kotibi memorandumida shunday deyiladi: "Ikkilanish va shubhalardan, ayrim holatlarda esa chigalliklardan xoli bo'la olgan biror-bir shartnoma huquqi sohasining mavjudligi amri mahol".

Komissiyaning shartnoma huquqi to'g'risidagi moddalar loyihasi ustida olib borgan ishi unchalik katta bo'lmagan tanaffuslar bilan 1966-yilgacha davom etgan. O'sha payt yakuniy loyiha qabul qilindi. Loyiha davlatning umumiy o'rni (holatini) hisobga oldi va turli xil xalqaro huquqiy konvensiyalarni o'zida aks ettirdi. Umuman olganda, u ko'plab hukumat va ko'zga ko'ringan yuristlarning yuqori bahosiga sazovor bo'ldi.

Shartnomalar huquqi kodifikatsiyasining navbatdagi bosqichi BMTning 1968–1969-yillardagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi 2 ta sessiyadan iborat bo'lgan Vena konferensiyalari bo'ldi.

1969-yildagi Vena konvensiyasi bu turdagi konvensiyalar uchun anchagina qisqa bo'lgan vaqtda, ya'ni 1980-yil kuchga kirdi. 1986-yilda Vena konferensiyasida davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi.

Shu tariqa XX asming 2-yarmida xalqaro hamjamiyat xalqaro shartnoma huquqini kodifikatsiyalanishiga erishdi. Ushbu muvaffaqiyat qiymatini baholash uchun asrning 1-yarmida davlatlar hattoki shartnomalarning tuzilish jarayonini tartibga soluvchi normalarni ham kodifikatsiya qilolmaganligini eslashning o'zi kifoya. Bunda esa nafaqat jarayonning rasmiy holatlarini aniqlab beruvchi, balki huquqiy me'yorlari talablarini ham o'rnatuvchi normalari ham kodifikatsiyalandi.

Xalqaro shartnomalar huquqi tushunchasi va predmeti

Xalqaro shartnomalar huquqi – prinsip va normalarning xulosalar tartibi. xalqaro shartnomalarning amal qilinishi. ularning to'xtatilishini belgilab beruvchi xalqaro huquqning alohida tarmog'idir.

Shartnomalarning rivojlangan huquqi mavjudligi – zamonaviy xalqaro huquqning o'ziga xos xarakterli xususiyati. Bu tarmoq xalqaro huquq tizimida mustahkam, o'zgarmas joy egallagan. U xalqaro huquqning barcha soha, tarmoq va institutlari bilan bog'liq.

Unga bag'ishlangan konvensiyalar ham shunday ataladi. “Shartnoma” nomi ularning Xalqaro huquq tomonidan boshqariluvchi (tartibga soluvchi), ularning nomlanishi, tuzilishi va ishtirokchilar tarkibidan qat'i nazar, xalqaro kelishuvlarning barcha tur va ko'rinishlarini qamrab oluvchi tushunchani anglatish uchun qabul qilingan.

“Shartnomalar” atamasiga Vena konvensiyasi ham alohida ma'no bergan. 1969-yildagi konvensiya mazkur atama asnosida faqatgina

davlatlararo yozma tarzda tuzilgan kelishuvlar tushunilishini e'tirof etgan bo'lsa, 1986-yildagi konvensiyada bu atama asnosida xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi kelishuvlarni ham tushunilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu atamaning bunday ma'noda talqin qilinishi faqat mazkur Konvensiyagagina xos (2-modda). Ayni paytda bu holat xalqaro kelishuvlarning yuridik kuchiga va shartnomalar huquqi normalari bilan boshqarilishi yoki tartibga solinishiga ta'sir etmaydi (3-modda). Shartnomalar huquqi xalqaro huquqiy kelishuvlarning barcha ko'rinishlariga tegishlidir.

Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarning ma'lum bir darajada shartnomalarsiz boshqariluvchi biror-bir sohasini topish qiyin. Shartnomalar siyosiy va harbiy hamkorlikni, iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni, ilm-fan, texnika, madaniyat, atrof-muhitni himoya qilish va boshqa doiralardagi hamkorlikni boshqaradi. Shartnomalar asosida xalqaro tashkilotlar tuziladi va faoliyat olib boradi. Shartnomalar davlatning ichki huquqini risoladagidek boshqarilishida ham muhim ahamiyatiga ega. Aynan shartnomalar davlatning ichki huquqiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro shartnoma – tuzilishi, harakati va bekor bo'lishi xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi kelishuvdir.

Oxirgi o'n-yillikda nohuquqiy shartnomalar keng tarqalmoqda. Bunday shartnomalarning roli Yevropada xalqaro munosabatlarni qayta qurishning asosiy instrumenti bo'lgan OBCE aktlarida ham ko'rinadi. Bunday shartnomalar yuridik emas, axloqiy va siyosiy jihatdan majburiy kuchga ega. 1994-yilgi Xavfsizlik harbiy-siyosiy jihatlarini bo'yicha harakatlar Kodeksiga ko'ra "Mazkur harakatlar kodeksining normalari siyosiy majburiyatlar hisoblanadi. BMT Ustavi 102-moddasiga ko'ra, ro'yxatdan o'tkazilishi kerak emas". Boshqacha aytganda, Kodeks xalqaro shartnoma hisoblanmaydi.

Shartnomalar huquqining asosiy manbai odat huquqidir. O'tgan asrning ikkinchi yarmiga kelibgina ko'p yillik harakatlar natijasida shartnomalar huquqining normalari va asosiy prinsiplarini kodifikatsiya qilishga erishildi. Bu uchta universal konvensiyalarni qabul qilish bilan amalga oshirildi: Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena Konvensiyasi, Davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar o'rtasida tuziladigan xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1986-yilgi Vena konvensiyasi, shartnomalar huquqi manbasiga, shuningdek Shartnomaviy munosabatlarga nisbatan Davlatlarning vorislik huquqi

to'g'risidagi 1978-yilgi Vena konvensiyasi ham kiradi, lekin u vorislik huquqi bilan uzviy bog'liq.

Shartnomalarni tuzish va amalga oshirishni tartibga solishda davlatlarning milliy qonunchiligi ham muhim ahamiyatga ega. Eng muhim normalar konstitutsiyaviy huquqda keltiriladi. Boshqa detallari davlat organlari, xususan, sud organlarining amaliyotida shakllanadi. Tashqi siyosiy faoliyat alohida tartibga solinadigan soha hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq shartnomalarni tuzish tartibi, davlatning vakolatli organlari, ratifikatsiya qilinishi lozim shartnomalar turlari va boshqalarni belgilaydi. Yangi qabul qilingan konstitutsiyalarda milliy qonunchilikka nisbatan ratifikatsiya qilingan shartnomalarning ustunligi tan olingan. Milliy qonunchilik xalqaro qonunchilikning tegishli normalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro shartnomalar huquqi subyektlari

Xalqaro shartnoma tomonlari xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi.

Xalqaro huquqning asosiy subyektlari asosan davlatlar hisoblanadi. Faqat davlatlar o'zining suverenitetiga amal qilgan holda bu huquqqa, ya'ni xalqaro huquqqa majburiy yuridik xususiyat bera oladi. Shuning uchun ham ular xalqaro huquqning asosiy subyekti hisoblanadi. Xalqaro hamjamiyat ehtiyojini hisobga olgan holda, davlatlar xalqaro tashkilotlarga huquqiy subyektivlikni berishdi. Shunga asoslangan holda davlatlar va tashkilotlar bilan birga boshqa turdagi subyektlar ham shartnomalarda ishtirok etishi mumkin. Bunday imkoniyat Vena konvensiyalarida ko'rib chiqilgan. Ularda shunday deyiladi, konvensiyalarning xalqaro huquqning boshqa turdagi subyektlari ishtirokidagi kelishuvlarga qo'llanmasligi bu turdagi kelishuvlarning yuridik kuchiga ta'sir etmaydi. Bu holatlarda xalqaro huquqning oddiy normalari ular konvensiyalarda qanday bayon etilgan bo'lsa, shundayligicha tushuniladi.

Davlat shartnomalarning barchasida tomonlar bo'lishiga qaramay, uning vakilligi darajasi yuridik mohiyatidan ayrilmagan. Oliy darajadagi shartnomaga aynan o'sha tomonlarning munosabatlari boshqa shartnomalarga mos kelishi, hukumat darajasidagi shartnomalar – hisobot xarakteriga ega shartnomalar mutanosib bo'lishi lozim. Agar gap turli davlatlar o'rtasidagi shartnomalar haqida ketsa, u holda hukumatlararo shartnomalar o'zining yuridik kuchiga tayangan holda davlatlararo shartnomalarga "joy bermaydi", ya'ni ularni keyingi o'ringa tushib

qolmaydi. Shartnomalarning tuzilishida vakillikning turli darajasi davlatning ichki huquqiga binoan mavjud oqibatlariga (natijalarga) ega bo'lishi mumkin.

O'zining suveren kuchi bilan davlat har qanday shartnomalarda, albatta, xalqaro huquq doirasidagi shartnomalarda ham ishtirok etish huquqiga ega. Shartnomalarning aksariyati davlatlar tomonidan tuziladi. Davlatlarning shartnomali amaliyotida birinchi darajali rol shartnoma huquqining rivojlanishiga tegishli.

Tuzilish jarayonida bo'lgan davlat xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarini olish imkoniga ega bo'lgan davrdan, suveren kuchiga ega bo'lgan daqiqadan boshlab shartnomalarni tuza olishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlarning huquqiy maqomi ularning xalqaro munosabatlardagi roliga bog'liq. Tashkilot tutgan o'rnining o'sishi va kompetensiyasining kengayishi qonuniy ko'rinishga ega. Davlatlarning faqatgina hamkorlikda olib boruvchi sa'y-harakatlari bilan yechilishi mumkin bo'lgan muammolarning soni va ahamiyati oshib bormoqda va davlatlar soni ham ko'payib bormoqda. Natijada tashkilotlarning hamkorligidagi vazifalari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro shartnomalarni tasniflanishi va tarkibi

Xalqaro shartnoma – tomonlarning kelishuvi natijasi va ularning siyosiy maqsadlari muvaffaqiyati uchun xizmat qiladi. Tomonlar shartnomaviy-huquqiy munosabatlarning muhim elementi hisoblanadi. Tomonlarning xarakteri (xususiyati) va tarkibi shartnoma tarkibi (tuzilishi)ni, uning yuridik va siyosiy ahamiyatini aniqlab beradi. Bu holat azaldan mutaxassislar tomonidan belgilab kelingan. U yoki bu shartnomaning baholanishida asosiy e'tibor qanday davlatlar ilk tashabbuskor sifatida chiqqanligiga, unda qaysilari ishtirok etayotganiga, qaysilari chetlatilganligi va qaysilari qarshi fikr bildirilganligiga qaratiladi.

Xalqaro shartnomalarning umumiy qabul qilingan klassifikatsiyasida ishtirokchilarining mumkin bo'lgan soni belgilangan. Shu klassifikatsiyaga mos ravishda shartnomalarning ikki tomonlama, guruhli, hududiy, universal yoki ko'p tomonlama shartnomalar kabilar farqlanadi. Tomonlarning spetsifikasi va ularning munosabatlarini inobatga olish imkonini beruvchi ikki tomonlama shartnomalar shartnomalarning asosiy hajmini tashkil etadi. Guruhli shartnomalar – bir necha davlatlar ishtirokidagi shartnomalar.

Hududiy shartnomlar bu belgilangan geografik hududdagi davlatlarning kelishuvidir. Bular MDH va Yevropa Ittifoqi doirasida tuzilgan shartnomalar hisoblanadi. Bu tushunchaga BMT Nizomi alohida ma'no beradi, Nizom hududiy harakatlarga qo'l keluvchi tinchlikni qo'llab-quvvatlashga doir masalalarni hal etishga qaratilgan va BMT maqsad va vazifalariga mos keluvchi hududiy kelishuvlarning yaratilishiga yo'l qo'yadi (52-modda).

Ko'p tomonlama shartnomalar – ko'plab davlatlar ishtirokidagi shartnomalar. Guruhli va ko'p tomonlama shartnomalar yopiq yoki yarim ochiq bo'ladi. Yopiq turdagi shartnomada faqat shartnomani imzolovchi davlatlar ishtirok etadi. Yarim ochiq shartnomalarda boshqa davlatlar ham qatnashishi mumkin, faqat shartnoma ishtirokchilarining roziligi bilan amalga oshiriladi. Bu toifadagi shartnomalarga MDH doirasida tuzilgan bir qancha ko'p tomonlama shartnomalar kiradi. Boshqa misol sifatida Shimoliy Atlantika shartnomasini keltirish mumkin (NATO, 1949-yil).

Umumiy ko'p tomonlama shartnomalar barcha davlatlar manfaatlarini ko'zlovchi normalar, obyekt va maqsadlardan iborat. Bu turdagi shartnomalar ochiq bo'lib unda barcha davlatlar qatnashishi mumkin.

Ishtirokchi davlatlarning sonidan kelib chiqib shartnomaning siyosiy va huquqiy mohiyati belgilanadi. Inson huquqlari paktlarida ko'plab davlatlarning ishtirok etishi ularning muhimligi, siyosiy, yuridik va ruhiy obro'siga (avtoriteti)ga isbot bo'ladi. Umumiy ko'p tomonlama shartnomalarda ko'p davlatlarning ishtirok etishi shartnomaning holatini umumiy tan olingan xalqaro huquq normalari sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Nomlanish siyosiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda u mazkur aktga tomonlar bergan nomning ma'nosini anglatasa, boshqa hollarda bu ma'noni chegaralaydi. Masalan, "shartnoma" deb nomlanishi tomonlarning hamkorlik qilishning eng yuqori darajasiga etishga harakat qilish istagidan guvohlik bersa, "protokol" deb nomlanishi hamkorlikning maxsus masalalar bilan chegaralashni bildiradi. "Shartnoma" nomi uning ishtirokchilari o'rtasidagi boshqa kelishuv bilan o'zaro munosabatini aniqlashi mumkin.

Amaliyotda nomlanishga nisbatan yagona tartib-qoidaga tayanmaydi. Shakli va tarkibi jihatdan bir xil hujjatlar ba'zi bir hollarda shartnomalar deb nomlanadi. Boshqa bir hollarda esa pakt, kelishuv, bayonot deb nomlanadi. U yoki bu nomni ishlatish yuzaga kelgan amaliyot orqali qisman hududiy belgilanadi. Bu bilan shug'ullanuvchi yuristlar avvaldan shartnomaviy aktni anglatuvchi terminologiya – chigal, qisman qarama-

qarshi, ilmiy bo'lmagan, qolaversa, o'zgaruvchan deb e'tirof etib kelishgan.

Konkret aktlarning nomlanishi sifatida "kelishuv" atamasi davlatlar o'rtasida dolzarb masalalar, iqtisodiy, moliyaviy, texnik va madaniy sohalaridagi xalqaro-huquqiy kelishilgan aktlarni anglatish uchun ishlatiladi. Umuman olganda, kelishuvlar shartnomalardan ko'ra kamroq ahamiyatga ega bo'lgan masalalar yuzasidan tuziladi. To'g'risi, ko'p hollarda kelishuvlar o'z mohiyatiga ko'ra aksariyat shartnomalardan dolzarb hisoblanadi.

Bizning davrimizda struktura (tuzilish) huquqi ularning mohiyatini alohida ta'kidlovchi tadqiqotchilar e'tiborini tortadi. Struktura shartnoma elementlarining tartibliligini, ularning joylashuvi, o'zaro aloqalari, ichki tashkilotlarini aks ettiradi. Struktura shartnoma tarkibini tartibga soladi, butunligini, yaxlit-yagonaligini ta'minlaydi. Xalqaro huquqda yaxlitlik prinsipi allaqachon e'tiborga sazovor bo'lgan. Ushbu prinsipga mos ravishda shartnoma butun yaxlitlikni o'zida mujassamlaydi va yagona normalar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning barchasi majburiy hisoblanib bajarilishi shart. Faqat bunday yondashuv shartnomaga nisbatan haqqoniy, to'g'ri yondashuv hisoblanadi va to'g'ridan to'g'ri xalqaro huquqdagi majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiga borib taqaladi.

Xalqaro shartnomani tuzish

Shartnomani tuzish tushunchasini ikki xil tushunish mumkin. Birinchisi keng ma'noda – shartnomani tayyorlanishi, qabul qilinishi va kuchga kirish jarayonini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda esa faqat yuridik ahamiyatga ega bo'lgan bosqichni, ya'ni qabul qilinish va kuchga kirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Shartnomalarning tuzishda davlatlar nomidan ishtirok etuvchi organlar. Shartnomalarning tuzishda davlat nomidan uning tegishli organlari tomonidan amalga oshiriladi. Xalqaro munosabatlarda davlatning vakili hisoblangan organlarning mavjud bo'lmashligi davlat nomidan xalqaro majburiyatlarni olish, ularni bajarish, xalqaro-huquqiy subyektivlikni tashkil etishning imkoni yo'qligini ko'rsatadi. Ma'lumki, xalqaro huquqning subyekt sifatida hokimiyatga ega bo'lish davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Shu tariqa, davlat nomidan chiquvchi u yoki bu organning shartnoma tuzish huquqi masalasining yechimida xalqaro huquqda aniq bir ma'noga

ega. Vena konvensiyalariga muvofiq ishtirokchilar shartnoma imzolash vakolatidan foydalanib, shartnoma majburiyatiga asoslangan holda davlatning ichki huquqini buzuvchi holatga rozilik berish huquqiga ega emas, ya'ni shartnoma imzolash huquqiga egaligidan foydalanib davlat nomidan qatnashayotgan ishtirokchi shartnoma shartlarini ular davlatning ichki qonuniga zid kelgan taqdirda ham bajarish huquqiga ega emas. Bunday holat konstitutsion huquqlariga e'tibor bermaslikni anglatmaydi. Davlat shartnoma imzolash kompetensiyasiga nisbatan o'zining ichki huquqlaridagi holatlariga tayanishi mumkin. Vena konvensiyasining 46-moddasiga ko'ra "Huquqbuzarlik yaqqol hisoblanadi qachonki, odilona harakat qilamayotgan har qanday davlat uchun obyektiv jihatdan aniq ko'ringanda", – deyilgan.

Xalqaro-huquqiy nuqtayi nazardan shartnoma davlat boshlig'i tomonidan tuzilganmi yoki hukumat tomonidan tuzilganmi ahamiyatsizdir. U yoki bu holatda ham kelishayotgan tomon davlat hisoblanadi, uning organi emas. Ikkala holat siyosiy ahamiyatida farq bo'lsada, shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'ladi.

Shartnoma tuzishda davlatlar nomidan ishtirok etayotgan vakil organlarning darajasi teng bo'lishi kerak. Qiyosiy jihatdan kamdan kam istisnoli, ilojisiz shartlar bilan tushuntiruvchi holatlar ham mavjud bo'lgan taqdirda favqulodda holat sifatida baholanadi.

1969-yildagi Vena konvensiyasi tegishli vakolat taqdim etishidan qat'i nazar, funksiyalari kuchidan kelib chiqqan holda davlat nomidan ishtirok eta oladigan shaxslar doirasini aniqladi:

a) barcha shartnomalarni tuzishga oid bo'lgan aktlarni amalga oshirish maqsadida – davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i va tashqi ishlar vaziri;

b) akkreditatsiya qiluvchi davlat va akkreditatsiyani amalga oshirib bo'lgan davlat o'rtasida shartnoma matnini qabul qilish maqsadida diplomatik delegatsiya boshliqlari;

d) davlat tomonidan xalqaro konferensiya yoki xalqaro tashkilot yoki uning organlaridan birida xuddi shunday konferensiya yoki xalqaro tashkilot yoki organlarda shartnoma matnlarini tuzishda davlatni namoyish etishi, davlat nomidan qatnashishi (7-modda. Vakolat).

Bundan kelib chiqadiki, "shartnoma tuzilishiga taalluqli barcha aktlarni amalga oshirish maqsadida" davlat nomidan davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vaziri ishtirok etadi. Boshqacha qilib aytganda, ular shartnoma majburiyatlariga rozilik bildira olishadi. Aytib o'tilganiday, qaysi organ ishtirok etishidan qat'i nazar, shartnoma

tuzilishida undagi tomon davlat hisoblanadi. Biroq tajribadan ma'lumki, u yoki bu siyosiy sabablarga ko'ra kelishuvlar faqat hukumat majburiyati sifatida ko'riladi.

Xalqaro tashkilot vakillarining vakolatlari

1969-yildagi Vena konvensiyasi "har bir davlat shartnoma tuzish huquqiga ega" deb belgilaydi. Xalqaro tashkilotlar bilan esa boshqacharoq vaziyat. Xalqaro tashkilotlarning hammasi ham bunday huquqqa ega bo'lavermaydi. Bundan tashqari, davlatdan farqli o'laroq ularning bu huquqi individual hisoblanadi. Bir tashkilot aynan bir munosabatlarda boshqasidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Shuni hisobga olgan holda 1986-yildagi "Xalqaro tashkilot va davlat yoki xalqaro tashkilot va xalqaro tashkilot o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi quyidagi holatni o'rnatdi:

"Xalqaro tashkilotning shartnoma tuzish huquqi shu tashkilot qonun-qoidalarini bilan tartibga solinadi" (6-modda). "Tashkilot qonun-qoidalarini" deganda, qisman tashkilotning ta'sis hujjatlari, ularga mos ravishda qabul qilingan qaror va rezolyutsiyalar, yana tashkilotning o'rnatilgan tajribalari tushuniladi (2-modda).

Bu holatlar o'ta muhim vaziyatlarni – shartnomalararo munosabatlarda turli tashkilotlarning vakolatlari tubdan farq qilishini inobatga oladi. Bunda tajriba yordamida tashkilotlarning qonun-qoidalarini jadal va bir xilda bo'lmagan holda rivojlanadi. Shuning uchun, Xalqaro huquq Komissiyasi izohida aytib o'tilganiday eslatib o'tilgan modda loyihasida "kodifikatsiya kuchga kirgan vaqtdan boshlangan tajriba emas, balki ushbu qonun-qoidalarini bilan to'plangan tajriba ko'lami bilan tashkilotning qonun-qoidalarini o'zgartirish yoki to'ldirish imkoniyatining o'zi" nazarda tutiladi. Boshqa so'z bilan aytganda, yaxlit qonun o'rnatish bilan tashkilotlarning imkoniyatlarini cheklamaslikka qaror qilingan.

Matnni qabul qilish

Matnni qabul qilish shartnoma mazmuniga rozilik bildirilganligining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Lekin matnni qabul qilish uchun ovoz berishda davlat hech qanday darajada uning qoidalariga o'zini bog'lamaydi.

O'tmishda hamma uchun umumiy – shartnoma matni kelishuv ishtirokchilarining barchasi tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin, degan qoida mavjud edi. Ko'p tomonlama tuzilayotgan shartnomalarda ishtirok etuvchilar sonining ko'payishi amaliyotda matnni ko'pchilik ovoz bilan qabul qilishni imkoniyatini taqozo etdi. Bunda bir ovozga kelishni talab qilish demokratiya hisoblanmaydi, zero u bitta

yoki bir nechta davlatning ko'pchilik ishtirokchilarni ovozini ham yo'qqa chiqaruvchi rozilikni to'sib qo'yishga olib keladi.

Shuni inobatga olgan holda, Xalqaro huquq Komissiyasi bir ovoz, yaxlit kelishuv qoidasini ikki tomonlama tuzilgan shartnomalar, ishtirokchilar soni uncha ko'p bo'lmagan shartnomalar uchun saqlab qoldi. Keng hisoblangan ko'p tomonlama shartnomalarda esa ishtirokchilarning uchdan ikki qismi ovoz berish qoidasini o'rnatishni taklif etdi. Bunda kelishuv ishtirokchilari boshqa qoidalarni ham o'rnatishlari mumkin. Bu taklif Vena konferensiyasida xalqaro huquqning jadal rivojlanishi sifatida baholandi.

Shartnoma matni konsensus yo'lida qabul qilinishi mumkin. Bu shartnomani ovoz berishsiz, barcha tomonlarning rozilik kelishuvlari va rasmiy e'tirozlarsiz qabul qilinishidir.

Matnning autentligi

Matnning autentligi (haqiqiyligini, ishonchligini tekshirish) matnning ishonchliligi, to'g'riligini aniqlash jarayoni matn to'g'ri, yakuniy holatdali va o'zgartirilmaganligi e'tirof etish yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon matnning to'g'ri ekanligini tasdiqlovchi ma'lum bir harakatlarni o'z ichiga oladi.

Agar matnning autentifikatsiyasidan so'ng muzokaralar o'tkazayotgan tomonlar yoki shartnomani imzolovchilar matnda xatolik bor deb topishsa, u holda matnni mos keluvchi hujjatlar yoki tuzatish kiritilgan hujjatlarni almashtirish yo'li bilan, avvalgi xato deb topilgan matnni xomaki nusxa sifatida qabul qilib, to'g'rilash mumkin. Va nihoyat, butun bir shartnoma matni boshdan, yangidan tuzilib avvalgisi qay tartibda qabul qilingan bo'lsa, xuddi shu tartibda yana qabul qilinadi. Agar shartnoma depozitariyga berilgan bo'lsa, oxirgi kiritilgan tuzatish haqida barcha imzolovchi va kelishayotgan tomonlarni xabardor qiladi. Agar belgilangan vaqt ichida tomonlar o'z raddiyalarini berishmasa, u holda depozitariy tuzatish kiritilgan bayonnomani tarqatadi. Shunday amaliyot BMT Kotibiyatida mavjud.

Autentifikatsiya jarayoni masalasi muzokara ishtirokchilarining kelishuvi bilan hal etiladi. Agar ishtirokchilar o'zlari bu masalani hal etishmasa, bu holat uchun Vena konvensiyasi mos keluvchi qoidani o'rnatgan. Vena konvensiyasida asosan shartnoma matni to'g'ri va yakuniy hisoblanadi, agar:

a) matnda ko'zda tutilgan jarayonining qabul qilinishi natijasida yoki ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi bilan tuzilgan bo'lsa;

b) agar bunday jarayon mavjud bo'lsa, u holda imzolash yo'li bilan, **ad referendum** imzolash yoki shartnoma matni ishtirokchilari vakillarining rasmiy ko'zdan kechirib chiqishi bilan ushbu matnni o'z ichiga olgan konferensiyaning yakuniy akti bilan o'zaro keshilsa.

Parafirlash (initialing – ingliz tilidan olingan bo'lib, initsial, ilk, boshlang'ich degan ma'nolarni anglatadi) – oldindan xomaki imzolash, uning yordamida shartnoma matnning to'g'ri, ishonchligi aniqlanadi. Bu jarayon vakillari tomonidan matnning har bir betiga o'z ismining bosh harflarini yoki belgilarini qo'yish bilan amalga oshiriladi. Matn so'ngida imzo bo'lishi kerak bo'lgan joyga belgi qo'yilmaydi. Bunday tartib to'liq imzolash emasligiga shubhalar qolmasligi uchun qo'llaniladi.

Ad referendum imzolash (ma'qullanguncha) – oldindan imzolash turi bo'lib, vakillarning shartnoma matni borasida yakuniy roziligini, biroq ularga vakolat bergan hukumat yoki davlat organi tomonidan keyinchalik ma'qullash zaruratini nazarda tutgan holda kelishishlarini o'zida aks ettiradi.

Konferensiyaning yakuniy aktini imzolash. Xalqaro konferensiya tugagandan so'ng aksariyat holatlarda qabul qilingan shartnoma yoki shartnomalarning matni hamda boshqa aktlar, bayonnomalalar, ariza va boshqalarni o'zida mujassamlovchi yakuniy (xulosaviy) akt qabul qilinadi. Shu jumladan, shartnoma huquqi haqidagi ikkala Vena konvensiyalari ham yakuniy aktlar tuzish bilan tugatilgan. Akt konferensiyasi ishtirokchilarining barchasi tomonidan imzolanadi. Aktning imzolanishi shartnoma matnining autentifikatsiyalanganligini bildiradi, u shartnomani imzolash kabi ko'rib chiqilmaydi.

To'liq imzolash – matnning autentifikatsiyasidan tortib shartnoma shartlariga rozilikni aks ettirishgacha bo'lgan turli ma'nolarga ega. Bu holat BM'Tning Xalqaro sudi tomonidan ham belgilangan. Genotsid haqidagi konvensiya shartlari haqidagi konsultativ xulosada Sud: "alohida holatlarda turlicha bo'lgan Xalqaro konvensiya imzolanishining yuridik mohiyati haqidagi masalaga murojaat etmay, Sud imzoni konvensiyada ishtirok etishga ilk qadam deb hisoblaydi" deb bayonot bergan.

Shunday qilib, shartnoma matnining autentifikatsiyasi birorta yuridik majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi. Istisno tariqasida yuridik kuchga ega bo'lgan unda ishtirok etishning rasmiylashtirilish tartibi haqidagi qarorni aytib o'tish lozim. Shunga qaramay, bunday matn xalqaro huquq uchun ahamiyatsiz emas. Matn shartnoma amaliyotining xilma-xilligini aks ettirish bilan birga, oddiy normalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik huquqshunos olimlar bunday ma'noni shartnoma loyihalari,

eng avvalo, ko'ptomonlama shartnomalar loyihalarida ham mavjud deb hisoblaydilar.

Xalqaro shartnomaning majburiyligiga rozilik bildirish

Rozilik bildirish tartibi kelishayotgan tomondan belgilanadi. Bunda eng asosiy rolni davlatning konstitutsiyasi egallaydi. Shartnomaga uni qabul qilish yoki ratifikatsiya qilish davlatlar tomonidan, ularning konstitutsion protseduralariga mos kelgan holda amalga oshirilishi haqidagi holatning kiritilganligi ko'p uchraydi. Boshqa holatlarda, masalan, YUNESKOning Nizomida shunchaki shartnomaning "qabul qilinishi" (aksepti ma'qullanishi) gapiriladi. Labeyri-menaxem "qabul qilinishi" atamasi BMTning maxsus tashkilotlari konvensiyalarida juda keng qo'llaniladi deb e'tirof etadi. Bu aksariyat yuristlarning fikricha, parlament tomonidan majburiy ratifikatsiya qilishdan qochish uchun qilinadi.

Xalqaro hamjamiyat tajribasini hisobga olgan holda Vena konvensiyalari davlatlar uchun shartnoma majburiyatlariga rozilik bildirishining quyidagi usullarini belgiladi: imzolash, hujjatlar almashish (shartnomani tashkil etgan hujjatlarni almashish), ratifikatsiya qilish, tasdiqlash, qo'shilish yoki kelishib olingan boshqa har qanday usul (11-modda). Kelishuv bo'yicha u yoki bu usulni aniqlash kelishib olayotgan tomonlarning huquqi deb aytilgan va faqat tipik (xarakterli, bir turdagi) usullar belgilangan.

Davlat yoki xalqaro tashkilotlarning, shartnomaning ular uchun majburiyatlariga o'zaro hujjat almashish usuli bilan bildirayotgan roziliklari bu almashish orqali amalga oshiriladi, agarda:

a) ushbu hujjatlarda ularning almashishlashi shunday kuchga ega ekanligi ko'zda tutilgan bo'lsa;

b) bu davlat yoki tashkilotlarning kelishuvi boshqacha o'rnatilgan bo'lsa, vaziyatdan kelib chiqib, hujjatlar almashishi o'sha o'rnatilgan usul kabi kuchga ega bo'lishi lozim.

Bu shartlar yuridik ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda hujjatlar almashish shartnoma tuzish bilan yakunlangan. Biroq notalar yoki alohida kelishishib olishlarning o'zi ham ko'p hollarda ratifikatsiya qilish va ma'qullash zaruratini ko'rib chiqadi. Bu bilan bog'liq bo'lgan ajoyib holat, notalar (hujjat, yozuv) almashish yo'li bilan bildirilgan kelishuv, o'z xarakteri kuchidan kelib chiqib, faqat bir tomonning parlamenti tomonidan ma'qullash zaruratini ko'rib chiqilgan.

Odatda nota yoki xatlar bilan almashilinadi. Ko'p hollarda bunday almashish boshqa davlatning diplomatik vakilli tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat tashqi ishlarining ro'yxati yoki yozuvi (vedomost) ham notalar almashishi bilan tuziladi.

Almashtirilayotgan hujjatlar bir xil, avvaldan kelishilgan tarkibda tuzilgan bo'ladi. Bu turdagi kelishuv hujjatlar almashtirilgan daqiqadan boshlab kuchga kiradi. Taklif qilinayotgan kelishuv (shartnoma) loyihasi ko'p hollarda notalarda tasvirlanadi. Rozilikni bildiruvchi javob hujjatlar qabul qilinishi bilan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Ratifikatsiya (ratum facere – lotincha qonuniy kuchni tan olish, yakunlash yoki tugallash) – davlat xalqaro shartnomaga yakuniy roziligini bildiradigan, ahamiyati yuqori sanaladigan aktdir. Ratifikatsiyalarga ko'plab (yetarlicha) adabiyotlar bag'ishlangan. Bu masala yuzasidan jiddiy muhokama 1968–1969-yillardagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konferensiyasi va Xalqaro huquq Komissiyasida ham bo'lib o'tgan.

Ratifikatsiya – eng qadimgi institutlardan biri bo'lib, davlatlar o'rtasidagi bir shartnoma bilan deyarli bir vaqtda vujudga keladi. Biroq ratifikatsiyaning ma'no mohiyati o'zgardi. O'tmishda xalqaro munosabatlar subyektlari monarx edi. O'zaro munosabatlar, shaxslar o'rtasida o'rnatilgan. Shartnomalarni rasmiylashtirilishi ham shunday xususiyatga ega bo'lgan. Bundan tashqari, boshqa davlatga vakil qilib jo'natilganlar bilan doimiy aloqada bo'lishning iloji bo'lmagan, shuning uchun ham davlat rahbari shartnoma u bergan vakolatga mos kelishi haqidagi so'nggi so'zni o'zida qoldirgan.

Ratifikatsiya Vena konvensiyasida “davlat shartnomadagi o'z majburiyatlariga roziligini xalqaro doirada bildiruvchi, shunday nomga ega bo'lgan xalqaro akt” deb e'tirof etiladi. Ratifikatsiya xalqaro akt sifatida belgilanishi o'ziga e'tiborini tortadi. Shu bilan birga, u davlatning o'z ichki qoidalari (huquqlari)ga mos ravishda qabul qilinadigan huquqiy aktini bildiradi. Ratifikatsiyaning ikkimonlama xususiyati adabiyotlarda doim e'tirof etib kelinadi.

Ratifikatsiya konstitutsion ma'noda davlatning teng huquqli idorasining shartnoma bilan bog'liq ekanligiga roziligini bildiruvchi akt. Xalqaro doirada ratifikatsiya yordamida kelishuv xalqaro huquqiy ma'noni kasb etuvchi jarayonni o'zida namoyon etadi va xalqaro hodisalarni keltirib chiqaradi.

Shartnoma to'liq holda qabul qilinadi. Shartnomaning bir qismi, ya'ni ratifikatsiyasi qonuniy emas. Davlatning ratifikatsiya haqidagi normativ aktiga shartnoma tuzish jarayonidagi kelishuvlar, rasmiy hisobotlar kiradi.

Bundan tashqari, ratifikatsiya qilinayotgan idoraning bayonoti, masalan, shartnomaning u yoki bu holatini izohi kiritilishi ham mumkin. Bu turdagi bayonot yuridik kuchga ega bo'lmagan davlat idorasining o'z fikr va mulohazalarini aks ettiradi va faqatgina boshqa taraf tomonidan e'tirof etilganidagina ahamiyatga ega bo'ladi. Ratifikatsiya aktida shartnomaga biror-bir tuzatish kiritish haqida fikr yoki taklif kiritib bo'lmaydi.

Bu holatlar ichki tartib qoidalarda ham o'z aksini topgan. Fransiyaning milliy Kengashi reglamentiga binoan, shartnoma yoki kelishuvning ratifikatsiyasini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan qonun loyihasini ko'rib chiqishda alohida moddalar yuzasidan ovoz berish o'tkazilmaydi va tuzatish taklif qilinmaydi. Nazariya va amaliyotda biror marta shartli ratifikatsiya haqida savol paydo bo'lmagan.

Shartnomani ratifikatsiya qilayotgan davlat ratifikatsiya yorlig'ini (gramotasini) almashtirish yoki saqlash uchun topshirishga majbur emas. Agar u shartnoma ratifikatsiyasidan bosh tortsa, u holda yorliqlar bilan almashishni amalga oshirmasa ham bo'ladi.

Gramotaning ikki qismida shartnomaning matni, jumladan, ilovalar, izohlar, bayonnomalar, agar ular qilingan bo'lsa. Yakuniy qismda shartnoma ma'qullanganligi va shartnomaga qat'iy amal qilishi aytiladi. Gramotalarga davlat boshliqlarining imzosi va davlat muhri bosiladi. Pastida tashqi ishlar vazirining imzosi va muhri bosiladi. Gramota davlatlarning bayroqlari rangidagi ipak shnurlar bilan tikiladi. Odatda gramotalar davlat greblari tushirilgan muqovali bo'ladi.

Endi shartnomaning qabul qilinishi haqida. Bu ikki harakatlar qiyosiy yangi ko'rinishini namoyon etadi. Ular xalqaro huquq amaliyotida taxminan XX asrning o'rtalarida tarqala boshladi. "Qabul qilish" atamasi ikkita har xil jarayonni qamrab oladi. Agar shartnomani navbatdagi qabul qilish bilan imzolash ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda xalqaro doirada bu holat shartnomaning galdagi ratifikatsiyasi bilan imzolash zarurati ko'zda tutilayotgan holatdan farq qilmaydi. Agarda shartnomada u imzolashsiz "qabul qilingan" bo'lishi mumkinligi belgilangan bo'lsa, u holda bu vaziyat qo'shilish (jarayoni)dan farq qilinmaydi. Amaliyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "ratifikatsiya" va "qabul qilish" atamaları deyarli bir xil ma'noda ishlatiladi. Qo'shilish imzolanmagan va, albatta, shartnomaning tayyorlashda ham ishtirok etmagan subyektning shartnoma majburiyatlariga roziligini bildiradi.

Rozilik bildirish faqat qo'shilish yo'li bilangina bildirilishi mumkin bo'lgan ko'p tomonlama shartnomalar kamdan kam. Adabiyotlarda qadimdan "accession" (qo'shilish, to'ldirish) va "adhesion" (rozilik)

o'rtasida farqlash bo'lgan. Birinchi atama shartnomani imzolamagan davlatning shartnomani barcha holatlarini, unda to'liq qatnashishini qabul qilganligini anglatadi, ikki atama shartnomaning faqat ayrim holatlarini qabul qilishni bildiradi.

Ilova – har qanday nom ostida davlat yoki xalqaro tashkilotning shartnomaga roziligini bildirishi jarayonida, qabul qilgan shartnomaning ma'lum bir holatini ilova muallifiga qo'llashdagi uning yuridik harakatini o'zgartirish yoki olib tashlashga oid bir tomonlama bayonoti.

Bundan kelib chiqadiki, akti ilova sifatida belgilashning hal qiluvchi sharti uning nomi emas. balki uning maqsadi, obykti – ilova muallifiga qo'llaniladigan shartnomaning ayrim holatlarining yuridik harakatini o'zgartirish yoki olib tashlash hisoblanadi. Shu bois asosiy ahamiyatli narsa, aktning nomlanishi emas, ilova bilan ish olib bormoqdamizmi yoki yo'qmi, masalan, shartnomaning e'tirof etilishi talqin qilinishi haqidagi bayonot, aniqlab olish uchun uning maqsadi hisoblanadi.

Ilova shartnomaga rozilik bildirishning barcha turida qilinishi mumkin: imzolashda, ratifikatsiya qilishda, rasman tasdiqlashda, shartnomani qabul qilish yoki ma'qullashda, qo'shilishda yoki shartnomaning huquqiy samarasi (boshqa huquqlar bilan mutanosibligi, qo'llanishi) haqidagi bayonotda (huquqiy samaradorlik haqidagi ilovalar bilan bog'liq holatlar) 1978-yildagi davlatning shartnomaga nisbatan boshqa huquqlarning qo'llanishi (huquqiy samaradorlik) haqidagi Vena konvensiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan).

Xalqaro shartnomalar o'zaro bog'liq normalarning yaxlit, yagona, butun bir tizimidir. Ishtirokchilar qiziqishlari (foydalari) mutanosibligi, bir taraf uchun foydaliroq bo'lgan holat, boshqalar uchun ham foydaliroq bo'lgan holatlar bilan kompensatsiya qilinadi, bularning barchasi xalqaro shartnomada o'z aksini topadi. Shuning uchun umumiy qoida shartnomani faqat to'liq qabul qilinishi mumkinligidan iborat, ya'ni umumiy qoida shartnomani butun, yaxlitligicha qabul qilish. Biroq qiyosiy olib qaraganda, shunday holatlar ham mavjudki, ularda shartnomaning o'zida uning ayrim holatlarini qabul qilish ko'zda tutilgan bo'ladi. Bunday holatlar Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalaridan ma'lum. Bundan ham kam uchraydigan holat, bu tomonlar davlat yoki tashkilotlar shartnomadagi majburiyatlarning faqat bir qismiga rozilik bildirishi haqida kelishib olishadi.

Bu toifadagi holatlar uchun Vena konvensiyasining 17-moddasida ushbu qoida o'rnatilgan. Bu qoidaga binoan shartnoma majburiyatlarning bir qismigagina rozilik, agarda bu shartnomada ruxsat etilgan bo'lsa, bu

to'g'risida tomonlar o'zaro kelishib olishgan bo'lsa, kuchga ega deb hisoblanadi. Shu bilan birga, bu holat ilovalar haqidagi moddalarga ziyon yetkazmasligi aytib o'tilgan.

Shartnomaning qismi majburiyatlariga rozilik, uning holatlari orasida tanlash imkonini beruvchi rozilik, agarda rozilik bu holatlarning qaysi biriga berilganligi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, kuchga ega bo'ladi. Shartnomaning kuchga kirishi tomonlar uchun yuridik majburiyatga aylanganligini bildiradi. Bu holat unume'tirof etilgan holat hisoblanadi.

Kuchga kirish tomonlarni shartnoma hoiatini qabul qilishga yuridik jihatdan mas'ul qiladi (tomonlarga shartnomaning holatlarini qabul qilishday yuridik majburiyatni yuklaydi). Shu o'rinda boshqa bir holatlar ham ma'lumki, ularda shartnomaning kuchga kirishi, shartnomaning holatini belgilangan vaziyatlarda qabul qilish majburiyatni yuklaydi.

Shartnomaning kuchga kirishi tomonlar uchun uni yuridik majburiyatga aylantiradi, lekin uni qabul qilish majburiyatini doim ham yuklamaydi. "Kuchga kirish" va "Shartnomani qabul qilish" tushunchalari bir-biriga juda yaqin, lekin bir xil emas.

Shartnomalarning kuchga kirish holati xilma-xildir. Ko'p narsa shartnomaning xarakteriga va boshqa holatlarga bog'liq. Ba'zan shartnomaning nafaqat kuchga kirish sanasi, balki soati ham belgilab qo'yiladi.

Xalqaro shartnomalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

Jahon taraqqiyotining tez sur'atlarda o'sishi shartnomalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish muammosini tobora dolzarb qilmoqda. Xalqaro tizimning aniq o'zgarishlarini hisobga olganda bu muammo, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada Ikkinchi jahon urushidan keyingi tajriba muhim ahamiyatga egadir. Urush amaldagi jahon tizimi qanchalik xatarli ekanligini ko'rsatib berdi. Natijada prinsipial-mafkuraviy tafovutlarga qaramasdan davlatlar BMT Ustavi asosidagi yangi xalqaro-huquqiy tizimni shakllantirishga rozi bo'lishdi. Sovuq urush tugagandan so'ng yangi munosabatlarni shakllantirilishi natijasida xalqaro shartnomalar huquqiga o'zgartirishlar kiritildi.

Shu vaqtgacha tomonlarning kelishuvidan tashqari aniq qoidalar mavjud emas edi. Bugungi kunda ko'p tomonlama shartnomalar ko'pchilikning roziligi bilan o'zgartiriladi. Umumiy shartnomada alohida o'zgartirishlar kiritilishiga ham yo'l qo'yiladi. Rasmiy o'zgartirish

kiritmasdan tomonlarning roziligi bilan amaliyotda shartnomaning qoidalarini o'zgartirish tartibini belgilash yanada qiyin masala.

Xalqaro munosabatlar turli xil va ko'p qirrali xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar shartnomalarni shakllantirishda e'tiborga olinadi. U yoki bu sohada hamkorlik haqidagi umumiy xarakterdagi normalar ham mavjud. Ularning asl ma'nosi hamkorlik darajasi va ishtirokchilarning kelishilgan amaliyotidan kelib chiqadi. Imperativ normalar, masalan, radio to'loqlarni tarqalishiga oid normalar ham mavjud. Ular hech qanday o'zgartirishsiz qanday bo'lsa, shundayligicha qo'llaniladi. Nihoyat amaliyotda ishlamaydigan normalar ham mavjud. O'zgaruvchan sharoitlarda shartnomaning qoidalari o'zaro kelishuv asosida o'zgartirilishi mumkinligini amaliyot ko'rsatmoqda.

Xalqaro munosabatlar o'zgaranda shartnomalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi. Qo'shimcha va o'zgartirishlar davlatlarning huquq va majburiyatlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Shartnomaga o'zgartirish kiritish uchun barcha tomonlarining roziligi kerak degan qoida 1871-yilgi London Protokolida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra har qanday buyuk davlat o'z shartnomaviy majburiyatlarini faqat "do'stlik kelishuvi orqali erishilgan tomonlarning roziligi" asosida o'zgartirishi mumkin. BMT Kotibiyati huquq departamentining memorandumida "o'tmishda ko'p tomonlama konvensiyalar dastlabki kelishuvchi tomonlarning umumiy roziligi bilan o'zgartiriladi, degan fikr mavjud.

Shartnomaga o'zgartirish kiritilganda, shartnoma tuzilgandagi kabi ularsiz shartnomaning maqsadlariga erishib bo'lmaydigan yoki erishishni qiyinlashtiradigan zaruriy ishtirokchilar alohida o'rin tutadi.

1968-yilgi "Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risida"gi Kelishuvning zaruriy ishtirokchilari yadroviy qurolga egalik qiluvchi davlatlar hisoblanadi. Kelishuvga ko'ra har bir ishtirokchi o'zgartirish kiritish to'g'risida taklif berishi mumkin. Agar taklif umumiy ishtirokchilarning 1/3 qismi yoki ko'pchilik ovozi bilan qo'llab-quvvatlansa, depozitariy barcha tomonlar ishtirokida konferensiya chaqiradi. "Ushbu Kelishuvga o'zgartirishlar shartnomaning barcha ishtirokchilari, shu jumladan yadroviy qurolga egalik qiluvchi, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlikning Boshqaruv Kengashining a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi".

Hozirda buyuk davlatlar umumiy shartnomalarni o'ziga moslab qayta ko'rib chiqolmaydi, lekin ular ham doim o'zini qoniqtirmaydigan ko'rib chiqishlarni to'xtalib qo'ya oladilar. Misol sifatida, 1982-yilgi "Dengiz huquqi to'g'risida"gi BMT Konvensiyasini ko'rsatish mumkin. AQSH uni

imzolashdan bosh tortgan. Hozirda Konvensiyada 145 ta davlat ishtirok etadi va uning normalari xalqaro huquqning normalariga aylandi. Konvensiya imzolangandan 22-yil keyin, 2004-yilda Senatning xorijiy ishlar bo'yicha qo'mitasi uni bir ovozdan mayoqullangan. Shunga qaramasdan AQSH ma'muriyatida butun Konvensiya va dengiz tubi bo'yicha organ qisman AQSH suverinetitiga xavf tug'diradi degan "arxikonservatik" nuqtayi nazar mavjud.

Xalqaro hayotning o'sish dinamikasi natijasida o'zgartirishlar muammosi yanada ko'p ahamiyat kasb etmoqda. Shartnomalar tuzilayotganda bu vaqtdagi shart-sharoitlar o'zgarishini hisobga olib tuziladi, shuning uchun o'zgarish kiritish mumkinligi shartnomada nazarda tutiladi. Shartnomalarni o'zgartirish huquqi shartnomani tuzish huquqidan kelib chiqadi.

"O'zgartirish" va **"qayta ko'rib chiqish"** tushunchalari. BMT Ustavining 108-moddasida Ustavga o'zgartirish kiritish, 109-moddasi Ustavni qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan. BMT Kotibiyatining shartnomaning yakuniy qoidalari to'g'risidagi hujjatda o'zgartirish to'g'risida normalar va shartnomaning nazorati to'g'risidagi normalar o'rtasidagi farqlar keltirilgan. Birinchisi shartnomaning alohida normalarini almashtirish, ikkinchisi esa shartnomani o'zini almashtirishni ko'zda tutadi.

Shartnomani o'zgartirish hajmini e'tiborga oladigan bo'lsak, ko'rsatilgan farq ma'lum ma'noga ega. Lekin u holatda ham bu holatda ham yuridik jarayon bir xil bo'ladi. BMT Ustavining 108-moddasiga ko'ra kiritiladigan tuzatishlar, ular Bosh Assambleya A'zolarining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinib, Tashkilot A'zolarining Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolarining hammasini qo'shgandagi uchdan ikki qismi ovozi bilan ularning konstitutsiyaviy tartibotiga muvofiq ratifikatsiya qilingach, Tashkilotning barcha a'zolari uchun kuchga kiradi. Xuddi shunday norma 109-moddasida ham ifodalangan.

Shu bilan birga, 108-moddani San-Fransisko konferensiyasida muhokama qilish jarayoni quyidagi fikrlar aks ettilirilgan ma'ruza qabul qilingan: "Huquq va majburiyatlari Ustavga o'zgartirish kiritish orqali o'zgartirilgan va bu o'zgarishlardan norozi bo'lgan Tashkilot a'zosi, agar bu o'zgartirish Assambleyaning kerakli ko'pchilik a'zosi yoki umumiy konferensiyada qabul qilingan va uni kuchga kirishi uchun ratifikatsiya qilishning iloji yo'q bo'lsa, a'zo davlat Tashkilotda qolishi shart emas".

Hozirda London Protokolining normalari ikki tomonlama va cheklangan shartnomalarni o'zgartirishga nisbatan qo'llaniladi. Keng

tarqalgan ko'p tomonlama shartnomalarni o'zgartirishga nisbatan uning ahamiyati past. Keng tarqalgan ko'p tomonlama shartnomalarni tuzishning birinchi tajribasi tomonlarning o'zaro kelishuvi prinsipi xalqaro huquqning progressiv rivojlanishini to'xtatib qo'yishi mumkin.

1906-yilda 1864-yilgi "Urush qurbonlarini qismatini yaxshilash to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasi ushbu Konvensiya qoidalarini bekor qiluvchi yangi konvensiya qabul qilinishi natijasida qayta ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, 1964-yilgi konvensiya yangi Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan davlatlar o'rtasida o'z kuchini saqlab qoladi. Xuddi shunday norma 1899-yilgi konvensiyani qayta ko'rib chiquvchi 1907-yilgi "Urush qoidalari va odatlari to'g'risida"gi konvensiyada ham ifodalangan. Bunday normalar amaliyotda keng tarqalgan. 1949-yilgi "Harakatdagi armiyalarda yarador va bemorlarni qismatini yaxshilash to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasida: "Mazkur Konvensiya Oliy Ahdlashuvchi tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda 1864-yil 22-avgustdagi, 1906-yilgi va 1929-yil 27-iyuldagi konvensiyalar o'rnida ishlatiladi", – deyilgan.

Hozirgi kunda quyidagi mazmunli o'zgartirish formulasi keng tarqalgan: har bir a'zo davlat konvensiyalarga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqishi mumkin, ko'pchilik a'zolar tomonidan ma'qullagandan keyin o'zgartirishni qabul qilgan davlatlar uchun kuchga kiradi, keyinchalik qo'shilgan a'zolar uchun qo'shilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Ushbu formula ishlatilgan konvensiyalarga misol sifatida 1967-yilgi "Kosmosdan, shuningdek Oy va boshqa samoviy jismlardan foydalanish va tadqiq qilish faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi konvensiya (15-modda), 1968-yilgi "Kosmonavlarni qutqarish va kosmosga yuborilgan obyektlarni qaytib kelishi to'g'risida"gi Kelishuv (8-modda), 1972-yilgi "Bakteriologik (biologik) va zaharli qurollarni ishlab chiqish, yig'ib qo'yishni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risida"gi konvensiya (11-modda)larni ko'rsatishimiz mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan norma umumiy qoidalarni aks ettiradi. Lekin ayrim holatlarda u maxsus shartlar bilan to'ldiriladi. Bunga yuqorida aytib o'tilgan 1968-yilgi "Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risida"gi Kelishuvning VIII moddasi misol bo'ladi. Uning zaruriy ishtirokchilari yadroviy qurolga egalik qiluvchi davlatlar hisoblanadi.

Shartnomaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi masala ratifikatsiya qilinmagan bo'lishiga qaramasdan imzolagandan so'ng umumiy asoslarda hal qilinadi. Qayta ko'rib chiqish masalasi hamkorlikning maxsus shakllari to'g'risidagi shartnomalarda va siyosiy shartnomalarda turlicha hal qilinadi.

Qayta ko'rib chiqish muommosini hal qilishga xalqaro tashkilotlar ham katta hissa qo'shdi. Bu holat shartnomalar huquqi loyihasi bo'yicha Xalqaro huquq komissiyasining sharhlarida ta'kidlangan. Tashkilotning ta'sis hujjati yoki u tomondan qabul qilinadigan konvensiyalar Xalqaro Mehnat Tashkilotidagi kabi yaqqol ko'rinadi. Ma'lum ma'noda bu tashkilot homiyligi ostida tuziladigan shartnomalarga ham aloqador.

Hozirgi o'zgarigan sharoitlarda xalqaro tashkilotlar ta'sis hujjatlari, shuningdek amaliy faoliyati o'zgarishlarga mosligiga e'tibor berishlari lozim. BMTning ayrim ixtisoslashtirilgan tashkilotlarida ratifikatsiya qilingan nizomning o'zgarishlarini ratifikatsiya qilmaslik nazarda tutilgan (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti Nizomi 19-modda).

Ko'p tomonlama shartnomalarning sonining ko'payishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish uchun shartnomada qayta ko'rib chiqish bo'yicha normalar aks ettiriladi. Natijada shartnomada ko'pchilik tomonidan ma'qullanganda shartnomaga o'zgartirish kiritish, qolgan ishtirokchilar uchun oldingi shartnoma qoidalari qo'llanilishini belgilovchi normalar kiritiladi.

Shartnomalardagi o'zgartirish to'g'risidagi normalarning tahlili ularning xilma-xilligi va keraklixa aniq emasligini ko'rsatdi. Ayrim shartnomalarda ushbu takliflarni kiritish mumkin bo'lgan holatlar keltirilgan, lekin ularni qabul qilish tartibi, o'zgartirish bilan rozi bo'lmagan tomonlarning huquqiy holati va boshqa holatlar to'g'risida hech narsa deyilmaydi. Umuman olganda, shartnomaviy amaliyot tahlil qilinayotgan masalaga nisbatan aniq qoidalar kiritishga yo'l qo'ymaydi.

Xalqaro shartnomalarning vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi

Har qanday obyektiv reallik kabi shartnomalar vaqt va hudud bo'yicha amal qiladi. Shartnoma normalari qaysi joyda va qaysi vaqtda amal qilishi belgilangan bo'ladi, shu sababli u vaqt va hududda amal qilish xususiyatiga ega. Shartnomada amal qilish vaqti va joyi ko'rsatilmagan bo'lsa, u sharoitlardan xoli degani emas, chunki u bag'ishlangan hodisa ma'lum vaqt va joyda sodir bo'ladi.

Shartnomaning vaqt bo'yicha amal qilishi.

Aniq javob Vena konvensiyasida keltirilgan. Har bir kuchga kirgan shartnoma majburiydir. Rozilik bildirish to'g'risidagi bayonnoma moddalar matni qabul qilingandan so'ng kuchga kiradi. Bundan tashqari, shartnomani imzolagan davlatlar va tashkilotlar uni obyekt va maqsadidan

mahrum qilishi mumkin bo'lgan harakatlardan o'zlarini tiyishlari lozim. Kuchga kirganidan so'ng unga qo'shilganlarning ham xuddi shunday majburiyati mavjud (18-modda).

Xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalar huquqi normalarini ishlab chiqishda xalqaro huquq Komissiyasi 1969-yilgi Konvensiyadagi orqaga qaytish kuchi to'g'risidagi norma ushbu holatda butunligicha qo'llanilishi mumkin degan fikrga keldi. Tartibiga ko'ra ushbu Konvensiya 1969-yilgi konevensiyaning normasini qaytarganligi sababli 1986-yilgi konferensiyada ushbu norma ovoz berishsiz qabul qilingan.

"Shartnomalar orqaga qaytish kuchiga ega emas" deb nomlangan moddaga ko'ra, ushbu Konvensiya kuchga kirguniga qadar mavjud bo'lgan har qanday harakat yoki faktga nisbatan qo'llanilmaydi. Shartnomadan boshqacha holat kelib chiqsa, istisno holati bo'lishi mumkin.

Xalqaro sud tomonidan umumiy huquq normalarini tuzishni taklif qiluvchi Vena konvensiyasi normalariga nisbatan bildirilgan fikrlar e'tiborga loyiq. Shimoliy dengizning kontenental shelfi to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorda (1969) Xalqaro sud ko'p davlatlar "Jeneva konvensiyalarining a'zosi bo'lganligiga yoki yaqin orada bo'lishi"ga asoslanib, quyidagi xulosaga kelgan: ular "konvensiyaning normalari o'zlariga bog'liq bo'lganligi tufayli real yoki nisbiy uning normalariga asosan harakat qiladilar".

Ushbu normalar faqat alohida shartnoma turlariga, aynan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini belgilovchi universal konvensiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Ishtirokchilarning roziligi yangi oddiy normalarga nisbatan "opinio juris" sifatida qaralgan.

Ushbu normalar faqat belgilangan shartnomalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Boshqa hamma shartnomalar, agar tomonlar boshqacha kelishmagan bo'lsa, kuchga kirganidan keyin amal qiladi.

O'tmishda shartnomaga alohida tus berish uchun ular "abadiy" tuzilgan. Hisob-kitoblarga qaraganda bunday shartnomalarga o'rtacha ikki yil amal qilingan. "Huquq ifodalanishining tarixiy shakli sifatida shartnomalar o'z tabiatiga ko'ra abadiy bo'la olmaydi: shu sababli "abadiy muddat zamon va sharoit sezilarli darajada o'zgarimguncha deb talqin qilinishi lozim".

Ko'pincha abadiy muddatga tinchlik shartnomalari tuzilgan. Asosan bu chegaralarni belgilashga aloqador. Ko'p holatlarda bu shartnomalarda amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'ladi. Tinchlik shartnomalarining

boshqa bandlariga kelsak, ularning amal qilish muddati tinchlik, xavfsizlik va hamkorlik manfaatlaridan kelib chiqib aniqlanishi lozim.

Shartnomalarning juda uzoq muddatga tuzilishi tomonlarning adolatsiz holatlarini belgilaydi. 1947-yilda AQSH va Filippin Respublikasining harbiy bazalari to'g'risidagi Kelishuv "99 yil muddatda amal qiladi, keyinchalik tomonlarning xohishiga ko'ra uzaytirilishi mumkin"ligi nazarda tutilgan.

Shartnomalarning hudud doirasida amal qilishi. Ayrim shartnomalar aniq belgilangan hududiy amal qilish doirasiga ega emas. Barcha sharoitlarda shartnomalar ishtirokchilarning suvereniteti doirasida amal qilishi lozim. O'tmishda tomonlarga tegishli bo'lmagan hududlarni ham o'z ichiga olgan shartnoma hududi tushunchasi mavjud bo'lgan. Shu yo'l bilan hozirgi xalqaro huquqqa zid bo'lgan ta'sir va manfaatlar doiralari aniqlangan. Misol sifatida NATONing 50 yilligi munosabati bilan qabul qilingan 1969-yilgi Vena konvensiyasi 5-moddasining qoidalarini a'zo bo'lmagan davlatlar orasida tarqatish to'g'risidagi normani keltirish mumkin.

Ko'pchilik shartnomalarda amal qilish hududi aniq belgilangan. Ayrim holatlarda bunday hududlar aniq ko'rsatiladi. Misol sifatida Shpitsbergen to'g'risidagi 1920-yilgi Parij shartnomasi yoki 1959-yilgi Antarktida to'g'risidagi shartnomani keltirish mumkin. Hududiy amal qiluvchi ayrim shartnomalarda uning chegarasi ko'rsatilmagan. Misol sifatida ushlab berish to'g'risidagi shartnomalarni keltirish mumkin.

Shartnomalarning amal qilish doirasi ishtirokchilari tomonidan belgilanadi. Shunga qaramasdan umumiy qoida sifatida shartnoma davlatning butun hududida amal qiladi. Adabiyotlarda ham, xalqaro amaliyotda ham shartnomada boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma davlatning butun hududida amal qilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu moddani Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan berilgan loyahasiga keltirilgan taktiflarda ayrim hukumatlar ushbu modda shartnomalarni ekstraterritorial qo'llanilishiga nisbatan ham amal qilishi tarafdori bo'lishgan. Komissiya bunday qoida davlatlarning ekstraterritorial vakolatini aniqlash bilan bog'liq bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Komissiya 25-moddaning quyidagi tahrirda taqdim etgan: "agar shartnomada yoki boshqacha tarzda boshqa qoida kelishilmagan bo'lsa, shartnoma hamma ishtirokchilarining butun hududida amal qiladi". Natijada davlatning barcha hududida to'g'ridan to'g'ri qo'llanilishi belgilandi. Shu bilan birga, shartnomaning davlat ichida amal qilish

masalasi davlat ichki huquqidan kelib chiqib turlicha hal qilinadi. Buning natijasida 1986-yilgi Vena konferensiyasining ishtirokchisi sifatida “shartnoma har bir ishtirokchi uchun uning butun hududida majburiy hisoblanadi” degan qoidadan kelib chiqib moddaning loyihasiga o‘zgartirish kiritishni taklif qilishga olib keldi. Boshqacha aytganda, shartnomani bevosita davlatning barcha hududida qo‘llanilmaydi, u davlatga shartnomani o‘zining barcha hududida qo‘llash choralarini ko‘rish majburiyatini yuklaydi. O‘zgartirish konferensiyada bitta ham qarshi ovoz olmasdan qabul qilingan. Ko‘rib turganimizdek, xalqaro huquq shartnoma bevosita davlatning barcha hududida qo‘llash masalasini hal qilmaydi, u davlatga shartnomani o‘zining barcha hududida qo‘llash choralarini ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Tashkilotlar ishtirokidagi shartnoma huquqi to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini tayyorlashda hudud to‘g‘risidagi normalarni qo‘llanilish masalasi ko‘tarilgan. Tashkilotlar o‘z hududiga ega emasligini hisobga olib, Xalqaro huquq Komissiyasi tashkilotlarning shartnomalari ular qayerda joylashganligidan qat’i nazar, tashkilotning barcha organlarida amal qilishi lozim degan fikrga keldi. Shunga qaramasdan, “hudud” atamasi faqat davlatlarga nisbatan qo‘llanilishi lozim deb qaror qilindi. Tashkilotlarning bu boradagi amaliyoti hali shakllanmagan. Shuning uchun kodifikatsiya qilish qiyin bo‘lgan masalani keyinroqqa qoldirishga kelishildi. 1986-yilgi Vena konvensiyasi bunday qarorni ma’qulladi.

“Shartnomalarning amal qilish doirasi” nomli 29-moddada belgilanishicha, bir yoki bir necha davlatlar yoxud bir yoki bir necha xalqaro tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma har bir ishtirokchi davlat uchun uning butun hududida majburiydir. Shartnoma yoki boshqacha hujjatdan kelib chiquvchi qoida bundan mustasno.

Xalqaro shartnomalarni tatbiq qilish

Hozirgi zamon xalqaro huquqi amaliyotida xalqaro huquq tizimi qoidalarini davlat ichki huquqida amalga oshirish jarayoni (yoki xalqaro huquq normalarini milliy huquq tizimlarida qo‘llash) xalqaro huquq normalarining hayotga tatbiq etilishi yoki “huquqni amalga oshirishni” anglatuvchi “implementatsiya” atamasi bilan belgilash qabul qilingan. Bu maqsadda qadimdan bizgacha yetib kelgan inkorporatsiya mexanizmlari (ya’ni davlat ichki qonun chiqarish hujjatida xalqaro huquq normalarining aniq, ayni matn holida aks ettirilishi) yoki retsepsiyalash (xalqaro

shartnoma normasini umumiy shaklda ichki qonunda aks ettirilishi)dan foydalaniladi.

Xalqaro huquq normalarini qo'llashning xalqaro va milliy usullari mavjud. Xalqaro usul davlatlarning xalqaro maydondagi faoliyati hamda ular yaratadigan xalqaro organ va tashkilotlar faoliyatida amalga oshiriladi. Milliy huquq esa xalqaro huquq normalarining davlat ichki faoliyatida amalga oshirilishida, ya'ni bu normalarning implementatsiyasida o'z aksini topadi.

Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa kirib kelish jarayoni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga aylanishini ko'zda tutgan holda, odatda, transformatsiya deb ataladi. Bunda xalqaro-huquqiy norma o'z mazmunini saqlab qolsa-da, uning shakli ba'zan o'zgaradi. Shu bois bu o'rinda implementatsiya, ya'ni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga kirib borishi haqida ham so'z boradi.

Transformatsiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

birinchidan, umumiy – bunda davlatning o'zi qabul qilgan xalqaro-huquqiy normalarning barchasi yoki ayrim turlari mamlakat huquqining uzviy qismi ekanini belgilaydi;

ikkinchidan, individual – bunda alohida xalqaro-huquqiy norma yoki normalar guruhi maxsus hujjat orqali mamlakat huquqiga kiritiladi;

uchinchidan, bevosita – bunda xalqaro shartnoma qoidasi, shartnoma qabul qilingani to'g'risidagi aktning to'g'ridan to'g'ri ta'sir kuchi natijasi o'laroq, milliy huquqdan ustunlik qiluvchi qoida asosida yuzaga keladi. Ayni chog'da xalqaro huquq normasi mamlakat milliy huquqining uzviy qismi sifatida qo'llanishi uchun u o'z-o'zidan ijro etiladigan, ya'ni bevosita qo'llash uchun yaroqli bo'lishi zarur;

to'rtinchidan, bilvosita – bunda xalqaro shartnoma asosida shartnoma mazmunini o'zida aks ettiruvchi milliy normativ hujjat chiqariladi.

Implementatsiyaning alohida turi – havola etish bo'lib, u qonunda muayyan qoidalar tegishli xalqaro shartnomaga muvofiq ravishda qo'llanishi yoki tegishli vaziyatda muayyan xalqaro shartnomaning qo'llanishi zarurligi qayd etilgan holatlarni nazarda tutadi.

Milliy huquqqa kirib kelar ekan, xalqaro huquq normalari unda alohida mavqega ega bo'ladi. Mamlakat huquqiy tizimining uzviy qismi sifatida ular o'z maqsad va prinsiplariga mos ravishda, shuningdek unda belgilangan protsessual tartibga muvofiq tarzda qo'llanadi.

Kelgusida bunday xalqaro-huquqiy norma o'z tarkibidan olingan xalqaro shartnoma taqdiridan mustaqil holda mavjud bo'ladi. U xalqaro shartnoma to'xtatilganidan keyin ham amal qilib qolaverishi mumkin.

Transformatsiya davlatda maxsus qonun chiqarish yoki ushbu davlat hududida xalqaro shartnoma kuchda ekanini va barcha shaxslar uning talablariga rioya etishga majbur ekanini qonunlar asosida e'lon qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilishi mumkin. Shunday nuqtayi nazar ma'lumki, unga ko'ra davlatning xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish yoki ma'qullash fakti uning milliy qonunchiligi ajralmas bo'lagiga aylanishi bilan tengdir. Xalqaro huquq nazariyasida ushbu yondashuv (retsepsiya) ko'pincha davlatning ichki huquqiy hujjatlarida xalqaro-huquqiy hujjat ifodasining aniq bayon etilishini belgilash maqsadida qo'llanadi. Ba'zan retsepsiya deganda, davlatning milliy qonunchilik yordamida o'z xalqaro majburiyatlarini bajarishini ta'min etishi tushuniladi.

Xalqaro huquq milliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy qonun chiqaruvchi hokimiyat xalqaro huquqqa zid keladigan qonunlar chiqara olmaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat davlatning zimmasidagi xalqaro majburiyatlar bilan cheklab qo'yilgandir. Xalqaro huquq normalarini ro'yobga chiqarish uchun zarur qonunlar chiqarishga majbur.

Xalqaro huquqning milliy, shu jumladan konstitutsiyaviy huquqqa ta'sirining kuchayib borishi xalqaro majburiyatlar mamlakat konstitutsiyasiga muvofiqligini nazorat qilishning yangi shakllari yaratilishiga sabab bo'ladi. Bunda tobora keng urf bo'lib borayotgan konstitutsiyaviy sudlar muhim o'rin tutib, ularning asosiy vazifasi qonun hujjatlarining konstitutsiyaga qanchalik mos ekanini kuzatib borishdan iborat. Xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga mosligini nazorat qilish ular uchun yangi bir vazifadir. Sudlar ushbu masalaga g'oyat ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Masalan, umumiy prinsiplar xalqaro huquq bilan demokratik davlatlar milliy huquqini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, milliy sudlarning huquqning umumiy prinsiplarini qo'llash borasidagi dastlabki tajribasini ijobiy baholamaslik mumkin emas. Sivilizatsiyalashgan davlat degan huquqiy tushuncha izchil qaror topmoqda. o'z huquqiy tizimida xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini, shuningdek imperativ normalar sifatida inson huquqini mustahkamlagan davlat sivilizatsiyalashgan degan nomga munosibdir.

Xalqaro shartnomani haqiqiy emas deb topish, amal qilishini tugatish va to'xtatib turish

Avvallari shartnomalar nisbatan kam bo'lganida hal qiluvchi rol oldingi shartnomaga tegishli degan fikr ustunlik qilardi. Avvalgisiga zid

keluvchi kelishuv haqiqiy emas deb topilar edi. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab boshqacha nuqtayi nazar o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. 1935-yil Shartnomalar to'g'risidagi Garvard konvensiyasi loyihasida "avvalroq tuzilgan shartnomada qabul qilingan majburiyatlar, keyinroq tuzilgan shartnoma majburiyatlar oldida ustunlikka ega" deyiladi.

30-moddada aynan bir masalaga oid birin-ketin tuzilgan shartnomalarning qo'llanilishi keltirilgan. Aynan bir masalaga oid ketma-ket tuzilgan shartnomalar ishtirokchilari – davlatlar va xalqaro tashkilotlarning huquq va majburiyatlari quyidagi qoidalarga muvofiq belgilanishini bayon etdi.

Agar avvalgi shartnoma ishtirokchilari navbatdagi shartnomaning ham ishtirokchilari bo'lsa, biroq avvalgi shartnoma 59-moddaga (navbatdagi shartnomaning tuzilishidan kelib chiqib shartnomani tugatish yoki uning faoliyatini to'xtatish) mos holda to'xtatilmagan yoki tugatilmagan bo'lsa, u holda avvalgi shartnoma faqatgina navbatdagi shartnoma holatlariga mos kelgan vaziyatda qo'llaniladi.

Agarda galdagi shartnoma ishtirokchilarining hammasi ham avvalgi shartnoma ishtirokchilari hisoblanmasa, ikkala shartnoma ishtirokchilari hisoblangan (ayrimlari oldingi, ayrimlari keyingi shartnoma ishtirokchilari bo'lgan) tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda yuqorida qayd etilgan qoidaga amal qilinadi. Ikkala shartnomada ham ishtirok etgan tomonlar o'rtasidagi munosabatda ularning ikkalasi ham ishtirok etgan shartnoma o'zaro huquq va majburiyatlarni tartibga soladi.

Aytib o'tilganlardan kelib chiqadigan shartnomalarning o'zaro munosabatlar ishtirokchilari tomonidan hal qilinadi. Avvalgi shartnoma amal qilgan barcha davlatlar qatnashuvchi keyingi shartnomaning ustunligi huquqning umumiy prinsiplariga belgilanadi. Shartnoma unda ishtirok etmagan davlatlarga majburiyat yuklay olmaydi. Yuqorida keltirilgan qoida 60-moddaga muvofiq shartnoma harakatini to'xtatish yoki tugallash to'g'risidagi har qanday masalaning hal etilishi haqidagi 41-moddaga yoki avvalgi shartnomadagi davlat yoki tashkilotlarning majburiyatlariga mos kelmaydigan holat, shartnoma tuzish yoki qabul qilish natijasida yuzaga keladigan davlat va tashkilotlarning majburiyatlari haqidagi har qanday masalaga ziyonsiz qo'llaniladi.

Bu turdagi nomutanosibliklar yana qayta tuzilgan shartnomaning maqsadi avvalgi shartnoma maqsadlariga zid kelgan hollarda, yana u tomonlarning mavjud huquq va majburiyatlarini o'zgartirgan hollarda yuzaga keladi. Shu bilan birga, boshqa shartnomadagi davlatning majburiyatlari bilan mos kelmaydigan, davlatning yangi shartnoma

imzolash yoki qabul qilish natijasida yuzaga keluvchi javobgarligi alohida belgilanadi.

Shu tariqa, 41-modda qoidasi BMT Ustavi bo'yicha majburiyatlar biror-bir shartnoma majburiyatlariga zid kelgan taqdirda ustunlik Ustav bo'yicha majburiyatlarda bo'lishiga ziyon yetkazmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan moddada "shartnoma ishtirokchilari" haqida gapiriladi. 1969-yilgi Vena konvensiyasining 2-moddasida "ishtirokchi" shartnomaning u uchun belgilab bergan majburiyatlariga rozilik bergan yoki uning uchun shartnoma kuchga kirgan davlatni anglatadi. Bu boradagi Komissiya bayonotida modda "ikkita shartnoma ham kuchga kirganda va qo'llanilayotgan taqdirdagina qabul qilinadi" deyiladi.

Shartnomalar faoliyatini tugatish yoki to'xtatib qo'yish, nisbiy qonuniy kuchga ega bo'lmaganlik, tugatishda esa umuman qonuniy kuchga ega bo'lmaganlik haqidagi normalarni qo'llash natijasida sodir bo'lishi mumkin. Bu holatda gap bevosita amaldagi shartnomalarni tugatish yoki to'xtatish masalalariga tegishli bo'lgan normalar haqida ketmoqda. Gap xalqaro huquqiy munosabatlarni to'xtatish yoki tugatish haqida borar ekan, bu masala oldindan doktrina va amaliyotning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Butun bir shartnomalar huquqi mavzusiga bag'ishlangan ishlarda u ko'rinarli joyni egallagan. Alohida unga bag'ishlangan ishlar ham bor.

Shartnoma faoliyati quyidagilar natijasida tugallanadi:

- 1) shartnoma tomonidan ko'rib chiqilgan aktning yakunlanishi natijalarida;
- 2) rezolyutsion shartning kirib kelishi natijalarida;
- 3) shartnoma tuzilgan vaqtning tugashi natijalarida;
- 4) umumiy yoki agar shartnomada ruxsat etilgan bo'lsa, bir tomonlama uni rad etish natijalarida;
- 5) shartnoma obyektining yo'q bo'lib ketishi natijalarida;
- 6) subyektning mavjudligi to'xtatilsa;
- 7) u bag'ishlangan shartnoma majburiyatlarini — mavjud majburiyatlaridagi o'zgartirishlar natijasida yo'qotish (shartnomadagi majburiyatlar o'z ahamiyatini o'sha majburiyatlarga o'zgartirishlar kiritilishi natijasida yo'qotishi) natijalarida;

Mazkur holatda Vena konvensiyalariga kiritilmagan subyekt mavjudligini tugatish, huquq va majburiyatlarning bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o'tishi sababi alohida ajralib turadi. Shu tarzda qarashlarni boshqa yuristlar ham ma'qullashgan. Makneyr ularga yana desuetude, shartnomaning ishlatilmasligini ham qo'shib qo'ydi. Ushbu masala

yuzasidan taniqli manbalarda aniq fikrlar yo'qligiga ahamiyat berdi. Davlatlar shartnomalarni tugallash uchun asoslar borasida ko'p bora turli holatlarni band etishdi (turli pozitsiyalarga bo'lishdi).

Davlatlar tajribasini umumiy aks ettirgan doktrina holati Xalqaro huquq komissiyasi ishida hamda 1968–1969-yillardagi Vena konvensiyalarida ham o'z aksini topdi. 1969-yilgi konvensiyada shartnomalarning to'xtatilishiga doir ikkita umumiy modda mavjud. Ularning bittasi shartnomalarning hech qanday kuchga ega emasligi, ularning faoliyatini to'xtatish va tugatish haqidagi qismning boshida qayd etilgan. Bu moddada shunday deyiladi: "shartnomani tugatish, uning denonsatsiyasi yoki ishtirokchining undan chiqishi faqatgina shartnomaning o'zidagi holatni qabul qilish yoki mazkur Konvensiyadagi holatni qabul qilish natijasida o'rinli bo'lishi mumkin" (42-moddaning 2-qismi). Modda konferensiyada uzoq davom etmagan munozaralar va redaksion tuzatishlar bilan qabul qilingan. 84 ta delegatsiya "ha" deb, 17tasi "qarshi" ovoz berishgan, 6 ta betaraf.

Mazkur moddada shakllangan holat oydinlik kiritishni talab qiladi (huquq va majburiyatlarni olishidan), xalqaro majburiyatlardan yoki harbiy harakatlarning boshlanishidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan birorta ham muammoni oldindan hal qilmaydi (73-modda). Qolaversa, bu holatlar shartnomaning tugatilishiga olib kelishi mumkin.

Vena konvensiyalari yana borgan sari katta ahamiyat kasb etib kelayotgan tomonlarning roziligisiz shartnomani tugatish yoki to'xtatish usulini qamrab olmagan. Gap tegishli vakolatlarga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlarning qarorlari haqida shartnomalarni tugatgan yoki to'xtatib qo'ygan. Hozirgi kunda, eng avvalo, BMTning Xavfsizlik Ittifoqi qarorlarini aytib o'tish joiz. Ma'lumki, BMTning a'zolari Ittifoq qarorlariga bo'ysunishga rozilik bildirishgan (25-modda). Uning qarorlari a'zolaridan shartnomalarni tugatish yoki to'xtatishni talab qilishi mumkin. Bu holat sanksiyalar to'g'risidagi qarorlarning qabul qilinishida ko'p bora uchragan.

Vena konvensiyasining 2-umumiy moddasi "shartnomalarni tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish" bo'limining boshida qayd etilgan. Unda shartnomani tugatish yoki undan chiqish shartnomaning o'zidagi holatlarga mos holda yoki har qanday vaqtda barcha ishtirokchilarning boshqa kelishib oluvchi ishtirokchilar bilan konsultatsiyalarida bergan roziliklari natijasidagina o'rinli hisoblanadi (amalg oshiriladi) (54-modda). Moddada gap "kelishib olayotgan tomonlar" haqida ketmoqda. Konvensiyalarga muvofiq ular "kelishib olayotgan tomonlar" deganda,

“ular uchun belgilangan majburiyatlarga shartnoma kuchga kirgan yoki kirmaganligidan qat’i nazar, rozilik bergan davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar tushuniladi”. Kelishib olayotgan tomonlarga muzokaralarda ishtirok etgan, biroq ular uchun shartnoma majburiylikiga rozilik bildirmagan qatnashchilar kirmaydi. Bu holat Xalqaro huquq komissiyasining izohida belgilab qo’yilgan. U hali shartnoma tomoni hisoblanmaydigan, kelishib olayotgan davlatlar shartnomani tugatishga tegishli qaror qabul qilish huquqiga ega bo’lmasliklari kerak, biroq ular maslahatlashishlari mumkinligi haqida e’lon qilgan 1968–1969-yillardagi Vena konferensiyasining Tahririyat qo’mitasi vakili tomonidan ham tasdiqlangan.

Ko’p tomonlama konvensiya tuzishda, u kuchga kirgan ikki davlat konvensiyani, uning majburiylikiga o’z roziligini bildirgan boshqa davlatlarning fikrini inobatga olmay turib bekor qilolmaydi. Biroq bir qator hukumatlar o’z bayonotlarida bu holatga e’tiroz bildirganlar. Komissiya tomonlarning roziligi bilan shartnomani tugatishga oid tartib qoidalarni amalga oshirilishida uning bu boradagi qarori istalmagan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini hisobga oldi. Shunga qaramay Vena konferensiyasida davlatlar ko’rib chiqilayotgan holatni qayta ishlab chiqishga rozilik bildirishdi. Modda bir ovozdan qabul qilindi.

Xalqaro huquq komissiyasi mazkur modda xalqaro tashkilotlarga ham taalluqli deb qaror qiladi. 1986-yilgi Vena konferensiyasida muqobil loyiha redaksion o’zgartirishlar bilan e’tirozlarga sabab bo’lmadi. 54-modda yangi redaksiyada “shartnomaning o’zidagi holatlardan kelib chiqib yoki ishtirokchilarning roziligi bilan shartnomani tugatish yoki undan chiqish” deb nomlandi va bu harakatlar, shartnoma holatiga mos ravishda yoki har qanday vaqtda barcha ishtirokchilarning kelishib olayotgan, davlatlar yoki kelishib olayotgan tashkilotlar bilan maslahatlashgan holda bildirgan roziligi bilangina o’rinli ekanligini belgilab berdi.

Shu tariqa, har qanday shart-sharoitlarda ham shartnoma ishtirokchilari roziligi bilan tugatilishi mumkin. Bir holatda tugatilish tartibi shartnomaning o’zida, boshqa bir holatda esa boshqa turdagi roziliklarda aks ettirilishi mumkin. Bu holat qadimdan xalqaro huquqda e’tirof etilgan. 1871-yildagi London protokolida, “davlatlar millatlar huquqini mavjud prinsip sifatida tan oladi, uning shartlarini do’stona hamkorilik natijasida olingan kelishuvchi tomonlarning rozilgisiz o’zgartira olmaganiday, shartnoma majburiyatlaridan ham hech qaysi davlat o’zini ozod eta olmaydi,” – deyiladi.

Har qanday shart-sharoitda ham shartnomani tugatish yoki to'xtatishga qaror qilgan tomonlar o'z vaqtida bu haqda xabar berishlari shart.

Shartnoma faoliyatini to'xtatish subyektiv va obyektiv xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Obyektiv xarakter shartnoma faoliyati muddatining tugashi, qabul qilingan majburiyatlarni bajarish, shartnomani tugatishga bog'liq bo'lgan vaziyatlarning kelib chiqishi kabi sabablarga ega bo'ladi. Subyektiv xarakterga esa denonsatsiya shartnomadan chiqish, majburiyatlarni buzilishi, shartnomani qayta ko'rib chiqish kabilar tegishli.

Davlatlar odatda turli xildagi, ya'ni 1 yildan 10 hatto 99 yilgacha bo'lishi mumkin bo'lgan shartnomaning faoliyati muddatini belgilaydi. Shartnoma muddatining tugashi uning avtomatik ravishda tugallanganligini bildiradi. Shuningdek, tomonlarning roziligi bilan shartnoma muddati tugaguncha ham to'xtatilishi mumkin. Bunday kelishuvning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Amal qilish muddati belgilanmagan shartnomalar ham mavjud. Ular qatoriga ko'p tomonlama konvensiyalar hamda tinchlik shartnomalari va davlat chegaralari haqidagi shartnomalar kiradi.

Vena konvensiyalarida shartnomani tugatish yoki undan chiqishga oid turli atamalar ishlatilgan, aynan shartnomani tugatish, undan chiqish va shartnoma denonsatsiyasi kabilar. Konvensiya ushbu atamalarning ma'nolarini izohlamaydi. Qolaversa, ularning ma'nolari o'zaro bog'liq. Barcha tomonlar tarafidan shartnomani denonsatsiya qilish natijasida shartnoma o'z faoliyatini tugatadi. Faqatgina bir tomonning denonsatsiyasi natijasida shartnomadan chiqish amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda, "ko'p tomonlama shartnomalar munosabatlarida "shartnomadan chiqish" atamasi ishlatiladi. Shartnoma tugatilishi o'zining majburiy kuchini yo'qotishining barcha holatlarini anglatadi".

Ilmiy adabiyotlarda va amaliyotda "denonsatsiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Tor ma'noda denonsatsiya shartnomada ko'rsatilgan shartlardan kelib chiqib uning tugatilishini anglatadi. Keng ma'noda esa shartnomadan bir tomonlama rad etish tushuniladi.

Shu bilan birga, Vena konvensiyalari shartnomaning o'zida denonsatsiya qilinishi haqidagi holat bo'lmagan taqdirda uni denonsatsiyasini ko'rib chiqdi (56-modda). Shuning uchun denonsatsiyani shartnomani, unda ko'zda tutilgan yoki shartnoma xarakterining amal qilinishi sharoitlarida bir tomonlama tugatish sifatida keng va asosli tarzda o'rganib chiqilgan (ko'zdan kechirib, ko'rib chiqilgan).

Ko'p tomonlama shartnomalar odatda ularni kuchga kiritish uchun zarur bo'lgan ishtirokchilar sonini ko'rib chiqadi. Bu holat Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyalarida ham mavjud. 1969-yildagi konvensiyada shunday deyiladi: "Mazkur konvensiya 35 ta ratifikatsiya gramotalarini yoki 35 ta qo'shilish hujjatini saqlash uchun topshirilgan kundan boshlab 30 kunda kuchga kiradi" (84.1-modda). Bunga o'xshash holat 1986-yildagi konvensiyada ham mavjud (85.1-modda).

Shuningdek, konvensiyalar shartnomalar kuchga kiritilishi uchun zarur bo'lgan ishtirokchilaridan kam sonli ishtirokchilar bo'lsa, uning oqibatlarini aniqlab chiqmaydi. Ba'zan shartnomalar ularning kuchini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan ishtirokchilar sonini aniqlashtirib oladi.

Ko'p tomonlama konvensiya ishtirokchilari sonini qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tajribada deyarli yuzaga kelmagan. Genotsid jinoyati va uning uchun jazo to'g'risidagi konvensiya, Ommaviy diskriminatsiyaning barcha ko'rinishlarini tugatish to'g'risidagi konvensiya, Aparteid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo tayinlash haqidagi konvensiyalar xalqaro huquq normalarini o'rnatishiga qaramay ularni denonsatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqqanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Natijada denonsatsiya faqatgina sobiq ishtirokchilar konvensiyalarga tuzatish kiritish taklifini bera olmasliklarini bildirgan.

1968–1969-yillardagi Vena konferensiyalarida komissiya tomonidan taqdim qilingan loyiha keskin munozaralarga olib kelmadi. Ishtirokchilar bunday normaning kiritilishi maqsadga muvofiqligini e'tirof etishdi. Modda 150ta ovoz bilan qabul qildi. "Qarshi" hech kim ovoz bermadi.

Xalqaro huquq komissiyasi va 1986-yildagi Vena konferensiyasi yuqorida keltirib o'tilgan holat xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalarga ham o'zgarishsiz qabul qilinishi mumkin, deb hisoblashdi.

"Ko'p tomonlama shartnoma ishtirokchilarining sonini kamaytirish natijasida shartnomani kuchga kiritish uchun zarur bo'lgan ishtirokchilardan kam sonli ishtirokchilar qolishi to'g'risida"gi modda, agarda shartnomada, aksincha, vaziyat qayd etilmagan bo'lsa, uning ishtirokchilardan shartnomani kuchga kiritilishi uchun zarur bo'lgan ishtirokchilardan kam sonli ishtirokchilar qatnashayotganligi sababidagina ko'p tomonlama shartnoma to'xtatilmaydi, deb belgilangan (55-modda).

O'zida amal qilish mudati va tugatilish tartibi haqidagi holatlarni aks ettirmagan shartnomalar oz emas. Ularning tugatilishi masalasini hal

qilishda tomonlarning xohish-istaklari va shartnoma xarakteri ahamiyatga ega. Avval belgilanganiday tinchlik shartnomalari va hududiy chegaralar to'g'risidagi shartnomalar bir tomonlama tartibda denonsatsiya qilinishi mumkin emas. Shu bilan birga, boshqa shartnomalar o'z xarakteridan kelib chiqib, ulardan bir tomonlama voz kechish huquqiy jihatdan to'g'ri emas deb hisoblamaydi.

1968–1969-yillardagi Vena konferensiyasida Komissiya tomonidan taklif etilgan loyiha uzoq muhokama qilindi. Tugatilishi haqidagi holat o'zida bayon etilmagan shartnoma – rebus sic stantibus kelishuvining predmetiga hisoblanadi, deb ta'kidlandi. 1963-yil (Kuba)dagi loyihada keltirilgan, shartnomani tugatish shart-sharoitlariga tayanildi, komissiyaning “huquqiy yaratuvchi” shartnomalarni (Peru) denonsatsiya qilib bo'lmaydi, degan fikrini asossiz ekanligi haqida gapirildi. Kuchsizroq bo'lgan davlat, adolatsiz ravishda unga yuklangan majburiyatlarni adoqsiz ravishda bajarishi shartligiga yo'l qo'ymaslikni inkor etishdi. Chet davlatga, aniq belgilanmagan muddatga, hududiy huquqni kafolatlovchi shartnomalar, ayniqsa, yangi davlatga mustaqillik berish kafolatlangandan so'ng shartnoma tuzilgan holatlarda, denonsatsiya qilinishi mumkin.

To'xtatib qo'yish shartnomaning amal qilinishi ma'lum bir vaqt davomida to'xtatib qo'yilishini anglatadi. Shartnomani to'xtatib qo'yish masalasi umuman olganda shartnomani tugatish (54-modda) kabi hal qilinadi. Shu bilan birga, Komissiya moddaga boshqa kelishayotgan davlatlar konsultatsiya haqidagi 54-moddaga to'xtatish haqidagi moddani kiritish maqsadga muvofiq emas, deb topdi.

“Shartnomadagi holatga yoki ishtirokchilarning roziligiga muvofiq “shartnomani to'xtatish” moddasi shartnoma faoliyatini barcha ishtirokchilar yoki biror-bir alohida ishtirokchi uchun to'xtatib qo'yish, shartnomadagi holatga muvofiq yoki har qanday vaqtda barcha ishtirokchilarning kelishayotgan davlat yoki kelishayotgan tashkilotlar konsultatsiyasiga binoan bergan roziligiga muvofiq amalga oshirilishi mumkinligini ko'zda tutdi (57-modda).

Mazkur holatda “to'xtatib qo'yish” deganda, ko'p tomonlama shartnomani to'liq yoki ma'lum bir alohida holatini, ayrim ishtirokchilar o'zaro munosabatlari doirasidan kelib chiqib bergan roziliklari asosida o'zaro kelishib vaqtinchalik to'xtatish tushuniladi. Amaliyotda bunday vaziyatlar kam emas. Shartnomalar tez-tez boshqa sabab bilan, masalan, ularning buzilishi natijasida o'z faoliyatini to'xtatib qo'yadi.

Ko'p tomonlama shartnomalarda ularning faoliyatini ayrim ishtirokchilarning kelishuviga asosan to'xtatib qo'yish tartibi yoki bunday

holatni taqiqlovchi vaziyat qayd etilishi mumkin. Bunday holatlarda mazkur vaziyatlarga amal qilishi zarur. Bunday holat, ya'ni shartnomada uni to'xtatish tartibi keltirilmagan taqdirda, ko'p tomonlama shartnomalar bunga rozilik bildirgan tomonlar o'rtasida to'xtatib qo'yilishi mumkin. Bu aksariyat ko'p tomonlama shartnomalar asosan ikki tomonlama munosabatlarda amal qilinishi bilan izohlanadi. Biroq bu toifadagi holatlarda mazkur shartnomaning maqsadini amalga oshirishga halal bermasligiga ma'lum bir kafolat bo'lishi shart.

58-modda "Ko'p tomonli shartnoma faoliyatini bir necha ishtirokchilar o'rtasida kelishilgan holda to'xtatib qo'yish", ko'p tomonli shartnomaning ikki yoki bir nechta ishtirokchisi o'zaro munosabatlarida shartnomani, agarda bunday to'xtatish shartnomada ko'zda tutilgan bo'lsa yoki to'xtatib qo'yish taqiqlanmagan bo'lsa, o'zaro kelishilgan holda to'xtatish (vaqintanchalik) haqida kelishuv imzolashlari mumkin. Bunda vaqintanchalik to'xtatilishi na boshqa ishtirokchilarning shartnomadan foydalanishiga, shartnomadan kelib chiquvchi haq-huquqlariga va na o'z majburiyatlarini bajarishlariga ta'sir etmasligi kerak. Qolaversa, to'xtatish shartnoma obyektiga va maqsadiga nomutanosib bo'lmasligi shart.

Shartnomada, aksincha, (boshqa) holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, shartnomani to'xtatib qo'yishga qaror qilgan ishtirokchilar boshqa ishtirokchilarni o'zlarining kelishuv imzolash niyatlari va shartnomaning to'xtatilishi ko'zda tutilgan holatlari to'g'risida xabardor qilishlari lozim.

Moddaning nomlanishi va tarkibi (ichidagi matni) orasida ma'lum bir nomutanosiblik mavjudligini aytib o'tish lozim. Nomlanishida shartnoma harakatini to'xtatish deyilgan bo'lsa, ichida — shartnoma harakati holatining to'xtatilishi deyilgan.

Moddaning nomlanishi va tarkibini hisobga olgan holda quyidagi to'xtatishga kelish mumkin, shartnoma harakati (amal qilinishi)ni to'xtatish deganda, uning to'raligicha to'xtatilishi va alohida holatlarining to'xtatilishi ham nazarda tutilgan.

Moddada shartnomaning alohida ishtirokchilar tomonidan to'xtatib qo'yilishi boshqa bir ishtirokchilarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etmasligining va shartnomaning obyektiga va maqsadiga zid emasligining ahamiyatli kafolati mavjud. Hozirgi kunda aksariyat ko'p tomonli shartnomalar u yoki bu sohada umumiy tartibni o'rnatmoqda, bundan kelib chiqqan holda alohida ishtirokchilar tomonidan ularni to'xtatib qo'yish shartnoma obyektiga va maqsadiga mos kelmay qolishini ta'kidlab o'tish joiz.

Bu holatda, gap avvalroq tuzilgan shartnoma ishtirokchilari tomonidan yangi shartnomaga mos kelmaydigan oldingi shartnomani tugatish yoki to'xtatish holatlarini o'zida aks ettirmagan shartnoma tuzilishi natijasida shartnomalarni tugatish yoki to'xtatish haqida bormoqda. Ko'rib chiqilayotgan masala doktrinada yetarlicha yoritilmagan. Ayrim yuristlar aynan bir masalaga bag'ishlangan masala yuzasidan yangi shartnomaning tuzilishi, eskisini avtomatik ravishda almashtiradi deb hisoblaydi. Bu nuqtayi nazarni, masalan, L.Oppengeym ham ma'qullangan. U "tomonlar oldingi shartnoma obyektiga oid bo'lgan yangi shartnomani ikkala shartnomalar ham aslida bir-biriga mos kelmasa-da, oldingisiga tayanmagan holda tuzishlari mumkin. Bu shartnomaning almashishi (novatsiyasi)ni bildiradi, bu vaziyatda yaqqol ko'rinib turibdiki, oldingi shartnoma ikki tomonlama jimlik bilan bildirilgan rozilik oqibatida o'zining mavjudligini (kuchini) yo'qotadi (amal qilinishi to'xtatiladi, tugatiladi).

Biroq shartnomalarning buzilishi oqibatida ularni to'xtatish yoki tugatishga nisbatan Vena konvensiyasining xalqaro shartnoma huquqi haqidagi bunday kamdan kam uchraydigan istisnoli holati davlatlarning umumiy qo'llab-quvvatlanishiga erishdi va Xalqaro sud amaliyotida aks etdi. Bularning barchasi umumiy xalqaro huquqning qismi bo'lib qoldi.

Shartnomaning buzilishi davlat yoki xalqaro tashkilotlarning shartnoma ulardan talab qilgan harakatlarga mos kelmaydigan faoliyat olib borganligini anglatadi. Bu holat davlatning xalqaro huquqqa zid faoliyati uchun javobgarlik haqidagi moddalar bilan tasdiqlangan (12-modda). Xalqaro amaliyotda turli xildagi atamalar ishlatilgan. Masalan, Xalqaro sud: "shartnomaviy majburiyatlarga amal qilmaslik", "majburiyatlarga mos kelmaslik" kabi ifodalarni ishlatgan.

To'xtatib qo'yish – bu holatda tugatilish sabablari qanday bo'lsa, o'sha sabablar bilan shartnoma faoliyatini vaqtinchalik to'xtatib qo'yishni anglatadi. Barchasi buzilishining qay darajada og'irligiga va jabrlangan davlat yoki xalqaro tashkilotning ahvoli (holatiga) bog'liq. Shartnomaning har qanday buzilishidagi aybdor subyekti tegishli javobgarlikka tortiladi.

Shartnomaning buzilishi natijasida ularni tugatish bilan bog'liq bo'lgan davlatlar tajribasini tahlil qilib Xalqaro huquq komissiyasi quyidagi to'xtamga keldi, ya'ni tajriba bu borada uning amalga oshirilishining aniq holatlarini belgilab berolmaydi. Ko'p holatlarda davlatlar boshqa bir sabablar tufayli shartnomani tugatishga va bunda shartnomaning buzilishiga tayanishga harakat qilishgan, shu tufayli bunday qonun-qoidani amalga oshirishning aniq kriteriyalarini o'rnatadi.

olishmagan. Natijada moddaning bu holatga mos keluvchi loyihasini xalqaro huquqning qaysidir darajada rivojlanishiga olib kelgan.

Xalqaro huquq komissiyasi shartnomani bajarmaslikka asos bo'luvchi holatlarni ma'lum darajada cheklashga qaror qildi. Bu faqatgina shartnoma bajarilishi uchun zarur bo'lgan obyektning bo'lmay qolishi bo'lishi mumkin. Misol sifatida orollarning yo'qolib ketishi daryolarning qurishi va boshqalarni keltirish mumkin. Bunday holatlarga shartnomalarni bajarmaslikka sabab bo'luvchi holatlar yana shartnomani amalga oshirishning yuridik shart-sharoiti o'zgarishi sabab bo'lishi ham mumkin. Masalan, vasiylik qilinayotgan hududga yordam ko'rsatish haqidagi shartnoma vasiylik tugatilgach o'z-o'zidan tugaydi (yakunlanadi).

Bunday holatlarning kamdan kam uchrashishni hisobga olib doktrina ularga e'tibor qaramadi.

Aytib o'tish kerakki, ular shartnoma tuzilgan paytda mavjud bo'lgan holatlarning tub o'zgarishiga to'g'ridan to'g'ri oid. Amerika huquq instituti kodifikatsiyasida, bajarish imkonsizligi rebus sic stantibus holatini o'zida aks ettiradi, deyiladi. Qolaversa, Xalqaro huquq komissiyasi ikki holat o'rtasida bajarishning navbatdagi imkonsizligi haqida alohida moddani ajratishni talab etuvchi farq mavjud, deb hisobladi.

Obyektning yo'qolish holati tomonlarni majburiyatlaridan ozod qiluvchi fors-major vaziyat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Qolaversa, shartnomada bunga tegishli holatlarning bo'lishi maqsadga muvofiq deb tan olingan. Ko'rib chiqilayotgan vaziyatlar (shartnomani tugatish, bajarmaslikka olib keluvchi zarurat)dan biri tomonlardan birining mavjud bo'lmay qolishi mumkin. Biroq bu holat huquqiy qaror jihatidan ko'rib chiqilayotgan modda orqali ko'rib chiqila olmaydi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan shartnomalar haqidagi konvensiya loyihasiga davlatlarning bildirgan fikr-mulohazalarida shartnoma tugatilgunicha tomonlarning biri kompensatsiyalanmagan ma'lum bir foyda ko'rgan holatlar haqida gapiriladi. Komissiya bu haqda shartnoma tugatilishi oqibatlari to'g'risidagi moddada gapirilishini aytib o'tdi.

1986-yildagi Vena konferensiyasi bu fikrga ergashdi va shartli muzokaralarsiz quyida keltirilgan moddani qabul qildi.

1. Ishtirokchi bajarish imkoniyati yo'qligiga asosan shartnomani tugatish yoki undan chiqish huquqiga ega, agarda bu imkonsizlik, shartnoma bajarilishida zarur bo'lgan obyektning qaytarib bo'lmas darajada yo'qolishi yoki yo'q qilinishining oqibati bo'lsa. Agarda bunday

imkonsizlik vaqtinchalik bo'lsa, faqatgina shartnoma faoliyatini to'xtatib turishi mumkin.

2. Ishtirokchi bajarishning iloji yo'qligini shartnomani tugatish yoki undan chiqishga yoxud shartnoma faoliyatini to'xtatib turishga asos qilib ko'rsata olmaydi. Agarda imkonsizlik (ilojsizlik), ushbu ishtirokchi tomonidan shartnoma shartlarini buzish yoki boshqa xalqaro majburiyatlarni buzish yoki boshqa har qanday shartnoma ishtirokchilariga nisbatan o'ziga olgan majburiyatlarni buzish natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

Bunda quyidagi vaziyatlarga e'tibor qaratamiz. Moddaning nomlanishida bajarishning keyingi imkonsizligiga shartnoma tuzilayotgan paytda bilmaslikka olingan bo'lsa (chetka surib qo'yilgan bo'lsa). demak, gap xato yoki yolg'on haqida ketayotganini bildiradi (48—49-modda).

Shartnoma obyektining mavjud bo'lmay qolishi shartnomaning avtomatik ravishda tugatilganligini anglatmaydi (uni tugatib qo'yolmaydi). Moddada shartnomani tugatish uchun asoslanish huquqi bayon qilingan. Boshqa so'z bilan aytganda, shartnomani tugatish uchun boshqa tomonlarning roziligi zarur.

2-bandda tegishli tomonning huquqqa zid faoliyati, xatti-harakati natijasida yuzaga kelgan bajarish imkoniyati yo'qligiga tayanishga yo'l qo'yilmasligi haqida gapirilgan. Bunday huquqning yo'qligi shartnoma obyeksiz harakatlanishda (amal qilinishda) davom etishini anglatmaydi. Gap tegishli tomon huquqbuzar hisoblanishi va tegishli javobgarliklarni o'z zimmasiga olishi haqida ketmoqda. Bunda nafaqat shartnomaning o'zini, balki shartnoma ishtirokchilarining har qaysisi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning buzilishi nazarda tutilmoqda. Bu nafaqat shartnomaviy, balki oddiy majburiyatlarga ham tegishli.

Davlatlar tajribasi diplomatik va elchilik aloqalari barbod bo'lishining ishtirokchilar shartnomalariga ta'siri to'g'risidagi masala ko'p bor yuzaga kelgan.

1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasida diplomatik munosabatlarning barbod bo'lishi holatida tomonlarning huquq va majburiyatlariga tegishli bo'lgan maxsus 45-modda mavjud. Doktrinada diplomatik aloqalarning uzilishi o'z-o'zidan tegishli davlatlarning shartnomaviy munosabatlariga ta'sir etmaydi, degan fikr keng tarqalgan.

Aksariyat yuristlar bu masalaga deyarli e'tibor qaratmaganlar. Bu boradagi fikrlar ham nisbatan qat'iy bo'lgan. Diplomatik munosabatlarga bog'liq bo'lgan shartnomalar diplomatik aloqalar tiklangandan keyin ham

to'xtatilgan, zero ular qayta ko'rib chiqilishni talab etgan. Bunday yondashuv o'tmish tajribasini aks ettiradi. 1935-yildagi Garvard konvensiya loyihasida shunday deyiladi: "agar shartnomani bajarish undagi tomonlarning diplomatik munosabatlarga bog'liq bo'lsa, u holda shartnoma, ularning diplomatik aloqalari uzilishi bilan tomonlarning birortasi tomonidan to'xtatiladi, biroq bunday tomonlar o'rtasida boshqa bir kelishuvga kelishilmagan hollarda shartnoma faoliyati ularning diplomatik aloqalari tiklangach qayta ko'rib chiqiladi".

Odatda misol sifatida diplomatik va konsullik aloqalarining uzilishi ularni boshqaruvchi shartnomalarga ta'siri keltirib o'tiladi. Konsullik munosabatlari (aloqalari, muzokaralari) haqidagi 1963-yilgi Vena konvensiyasida diplomatik munosabatlarni o'rnatishga kelishish konsullik munosabatlarini o'rnatishga ham kelishishni bildiradi, deb belgilab qo'yilgan. Shu yerda quyidagi izoh qayd etilgan, ya'ni "Diplomatik aloqalarning barbod bo'lishi konsullik aloqalarining ipso facto sini, uzilishini olib kelmaydi" (2-modda). Bundan tashqari diplomatik va konsullik aloqalarining uzilishida tomonlar uchinchi davlatga o'zining va fuqarolarining manfaatlarini himoya qilishni topshirish huquqiga egalar (Diplomatik muzokaralari haqidagi Vena konvensiyasining 45-moddasi va Konsullik munosabatlar haqidagi Vena konvensiyasining 27-moddasi). Ko'rib turganimizdek, diplomatik va konsullik munosabatlarining uzilishi hatto ular to'g'risidagi konvensiyalarning alohida holatlarining kuchini saqlab qoladi. Natijada diplomatik munosabatlarning uzilishi, ular shartnomani bajarish uchun zarur bo'lmaganda, davlatlarning huquqiy munosabatlariga ta'sir qilmaydi, deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy shart-sharoitlarda davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalarsiz ham amalga oshirib bo'ladigan ko'plab shartnomalar harakat qilayotganligini aytib o'tish lozim. Ular, qatoriga, eng avvalo, vazirliklar o'rtasidagi kelishuvlar kiradi.

Shartnomaning umumiy xalqaro huquqning imperativ normalariga zid keluvchi haqiqiy emasligi, layoqatsizligi aniqlangach, tabiiyki, yana yuzaga kelgan imperativ normaga zid keluvchi shartnomaning haqiqiyligi to'g'risidagi savol yuzaga keladi. O'tgan vaqtga qaraganda imperativ normalar tez-tez paydo bo'layotgan va taboro xalqaro munosabatlarda keng doirani qamrab olayotgan zamonaviylik uchun ushbu savol alohida ahamiyatga ega.

Shuning uchun Xalqaro huquq komissiyasi qayta yuzaga kelgan imperativ normalarga zid keluvchi shartnomalarga oid alohida moddani taklif qildi. U avvalgi ushbu masala yuzasidan o'rnatilgan normani

to'ldiradi. Agarda yangi imperativ norma paydo bo'lsa, u nafaqat kelgusidagi, balki hozirda mavjud bo'lgan shartnomalarni ham yo'qqa chiqaradi.

Bunda shartnomalar tuzilgan vaqtdan boshlab emas, yangi normaning vujudga kelgan vaqtdan boshlab haqiqiy bo'lmay qoladi. Boshqa normalar kabi imperativ normalar ham ortga qaytish kuchiga ega emas va paydo bo'lgunicha shartnomaning haqiqiylikiga ta'sir etolmaydi.

"Umumiy xalqaro huquqning yangi imperativ normalarining vujudga kelishi (jus cogens)" (64-modda) agarda yangi imperativ norma yuzaga kelsa, bu normaga zid keluvchi har qanday shartnoma haqiqiy bo'lmay qoladi va to'xtatilishini belgilab qo'ydi.

Bu bilan bog'liq holda, aytib o'tish kerakki, gap umumiy xalqaro huquqning imperativ normalari haqida ketmayapti. Bunday normalar dunyoning asosiy huquq tizimini tasvirlovchi ko'piab davlatlarning vakillari roziligi bilan yaratiladi. Umuman olganda, bir qancha boshqa imperativ normalar bir nechta davlatlarning o'zaro munosabatlarida yaratiladi.

Yangi imperativ norma tugatilgan shartnoma asosida amalga oshirilgan barcha narsalarga ta'sir etolmaydi. Istisno holat sifatida, agarda shartnomaga asosan avvalroq o'rnatilgan holatning o'zi yangi normaga zid kelishini aytib o'tish lozim (agar avval shartnoma asosida o'rnatilgan holat yangi normaga zid kelsa, u holda yangi norma o'sha holatga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi).

Xalqaro huquq komissiyasining shartnomalar huquqi bo'yicha konferensiya uchun dokladida Vena konvensiyasining depozitariy haqidagi VII qismi Komissiya oson kelishuvga kelgan texnik holatni o'zida namoyon qilgan deyiladi. Ma'lum bir darajada bunga qo'shilish mumkin. Qolaversa, bu holatda modda siyosiy ahamiyat ham kasb etadi. Bu qismda ko'rib chiqilgan davlatlarning sovuq urush yillaridagi alohida davlatlarning rasmiy bayonotlariga nisbatan hukumatlarning munozaralari, ziddiyatlarga sabab bo'lgan bir nechta depozitariy holatlarini eslashning o'zi yetarli. Bunday holat yangicha ko'rinishni mustahkamladi. Shuningdek, komissiyaning fikri, bu qism muhokamasiga kirishishda ikkala konferensiyada ham barchaga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro shartnomalarni vujudga kelish tarixi borasidagi doktrinalarni keltiring.

2. Xalqaro shartnomalarni rivojlanish bosqichlarini necha davrga bo'lish mumkin. Umuman, mazkur jarayonni davrlashtirishga zarurat bormi?

3. Xalqaro shartnomalar huquqini kodifikatsiyalash jarayoni nimaga asoslanadi?

4. Xalqaro shartnomalar tushunchasiga ta'rif qaysi hujjatlarda o'z aksini topgan?

5. Xalqaro shartnomalar huquqining xalqaro huquq sohasi sifatidagi ahamiyati qanday?

6. Xalqaro shartnomalar huquqi predmeti doirasini ko'rsatib bering.

7. Bugungi kunda xalqaro shartnomalarning ahamiyati qanday?

8. Xalqaro shartnomalarning tizimini ta'riflab bering.

9. Xalqaro shartnomalarni nomlashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?

10. Shartnomaning shaklining ahamiyati nimada?

11. Siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohadagi xalqaro shartnomalar qatoriga qanday shartnomalar kiradi?

12. Xalqaro shartnoma subyektlari xalqaro shartnomaning ishtirokchisi hisoblanadimi?

13. Xalqaro shartnomalarda tomonlar kimlar?

14. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar nomidan xalqaro shartnomalarni tuzishga vakolatli bo'lgan organlarni sanab bering. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan shartnomalar obyektining o'ziga xos tomoni nimada?

Kazus:

Rossiya Tashqi ishlar vazirligi xalqaro shartnomalarning rasmiy to'plamida o'zining diplomatik vakolatxonasi darajasida tuzilgan shartnomalar to'g'risida xabarlar e'lon qildi. 1982-yilda AQSH Kongressi 1972-yildagi "Xalqaro bitimlarni e'lon qilish to'g'risida"gi Qonunga maxsus qo'shimcha shartni kiritdi. Unga ko'ra barcha og'zaki bitimlar yozma shaklga solinishi va kuchga kirganidan keyin 60 kun mobaynida kongressga ma'lum qilinishi kerak.

Savol: Xalqaro munosabatlarda o'g'zaki tuzilgan xalqaro shartnomalarga rioya qilish tartibini tushuntiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Талаев А.Н. Право международных договоров. Общие вопросы. – М.: Международные отношения, 1980.

1. Международное право: Учебник. // Отв. ред. проф. Ю.М. Колосов и проф. Е.С.Кривчикова. – М.: Международные отношения, 2000. – С.720.

2. Международное право. Учебник для вузов // Отв. ред. проф. Г.В. Игнатенко и проф. О.И.Тиунов.– М.: Издательство «NORMA-INFRA-M», 2001. – С.584.

3. Международное право. Учебник. //А.Н.Талалаев, Г.Н.Тункин, А.Н. Шестаков. – М.: «Юрид. лит.», 1999. – С.560.

4. Лукашук И.И. Современное право международных договоров. Т1. Заключение международных договоров. – М.: «Volters Kluver», 2004

VIII BOB. XALQARO TASHKILOTLAR HUQUQI

Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy xalqaro-huquqiy munosabatlarda ularning ahamiyati. "Xalqaro tashkilot" va "Xalqaro tashkilotlar huquqi" tushunchalari. Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasi. Xalqaro tashkilotlarning xalqaro-huquqiy maqomi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarda a'zolik. Xalqaro tashkilotlarning organlari. O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishi va rivojlanishining nazariy jihatlari.

Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy xalqaro-huquqiy munosabatlarda ularning ahamiyati

"Xalqaro tashkilotlar" tushunchasi ilmiy va kundalik atamashunoslikda mustahkam o'rinishgan bo'lsa-da, ammo uning har safar qo'llanishi, unda turlicha mazmun bo'lgani uchun ham, uni tushuntirilishini talab etadi. Odatda asosiy ikki guruh tashkilotlar ajratib ko'rsatiladi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlari. Ular orasida asosiy farq shundan iboratki, birinchisi, davlatlarning birlashmasini aks ettirsa, ikkinchisi esa, jismoniy va yuridik shaxslar, assotsiatsiyalar, harakatlar, jamoat tashkilotlarining birlashmasini aks ettiradi.¹

Xalqaro tashkilotlar boshqacha qilib aytganda, davlatlararo birlashmalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida fikr yuritilganda, qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi VI asrning boshlarida shakllana boshlangan shahar-polislarning ittifoqlariga murojaat qilishimiz mumkin. Odatda ikki xil turdagi ittifoqlar mavjud bo'lgan: diniy-siyosiy ittifoq, harbiy-siyosiy ittifoq. Harbiy-siyosiy ittifoq sifatida simmaxiya (misol uchun: Delos, Lakedemon simmaxiyalari, Etoliya va Axey ittifoqlari) hamda amfiktioniya (misol uchun: Delfiy-Fermopil) – yunon xudolari ibodatxonalarida tashkil etiluvchi yunon qabilalarining vakillari uyushmalari mavjud bo'lgan.

Lakedemon simmaxiyasi miloddan avvalgi VI asrda Peloponnesdagi shaharlar va qabilalarning ittifoqi sifatida tashkil topgan. Ittifoqning boshida Sparta turar edi. Ittifoqning oliy organi Sparta tomonidan yilda bir marta chaqiriladigan umumittifoq yig'ilishi (sillogos)da Ittifoqqa kirgan

¹ Кутейников А. Е. Международные межправительственные организации: Социологический подход // Журнал социологии и социальной антропологии, 1999 год, том II, выпуск 4. <http://www.soc.pu.ru/publications/jssw/1999/4/kutejn.html>

barcha, ularning katta, kichikligidan qat'i nazar, bir ovozga ega edi. Qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinardi. Grek shaharlarining ikkinchi yirik ittifoqi Afina yoki Delos simmaxiyasi edi. Ittifoqning boshida Afina turgan. Delos simmaxiyasi miloddan avvalgi 478/477-yillarda grek-fors urushida forslarga qarshi harbiy-dengiz ittifoqi sifatida tashkil topgan. Delos simmaxiyasi Lakedemon simmaxiyasidan ikki jihati bilan ajralib turardi: birinchidan, ittifoqchilar Delosdagi umumiy xazinaga alohida badal (foros) to'lashar; ikkinchidan esa, ular gegemon bo'lgan Afinaga qaram edi. Vaqt o'tishi bilan Delos simmaxiyasi Afina davlatiga (arxega) aylandi.

Amfiktioniyalar esa, asosan, qabilalar va shaharlarning diniy-siyosiy ittifoqlari hisoblanib, ular biror xudoning muqaddas joyi yaqinida tashkil topgan (amfiktionlar – atrofida yashovchilar) va tinchlik, nizolarni hal etish masalalari bilan shug'ullanishgan. Amfiktioniyning oliy organi umumiy yig'ilish hisoblanib, u yilda ikki marta, ya'ni bahor va kuzda chaqirilgan. Yig'ilishning qarori barcha amfiktionlar uchun majburiy hisoblangan. Yig'ilishning vakolatli shaxslari hisoblangan iyeromnemonlar, davlatlar tomonidan amfiktionlar ovozlarining soniga qarab saylanganlar va barcha ishlarga rahbarlik qilishgan. Delfiy-Fermopil amfiktoniyasi qo'lida ham dunyoviy, ham diniy hokimiyat to'plangan edi. Delfiylik kohinlar urush boshlanishi va tugashini e'lon qilar, amfiktioniyalarga kiruvchi umumiy hukmdorlarni tayinlar va lavozimlaridan bo'shatar edi. Barcha siyosiy kelishuvlar delfiylik kohinlar tomonidan tasdiqlanar va barcha bunday kelishuvlarning nizoli masalalarini sharhlash bo'yicha nizolashayotgan tomonlar delfiylik kohinlarga murojaat qilishgan.¹

Albatta, qadimgi dunyo va o'rta asrlarda hozirgi davrda, ya'ni biz faoliyatini o'rganayotgan xalqaro tashkilotlar kabi xalqaro tashkilotlarni uchrata olmaymiz. Ammo ularda bunday birlashmalarni, yuqorida aytganimizdek, xalqaro tashkilotlarning ilk kurtaklari sifatida ko'rishimiz mumkin.

Dastlabki xalqaro iqtisodiy va bojxona birlashmalarining paydo bo'lishi xalqaro tashkilotlar tashkil topishidagi muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. XIII va XVII asrlar davomidagi Ganza savdo ittifoqi savdo gildiyalarining bloki hisoblangan va Boltiq dengizida, qisman Shimoliy dengiz va Shimoliy Yevropaning katta qismida savdo monopoliyasini o'rnatgan edi. XIX asrning boshida tashkil topgan Germaniya bojxona ittifoqi ko'plab nemis davlatlarining ittifoqi hisoblangan bo'lib, o'zaro

¹Международное право. Учебник / Под ред. А.Н. Вылегжанина. – М.: изд-во Юрайт, 2011. – С. 348.

bojxona to'siqlarini bartaraf etish maqsadida tashkil topgan, ittifoq chegarasida olingan bojlardan esa umumiy kassa tashkil etilib, unda yig'ilgan foyda esa a'zolar o'rtasida ularda istiqomat qiluvchilarga proporsional ravishda taqsimlanar edi.

Mazkur ittifoqlar xalqaro tashkilotlar hisoblanmagan. Shunday bo'lsa-da, bunday xalqaro birlashmalar tajribasi, birinchi xalqaro tashkilot hisoblangan 1804-yildagi Fransiya va Germaniya o'rtasidagi kelishuv asosidagi va keyinchalik, ya'ni 1815-yilgi Vena kongressi tomonidan rasmiy ta'sis etilgan Reyn daryosi navigatsiyasi bo'yicha Markaziy komissiyani tashkil etishda hisobga olingan.

XIX asrning yarmidan boshlab dunyo xaritasida xalqaro tashkilotlar ko'paya bordi. Jumladan, 1864-yili Yer o'lchash xalqaro ittifoqi, 1865-yili Xalqaro telegraf ittifoqi, 1874-yili Xalqaro pochta ittifoqi, 1875-yili O'lchov va og'irliklar bo'yicha xalqaro byuro, 1886-yili Adabiy va badiiy mulkni muhofaza qilish uchun xalqaro ittifoq, 1890-yili Bojxona tariflarini nashr qilish xalqaro ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tuzilgan. Mazkur xalqaro tashkilotlarning vakolatlari ixtisoslashgan muammolarni muhokama qilish bilangina cheklangan bo'lsa-da, ular xalqaro tashkilotlarning barcha belgilariga ega edi. Davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan, doimiy organlarga ega bo'lgan, ularning a'zolari davlatlar hisoblangan va ularning kotibiyati va shtab-kvartirasi (qarorgohi) bo'lgan.¹

Birinchi jahon urushining tugashi tinchlik va xalqaro xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan birinchi xalqaro universal tashkilotni tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Umumiy tinchlikni ta'minlash va davlatlarning barcha sohalardagi hamkorligiga ko'maklashish maqsadini ko'zlagan birinchi universal siyosiy xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasi 1919-yilda tuzildi. Uning Statuti 1919-yil 28-iyun kuni Parij Tinchlik konferensiyasida qabul qilinib, 440 moddadan iborat bo'lgan. Statut Versal shartnomasining 1–26-moddalarini qamrab olgan bo'lib, mazkur shartnomaning I qismi hisoblanadi.

O'sha davrdagi xalqaro tashkilotlardan Millatlar Ligasi, a'zolarining soni jihatidan 65 ta yirik davlatlarni, ya'ni o'sha davrda AQSH va Saudiya Arabistonidan tashqari barcha yirik davlatlarni o'ziga qamrab olganligi bilan ajralib turar edi.

Millatlar Ligasi Assambleya, Kengash, Kotibiyat, turli texnik komissiyalar va yordamchi xizmatlardan iborat tarkibga ega edi. Tashkilotning tuzilishi, funksiyalari va vakolatlari, xalqaro shartnoma

¹ Международное право. Учебник / Под ред. А.Н.Вылегжанина. – М.: Юрайт, 2011. – С.349.

hisoblanmish uning Ustavida ko'rsatib o'tilgan. Liganing-yillik budjeti 6 mln dollar atrofida edi. Uning shtab-kvartirasi (qarorgohi) Jeneva (Shveytsariya) shahrida joylashgan.

Millatlar Ligasi u yoki bu darajada ayrim mojarolarni tartibga keltirgan bo'lsa-da, ammo Nizomida belgilab qo'yilgan asosiy vazifalarini, ya'ni xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishni ta'minlab berish vazifasini bajara olmadi. Jumladan, 1931-yili Yaponiyaning Manjuriyaga bostirib kirganligiga qarshi sanksiyani qo'llashga harakat qilishning muvaffaqiyatsizligi, Italiyaning Efiopiyaga nisbatan agressiyasiga qarshi ta'sir ko'rsata olmasligi kabi vaziyatlar, eng asosiysi, Ikkinchi jahon urushining oldini ololmaganligi Millatlar Ligasining bu yo'nalishdagi vazifalarini bajara olmasligini ko'rsatib qo'ydi.

Millatlar Ligasi o'z faoliyatini amalda 1939-yilda, rasman esa 1946-yilda tugatgan.

Millatlar Ligasining xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha faoliyati samarasiz bo'lsa-da, ammo uning ijtimoiy va gumanitar, xalqaro iqtisodiy, moliya sohalarida, xalqaro transport yo'llari, sog'liqni saqlash tizimi, ilmiy hamkorlikni yaxshilash masalalarida erishgan yutuqlarini e'tirof etmasdan bo'lmaydi.¹

1939-yilda dunyoda 48ta hukumatlararo xalqaro tashkilot bo'lgan. Xalqaro assotsiatsiyalar ittifoqining ma'lumotlariga qaraganda, 1978-yili 2430ta xalqaro tashkilot bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni 20 mingdan oshib ketgan.² Xalqaro tashkilotlar taraqqiyotining tarixida burilish nuqtasi 1945-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro tashkilotlarning soni juda tez o'sgan va yangidan yangi xalqaro tashkilotlar paydo bo'lgan.

XXI asrga kelib, xalqaro tashkilotlarning rivojlanishi to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, xalqaro tashkilotlar jahonning eng dolzarb muammolarini hal etishda hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etadigan xalqaro huquqiy munosabatlarning aktorlariga aylandi.

Xalqaro assotsiatsiyalar uyushmasi ma'lumotlariga qaraganda XX asrning oxirida jahonda 6 mingdan ortiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, 43 mingdan ortiq xalqaro nohukumat tashkilotlari mavjud bo'lgan.³ Ular xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda, iqtisodiy,

¹Международное право. учебник /под ред. А.Н.Вылегжанина. – М.: ИД Юрайт. 2011. – С.350.

²О'sha ma'bu

³Международное право. учебник /Под ред. А.А.Ковалева, С.В.Черниченко. –3-е изд., испр. – М.: Омега-Л, 2008. –С.641.

gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda davlatlararo hamkorlik va davlatlar bilan nohukumat subyektlari hamda turli davlatlar nohukumat subyektlari o'rtasidagi o'zaro foydali hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Xalqaro hayotning globallashuvi jarayonida davlatlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar bu jarayonni boshqarishda va tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tashkilotlar orasida Birlashgan Millatlar tashkilotining o'rni va roli kattadir.

Xalqaro tashkilotlarning eng yorqin misoli bo'lgan mazkur BMT to'g'risida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ushbu tashkilotning 48-sessiyasida shunday degan edi: "BMT – bu xalqlarning tinch-totuv yashashga bo'lgan ezgu irodasining buyuk ramzi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir".¹

Bugungi kunda BMT bilan bir qatorda, uning ixtisoslashgan tashkilotlari, YXHT, NATO, YI, MDH, SHHT kabi turli xalqaro tashkilotlar umujahon hamda mintaqaviy darajada tinchlikni ta'minlash va davlatlar o'rtasida turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rolni o'ynamoqda.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq subyektlarining biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro hayotning biror sohasi yo'qki, unda xalqaro tashkilotlarning ishtiroki bo'lmasa. Professor A.Saidovning yozishicha, xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining oqilona shakllaridan biri sifatida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi davrda, – deydi olim, – xalqaro tashkilotlar tizimining murakkablashib borishi va vakolatlarining kengayishi jadal tus olmoqda². Shuning uchun ham bugungi davlatlararo munosabatlarni xalqaro tashkilotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Davlatlararo munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning turli shakllari, ya'ni xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, xalqaro nohukumat tashkilotlari ishtirok etmoqda. Shu bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlarning xalqaro jarayondagi ta'siri kuchaymoqda. Ular to'g'risida quyida batafsilroq to'xtalib o'tiladi.

Bugungi jahon moliyaviy, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida xalqaro munosabatlar yanada tig'iz bir paytda xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarda, ayniqsa, xalqaro huquqiy munosabatlarda tutgan o'rnini, bu jarayonga ko'rsatayotgan ta'sirini o'rganmasdan turib, hozirgi zamon

¹Каримов И. Биздан озод ва обод ватан колсин. Т.2. – Т., 1996. – Б.47.

²Сидов А. Халқаро ҳуқуқ. – Т. Адвокат, 2001. – Б.64.

xalqaro munosabatlarini yoki bo'lmasa, jahondagi siyosiy jarayonlarni tushunib bo'lmaydi.

“Xalqaro tashkilot” va “xalqaro tashkilotlar huquqi” tushunchalari

Bugungi globallashuv jarayoni rivojlanib, xalqaro munosabatlarning barcha subyektlarini ushbu jarayonga tobora kuchli jalb etayotgan bir paytda, bu jarayonda xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati oshib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan ushbu tashkilotlarga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Bu, birinchidan, xalqaro huquqiy tartibotni shakllantirishda, davlatlar bilan bir qatorda faol ishtirok etayotgan va bunda muhim rol o'ynayotgan bo'lsa, ikkinchidan esa, xalqaro huquqiy munosabatlarda faol huquqiy ishtirokchi ekanligi bilan xarakterlanadi.

Xalqaro tashkilot tushunchasi to'g'risida fikr yuritilganda, avvalambor, uni xalqaro hukumatlararo tashkilotga va xalqaro nohukumat tashkilotga bo'lish lozimligini unutmashimiz kerak, chunki mazkur tipdagi xalqaro tashkilotlar o'zining huquqiy maqomi bilan ajarialib turadi.

Odatda, xalqaro-huquqiy hujjatlarda xalqaro tashkilot – bu hukumatlararo tashkilot deb ko'rsatilgan ta'rifdan boshqa “xalqaro tashkilot” tushunchasi mavjud emas. Biroq bunday ta'rif faqat hukumatlararo (xalqaro) tashkilotni nohukumat tashkilotdan farqlaydi xolos¹. Shuning uchun ham xalqaro huquqshunos olimlar xalqaro tashkilotlarga ta'rif berishganda ular, odatda, xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni nazarda tutishar edi.²

Demak, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar suveren davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning erkin birlashmasi bo'lib, davlatlararo shartnoma yoki hamkorlikning muayyan sohasida davlatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun umumiy vakolatga ega xalqaro tashkilotning rezolyutsiyasi asosida tashkil etiladi, shuningdek a'zo davlatlarning irodasidan mustaqil holda alohida vakolatlariga ega bo'lib, unda tegishli bosh va yordamchi organlar tizimi faoliyat ko'rsatadi³.

Bugungi kunda xalqaro maydonga an'anaviy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlarning ko'rinishlari sifatida xalqaro nohukumat tashkilotlari (ba'zida xalqaro nodavlat tashkilotlari deb

¹ Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ субъектлари. – Т.: Ипсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказ, 2000. – Б.52

²Бгафсилт маълумотлар учун қараг. Муаминов А. Халқаро ташкilotлар ҳуқуқи. Уқув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014. –Б.12-13.

³Муаминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.

ham ataladi) ham chiqmoqda. Bu tashkilotlarning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchayib borishi, davlatlar bilan hamkorligi kengayib borishi va davlatlararo hamkorlikdagi masalalarni hal etishda, ba'zida hal qiluvchi rolni o'ynashi, albatta, bu tashkilotlar ahamiyatining oshib borayotganini ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlarni o'rganish bu tashkilotlarni klassifikatsiyalashni, ya'ni ularni tabiatiga, turli belgilarga asosan farqlashni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda xalqaro tashkilotlarni xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlarga bo'lish odat tusiga kirgan.

“Xalqaro tashkilot” tushunchasi ilmiy hattoki kundalik atamashunoslikda ham mustahkam o'rnatilgan bo'lsada, uni ishlatish har safar tushuntirishlarni talab etadi, chunki unda turlicha mazmun mavjud. Odatda xalqaro tashkilotlarning ikkita turi ajratib ko'rsatiladi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlari. Ular orasida asosiy farq shundan iboratki, birinchisi davlatlarni birlashtirsa, ikkinchisi esa jismoniy yoki yuridik shaxslar, assotsiatsiyalar, harakatlar, jamoat tashkilotlarini birlashtiradi.¹

Demak, davlatlararo tashkilotlar bilan nohukumat xalqaro tashkilotlarni o'rtasida katta farq mavjud bo'lib, nohukumat xalqaro tashkilotlarni turli mamlakatlarning jismoniy va yuridik shaxslari tuzadi va davlat ichki huquqiga muvofiq ravishda bitta yoki bir nechta davlatlarda yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olinadi. Bunday tashkilotlar xalqaro huquq subyekti hisoblanmaydi.

Keyingi paytda yuqoridagi ikki kategoriyadagi xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlarning yana bir ko'rinishi sifatida xalqaro paratashkilotlar degan tushuncha ham kirib kelmoqda.

Albatta, yuqorida biz ko'rib chiqayotgan xalqaro tashkilotlar ichida asosiy va hal qiluvchi rolni xalqaro hukumatlararo tashkilotlar o'ynaydi. Shuning uchun ham biz odatda xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni xalqaro tashkilotlar deb hisoblaymiz.

Xalqaro hukumatlararo tashkilot a'zo davlatlar shartnomasi asosida ta'sis etilgan va xalqaro tashkilot maqomini olgan tashkilotdir.

Xalqaro hukumatlararo tashkilot – bu a'zo davlatlar irodasi bilan belgilanadigan hajmda mustaqil irodaga va davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan hosilaviy huquq va majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan organlarga ega bo'lib, siyosiy, iqtisodiy,

¹Кутейников А.Е. Международные межправительственные организации: Социологический подход // Социология и социальная антропология. – 1999. – №4.

madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalarda hamkorlikni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida va xalqaro huquqqa muvofiq tuzilgan davlatlarning birlashmasidir¹.

Odatda xalqaro tashkilotlarning nomi faqat “tashkilot” nomi bilan cheklanib qolmaydi, balki ular “tashkilot” nomi bilan bir qatorda, “ittifoq”, “jamg’arma”, “bank”, “agentlik”, “kengash”, “liga” va boshqa nomlar bilan ham atalishi mumkin. Misol uchun, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti” (BMT), “Yevropa Ittifoqi” (YI), “Xalqaro valyuta jamg’armasi” (XVJ), “Jahon banki” (JB), “Atom energiyasi bo’yicha xalqaro agentlik” (MAGATE), “Yevropa kengashi” (YK), “Arab davlatlari ligasi” (ADL). Tashkilotlarga nisbatan bunday turli nomlarning ishlatilishi ularning xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatidagi maqomiga ta’sir qilmaydi. Shuningdek, BMT ayrim tillarda “Birlashgan Millatlar” (jumtadan, ingliz tilida “United Nations” – UN) deb yuritiladi. Ammo bunday holat ham tashkilot maqomiga ta’sir qilmaydi.

Ikkinchi kategoriyadagi xalqaro tashkilot hisoblangan xalqaro nohukumat tashkilotlarning ham keyingi paytlarda xalqaro munosabatlarning yangi aktorlari sifatida xalqaro-huquqiy munosabatlardagi roli va ahamiyati ortib bormoqda.

“Nohukumat tashkilotlar” xalqaro huquq fanida tez-tez ishlatiladi, biroq M.A.Novitskiyning fikriga ko’ra “nohukumat tashkilotlari uchun yagona va umumqabul qilingan ta’rifni topish mumkin emas”². Undan tashqari, “Nohukumat tashkilotlari” ham milliy tashkilotlarga, ham xalqaro tashkilotlarga qo’llanadi, garchi fanda e’tirof etilishicha, milliy tashkilotlar ancha oldin paydo bo’lgan bo’lsa ham. A.I.Kamo’nin nohukumat tashkilotlari instituti rivojlanishining quyidagi xronologiyasini taklif etadi. Nodavlat liniyasi bo’yicha xalqaro hamkorlikning vujudga kelishi va rivojlanishining birinchi tendensiyasi hali uzoq o’tmishda kuzatilgan. Garchi o’sha davrda cheklangan ko’lamga ega bo’lgan bo’lsa ham: savdo yarmarkalari joyi, olimlarning uchrashuvlari. Xalqaro munosabatlarning o’sib borayotgan ehtiyoji shunga olib keldiki, ularning aloqalari ko’paydi va ularning shakllari mukammalashdi. Xalqaro nohukumat tashkilotlarni tashkil topishining boshlanish tarixi turli xildagi ko’p tomonlama xalqaro uchrashuvlar – kongresslar, konferensiyalar va shu kabilar bo’lgan. Tarix doimiy xarakter kasb etgan va xalqaro munosabatlarga jiddiy ta’sir ko’rsatgan birinchi xalqaro uchrashuvlar to’g’risidagi aniq ma’lumotlarni

¹Международное публичное право. – М., 1999. – С.250.

²Международные неправительственные организации в современном международном праве.
http://www.mintbot.com/work/work_27840.html

qayd etmagan. 1681-yilda Rimda o'tkazilgan birinchi kongress to'g'risida hujjatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Unda 50 nafar atrofida olimlar yig'ilgan bo'lib, ular 1681-yilning 10-martidan 1861-yilning 8-iyuligacha to'rtta majlis o'tkazishgan.

Ikkinchi jahon urushi tugashi natijasida xalqaro ko'lamdagi jarayonlar rivojlanishi bilan xalqaro nohukumat tashkilotlarning evolutsiyasi boshlandi. Bu sharoitlarda keyingi o'n yilliklarda hamkorlik va qarama-qarshi turish elementlarini o'zida mujassam etgan ko'p tomonlama nohukumatlararo munosabatlarning yangi tizimi shakllana boshlandi. Natijada jahon siyosiy maydonida turli faoliyat sohaslariga ega bo'lgan xalqaro munosabatlarning yangi aktorlari paydo bo'ldi.

Xalqaro nohukumat tashkilot (XNHT) – bu muayyan maqsadlarga va ularga erishishning o'rnatilgan shakllariga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning assotsiatsiyasi yoki federatsiyasidir.

Xalqaro tashkilotlar tushunchasi tahlil qilinar ekan, hozirgi zamon xalqaro huquqi, shuningdek xalqaro tashkilotlar huquqi nazariyasidagi o'ziga xos bahs va munozaraga sabab bo'luvchi yana bir muammoga ham e'tiborni qaratish lozim. Yana bir uchinchi kategoriyadagi xalqaro tashkilotga o'xshash bo'lgan xalqaro tuzilmalar (albatta, unga nisbatan "xalqaro tashkilot" atamasini qo'llash ham amaliy jihatdan, ham nazariy jihatdan juda ham bahsli bo'lsa-da), ya'ni xalqaro "paratashkilot"lar ham bugungi xalqaro munosabatlarda nafaqat muhim rol o'ynamoqda, balki dunyo miqyosidagi muhim iqtisodiy, siyosiy va gumanitar sohalardagi qarorlarning qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro paratashkilotlarning xalqaro huquq subyekti sifatida ajratish imkonini bera olmaydigan ikkita o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq, birinchidan, mazkur tuzilmalarni xalqaro huquq (yoki u yoki bu milliy huquq) subyekti deb hisoblash imkonini beradigan ta'sis hujjatlari mavjud emas. Ikkinchidan, paratashkilotlar xalqaro tashkilotlarga xos bo'lgan muayyan ichki tashkiliy tuzilma va ish tartibiga ega emas. Ko'pincha ularning muayyan bir manzili ham mavjud emas (masalan, "Katta sakkizlik")¹. Biroq oshkora ta'sis hujjatlari mavjudligi, unda huquqiy layoqatli xalqaro tashkilot maqomi hosil bo'lishini anglatmaydi. Buning uchun muassislarning aynan muayyan darajadagi xalqaro layoqatga ega tashkilotni tuzish bo'yicha yakdil xohish-irodasi bo'lishi lozim. Agar bunday niyat yaqqol ko'zga tashlanmayotgan bo'lsa, har qanday xalqaro tuzilma, garchi u tashkilotning alohida elementlari, belgilariga (ishtirokchilarning doimiy uchrashuv joyi, uchrashuvlarning

¹Рахимов М. Халқаро параташкiло глар / Ҳаёт ва қонун. – 2002. – №6. – Б.30.

muntazamligi hatto kotibiyat funksiyalariga ega bo'lgan organning tashkil etilishi va ishtirokchilar yig'ilishlarini o'tkazish, qarorlar qabul qilish va hokazolarda muayyan tartibga rioya qilish) ega bo'lsa-da, xalqaro tashkilot hisoblanmaydi¹. Ayni chog'da shuni ta'kidlash lozimki, paratashkilotlarga (huquq subyekti hisoblanmaydigan) xalqaro konferensiyalardan farqli ravishda faoliyatning nisbatan barqarorligi, yig'ilishlar, uchrashuvlar va hokazolar muntazam o'tkazib turish xususiyatining xosligi, ularni xalqaro tashkilotlarga yaqinlashtiradi, xolos. Paratashkilotlarga, "Katta sakkizlik" (hozirgi kunda, Rossiya ishtirok etmayapti), "Katta yigirmatalik", BRICS kabi tuzilmalarni, shuningdek Parij va London klublarini misol qilib keltirish mumkin.

Yuqoridagi xalqaro tuzilmalar tushunchalarini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, bunday tuzilmalarning (asosan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va cheklangan holda xalqaro nohukumat tashkilotlar) hozirgi zamon xalqaro huquqiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'liq xalqaro huquqiy munosabatlar xalqaro ommaviy huquqning alohida sohasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar huquqining obyektini hisoblanadi.²

Xalqaro tashkilotlar huquqi xalqaro ommaviy huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, uning tamoyillari va normalari xalqaro tashkilotlar tuzilishi tartibi va ish faoliyatlarini, shuningdek xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Ya'ni xalqaro tashkilotlar faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi xalqaro tashkilotlar huquqini tashkil etadi va u hozirgi zamon xalqaro huquqining mustaqil tarmog'i hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar huquqi obyektini xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishi, faoliyat yuritishi hamda xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan olib boradigan aloqalarini tartibga solib turuvchi xalqaro huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Xalqaro tashkilotlar huquqining predmeti esa xalqaro tashkilotlarni tashkil etish, uning organlari, a'zolari, ular bilan o'zaro munosabatlari, uning norma ijodkorlik faoliyati va boshqa funksional vazifalari, tashkilotning ichki huquqi kabi mazkur huquq sohasi o'rganadigan barcha masalalar.

¹Рахимова М. Халқаро параташкilotлар / Ҳаёт ва қонун. – 2002. – №6. – Б.30

² Шибася Е., Поточный М. Правовые вопросы структуры и деятельности международных организаций. – М.: изд-во МГУ, 1988. – С.94.

Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasi

Jahondagi mavjud xalqaro tashkilotlarni va ularning faoliyatini yaqindan o'rganish uchun, avvalambor, ularni klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq. Chunki ularni klassifikatsiyalash yo'li bilan mazkur xalqaro tashkilotlar va ularning xalqaro huquqdagi o'rnini, maqsad va vazifalarini to'g'ri tushuna olamiz.

Odatda xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni turli belgilari bilan klassifikatsiyalash qabul qilingan. Bunday klassifikatsiyalash quyidagicha amalga oshiriladi:

Faoliyati yuzasidan:

– umumiy vakolatli, ya'ni barcha sohalar bo'yicha a'zo davlatlarning hamkorligini muvofiqlashtirib, ularga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilotlar. Bunga BMT, MDH, Yevropa Ittifoqi tashkilotlari misol bo'la oladi;

– ixtisoslashgan vakolatli – siyosiy, harbiy, iqtisodiy, moliyaviy, savdo masalalari, sog'liqni saqlash va boshqa muayyan sohada davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilotlar, masalan, YUNESKO, NATO, MAGATE kabi tashkilotlar misol bo'la oladi. Xususan, Xalqaro Tashkilotlar Assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 200tacha hukumatlararo va hukumatlarga qarashli bo'lmagan tashkilotlar fan, madaniyat va sog'liqni saqlash sohasida xalqaro huquq subyektlarining hamkorligini xalqaro tartibga solish sohasi bilan mashg'uldir¹.

A'zolarining geografik joylashuvi doirasiga qarab:

– universal, ya'ni geografik jihatdan jahondagi barcha qit'alardagi davlatlarni qamrab oluvchi xalqaro tashkilotlar (BMT va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari (masalan, YUNESKO);

– mintaqalararo, dunyoning ikki yoki uchta mintaqasini qamrab oluvchi (masalan, YXHT, NATO);

– mintaqaviy, ya'ni geografik jihatdan faqatgina muayyan qit'adagi davlatlarni birlashtirishni maqsad qilib qo'ygan xalqaro tashkilotlar (masalan, Yevropa Kengashi, Afrika birligi tashkiloti);

– submintaqaviy, geografik jihatdan muayyan bir kichik mintaq mamlakatlarini birlashtirgan xalqaro tashkilotlar (masalan, SHHT, G'arbiy Yevropa Ittifoqi).

¹Международное публичное право. Учебник. Под ред. Бекяшева К.А. – М. Проспект, 1999. – С. 289.

A'zolarning geografik joylashuvi asnosida klassifikatsiya qilinganda, esdan chiqmasligi kerakki, BMT Ustavi (Nizomi)ga ko'ra xalqaro hukumatlararo tashkilotlar faqat universal va mintaqaviy tashkilotlarga bo'linadi. Unga asosan mintaqaviy tashkilotlarga nafaqat mintaqaviy tashkilotlar, balki bu guruhga mintaqalararo va submintaqaviy tashkilotlar ham kiritiladi. Shuning uchun ham biz taklif etayotgan tasnifda asosan, a'zolarning mintaqalardagi geografik joylashuvi nuqtayi nazardan yondashmoqdamiz. Ammo bu tasnif har doim ham tashkilotlar a'zolarining muayyan geografik birligiga to'la mos kelmasligi mumkin. Misol uchun: Islom konferensiyasi tashkiloti.

Tashkilot tarkibiga yangi davlatlarni qabul qilish yoki qabul qilmasligiga qarab:

- ochiq holdagi;
- yopiq holdagi xalqaro tashkilotlarga bo'linadi.

Davlatlar tomonidan xalqaro tashkilotlarga berilayotgan vakolatlarning hajmi o'zaro mutanosibligi bo'yicha tashkilotlar quyidagicha ham farqlanadi:

- muvofiqlashtiruvchi funksiyasini bajaruvchi xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, a'zo davlatlar va xalqaro tashkilotlar funksiyalari teng. Misol uchun YUNESKO, XMT;

- "millatdan yuqori turuvchi" tashkilotlar, ya'ni millatdan yuqori turuvchi organlarga ega bo'lgan tashkilotlar, misol uchun: YI.

Birinchi va ikkinchi holatda xalqaro tashkilotning maqsadi davlatlararo hamkorlik bo'lib, qarorlar asosan davlatlarga yo'llanadigan bo'lsa, ikkinchi holatda esa biz yana davlatlararo integratsiyani tushunamiz, ularning qarorlari nafaqat davlatlarga, shuningdek bevosita a'zo davlatlarning fuqarolariga va yuridik shaxslariga ham taalluqli bo'ladi.

Xalqaro nohukumat (nodavlat) tashkilotlarni ham quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- a) siyosiy, mafkuraviy, ijtimoy-iqtisodiy, kasaba uyushmaviy;
- b) onalik va bolalikni himoya etuvchi ayollar tashkiloti;
- d) ilmiy, madaniy-ma'rifiy;
- e) matbuot, kino, radio, televideniye va boshqa sohalar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish muminki, xalqaro tashkilotlarni klassifikatsiyalash asosida ularni turkumlash, tizimlashtirish mumkin bo'ladi. Bu esa bugungi murakkab xalqaro munosabatlar tizimida ularni tadqiq qilishni yengillashtiradi. Shu bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlardagi umumiylikni va har bir xalqaro tashkilotlarning o'ziga

xosligini, ularning xalqaro munosabatlardagi tutgan o'rimi va rolini, hozirgi zamon xalqaro huquqining rivojlanishiga ta'sirini aniqlashda, bu tashkilotlarning xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro huquqiy munosabatlarining istiqbollarini, shuningdek davlatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasini muayyan xalqaro tashkilotlar bilan qanday manfaatlar asosida hamkorlik aloqalarini olib borish istiqbollarini aniqlashda qanday xalqaro tashkilotlarga o'zining tashqi siyosatida ustuvorlik bilan munosabatda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro-huquqiy maqomi

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning hosilaviy, boshqacha qilib aytganda, ikkilamchi subyektlari hisoblanadi. Ya'ni ular mustaqil ravishda yuzaga kelmaydi, balki xalqaro huquqning birlamchi subyektlari bo'lgan davlatlarning xohish-irodalari asosida, muayyan maqsadlarda tashkil etiladi va shu bois uning xalqaro munosabatlardagi maqomi va ichki huquqiy tartiboti to'lig'icha tashkil etuvchi davlatlar ixtiyorida bo'ladi. Umuman olganda, xalqaro tashkilotlarning ustavlarida mazkur tashkilotlarni tuzgan birlamchi subyektlarning xohish-irodasini ko'rish mumkin. Masalan, BMT Ustavining Muqaddimasida Birlashgan Millatlar Tashkilotni tuzishga asoslari va uni tuzishdan maqsadlari keltirilib o'tiladi va unda shunday deyiladi: "Shunga binoan, bizning tegishli hukumatlarimiz ... vakillari orqali Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Nizomini qabul qilishga rozilik berdilar va shu asosda "Birlashgan Millatlar" deb nomlangan xalqaro tashkilotni ta'sis etdilar"¹. Yana bir misolda esa bu holat sal boshqacharoq bayon etilgan, ya'ni YUNESKO Ustavining Muqaddimasida ishtirokchi davlatlar hukumatlari o'z xalqlari nomidan Tashkilotning ta'sis hujjatini tuzganligini e'lon qilishini bildirishadi: "... davlatlar ta'lim, fan va madaniyat sohasida dunyoning barcha xalqlari hamkorligiga hamda xalqaro tinchlik va insoniyatning umumiy farovonligiga erishish maqsadida Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur hujjatini tuzdilar"².

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud statuti. – T.: BMTning O'zbekistondagi axborot markazi, 2002. – B.3.

² Мухомед А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – Б.5-6.

Birorta ham xalqaro tashkilotning ta'sis hujjatida, tashkilot "hosilaviy subyekt" degan so'z bilan ko'rsatilmaydi, bu tushuncha odatda nazariyotchilar tomonidan kiritilgan¹.

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquqning o'ziga xos hosilaviy subyekti deyishimizga yana birinchi asos, ular davlatlarga o'xshab, o'zining doimiy hududiga, doimiy aholisiga ega bo'la olmaydi. Ikkinchidan esa yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, u birlamchi subyektlarning xohish-irodasi asosida hosil bo'ladi, ya'ni "dunyoga keladi" va u birlamchi subyektlarnig xohish-irodasi orqali tugatilishi, ya'ni "dunyodan ketishi" mumkin.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotning ta'sis etilishi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni ta'sis etilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tashkilotlarning ta'sis hujjatlarini qabul qilish;
2. Uning moddiy tizimini shakllantirish, bunda a'zo davlatlarning a'zolik badallari bo'yicha roziligi va ularni to'lanishi muhim rol o'ynaydi;
3. Bosh organlarining tashkil etilishi va yig'ilish faoliyatining boshlanishi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotning tugatilishi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotni tashkil etilishi, demak, uning a'zolari bo'lmish davlatlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lsa, uni tugatilishi ham bevosita uning a'zolari xohish-irodasiga bog'liq bo'ladi. Xalqaro tashkilotning tugatilishi turli sabablar asosida bo'lishi mumkin. Birinchi holatda xalqaro tashkilot o'z vazifasini bajara olmay tarqatib yuqorilishi mumkin. Misol uchun, Millatlar Ligasi, u Ikkinchi jahon urushiga to'sqinlik qila olmadi va tarqalib ketdi. Uning o'miga butun dunyoda xavfsizlik va tinchlik uchun mas'ul bo'lgan universal tashkilot sifatida yanada samaraliroq mexanizmga ega bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etildi. Ikkinchi holatda esa xalqaro tashkilotni tashkil etuvchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatlar barham topganda, ya'ni ularni birlashtirib turuvchi mafkuraviy yoki boshqa tUSDagi yaqinlik ham xalqaro tashkilot tugatilishi mumkin. Masalan, 1991-yilga kelib sotsialistik lagerning qulashi bilan Varshava shartnomasi tashkiloti, shuningdek bu lagerni iqtisodiy birlashtiruvchi O'zaro iqtisodiy yordam kengashi tugatildi. Uchinchi holatda esa a'zolari va vakolatlari bir-biriga yaqinlashib ketishi oqibatida ularning vakolatlari boshqa tashkilot vakolatlariga qo'shib ketadi, bunda muayyan bir yoki undan ko'p tashkilot tugatiladi yoxud umuman bu tashkilotlar o'rnida ularning vakolatlarini o'ziga birlashtirgan

¹ Муминова А. Халқаро ташкilotлар ҳуқуқи. Уқув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014. – Б.27.

boshqa bir tashkilot tuziladi. Misol uchun Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati o'z rivojlanish jarayonida yagona Yevropa Ittifoqi tashkiloti sifatida shakllandi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning xalqaro-huquqiy layoqatliligi, bu tashkilotlarni boshqa xalqaro tuzilmalardan ajratib turuvchi hamda xalqaro huquqiy munosabatlarda to'la huquqli subyekt sifatida faoliyat ko'rsatishining asosiy belgisi hisoblanadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning xalqaro huquqning to'la huquqli subyektligini, uning turli xususiyatlari bilan ham belgilash mumkin. Ularga, jumladan quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

1) xalqaro tashkilotni davlatlar ko'p tomonlama shartnoma negizida tuzadi va shu shartnomalar (ustavlar) asosida faoliyat ko'rsatadi;

2) xalqaro tashkilot ma'lum maqsadlarda tuziladi;

3) xalqaro tashkilot muayyan tashkiliy tuzilishga ega bo'ladi;

4) xalqaro tashkilotlar o'z ustaviga ko'ra ma'lum xalqaro huquq layoqatiga, ya'ni mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi;

5) xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq normalariga asosan tuziladi va xalqaro huquqning ikkilamchi subyektligi hisoblanadi. Ular suverenitetga ega emas;

6) davlatlar xalqaro huquqning subyektligi sifatida xalqaro tashkilotlar faoliyatida davlatlarning suveren tengligi prinsipi asosida qatnashadilar va xalqaro tashkilotga a'zolikdan ixtiyoriy ravishda chiqish huquqiga ega;

7) xalqaro tashkilotlarning qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega;

8) xalqaro tashkilotlar hudud va aholiga ega emas;

9) xalqaro tashkilotlar BMT Xalqaro sudida tomonlar bo'la olmaydi va ularning vakilligi doimo bir tomonlama bo'ladi;

10) xalqaro tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari diplomatik imtiyoz va immunitetga egadirlar;

11) xalqaro tashkilotlarda ularning a'zolarini doimiy vakillari bo'ladi (BMT, YUNESKO huzurida);

12) xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega;

13) xalqaro tashkilotlar xalqaro-huquqiy javobgarlikning subyektligi bo'la oladi¹.

14) odatda ularning faoliyati vaqtinchalik bo'lmay, doimiy xususiyat kasb etadi;

15) ayrim xalqaro tashkilotlar yuridik va kvaziyuridik vakolatlariga ega bo'ladi, ularning ba'zilarida ma'muriy va o'preativ faoliyatini amalga

¹Лукашук И.И., Салдов А.Х. Хозирги замон халқаро ҳуқуқ назарияси асослари. – Т.: Адолат, 2006. – Б.202-203.

oshirishi davomida vujudga keladigan nizolarni hal etish uchun maxsus xalqaro sud organlari ham tashkil etiladi;

16) faoliyat usuli – muhokama qilish, muzokara va muloqotlar olib borish hamda ovoz berish yoki konsensusga erishish orqali qaror qabul qilish;

17) xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro norma ijodkorlik faoliyatini amalga oshiradi va ularni mazkur faoliyati ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: xalqaro shartnomalar ishlab chiqish va ularni a'zo davlatlar ratifikatsiyasiga qo'yish hamda xalqaro muammolarni hal etishning tegishli choralari va yo'llarini tavsiya etuvchi rezolutsiyalarni qabul qilish.

Demak, xalqaro hukumatlararo tashkilot, avvalambor, maxsus xalqaro shartnoma (ustav) asosida tuzilgan, xalqaro-huquqiy layoqatga va muayyan tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan hamda xalqaro huquq normalari asosida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro huquq subyektidir.

Har qanday xalqaro hukumatlararo tashkilot xalqaro huquqning subyekti sifatida hech bo'lmaganda quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak:

- xalqaro huquqqa muvofiq tashkil etilishi;
- xalqaro shartnoma asosida tashkil etilishi;
- faoliyatning muayyan sohalarida hamkorlikni amalga oshirishi;
- kerakli tashkiliy tuzilmaning mavjudligi;
- xalqaro-huquqiy javobgarlikning mavjudligi;
- xalqaro-huquqiy mustaqilligi¹.

Xalqaro nohukumat tashkilotlarning asosiy belgilari sifatida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- daromad olish maqsadining mavjud emasligi;
- hech bo'lmaganda bitta davlat tomonidan e'tirof etilganligi yoki xalqaro hukumatlararo tashkilot huzurida konsultativ maqomga egaligi;
- kamida ikkita mamlakatdan pul mablag'lari olinganligi;
- hech bo'lmaganda ikkita davlatda faoliyat yuritishi;
- ta'sis hujjati asosida tuzilganligi;
- milliy qonunchilik asosida faoliyat ko'rsatishi.

Xalqaro nohukumat tashkilotlarning xalqaro huquqdagi huquqiy maqomi hali tamoman hal etilmagan. Ularning zamonaviy xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va bu jarayonga ta'sirini, muayyan xalqaro-huquqiy hujjatlarda ularning huquq va majburiyatlari aks ettirilishini hisobga olib va shuningdek ularning xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasida qarorlar qabul qilinishiga ta'sirini kuchayib borayotganligini

¹Муминов А. Халқаро ташкилотлар ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014. – Б.33–36.

e'tiborga olib, xulosa qilish mumkinki, zamonaviy xalqaro huquqning doktrinasi xalqaro nohukumat tashkilotlarining xalqaro huquqning cheklangan subyekt sifatida e'tirof etmoqda, Shu bilan bir qatorda, xalqaro nohukumat tashkilotlarining bugungi kunda nafaqat xalqaro hukumatlar tashkilotlar doirasida qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatmoqda, balki xalqaro huquqning asosiy subyektlari bo'lmish davlatlar bilan ham ayrim shartnomalar tuzmoqda va ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirmoqda. Uchinchidan esa hozirgi zamonda xalqaro fuqarolik jamiyatini shakllantirmoqda.¹

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarda a'zolik

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning a'zolari suveren davlat hisoblanadi va ular tashkilot faoliyatida teng huquqli a'zolar sifatida ishtirok etishadi va tashkilot faoliyati uchun mas'ul hisoblanadi.

Turli xalqaro tashkilotlar a'zolikka qabul qilish bo'yicha o'zlarining turlicha qabul qilish qoidalarini o'rnatishi mumkin. Ba'zi bir tashkilotlarda "Birinchi a'zolar" degan tushuncha ma'lum bo'lib, bu ushbu tashkilotning ustavini ishlab chiqishda ishtirok etgan davlatlarni anglatadi. Masalan, BMT Ustavining 3-moddasida, uning birinchi Ustavda ko'rsatilganidek, "dastlabki a'zolari" sifatida San-Fransiskoda bo'lgan konferensiyada qatnashib yoki ilgariroq Birlashgan Millatlarning 1942-yil 1-yanvardagi Deklaratsiyasini imzolab, BMT Ustavining 110-moddasiga muvofiq ushbu Ustavni imzolagan va ratifikatsiya qilgan davlatlar BMTning dastlabki a'zolari hisoblanadi. "Birinchi a'zolar"ni "a'zolikka qo'shilganlar"dan farqlash lozim bo'ladi. Bunda tashkilotga keyin kelib qo'shilgan davlatlar tushuniladi. BMT Ustavining 4-moddasida esa Tashkilot a'ziligiga qo'shilish istagini bildiruvchi davlatlar uchun talablar qo'yilgan. "Birinchi a'zo bo'lmagan uchun boshqacharoq tartib ko'rsatilgan, ya'ni qo'shilmogchi bo'lgan davlat BMT Ustavida keltirilgan majburiyatlarni zimmasiga olishi va ularni bajara oladigan tinchliksevar davlatlar bo'lishi va, eng muhimi, endi ular Xavfsizlik kengashi tavsiyasini olishi va Bosh Assambleyada ovozga qo'yilishi kerak².

Ba'zi bir ixtisoslashgan muassasalarda "a'zolikka qo'shilganlar" ham ikkiga bo'linadi. Birinchi guruhga BMT a'zolari kiradi va ularga a'zolikka kirish nisbatan osonroq kechadi. Ikkinchi guruhga esa BMTga a'zo

¹Batafsil ma'lumot uchun qarang: Муминов А. Халқаро ташкилотлар ҳуқуқи. Уқув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014. – Б. 36–42.

²Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Низоми ва Халқаро суд статуту. – Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. – Б.3.

bo'lmagan davlatlar kiradi va ularga a'zolikka kirishi uchun bir muncha murakkabroq qoidalar o'rnatiladi.¹ Shuningdek, G'arb xalqaro huquq doktrinasida xalqaro tashkilotlar a'zolarini ikki kategoriyaga: to'la huquqli va to'la bo'lmagan huquqli a'zolarga bo'lish xarakterli bo'lib, ularning birinchisiga davlatlar kiradi, ikkinchisiga ega o'zini o'zi boshqara olmaydigan hududlar hattoki ba'zi suveren davlatlar ham kiradi.

A'zolikka qabul qilish masalasida ayrim xalqaro tashkilotlar, yangi a'zoni qabul qilish bilan bog'liq qoidalar bilan ham boshqa tashkilotlardan farq qiladi. Jumladan, Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zolik boshqa har qanday xalqaro tashkilotdan farqqiladi. Mazkur Tashkilotga a'zo bo'ladigan har bir nomzod davlat JSTning barcha a'zolari bilan a'zolik shartlari bo'yicha alohida kelishishi shart. Agar Tashkilotning biror-bir a'zosi bilan kelishilmagan taqdirda nomzod davlat Tashkilot a'zosi bo'la olmaydi.

Xalqaro tashkilotlarda a'zolik klassifikatsiyasi: Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarda a'zolik quyidagi belgilar bilan klassifikatsiyalanishi mumkin:

– xalqaro tashkilotlarning birinchi a'zolari (ta'sisshilar) yoki qo'shilgan a'zolari bo'yicha;

– xalqaro tashkilotlarning to'la huquqli a'zolari bo'yicha;

– xalqaro tashkilotlarning assotsiatsiyalashgan a'zolari bo'yicha;

– xalqaro tashkilotlarda kuzatuvchi maqomi bo'yicha;

– xalqaro tashkilotlarda maslahatchi maqomi bo'yicha.

Bir talay xalqaro tashkilotlar ta'sis hujjatlarida to'la a'zolikdan tashqari assotsiatsiyalashgan a'zolik ham ko'zda tutilgan. Davlatni xalqaro tashkilotning assotsiatsiyalashgan a'zosi sifatida qabul qilish odatda tashkilot bilan mazkur davlat o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar yoki tashkilot organi tarkibiga kirmagan a'zo davlatlarga kuzatuvchi maqomi beriladi. Misol uchun Vatikan va Falastin BMTda kuzatuvchi maqomiga ega.

Ko'pincha ixtisoslashgan muassasalar va mintaqaviy tashkilotlar ham BMT organlariga o'z kuzatuvchilarini yuborishini kuzatish mumkin. SHHTda ham kuzatuvchilik tizimi yaxshi rivojlangan. Kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar asosiy majlislarda hozir bo'lish va hujjatlar olish huquqidan foydalanadi.

¹Батафенил маълумотлар учун қаранг: Таълим, фан ва маданият масаллари бўйича Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Устави / ЮНЕСКО халқаро исъерий ҳужжатлари. Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л. Саидова. – Т.: Адолат, 2004. – Б.7.

Misol uchun 2016-yil Toshkentda bo'lib o'tgan SHHT sammitida kuzatuvchi davlatlar sifatida Afg'oniston, Belarus, Mongoliya, Hindiston, Pokiston, Eron davlatlari ishtirok etdi.

Maslahatchilik maqomi kuzatuvchi maqomiga yaqin bo'lib, u ayrim, ko'pincha universal tashkilotlarga, nohukumat tashkilotlarga, ya'ni turli mamlakatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari tuzadigan va qabul qiluvchi davlatda milliy huquq bo'yicha yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olinadigan tashkilotlarga beriladi. Bunday tajriba BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS), shuningdek YUNESKO faoliyatiga ko'proq xosdir.

Xalqaro tashkilotlarda a'zolik badallari. Xalqaro tashkilotlarda a'zolik, davlatlarga tashkilotning ta'sis hujjatlarida keltirilgan huquq va majburiyatlari bilan bir qatorda bu tashkilotlarga badal to'lash majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Chunki xalqaro tashkilotlar, avvalambor, davlatlarning badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Albatta, aksariyat xalqaro tashkilotlar homiylik mablag'lari hisobiga ham moliyalashtiriladi, ammo birlamchi moliyalashtirish manbai a'zo davlatlarning badallari hisoblanadi.

Badallar masalasida shunga e'tibor qilish kerakki, davlatlarning tashkilot faoliyatiga qo'yadigan badallari odatda teng ulushlarda bo'lmaydi. Chunki turli xil iqtisodiy va boshqa resurslarga ega davlatlar bir xil ulushda badal to'lagan taqdirda ularning iqtisodiy imkoniyatlariga, albatta, salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va bunday tenglik prinsipi har qanday davlatning xalqaro tashkilotda ishtirok etish manfaatlariga hamda o'zining iqtisodiy imkoniyatlariga mos tushmaydi. Shuning uchun ham, odatda tashkilotlarda davlatlar uchun a'zolik badallari belgilanayotgan paytda, davlatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan, ularni yillik ichki yalpi mahsuloti darajasidan kelib chiqiladi. Bunda, albatta, bir tomondan iqtisodiy adolat prinsiplaridan kelib chiqiladi. Ammo shu bilan bir qatorda bunday tartib ayrim xalqaro tashkilotlarda qarorlar qabul qilishda har doim ham davlatlarning tenglik prinsipiga rioya qilinishiga salbiy ta'sir qiladi.

Masalan, BMTni moliyalashtirishda, uning barcha xarajatlarining 25%i AQSH zimmasiga to'g'ri kelsa, 19,9%i Yaponiya, 9,8%i Germaniya, 6,5%i Fransiya, 5,4%i Italiya, 5,1%i Buyuk Britaniya, 2,6%i Ispaniya zimmasiga, 25,7%i esa qolgan barcha a'zo davlatlar zimmasiga to'g'ri keiadi.

Shunday holat Xalqaro valyuta jang'armasining zayomli kapitalini shakllantirishda ham ko'rinadi. Bu esa ko'pincha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning o'z irodasini nisbatan kam rivojlangan davlatlarga o'tkazishda qo'l keladi.

A'zolik badallarining to'lanishi talabi xalqaro tashkilotlar faoliyatida davlatlarning ishtirok etishi hamda unda qarorlar qabul qilishda ishtirok etishiga ta'sir etishi mumkin.

BMT Ustavining 19-moddasiga binoan Tashkilotga a'zolik badali to'lash bo'yicha qarzdor bo'lgan Tashkilot A'zosi, agar qarzining miqdori uning oxirgi to'liq ikki-yil uchun to'lashi lozim bo'lgan pul miqdoriga barobar yoki undan ortiq bo'lsa, Bosh Assambleyada ovoz berish huquqidan mahrum etiladi, deb ko'rsatib o'tilgan. BMTda a'zolik badallarini to'lamaganligi uchun ovoz berish huquqida mahrum qilingan qarzdor davlatlarning ro'yxati berib boriladi.

Xalqaro tashkilotlarning organlari

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning organlari xalqaro tashkilotning tashkiliy qismi bo'lib, ular mazkur tashkilotning ta'sis yoki boshqa aqtlarga asosan tashkil etiladigan tizimli bo'lagi hisoblanadi.

Odatda, xalqaro tashkilotlarning organlarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, bu organlarni tasniflash orqali o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki xalqaro tashkilotlarning organlarini tasniflash orqali, tashkilotlardagi umumiylikni hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish mumkin bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar organlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- faoliyat xarakteriga ko'ra tasniflash: vakillik va funksional;
- davlatlararo;
- parlamentlararo (misol uchun Yevropa Ittifoqi Parlamenti);
- ma'muriy (xalqaro tashkilotda xizmatda turgan xalqaro mansabdor shaxslardan tashkil topgan);
- a'zoligi cheklanmagan, ya'ni oliy yoki plenar organ; a'zoligi cheklangan organlar;
- xalqaro tashkilotlarning doimiy va doimiy bo'lmagan organlari;
- xalqaro tashkilotlarning ustavli va ustavdan tashqari organlari;

– davlat vakillari sifatida yoki xalqaro mansabdor shaxslar sifatida ishtirok etishi orqali shakllanadigan organlar.

Shuningdek xalqaro tashkilotlarning davlatlardagi vakolatxonalari ham xalqaro tashkilot tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilot organlarini tarkibi, zimmasidagi vazifalar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ikki turga bo'lish mumkin:

birinchisi vakillik (misol uchun BMTning Bosh Assambleyasi);

ikkinchisi funksional (misol uchun BMTning Xavfsizlik kengashi).

Xalqaro tashkilotning oliy organi barcha a'zo davlatlar vakillarining yalpi majlisidir. U Assambleya, konferensiya, kongress va shu kabi turlicha nomlanishi mumkin. Ushbu organlar asosiy masalalar yuzasidan qaror qabul qilish bo'yicha mas'uldir. Ular muntazam ravishda har yili (BMTning Bosh Assambleyasi), ikki yilda bir (YUNESKOning Bosh konferensiyasi) va hatto besh yilda bir marta (Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi) yig'ilishib turadi.

Plenar organ rezolutsiyalarini tayyorlash uchun oliy organ sessiyasi mobaynida ishlaydigan umumiy tarkibdagi komissiyalar va qo'mitalar tuziladi.

Plenar organ cheklangan tarkibdagi organlarni tashkil etadiki, ular qatoriga asosiy ijro organi (misol uchun, YUNESKOning Ijro qo'mitasi) va tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha organlar (misol uchun BMTning Xavfsizlik kengashi, EKOSOS) kiradi.

Cheklangan tarkibdagi organlarni tashkil etishda muayyan mezonlar, avvalo, asosiy mintaqalar va davlatlar guruhi vakilliklari hisobga olinadi. Bundan boshqa mezonlar ham mavjud. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning rahbarlik organida 10ta joy sanoati rivojlangan mamlakatlar egallagan. Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) Kengashida fuqaro aviatsiyasiga navigatsiya xizmati ko'rsatishda ulkan hissa qo'shayotgan davlatlarning alohida vakilligi ta'minlanadi.

Ikki tomonlama xalqaro tashkilotlar, masalan, qo'shma komissiyalar yoki cheklangan maqsadli tashkilotlarda odatda bunday murakkab tizim mavjud emas. Davlatlar ularda ko'pincha tashkilotning barcha vazifalarini bajaradigan o'z mansabdor shaxslari orqali vakillik qiladi.

Ko'p tomonlama tashkilotlar organlarining katta qismi vakillikka asoslanadi, ya'ni ular tarkibiga davlatlar yo'llagan shaxslar kiritiladi. Faqatgina ijro faoliyati bilan mashg'ul ayrim organlarda yollanma xodimlar ishlaydi.

Ayrim xalqaro tashkilotlar tarkibida sudlov organlari ham mavjud bo'ladi. Odatda bu organlar shaxsiy sifati asosida saylanadigan va mustaqil

ravishda faoliyat yurituvchi shaxslardan iborat bo'lib, ular na xalqaro tashkilot va na o'z hukumatlari oldida hisobdor emas. Ammo istisnoli hollar ham uchraydi. Masalan, MDH Iqtisodiy sud'i tarkibini tom ma'noda a'zo davlatlar tayinlaydi va ular o'z hukumatlari qaroriga muvofiq vazifasidan ozod etilishi mumkin.

Sudlov organlarining faoliyati odatda xalqaro tashkilot a'zolari o'rtasida shu tashkilot qabul qilgan huquq normalarining buzilishi tufayli yuzaga kelgan nizoli masalalarni hal etishdan iborat bo'ladi.

Universal xalqaro tashkilotlar tarkibida, shuningdek ma'muriy tribunallar, ya'ni kadrlar masalalari bo'yicha sudlar ham mavjuddir.

Mintaqaviy integratsion birlashmalarning sudlari, misol uchun, Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi Yevropa sudi yoki And umumiy bozori sudi alohida mavqyega egadir. Bunday sudlar nafaqat davlatlar, balki birlashma organlari qabul qilgan qarorlarning huquqiy jihatdan to'g'riligini ko'rib chiqadi.

Mintaqaviy integratsion birlashmalar tarkibiga bir qator hollarda parlament organlari ham kiradi. Ko'pincha ular a'zo davlatlar parlamentlarining vakillaridan iborat bo'lib, milliy qonunlarni o'zaro yaqinlashtirish va uyg'unlashtirish vazifasini bajaradi. Yevropa Parlamentini (Yevropa Ittifoqi organlaridan biri) bevosita a'zo davlatlar aholisi saylaydi va plenar hamda ijro organlari alohida muhim qarorlar qabul qilishi chog'ida maslahatchilik vazifasini bajaradi.

Barcha xalqaro tashkilotlar xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni bajaradigan kotibiyatga egadir. Unga oliy organ muayyan muddatga saylab qo'yiladigan bosh ma'muriy shaxs, misol uchun Bosh kotib (BMT), Bosh direktor(YUNESKO) rahbarlik qiladi.

O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishi va rivojlanishining nazariy jihatlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng uning xalqaro aloqalari jadallik bilan rivojlanib, kengayib bormoqda. Bu esa, birinchi navbatda, xalqaro aloqalar olib boruvchi vakolatli vazirliklar va muassasalar oldiga katta vazifalar qo'yimoqdaki, bularning birinchi galdagisi, bu xalqaro munosabatlarda faoliyat ko'rsata oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Mazkur fanning dolzarbligi, yana bugungi kunda 50dan ortiq turli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik olib borayotgan mamlakatimizga, ushbu sohada har tomonlama chuqur bilimlarga ega bo'lgan, xalqaro tashkilotlar doirasida bemalol faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassislarining zarurligi bilan ham izohlanadi. Ikkinchidan esa xalqaro huquqning teng huquqli subyektlari bilan xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekistonning milliy manfaatlarini himoya qila oladigan va bu manfaatlardan kelib chiqib qaror qabul qiluvchi mutaxassislarining zarurligi bilan izohlanadi. Uchinchidan esa bugungi kunda "Xalqaro huquq" fanining rivojlanishini bunday sohalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan rivojlantirmasdan tassavur qilish qiyin. To'rtinchidan, nafaqat jahon miqyosida, balki Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi kuchlarga qarshi kurashda, BMT, NATO, SHHT kabi xalqaro tashkilotlarning roli va o'rni katta bo'lib qolmoqda.

Qayd etish lozimki, 2015–2016-yillarda O'zbekistonning SHHTdagi raisligi doirasidagi faoliyati mazkur Tashkilotni kengaytirishda, uning faoliyatini yanada takomillashtirishda, unda qabul qilingan hujjatlarning samaradorligini oshirishda, umuman, tashkilotning xalqaro maydondagi, shu jumladan Markaziy Osiyodagi mavqeyini yanada mustahkamlashda, o'z navbatida O'zbekistonning bunday mo'tabar xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyatini yanada kengayishida, uning xalqaro-huquqiy tashabbuskorligini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Xalqaro huquqning xalqaro tashkilotlar huquqi nomli tarmog'ini chuqur o'rganish hozirgi paytda mamlakatimiz uchun, ayniqsa, uning tashqi siyosati uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda hozirgi kunda, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik, savdo, turistik vakolatxonalarida, shuningdek turli xalqaro

tashkilotlar tuzilmalarida faoliyat olib borishga qodir bo'lgan yuqori malakali milliy kadrlar tayyorlashga katta ehtiyoj sezilmoqda. Mustaqillikdan oldin bu sohaga ehtiyojning o'zi ham yo'q edi. Mustaqillikka erishilganidan keyingina mamlakatimiz fanida, olimlarimizda, mutaxassislarimizda bu sohaga qiziqish kuchaya boshladi. Mamlakatimizda xalqaro huquq, xalqaro munosabatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash uchun Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik institutlari tashkil etildi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti kabi bir qator oliy o'quv yurtlarida talabalarga xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik, xalqaro huquqning turli yo'nalishlari bo'yicha maxsus kurslarning o'qitilishi yo'lga qo'yilmoqda. "Xalqaro tashkilotlar huquqi" fani ham shunday yangi fanlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda "Xalqaro tashkilotlar huquqi"ning shakllanishida bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotchilik ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida, Toshkent davlat yuridik universitetida har yili xalqaro tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar huquqining turli jihatlariga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanmoqda. Shu bilan bir qatorda qayd etish kerakki, bu sohaga, ya'ni xalqaro tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar huquqining turli jihatlarini o'rganishga yoki muayyan xalqaro tashkilotga bag'ishlangan, ular bilan O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy hamkorligi masalalari tadqiq qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari¹ tayyorlanmoqda, ilmiy maqolalar, adabiyotlar va monografiyalar² chop etilmoqda, BMT, SHHT kabi xalqaro

¹Диссертация авторефератлари Тошев Б. Халқаро ташкилотларнинг муаллифлик ҳуқуқига оид халқаро ҳужжатларнинг мақоми. – Т.: ЖИДУ, 2008. – 49 б.; Раҳмонов М. Сотрудничество Республики Узбекистан со специализированными Учреждениями ООН 1991–1999 гг. (на примере ЮНЕСКО). – Т., 2000; Шарипов Э.А. Правовые проблемы сотрудничества Узбекистана с международными неправительственными организациями. – Т.: ТТЮИ, 2004. – 25 с.; Абдуниязов А. Узбекистан Республикасини ЮНЕСКО билан ҳамкорлигининг халқаро-ҳуқуқий масалалари. – Т.: ЖИДУ, 2005. – 29 б.; Халимова А.М. Узбекистон Республикасининг БМТ билан ҳамкорлигининг ҳуқуқий жihatлари. – Т.: ЖИДУ, 2008. – 29 б.; Раҳмонов Ш. Признание резолюции международных организаций в качестве источника международного права. – Т.: УМЭД, 2006. – С. 23; Абришев Ш. БМТ Халқаро суди юрисдикцияси. – Т.: УМЭД, 2007. – С. 28; Эсиматова Ф. Особенности правового статуса деятельности международных парламентских организаций. – Т.: УМЭД, 2007. – С. 23; Кайсаров А. Международно-правовые аспекты координации деятельности ООН в борьбе с международным терроризмом. – Т.: УМЭД, 2007; Арпикова В. Роль ООН в Статуте Международного уголовного суда: некоторые правовые аспекты имплементации национального законодательства Узбекистана. – Т.: УМЭД, 2008. – 28 с.; Юнусов Х. Узбекистон Республикаси ва Европа Иттифоқи ҳамкорлигининг халқаро ҳуқуқий масалалари. – Т.: ЖИДУ, 2009. – 29 б.

²Саидов А.Х. Узбекистан и ОБСЕ: грани сотрудничества. – Т., 1998; Каримова А. Международные организации – инструмент многостороннего сотрудничества (Теория и практика). – Т.: УМЭД, 2001.; Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Асосий омишлар. – Т.: БМТнинг Узбекистондаги ваколатхонаси, 2001; Гулькинова И. Основные деятельности ООН в области прав человека. – Т., 2002; Муллонов А. Узбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2003; Янги аср авлоди. – Т., 2003; Раҳмонов Р. Узбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Т.: Ф.Фулом номидagi Алабёнга ва санъат нафисети, 2001;

tashkilotlarga bag'ishlangan maxsus ilmiy konferensiyalar o'tkazilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ayrim xalqaro tashkilotlarning faoliyati, ularning xalqaro huquqiy maqomi, faoliyati, xalqaro hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari, bu tashkilotlar bilan O'zbekiston Respublikasi hamkorligining huquqiy, siyosiy va boshqa jihatlari o'rganilgan.

Xalqaro tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar huquqi masalalariga bag'ishlangan dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va boshqa adabiyotlarni o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda xalqaro tashkilotlar huquqi sohasida ilmiy maktab shakllanmoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda ayrim xalqaro tashkilotlarning, shuningdek xalqaro tashkilotlar huquqini shakllanishining ayrim jihatlari o'rganilgan bo'lib, o'zbek xalqaro huquq maktabida xalqaro tashkilotlar huquqining nazariy va amaliy jihatlarni kompleks tadqiq qilish ilmiy tadqiqotchilikda dolzarb masala sifatida qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, "Xalqaro tashkilotlar huquqi" alohida mustaqil huquq sohasida o'zining tartibga solish obyekti va predmetiga ega bo'lib, o'zining mustaqil tartibga soluvchi huquqiy asoslariga ega. Ikkinchidan, u xalqaro-huquqiy fan sifatida shakllandi. Bu fan boshqa davlatlar kabi O'zbekistonda ham xalqaro huquqiy munosabatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, umuman, xalqaro munosabatlarning barcha sohalari bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimida o'z o'rnini topdi. Uchinchidan esa mamlakatimizda xalqaro tashkilotlar huquqi sohasida ilmiy tadqiqotchilik maktabi shakllanmoqdaki, mazkur maktabning vazifasi sifatida xalqaro munosabatlar yanada jadallashgan va murakkablashib borayotgan bir paytda, xalqaro tashkilotlarning bu jarayondagi o'rni va rolini, uning mavqeyini hamda takomillashib borayotgan xalqaro huquqqa ta'sirini va, eng muhimi, xalqaro huquqiy munosabatlarning bunday ishtirokchilari

Хакимов Р. Узбекистан и Организация Объединенных Наций – Т.: Zar Qalam, 2006; Шиддохджиев Ш. Всемирная торговая организация и развивающиеся страны: вопросы разрешения споров. – Т.: ИЦПЧ, 2005.; Шарипова С. Многосторонность и внешняя политика Республики Узбекистан. – Ташкент ТашГИВ, 2007.; Учарова Ч. Марказий Осиёнинг мустақавий интеграцион жараёни муаммолари (Геосиёсий тахлил тажрибаси). – Т.: Фац, 2008.; Мухитова Г., Бобокулов И., Юнусов Х., Ситдизер О., Норматов В. Европейский союз и Центральная Азия. – Т.: ЖИДУ, 2010.

²"Европа Иттифоқининг Марказий Осиё улуғ янги стратегияси: ҳозирги ҳолати, муаммолари ва истиқболлари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Т.: ЖИДУ, 2010; "Европа Иттифоқи ва Ўзбекистон: янги Буюк Ипак йўли бўйлаб сиссий, иқтисодий ва маданий алоқалар" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Т.: ЖИДУ, 2010; "Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истиқболлари" мавзусидаги конференция материаллари. – Т.: ТДЮН, 2007.; "Ўзбекистон ва ШХТ: минтақада ҳамфисиллик ва барқарорликни мустаҳкамлаш йўлида: илмий-амалий анжуман материаллари (Тошкент, 2011 йил 29 апрель). – Т., 2011; "Ўзбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истиқболлари" мавзусидаги дилера суҳбати материаллари. – Т.: ТДЮН, 2012.

bilan O'zbekiston Respublikasining hamkorligining istiqbollarini ko'rsatib berishi lozim.

Nazariy savollar:

1. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini xronologik tartibda tushuntirib bering.
2. Millatlar Ligasining tashkil topishiga nima turtki bo'ldi?
3. BMT tashkil topishi va undan keyingi davrda xalqaro tashkilotlarning rivojlanish tendensiyalarini tushuntirib bering.
4. Xalqaro tashkilotning tushunchasini aytib bering.
5. Xalqaro hukumatlararo tashkilot nima?
6. Xalqaro nohukumat tashkiloti nima?
7. "Xalqaro paratashkilot" nima?
8. Xalqaro tashkilotlar huquqi tushunchasini aytib bering.
9. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik masalasi qanday klassifikatsiya qilinadi?
10. Xalqaro tashkilotlarning organlari qanday klassifikatsiyalanadi?
11. O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishi va uning fan sifatida rivojlanib borish tendensiyalarini tushuntirib bering.

Kazus 1.

Ma'lumki, Falastin deyarli bir vaqtda (2011-yil) BMT va YUNESKO kabi tashkilotlarga doimiy a'zolik uchun ariza bilan murojaat qilgan edi. 2011-yil Falastinning YUNESKOGa a'zoligi bo'yicha murojaati YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan ijobiy hal etildi. Ammo BMTga doimiy a'zo bo'lishi haligacha (ya'ni 2016-yilning yanvari bo'yicha) hal etilgani yo'q. Falastinni suveren, to'la huquqli davlat sifatida mazkur tashkilotlarga a'zo bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarda BMTning Xavfsizlik kengashi, YUNESKOning Ijroiya qo'mitasi kabi asosiy organlarning vakolatlari va qarorlari hal qiluvchi rol o'ynagan.

Savol:

1. Mazkur tashkilotlarga a'zolik uchun qabul protseduralari qanday? Ular o'rtasidagi farqni aniqlang.
2. Falastinni ushbu tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun murojaati hamda uning ko'rib chiqilganligini, tashkilotlarning rasmiy saytlaridagi hujjatlariga asoslangan holda o'rganing.
3. Falastinni BMTning doimiy a'zoligi uchun murojaati qabul qilinmaganligining sabablari va omillarini tushuntiring bering.

Kazus 2.

Odatda BMTda ayrim davlatlarning “qarzdorligi” bo‘yicha ro‘yxat e‘lon qilinadi.

Savol:

1. BMT a‘zo davlatlarining “qarzdorligi” deganda nima tushuniladi va uning bu davlatlar uchun qanday huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarishini aniqlang.

2. BMTning joriy yildagi “qarzdor” davlatlarini va ularning qarzdorligi sabablarini BMT rasmiy saytidan tegishli rasmiy hujjatlar asosida aniqlang.

Kazus 3.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2016-yili Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov so‘zga chiqib, O‘zbekiston bundan keyin ham Tashkilot doirasida qarorlarning konsensus asosida qabul qilinishi tarafdori bo‘lib qolishiga alohida to‘xtalib o‘tgan edi.

Savol:

1. Xalqaro tashkilotlar doirasida qaror qabul qilinishida konsensus prinsipining mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.

2. SHHT doirasida qarorlar qabul qilinishi protsedurasini ko‘rsatib bering.

3. Nima uchun O‘zbekiston SHHT doirasida konsensus asosida qarorlar qabul qilinishi tarafdori ekanligini va uning ahamiyatini asoslab bering.

Kazus 4.

1996-yili Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti BMTning Xalqaro sudidan yadro qurolini qo‘llashning qanchalik mumkinligi yoki mumkin emasligi bo‘yicha maslahat xulosasini so‘raydi.

Savol:

1. BMTning Xalqaro sudi vakolatlarini, unga murojaat protsedurasini aniqlang.

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bunday so‘rov bilan murojaat qilishining huquqiy asoslarini aniqlang.

3. Xalqaro sudning mazkur so‘rovga javobini Xalqaro sud rasmiy saytidan toping va uning huquqiy tahlilini bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Право международных организаций. Учебник / Под ред. И.П.Блищенко, А.Х.Абашидзе. – М.: РУДН, 2013.
2. Юлдашева Г., Борсиева З., Гафурова Н. Право международных организаций. – Т.: ТДЮИ, 2013.
3. Закирова С. Международные экономические организации. – Т.: УМЭД, 2012.
4. Шибаета Е., Поточный М. Правовые вопросы структуры и деятельности международных организаций. – М.: изд-во МГУ, 1988.
5. Мўминов А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-ҳуқуқий муносабатлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.
6. Муминов А. Халқаро ташкилотлар ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014.
7. Лукашук И., Сандов А. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқ назарияси асослари. Дарслик. –Т.: Адолат, 2006.
8. Международное право. Учебник // Под ред. А.А.Ковалева, С.В.Черниченко. 3-е изд. – М.: Омега-Л, 2008.
9. Международное право. Учебник / Под ред. А.Н.Вылегжанина. – М.:Юрайт; ИД Юрайт, 2011.

IX BOB. XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK

Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi. Xalqaro huquqiy javobgarlik subyektlari. Xalqaro huquqbuzarlik tushunchasi. Xalqaro huquqbuzarlik turlari va ular uchun javobgarlik asoslari. Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllari. Xalqaro jinoyat sudlari.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik tushunchasi

Xalqaro-huquqiy javobgarlik bu xalqaro huquq normalarini va o'z xalqaro majburiyatlarini buzgan xalqaro huquq subyekti uchun kelib chiqadigan yuridik oqibatdir. Ayni paytda, bu mazkur normalar va keltirilgan zararni qoplashni ta'minlashning yuridik vositalaridan biridir.

Xalqaro huquqning shartnomaviy yoki odat normalarini buzishning yuridik oqibatlari huquqbuzar davlatga, zarar ko'rgan davlat yoki davlatlar guruhiga hamda boshqa davlat va xalqaro tashkilotlarga ta'sir qilishi mumkin. Bu oqibatlar hamda javobgarlik shakllari har xil bo'lishi mumkin. Ular huquqbuzarlikning tabiati va xavflilik darajasiga bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

a) agressiya, genotsid, irqiy kamsitish, mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berishdan bosh tortish, urush qonunlari va odatlarini buzganlik uchun javobgarlik;

b) huquqbuzar davlatning xalqaro huquqning boshqa subyektlariga, alohida holatlarda ularning yuridik va jismoniy shaxslariga yetkazgan zararini qoplash javobgarligi;

v) xalqaro huquqqa asosan huquqbuzar davlatga nisbatan uning huquqbuzarligiga javoban BMT qo'shinlarini ishga solishgacha bo'lgan majburlev choralarini qo'llash (masalan, BMT Ustavining 42-moddasi bo'yicha) va boshqalar.

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi instituti ancha vaqtdan beri mavjud. Shu bilan birga klassik xalqaro huquq fanida, davlatning o'ziga yetkazilgan zararni qoplash normalarining mavjudligiga qaramasdan, javobgarlik faqat shaxsga va chet elliklarning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bilan chegaralanib qolgan edi (masalan, Xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi). Biroq XX asrgacha mavjud bo'lgan xalqaro

huquqda agressiya tushunchasi va “urush uchun javobgarlik”ni bilmas, urushning yuridik oqibatlarini uning paydo bo‘lish sabablari bilan bog‘lay olmas edi.

Mustamlakachilikning yo‘qotilishi va ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarning paydo bo‘lishi xalqaro-huquqiy javobgarlik institutida sifat o‘zgarishlarga olib keldi. Ahamiyatiga ko‘ra agressiya, genotsid, aparteid, irqiy kamsitish uchun, mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berishdan bosh tortish va kollonial tartibni majburan joriy qilish uchun javobgarlik birinchi o‘ringa chiqdi. Urush qonunlari va odatlarini buzganlik uchun javobgarlik sezilarli darajada qat‘iy tus oldi. “Urush ochish huquqi” va “g‘olib huquqi” kabilar tarixda qoldi, huquqbuzar davlatlarga nisbatan qo‘llanadigan majburlov choralarining tabiati o‘zgardi, yangi xalqaro-huquqiy javobgarlik subyektlari hukumatlararo tashkilotlar paydo bo‘ldi.


Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi masalalari BMT Ustavida, genotsid, irqiy kamsitishni taqiqlovchi Konvensiyalarda, Urush qurbonlarini himoya qilish to‘g‘risidagi 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularning 1977-yilgi Protokollarida, BMTning Dengiz huquqi bo‘yicha 1982-yilgi Konvensiyasi va boshqa hujjatlarda mustahkamlandi.

Tinchlik va insoniyatga qarshi, harbiy hamda boshqa xalqaro jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi xalqaro miqyosida e‘tirof etildi va yuridik jihatdan mustahkamlandi.

Javobgarlik alohida shaxslarning xatti-harakatlari davlatning jinoiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan taqdirda kuchga kiradi. Bunday javobgarlik 1945 va 1946-yillardagi Nyurnberg va Tokio Xalqaro harbiy tribunal qarorlarida va xalqaro xarakterdagi jinoiy harakatlarga taalluqli konvensiyalarda o‘z aksini topdi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik subyektlari

Xalqaro huquq subyektining xalqaro-huquqiy javobgarligi paydo bo‘lishiga u tomonidan xalqaro huquqbuzarlik sodir etilishi asos bo‘ladi.



Xalqaro huquq nazariyasiga ko‘ra, xalqaro huquqbuzarlik – bu xalqaro huquq subyektining xalqaro huquq normalari va o‘zining xalqaro majburiyatlarini buzuvchi va xalqaro huquqning

boshqa subyekti yoki subyektlari guruhiga yoxud butun xalqaro hamjamiyatga moddiy va nomoddiy zarar yetkazuvchi harakati yoki harakatsizligidir

(masalan, agressiya akti, suverenitetni noqonuniy cheklash, hududiy yaxlitlik va siyosiy mustaqillikka tajovuz qilish, shartnomalardagi majburiyatlarni buzish va boshqalar). Bunda majburiyatlar qachonki, xalqaro huquq subyektlarining huquqqa zid harakati va yetkazilgan zarar o'rtasida sababli bog'lanish mavjud bo'lganda kuchga kiradi.

Shunday qilib, xalqaro huquqbuzarlikning xalqaro-huquqiy javobgarlikka olib keluvchi tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- o subyektlarning xalqaro huquq normalarini buzuvchi harakati yoki harakatsizligi;
- o huquqbuzarlikning subyekt bo'yniga qo'yilganligi;
- o xalqaro huquqning boshqa subyekti yoki subyektlar guruhiga zarar yetkazilganligi.

Davlatlar xalqaro huquq normalarining buzilishiga va zarar yetishiga olib kelgan o'z harakatlarini oqlash uchun hech qanday milliy qonun va qoidalarga murojaat eta olmaydilar. Shuningdek, xalqaro huquq normalarini bilmaslik yoki ularni tushunmay, noto'g'ri qo'llaganlik vaj bo'la olmaydi. Deyarli barcha xalqaro huquqbuzarliklar ongli ravishda, biror maqsad yo'lida, aybli ravishda sodir etiladi.

Xalqaro huquq subyekti xalqaro-huquqiy javobgarligining paydo bo'lishiga olib keluvchi huquqqa zid harakat yoki harakatsizlik davlat organlari (davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimidagi o'rnidan qat'i nazar), davlatning topshirig'i bilan yoki uning nomidan ish ko'ruvchi hokimiyat vakolatlari berilgan mansabdor shaxslar va davlat nomidan ish ko'ruvchi maxsus davlat organlari tomonidan sodir etilishi mumkin. Davlat javobgarligi o'zi ishtirok etgan xalqaro shartnoma normalariga zid keluvchi biror qonun yoki boshqa normativ hujjatni qabul qilishi yoki, aksincha, o'z xalqaro majburiyatlariga ko'ra qabul qilishi shart bo'lgan va sodir bo'lgan xalqaro huquqqa zid harakat yoki hodisaning oldini olishi mumkin bo'lgan qonunni qabul qilmasligi bilan kuchga kiradi.

E'tibor bering!

Davlat javobgarligi xorijiy davlat yoki uning organlari tomonidan boshqa bir davlat hududida yoki uning hududi orqali sodir etilgan xalqaro huquqqa zid harakatlar natijasida ham yuzaga keladi. Bunda xorijiy davlatning harakatlari o'sha davlatning ko'z o'ngida va roziligi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davlat ham xorijiy davlatning xalqaro huquqqa zid harakatlari ishtirokchisiga aylanadi. Lekin bunday harakatlar o'sha davlatga bildirilmasdan va uning roziligisiz amalga oshirilgan bo'lsa, u faqat o'z organlarining ziyraklikni yo'qotishi natijasida xorijiy davlat amalga oshirgan huquqbuzarlikning oidini ola olmaganligi uchun javobgar bo'lishi mumkin. O'z hududidan xorijiy harbiy bazalar yaratish yoki qurollar o'rnatish uchun joy bergan davlatlar masalasi boshqacha hal etiladi: ularning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha xatarli oqibatlar uchun javobgarligi birgina yuridik fakt – harbiy baza tashkil etish yoki qurol joylashtirishga ruxsat bilan kuchga kiradi.

Davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligi ushbu davlat organi yoki mansabdor shaxslarining o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi natijasida xorijiy davlat yoki uning yuridik va jismoniy shaxslariga zarar yetkazilganida ham paydo bo'ladi.

Masalan, davlat ochiq dengizdagi neft tankerining halokatiga aloqador bo'lsa va uning ko'rgan choralardan ortiq bo'lib qirg'oqning neft bilan ifloslanish xavfini oldini olish, kamavtirish yoki yo'qotish uchun zarur choralardan ortib ketgan taqdirda zararni qoplashi shart.

Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va boshqa konvensiyalarning urush olib borish vositalari va usullarini tartibga soluvchi normalarining buzilishiga olib kelgan harakatlar uchun javobgarlik davlat organi, harbiy qism yoki bo'linma mansub bo'lgan davlatga yuklatiladi. Davlat amaldagi konvensiya va bitimlarda mustahkamlangan urush qonunlari va odatlarini o'zining barcha davlat organlari, harbiy qo'shinlari va harbiylari tomonidan aniq bajarilishini ta'minlash uchun barcha qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishi shart.

Xalqaro huquq subyektlarining xalqaro-huquqiy javobgarligi nafaqat xalqaro huquq normalari yoki shartnomaviy majburiyatlarini buzganlik uchun, balki xalqaro huquqqa zid bo'lmagan harakati zararli

oqibatlarga olib kelishi natijasida ham yuzaga keladi. Bunday holat qo'llanishi xalqaro huquq bilan taqiqlanmagan o'ta xavfli manba vositasida moddiy zarar yetkazilganda vujudga kelishi mumkin.

Xavfi yuqori darajada bo'lgan manbalarga yadroviy energetik qurilmalar (YEQ)ga ega kemalar, koinotga uchirilgan fazoviy obyektlar kiradi. YEQga ega kemalar o'z faoliyatini ochiq dengizda kemalar qatnovi erkinligi doirasida olib boradilar, fazoviy obyektlar esa Davlatlarning koinotni, shu jumladan "Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi 1967-yilgi Shartnomaga muvofiq uchiriladi.

Yuqori darajali xavf-xatar tug'diruvchi manbalardan foydalanish masalasida davlatlar shartnoma tartibida moddiy zararni qoplash majburiyatini uning huquqbuzarlik natijasida paydo bo'luvchi omil sifatida emas, balki o'sha zararining yetkazilganligi fakti asosida tan olishga kelishib olganlar (aybsiz javobgarlik).

"Fazoviy obyektlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risida"gi 1972-yilgi konvensiyaning 2-moddasida aytilishicha, uchiruvchi davlat "o'zining fazoviy obyekti tomonidan Yer yuzasiga yoki parvozdagi havo kemasiga yetkazgan moddiy zararni qoplash uchun mutloq javobgardir".

Xalqaro huquqbuzarlik tushunchasi

Xalqaro huquqbuzarlik – bu xalqaro huquq subyektining harakati va harakatsizligi bo'lib, uning natijasida subyekt xalqaro huquq normalari va o'zining xalqaro majburiyatlarini buzadi, xalqaro huquqning boshqa subyektlari yoki butun xalqaro hamjamiyatga moddiy yoki nomoddiy xarakterga ega ziyon keltiradi.

Bunda javobgarlik xalqaro huquq subyektining xalqaro huquqqa zid qilmishi va keltirgan zarar o'rtasida sababiy bog'liqlik mavjud bo'lganda kelib chiqadi.

Shunday qilib, xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan xalqaro huquqbuzarlikning tarkibiy unsurlari quyidagilar hisoblanadi: subyektning xalqaro huquq normalarini buzadigan harakati va harakatsizligi (qilmish); xalqaro huquq subyektining huquqbuzarlikni sodir eta olishi; xalqaro huquq subyektining boshqa xalqaro huquq subyekti va subyektlar guruhiga zarar yoki ziyon yetkazilishi. Xalqaro huquq normalarini bilmaslik yoki uni noto'g'ri qo'llaganlik yoxud talqin qilganlikni ro'kach qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Deyarli barcha huquqbuzarliklar ongli tarzda, o'ylangan reja asosida va aybli ravishda amalga oshiriladi.

Xalqaro huquqda barcha xalqaro huquqbuzarliklarni, ularning xavflilik darajasi, miqyosi va oqibatidan kelib chiqqan holda uchta katta guruhga ajratish mumkin:

a) xalqaro jinoyatlar;

b) xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlar;

v) boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar).

Xalqaro jinoyat – bu xavfli xalqaro huquqbuzarlik bo'lib, davlatlar va millatlarning muhim hayotiy manfaatlariga, hayotiy asoslariga putur yetkazadi, xalqaro huquqning muhim prinsiplari va normalarini qo'pol ravishda buzadi, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladi va zarar yetkazadi.

BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan tayyorlangan Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi Moddalar loyihasida xalqaro hamjamiyatning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga asos bo'ladigan xalqaro majburiyatning davlatlar tomonidan buzilishi natijasida vujudga keladigan xalqaro-huquqiy qilmishga xalqaro hamjamiyat oldidagi jinoyat deb qaraladi va xalqaro jinoyatni tashkil etadi.

Bunday xalqaro jinoyatlar sirasiga: *agressiya, genotsid, aparteid, mustamlakachilik, harbiy jinoyatlar, insoniyatga qarshi jinoyatlar* va boshqalar kiradi.

Bunday jinoyatlar xalqaro hamjamiyatga aloqador bo'lgani sababli davlatlar BMT Ustaviga asosan ularning oldini olish uchun kollektiv choralar ko'rish huquqiga egadirlar².

Xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyat – bu bir necha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga tajovuz qiladigan, umumiy Xalqaro xavf-xatar keltirib chiqaradigan qilmishdir. Xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlar qatoriga quyidagilar kiradi: qulchilik va qullar bilan savdo qilish, giyohvandlik moddalari va psixotrop vositalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish, havo kemalarini noqonuniy egallab olish, xalqaro terrorizm va boshqalar.

Boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (Xalqaro deliktlar) – bu alohida davlatga yoki Xalqaro huquq subyektlarining cheklangan doirasiga zarar yetkazuvchi huquqqa zid xatti-harakatlardir. Bunday hollarda javobgarlik munosabati huquqbuzar davlat bilan huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan davlatlar o'rtasida paydo bo'ladi, huquqbuzarlik davlatlar va millatlarning mavjudligiga va hayotiy asoslariga zarar yetkazmaydi va bunday huquqbuzarlik yuqorida ko'rsatilgan ikki guruhga kirmaydi.

Bunday xalqaro huquqbuzarlikka diplomatik vakillarning faoliyatiga

qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga nisbatan davlat organlarining beparvoligi (harakatsizligi), savdo majburiyatlarini buzish va shu kabilar kiradi. Huquqbuzarlikda g'arazgo'y maqsadlar va huquqqa zid harakat bo'lmasa, bunday huquqbuzarlik xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Xalqaro huquqbuzarlik turlari va ular uchun javobgarlik asoslari

Xalqaro jinoyat deb, insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, Xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan Xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi. Bunda xalqaro jinoyatlarni keltirib chiqaradigan, davlatlarning jinoiy siyosatini amalga tatbiq qiladigan mansabdor shaxslarning qilmishi katta xavf tug'diradi. Xalqaro siyosiy va moddiy javobgarlikka bunday jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi davlat rahbarlari, oliy mansabdor shaxslar va jinoiy siyosatning boshqa ishtirokchilari ham tortiladilar¹.

Birinci marta xalqaro jinoyatlarning ro'yxati 1945-yilgi Xalqaro harbiy Tribunal (Nyumberg tribunali)ning Nizomida va 1946-yilgi Uzoq Sharq bo'yicha Tribunal (Tokio tribunali)ning Nizomida keltirilgan edi. Nyumberg tribunali Nizomining 6-moddasi xalqaro jinoyatlarni uch guruhga bo'ladi.

Tinchlikka qarshi jinoyatlar – bu agressiv urushlarni olib borish, keltirib chitsarish, tayyorlash va rejalashtirish yoki Xalqaro shartnomalarni, bitimlarni, kelishuvlarni buzgan holda urush olib borish yoki umumiy rejada yoxud fitnada ishtirok etishdir. Obyektiv tomondan “rejalashtirish” “urushga tayyorlanish” tushunchasini qamrab olmaydi.

Yuqorida qayd etilganlar o'z vaqtida qurol-aslaha va harbiy texnikani ishlab chiqarish va sotib olishda, fortifikatsion inshootlar va boshqa shu kabilarni qurishda ishtirok etgan Germaniya va Yaponiyaning mansabdor shaxslarini javobgarlikka olib kelgan edi. Urushni “keltirib chiqarish” tushunchasiga urushgacha va urush paytidagi faoliyat kiradi, ya'ni davlat rahbarlarining ig'vogar bayonotlari, chegaralarda qo'shinlarni to'plash, qarshi tomonni qurolli to'qnashuv keltirib chiqarishga undash, qurolli kuch bilan g'aflatda bostirib kirish va boshqa shu kabilar kiradi. “Umumiy rejada yoki fitnada ishtirok etish” tushunchasi davlatlarning agressiv urushlarda turli shakllardagi ishtirokini bildiradi. Shuning uchun ularning hammasi to'liq javobgarlikka tortilishi lozim.

Harbiy jinoyatlar urush qonunlari va odatlarini buzganda, ya'ni

bosib olingan hududdagi aholi qirib tashlanganda, qiynoqqa solinganda, garovga olinganlar o'ldirilganda, umumiy yoki xususiy mulk talanganda, harbiy zarurat bo'lmagan holda shahar va qishloqlar hech qanday ma'nosiz vayron qilinganda sodir bo'ladi.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar – bu urushgacha yoki urush davrida tinch aholini o'ldirish, yo'q qilish, qul qilib sotish, surgun qilish va boshqa qat'iy choralarini qo'llash yoxud siyosiy, irqiy, diniy sabablarga ko'ra, ularni ta'qib qilish yoki qo'lda tutish va amalga oshirilganidan yoki ular davlatlarning ichki huquqini buzish yoki buzmasligidan qat'i nazar, Tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni amalga oshirishdir.

Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarning ro'yxati Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va 1977-yilgi I Qo'shimcha protokol bilan sezilarli to'ldirildi va ular "jiddiy huquqbuzarlik" deb tasniflandi.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga uzoqlik muddatini qo'llamaslik to'g'risidagi 1968-yilgi Konvensiyada, insoniyatga qarshi jinoyatlar birinchi marta, xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. Insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga qurolli hujum va okkupatsiya natijasida aholini haydab chiqarish, aparteid, genotsid siyosatini olib borish oqibatida kelib chiqadigan noinsoniy harakatlar kiritilgan edi. Aparteid jinoyatining oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyada aparteidga o'xshash irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholandi.

1976-yil BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi Moddalar loyihasini ma'qulladi, unga ko'ra ekotsid, qulchilik va kolonial hukmronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi. Shu sababli aytish mumkinki, xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlar soni o'sib boradi. Bunga 1991-yili Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan qabul qilingan Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasi misol bo'la oladi. Bu Kodeks loyihasida jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar bir-biridan farqlanmaydi. Shuning uchun unda umume'tirof etilgan qoidalarga asosan xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish, kolonial hukmronlik va chet el hukmronligining boshqa shakllari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar,

atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarga jazoning muqarrarligini ta'minlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalari qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni berish (ekstraditsiya) qoidalarini tartibga solib turadi. 1946-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolyutsiyasida davlatlarga "harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida ularni javobgarlikka tortish uchun barcha choralarini ko'rish kerakligi haqida" tavsiyalar bergan edi. Keyinchalik BMTning Inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlikning prinsiplari Loyhasini ko'rib chiqdi va ma'qulladi. Bosh Assambleya o'z rezolyutsiyasida ana shunday to'qqizta prinsipni e'lon qildi¹.

Ana shunday qiyosan yangi xalqaro jinoyatlar bo'lgan genotsid, aparteid, ekotsid va biotsid kabilar qanday javobgarlik belgilanishini ko'rib chiqamiz.

Genotsid (urug', qabilani o'ldirish, qirg'in qilish) irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilariga asosan butun bir aholi guruhini jismonan yo'q qilishni bildiradi. Genotsidga misol qilib Germaniya, Chili, Janubiy Afrika, Kambodja, va boshqa davlatlarda totalitar rejim hukm surgan paytdagi qirg'inbarotlarni keltirish mumkin. Bunday jinoyatning obyektiv tomoni genotsidning oldini olish va u uchun jazo tayinlash to'g'risidagi 1948-yilgi konvensiyada quyidagicha izohlangan edi: "Har qanday milliy, irqiy, etnik yoki diniy guruhlarni qisman yoki to'liq yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar genotsid deb tushuniladi". So'ng genotsid shakllari sanab o'tiladi: shunday guruh a'zolarini o'ldirish; ularga jiddiy yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lish; qasddan shunday hayot sharoitlari yaratishni nazarda tutib, kishilarni qisman yoki to'liq jismoniy yo'q qilish; shunday guruhlar orasida bolalar tug'ilmasligi uchun choralar ko'rish va bolalarni zo'rlik bilan bir guruhdan ikkinchi bir guruhga o'tkazish. Bunda nafaqat genotsid, balki genotsidni amalga oshirish uchun fitna uyushtirish, to'g'ridan to'g'ri va ochiq ravishda bunday jinoyatni amalga oshirishga da'vat qilish, shuningdek unda ishtirok etish ham jinoyat jazoga tortilishga asos bo'ladi.

Konvensiyada genotsidda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan universal yurisdiksiya o'rnatilgan.

Birinchidan, ular qayerda genotsidni amalga oshirgan bo'lsalar,

o'sha davlat hududidagi va bunday jinoyatlarni sud qilish huquqiga ega sudlar tomonidan sudlanishi kerak.

Ikkinchidan, aniq bir ishni ko'rib chiqish uchun tegishli yurisdiksiyaga ega Xalqaro jinoyat Sudlari tuzilishi mumkin.

Aparteid (tarjimasi, aparteid – alohida yashash) irsiy kamsitishning keskin shakllaridan biri bo'lib, irsiga ko'ra davlat aholisi guruhining, huquqlari boshqa aholi guruhlari nisbatan kamsitiladi, ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadi. Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronligini o'rnatish va ushlab turish hamda ularga doimiy ravishda zulm o'tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylar (rezervatsiyalar)da saqlanadi.

1973-yili BMTning Bosh Assambleyasi Aparteid jinoyatining oldini olish va uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi, unga ko'ra aparteid xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi, xalqaro huquqqa, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat deb tan olindi. Janubiy Afrikadagi aparteidga qarshi qaratilgan bu Konvensiya yanada kengroq ma'noga ega, chunki boshqa davlatlarda ham tub aholiga va milliy jihatdan kam bo'lgan aholiga nisbatan irqiy kamsitishlarga yo'l qo'yilmoqda.

Bunday jinoyatning subyektlari bo'lib, qayerda va qanday sababga ko'ra sodir etilganidan qat'i nazar, davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot a'zolari va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Ijrochilardan tashqari, aparteid aktlarini amalga oshirishda hamkorlik qilgan yoki qo'llab-quvvatlagan va bevosita yordam bergan shaxslar hamda tashkilotchilar ham jazoga tortiladi. Bunday jinoyatlarga nisbatan ham universal yurisdiksiya o'rnatilgan. Aybdorlar Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan biror-bir davlatning sudiga jalb etilishi mumkin. Zarur holda jinoyatchi biror-bir davlatga berilishi mumkin, chunki aparteid siyosiy jinoyat hisoblanmaydi. Shuning uchun jinoyatchilarni biron-bir davlatga ushlab berish – ekstraditsiya, o'sha davlatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi¹. Konvensiyada davlatlar rozilik bergan taqdirda xalqaro jinoyat tribunalini tashkil etish imkoniyati nazarda tutilgan.

Ekotsid (tarjimasi - uy, turar joyni yo'q qilish) xalqaro harbiy jinoyat bo'lib, tabiiy atrof-muhitga sivilizatsiya uchun ijtimoiy xavfli tajovuz qilishni bildiradi. Uning tarkibiy qismi sifatida harbiy ekotsid, ya'ni urushda dushmandan harbiy ustunlikka erishish va g'alabani ta'minlash uchun tabiiy muhit shart-sharoitlaridan majburiy foydalanish hisoblanadi. Bunda quyidagilarning farqini bilish kerak:

a)geofizik urushlar - o'z foydasiga vulqonlarni, zilzilalarni majburiy

ravishda chaqirish, ozon qatlamini vayron qilish, abadiy muzliklarga ta'sir o'tkazish va boshqacha shaklda Er shari tuzilishi yoki tarkibini sun'iy o'zgartirib, urushda g'alaba qozonish;

b) meteorologik urushlar – texnik va *boshqa* vositalar yordamida bo'ron, dovul, sunami, momaqaldiriq, ko'chkilarni vujudga keltirish, qor, yomg'ir yog'dirish va shu maqsadlardaboshqa usullar bilan iqlimni o'zgartirish;

d) ommaviy qirg'in qurollari (OQQ) va boshqa taqiqlangan qurollar – yadro quroli, radiatsiyaviy, bakteriologik, zaharli, yondiruvchi, infraovozli, radiochastotali va shu kabilardan foydalanish.

Insoniyat xavfsizligi va tinchlikka qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasida bu jinoyatlar “oldindan o'ylab va atrof-muhitga jiddiy zarar” yetkazadigan jinoyat deb ataladi, bunda tabiiy atrof-muhitda uzoq vaqt va jiddiy zarar yetkazishga qasd qilinganligi tushuniladi. Bu moddaga berilgan sharhda atrof-muhitni himoya qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligi, shuning uchun sivilizatsiyaning asosiy manfaatlariga jiddiy qasddan qilingan qilmishlar uchun xalqaro jinoiy javobgarlikka tortish ko'rsatib o'tiladi.

Shunday qilib, ekotsid insonni o'rab turgan tabiiy atrof-muhitni tuzatib bo'lmas darajaga olib kelish bilan bog'liqdir. Ekotsidning xalqaro xavfi shundaki, uning oqibatleri chegara bilmaydi, bir davlatning ekologik muvozanati buzilishi undan ancha uzoqda bo'lgan boshqa bir davlatning atrof-muhitiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biotsid (hayotni tugatish) – Xalqaro jinoyat sifatida ekotsiddan oxirgi o'n besh yil ichida ajralib chiqdi. Biotsidning ekotsiddan farqi shundaki, u faqat insoniyatga qarshi qaratilgan bo'ladi va tabiiy atrof-muhitga ta'sir etmaydi. Uning manbai agressiv urush va qurolli to'qnashuvlar hisoblanadi va shu jarayonda ushbu jinoyat amalga oshiriladi. Tinchlik davrida biotsid amalga oshirilmaydi.

Keng ma'noda biotsid so'zi qurolli mojarolarda g'alaba qozonish va dushman ustidan harbiy ustunlikka erishish uchun ommaviy qirg'in qurollari yordamida biosferani, tirik organizmlarni, tirik tabiatni, kishilarni va boshqa tirik mavjudotlarni oldindan o'ylagan holda, maqsadli va ommaviy ravishda qirg'in qilishni anglatadi. Biotsidni amalga oshirish vosita va qurollari quyidagilar:

- xalqaro huquq bilan hozirgacha taqiqlanmagan, harbiy texnika va qurol, moddiy boyliklarni saqlab, faqat insonni yo'q qilishga qaratilgan neytron qurol;
- 1972-yilgi konvensiyaga asosan taqiqlangan va o'rnatilgan tartibda yo'q qilingan bakteriologik (biologik) va toksinli qurollar;
- 1925-yilgi protokol bilan taqiqlangan, kishilarni yo'q qilishga

mo'ljallangan bo'g'uvchi, zaharli va boshqa shu kabi gazlar;

• kimyoviy qurollar, ya'ni qurolli mojaroda dushmanning tirik kuchini yo'q qilishga qaratilgan o'q-dori va kimyoviy qurilmalar. Bu qurollar Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, to'plash va qo'llashni taqiqlash va uni yo'q qilish to'g'risidagi Konvensiya bilan taqiqlangan. 1993-yili bu konvensiyani Parijda 154ta davlat imzoladi.

Harbiy mutaxassislarga urush olib borishning yana shunday vositalari ma'lumki, bu brutsella vaksinasi bilan to'ldirilgan bombalar, snaryadlar va raketalar dushman hududida portlatilganda faqat tirik mavjudotga ta'sir etib, moddiy boyliklar va tabiiy atrof-muhitga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Ko'pgina davlatlarning harbiy idoralari psixotrop qurollar ishlab chiqishni faollashtirmoqda, bunday qurollarning ayrim tarkibiy qismlari kishilarning ruhiyatiga ta'sir etib, ruhiy kasalliklar keltirib chiqaradi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik turlari va shakllari

Davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi turlari ikkita: siyosiy va moddiy.

Siyosiy javobgarlik uchun odatda huquqbuzar davlatga nisbatan majburlov choralarini qo'llanadi va moddiy javobgarlik bilan uyg'unlashib ketadi. Siyosiy javobgarlikning eng keng tarqalgan shakli sanksiyalardir.

Sanksiyalar – bu huquqbuzar davlatga nisbatan qo'llanadigan choralaridir. Ular xalqaro tashkilotlar (universal va mintaqaviy), bir guruh davlatlar yoki alohida davlat tomonidan qo'llanishi mumkin. Sanksiyalarning hajmi va turlari jinoyatning og'irligi darajasiga bog'liq. Masalan, agressor davlatga nisbatan quyidagi majburlov choralarini qo'llash mumkin: suverenitetini vaqtincha cheklab qo'yish; hududining bir qismini ajratib olish; urushdan keyingi okkupatsiya; harbiy kuchlardan mahrum qilish va qurolli kuchlar tarkibini qisqartirish yoki ularga ega bo'lishni taqiqlash; agressor davlatning tinchlik va insoniyatga qarshi harbiy jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor jismoniy shaxslarni odil sudlovga tortish bo'yicha yurisdiksiyasini cheklab qo'yish va boshqalar.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solganlik uchun sanksiyalar va ularni qo'llash tartibi BMT Ustavining 39, 41 va 42-moddalarida nazarda tutilgan.

Sanksiyalar majburlashning shakli sifatida fagqatgina og'ir xalqaro jinoyat sodir etilgan qolda qo'llaniladi. Ularni boshqa holatlarda qo'llash to'g'ri bo'lmaydi, chunki aslida sanksiyalar xalqaro huquqqa zid harakatlarni qasddan sodir etganlik yoki qasddan zarar yetkazganlikka

qarshi javobdir. Ikkinchi jahon urushidan so'ng agressor davlatlarga nisbatan siyosiy va moddiy javobgarlikning alohida turlari qo'llangan. Masalan, Germaniya butkul taslim bo'lganidan keyin, 1945-yil 5-iyun Deklaratsiyasiga muvofiq ittifoqdosh davlatlar oliy hokimiyat vazifasini o'z zimmalariga olib, uni qurolsizlantirdilar va vaqtinchalik qurolli kuchlarga ega bo'lishni taqiqladilar, natsist tashkilotlarini tugatdilar va kelajakda faoliyat yuritishini taqiqladilar. Germaniyada okkupatsion tartib o'rnatildi.

Moddiy (itstisodiy) javobgarlik davlat tomonidan moddiy zarar etkazishga olib keluvchi xalqaro majburiyatning buzilishi bilan vujudga keladi. U reparatsiya, restitutsiya va substitutsiya shakllarida ifodalanishi mumkin.

Reparatsiya bu moddiy zararni pul ifodasida, tovar va xizmatko'rinishlarida soplashdir. Reparatsiyalarning qajmi va turi odatda xalqaro shartnomalar asosida belgilanadi. Reparatsiya summasi odatda urush tufayli etkazilgan zarar hajmidan ancha kam bo'ladi. 1945-yilgi Yalta (Qrim) konferensiyasining qaroriga ko'ra Germaniyadan olinadigan reparatsiya 20 mlrd. dollarni tashkil etgan.

Restitutsiya - bu urushayotgan davlat tomonidan Xalqaro huquqqa zid ravishda tortib olingan va ratsib hududidan olib chitsib ketilgan mulkni o'z aslida qaytarish. Masalan, ittifoqdosh davlatlar va Italiya o'rtasidagi 1947-yil 10-fevraldagi Sulh bitimining 75-moddasiga ko'ra, Italiya "mumkin qadar qisqa muddatda Birlashgan Millatlarning har qanday hududidan olib ketilgan mulkni" qaytarish majburiyatini o'z bo'yniga olgan.

Urush harakatlari bilan bog'liq bo'lmagan holda, tinchlik davrida xalqaro huquqqa zid ravishda olib qo'yilgan yoki ushlab turilgan mulkni qaytarish xam restitutsiya obyeksi bo'lishi mumkin.

Restitutsiyaning bir ko'rinishi substitutsiyadir. U xalqaro huquqqa zid ravishda yo'q qilingan yoki zarar yetkazilgan mulk, bino, transport vositasi, san'at asarlari, xususiy mulk va shu kabilarni almashtirish yoki o'rnini qoplashdan iborat.

Siyosiy javobgarlik turlariga xalqaro tashkilotga a'zolikidan kelib chiqadigan huquq va imtiyozlarini to'xtatib qo'yish (ovoz berish, asosiy organlarda vakilga ega bo'lish, yordam va xizmatdan foydalanish huquqlaridan mahrum qilish) va so'nggi chora sifatida tashkilotga a'zolikdan chiqarish kabilari kiradi.

Xalqaro deliktlar (masalan, diplomatik odobni buzish, nosamimiy

akt, xorijliklar tartibini buzish kabilar) uchun davlatga nisbatan retorsiya, repressaliya, satisfaksiya, restoratsiya kabi siyosiy javobgarlik shakllari qo'llanishi mumkin. *Retorsiya deb bir davlat tomonidan boshqa bir davlatga nisbatan uning manfaatlariga ziyon yetkazgani uchun Xalqaro huquqqa mos majburlov choralari qo'llashga aytiladi.* Retorsiya o'zga davlatning muayyan nodo'stona harakatlariga qarshi buzilgan huquqlarni tiklashga yo'naltirilgan aniq bir davlatning javobi bo'lishi ham mumkin.

Retorsiyaga nodo'stona aktni sodir etgan davlatdan elchini chaqirib olish, mamlakatga kirishni taqiqlash yoki delegatlar tashrifini bekor qilish kabilar kiradi.

Repressaliya (harbiy bo'lmagan) bu bir davlatning ikkinchi davlatga nisbatan qo'llashga hatsli majburlov harakatlaridir. Repressaliya bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatning huquqqa zid harakatlariga qarshi buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida qo'llanadi. U yetkazilgan zarar bilan mos kelishi va majburlov qoniqtiradigan darajada bo'lishi lozim.

Repressaliyalar iqtisodiy munosabatlar, temiryo'l, dengiz, havo, pochta, radio va boshqa aloqa turlarining to'liq yoki qisman uzilishi hamda diplomatik, savdo va boshqa aloqalarning uzilishi, tovar va xomashyoni huquqbuzar davlat hududidan olib chiqishga embargo qo'yish shakllarida ifodalanishi mumkin.

Qoniqish hosil qilingach repressaliyalar tugatilishi kerak. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nizo va kelishmovchiliklarni hal etish uchun qurolli repressaliyalar qo'llashni man qiladi (BMT Ustavining 2-modda 3-bandi).

Satisfaksiya (qoniqish) - bu huquqbuzar davlat tomonidan jabrlanuvchi davlatga uning sha'ni va g'ururiga yetkazgan.

Rasmiy tarzda afsuslanish yoki ta'zim qilish; kechirim so'rash; kelgusida bu kabi xalqaro huquqqa zid harakatlarning sodir etilmasligiga ishontirish; tegishli tantanali vaziyatda jabrlanuvchi davlat bayrog'iga izzat-hurmat ko'rsatish yoki uning madhiyasini ijro etish va boshqa yo'llar bilan ifodalanishi mumkin.

Amaliyotda restoratsiya deb nomlanuvchi javobgarlik shakli ham uchraydi. U huquqbuzar davlat tomonidan biror-bir moddiy obyektning avvalgi holatining tiklanishini nazarda tutadi (masalan, uning aybi bilan ifloslangan suvning avvalgi sifatini tiklash kabi).

Xalqaro tashkilotlar javobgarligi ularning huquq subyektligiga asoslanadi va bevosita undan kelib chiqadi. Xalqaro tashkilotlar

javobgarligi ko'lamini va chegaralari ulardagi huquqiy subyektlik qobiliyatining ko'lamini va uning tabiatiga bog'liq.

Hozirgi kunda qator shartnomalarda xalqaro tashkilotlarning javobgarligi to'g'risidagi holatlar o'z ifodasini topgan. Masalan, BMT Ustavining 57-moddasi 1-bandi ixtisoslashgan muassasalarning tegishli soxalardagi (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) javobgarligini nazarda tutadi. Kosmos to'g'risidagi 1967-yilgi Shartnomaga muvofiq xalqaro tashkilot fazoda tegishli faoliyatni amalga oshirayotgan bo'lsa, u mazkur shartnoma qoidalarini bajarishga majburdir. Fazoviy obyektlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi 1972-yilgi konvensiyaning V va XII moddalariga asosan, fazoviy obyekt uchiruvchi yoki uchirishni tashkillashtiruvchi tashkilot o'sha obyekt tomonidan yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'ladi. Uni tashkillashtirishda ishtirok etgan davlatlar ham javobgar bo'ladi.

Xalqaro tashkilot yoki uning organi tomonidan xalqaro huquq normalari yoki tashkilotning ichki yuridik normalari yoxud davlatning ichki huquqi buzilishidan qat'i nazar, tashkilot javobgarligi huquqbuzarlik sodir etilishi bilan paydo bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq bo'yicha javobgarlik subyektiga aylanishlari mumkin. Xalqaro tashkilotga javobgarlikni yuklash uchun uning aybi bo'lishi va xalqaro-huquqiy normalarda nazarda tutilgan majburiyatni buzganlik holati bo'lishi kerak.

Xalqaro tashkilotlarga ham siyosiy, ham moddiy javobgarlikni yuklash mumkin. Masalan, siyosiy javobgarlik tashkilot biror davlatning suveren huquqlarini kamsituvchi yoki uning suverenitetini buzuvchi qaror qabul qilganda; davlat bilan tashkilot qarorgohi maqomi to'g'risidagi shartnoma yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarni buzganda paydo bo'ladi.

Xalqaro tashkilotning moddiy javobgarligi biror faoliyat, masalan, fazodagi faoliyat natijasida zarar yetkazilganda, xalqaro majburiyatlar bajarilmaganda; xavfi yuqori bo'lgan manbalar (masalan, avtomobil, kema kabilar) orqali zarar keltirilganda; kontraktlar buzilganda; sanitariya normalariga rioya qilinmaganda kelib chiqishi mumkin. Lekin bunda davlatlarga nisbatan qo'llanuvchi javobgarlik shakllarini xalqaro tashkilotlarga shunchaki ko'chirib qo'yish mumkin emas¹; ular o'ziga xos xususiyatlarga ega: siyosiy va moddiy javobgarlikning muayyan shakllari rivojlanmagan; moddiy javobgarlik paydo bo'lganda

xalqaro tashkilot bilan bir qatorda, o'sha tashkilotga a'zo davlatlar ham javobgar bo'ladilar.

Xalqaro tashkilot o'z qarorgohi joylashgan davlat qonunchiligini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Ko'pchilik davlatlar hukumatlari xalqaro tashkilotlar va ularning xizmatchilari maqomi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilganlar va ularni buzgan tashkilotlar moddiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Xalqaro tashkilot o'z ijroiya organlari va xodimlarining huquqqa zid harakatlari uchun javobgar bo'ladi. Masalan, 1965–1967-yillarda BMT Belgiya, Gretsiya, Italiya,

Luksemburg va Shveysariya bilan BMTning Kongodagi harbiy kuchlari operatsiyalari natijasida ushbu davlat fuqarolari va ularning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida bitim tuzildi.

Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslar (davlat fuqarolari, Xalqaro tashkilotlar vakillari va boshqalar) shu jinoyatlari uchun beriladigan jazoni nazarda tutuvchi amaldagi Xalqaro bitimlarga muvofiq Xalqaro jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat (agressiya, kolonializm, irqchilik, genotsid va boshq.) uchun javobgarligi shaxsning jinoiy xatti-harakatlari davlatning jinoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan taqdirda paydo bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarga (qaroqchilik, pul belgilarini qalbakilashtirish, samolyotlarni olib qochish va boshqalar) nisbatan ham joriy etiladi. Mazkur jinoyatlar uchun jismoniy shaxslar, ko'pincha jinoiy guruhlar, davlatdan mustaqil ravishda javobgar bo'ladilar. Mansabdor shaxslar yoki organlarning bunday jinoyatlardagi ishtiroki og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Xalqaro jinoyat subyekti bo'lgan jismoniy shaxslar orasida bosh jinoyatchilar alohida o'rin tutadi. Ularning qatoriga davlat va hukumat rahbarlari, vazirlik va muassasa rahbarlari, oliy harbiy qo'mondonlik kabilar kirishi mumkin. Bu kabi jinoyatchilarning ro'yxati sodir etilgan jinoyatning og'irligi yoki ko'lamini e'tiborga olgan holda belgilanadi.

Bosh jinoyatchilardan tashqari, xalqaro jinoiy javobgarlikka jinoiy buyruqlarni bergan yoki ijro etgan shaxslar va shu bilan bir qatorda o'z tashabbusi bilan jinoyatni sodir etgan shaxslar ham tortilishi mumkin.

Nyurnberg Xalqaro harbiy Tribunali Nizomida va mazkur Tribunalning Hukmida bayon qilingan xalqaro huquq prinsiplari BMT

Bosh Assambleyasi tomonidan 1946-yil 11-dekabrda Resolutsiya bilan tasdiqlangan hamda Tinchlik va insoniyatga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Xalqaro jinoyat sodir etgan jismoniy shaxslarni jazolash huquqi va majburiyati odatda jinoyat qaysi davlat hududida sodir etilgan bo'lsa, o'sha davlatga tegishli bo'ladi. Bu haqda gitlerchilarning sodir etgan yovuzliklari uchun javobgarligi to'g'risidagi 1943-yilgi Deklaratsiyada, Bosh harbiy jinoyatchilarni sud tartibida ta'qib etish va jazolash to'g'risidagi 1945-yilgi Yevropa mamlakatlari bitimi, Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risidagi 1948-yilgi konvensiyaning 6-moddasida qayd etilgan.

Bir qator xalqaro hujjatlar xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni har qanday davlat tomonidan o'z ichki huquqiga asosan jazolay olishini nazarda tutadi.

Ba'zan hududida jinoyat sodir etilgan davlat yurisdiksiyasi maxsus tashkil etilgan xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasi bilan to'ldiriladi. Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risidagi Konvensiyaning 6-moddasida, agar ushbu Konvensiya qatnashchilari mazkur sudning yurisdiksiyasini tan olsalar, xalqaro jinoyat sudi tomonidan sudlanishlari mumkin. Aynan shunday holat Apparteid jinoyatining oldini va olish va jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyaning 5-moddasida ham mustahkamlangan.

Manfaatdor davlatlar tomonidan jinoiy yoki boshqa turdagi javobgarlikka tortiluvchi shaxslarni topshirish (ekstraditsiya) bevosita maxsus bitimni imzolash orqali yoki avval tuzilgan bitimlar, shu jumladan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim doirasida amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyat sodir etganligi uchun xalqaro jinoiy javobgarligi xalqaro huquqning eng muxim normalarini (agressiv urushlarni ta'qiqlash va harbiy jinoyatchilarni jazolash, xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarga qarshi kurashish va shu jinoyatlarni sodir etishda aybdorlarni jazolash va boshqalar) samarali ta'minlashga ko'mak beruvchi hozirgi zamon xalqaro huquqining instituti sifatida umume'tirof etilgan.

Hozirgi kunda jiddiy xalqaro huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgar shaxslarni ta'qib qiluvchi ikki turdagi xalqaro jinoiy sud faoliyat ko'rsatmoqda. Bular 1993–1994-yillarda tashkil etilgan sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun xalqaro tribunallardir. Bundan tashqari 1998-yilda Italiya (Rim)da Xalqaro jinoyat sudi Statuti qabul qilingan

bo'lib, u 2002-yilning iyulida 62 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingach kuchga kirdi.

Xalqaro jinoyat sudlari

Nyurnberg va Tokio Xalqaro harbiy tribunallari.

Nyurnberg tribunall. Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng xalqaro hamjamiyat agressiv urushlarni keltirib chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng og'ir xalqaro jinoyatlarni amalga oshirgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqishga uringan edi. Masalan, Versal sulhi og'ir jinoyatlari uchun Germaniya Kayzerini xalqaro jinoyat sudiga tortish haqida bandga ega edi, ammo bu amalga oshmadi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so'ng va, ayniqsa, fashistlar Germaniyasining sobiq Sovet Ittifoqiga hujumidan so'ng bu urushlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lgan harbiy jinoyatchilarni jazolash g'oyasi ko'pgina xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topdi.

12 davlat hukumatlarining "Gitlerchi hokimiyat tomonidan Yevropaning yahudiylarini qirib tashlashi to'g'risida"gi 1942-yil 18 dekabrda qo'shma deklaratsiyasida, Sovet Ittifoqi va boshqa davlatlar bu jinoyati uchun javobgar shaxslarni haqiqiy jazoga tortish uchun amaliy tadbirlarini tezlashtiradi va Birlashgan Millatlar hamkorligida o'zining tantanali majburiyatini tasdiqlaydi, deb yozilgan edi. Bu holat gitlerchilarning o'z vahshiyliklari uchun javobgarligi to'g'risidagi 1943-yil 30-oktabrdagi Buyuk Britaniya, AQSH va sobiq SSSR hukumatlarining Deklaratsiyasida ham o'z tasdig'ini topdi va bu hujjatda jazoga tortiluvchi shaxslar sifatida aholini yo'q qilish yoki ommaviy qirg'in qilishda aybdor natsistlar partiyasining a'zolari, shuningdek Germaniya soldat va ofitserlari deb belgilandi. 1945-yili uch buyuk davlat Qrim (Yalta) konferensiyasida chiqargan qarorlarda barcha nemis harbiy jinoyatchilarini tezlik bilan adolatli jazoga tortish zarurligi belgilab o'tildi.

1945-yilning iyul-avgust oylarida bo'lib o'tgan uch davlat (SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya)ning Potsdam konferensiyasida nemis harbiy jinoyatchilari, shuningdek natsistlar yo'lbo'shchilari va natsist tashkilotlarining rahbar kadrlari qamoqqa olinib, tezlik bilan adolatli ravishda sud qilinishi haqida kelishib olindi.

Nihoyat, 1945-yilning 8-avgustida Sovet Ittifoqi, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya vakillari o'rtasidagi muzokaralar natijasida Londonda "Yevropa osiy davlatlari bosh harbiy jinoyatchilarining

ishini sudda ko'rib chiqish va jazolash to'g'risida"gi (keyingi o'rinlarda – tribunal) Bitim imzolandi va bu asosda bosh harbiy jinoyatchilar ustidan sud o'tkazish uchun Xalqaro harbiy Tribunal ta'sis etildi va Tribunal tashkil etish tartibini hamda uning faoliyat prinsiplarini belgilab beradigan Nizom qabul qilindi¹.

Tribunal Nizomida uning yurisdiksiyasi ta'riflanib, umumiy prinsiplari belgilab berilgan edi. Tribunal quyidagi ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan nemis harbiy jinoyatchilarini sud qilish va jazolash huquqiga ega edi:

a) *tinchlikka qarshi jinoyat*, ya'ni agressiv urushni rejalashtirish, tayyorlash, olib borish yoki xalqaro shartnomalarni, bitimlarni buzgan holda urush olib borish yoki yuqorida bayon qilinganlarni amalga oshirishga qaratilgan fitnada ishtirok etish;

b) *harbiy jinoyatlar*. ya'ni urush odatlari yoki qonunlarini buzish. Bunday huquqbuzarliklarga bosib olingan (okkupatsiya qilingan) hududdagi aholini o'ldirish, jabr-zulm o'tkazish va qullikka solish, harbiy asirlarni yoki harbiy kuchlarga yordamchi bo'lgan shaxslarni o'ldirish yoki jabr-zulm qilish; garovga olinganlarni o'ldirish; umumiy va xususiy mulkni talash; shahar va qishloqlarni bekordan bekorga vayron qilish; harbiy jihatdan zarur bo'lmagan hollarda kulfatlar keltirib chiqarish va boshqa jinoyatlar;

v) *insoniyatga qarshi jinoyatlar*, ya'ni urushgacha va urush davrida tinch aholini o'ldirish va qirg'in qilish, qullikka solish, surgun qilish yoki boshqacha jabr-zulmlarni amalga oshirish yoki siyosiy, irqiy; diniy asoslarga ko'ra ta'qib qilish yoki Tribunal yurisdiksiyasiga kiradigan har qanday jinoyatlar, ular qayerda amalga oshirilganidan qat'i nazar.

Umumiy reja yoki fitnani amalga oshirishda ishtirok etganlar yoki uning rahbarlari, tashkilotchilari va yordamchilari hamma harakatlari uchun javobgarlikka loyiq deb topildi.

Tribunal Nizomining umumiy prinsiplariga sudlanuvchining jinoyatdagi roli, aybdor shaxs harakatlarini, hukumat farmoyishlari yoki boshliq buyrug'i asosida amalga oshirganligining yuridik ahamiyati va shaxsning yakka tartibdagi javobgarligi bilan sudlanuvchi kirgan ma'lum guruh yoki tashkilotlarning javobgarligiga nisbatini kiritdi.

Tribunal u yoki bu guruh yoxud tashkilotlarning ishini ko'rib chiqishda sudlanuvchi a'zo bo'lgan guruh yoki tashkilotni jinoyiy tashkilot deb tan olishga haqli hisoblandi. Agar Tribunal u yoki bu guruh va tashkilotlarni jinoyiy tashkilotlar deb tan olgan bo'lsa, Tribunalni ta'sis etgan davlatlarning vakolatli milliy hukumat vakillari bu jinoyiy guruh yoki tashkilotlarni sud qilish

huquqiga ega bo'ldilar. Bunday hollarda bu guruh yoki tashkilotlarning jinoiy xarakterga ega ekanligi isbotlangan hisoblanib, ularni oqlashga hech kimning haqi yo'q edi.

Nizom asosida bosh harbiy jinoyatchilarni ayblash va tergov ishlarini olib borish uchun qo'mita tuzildi. Ana shu maqsadda Bitim va Nizom asosida tomonlar o'z bosh qoralovchilarini tayinladilar. Qoralovchilar qo'mita a'zosi sifatida quyidagi maqsadlarga erishish uchun faoliyat olib bordilar:

a) har bir qoralovchining shaxsiy ish rejasi bilan tanishish va ularning shtatini belgilash;

b) Tribunal sudida ishi ko'rib chiqiladigan shaxsni aniqlash;

d) Tribunal Reglamentining loyihasi yuzasidan tavsiyalar tuzish.

Xalqaro harbiy tribunalning Reglamenti va Nizomi turli xil huquqiy tizim protsessual normalarining qo'shilishi natijasida tuzildi: anglo-sakson (AQSH va Buyuk Britaniya), sotsialistik (Sovet Ittifoqi), kontinental (Fransiya). Masalan, tribunal sovetlar uchun xarakterli bo'lgan faol sud prinsipidan foydalandi. Shuningdek, anglo-sakson huquqiga mansub bo'lgan chorraha so'roq qilish usuli ham qo'llanildi. Tribunal anglo-sakson huquqiga ma'lum bo'lgan jinoyat sodir etganligi uchun tashkilotlarning javobgarligi konsepsiyasini ham qo'lladi.

Sudda ish ko'rish 1945-yilning 20-noyabrida boshlandi. Sudda 24 nafar bosh nemis harbiy jinoyatchilarining ishi ko'rib chiqishdi.

Ayblov akti Gitler Germaniyasining quyidagi guruh va tashkilotlarini jinoiy guruh va tashkilotlar deb tan oldi: 1) imperiya ministrlar kabineti; 2) fashistlar partiyasining rahbar tarkibi; 3) fashistlar partiyasining himoya otryadlari (SS), xavfsizlik xizmati (SD); 4) davlat yashirin politsiyasi (gestapo); 5) fashistlar partiyasining hujumchi otryadlari; 6) Germaniya qurolli kuchlarining bosh shtabi va oliy bosh qo'mondonligi (OKB).

Hammasi bo'lib Tribunalning 403 ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Tribunal 3 mingdan oshiq hujjatlar bilan ta'minlanib, 200ga yaqin guvohlarni so'roq qildi. 1946-yilning 1-oktabrida hukm e'lon qilindi. 12 bosh harbiy jinoyatchi osish orqali o'lim hukmiga, uchtasi umrbod qamoq jazosiga hukm etildi, to'rttasi 10-yildan 20-yil muddatgacha qamoq jazosiga tortildi. Tribunal quyidagilarni jinoiy tashkilotlar deb tan oldi: SS, gestapo, SD, natsistlar partiyasining rahbar tarkibi. Tribunal uch harbiy jinoyatchini aybi yo'q deb hisobladi va qoralovchilarning Germaniya qurolli kuchlari bosh shtabi va oliy qo'mondonligi, Gitlerchilar hukumati (SA)ni jinoyatchi tashkilotlar deb tan olish yuzasidan bergan takliflarini rad qildi.

1946-yilning 16-oktabriga o'tar kechasi Tribunal majlislari binosining yaqinida joylashgan qamoqxonada hukm ijro etildi. Qatl qilinganlarning jasadlari kuydirilib, ularning kuli samolyotdan sepib

yuborildi. Ozodlikdan mahrum etilganlar G'arbiy Berlindagi Shpandau qamoqxonasiga joylashtirilib, to'rt ittifoqchi davlatlarning harbiy xizmatchilari nazorati ostida o'zlariga berilgan jazo muddatini o'tadilar.

BMT Bosh Assambleyasi 1946-yilning 11-dekabridagi qarori bilan Nyurnberg Tribunali Nizomi bilan tan olingan va uning hukmlarida o'z aksini topgan xalqaro huquq prinsiplarini tasdiqladi va bu prinsiplar xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquq prinsiplari va normalarining rivojlanishiga muhim ta'sir o'tkazdi va doimiy ahamiyatga egadir.

Tokio Xalqaro harbiy Tribunali. Ma'lumki, 1945-yilning 3-sentabrda Ikkinchi jahon urushi militaristik Yaponiyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Yapon militaristlari xalqlarga qarshi eng og'ir jinoyatlarni sodir etdilar. Shu sababli Potsdam konferensiyasida yapon harbiy jinoyatchilarini jazolash masalasi ham ko'rib chiqildi. Yaponiya tor-mor qilingandan so'ng 1945-yilning dekabrda Moskvada bo'lgan SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlari Kengashi yig'ilishida Uzoq Sharq komissiyasi va Yaponiya uchun ittifoqchilar Kengashini tashkil qilish va ularning vakolatlari doirasini belgilash to'g'risidagi Bitimga erishildi. Uzoq Sharq komissiyasining qarori bilan yapon harbiy jinoyatchilarini qamoqda olish, sud qilish va jazolash masalalari belgilab chiqildi. 1946-yilning 19-yanvaridagi ittifoqchi davlatlarning bosh qo'mondonlari olib borgan muzokaralardan so'ng Uzoq Sharq uchun xalqaro Tribunal Nizomi tasdiqlandi.

Nizomga asosan Tribunal Uzoq Sharqdagi bosh harbiy jinoyatchilarni adolatli ravishda va tezlik bilan sud qilish tuzilgan edi. Tokio Tribunaliga 28 nafar Yaponiya davlatining rahbar arboblari topshirildi. Tribunal 25ta sudlanuvchiga nisbatan ayblov hukmini e'lon qildi, ularning 7tasini osish orqali o'lim jazosiga, 16tasini umrbod 2tasini 20 va 7 yil ozodlikdan mahrum etishga hukm 1948-yilning 22-dekabrda o'lim jazosi berilganlar ustidan hukm ijro etildi.

Nyurnberg Tribunali kabi Tokio Tribunali ham xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi xalqaro huquq prinsiplari va normalarining rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun Xalqaro jinoyat Tribunalallari. Ruanda va sobiq Yugoslaviya hududidagi mojarolar mobaynida xalqaro gumanitar huquq normalarining qo'pol va ommaviy ravishda buzilishi juda ko'p kishilarning o'limi BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan 1993–1994-yillarda ikkita xalqaro tribunalning ta'sis etilishiga olib

keldi. Ular quyidagicha nomlandi: 1991-yildan boshlab sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi uchun javobgar bo'lgan shaxslarni sud orqali taqib qilish bo'yicha xalqaro jinoyat Tribunali, Ruanda hududida sodir etgan genotsid va xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzganligi uchun javobgar bo'lgan shaxslarni va 1994-yilning 1-yanvaridan 31-dekabrighacha Ruanda fuqarolari tomonidan sodir etilgan genotsid va boshqa shunga o'xshash jinoyatlar uchun sud orqali ta'qib etish bo'yicha xalqaro jinoyat Tribunali¹.

Tribunallar nomlanishining o'zi – shaxslarga oid, hududiy, muvaqqat, bizga ularning yurisdiksiyasi haqida tasavvur qilish imkonini beradi.

Tribunallar favqulodda tartibda ta'sis etildi, ya'ni BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan. O'z qarorini asoslash uchun Xavfsizlik Kengashi BMT Ustavining UP bobiga murojaat qildi. Bu bob agressiya aktlari, tinchlik buzilganda, tinchlikka tahdid solinganda, Kengashning vakolatlariga bag'ishlangan. Unda harbiy jinoyatchilarni jazolash tinchlikni tiklash va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, deb ko'rsatib o'tiladi.

Kengash vakolatlarining yanada to'laroq asoslanishi BMT Bosh kotibining ma'ruzasida ifoda etilgan¹. Unda aytilishicha, shartnomalar tuzish orqali tribunallarni tashkil etish ko'p yillarga cho'zilishi va oxir-oqibatda uning kuchga kirishi uchun zarur bo'ladigan ratifikatsiyalarni yig'ish mumkin bo'lmas edi. Shuning uchun tribunallarni ta'sis etishning yagona imkoniyati BMT Ustavi VII bobi asosida Xavfsizlik Kengashining yuridik kuchga ega qarorlari edi.

Sobiq Yugoslaviya uchun Tribunal yurisdiksiyasiga uning Nizomi "xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishini" kiritdi. Bu yerda gap umume'tirof etilgan odat normalari o'z izohini topgan. Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi 1949-yilgi Jeneva Konvensiyalarini va 1907-yilgi VI Gaaga Konvensiyasida va unga qo'shimcha protokollarda o'z aksini topgan urush olib borish qoidalari to'g'risidagi normalar ustida bormoqda. Tribunal yurisdiksiyasiga genotsid va insoniylikka qarshi jinoyatlar ham kiritildi.

Ruanda uchun ta'sis etilgan Tribunal, xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarda sodir etilgan jinoyatlarni ko'rib chiqqanligi uchun bu yerda qo'llaniladigan gumanitar huquq Yugoslaviya uchun tuzilgan Tribunaldagidan farq qiladi. Bu yerda birinchi o'rinda genotsid, keyin insoniylikka qarshi jinoyatlar,

shuningdek xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlarga taalluqli bo'lgan normalarga ega 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining umumiy 23-moddasi va 1977-yilgi bu konvensiyalarga qo'shimcha II protokoldagi normalar turadi.

Jeneva huquqiga qarshi, ya'ni urush qurbonlariga nisbatan jinoyatlarga Yugoslaviya uchun tuzilgan Tribunal Nizomida quyidagilar ko'rsatib o'tildi: qasddan o'ldirish; qiynashlar va biologik tajribalar; qasddan azobga solish yoki sog'liqqa jiddiy zarar yetkazish; harbiy zaruratsiz mulkni ommaviy ravishda vayron qilish va egallab olish; harbiy asirlar yoki fuqaroviy shaxslarni adolatli sudlov huquqidan ataylab mahrum qilish; fuqaroviy shaxslarni qonuniy deportatsiya qilish yoki qamash; garovga olish.

Ruanda uchun Tribunal Nizomi xalqaro xarakterga ega bo'lmagan to'qnashuvlarga taalluqli Jeneva huquqiga qarshi jinoyatlarning to'liq ro'yxatini qamrab olmasdan, quyidagilarga to'xtalib o'tadi: shaxsning hayotiga, sog'lig'iga, jismoniy va ruhiy holatiga nisbatan zo'rlik ishlatish, jumladan, o'ldirish, qattiqo'llik bilan munosabatda bo'lish (qiynash, mayib qilish); kollektiv jazo qo'llash; garovga olish; terrorchilik harakatlari; shaxs qadr-qimmatini yerga urish, jumladan, kamsitish, nomusga tegish, fohishalikka majbur qilish va hokazolar; talonchilik; sud qilmasdan hukm chiqarish va hukmni ijro etish. Yuqorida sanab o'tilgan qilmishlarni sodir etish bilan tahdid qilish esa alohida jinoyat hisoblanadi.

Urush qonunlari va odatlariga qarshi jinoyatlar qatoriga sobiq Yugoslaviya uchun Tribunal Nizomi quyidagilarni kiritdi: qo'shimcha azob-uqubatlar yetkazishga mo'ljallangan qurol yoki zararli moddalarni qo'llash; harbiy zaruratsiz shahar va qishloqlarni vahshiyona tarzda yo'q qilish; himoyasiz shaqar va qishloqlarni yoki binolarni bombardimon qilish yoxud ularga hujum qilish; diniy, hayriya yoki ta'lim maskanlariga, shuningdek fan va san'at asarlariga qasddan zarar keltirish yoki ularni vayron qilish; xususiy yoki umumiy mulkni talash. Yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlar soni to'liq emas. Ikkala Nizomda ham genotsid jinoyatiga ta'rif Genotsid jinoyatining oldini olish va uchun jazolash to'g'risidagi 1948-yilgi konvensiyaga asosan berilgan.

Sobiq Yugoslaviya uchun Tribunal ikkita sud va bitta appelyasiya kamerasidan, qoralovchi va kotibdan iborat. Jami 11 sudya bo'lib, har bir sud kamerasida uch sudya va apellyasiya kamerasida besh sudya

mavjud. Kuch va vositalarni tejash maqsadida sobiq Yugoslaviya uchun Tribunalning apellatsiya kamerasi Ruanda uchun Tribunalda ham ishtirok etadi.

Sobiq Yugoslaviya uchun Tribunalning doimiy qarorgohi Gaaga shahri (Niderlandiya Qirolligi)dadir. Ruanda uchun Tribunalning qarorgohi esa Arusha shahri (Tanzaniya)da. Tribunallar BMTning doimiy budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Tribunallarning birinchi darajali ahamiyatga ega faoliyati davlatlar bilan hamkorlik qilish va ularga *huquqiy* yordam ko'rsatishdir. BMT Bosh kotibining fikricha, Xavfsizlik Kengashining qarorlari Nizomning VII bobiga asosan barcha davlatlarga qarorlarni amalga oshirish uchun butun choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi. Tribunallar Nizomiga asosan davlatlar sud orqali ta'qib qilish va tergov masalalarida Tribunal bilan hamkorlik qiladilar.

Davlatlar sud kameralarining yordam berish to'g'risidagi iltimosini yoki buyruqlarini hech bir kechiktirmay bajarishlari, jumladan, quyidagi harakatlarni: shaxsning kimligi va turar joyini aniqlash; guvohlarning ko'rsatmalarini olish va dalillar yig'ish; hujjatlarni berish; ushlash yoki qamoqqa olish; aybdorlarni Tribunallarga topshirish kabilarni bajarishlari lozim.

Bu qoidalar bilan birga yuridik muammolar ham paydo bo'ldi. Ko'pgina davlatlarning qonunchiligiga ko'ra, huquqiy yordam ko'rsatish uchun, jumladan, jinoyatchini ushlab berish uchun ma'lum bir xalqaro shartnomalar zarur bo'ladi. Xavfsizlik Kengashining qarorlari davlatlarga yuridik majburiyat yuklasa-da, lekin ular o'z-o'zidan bajariladigan mexanizmga ega emas. Bu davlatlar qarorlarni bajarishlari uchun o'z davlatlarida ma'lum bir normativ aktlarni qabul qilishlari kerak bo'ladi. Bir qancha Yevropa davlatlari sobiq Yugoslaviya uchun Tribunal bilan hamkorlikda ma'lum bir darajaga erishgan bo'lsalarda, Afrikada bu vazifa hal etilmadi, shuning uchun Ruanda uchun Tribunal muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'ldi. Bularning barchasi sudyalarni tanlashga va ularning o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabatlariga ham ta'sir qilmay qolmadi. BMT ekspertlarining ma'ruzasida Tribunalning ish faoliyati qoniqarsiz deb tan olindi. Ma'ruzada, jumladan, Tribunalning asosiy rahbar shaxslari va qoralovchi byurosi o'z majburiyatlarini samarali bajarmaganligi qayd etib o'tildi.

Tribunallar va milliy sudlar xalqaro gumanitar huquqni jiddiy buzgan shaxslarga nisbatan sudda ish yuritish bo'yicha parallel yurisdiksiyaga egadirlar. Bu nafaqat jinoyat sodir etilgan davlatning, balki har qanday davlatning sudlari xalqaro gumanitar huquq normalarini buzgan shaxslarning

ishini ko'rib chiqish huquqiga ega. Boshqacha aytganda, universal yurisdiksiya o'rnatilgan demakdir. Bu qoida jiddiy ahamiyatga ega, chunki tribunal barcha ishlarni ko'rib chiqishga ulgurmaydi.

Xalqaro jinoyat sudi. Xalqaro jinoyat sudi g'oyasi tom ma'noda uzoq tarixga ega emas. Huquq tizimi mavjud ekan, uning harakati jinoiy-huquqiy vositalar bilan ta'minlanmog'i lozim. Nyurnberg harbiy Tribunali chiqargan hukmlarda xalqaro jinoyatlarni davlatlar emas, balki kishilar sodir etadi, deb qayd etib o'tildi.

Bu qoidaning ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, lekin unchalik to'g'ri emas. Xalqaro huquq davlatlar tomonidan ham buzilishi mumkin. Masalan, agressiya bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan jinoyatdir. Ammo bu yerda javobgarlikka davlatgina emas, balki uning ma'lum qarorlarini qabul qilgan davlat rahbarlari ham tortiladi. Bunda javobgarlik turlichadir. Davlat xalqaro-huquqiy javobgarlikka, jismoniy shaxs esa xalqaro jinoiy-huquqiy javobgarlikka tortiladi.

1914-yilda Yugoslaviya qiroli Aleksandr I Fransiyaga tashrifi chog'ida Fransiya Tashqi ishlar vaziri L.Toaftu bilan kollektiv xavfsizlik tizimini yaratishga erishadilar, ammo ular xorvat terrorchilari tomonidan o'ldiriladi. Jinoyat izlari Berlin va Rimga borib taqaladi.

Dunyo hamjamiyati xalqaro terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishni, xalqaro jinoyat sudlarini tashkil qilishni talab etdi. Ana shunday sharoitda Millatlar Ligasi Terrorizmning oldini olish va uchun jazolash to'g'risida 1937-yilgi Konvensiyani qabul qildi. Konvensiyaga xalqaro jinoyat tribunali Statuti kiritilgan edi. Ammo faqat birgina davlat (Hindiston) Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro harbiy tribunallarning tashkil etilishi ancha muvaffaqiyatli bo'ldi, ammo ular ham bir guruh davlat tomonidan ikkinchi bir davlatlarning rahbarlari ustidan sud o'tkazish uchungina tuzildi. Shuning uchun Nyurnberg va Tokiodagi sud jarayonlari g'oliblar mag'lublar ustidan o'tkazgan sud deb nomlanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi ko'pgina konvensiyalardan faqat ikkitasigina (genotsid va aparteid to'g'risida)gi xalqaro jinoyat sudini tuzish imkoniyatini ko'rib chiqadi. Shunisi quvonarliki, 1948-yili BMT o'z faoliyatini boshlagan chog'ida, Bosh Assambleya Xalqaro huquq komissiyasiga xalqaro jinoyat sudlarini tuzish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni taklif qildi. Komissiya 1994-yili xalqaro jinoyat sudi nizomining Loyihasi ustida ishni tamomlab, Bosh Assambleyaga Konvensiyani qabul qilish uchun konferensiya chaqirishni tavsiya qildi¹.

Xalqaro huquq komissiyasining loyihasidan foydalangan holda

BMTning Xavfsizlik Kengashi sobiq Yugoslaviya va Ruanda uchun xalqaro Tribunallarni ta'sis etdi. Bu Tribunallar ham bir guruh davlatlar boshqa bir davlatlarning fuqarolarini sud qilish uchun tuzilgan deb xulosa qilishimizga imkon beradi.

Bu harakatlar barcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan xalqaro jinoyat sudini ta'sis etish uchun asos yaratmoqda. Bu g'oyani amalga oshirish uchun sezilarli darajada ahamiyatga ega bo'lgan holat shu bo'ldiki, bugun xalqaro hamjamiyat va xalqaro huquqning rivojlanishi shunday darajaga etdiki, bunda xalqaro jinoyat sudini tashkil etish haqiqatga yaqin bo'lib qoldi.

1998-yilning 17-iyulida Rimda Diplomatik konferensiyaning muxtor vakillari BMT homiyligida Xalqaro jinoyat sudining Rim Statutini qabul qildilar. Konferensiya ishida 160 davlatning delegatlari ishtirok etdi. Statutni qabul qilish uchun 120ta davlat ovoz berdi, 21 davlat betaraf qoldi va 7tasi qarshi ovoz berdi. Rim konferensiyasida sudning vakolatlarini kamaytirish tarafdori bo'lib bir qancha davlat vakillari faol qatnashdilar. Ular sudning yurisdiksiyasiga faqat genotsid jinoyatini sud qilish vakolatini qoldirishni yoqlab chiqdilar.

Sud xalqaro hamjamiyatga qarshi qaratilgan eng jiddiy jinoyatlarni amalga oshirgan shaxslarni sud qiladigan doimiy organ sifatida ta'sis etildi. Bu yerda Statutda keltirilgan jinoyatlar haqida so'z borishi mumkin. Xalqaro jinoyat sudi davlatlarning sudlarini yo'qa chiqarmaydi. Xalqaro jinoyat sudi davlatlarning sudlari yurisdiksiyasini to'ldiruvchi vosita bo'lib qoladi.

Sud o'z funksiyasini Statutda ishtirok etuvchi har qanday davlat hududida maxsus bitimga erishilgan bo'lsa, boshqa har qanday davlatning hududida amalga oshirishi mumkin.

Sud mustaqil xalqaro organdir. U xalqaro huquqning subyekti hisoblanadi. Sudning BMT bilan munosabati BMT bitimlari bilan tartibga solib turiladi. Sud Gaaga shahrida (Niderlandiya Qirolligi) qo'nim topadi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, BMTning Xalqaro huquq komissiyasi Loyihasida agressiya to'g'risida gap ketganda, Sudni Xavfsizlik Kengashiga bog'lagan qoida ham mavjud edi. Bir qancha davlatlar bunday bog'lanishga qarshi chiqdilar, chunki Xavfsizlik Kengashi a'zolari bilan unga a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasida tengsizlik mavjud bo'ladi, shuningdek uning doimiy a'zolarida veto huquqi bor edi. Ana shundan so'ng bu qoida olib tashlandi. Statut katta hajmga ega (126 moddadan iborat) murakkab hujjatdir. Buning bir qancha sabablari bor. Chunki Statutda jinoyat

huquqiga, jinoyat-protsessual huquqiga, sudda ish yuritishga oid sud faoliyatini ta'minlovchi davlatlarning hamkorligiga bag'ishlangan qoidalar mavjud. Statutning murakkabligi unda ishtirok etuvchi davlatlar pozitsiyalarining qarama-qarshiligiga ham bog'liqdir. Sudning yurisdiksiyasi xalqaro hamjamiyat manfaatlariga daxldor bo'lgan eng jiddiy jinoyatlar bilan cheklanmagan. Bu quyidagi jinoyatlar: genotsid, insoniylikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va agressiya.

Yana shuni eslash joizki, Xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning fikrlarini hisobga olib, Loyihadan "Xalqaro huquq bo'yicha jinoyatlar", degan umumiy iborani olib tashladi. Buning o'rniga jinoyatlar alohida sanab o'tildi: genotsid, agressiya, urush qonunlari va odatlarini jiddiy buzish va insoniylikka qarshi jinoyatlar. Umuman olganda, jinoyatlar doirasi urushdan keyingi tuzilgan xalqaro tribunallar nizomlarida belgilangan jinoyatlar doirasi bilan bir xil bo'lib chiqdi. Bu jinoyatlar ro'yxati Sud uchun to'liq deb hisoblanadi.

Statutda sanab o'tilgan jinoyatlar tarkibi to'liq ko'rsatilgan. Bunda shu narsa qayd etib o'tiladiki, insoniylikka qarshi jinoyatlar "fuqaroviy shaxslarga keng miqyosda doimiy ravishda bosqinchilik uyushtirib" turgan bo'lsagina Sudning yurisdiksiyasiga o'tadi. Harbiy jinoyatlar – "reja yoki siyosat asosida yoxud bunday jinoyatlar keng miqyosda sodir etilgan bo'lsa" Sud yurisdiksiyasiga kiradi.

Xalqaro xarakterga ega bo'lmagan qurolli mojarolar davrida sodir etilgan harbiy jinoyatlar ham sud yurisdiksiyasiga kiritildi. Bunda shu narsa qayd etildiki, bu hukumatlarning davlatdagi tartib-qoidani tiklash uchun yoki o'z davlatining birligi va hududiy yaxlitligini barcha qonuniy vositalar bilan himoya qilganida javobgarlikka tortilishiga daxldor bo'lmaydi.

Statut jinoyat huquqining umumiy prinsiplariga bag'ishlangan maxsus bo'limga ega. "Bir jinoyat uchun ikki marta sud qilish mumkin emas" degan prinsip bu bo'limga kiritilgan emas. Sababi shundaki, juda ko'pchilik yuristlar bu prinsipni protsessual huquqqa kiritadilar.

Sud jinoyat sodir etgan vaqtda 18 yoshga to'lmaganlarni sud qilish yurisdiksiyasiga ega emas.

Milliy yoki xalqaro huquq bo'yicha daxlsizlik (immunitet)ga ega mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilganida ularning daxlsizligi to'sqinlik qilmaydi degan qoidaning mavjudligi muqim ahamiyatga ega.

Statut shaxslarning rasmiy maqomidan, u hukumat yoki davlat boshlig'i bo'ladimi, hukumat yoki parlament a'zosi bo'ladimi, bundan

qat'i nazar, bir xil qo'llanilishi lozim.

Shaxsning rasmiy maqomi hukmni yengillashtirishga ham asos bo'la olmaydi. Statut rahbar va boshqa boshliqlarning nazorati ostida bo'lgan shaxslarning jinoiy qilmishi uchun ham jinoiy javobgarlik o'rnatadi.

Hukumat yoki boshliqning buyrug'i bo'yicha sodir etilgan jinoyatlar shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etmaydi. Ammo bu umumiy qoidalarda istisnolar ham mavjud bo'lib, ular bu qoidalarning ahamiyatini pasaytiradi. Bu qoida quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi: agar shaxs yuridik jihatdan buyruqqa bo'ysunishga majbur bo'lsa; agar shaxs buyruqning noqonuniy ekanligini bilmagan bo'lsa; agar buyruq noqonuniy berilgan bo'lsa.

Sud tarkibiga quyidagi organlar kiradi: Rayosat, Apellatsiya bo'linmasi, Sud bo'linmasi, Dastlabki ish yuritish bo'linmasi, Prokuror Devoni va Kotibiyat.

Sudda 18 nafar sudya mavjud. Ular saylangani zahotiyiq, agar zarurat tug'ilsa, o'z majburiyatlarini bajarishga tayyor bo'lmoqlari lozim. Bundan farqli ravishda, Rayosatni tashkil etgan sudyalari eng boshidan, doimo o'z majburiyatlarini bajaradilar.

18 sudya BMT Xalqaro sudining sudyalari singari 9-yillik muddatga Statutning ishtirokchi davlatlari tomonidan saylanadilar. Ammo ulardan farqli ravishda yangi muddatga qayta saylana olmaydilar.

Prokuror devoni Sud tarkibida mustaqil organ bo'lib, jinoyat ishlari bo'yicha ta'qibni amalga oshirishga javobgar hisoblanadi. Ularning mustaqilligi shundaki, prokuror va uning o'rinbosarlari Sud tomonidan emas, Statutning ishtirokchi davlatlari tomonidan 9-yillik muddatga saylanadi. Qaytadan saylanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kotibiyat ma'muriy funksiyalarni amalga oshiradi. Kotib sudyalari tomonidan 5-yillik muddatga saylanadi.

Sudyalari, prokuror va uning o'rinbosarlari, sud kotibi o'z majburiyatlarini bajarishda diplomatik daxlsizlikdan foydalanadilar. Sudda ish ingliz va fransuz tilida olib boriladi, rasmiy tillar ega ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari hisoblanadi.

Muhim protsessual xarakterga ega aktlar sifatida Sud Reglamenti, protsedura qoidalari va ish olib borishda isbotlash qoidalari hisoblanadi. Qoidalarni Statut ishtirokchi davlatlarining Assambleyasi qabul qiladi. Kun tartibi (Reglament) sud tomonidan belgilanadi. Sud Gaaga shahrida majlis qiladi, ammo qaror asosida boshqa joyda ham o'z

majlisini o'tkazishi mumkin. Sud jarayoni aybdorning ishtirokida va ochiq holda o'tkaziladi.

Sud haqiqatni aniqlash uchun zarur deb hisoblaydigan barcha ashyoviy dalillarni qabul qilib olish huquqiga ega.

Sud dalillarni har tomonlama o'rganib chiqib, guvohlarning ko'rsatmalarini adolatli baholashga yoki sud jarayonini adolatli ravishda amalga oshirishga zarar keltiradigan dalillarni inkor etib, sud ishining adolatli bo'lishiga yordam beradigan dalillarni esa qabul qilish haqida qaror chiqarishi mumkin.

Statut odil sudlovga qarshi jinoyatlarga nisbatan Sudning yurisdiksiyasini ham belgilab beradi. Ular quyidagilar: a) yolg'on ko'rsatma berish; b) yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan dalillarni taqdim etish; d) guvohlarni qo'rqitish yoki sotib olish, dalillarni yig'ishga to'sqinlik qilish; e) sudning mansabdor shaxsini sotib olish yoki qo'rqitish. Ana shunday jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlasa, sud ularga jarima solish yoki besh yilgacha ozodlikdan maxrum etish jazosini qo'llashi mumkin. Har bir ishtirokchi davlat odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z qonunlarida aks ettirishi lozim. Agar Xalqaro jinoyat sudiga nisbatan jinoyatlar biror-bir davlat hududida yoki uning fuqarosi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, sud talabiga ko'ra, davlatlar bunday jinoyatlar bo'yicha ish'arni o'zlarining sudida ko'rib chiqishga majburdirlar.

Sud quyidagi jazolardan birini tayinlashi mumkin: a) o'ttiz yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum etish; yoki b) ozodlikdan mahrum qilingan shaxs jinoyatining o'ta og'irligiga qarab umrbod qamoq jazosiga hukm qilish. Qo'shimcha ravishda jarima solish to'g'risida qaror qabul qilish mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish yoki oqlash to'g'risidagi sud palatasining qarori prokuror tomonidan quyidagi asoslar bo'yicha Apellatsiya palatasiga shikoyat qilishi mumkin: protsessual faktlardagi va huquqdagi xatolar uchun. Xuddi shunday asoslar uchun aybdor shaxs yoki uning nomidan prokuror shikoyat qilishi mumkin. Prokurorning shikoyati uchun asos bo'lib, sud jarayoni yoki qarorining adolatli yoki asosli bo'lishiga halaqit beradigan har qanday holat xizmat qilishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat bilan berilgan jazo o'rtasidagi nomutanosiblik asosida ham aybdor shaxs yoki prokuror chiqargan hukm ustidan shikoyat qilishi mumkin. Shikoyatlar bo'yicha qaror chiqarishda apellatsiya palatasi sud palatasining hamma vakolatlaridan

foydalanadi. Apellatsiya palatasi qaror yoki hukmni o'zi qaytadan ko'rib chiqishi yoki sud palatasidan boshqa sudlar ishtirokida ishni qaytadan ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Noqonuniy qamoqqa olingan yoki ushlangan shaxs kompensatsiya olish huquqiga egadir.

Statut ishtirokchi davlatlari sud yurisdiksiyasiga kiradigan jinoyatlarni tergov qilishda va aybdorlarni jazolashda sud bilan hamkorlik qilishga majburdir (86-modda). Davlatlar milliy huquqlarida sud bilan ana shunday hamkorlik normalari mavjud bo'lishini ta'minlaydilar.

Shaxsni sudga berishda ixtisoslashish prinsipiga rioya qilinadi. Uning mazmuni quyidagichadir: Sudga berilgan shaxs sudga berishgacha bo'lgan yurish-turishi uchun ta'qib etilmasdan u nima sababdan sudga berilgan bo'lsa o'sha ish yuzasidan javob bermog'i lozim bo'ladi. Shuningdek, sud shaxsni sudga berayotgan davlatning tartib-qoidasini ham rad etish huquqiga ega (101-modda).

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazoni shaxs sud tomonidan belgilangan davlatlarning birida o'taydi. Jazoni o'tashni belgilashda sud quyidagilarni hisobga oladi: a) davlatlar o'rtasidagi majburiyatni adolatli taqsimlash; b) davlatlarning mahkumlar bilan munosabatida standartlarga rioya qilish; d) mahkumning xohishi va fuqaroligi.

Xalqaro jinoyat sudi mahkumning ahvoli xalqaro shartnomaviy standartlarga javob berishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Jazoni o'tash davrida shaxs jazoni o'tashga qadar sodir etgan qilmishi uchun hech bir jinoiy ta'qibga yoki jazoga uchramasligi, shuningdek jazo o'tayotgan davlatdan boshqa bir davlatga berib yuborilmasligi kerak.

Jazo o'tab bo'lgandan keyin shaxs o'z davlatiga yoki bo'lmasa, uni qabul qilishga rozi bo'lgan davlatga qaytarilishi kerak. Bunda shaxsning xohishi hisobga olinadi (108-modda). Ishtirokchi davlatlar o'z milliy huquqlariga asosan Sud qarorida zikr etilgan jarimalarni undirish va mol-mulkni musodara qilishni ta'minlashlari lozim.

Shunday qilib, Xalqaro jinoyat sudining ta'sis etilishi xalqaro jinoyat huquqining rivojida yangi bir bosqich bo'ldi. Shu bilan birga, kelajakda ham xalqaro jinoyat huquqini qo'llashda asosiy rol milliy sudlarga tegishli bo'ladi. Xalqaro jinoyat sudining bir o'zi xalqaro jinoyatlarning barchasiga bas kela olmaydi. Buni sobiq Yugoslaviya uchun xalqaro Tribunal faoliyatining tajribasi ham tasdiqladi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro huquqiy javobgarlik bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
2. Xalqaro huquqiy javobgarlik va xalqaro jinoyat o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Xalqaro huquqiy javobgarlik bilan bog'liq qanday xalqaro hujjatlarni bilasiz?
4. Xalqaro huquqiy javobgarlik bilan shug'ullanuvchi qanday xalqaro institutlar mavjud?

Kazuslar

1. 2000-yil 13-iyunda S. davlat parlamenti "1940-1941-yillardagi S. davlat okkupatsiyasi davrida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida" qonun qabul qilgan. S. davlati tashqi ishlar vaziri janob A. da'voning umumiy summasi 20 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi deb ta'kidlagan.

Ikkinchi jahon urushiga qadar S. davlatida botqoqlikdagi boshqa hech narsa bo'lmagan.

Nemislar okkupatsiyasidan ozod etilganidan so'ng S. davlatiga boshqa respublikalardan xarobaga aylangan bir qator shaharlarini qayta tiklash uchun ishchi kuchini olib kelishga to'g'ri kelgan. Okkupantlardan xalos bo'lishi bilanoq S. davlatiga sovet hukumati tomonidan 200 mln. rubl beg'araz dotatsiya yordami berilgan.

Agar S. davlati R. davlatiga nisbatan da'vo bilan chiqsa, R. ham qarshi da'vo bilan chiqib, o'z yerlarini qaytarish, Rossiya xalqiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplab berish, S.ga kirgizilgan ko'p milliardlik investitsiyalarni qaytarishni talab qilishi mumkin. Qolaversa S. davlatining birinchi oltin yig'imi 1920-yilda ochiq qolgan R. taqdim etgan 3 mln. oltin rubl hisobiga shakllantirilgan.

1. S. davlat parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun R. davlati tomonidan unga yetkazilgan moddiy zararni qoplash uchun yuridik asos bo'la oladimi?

2. S. davlati hozirda mavjud bo'lmagan davlat R. davlati tashkil etilgunga qadar mavjud bo'lib kelgan F. davlati ustidan o'ziga yetkazilgan zararni qoplashni so'rab R. davlatidan talab qilishi asoslimi?

2. Kosmik yo'ldosh orbitadan chiqib ketdi. Natijada Y. davlati hududiga qulab tushdi va tegishli zarar yetkazdi. Jabr ko'rgan davlat

zararni qoplash yuzasidan e'tirozini bildirdi. Kosmik yo'ldoshni uchirgan davlat o'zining hech qanday noqonuniy harakat sodir etmaganligini, obyektiv sabablarga ko'ra yo'ldosh qulab tushganligini e'tirof etib, zararni qoplash borasidagi vaji o'rinsiz ekanligi bildiradi.

1. *Xalqaro huquqqa ko'ra kosmik yo'ldoshni uchirgan davlatning harakatlari huquqbuzarlik hisoblanadimi?*

2. *Y. davlatining kosmik yo'ldoshni uchirgan davlatga nisbatan e'tirozi haqqoniyimi? Agar ha bo'lsa, mazkur davlatga nisbatan tegishli bo'lgan javobgarlikka tortish mexanizmini aniqlang.*

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.б. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

3. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислоом Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи / Халқ сўзи. – 2010. – 21 сентябрь.

4. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – 2010. – 12 ноябрь.

5. Президент Ислоом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси / Халқ сўзи. – 2015. – 24 январь. – №16 (6199).

6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunlari bo'yicha brifingda so'zlagan nutqi. 30.06.2016. <http://press-service.uz/uz/news/5291/>.

7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2014.

8. 2012-yil 10-sentabrdagi O‘RQ–330-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – №9/1 (1437).

9. BMT Nizomi. 1945-yil. <http://www.un.org/>.

10. Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T., 2002.

11. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006.

12. Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. – New York: Cambridge University Press, 2008.

X BOB. DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI

Mazkur bobda diplomatik huquq tushunchasi, predmeti va tizimi, diplomatik huquqning manbalari, davlatlarning tashqi aloqa organlari tizimi hamda diplomatik immunitet va imtiyozlar, maxsus missiya huquqi, konsullik huquqi tushunchasi va manbalari, konsullik muassasalarining funksiyalari to'g'risidagi jihatlari atroflicha tahlil qilingan.

Diplomatik huquq tushunchasi, predmeti va tizimi

Diplomatik huquq – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi aloqalar tartibiga taalluqli prinsip va normalarni o'z ichiga olgan xalqaro huquqning sohasidir. Shu bilan birga, diplomatik huquq xalqaro huquqning qadimiy va alohida mustaqil sohasidir. Diplomatik va konsullik huquqini bir-biridan farqlash maqsadga muvofiqdir, chunki ularning oxirgisi davlatlararo munosabatlarning maxsus va yetarli darajada tor sohasini ifodalaydi.

Shuningdek, diplomatik huquq xalqaro-huquqiy normalarning nisbatan mustaqil tizimi bo'lib, xalqaro munosabatlarda davlatlar vakilligini tartibga soladi. Mazkur munosabatlarning ishtirokchilari davlatlarning o'zlari bo'lib, ushbu xalqaro munosabatlar huquqiy munosabatlar xarakterini oladi. Tegishli diplomatik muassasalar funksiyasi o'z davlati manfaatlarini u ishtirok etayotgan turli xalqaro (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) munosabatlarda himoya qilishdir.

Diplomatik huquq garchi cheklangan doiralarda bo'lsa-da, konsullik munosabatlarini ham qamrab oladi.

Diplomatik huquq, avvalambor, davlatning tashqi aloqa idoralarining huquqiy holati va faoliyati hamda hukumatlararo tashkilotlarning va ularning xodimlari imtiyoz va immunitetlari masalalarini tartibga soladi.

Diplomatik huquq "tashqi aloqalar huquqi" deb nomlash lozim bo'lgan xalqaro huquq institutining bir qismidir, chunki xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarda nafaqat davlatlar, balki boshqa subyektlar, xususan, xalqaro tashkilotlar – universal, mintaqaviy va mahalliy, xalqaro organlar va o'z tashqi aloqalarini ular nomidan qatnashuvchi tuzilmalar orqali ifoda etuvchi boshqa xalqaro institutlar ishtirok etadi.


E'tibor qarating!

Tashqi aloqalar huquqi xalqaro-huquqiy normalarning shunday tizimiki, u xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari vakilligini tartibga soladi.

Bu asosan odat normalari sanaladi. Biroq universal xarakterdagi konvensiyalar (*masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi 1946-yilgi konvensiya va Ixtisoslashgan muassasalar imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi 1947-yilgi konvensiyasi*) ham mavjud.

E'tibor qarating!

Diplomatik huquq – davlatning tashqi aloqalari sohasida faoliyat yurituvchi organlari maqomi va funksiyalarini tartibga soluvchi normalar yig'indisini ifodalovchi xalqaro huquq sohasidir.



Diplomatik huquq xalqaro huquqning eng qadimiy sohasidir. O'tmishda boshqa davlatlarga vaqti-vaqti bilan yuboriladigan elchilar instituti mavjud bo'lgan. Shu bilan bir qatorda diplomatik aloqa asoslari, dastlab elchilarning daxlsizligi to'g'risidagi normalar yuzaga keldi. Yevropada XVI–XVIII asrlarda doimiy diplomatik vakolatxonalarining vujudga kelishi bilan asta sekin diplomatik huquq rivojlana bordi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar diplomatik va konsullik huquqi asosan odat normalaridan tashkil topgan edi. Yagona umumiy xarakterga ega bo'lgan hujjat 1815-yilgi diplomatik vakillarning darajalari to'g'risidagi Vena protokoli (reglamenti) hisoblanadi. Mazkur Reglamentning normalari vaqt o'tishi bilan bilan umume'tirof etilgan normalarga aylandi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng diplomatik va konsullik huquqining progressiv taraqqiyoti va kodifikatsiyasi maqsadida bir qator xalqaro


konvensiyalar" tuzildi. Bular amaldagi: 1961-yilda qabul qilingan Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi; 1969-yilda qabul qilingan Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiya; 1975-yilda qabul qilingan Davlatlarning universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlaridagi vakilligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi; 1963-yilda qabul qilingan Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasidir.

Ulardan tashqari, xalqaro tashkilotlarning imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi tegishli qoidalar odatda, ushbu tashkilotlarning nizomlarida bo'ladi. BMT va ixtisoslashtirilgan muassasalarga taalluqli ikkita asosiy konvensiya, ya'ni 1946-yilgi BMT imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi Konvensiya hamda 1947-yilgi BMT ixtisoslashtirilgan muassasalarining imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi Konvensiya harakatdadir.

Ko'pgina davlatlarda diplomatik va konsullik vakolatxonalar to'g'risidagi qonunchiliklari mavjud. *O'zbekiston Respublikasida ham "O'zbekiston Respublikasining diplomatiya daraja va martabalarini belgilash to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxona rahbarlarini chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi" to'g'risidagi qonunlari shular jumlasidandir.*


Diplomatik huquqning manbalari

Xalqaro huquqning sohasi bo'lmish diplomatik huquqda manbalar, xalqaro manbalari sifatida umumiy tasnifga egadir. Binobarin, xalqaro huquq manbalari tushunchasi bilan diplomatik va konsullik huquqi manbalarining bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari va o'ziga xosliklari mavjuddir. Huquqiy manbalar huquq paydo qiluvchi xususiyati, huquqiy munosabat subyektlarining holatini, ularning majburiyatlarini o'rganuvchi normalar sifatida qaralganda, xalqaro huquqiy munosabatlarda hal qiluvchi mavqega egadir. Diplomatik huquqning manbalari o'zining keng qamrovliligi, amalda keng qo'llanayotganligi bilan ham ajralib turadi. Diplomatik huquq manbalarini dunyoning aksariyat va turli davlatlari tomonidan, universal xarakterdagi va maxsus xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llanishi ularning xalqaro hayotdagi diplomatik huquq manbalari turlicha ko'rinishlarga ega.



Har bir huquqiy manba o'ziga xos xalqaro huquqiy normativ bo'lib, ular xalqaro huquqning subyektlari – davlatlar tomonidan, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llanish uchun asos vazifasini o'taydi.

Endi bevosita diplomatik va konsullik huquqining manbalariga to'xtalib o'tsak. Diplomatik huquq manbalari ichida markaziy o'rinni *xalqaro shartnomalar* egallaydi. Ma'lumki, xalqaro shartnomalar turlicha nomlanishi mumkin va ularning shakli ham turlicha bo'lishi mumkin.



Diplomatik huquqda xalqaro shartnomaning turi hisoblangan – *xalqaro konvensiyalar* eng asosiy manba hisoblanadi.

Tarixiy nuqtayi nazardan qaraganda, diplomatik munosabatlar o'rnatishda, davlatlarning bir-biriga elchilar yuborishi va shunday missiyalar bajarilishidagi davlatlarning xususiyati diplomatik faoliyatni amalga oshirishda umumiy bir yaxlitlikni paydo qilishga to'sqinlik qilgan. Chunki diplomatik missiyalar yuborish o'tmishda va o'rta asrlarda davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solingan. Va nihoyat, 1815-yil 19-martda Venada to'qqizta Yevropaning yetakchi davlatlari tomonidan, ya'ni Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Rossiya, Prussiyada chaqirilgan kongress tomonidan "*Diplomatik vakillarning martabalari to'g'risidagi Nizom*" qabul qilingan. Bu xalqaro huquqiy hujjat diplomatiya tarixida birincha marta davlatlarning diplomatik vakillari uchun bir xil martabalar joriy etdi.

1818-yilda bu hujjat, ya'ni Vena protokoli *Aaxen protokoli* bilan to'ldirildi. Aaxenda imzolangan protokol Vena Kongressining "Diplomatik martabalar to'g'risidagi nizom"ga yana bir martabani, ya'ni "Ministr – rezident" martabasini qo'shdi. Shunday qilib, diplomatik huquqda birinchi xalqaro ko'p tomonlama shartnoma paydo bo'ldi va bu hujjat diplomatik huquq normalarini ishlab chiqishda katta rol o'ynadi.

Diplomatik huquqda manba vazifasini o'tovchi hujjatlarning navbatdagi shubhasiz 1911-yilda Karakassda qabul qilingan *Konsullik funksiyalari to'g'risidagi konvensiya* bo'lib, u konsullarning asosiy vazifalari bayon qilingan xalqaro hujjat edi. 1928-yilda esa Gavanada *Diplomat mansabdorlar to'g'risida va Konsul mansabdorlar to'g'risida xalqaro konvensiya* qabul qilindi.

1928-yil 20-fevralda qabul qilingan Gavana konvensiyasi barcha davlatlarda diplomatik missiyalarning faoliyat ko'rsatishiga bog'liq masalalarni qamrab olgan edi.

Diplomatik huquqning rivojlanishidan ma'lumki, 1928-yilda *Millatlar Ittifoq Ligasiga* asos solindi, bu tarixda birinchi davlatlararo xalqaro tashkilot edi. Millatlar Ligasining faoliyati va keyinchalik 1945-yilda *Birlashgan Millatlar Tashkilotiga* asos solinishi diplomatik huquqda tarixan yangi davrni ochib berdi. 1946-yil 15-fevralda BMTning birinchi a'zo davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining imtiyozlari va immunitetlari to'g'risida xalqaro konvensiya qabul qiladilar. Bu konvensiya BMTning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratish maqsadida uning vazifalarini amalga oshirishda ma'lum bir huquqiy maqomni berishni ko'zda tutgan.

1947-yil 21-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi *Birlashgan Millatlar Tashkiloti Maxsus tashkilotining imtiyoz va immunitetlari to'g'risida xalqaro konvensiyani* qabul qildi. Bugungi kunda bu konvensiyaga 100dan ortiq davlat a'zodir.

BMTning xalqaro huquq komissiyasi barcha davlatlarda birdek qo'llanishi mumkin bo'lgan yagona diplomatik huquqiy me'yorlar ustida atroflicha mulohaza yuritib, bir necha marotaba o'z muhokamasida davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni aks ettiruvchi hujjat loyihasi ustida ish yuritdilar va nihoyat, 1961-yil 18-aprelda Venada BMT butun dunyo diplomatik konferensiyasini chaqirib "*Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi*"ni qabul qildilar.

Bu konvensiyani tom ma'noda diplomatik aloqalarning eng asosiy kodeksi deb baholash mumkin.

Konvensiya 1964-yilda kuchga kirgan, unda 175 davlat ishtirok etmoqda, ular orasida O'zbekiston ham bor. Konvensiya 53 moddadan iborat.

Konvensiya bilan bir vaqtda diplomatik munosabatlarga aloqador 2 fakultativ protokol ham qabul qilingan bo'lib, bulardan biri fuqarolikni olmaslik to'g'risida va ikkinchisi bu konvensiyani qo'llashdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni yechish majburiyati to'g'risida edi.

Diplomatik huquqda manba vazifasini o'tagan yana bir muhim hujjat bu 1963-yil 24-aprelda qabul qilingan "*Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi*"dir. Konvensiya 1967-yili kuchga kirgan, unga 152dan ortiq davlatlar qo'shilgan, ular orasida O'zbekiston ham bor.

Konvensiya 79 moddadan iborat yirik hujjat bo'lib, unga qo'shib *ikki protokol* qabul qilingan. Ularning mazmuni diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining protokollari kabi.

Salohiyati jihatidan diplomatik huquqning manbalariga ko'p tomonlama shartnomalarning yana ikkitasini kiritish joizdir. Bulardan birinchisi 1969-yilda qabul qilingan "*Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiya*" bo'lib, ikkinchisi 1975-yilda qabul qilingan "*Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlardagi vakolatxonalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi*"dir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, diplomatik huquqda xalqaro shartnomalardan tashqari, *ikki tomonlama*, ya'ni ikki davlat tomonidan tuzilgan *xalqaro shartnomalar* ham manbalik vazifasini o'taydi. Ular diplomatik munosabatlar to'g'risidagi, konsullik aloqalari to'g'risidagi xalqaro shartnoma bo'lib, ular xalqaro huquqning subyektlari – davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tuzilishi mumkin. Ular ikkala davlat yoki xalqaro tashkilot o'rtasida paydo qiluvchi, majburiyatlar tug'diruvchi xususiyatlarga egadir.

Masalan: O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida erkin harakat qilish to'g'risidagi Bitim bunga misol bo'la oladi. Bu kelishuvga muvofiq har ikkala davlatning diplomatik vakillari ikkala davlatning hududida erkin harakat qilish huquqiga egalar.

Tabiiyki, diplomatik huquqda shartnomaviy normalar bilan tartibga solinmaganlari xalqaro huquqning odat normalari bilan tartibga solinadi. Diplomatik huquqda u yoki bu konvensiyaga qo'shilmagan davlatlar ham odatiy huquq normalariga amal qiladilar.

Diplomatik huquqda ikkinchi turdagi manba vazifasini bajaruvchi bo'lib *xalqaro odat* kiradi.

E'tibor qarating!

Xalqaro odat – davlatlar yoxud xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarida harakat tufayli yoki harakatdan tiyish orqali davlat ma'lum bo'lgan xalqaro odatga yuridik majburiyat deb amal qilsa, bu norma xalqaro odat huquqiga aylanadi. Odatlar u yoki bu sharoitda o'xshash bo'lgan holatlarni bir yo'nalishda yechish, ya'ni huquqiy odat deyish mumkin. Odat ko'p hollarda yozma shartnomalarga aylanib boradi.

G'arblik xalqaro huquq olimlari aynan xalqaro odatlar birlamchi manba sifatida qaralishi mumkin deb fikrlaydilar. Xalqaro odatlardan *xalqaro rasm-rusumlarni* farqlash lozim. Ular xalqaro huquqda ham, diplomatik huquqda ham manbalik vazifasini bajarmaydi, chunki ular o'zaro asoslarda bajarilsa-da, yuridik majburiyat hisoblanmaydi. Xususan, diplomatik etiket qoidalari, xalqaro odob qoidalari va hokazolar.

Xalqaro odat shartnomalariga misol tariqasida: davlatlarning paydo bo'lishi va ularning tan olinishi kabi normalarni, davlatlarning turli-tuman bitim va kelishuvlar, shartnomalar tuzishini keltirish mumkin.

Diplomatik huquqdagi qo'llaniladigan manbalardan yana biri bu *xalqaro huquqning umumiy prinsiplaridir*, ya'ni xalqlar tomonidan tan olingan huquq prinsiplaridir. Ko'pchilik olimlarning fikricha, bu prinsiplarni norma tashkil etuvchi yordamchi jarayonlar sirasiga kiritishadi.

Xalqaro
huquqning
umumiy
prinsiplari

- davlatlarning kuch ishlatmaslik, kuch ishlatib tajovuz qilmaslik
- davlatlar o'zlarining xalqaro nizolarini tinch yo'l bilan, xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatga tahdid solmasdan hal etishlari
- davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
- davlatlarning bir-biri bilan har qanday tafovutlardan qat'i nazar hamkorlik qilish majburiyati
- davlatlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi hal etishi
- davlatlarning suveren tengligi
- davlatlarning xalqaro hamjamiyat, xalqaro munosabatlarda o'z oldilariga olgan majburiyatlarini insofli bajarishlari

Diplomatik huquqning keyingi manbasi bu *xalqaro organlarning qarorlari va reglamentlaridir*.

Ma'lumki, xalqaro tashkilotlar bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar va rivojlanishning global masalalari bilan shug'ullanmoqdalar, ular davlatlar, xalqlar taqdirida ijobiy samaralar ko'rsatmoqda va bu bilan xalqaro tashkilotlarning salohiyati ham oshib bormoqda.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolutsiyalari BMT a'zolari uchun majburiy xarakterga ega va uni bajarish lozim hisoblanadi yoki Yevropada hamkorlik va Xavfsizlik Tashkiloti qabul qilayotgan "Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi" huquqiy norma sifatida bajarish uchun majburiy hujjatdir. Xalqaro tashkilotlar chaqirayotgan xalqaro konferensiyalarning tartib-qoidalari (pravila proseduri) ham diplomatik huquqda manbalik vazifasini o'taydi. Xalqaro konferensiyalar yuzlab davlatlarning ishtirokida, umumiy tartib-qoidalarini ishlab chiqadi.

Misol tariqasida, xalqaro konferensiyalarning ish olib borish tartibi, vakolatlarni tekshirish, konferensiyaning ishchi, rahbariy organlarini saylash, so'z olish qoidalari, protokollarni olib borish masalalari aynan reglamentda o'z aksini topadi. BMT Bosh Assambleyasining ichki qonun-qoidalari ham shular jumlasiga kiradi. Chunki aynan shu tartib qoidalarga barcha a'zo davlatlar amal qiladilar. Masalan, BMTning Bosh Assambleyasi Kosovo bo'yicha qabul qilgan rezolutsiyasi yuridik asos va manbadir.

Keyingi manbaning turi *Xalqaro Sud organlari va milliy sudlarning diplomatik munosabatlarga oid chiqargan qarorlaridir*. Xalqaro munosabatlarida xalqaro sud tashkilotlarining paydo bo'lishi xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi va mas'uliyatiga ma'lum ta'sir o'tkazdi. Xalqaro sud tashkilotlari nihoyatda baobro' nufuzga va oliy malakali huquqiy hujjatlar – hal qiluv qarorlari, hukmlar chiqaradilar. Albatta, sud muassasalarining chiqargan qarorlari, eng avvalo, ishtirokchilari davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun majburiy xarakterga ega. Ikkinchi tomondan, sud hay'ati ko'rib chiqqan masalalar, sud amaliyoti va tajribasini tashkil qilib, sud pretsedentlari sifatida diplomatik huquqda qo'llanishi mumkin.

Misol tariqasida, Xalqaro Sud qarorlarini Milliy Sud organlarining qarorlariga kelsak, albatta, bunday holatlar davlatlarning ichki qonunchilik tizimi bilan bir qatorda bunday muassasalarda xalqaro huquq normalarini qo'llab chiqargan xulosa va hukmlar, ya'ni milliy sud o'z davlatining xalqaro huquq normasining mazmuniga munosabatini bildirishida aks ettirishi mumkin. Masalan, xalqaro huquq normasini milliy sud organlari tan olmasligi yoki tan olishi mumkin.

Diplomatik huquqda manba hisoblanuvchi *xalqaro huquqshunos olimlarning doktrinalari* muhim o‘rin tutadi. Diplomatik va xalqaro huquqda yuqori nazariy va amaliy tajribaga ega bo‘lgan xalqaro huquqning ko‘zga ko‘ringan olimlarining izlanishlari, ularning huquqiy maktab va g‘oyaviy nazariyalari ko‘p hollarda xalqaro huquqiy normalarni yaratishda, nizom masalalarini yechishda keng qo‘llaniladi.

Xalqaro huquqda huquqiy normalarni sharhlash aynan olimlar, ilmiy xalqaro tashkilotlar (Xalqaro huquq Assambleyasi, Xalqaro huquq instituti va h.k) tomonidan amalga oshiriladi.

Biz to‘xtalib o‘tgan huquq manbalaridan tashqari diplomatik huquqda *qo‘shimcha manba* sifatida qaraladigan yana bir manbaning turi mavjud. Bu xalqaro huquq subyektlari – *davlatlarning diplomatik huquqqa oid ichki qonunchiligidir*.

Ma‘lumki, har bir davlat diplomatik huquqda xalqaro huquqiy me‘yorlarga asoslanib faoliyat yuritisa-da, diplomatik faoliyatini amalga oshirishda ichki qonunchilik me‘yorlarini ishlab chiqadi. Xalqaro huquqshunos olimlar: Tripel, Kelzen bu huquq manbasini mustaqil manba deb hisoblaydilar. Professor N.Minasyan esa davlatning ichki qonunchilik tizimini diplomatik huquq manbaiga kiritmaydi, ammo uning diplomatik huquq rivojlanishiga turtki beruvchi xossa deb qaraydi. Taniqli diplomatik huquq sohasidagi olimlar I.Blishenko va V.Durdenevskiylar esa davlatning shu sohadagi ichki qonunchiligini to‘g‘ri manba emas, balki qo‘shimcha manba deb hisoblaydilar va bunday yondashishni to‘g‘riroq deb baholash mumkin. Chunki har qanday davlatning ma‘lum bir huquqiy tizimi, tarixiy huquqiy odat va an‘analari mavjud bo‘lib, u har doim ham diplomatik huquqning me‘yoriga to‘g‘ri, mutanosib bo‘lavermaydi. Va har qanday davlat o‘zining xususiyatlarini to‘laroq aks ettiruvchi va xalqaro huquq normalariga uyg‘unlasha oladigan ichki normalar yaratishi mumkin. Vaholanki, diplomatik huquq davlatning tashqi dunyo bilan o‘ta rasmiy huquqiy munosabatlarini aks ettiruvchi sohalarini sirasiga kiradi.

O‘zbekistondagi ichki davlat qonunchilik tizimida diplomatik huquqqa oid bir qancha hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekistonning xalqaro miqyosda diplomatik faoliyat yuritishi uchun ishonchli huquqiy manba vazifasini o‘taydi. Ularni O‘zbekistonning diplomatik huquqini tartibga soluvchi normalar majmui yoki tizimi deb ham atash mumkin. Ularning sardori *O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining* to‘rtinchi bobi 17-moddasida ko‘zda tutilgan tashqi siyosat asoslaridir. Bu qoidalarni 1996-yilgi 26-dekabrda *“O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari*

to'g'risidagi" qonun rivojlantirdi. O'zbekistonning diplomatik faoliyatini amalga oshirishda muhim o'rin tutuvchi yana ikki qonun 1992-yil 3-iyulda qabul qilindi. Ular "O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasida diplomatik xodimlarga diplomatik daraja va martabalarni belgilash to'g'risida" gi qonunlardir.

Konsullik faoliyatni tartibga soluvchi 1996-yilda qabul qilingan hujjat – *O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi* O'zbekistonning konsullik munosabatlarini huquqiy tartibga soladi.

Diplomatik huquqni aks ettiruvchi boshqa huquqiy aktlar, ya'ni Vazirlar Mahkamasining o'nlab qarorlari, Tashqi ishlar vazirligining maxsus nizom va qoidalari O'zbekistonning diplomatik huquqini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda diplomatik daraja va martabalarni belgilash tartib qoidalari, diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash tartib qoidalari bugungi kunda respublikamizning diplomatik faoliyatida keng qo'llanib kelinmoqda.

Endi bevosita *diplomatik va konsullik huquqi normalarini kodifikatsiyalash* xususida so'z yuritsak.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro huquq sohalari ichida eng mukammal kodifikatsiya qilingan sohalardan biri bu – diplomati huquq normalaridir. Diplomatik huquq normalarini kodifikatsiyalashga urinish so'nggi 150 yil davomida davlatlar, ayrim olimlar, ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirildi. Birinchi urinish 1868-yilda shveysariyalik olim I.Blyunchli tomonidan, 1890-yilda esa italiyalik P.Flore tomonidan bajarilgan. Bunday harakatlar Xalqaro huquq intitutlarining 1889-yilgi Gamburgdagi, 1892-yilda Jenevadagi, 1895-yilda Kembrij sessiyalarida ko'rib chiqilgan. Buning natijasida Kembrij reglamenti degan hujjat dunyoga kelgan.

1932-yilda Garvard universiteti diplomatik immunitetlar to'g'risida bunday urinishlarni loyiha sifatida taqdim etgan.


Davlatlarning tashqi aloqa organlari tizimi hamda diplomatik immunitet va imtiyozlari

Diplomatik huquq xalqaro huquqning uzoq vaqt davomida yagona subyekt bo'lib kelgan davlatlarning o'zaro amaliyoti natijasida shakllangan va rivojlangan. Qadimda bo'lgani kabi hozirda ham davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bir davlat tomonidan ikkinchi biriga

yuboriladigan tashqi aloqalar organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi aloqalarning bunday organlari qatoriga davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida tashkil qilinadigan doimiy diplomatik vakolatxonalar va bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatga yuboriladigan maxsus (vaqtincha, ad hoc) missiyalar kiradi.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalarga tegishli normalar majmui 1961 va 1969-yillarda qabul qilingan Vena konvensiyalarida mujassamlashgan.

Xalqaro-huquqiy adabiyotda tashqi aloqalar organlarini *ichki davlat* va *xorijiy turlarga* bo'lish mavjud.



Davlatning ichki idoralari mazkur davlatning hududida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan tashqi aloqa idoralaridir.

Xalqaro huquqda bunday idoralar ikkiga bo'linadi:

a) davlatning vakilligini barcha masalalar bo'yicha amalga oshiradigan idoralar;

b) davlatning vakilligini uning tashqi aloqalarining ma'lum sohaslarida va bitta sohasida ro'yobga chiqaradigan idoralari.

Birinci guruhga davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlari vaziri kiradi. Xalqaro huquqqa muvofiq ular davlatni barcha masalalar bo'yicha namoyon etadigan, ya'ni ex officio (lavozimi bo'yicha maxsus vakolatlarsiz) idoralar hisoblanadi.

Umumiy tashqi aloqa idoralari bilan bir vaqtda ba'zi davlatlarda *ixtisoslashgan maxsus tashqi aloqa organlari* mavjud bo'lib, ular davlat tashqi faoliyat sohasini keng yoki tor jihatdan namoyon etadilar.

Masalan, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini ko'rsatish mumkin, boshqa vazirlik va muassasalar davlatning tashqi aloqalarini o'z vakolatlari doirasida ro'yobga chiqarishda ishtirok etadilar.


Tashqi aloqa idoralarining *xorijdagisiga*: diplomatik vakolatxonalar (elchixonalar va missiyalar), konsullik vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlar qoshidagi doimiy vakolatxonalar kiradi. Ular davlatning doimiy xorijiy tashqi aloqa idoralaridir.

Xorijdagi doimiy idoralar bilan bir vaqtda *muvaqqat idoralar* mavjud: boshqa davlatlar tantanali tadbirlarda, muzokaralarni olib borishda ishtirok etishga yuboriladigan maxsus missiyalar, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish uchun yuboriladigan delegatsiyalar.

Diplomatik va kolatxona – boshqa davlatning hududida joylashgan ushbu davlat bilan diplomatic aloqalarni ro'yobga chiqaradigan davlat organidir.

Davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi, odatda, diplomatik vakolatxonalar bilan almashishga olib keladi. Biroq bunday almashishni amalga oshirish uchun maxsus kelishuv zarur. Hozirgi zamon xalqaro huquqi ko'rsatilgan *diplomatik vakolatxonalar bilan almashishninguch darajasi* mavjudligi imkoniyatidan kelib chiqadi. Har bir daraja uchun vakolatxona boshligining ma'lum toifasi to'g'ri keladi.

Eng yuqori daraja – elchixonadir. Unga Favqulodda va Muxtor Elchi darajasiga ega bo'lgan diplomatik vakil rahbarlik qiladi. Undan so'ng Favqulodda va Muxtor Vakil rahbarligi ostidagi muvaqqat ishlar vakili tomonidan boshqariladigan missiya turadi.



Diplomatik vakolatxonalar bundan tashqari *konsullik vazifalarini* ro'yobga chiqaradi.

Davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalari Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tashkilotlar ahamiyatining o'sganligi munosabati bilan keng tarqalgan nisbatan yangi institutdir.

Bunday vakolatxonalar asosan BMT qoshida mavjud. Ko'plab davlatlar BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalarda doimiy vakolatxonalarga ega. Ko'pincha mintaqaviy tashkilotlarda ham tashkil qilinadi.

Umumiy qoidaga binoan davlatning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonasiga mazkur tashkilotning a'zosi ega bo'lishi mumkin. Tashkilotning a'zosi bo'lgan davlatlar agar tashkilotlar qoidalari yo'l qo'ysa, xalqaro tashkilotlarning huzurida kuzatuvchilar doimiy missiyasi tuzishlari mumkin.

Diplomatik huquqning tegishli normalari 1975-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasida kodifikatsiya qilingan.

Xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalar – a'zo davlatlarning doimiy vakolatxonalari va tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlarning kuzatuvchi doimiy missivalaridir.

Universal xarakterdagi xalqaro tashkilot – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning ixtisoslashgan muassasalari, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik va a'zolari tarkibi va javobgarligi keng bo'lgan xalqaro xarakter kasb etuvchi shunga o'xshash har qanday tashkilotlardir.

Diplomatik huquqqa tegishli ushbu huquq, sohasining o'ziga xos jihatlari markaziy muassasalar, ularning bo'limlari, tashkilot organlari yoki xalqaro konferensiyalarning o'z faoliyatlarini o'zga davlat hududida uning yurisdiksiyasidan ozod etilgan va tegishli o'zaro kelishilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalangan holda amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Davlatning xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari, xalqaro organlar va konferensiyalardagi delegatsiyalari ular joylashgan davlat bilan bevosita hech qanday aloqalarga kirishmagan holda uning yurisdiksiyasidan immunitetga ega bo'ladi hamda agar ushbu davlat va xalqaro tashkilot uchun Konvensiya kuchda bo'lsa, unda belgilangan imtiyoz va imkoniyatlardan ham foydalanadilar.

Diplomatik *vakolatxona rahbari* xalqaro huquqqa ko'ra diplomatik vakil o'z davlatini xorijdagi davlatda namoyon etadigan yagona shaxsdir.

Bir vaqtning o'zida elchi tashrif davlatdagi boshqa doimiy vakillarga nisbatan ham oliy vakil hisoblanadi.

Diplomatik vakillarni tayinlash davlatning ichki normalari hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. Har bir davlatda diplomatik vakillarni tayinlashning u yoki bu tartibi mavjud.

Doimiy diplomatik vakolatxona tarkibida vakil qilib yuboruvchi davlat nomidan ish ko'rish uning boshlig'iga yuklatiladi.

Vakolatxona *boshliqlari uch toifaga* bo'linadi. Ular:

➤ birinchidan, elchilar toifasi yoki o'zgacha nom bilan yuritiluvchi ularga mos bo'lgan shaxslar (nunsiylar, oliy komissarlar va h.k.);

➤ ikkinchidan, yuboruvchi davlat tomonidan qabul qiluvchi davlat boshligi huzurida uning nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muxtor vakillar toifasi (internunsiylar);

➤ uchinchidan, qabul qiluvchi davlat tashqi ishlar vazirligi huzurida yuboruvchi davlat nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muvaqqat ishlar bo'yicha vakillar.

Vena Konvensiyasiga muvofiq diplomatik vakolatxona xodimlari: diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat qiluvchilarga bo'linadi.

Diplomatik xodimlarga elchilar, vakillar, maslahatchilar, savdo vakillari va ularning o'rinbosarlari, maxsus attashelar (harbiy, harbiy-dengiz, harbiy-havo) va ularning o'rinbosarlari 1; 2; 3-kotiblar, attashe, 1961-yilgi Vena konvensiyasiga ko'ra vakolatxona a'zolari deb yuritiladi. Turli vakolatxonalardagi har bir darajadagi xodimlarning soni turlicha.

Ma'muriy-texnik xodimlarga devonxona boshlig'i, hisobchilar, tarjimonlar, ish yurituvchilar, mashinistlar va boshqa ma'muriy yoki texnik vazifalarni bajaruvchilar kiradi.

Xizmat qiluvchi xodimlarga haydovchilar, kuryerlar, shveysarlar, liftyorlar, farroshlar va boshqa vakolatxonada xizmat qiluvchi vazifasini amalga oshiruvchilar kiradi.

Diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatish xizmati xodimlarini *tayinlash tartibi* va ularning soni qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Qabul qiluvchi davlat diplomatik xodimni xohlagan vaqtda "persona non grata", ya'ni nomaqbul shaxs deb e'lon qilib, bu shaxslarni yuboruvchi davlatdan diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya tarkibidan chaqirib olishlarini talab qilishi mumkin.

Xalqaro huquqqa muvofiq diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlashdan oldin tegishli davlatdan tayinlanayotgan shaxsni vakil sifatida qabul qilish uchun uning roziligi (agreman) so'raladi.

Agreman berishdan voz kechish qandaydir tushuntirish yoki uning sababini ko'rsatishni taqozo etmaydi.

Odatda, agreman olingandan so'ng diplomatik vakilni tayinlanganligi to'g'risida matbuotda e'lon beriladi. Elchi yoki vakilga ularning tayinlangan joyga ketishida yo'llayotgan davlat rahbari imzo chekkan ishonch yorlig'i beriladi va ular tayinlangan davlat rahbari nomiga yuboriladi. Ishonch yorlig'ida uning sohibiga ushbu davlatlar o'rtasidagi aloqalarda o'z davlati nomidan harakat qilishiga ishonish iltimosi bo'ladi.

Diplomatik vakilning vazifasi quyidagi hollarda to'xtatiladi:


- 1) akkreditatsiya qilgan davlatning uni chaqirib olishi;
- 2) diplomatik vakil faoliyat yurityotgan davlat hukumati, vakilning uning ishonchini yo'qotgan shaxs deb hisoblanishi (persona non grata);
- 3) diplomatik aloqalarning uzilishi;
- 4) ushbu davlatlar o'rtasida urush yuzaga kelganda;
- 5) ushbu davlatlarning xalqaro huquq subyektlari sifatidagi barham topishi.

Diplomatik vakil bir vaqtning o'zida boshqa yoki bir necha davlatlarda, qabul qilinayotgan davlatlarning bunga e'tirozi bo'lmagan taqdirda, diplomatik vakil vazifasini amalga oshirishi mumkin. Davlatlararo munosabatlarda ushbu amaliyot keng uchrab turadi (kumulyatsiya).

E'tibor qarating!

Diplomatik vakolatxona imtiyoz va immunitetlari diplomatik vakolatxona, uning rahbarlari va xodimlariga xalqaro huquqqa asosan beriladigan maxsus huquq va imtiyozlardir.

Diplomatik vakolatxona tashrif davlatida o'z vazifalarini bajarishi uchun uning faoliyati ushbu davlat faoliyati, ushbu davlat hokimiyati nazoratidan xolis bo'lishi kerak. Shu sababli qadimdan elchilarning daxlsizligi vujudga kelgan edi. Diplomatik vakolatxona vazifalarini bajarish sharoitlarini ta'minlash zaruriyati unga alohida maqom berishning asosiy asoslaridan hisoblanadi. Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, elchixonada davlatni namoyon etib, xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan davlatlarning teng huquqli va suverenligidan kelib chiqib elchixonada mavjud imtiyoz va immunitetlarga ega bo'lishini belgilaydi.



Doimiy vakolatxona suveren davlat organi sifatida quyidagi diplomatik imtiyoz va daxlsizliklarga egadir: vakolatxona binolari, arxiv va hujjatlarining daxlsizligi, vakolatxona binolarining soliqlardan ozod qilinishi, erkin harakatlanish va aloqalarda bo'lish huquqi (Konvensiyaning 23–27-moddalari).

Diplomatik vakolatxona rahbari va a'zolari ham quyidagi diplomatik imtiyoz va daxlsizliklarga egadirlar: shaxsiy daxlsizlik, rezidensiya va mulkning daxlsizligi, yurisdiksiyadan immunitet, soliq immuniteti, shaxsiy majburiyatlardan, boj va ko'zdan kechirishlardan ozod bo'lish. Diplomatik vakolatxona boshlig'i va xodimlarining ular bilan birga yashovchi oila a'zolari ham xuddi shunday imtiyoz va daxlsizliklarga egadirlar (Konvensiyaning 28–35-moddalari).

Vakolatxona ma'muriy-texnik xodimlarining a'zolari agar vakolatxona joylashgan mamlakat fuqarolari bo'lmasalar, ayrim istisnolarga ega bo'lgan imtiyoz va daxlsizliklardan foydalanadilar.

Bu imtiyozlar boj va ko'zdan kechirishlardan, fuqaroviy va ma'muriy yurisdiksiyadan ozod bo'lishga doir bo'lib, ular ushbu xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtda sodir etgan harakatlariga taalluqli emas.

Vakolatxona joylashgan mamlakat fuqarolari bo'lmagan xizmat ko'rsatish xodimlari o'z vazifalarini bajarish chog'ida sodir etilgan harakatlariga nisbatan imtiyoz va daxlsizliklardan foydalanadilar (Konvensiyaning 36-moddasi 2-qismi) hamda xizmat bo'yicha olinadigan soliq, yig'im va bojlardan ozod qilinadilar (Konvensiyaning 36-moddasi).

Shunday qilib, davlatlarning xalqaro tashkilot qoshidagi vakolatxonalariga ega bo'lgan imtiyoz va daxlsizliklar diplomatik vakolatxonalar foydalanadigan imtiyoz va daxlsizliklarga o'xshaydi, ayrim cheklovlari bor, xolos. Davlatlarning xalqaro tashkilotlar qoshidagi doimiy vakolatxonalariga xodimlarining shaxsiy imtiyoz va daxlsizliklari haqida so'z yuritganda 1975-yilgi Vena konvensiyasi imtiyoz va daxlsizliklarning quyidagi turlarini ajratishini ta'kidlab o'tamiz:

- shaxs daxlsizligi;
- rezidensiya va mulk daxlsizligi;
- yurisdiksiyadan immunitet;
- ijtimoiy ta'minot sohasidagi qonunlardan chiqarib tashlash;
- yig'im va soliqlardan ozod qilish;

- shaxsiy majburiyatlardan ozod qilish;
- boj va ko'zdan kechirishdan ozod qilish.

Imtiyozlar – xorijiy vakillik organlari (va ularning xodimlari) faoliyatining imtiyozli shartlari bo'lib, odatda ulardan milliy yuridik va jismoniy shaxslar foydalanmaydilar.

Mazkur imtiyozli shartlar bunday vakillik organlarining rasmiy xalqaro-huquqiy maqomini inobatga oladi va ularga asosan mazkur organlar funktsiya hamda vakolatlarining faoliyatini samarali amalga oshirishlariga ko'maklashish maqsadida beriladi.

1961 va 1969-yillar konvensiyalariga muvofiq imtiyozlar qatoriga:

birinchidan, xorijiy davlat vakillik organining uni yuboruvchi davlat hukumati va uning xorijiy organlari bilan barcha qonuniy vositalar yordamida, shu jumladan, diplomatik kuryerlar, kodlangan yoki shifrlangan diplomatik maktublar (depesha), shuningdek vakolatxona joylashgan davlat roziligi bilan radio uzatgichlardan foydalangan holda barcha rasmiy maqsadlarda aloqalarni bog'lab turish;

ikkinchidan, xorijiy davlat vakillik organining, u egallab turgan binolarga nisbatan, alohida ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlardan tashqari barcha davlat, rayon va mahalliy (munitsipal) soliq, yig'in va bojlardan ozod etilishi;

uchinchidan, vakillik tomonidan foydalanish uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig'inlarni to'lamasdan olib kirish huquqi (ba'zi istisnolardan tashqari);

to'rtinchidan, vakolatxona va uning boshlig'i tomonidan yuboruvchi davlat bayrog'i va gerbini vakolatxona xonalariida, shu jumladan vakolatxona boshlig'i qarorgohida va u foydalanadigan transport vositalarida osib qo'yish huquqi kiradi.

Diplomatik agentlar, yuboruvchi davlat maxsus missiya vakillari va uning diplomatik xodimlari quyidagi imtiyozlardan foydalanadilar:

birinchidan, missiya joylashgan davlat hududi bo'ylab erkin harakat qiladi (belgilangan istisnolar bilan);

ikkinchidan, barcha davlat, rayon va mahalliy (munitsipal) soliq, yig'im va bojlardan ozod etiladi;

uchinchidan, ularning xarakteridan qat'i nazar, barcha mehnat va davlat majburiyatlaridan, shu jumladan harbiy majburiyatlardan (rekvizitsiya, tovon to'lash va uylarni qo'noq harbiylar qo'snidan ozod qilish kabilardan) ozod etiladi;

to'rtinchidan, ko'rsatilgan shaxslar va ularning oila a'zolari shaxsiy foydalanishlari uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig'imlar to'lamasdan olib kirish huquqiga ega;

beshinchidan, agar ularning shaxsiy yuklarida missiya joylashgan davlatga olib kirish va olib chiqib ketish taqiqlangan narsalarning borligini tasdiqlovchi jiddiy asoslar bo'lmasa, ularni tekshirishdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, qabul qiluvchi davlat tashqi aloqalar organiga ularning o'z funksiyalarini samarali bajara olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

Imkoniyatlar – vakolatxona joylashgan davlat, agar bunga zaruriyat bo'lsa, xorijiy davlatga, uning vakillik organlari va xodimlari timsolida ega bo'lishi uchun yordam berishi mumkin yoki lozim bo'lgan immunitet va imtiyozlardir.

Bu yerda gap vakolatxona uchun binoga ega bo'lish yoki xodimlar uchun yashash xonalarini aniqlash, turli xildagi rasmiy maktublarni yuborishdagi imtiyozli huquqlar bilan ta'minlash, uzoqqa qatnaydigan jamoatchilik transportlaridan imtiyozli foydalanish, kundalik turmush ehtiyojlari uchun zarur buyumlarni olish va shunga o'xshash imtiyoz va xizmatlar to'g'risida bormoqda.

Maxsus missiya huquqi

Maxsus missiyalar to'g'risidagi Konvensiya 1969-yil 8-dekabrda BMTning 2530-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan bo'lib, u kirish qismi va 54ta moddalar majmuasidan iborat.

Konvensiyaning 1-moddasidan konvensiyada qo'llaniladigan tushunchalar joy olgan. Xususan, maxsus missiya tushunchasiga ta'rif berilgan.


E'tibor qarating!

Maxsus missiya – vaqtinchalik missiya bo'lib, o'z xarakteriga ko'ra bir davlatning boshqa bir davlatga shu davlat bilan o'zaro biror masalani hal etish uchun yoki biror masalani hal etish uchun yuborilishidir.

Konvensiyaning 3-moddasi maxsus missiyaning funksiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra “maxsus missiya funksiyasi yuboruvchi va qabul qiluvchi davlatlarning o'zaro hurmati bilan aniqlanadi”.

Maxsus missiyalar to'g'risidagi 1969-yilgi hujjat bir davlatdan ikkinchi bir davlatga maxsus topshiriqlar bilan davlatlarning hukumat va boshqa delegatsiyalarining huquqiy maqomini o'rnatadi.

BMT tomonidan qabul qilingan bu hujjat diplomatik huquqni rivojlantirishga hissa qo'shdi va diplomatik aloqalar va konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyalarning mantiqiy davomi deb hisoblanishi mumkin. Maxsus missiyalar davlatlararo diplomatik munosabatlarda keng qo'llanilayotgan faoliyatdir.



Albatta, maxsus missiyalarning *maqsad va vazifalari* turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ikki yoki undan ortiq davlat o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirish maqsadida muzokaralar olib borish, madaniy, ilmiy, iqtisodiy hamkorlik qilish masalalari maxsus missiyalarning vazifalari ularni yuborayotgan davlat tomonidan belgilandi.

Konvensiya maxsus missiyalarga beriladigan diplomatik imtiyoz va immunitetlar to'g'risida, ularni tayinlash, maxsus missiyalarning faoliyat ko'rsatishi, ular joylashgan manzilning huquqiy maqomi, maxsus missiyalarning davlat boshliqlari tomonidan boshqarilishi kabi xalqaro huquqiy jihatlar to'g'risida ma'lum tartib o'rnatgan. Konvensiya 1985-yilda kuchga kirgan, unda 30 davlat ishtirok etmoqda.


Qabul qiluvchi davlat qonun hujjatlarining xorijiy davlatga nisbatan tatbiq qilinmasligi maxsus missiya xodimlari missiya joylashgan davlat milliy huquqi subyektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qabul qiluvchi davlat ichki huquqi qoidalariga rioya qilmasliklari mumkinligini anglatmaydi. Aksincha, ular qabul qiluvchi davlat qonunlarini hurmat qilishlari va uning ichki ishlariga aralashmasliklari lozim. Maxsus missiya xodimlari immuniteti mavjud chegaralar doirasida, qabul qiluvchi davlat milliy huquqining u yoki bu yuridik ko'rsatmalarni ularga nisbatan majburan qo'llash yoki ularni ijro qilishdan ozod etadi xolos. Bunday

davlatning tegishli da'volari diplomatik yo'llar bilan davlatlararo darajada tartibga solinishini talab qiladi.

Maxsus missiyalarning *immunitet va imtiyozlari* diplomatik vakolatxonaning immunitet va imtiyozlari bilan aynandir. 1969-yil 8-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan maxsus missiyalar to'g'risidagi Konvensiyaning 25-moddasiga ko'ra, vakolatxona joylashgan davlat vakillari maxsus missiyalar hududiga yong'in yoki jamoat xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug'ilgan hollarda, maxsus missiya boshlig'ining ruxsatini olish imkoniyati bo'lmagan hollarda, boshqa qoida bilan o'zgartiriladi.

Davlatning qonun chiqaruvchi organi boshqa davlatlar uchun yuridik majburiy xatti-harakat qoidalarini qo'llay olmaydi. Uning ijro va sud organlari o'zlarining vakolatlarini xorijiy davlatga, xususan, maxsus missiyalarga nisbatan qo'llay olmaydi.

Maxsus missiyalar immunitetiga nisbatan aytilayotgan gap, xususan qabul qiluvchi davlat hududida ular ega bo'lgan va foydalanayotgan mulk to'g'risida bormoqda.



Mazkur shaxslar immunitetidan ularni yuboruvchi davlat voz kechishi mumkin. Chunki immunitet alohida shaxslar foydasi uchun emas, balki ushbu davlat nomidan vakillik qilayotgan davlat organlari funksiyasining samarali amalga oshirishini ta'minlash uchun beriladi.

Xalqaro huquqning umumiy tamoyillaridan biri hisoblanmish davlat immunitetidan kelib chiquvchi davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari immunitetlarining mazmuni shunday ko'rinishga ega. Ushbu tamoyil (umumiy norma) imperativ xarakter kasb etmaydi. Boshqacha aytganda, undan chekinish nafaqat xalqaro huquqqa muvofiq, balki manfaatdor davlatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida (shartnomada aniq ifodalangan yoki boshqa tarzda) ham amalga oshirilishi mumkin.


Davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari (va ularning xodimlari) immunitetlaridan tashqari xalqaro huquqqa muvofiq ma'lum imtiyozlardan ham foydalanishlari mumkin.

Konsullik huquqi tushunchasi va manbalari

Ma'lumki, konsullik aloqalari kelib chiqishi jihatidan xalqaro munosabatlardagi eng qadimiy institutlardan hisoblanadi. Hali o'rta asrlardayoq konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalar tuzilganligi tarixdan ma'lum. Lekin ko'p tomonlama xalqaro huquqiy manba bizning asrimizda ishlab chiqildi va u bugungi kunda davlatlarning konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi eng asosiy huquqiy hujjatdir. Bu hujjat ham avvalgisi singari Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, bir necha marta muhokama qilinib, xalqaro diplomatik konferensiyada qabul qilingan.

Konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiya 79 moddadan iborat yirik hujjat bo'lib, unga qo'shib ikki protokol qabul qilingan. Ularning mazmuni Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining protokollari kabidir. Konvensiya konsullik faoliyatiga oid atamalarning tushunchasi bilan boshlanib, so'ng konsullik munosabatlarini o'rnatish uchun asoslar belgilangan.

Unga ko'ra konsullik aloqalari ikkala davlat o'rtasidagi o'zaro xohish asosida vujudga kelishi, bu munosabatlarning zahirida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi istak asos bo'lishi mumkinligi, lekin diplomatik aloqalarning uzilishi konsullik munosabatlarining uzilishiga olib kelmasligi yoritilgan. Konsulliklarning ochilishi, ularning o'zga davlatdagi vazifa va funksiyalari konsullik okrugi tushunchasi, uchinchi davlat tomonidan konsullik funksiyalarining bajarilishi mumkinligi, konsullik faoliyatini boshlashdagi patent va ekzekvaturaning lozimligi kabi masalalar Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyada batafsil o'z ifodasini topgan.



Konsul vakillarining bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha davlatning konsullik mansabdor shaxsi deb topilishi mumkinligi, konsullik vakolatxonalarining imtiyoz va immunitetlari, turar joy, shaxsiy daxlsizlik, yozishmalar, arxivlar va hujjatlarning daxlsizligi singari davlatlarning konsullik faoliyatiga oid deyarli barcha masalalar bu konvensiyada aks etgandir va u shubhasiz diplomatik huquq manbaidir.

E'tibor qarating!

Konsullik huquqini konsullik muassasalari va ular personalining ma'lum bir huquqiy maqomini, funksiyalarini, huquq va majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar yig'indisi.

Konsullik huquq
manbalari

xalqaro
shartnomalar

xalqaro odatlar

Davlatlar konsullik munosabatlarini o'zaro rozilik asosida yo'lga qo'yadi. Agar boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilganligi konsullik aloqalarining yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Hozirda amaliyot konsullik muassasalarining *ikki xil ko'rinishlarini* ifoda etadi. Birinchisi, diplomatik vakolatxonalar qoshidagi konsullik bo'limlari va ikkinchisi, alohida faoliyat olib boruvchi konsullik muassasalari.

Konsul yoki boshqa har qanday konsullik faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs lavozimiga tayinlangandan e'tiboran o'z missiyasini bajarishga kirishgan hisoblanadi. Ko'pchilik davlatlarda konsullarni lavozimga tayinlash va boshqa davlatlarning konsullarini qabul qilish tashqi ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Konsullik huquqi diplomatik huquq kabi tashrif buyurayotgan davlatning oldindan roziligini (agreman) talab qilmaydi. Biroq ikki

tomonlama davlatlar o'rtasidagi shartnomalarda konsullik muassasalari uchun rozilik talab etiladi. Konsul tomonidan o'z vazifalarini bajarishga kirishishi u tomonidan konsullik patentini va ekzekvaturasini olishni talab etadi.

Konsullik patentini – bu biror-bir davlatni ifoda etayotgan konsullik muassasasi rahbarining vakolatlarini tasdiqlovchi vakolatli organ tomonidan beriladigan hujjat.

Konsullik patentida konsullik lavozimiga tayinlanayotgan shaxsning to'liq nomi, uning fuqaroligi, rangi (darajasi), egallab turgan lavozimi, konsullik okrugi va konsullik muassasasining joylashgan hududi bayon qilinadi.

Konsullik patentini tegishli ravishda konsul vakil qilingan davlat vakolatli organiga taqdim etadi va mazkur organ konsulga ekzekvatura, ya'ni konsulning o'z vazifalarini bajarishiga rozilik bildirishi mumkin. Ekzekvaturani olgandan so'ng konsul o'z vazifalarini bajarishga kirishishi mumkin.

Konsullik muassasalarida shtatsiz asosda faoliyat olib boruvchi shaxslar ham mavjud bo'lishi mumkin. Konsullik korpusi ekzekvaturani eng oldin olgan konsul tomonidan – duayen tomonidan boshqariladi.

Diplomatik vakolatxona konsullik bo'limlari uchun *konsullik patentini* talab etilmaydi. Konsullik munosabatlari quyidagi holatlarda *tugatilishi* mumkin:

- 1) vakil qilib yuborgan davlatning o'z konsulini chaqirib olishi bilan;
- 2) konsul kelgan davlat tomonidan ekzekvaturaning bekor qilinishi bilan;
- 3) konsullik patentini muddatining tugashi bilan;
- 4) konsullik muassasasining yopilishi bilan;
- 5) konsullik munosabatlarining tugatilishi va boshqa holatlarga ko'ra.

Konsullik muassasalari darajalari va personalini. Mustaqil konsullik muassasalari quyidagi darajalarga bo'linishi mumkin:

- 1) bosh konsullik muassasalari;
- 2) konsulliklar;
- 3) vitse konsulliklar;
- 4) konsullik agentliklari.

Konsullik muassasalarining darajalari davlatlar o'rtasidagi shartnomalar asosida belgilanadi.

Ushbu muassasalarga mos ravishda konsullik muassasalar rahbarlari darajasi ham belgilanadi.

Konsullik muassasalari faoliyatini, ya'ni konsullik organlari maqomini, funksiyalarini, strukturasi aniqlashda va chet el konsullik muassasalari faoliyatini tartibga solishda davlatning milliy qonunchiligi juda katta ahamiyatga ega.

Konsullik muassasalarining funksiyalari

Konsullik muassasalarining funksiyalariga o'zlari vakillik qilayotgan davlatning iqtisod, savdo, fan va texnika sohasidagi manfaatlarini himoya qilishdan tarkib topadi.

Konsullik muassasalarining maxsus funksiyalari turli xil. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin.

- o'zi kelgan davlatning iqtisodiy, savdo, madaniyat, fan va siyosiy hayoti haqida o'z davlatiga xabar berish;
- konsullik okrugidagi vatandoshlari ro'yxatini olib borish;
- pasport viza faoliyatini olib borish;
- fuqarolik holati dalolatnomalari yozish faoliyatini amalga oshirish;
- zarur hujjatlarni talab qilish vazifalarini bajarish;
- hujjatlar va imzolarning haqiqiylikini tasdiqlash faoliyatini amalga oshirish;
- o'zi vakil qilingan davlat tergov va sud organlari topshiriqlarini bajarish va boshqa vazifalarni bajarishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Diplomatik va konsullik huquqining o'zaro aloqasi va tafovutlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. A.Temur diplomatiyasi, diplomatiya to'g'risida o'z asarlarida fikr bildirgan olim va mutafakkirlar mehnatlarining mazmun-mohiyatini izohlang.
3. Diplomatik va konsullik huquqini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarning milliy qonunchilikka ta'siri qanday?
4. Diplomatik huquqni ta'riflashda ko'zga tashlanadigan yondashuvlar qaysilar?
5. Diplomatik huquqning qo'shimcha manbalariga nimalar kiradi?
6. Diplomatik va konsullik huquqini tartibga solishga qaratilgan milliy qonunchilik bazasini izohlang.

7. Diplomatiq va konsullik immunitet va imtiyozlarini bir-biridan farqlang.

8. Maxsus missiyalarni tartibga solishga qaratilgan xorijiy va milliy normativ-huquqiy bazani izohlang.

9. Konsullik huquqining kelib chiqish va rivojlanish tarixini davrlashtiring.

10. Konsullik muassasalarining asosiy va qo'shimcha funksiyalari nimalardan iborat?

Kazus 1.

1997-yilning 31-oktabr kuni Nyu-york shahri politsiya xodimlari tomonidan Rossiya Federatsiyasining BMT qoshidagi Doimiy vakili V.Lavrovning xizmat avtomobili kaliti olib qo'yilgan hamda uning rasmiy missiyasining – ushbu tashkilot Xavfsizlik Kengashi majlisida ishtirok etishiga to'sqinlik qilingan. Bundan kelib chiqib, Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi ushbu holatni 1961-yilgi Diplomatiq aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining qo'pol buzilishi degan xulosaga keladi.

Rossiya Federatsiyasining xulosasi asoslimi? Ushbu holatda qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida vaziyat hal etiladi? Masalani hal etishda 1961-yilgi Vena konvensiyasining qoida va normalarining qo'llanishi borasida fikr bildiring.

Kazus 2.

2001-yilning 21-dekabrida Turkmaniston Respublikasining rasmiy hukumati O'zbekiston Respublikasi elchisi Abdurashit Qodirovni persona non grata deb e'lon qildi va 24 soat ichida mamlakatni tark etishini talab etdi. Buning sababi sifatida, Turkmaniston hukumatining ta'kidlashicha, elchining Turkmaniston Prezidenti Saparmurod Niyazovning hayotiga suiqasd qilishda aloqadorligi isbotlangan.

2002-yilning 16-dekabrida O'zbekiston vakolatxonasida turkman chekistlari tintuv o'tkazganlar.

Bunga javoban O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi Turkmaniston hukumatini vakolatxona binosining diplomatiq daxlsizligini buzishda ayblaydi hamda A.Qodirovning suiqasdgga aloqasi yo'qligini ta'kidlaydi.

Ushbu holatga huquqiy baho bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. Саидов А.Х. Международное право в схемах и определениях. Учебное пособие. – Москва: Юрист, 2004.
3. Лукашук И.И., Саидов А.Х. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи назарияси асослари: Дарслик. – Т.: Адолат, 2006.
4. Лукашук И.И. Международно-правовое регулирование международных отношений. – М., 1975.
5. Sattorov D. Xalqaro huquq: O'quv qo'llanma. – T.: Adolat, 2007.
6. Каламкарян Р.А., Мигачев Ю.И. Международное право: Учебник. – Москва: Изд-во ЭКСМО, 2004.
7. Толстых В.Л. Международное право практикум: – Москва: Юрист, 2002.
8. Игнатенко Г.В. Международное право. Учебник для вузов. – Москва: Изд-во NORMA, 2005.
9. Odilqoriyev X., Matkarimova G. Xalqaro va milliy huquq: o'zaro munosabat hamda ta'sir / Davlat va huquq. – 2000. – №1.

XI BOB. INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO HUQUQ

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq tushunchasi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning asosiy manbalari va prinsiplari. Inson huquqlarini himoyalashning universal mexanizmlari. Inson huquqlarini himoyalash bo‘yicha mintaqaviy mexanizmlar.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq tushunchasi

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq (IHXH) inson huquqlarini ta‘minlashda davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi tamoyil va me‘yorlari bo‘lgan xalqaro huquq tarmog‘i hisoblanadi.

Bu yerda gap, BMT Nizomi qabul qilinganidan keyin rivojlanib borayotgan yangi tarmoq haqida borayapti. O‘zining qisqa tarixiga ega bo‘lishiga qaramay, ushbu tarmoq xalqaro huquq tizimida markaziy o‘rinni egallashga ulgurdi. O‘zining davlatlararo xarakteridan chekinmagan holda, xalqaro huquq tobora inson manfaatlariga xizmat qilayapti. Bunda hech qanday ziddiyat yo‘q, bunda ko‘proq qonuniylik aloqasi haqida gapirish mumkin. Inson huquqlarini himoya qilish, demokratiya – tinchlikning asosiy kafolatidir. Xalqaro aktlarda ta‘kidlanishicha, ushbu huquqlarga hurmat bilan qarash umumiy tinchlikning asosi hisoblanadi.

Davlat har qanday xalqaro e‘tirof etilgan huquq va erkinliklarga noqonuniy cheklovlar o‘rnatish yoki yo‘q qilishga yo‘naltirilgan turli xatti-harakatni sodir etish huquqiga ega emas (Fuqaro va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 5-moddasi).

Biroq xalqaro huquq nafaqat inson huquqiga, balki o‘z davlatiga nisbatan majburiyatlariga ham dalolat qiladi. Davlat huquqlariga zid ravishda inson huquqlarini suiiste‘mol qilishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, har bir insonning o‘z shaxsiyati erkin rivojlana oladigan jamiyat oldida o‘z majburiyatiga egaligi belgilab qo‘yilgan (29-m.). Davlat va inson huquqlari o‘rtasida o‘zaro ziddiyat yuzaga kelishi mumkin. Masala shundaki, amalda qo‘llanishi uchun ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish lozim bo‘ladi. Bunda eng asosiy o‘rinni xalqaro huquq egallaydi. Davlat huquqi va inson huquqlari BMT Nizomi tamoyillari va maqsadlariga muvofiq ravishda amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, hozirda, xalqaro huquqning ko'rib chiqilayotgan tarmog'i davlatning ichki huquqi va konstitutsiyaviy huquqi bilan uyg'unlashuvida alohida xarakteriga egaligini ko'rish mumkin. Inson huquqlari to'g'risidagi umum qabul qilingan prinsip va me'yorlar xalqaro huquqda bo'lgani kabi ichki huquqning o'ziga xos jihatiga aylanishga ulgurgan huquqning umumiy prinsiplariga aylandi. Bundan tashqari u yoki bu holatda ham ular katta yuridik kuchga ega bo'ladilar. Ularni cheklovchi shartnoma qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Ularni ichki qonunchilik bilan cheklab bo'lmaydi.

Inson huquqlarining aksariyat qismi individual xarakterga ega va alohida inson uchun mo'ljallangan. Shu bilan bir qatorda, jamoaviy huquqlar ham mavjud bo'lib, ular individlar birlashmasiga tegishli: xalqlar, millatlar, mayda millatlar, tub xalqlar. Ba'zan bunday huquqlarni inson huquqlarining ikkinchi avlodi deb ham atashadi. Jamoaviy huquqlarni joriy etish uning tarkibiga kiruvchi individlar huquqini ta'minlash sharti hisoblanadi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning asosiy manbalari va prinsiplari

1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yilda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning fakultativ bayonnomasining qabul qilinishi xalqaro huquqning mazkur tarmog'ini navbatdagi kodifikatsiyalashtirish va tizimlashtirishi uchun asos hisoblanadi. Mazkur aktlar Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro bill deb nomlanishi ham bejiz emas.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi xalqaro munosabatlar tarixida ilk bor fuqaroviy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarni hamda inson erkinligining asosiy doirasini e'lon qildi. Deklaratsiyada qayd etilgan barcha huquqlar asosida 1-m.da belgilab qo'yilgan teng huquqlik tamoyili yotadi.

Deklaratsiya odatiy huquq me'yorlarini belgilaydimi? Deklaratsiyaning ayrim qoidalari hozirgi vaqtda xalqaro odatiy huquq me'yorlari hisoblanishi keng miqyosda tan olingan. Misol sifatida qiyoslar va irqiy kamsitilishning ta'qiqlanishini keltirish mumkin. Ushbu me'yorlar, biron-bir hujjat bilan bog'liq bo'lmasada, davlatlar amaliyoti natijasida ularga yuridik majburiyat sifatida qarala boshlandi. Bundan tashqari ayrim huquqshunoslar, ushbu mavqe butun Deklaratsiyaga tegishli ekanini ta'kidlashadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt huquqiy himoyaning samarali vositalari buzilgan holda, hatto ushbu buzilish rasmiy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa ham, har qanday shaxsning huquq va erkinligini ta'minlash davlatlar majburiyati ekani belgilab qo'yilgan. U qullikni, tobelik holatini, majburiy mehnatga qo'yish va boshqalarni taqiqlovchi qoidalarni o'z ichiga oladi. Ushbu Paktga ikkita bayonnoma qabul qilingan. Birinchisida davlatning Inson huquqlari bo'yicha Qo'mitasi tomonidan shaxsning huquq va erkinligi buzilishida tahmin etilayotgan ishlar yuzasidan yakka tartibdagi shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini ko'zda tutsa, ikkinchisi, 1989-yilda o'lim jazosini bekor qilishga yo'naltirilgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi alqaro Pakt ishtirokchilari, unda tan olingan huquqlarni asta-sekin, to'laligicha amalga oshirishni ta'minlovchi chora-tadbirlarni qabul qilishga majburdirlar. Ular shunday huquqlarki, adolatli va qulay mehnat sharoitini yaratish huquqi, ijtimoiy ta'minot, ish vaqtini oqilona chegaralash kabi huquqlarni o'z ichiga oladi. 1986-yilning mayida IIK tomonidan 1987-yilda o'z faoliyatini boshlagan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq bo'yicha Qo'mita tashkil etilgan.

Ikkala pakt ham 1976-yilda kuchga kirgan. Ushbu kelishuvda unga imzo qo'ygan davlatlar uchun ularda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarga o'z yurisdiksiyalari ostida bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan rioya etish va ushbu huquq va erkinliklarni kelgusida ham rag'batlantirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq majburiyatlar belgilab qo'yildi.

Xalqaro huquqning har qanday tarmog'i kabi inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq ham xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga tayanadi: inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlarning suveren tengligi, ichki ishlarga aralashmaslik, kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llash va boshqalar.


Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning maxsus tamoyillariga universallik, kamsitmaslik, o'zaro aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik kiradi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq O'zbekiston xalqaro tashkilotlarning ishtirokisiz va inson huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilmay turib, demokratik huquqiy davlatni barpo etish mumkin emasligini anglab etdi. Hozirgi kunda O'zbekiston bu sohada 70ta asosiy xalqaro hujjatga qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olib, ularning bajarilishi yuzasidan vaqtida hisobot beradi. 1998-yildan boshlab

O'zbekiston BMTning tegishli qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarini yubormoqda. Mustaqillik yillari davomida konvensiya va paktlarning bajarilishi haqida 30ga yaqin milliy ma'ruzalar yuborilgan.

IHXH ASOSIY TAMOIYILLARI:



Inson huquqlarini himoya qilishning universal mexanizmlari

BMT Bosh Assambleyasi

Bosh Assambleya BMTning bosh vakillik organi sanaladi. Assambleya Tashkilotning barcha a'zo davlatlaridan tashkil topadi va asl universal tarkibga ega: 2015-yil boshi holatiga unda 193ta davlat o'z vakiliga ega edi.

Assambleya BMT Nizomi doirasidagi yoxud Nizomda ko'zda tutilgan (uning 12-moddasida ko'rsatilgan istisnolardan tashqari), uning istalgan organi vakolatlari va funksiyalariga taalluqli istalgan masala yoki ishlarni muhokama qilish va BMT a'zolariga yoki Xavfsizlik Kengashiga har qanday mana shu kabi masala yoki ishlar bo'yicha tavsiyalar berish vakolatiga ega.

Inson huquqi yuzasidan, avvalo, BMT Nizomida Bosh Assambleya vakolatlatiquyidagich bayon qilingan: "Bosh Assambleya... iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish, inson huquqlarini va barchaning asosiy erkinliklarini irqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida tadqiqotlar uyushtiradi va tavsiyalar beradi".

Umuman olganda, Bosh Assambleya tavsiyalari davlatlar uchun huquqiy majburiyatlar yuzaga keltirmaydi. Shu bilan birga, BMT Nizomining 55, 56-moddalarida keltirilgan majburiyatlardan kelib chiqqan holda, ularning obro'sini past baholamaslik lozim. Nizomning 56-moddasiga ko'ra, BMTning barcha a'zolari 55-moddada ko'rsatilgan maqsadlarga, jumladan, irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarni yalpi hurmat qilish va rioya etishga erishish uchun BMT bilan hamkorlikda va mustaqil ish ko'rish majburiyatini oladilar.

BMTning bosh vakillik organi sifatida, Bosh Assambleya inson huquqlari sohasidagi me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

1948-yilda Assambleya Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasini, 1965-yilda Irqiy kamsitishning har qanday ko'rinishini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani, 1966-yilda Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Paktlarni, 1989-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ma'qulladi.

Bosh Assambleya BMTning inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishda bevosita ishtirok etuvchi funksional organlari ma'ruzalarini ko'rib chiqadi va ularning tavsiyalariga ko'ra muayyan harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bosh Assambleya alohida mamlakatlar yoki hududlarda inson huquqlari buzilishini tekshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan mexanizmlarni ta'sis etish huquqiga ega.

Bosh Assambleya rezolyutsiyalariga binoan inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bilan bevosita ishlovchi BMT Kotibiyati bo'linmalari ta'sis etilgan (BMT inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarining boshqarmasi va hozirgi Inson huquqlari markazi).

Shuningdek Assambleyaning inson huquqlari bo'yicha umumjahon kampaniyalarini tayyorlash va o'tkazishdagi va umuman, bu boradagi jahon hamjamiyatining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishdagi rolini ham qayd etib o'tish zarur.

Inson huquqlari bo'yicha BMT Kengashi

Inson huquqlari bo'yicha BMT Kengashi (IHK) 2006-yil 15-martda BMT Bosh Assambleyasining 60/251-rezolyutsiyasi bilan bekor qilingan BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'rniga tashkil etilgan. IHK Bosh Assambleyaning yordamchi organi sanaladi.

2011-yilda Bosh Assambleya IHK mavqeni o'zgartirishsiz qoldirish va uni saqlab qolish masalasini 10 yildan oldin va 15 yildan kech

bo'lmagan muddatda, ya'ni 2021–2026-yillar oralig'ida ko'rib chiqish haqida qaror qabul qildi.

IHK tarkibiga 47ta davlat kiradi. O'rinlar soni mintaqaviy guruhlar bo'yicha proporsional ravishda taqsimlangan: Afrika davlatlari guruhi – 13ta o'rin, Osiyo davlatlari guruhi – 13ta o'rin, Sharqiy Yevropa davlatlari guruhi – 6ta o'rin, Lotin Amerikasi va Karib havzasi davlatlari guruhi – 8ta o'rin va G'arbiy Yevropa va boshqa davlatlar guruhi – 7ta o'rin.

IHKda a'zolik BMT barcha a'zo davlatlari uchun ochiqdir. Shu bilan birga, IHKga tanlayotganda Bosh Assambleya “nomzodlarning inson huquqlariga ko'maklashish va himoya qilish ishiga qo'shgan hissasi va ularning bu boradagi ixtiyoriy majburiyatlari va va'dalarini inobatga olishi” lozim.

IHK faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillari Bosh Assambleyaning 60/251-rezolutsiyasida keltirilgan. Uning qoidalariga muvofiq IHK bir-yilda kamida uchta sessiya o'tkazishi, ularning davomiyligi jami 10 haftadan kam bo'lmasligi lozim.

IHK faoliyatini tashkil etishning asosiy mezonlari u faoliyat yurita boshlagan dastlabki-yilda ishlab chiqilgan va IHKning 2007-yil 18-iyundagi 5/1 “Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Kengashi institutsional qurilishi” rezolutsiyasida bayon etilgan.

IHK BMT Bosh Assambleyasiga yillik ma'ruza taqdim etadi.

IHK o'zining mandatida ko'rsatilgan inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq, jumladan, qo'pol va tizimli buzilish holatlarini ko'rib chiqish va ular yuzasidan o'z tavsiyalarini ishlab chiqish huquqidan faol foydalanadi. Shu orqali Kengash alohida davlatlar tomonidan o'zlarining huquqni himoya qilish majburiyatlariga rioya etilishi ustidan bevosita nazoratni amalga oshiradi. Bunday nazorat har qanday davlat yoki hududga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Bevosita nazoratning eng muhim vositalaridan biri Kengashning maxsus sessiyasi sanaladi, ular Kengash a'zo davlati talabiga ko'ra a'zo davlatlar uchdan birining qo'llab-quvvatlashi bilan istalgan paytda o'tkaziladi.

Maxsus taomillar BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining boshqa mexanizmlari bilan birga, IHKga 60/251-rezolutsiyaga muvofiq berilgan. Maxsus taomillarga o'zlariga Kengash tomonidan yuklatilgan alohida funksiyalarni bajarish uchun Inson huquqlari bo'yicha kengash (oldingi Inson huquqlari bo'yicha komissiya) tomonidan tayinlanadigan, shaxsiy tartibda harakat qiluvchi mustaqil ekspertlar yoki ekspertlar guruhlari kiradi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning birinchi maxsus taomili – Maxsus ekspertlar ishchi guruhi 1967-yilda JARda irqchilar rejimi

tomonidan sodir etilgan inson huquqlarining buzilishini tekshirish uchun ta'sis etilgandi.

IHK, muayyan vaziyatlar bo'yicha Ishchi guruh tomonidan uning e'tiboriga yetkazilgan xabarlar (shikoyatlar)ni zarur hollarda istalgancha, lekin bir-yilda kamida bir marta ko'rib chiqadi. Tegishli davlatga shikoyat yuborilgan vaqtdan uni Kengash tomonidan ko'rib chiqilgunicha o'tadigan muddat 24 oydan oshmasligi kerak.

IHKda shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ehtimoliy choralarga "IHOKBga tegishli mamlakatga texnik yordam, uning salohiyatini mustahkamlashda yordam yoki maslahat xizmatlari ko'rsatishni tavsiya etish" opsiyasi qo'shildi.

Universal davriy sharh (UDSH) BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 15-martdagi 60/251-rezolutsiyasi bilan tashkil etildi, ushbu rezolutsiyaga muvofiq Inson huquqlari kengashi tashkil topgandi. U BMT a'zosi bo'lmish har bir mamlakatdagi inson huquqlariga oid ahvolding yaxlit manazarasini yaratish va qo'llab-quvvatlash inkonini berdi...

Universal davriy sharh bosqichlari:



BMT Xavfsizlik Kengashi

BMT tomonidan tez va samarali harakatlarni ta'minlash uchun uning a'zolari Xavfsizlik Kengashiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun bosh javobgarlikni yuklaydilar va ushbu javobgarlikdan kelib chiquvchi o'z majburiyatlarini ijro etishda, Xavfsizlik Kengashi ularning nomlaridan ish ko'radi. BMT a'zolari BMT Nizomiga binoan Xavfsizlik Kengashi qarorlariga bo'ysunishga va ularni bajarishga rozilik bildiradilar.

Xavfsizlik Kengashi 15ta a'zodan iborat; ularning 5tasi doimiy a'zolar: Buyuk Britaniya, XXR, Rossiya, AQSH va Fransiya. Qolgan 10ta a'zo Bosh Assambleya tomonidan ikki-yilga adolatli geografik taqsimot tamoyiliga rioya etilgan holda saylanadi.

XKning taomillar bo'yicha qarorlari Kengashning to'qqiz a'zosi ularni yoqlab ovoz berganda qabul qilingan deb hisoblanadi. XKning boshqa barcha masalalar bo'yicha qarorlari Kengashning to'qqiz a'zosi ularni yoqlab ovoz berganda, ular ichida Kengashning barcha doimiy a'zolari ovozlari ham bo'lganida qabul qilingan deb hisoblanadi.

BMT Nizomining 34-moddasiga ko'ra Xavfsizlik Kengashi xalqaro ixtilofga sabab bo'lishi yoki nizo chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchilik yoki vaziyatni tekshirishga vakil qilinadi. Turli vazifalarni bajarish uchun Xavfsizlik Kengashi yordamchi organlar – qo'mitalar, komissiyalar, ishchi guruhlar tuzadi.

Xavfsizlik Kengashi rezolutsiyalari bilan alohida mamlakatlar yoki mintaqalardagi BMT missiyalari ta'sis etiladi. Misol tariqasida 1948-yilda tashkil etilgan Hindiston va Pokistondagi BMT harbiy kuzatuvchilari guruhini yoki 2000-yilda tashkil etilgan Efiopiya va Eritriyadagi BMT missiyasini keltirish mumkin. XK rezolutsiyasi asosida sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro tribunal (1993) va Ruanda bo'yicha Xalqaro jinoiy tribunal (1994) ta'sis etilgan. BMT Nizomi VII bobi bo'yicha sanksiyalar qo'llashning dastlabki pretsedentlaridan biri 1965–1966-yillarda Janubiy Rodeziyada hokimiyat irqchi rejim tomonidan qo'lga olinganda u yerdagi inson huquqlarining buzilishi yuzasidan bo'lgandi.

BMT Xalqaro Sudi

Xalqaro Sud (XS) BMTning bosh sud organi sanaladi. Sudning statuti BMT Nizomining uzviy qismi sanaladi. BMT barcha a'zolari ipso facto Statut ishtirokchilari sanaladi. BMT a'zosi bo'lmagan davlatlar XS Statutiga qo'shilishlari mumkin.

Sud mustaqil sudyalardan iborat bo'lib (15 nafar sudya), ular o'z mamlakatlarida oliy sud mansablariga tayinlash uchun ko'rsatiladigan talablarga javob bera oladigan yoki xalqaro huquq sohasida obro'ga ega huquqshunolar bo'lgan, yuksak ma'naviy sifatlarga ega insonlar ichidan tanlab olinadi.

Statutning 34-moddasi 1-bandiga ko'ra, "Sud tomonidan hal etilayotgan ishlarda faqat davlatlar sud muhokamasi tomonlari bo'lishi mumkin". Sudda unga tomonlar taqdim etgan barcha ishlar va BMT

Nizomi yoki amaldagi xalqaro shartnomalarda maxsus ko'zda tutilgan barcha masalalar ko'rilishi mumkin.

Shu bilan birga, Xalqaro sudning universal darajada inson huquqlarini himoya qilishdagi hissasini past baholab bo'lmaydi. Uning bu yo'nalishdagi ishida xalqaro huquqni kodlashtirish va jadal taraqqiy etishidagi ishtirokini ajratib ko'rsatish mumkin.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga rioya etish to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqishga Gruziyaning Rossiyaga qarshi arizasini misol qilib keltirish mumkin. Jarayonning rasmiy nomi – "Irtiy kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qo'llashga oid ish (Gruziya Rossiya Federatsiyasiga qarshi)" (ingl. Case concerning Application of the International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination (Georgia v. Russian Federation)).

BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (IHK) BMTning 54ta a'zosidan tashkil topgan, ular Bosh Assambleya tomonidan uch-yilga saylanadi.

IHK tashkil etilguniga qadar IHK BMTning huquqni himoya qilishga mas'ul hal qiluvchi organi bo'lgan. IHK Inson huquqlari bo'yicha komissiya va Inson huquqlarini rag'atlantirish va himoya qilish bo'yicha quyi komissiya ishlarini boshqargan. 2006-yildan boshlab BMTning inson huquqlari sohasidagi barcha tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish masalasi IHKga yuklatilgan.

IHK a'zo davlatlar tomonidan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xalqaro pakti a'zo davlatlari tomonidan Pakt bo'yicha o'z majburiyatlariga rioya etishlari bo'yicha nazorat funksiyalariga ega.

BMT Kotibiyati

Kotibiyat BMTning kundalik faoliyatiga mas'ul bo'lgan Tashkilotning bosh organlaridan biri sanaladi. U xalqaro xizmatchilardan tashkil topgan.

Bosh Kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik kengashi taklifiga ko'ra besh-yilga qayta saylanish huquqi bilan tayinlanadi. Hozirda BMT Bosh kotibi lavozimini Koreya Respublikasi fuqarosi Pan Gi Mun egallagan.

BMT Bosh kotibi Tashkilotning bosh ma'muriy mansabdor shaxsi sanaladi.

Kotibiyat funksiyasining o'ziga xosligi shundaki, BMT Nizomi unga huquqni himoya qilish sohasida aniq majburiyatlar yuklamaydi.

BMT Kotibiyatiga inson huquqlari sohasida nazorat vakolatlari yuklanganligi pretsedentlari mavjud. Chunonchi, IHOKB IHK 16-maxsus sessiyasida "Jazosiz qolishga yo'l qo'ymaslik va aybdorlarning to'liq javobgarligini ta'minlash maqsadida, Suriya Arab Respublikasiga inson huquqlari xalqaro huquqning buzilishi haqidagi barcha da'volarni tekshirish, bunday huquqbuzarliklar faktlarini va holatlarini hamda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash uchun tezlikda missiya yuborish" yuklatilgandi.

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha shartnomaviy (konvensiyaviy) organlar

BMTda qabul qilingan tasnifga ko'ra, hozirda 10ta shartnomaviy organ faoliyat yuritadi – Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita, Irtiqiy kamsitishlarni bartaraf etish bo'yicha qo'mita, Qiynoqchilarga qarshi qo'mita, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita, Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita, Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqini himoya qilish bo'yicha qo'mita, Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita, Zo'rlik bilan yo'qolishlar bo'yicha qo'mita va Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha quyi qo'mita.

Inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlar faoliyatida hozirda to'rtta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin – tegishli xalqaro shartnoma doirasida davlat tomonidan o'z majburiyatlarining bajarilishi tahlili, shikoyatlarni ko'rib chiqish, umumiy tartibda mulohazalarni tayyorlash va tekshiruv o'tkazish.

1. Inson huquqlari bo'yicha qo'mita

Inson huquqlari bo'yicha qo'mita 1976-yilda, 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt kuchga kirishi natijasida tashkil topgan. Qo'mita shaxsiy tartibda ishlovchi va Pakt a'zo davlatlari fuqarolari bo'lmish 18 nafar ekspertdan tashkil topgan.

Bu sohadagi davlatlararo nizolarni ko'rib chiqish va hal etish uchun Pakt tomonidan keng va murakkab taomil ko'zda tutilgan – ma'ruzalar tinglash, vositachilik va hatto kelishuv komissiyalarini tayinlash. Qo'mita faoliyatining muhim yo'nalishi individual shikoyatlarni ko'rib chiqish sanaladi.

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita konvensiyaviy mexnazimlar tizimida noyob mavqega ega. U bevosita shartnoma qoidalari bilan ta'xis etilmagan yagona shartnomaviy organdir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (IIMHXP)ga a'zo davlatlari tomonidan o'z majburiyatlariga rioya etishni nazorat qilish funksiyalari IIKga vakolatiga kiritilgan.

Qo'mita shaxsiy tartibda ishlovchi 18 nafar ekspertdan iborat, ular inson huquqlari borasida e'tirof etilgan vakolatga ega bo'ladilar. Qo'mita o'z faoliyati haqida IIKga ma'ruzalar taqdim etadi. Qo'mita mandati Paktning 4-bobi va IIK rezolutsiyalari bilan belgilangan. Uning asosiy majburiyati – davlatlarning ular tomonidan Paktga e'tirof etilgan huquqlarga rioya etishga erishish yo'lidagi ular amalga oshirgan chora-tadbirlar va rivojlanish haqidagi davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish, bunday ma'ruzalar har to'rt yilda taqdim etilishi lozim.

Qo'mita yakka tartibdagi shikoyat yoki xabarlarini ko'rib chiqish taomiliga ega emas. Qo'mita tekshiruv o'tkazish yoki bir davlatdan boshqa davlat tomonidan o'zining Pakt bo'yicha majburiyatlarini buzganligi to'g'risidagi xabar qabul qilish yoki tekshiruv o'tkazish vakolatiga ega emas. Qo'mita faoliyatining muhim shakli umumiy tartibdagi mulohazalar sanaladi.

3. Irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita

Inson huquqlari to'g'risidagi barcha asosiy shartnomalarda UIHShda umumqabul qilingan tamoyil aks etgan, unga ko'ra shartnomalarda bayon etilgan huquqlar qanday bo'lmasin farqlarsiz amalga oshirilishi lozim. UIHSh 2-moddasida kamsitish uchun taqiqlangan asoslarning to'liq bo'lmagan ro'yxati keltiriladi: irq yoki teri rangi, jins, til, din, siyosiy yoki boshqa qarashlar, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqish, mulkiy, sulolaviy yoki boshqa holat. Xuddi shu ro'yxat ikkala Paktning 2-moddasiga kiritilgan. Keyingi shartnomalarda bu ro'yxat kengaytirilgan. Ikkita shartnoma – IKBXK va XKBK kamsitishning aniq shakllarini tegishli qo'mita kamsitish va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga bevosita yo'naltirilgan.

Irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita – inson huquqlari bo'yicha birinchi shartnomaviy organ. U 1970-yilda 1965-yilgi Irqiy kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qoidalariga muvofiq tashkil etilgan. Qo'mitaning davriy ma'ruzalarni ko'rib chiqish amaliyoti boshqa shartnomaviy organlar amaliyotlari bilan har tomonlama mos keladi.

Konvensiyaning 14-moddasiga muvofiq Qo'mita o'z yurisdiksiyasi chegarasida alohida shaxslar yoki shaxslar guruhlarini tomonidan xabarlar

qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatiga ega. Shuningdek, Konvensiya davlatlararo shikoyatlar taomilini ham ko'zda tutadi. Qo'mitaning boshqa shartnomaviy organlar uchun xos bo'lmagan faoliyat shakli oldinini olish va zudlik bilan harakat qilish taomili hisoblanadi.

Qo'mita quyidagi to'rtta funksiyani bajaradi:

- hisobotlarni ko'rib chiqish;
- oldini olishga qaratilgan choralar;
- hisobotni taqdim qilish kechiktirilsa, a'zo davlatdagi yuzaga kelgan vaziyatni majburiy shaklda ko'rib chiqish;
- individual xabarlar bo'yicha fikr-mulohazalarni ishlab chiqish.

Irqiy kamsitish nima? "...siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki ijtimoiy hayotning boshqa istalgan sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini teng asosda tan olish, qo'llash yoki amalga oshirish maqsadida yoki uning oqibati o'laroq, irq, teri rangi, sulolaviy, milliy yoki etnik kelib chiqishi belgilariga asoslangan har qanday ajratish, istisno qilish, cheklash yoki afzallik berish" (1-modda).

4. Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish qo'mitasi

Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish qo'mitasi 1982-yilgi Xotin-qizlarga nisbatan barcha ko'rinishdagi kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiyaga asosan tuzilgan. Qo'mita 23 nafar ekspertdan iborat. O'zining sessiyalarida Qo'mita a'zo davlatlar tomonidan taqdim etilgan hisobot va har qanday axborotlarni o'rganadi. Bu hisobotlarni ko'rib chiqish yakunida Qo'mita taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi. U shuningdek, Konvensiyadagi majburiyatlarni bajarish yuzasidan a'zo davlatlar qo'llashi mumkin bo'lgan umum tavsiyalarni ham ishlab chiqadi.

2008-yilda Qo'mita alohida tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazorat qilish taomilini joriy etdi.

Qo'mita faoliyatining muhim yo'nalishi umumiy tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

5. Qiynoqlarga qarshi qo'mita

Boshqa shartnomaviy tashkilotlar kabi Qiynoqlarga qarshi qo'mita Konvensiya a'zo davlatlarining u bo'yicha olgan majburiyatlarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'ruzalarini ko'rib chiqadi. Konvensiyada Qo'mitaning a'zo davlat tomonidan uning qoidalari buzilganligi haqidagi yakka tartibdagi xabarni ko'rib chiqish vakolati ham ko'zda tutilgan.

Qiynoq nima? "... tegishli shaxsdan ma'lumotlar olish, undan o'zi yoki uchinchi shaxs sodir etgan, sodir etishda gumon qilinadigan harakati uchun jazolash, shuningdek uni qo'rqitish yoki zo'rqlash, davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy

shaxs sifatidagi boshqa shaxsning tashabbusi bilan yoki ularning xabardorligida yoxud soʻzsiz roziligi bilan har qanday tushadigan kamsitishga asoslangan kuchli ogʻriq va azob berishga qaratilgan harakatni anglatadi” (1- modda).

2015-yilning dekabr oyida BMT Bosh Assambleya rezolutsiyasi ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan minimal standart qoidalarini qayta koʻrib chiqdi. Shu bilan birga, ekspertlar guruhi inson huquqlarini taʼminlash yoʻlida kurashib, 27 yil mobaynida qamoqqa mahkum qilingan marhum Janubiy Afrika prezidenti Nelson Rolihlaxi Mandela xotirasiga ushbu qoidalarni “Nelson Mandela qoidalari” deya qayta nomladi.

6. Bola huquqlari boʻyicha qoʻmita

Bola huquqlari boʻyicha qoʻmita 1989-yilgi Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya 43-moddasiga muvofiq tashkil etilgan. Bola huquqlari boʻyicha qoʻmita hozircha yakka tartibdagi xabarlarni koʻrib chiqmaydi, bir davlatning boshqa davlat tomonidan Konvensiya qoidalari bajarilmayotganligi haqidagi shikoyatlarini koʻrib chiqmaydi, tekshiruvlar oʻtkazmaydi. Qarorlari – umumiy tartibda.

Bola huquqlarini amalga oshirishning toʻrtta “umumiy tamoyili”. Bola huquqlari boʻyicha qoʻmita Konvensiyada keltirilgan va bola huquqlarini amalga oshirishda davlatlar amal qilishlari lozim boʻlgan toʻrtta umumiy tamoyilni ajratib koʻrsatgan:

1. Kamsitmaslik: davlatlarning Konvensiyada koʻzda tutilgan, ularning yurisdiksiyalari doirasida boʻlgan har bir bolaning, biror-bir kamsitishsiz, huquqlarini hurmat qilish va taʼminlash majburiyati (2-modda);

2. Bola manfaatlarining eng yaxshi suratda taʼminlanishi: bolalarga nisbatan har qanday harakatlarda biriamchi eʼtibor boʻla manfaatlarining eng yaxshi suratda taʼminlanishiga qaratilishi lozim (3-modda);

3. Yashash, tirik qolish va sogʻlom rivojlanish huquqi: bolaning yashashga boʻlgan uzviy huquqi va aʼzo davlatlar tomonidan bolaning tirik qolishi va sogʻlom rivojlanishini maksimal mumkin boʻlgan darajada taʼminlanishi (6-modda);

4. Bolaning unga taalluqli barcha masalalar boʻyicha oʻz shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash huquqi: “bolaga taalluqli barcha masalalar boʻyicha” bolaning oʻz shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash huquqi, bu qarashlarga “bolaning yoshini inobatga olgan holda” yetarlicha ahamiyat berilishi lozim (12-modda).

7. Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish qo'mitasi 2004-yildan buyon faoliyat yuritadi. U 1990-yildagi Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish xalqaro konvensiyasining 72-moddasiga muvofiq ta'sis etilgan. Konvensiyaning 77-moddasiga muvofiq Qo'mita o'zlari yurisdiksiyasi ostida bo'lgan ishtirokchi davlat tomonidan ularning Konvensiyada ko'zda tutilgan shaxsiy huquqlari buzilgan, deb ta'kidlovchi alohida shaxslardan axborot olish va ko'rib chiqish vakolatiga ega. Qo'mita tekshiruv o'tkazish vakolatiga ega emas.

8. Nogironlar huquqlari qo'mitasi

Nogironlar huquqlari qo'mitasi 2006-yildagi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 34-moddasiga muvofiq ta'sis etilgan. U 2009-yilda ish boshladi.

Xalqaro konvensiyada nogironlarning mustaqil hayot kechirishlari va boshqalar bilan teng ravishda ijtimoiy muhitdan, transport, aloqa, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shahar va qishloq joylarida aholi uchun mo'ljallangan barcha ob'ektlar hamda xizmatlardan teng foydalanish huquqlari ilgari surilgan.

2009-yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyani imzolagan edi. 2014-yilning noyabr oyida esa BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va Shartnomaviy organlari tavsiyalarini bajarish bo'yicha Milliy tadbirlar dasturini qabul qildi. Yuqorida qayd qilingan Konvensiyani ratifikatsiya qilish davlat tomonidan qabul qilingan tavsiyalardan biri edi.

Qo'mita ishtirokchi davlatlarning boshqa ishtirokchi davlatlar tomonidan Konvensiya qoidalari buzilganligi haqidagi shikoyatlarini qabul qilmaydi va ko'rib chiqmaydi.

Konvensiyaga Fakultativ bayonnomaga muvofiq Qo'mita Konvensiya ishtirokchi davlat yurisdiksiyasida bo'lgan va ushbu ishtirokchi davlat tomonidan Konvensiya qoidalari buzilishi qurboni bo'lganligini bildiruvchi alohida shaxslar yoki shaxslar guruhi xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish vakolatiga ega. Shuningdek, ushbu shaxslar yoki shaxslar guruhi nomidan yerilgan xabarlar ham ko'rib chiqiladi.

9. Barcha shaxslarni zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish bo'yicha qo'mita

Qo'mita 2010-yilda 2006-yildagi Barcha shaxslarni zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan.

Qo'mita vakolati tezkor choralar ko'rishni nazarda tutadi. Yo'qolgan shaxs qarindoshlari, ularning qonuniy vakillari, advokatlar yoki ular tomonidan vakolat berilgan istalgan shaxs yoki qonuniy manfaati bo'lgan har qanday boshqa shaxs Qo'mitaga yo'qolgan shaxsni qidirish va qayerda ekanligini aniqlash to'g'risida iltimos bilan murojaat qilishi mumkin.

Qo'mita ishtirokchi davlatlar yurisdiksiyasida bo'lgan shaxslar tomonidan yoki ana shunday shaxslar nomidan berilgan, ular ushbu davlat tomonidan Konvensiya qoidalarining buzilishi qurbonlari ekanliklari haqidagi yakka tartibdagi xabarlarini olishi va ko'rib chiqishi mumkin. Qo'mita ishtirokchi davlatlarning boshqa ishtirokchi davlat tomonidan Konvensiya bo'yicha majburiyatlar bajarilmayotgani haqidagi shikoyatlarini ko'rib chiqish huquqiga ega. Qo'mita u yoki bu ishtirokchi davlat Konvensiya qoidalariga jiddiy zarar yetkazuvchi harakatlarni sodir etayotgani haqidagi ishonchli axborot yuzasidan tekshiruv o'tkazish vakolatiga ega.

10. Qiynoqlarning oldini olish quyi qo'mitasi

Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki g'urumi poymol qiluvchi muomala va jazo turlarining oldini olish quyi qo'mitasi 2006-yil iyun oyida kuchga kirgan Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki g'urumi poymol qiluvchi muomala va jazo turlarining oldini olish konvensiyasiga Fakultativ bayonnomaga muvofiq ta'sis etilgan.

Quyi qo'mita davriy ma'ruzalarni ko'rib chiqmaydi, yakka tartibdagi xabarlarini qabul qilmaydi va umumiy tartibdagi mulohazalarni e'lon qilmaydi. Mandatining o'ziga xosligi va faoliyatining xarakteridan kelib chiqib, barcha tadqiqotchilar ham uni shartnomaviy organ deb hisoblamaydi.

Quyi qo'mitaning asosiy majburiyati – Bayonnomaga ishtirokchi davlatlaridagi ozodlikdan mahrum qilish joylariga borish va ushbu tashriflar yakunlari bo'yicha ozodlikdan mahrum etilganlarni qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki g'urumi poymol qiluvchi muomala va jazo turlaridan himoya qilishga oid tavsiyalar taqdim etishdan iborat.

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy mexanizmlar

Yevropa inson huquqlarini himoya qilish tizimi

Yevropa Kengashi: 1949-yilda o'nta G'arbiy Yevropa davlatlari tomonidan ta'sis etilgan. Bugungi kunda unga aksariyat Yevropa mamlakatlari a'zolar. Uning asosiy vazifasi ozodlik, demokratiya, inson huquqlarini tan olish va huquq ustuvorligiga asoslangan yagona Yevropa hamjamiyatini tashkil etishdan iborat. Mazkur maqsadlar yo'lida Kengash yagona huquqni qo'llash analiyotini yaratib, ishtirokchi davlatlar uchun umumiy me'yorlarni ishlab chiqadi. Yevropa Kengashining inson huquqlari sohasidagi faoliyati Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasiga kiritilgan kafolatlarni kengaytirish va mustahkamlash, undagi huquqlar ro'yxatini takomillashtirish, sud jarayonini tezlashtirish va boshqalarga yo'naltirilgan.

Yevropa Kengashi tashkil etilgach va uning asosiy nazorat mexanizmlari – Yevropa inson huquqlari komissiyasi va Yevropa inson huquqlari sudi (1998-yil noyabridan – yagona Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi) faoliyati, Yevropa mamlakatlari milliy qonunchiligida Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya asosiy me'yorlarining tasdiq topishi, shuningdek Yevropada xavfsizlik va hamkorlik majlisi, Yevropada inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa tashkilotlar faoliyati natijasi o'laroq, "Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa standartlari" va "Inson huquqlarini himoya qilishning Yevropacha tizimi" tushunchalari yuzaga kelganligi haqida so'zlash mumkin.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan. Konvensiya shartnoma shaklida bo'lib, unga ko'ra Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar ularning yurisdiksiyalari ostida bo'lgan barcha shaxslarning ba'zi asosiy inson huquqlarini kafolatlash majburiyatini o'z zimmlariga oldilar. U o'zidagi kafolatlanadigan huquqlar ro'yxati bilangina emas, balki ko'proq himoya qilish mexanizmlari bilan ahamiyatlidir. Bu mexanizmlar Strasburgda Konvensiyada ko'zda tutilgan majburiyatlarning ehtimoliy buzilishini tekshirish va bajarilishini ta'minlash uchun tashkil etilgan. Konvensiyaning asosiy roli eng rivojlangan himoya vositalari yordamida har bir shaxsga uning huquqlariga rioya etilishi kafolatini berishdan iborat.

Hozirda Konvensiyani ratifikatsiya qilish, 34-moddaga muvofiq xususiy shaxslarning yakka tartibda arizalar topshirish huquqlarini tan olish va 19-moddaga muvofiq Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi yurisdiksiyasining amalda bo'lishi – bular Yevropa Kengashiga

a'zolikning majburiy shartlaridir. Yevropa Kengashi tomonidan ushbu Konvensiya bo'yicha qabul qilinadigan bayonnomalar davlat uchun u ratifikatsiya qilinganidan keyin majburiy kuchga kiradi. Kengash Konvensiyaning amalga oshirilishi ustidan ham kafolatlanadigan huquqlar ro'yxatini kengaytirish, ham amaldagi jarayonlarni takomillashtirish yo'li bilan doimiy nazoratni amalga oshiradi.

Konvensiya Yevropa Kengashi a'zo mamlakatlaridan fuqarolar va boshqa shaxslarning, agar ularning huquqlari milliy darajada buzilayotgan bo'lsa, Konvensiyaning nazorat organlariga shikoyat bilan yakka tartibda murojaat qilish huquqlarini belgilab qo'ygan. Konvensiyaga №11 Bayonnoma bilan kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, Yevropa sudi "Ushbu Konvensiyada yoki unga bayonnomalarda e'tirof etilgan huquqlari Oliy Shartnoma Tomonlaridan biri tomonidan buzilganligi qurboni bo'lganliklarini ta'kidlovchi istalgan jismoniy shaxs, istalgan nohukumat tashkiloti yoki har qanday xususiy shaxslar guruhi tomonidan shikoyatlarni qabul qilishi mumkin. Oliy Shartnoma Tomonlari bu huquqning samarali amalga oshirilishiga hech qanday to'sqinlik qilmaslik majburiyatini zimmalariga oladilar".

Konvensiya unga bayonnomalar qabul qilish yo'li bilan muntazam ravishda to'ldirilgan va o'zgartirilgan. Umumiy hisobda hozirgacha Konvensiyaga 14ta bayonnoma qabul qilingan, ular yangi huquq va ozodliklarni tan oladi (1, 4, 6, 7-bayonnomalar), taomil masalalarini ko'taradi (3, 5, 8, 9-14-bayonnomalar) va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga o'ta cheklangan konsultatsiya vakolatini beradi. (2-bayonnoma).

1961-yilgi Yevropa ijtimoiy xartiyasi 1965-yil 26-fevralda kuchga kirdi. U 19ta asosiy huquqlarni va Yevropa Kengashi a'zo davlatlari yurisdiksiyasi ostidagi barcha shaxslar uchun huquqlar rioya etilishining ijtimoiy-huquqiy kafolatlarini o'z ichiga oladi.

Jumladan, Xartiya quyidagi huquqlarni himoya qiladi: mehnat qilish (1-modda) va adolatli mehnat sharoiti (2- modda) huquqlari, adolatli haq to'lash huquqi (4-modda), jamoaviy va boshqa shartnomalar tuzish huquqi (6- modda), bolalar va yoshlarning himoya etilish huquqi (7-modda), ishlavdigan ayollarning himoya etilish huquqi (8-modda), ijtimoiy ta'minot olish huquqi (12-modda), ijtimoiy va tibbiy yordam olish huquqi (13-modda), oilaning himoya etilish huquqi (16-modda) va boshqalar.

1996-yilda qabul qilingan va 1999-yil 1-iyulda kuchga kirgan Yevropa ijtimoiy xartiyasining yangi tahriri olti qismdan iborat. U 1961-yilgi Xartiya va 1988-yildagi Bayonnoma tomonidan kafolatlanuvchi

huquqlarni, 1961-yilgi Xartiya nazorat taomilini, jumladan, jamoaviy shikoyatlarni taqdim etish mexanizmini o'z ichiga oladi va sakkizta yangi huquqni joriy etadi (24–31-moddalar).

1987-yildagi Qiynoqlar va boshqa g'ayriinsoniy yoki g'ururni poymol qiluvchi muomala va jazo turlarining oldini olish Yevropa konvensiyasi 1989-yil 1-fevralda kuchga kirdi. Konvensiyadan ko'zlangan maqsad ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar himoyasini kuchaytirishda Yevropa davlatlariga yordam berishdir.

Konvensiya Qiynoqlar va boshqa g'ayriinsoniy yoki g'ururni poymol qiluvchi muomala va jazo turlarining oldini olish Yevropa qo'mitasini ta'sis etishni ko'zda tutadi. U ozodlikdan mahrum etilgan (hibsda saqlanayotgan) shaxslarga nisbatan ehtimoliy jismoniy yoki ma'naviy suiiste'mollar oldini olish va bunday shaxslar bilan muloqotni nazorat qilish maqsadidagi suddan tashqari mexanizmdir. Bu organning tarkibi Konvensiyaning ishtirokchi davlatlari vakillaridan tashkil topadi.

Qo'mita uning a'zolarini va ekspertlarini ishtirokchi davlat hududida joylashgan istalgan hibsdan saqlash yoki ozodlikdan mahrum etish joylariga yuborish va, zaruriyat bo'lganda, ma'ruzada belgilangan faktlar yuzasidan manfaatdor davlatga tavsiyalar berish huquqiga ega.

Amerika davlatlari inson huquqlarini himoya qilish tizimi

Amerika davlatlari tashkiloti doirasida faoliyat yurituvchi inson huquqlarini himoya qilish tizimi Yevropa Kengashi mintaqaviy tizimiga solishtirganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Avvalo, Amerika davlatlari inson huquqlari tizimi faoliyatining asosida bir vaqtning o'zida uchta hujjat yotadi: Amerika davlatlari tashkiloti Nizomi, Amerika inson huquqlari va majburiyatlari deklaratsiyasi va Amerika davlatlari inson huquqlari konvensiyasi.

Birinchi hujjatda faqatgina "Amerika davlatlari irqi, millati, e'tiqodi yoki jinsidan qat'i nazar, inson shaxsining asosiy huquqlarini e'tirof etadi" degan qoida mavjud bo'lsa, ikkita boshqa hujjat butunlay inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va rag'batlantirish muammolariga bag'ishlangan.

Vaqt nuqtayi nazaridan, Amerika inson huquqlari va majburiyatlari deklaratsiyasi hatto 1948-yilgi Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasidan olti oyga ilgari ketgan. Shu tariqa, Amerika deklaratsiyasi – asosiy siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar e'tirof etilgan birinchi xalqaro hujjatdir.

Anchayin keng huquqlar va erkinliklar ro'yxati bilan birga, Amerika deklaratsiyasi inson majburiyatlarini ham e'lon qilgan. Yevropa Kengashi hujjatlarida bunday narsa yo'q.

1948-yilgi Amerika davlatlari tashkiloti nizomi inson huquq va erkinliklariga oid ozgina qoidalarga ega, ular o'ta umumiy suratda ifodalangan. Nizom "shaxsning fundamental huquqlari" ma'nosini belgilamaydi va ularga rioya etish hamda himoya qilish mexanizmini aniqlamaydi.

1969-yil 22-noyabrda San-Xosedagi (hujjatning ikkinchi nomi – San-Xose pakti shundan kelib chiqqan) Ikkinchi Amerika davlatlari maxsus konferensiyasi davomida qabul qilingan va 1978-yil 18-iyulda kuchga kirgan Amerika davlatlari inson huquqlari konvensiyasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi kabi "yopiq shakldagi" ko'ptomonlama xalqaro shartnomadir: uni imzolash, ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilish huquqi faqat ADT a'zo davlatlariga tegishli.

Amerika davlatlari konvensiya kuchga kirishi bilan Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'zining huquqni qo'llash faoliyatida Konvensiya ishtirokchi davlatlariga nisbatan ushbu konvensiya qoidalariga asoslanib ish ko'rsa, Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan ADT a'zo davlatlariga nisbatan Komissiya Amerika deklaratsiyasi qoidalarini qo'llashda davom etadi.

Shu tariqa, noyob vaziyat yuzaga keldi – bitta inson huquqlarini himoya qilish mintaqaviy tizimi doirasida ikkita quyi tizimlar amalda bo'ladi: biri uchun asosiy hujjat – bu Amerika deklaratsiyasi bo'ladi (yuridik jihatdan majburiy tusga ega emas), boshqasi uchun – Amerika davlatlari inson huquqlari konvensiyasi, ya'ni ishtirokchi davlatlari uchun bajarilishi majburiy hujjat.

Konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq ishtirokchi davlatlar tomonidan o'z zimmlariga olingan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish vakolati Amerika davlatlari inson huquqlari bo'yicha komissiyasiga va Amerka davlatlari inson huquqlari bo'yicha sudga beriladi.

Inson huquqlarini himoya qilishning Afrika tizimi

Afrika kontinentidagi inson huquqlarini himoya qilish mintaqaviy tizimining asosi Afrika birdamligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan Afrika inson huquqlari va xalqlar huquqlari xartiyasi sanaladi, uning maqsadi Afrika qit'asida inson huquqlarini hurmat qilishni rivojlantirishga ko'maklashish va ularni himoya qilishdan iborat. Yevropa

konvensiyasi kabi Xartiya “yopiq” turdagi shartnomalar turiga mansub Xartiyaning matni 1981-yil 27-iyunda ABT davlatlari va hukumatlari boshliqlari Assambelyasining Nayrobi shahri (Nigeriya)da o‘tkazilgan 19-sessiyasida qabul qilingan va imzolash uchun ochiq deb e’lon qilingan. Ko‘rib chiqilayotgan shartnoma 1986-yil 21-oktabrda kuchga kirgan.

Hozirgi kunda Xartiya ishtirokchilari Afrika ittifoqining (Afrika birdanligi tashkiloti 2011-yilda Afrika ittifoqi sifatida qayta tashkil etilgandi) 51ta a’zo davlatlari mavjud. Xartiyani Efiopiya va Eritreya imzolagan, lekin ratifikatsiya qilmagan.

Yana bir Afrika davlati – Marokash AI a’zosi emas, bu uning Xartiyada qatnashish ilojini yo‘qqa chiqaradi.

Shu tariqa, Afrika xartiyasi – uchta mintaqaviy (Yevropa, Amerika va Afrika) tizim ichida eng universali hisoblanadi.

Afrika xartiyasining o‘ziga xosligi, unda qit‘aning siyosiy voqeligi, shuningdek Afrika xalqlari tarixiy an‘analari va Afrika sivilizatsiyasi qadriyatlarini aks etganligidadir.

Afrika xartiyasiga “nafaqat Afrika qit‘asi uchun noyob hujjat sifatida, balki o‘zlari amal qiluvchi mintaqalar ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirilgan inson huquqlari borasidagi mintaqaviy shartnomalarning tobora ko‘payib borayotgani nuqtayi nazaridan ham yondashish lozim”.

Xartiyaning ajralib turuvchi, shu vaqtning o‘zida inson huquqlari xalqaro huquqshunosligi sohasidagi konseptual yangilik bo‘luvchi xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1) inson huquqlari qatorida xalqlar huquqlarining ham e’tirof etilishi (inson huquqlarining “uchinchi avlodi”);

2) inson huquqlarining bo‘linmasligi e’tirofi, bu atama ostida Xartiyada siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar nazarda tutiladi;

3) inson huquqlari sifatida rivojlanish huquqining tan olinishi;

4) insonga uning oila, jamoa, jamiyat, davlat, shuningdek qonunan tan olingan boshqa tuzilmalar va xalqaro hamjamiyat munosabatlarida yuklatiladigan qator asosiy majburiyatlarni e’tirof etish;

5) inson huquqlariga nisbatan yaqqol aks etuvchi jamoaviy (oilal, jamoa, xalq) yondashuv. Xartiya konsepsiyasiga muvofiq, xususiy shaxs jamoa manfaatlariga ustuvorlik berishi lozim. “Javob qadami” sifatida jamoa o‘z a’zolarining huquqlarini himoya qilish majburiyatini oladi.

Osiyo inson huquqlarini himoya qilish tizimi

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi o‘zining inson huquqlarini himoya qilish tizimi mavjud bo‘lmagan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan

belgilangan yagona geografik mintaqa sanaladi. Bunday holatning yaqqol sabablaridan biri – Amerikada ADT, Yevropadagi Yevropa Kengashi va h.k. kabi ko‘rinishdagi mintaqaviy siyosiy guruh mavjud emasligidir.¹

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi kam sonli hujjatlardan biri – 1988-yildagi Osiyo-Tinch okeani inson va xalqlar huquqlari deklaratsiyasidir. U yashash huquqini; o‘z jamoasida, davlatida tinchlik va xavfsizlik huquqini; irqi, jinsi, millati, dini, rivojlanish darajasidan qat’i nazar, moddiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan munosib hayot kechirish huquqi; munosib atrof-muhit huquqi (yer yuzida kerakli atrof-muhitni saqlash har bir individ, xalq va davlatning burchi va majburiyatidir); rivojlanish huquqi; zo‘ravonlik va qo‘rquvdan erkin bo‘lish huquqini o‘zida aks ettirgan. Zo‘rluk ishlatmaslik har qanday ijtimoiy va siyosiy darajalarda insoniy hamjamiyat tashkil etishning asosi bo‘lmog‘i lozim.

Islom davlatlarida inson huquqlarini himoya qilish

Arab davlatlari ligasi (ADL) – 20dan ziyod arab va ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan noarab mamlakatlarni birlashtiruvchi xalqaro tashkilot. 1945-yil 22-martda tashkil topgan. Tashkilotning oliy bosh organi – Liga Kengashi bo‘lib, unda har bir a‘zo-davlat bitta ovozga ega, Liganing bosh qarorgohi Qohirada joylashgan. Arab davlatlari ligasini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Pakt 1952-yilda kuchga kirgan.

Ijtimoiy hayotning yuridik, ijtimoiy va iqtisodiy me‘yorlari, jumladan inson huquqlari, Qur‘on va unga asoslangan musulmon huquqida shunchalik batafsil tasvirlab berilganki, ularni ma‘lum deklaratsiya va xartiyalar bilan qiyoslash mumkin. 1981-yildagi Umumislom deklaratsiyasi preambula va 23ta moddadan iborat. Preambulada ushbu hujjatning diniy xarakterda ekanligi ta‘kidlanadi va inson huquqlarining ilohiy asosga egaligi hamda ularni ta‘minlashdagi ilohiy amrlar qayd etiladi. Inson huquqlarining Xudo tomonidan belgilanganligidan ularning cheklanishi, bekor qilinishi, hokimiyatlar, uyushmalar yoki boshqa biror institutlar tomonidan buzilishi mumkin emasligi kelib chiqadi. Deklaratsiyada musulmonlarning islomiy tartibni qaror toptirishga xizmat qilishlari alohida ta‘kidlanadi. U insoniylik, tenglik, irqi, tanasining rangi, jinsi va h.k. belgilar bo‘yicha kamsitishning mavjud emasligi bilan xarakterlanishi lozim.

¹ Қўранг: Саидов А.Х. Международное право прав человека: Учебное пособие. – М., 2002. – С.159.

“Islom konferensiyasi” tashkiloti (IKT) – musulmon mamlakatlar xalqaro tashkiloti. 1969-yilda Rabotda, Musulmon davlatlar boshliqlari konferensiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda islom birdamligini ta’minlash, mustamlakachilik va irqchilikka qarshi kurash hamda Falastinni ozod qilish tashkilotini qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida tashkil etilgan. Bosniya va Gersegovina, Markaziy Afrika Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, shuningdek Filippinning Moro milliy-ozodlik fronti va qator tashkilotlar kuzatuvchi maqomiga ega. Tashkilotning bosh qarorgohi Jidda (Saudiya Arabistoni)da joylashgan.

“Islom konferensiyasi” tashkiloti eng yirik va eng nufuzli rasmiy hukumatlararo musulmon xalqaro tashkiloti sanaladi.

1990-yilda IKT tomonidan Islomda inson huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilingan. G‘arb uchun an‘anaviy bo‘lgan huquqlar to‘plamidan tashqari, u bolaning ota-ona, davlat va jamiyat tomonidan g‘amxo‘rlik qilinishi huquqini o‘z ichiga olgan; bilim olishni majburiyat etib, ularni davlat tomonidan berilishini – burch sifatida belgilagan; qurolli mojaro holatida minimal insonparvarlik huquqlari ko‘rsatilgan; mustamlakachilikni; insonlarni garovga olishni taqiqlaydi va h.k.

Nazorat savollari

1. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi (UIHD) inson huquqlari tarixida yangi bosqichni belgilab berdi. 1948-yil 10-dekabrda Parijda turli huquqiy va madaniy bazaga ega bo‘lgan turli dunyo mintaqalari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan Deklaratsiya Bosh Assambleya (fransuz) (ispan) 217A (III) rezolutsiyasi bilan “barcha xalqlar va davlatlar intilishi lozim bo‘lgan vazifalar” sifatida e‘lon qilindi. U birinchi bo‘lib asosiy inson huquqlarini himoya qilishning zaruriyatini belgiladi.

UIHD me‘yorlarini amal qilinishi lozim bo‘lgan odatiy huquq me‘yorlari deb hisoblash mumkinmi? XXI asrda Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasining dolzarbligi va ahamiyati qandayligini tushuntirib bering.

2. Afrika xartiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u qit‘aning siyosiy voqeligini, shuningdek Afrika xalqlari tarixiy an‘analarini hamda Afrika sivilizatsiyasi qadriyatlarini aks ettiradi. U avvalda Yevropa Kengashi va Amerika Davlatlari Tashkiloti doirasida qabul qilingan mintaqaviy tusdagi shu kabi shartnomalardan ancha farq qiladi. Afrika Xartiyasini nafaqat Afrika qit‘asi uchun noyob hujjat sifatida, balki tobora soni ko‘payib

borayotgan, o'zlari amalda bo'lgan mintaqalar ehtiyojlari va manfaatlarining o'ziga xosligiga moslashgan, inson huquqlari borasidagi mintaqaviy shartnomalar kontekstida ham ko'rish lozim.

Afrika inson huquqlarini himoya qilish tizimining boshqa inson huquqlarini himoya qilish mintaqaviy tizimlaridan farqini aytib bering.

Kazus 1.

Qrim va Sevastopolning Rossiya Federatsiyasiga qo'shib olinishi faktini tan olmaslik oqibatida, Yevropa ittifoqi mamlakatlari yarim oroldagi konsullik vakolatxonalari va viza markazlarini yopdi va faqat Ukraina hududida joylashgan konsullik muassasalarida viza berishga hujjatlar qabul qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi hokimiyatlari muxtoriyatning Rossiya tarkibiga kirganligini tan olmasliklari sababli, qrimliklar bilan shunday ishlash amaliyotini saqlab qolishga qaror qildilar.

De-yure, 26ta Yevropa davlatini o'z ichiga olgan Shengen hududi Qrimda yashayotgan fuqarolarga viza berishga rozi emas, lekin de-fakto bunday vizalarni berayotgan qator mamlakatlar mavjud. Gap bu yerda faqat moyillikda emas, balki ariza beruvchi tomonidan konsullik yig'imini to'lash va qabul qiluvchi mamlakatdagi iqtisodiy sharoit ham katta rol o'ynaydi.

Qrim va Sevastopol aholisi uchun YI hududiga kirishni taqiqlashning yuridik tabiiyatini muhokama qiling.

Kirishni taqiqlash insonning harakatlanish erkinligi huquqining buzilishi sanaladimi?

YI mamlakatlari harakatlarini davlatlarning o'z migratsiya siyosatini mustaqil belgilash huquqlari bilan oqlash mumkinmi?

Kazus 2.

BMT Inson huquqlari qo'mitasiga Urugvay fuqarosi Edgardo Dante Valkadaning Urugvayga qarshi ishi (№9/1977) kelib tushdi, u 1976-yil 8-sentabrda Montevideoda fuqaro kiyimidagi politsiyachilar tomonidan hibsga olingandi. U olib borilgan politsiya uchastkasida unga taqiqlangan gazeta tarqatish aybi qo'yildi. So'rov davomida unga nisbatan ruxsat berilmagan usullar va qiynoqlar qo'llandi. Politsiyachilar uning xotini va bolalarini qamoqqa olish bilan tahdid qildilar. Tegishli ordersiz uning xonadoni tintuv qilindi. O'zining murojaatida Valkada ko'rsatadiki, hibsdan bo'lgan davri mobaynida (50 kun) u advokat xizmatidan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. 1976-yil 5-noyabda harbiy sud qarori

bilan aybini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lmaganligi sababli ozodlikka chiqarilgan.

Inson huquqlari qo'mitasi Valkada shikoyatini o'rganib chiqib, 1977-yil 25-avgustda Urugvay hukumatidan Qo'mita tomonidan mazkur shikoyatni ko'rib chiqish haqidagi yakuniy qaror qabul qilish maqsadida, ushbu ish bo'yicha yanada batafsil ma'lumotni so'radi. Urugvayning 1977-yil 27-oktabrda Qo'mitaga bergan javobida Qo'mita tomonidan ushbu shikoyatning ko'rib chiqilishiga qarshi ekanligi aytilgan. Chunki uning fikricha, arizachi o'z mamlakatidagi barcha adliya tizimi bosqichlaridan o'tmagan, Urugvayning ichki qonunchiligiga ko'ra esa ushbu mamlakat hududidagi har qanday fuqaro barcha sud yoki hukumat instansiyalariga murojaat qilish imkoniga ega. Shunga qaramay, 1978-yil 1-fevralda Inson huquqlari bo'yicha qo'mita Valkada arizasini ko'rib chiqishga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qildi.

Valkada huquqiy himoyaning barcha ichki vositalaridan foydalanib ko'rmagan bo'lsa ham, arizachining shikoyati Qo'mita tomonidan nega qabul qilinganligini muhokama qiling.

Kazus 3.

28.10.2012, Goluey shahri, 31 yoshli S.Xalappanavar ismli ayol shahar kasalxonasida bola tushib qolish xavfi bo'lishiga qaramay shifokorlarning o'z vaqtida abort qilishdan bosh tortishlari sababli vafot etadi (Irlandiya qonunchiligida abortlarni amalga oshirish qat'iy chegaralangan). Homila 3 sutkalik o'lim talvasasidan keyin, uning barcha hayotiy zarur funksiyalari to'xtagach, olib tashlangan. Ayol reanimatsiyaga o'tkazilgan va u yerda tez orada ko'z yumadi.

Inson huquqlari xalqaro huquqi nuqtayi nazaridan shifokorlarning harakatlariga yuridik baho bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқ. – Т.: Konsauditinform-Nashr, 2006

2. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. Mas'ul muharrir: yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov. – T., 2012. – 276 b.

3. Инсон ҳуқуқлари./ Дарслик. – Т.: Адолат, 2013.

4. Универсальные механизмы защиты прав человека. Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция» / А.Х. Абашидзе, А.О. Гольтяев. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013. – 135 с.

5. Лукашева Е.А. Права человека. Учебник. 2-е изд., перераб. – М.: Норма; ИНФРА-М, 2011. – 560 с.

6. International Human Rights, Rhona Smith Oxford, P.440, 2014

7. ВМТning inson huquqlari bo'yicha Oliy komisari sayti: www.ohchr.org.

8. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi sayti : www.echr.coe.int.

XII BOB. XALQARO GUMANITAR HUQUQ

Xalqaro gumanitar huquq (XGH) tushunchasi va uning ahamiyati. Xalqaro gumanitar huquq tushunchasi, asosiy prinsiplarining shakllanishi va rivojlanishi. Xalqaro gumanitar huquqni qo'llash sohasi. Zamonaviy xalqaro gumanitar huquq manbalari. Harbiy harakatlar olib borilishining xalqaro – huquqiy reglamentga solinishi. Urush jabrdiydalari va fuqaro obyektlarining xalqaro-huquqiy himoyasi.

Xalqaro gumanitar huquq (XGH) tushunchasi va uning ahamiyati

XGH xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, xalqaro huquq subyektlari o'rtasida qurolli mojarolar tufayli yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Bunday munosabatlar urushayotgan tomonlar o'rtasida xalqaro va ichki qurolli mojarolar chog'ida vujudga keladi.

Xalqaro gumanitar huquq – bu konvensiyaviy va odatiy me'yorlar majmui bo'lib, qurolli mojarolarda ishtirok etayotgan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ular tomonidan daxl qilingan xalqaro huquq subyektlarini quyidagilar nuqtayi nazaridan tartibga soladi:

- qurolli kurash olib borish vosita va usullarini qo'llash;
- yaradorlar, bemorlar, harbiy asirlar va fuqaro aholini himoya qilish;
- ushbu me'yorlarni buzganlik uchun davlatlar va alohida shaxslarning javobgarligini belgilash.

XGH harbiy mojarolarning halokatli oqibatlarini kamaytirishga hamda harbiy zarurat va insoniylik o'rtasidagi muvozanatga erishishga yo'naltirilgan.


Qurolli mojarolar huquqi qurolli mojarolar chog'ida gumanitar masalalarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan va kodekslashtirilgan. U harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan yoxud ishtirok etishdan to'xtagan shaxslarni himoya qilishga hamda nizolashayotgan barcha tomonlarning harbiy harakatlar olib borishdagi huquq va majburiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Ammo qurolli mojarolar tufayli yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning mavjudligi fakti urushni qonuniylashtirmaydi. Xususan, Jeneva konvensiyasiga Qo'shimcha I protokolning kirish

qismida kuch ishlatishning taqiqlanishi va XGH o'rtasidagi o'zaro nisbat ifodalangan bo'lib, unga ko'ra:

"Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustaviga muvofiq har bir davlat o'zining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning suvereniteti, hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatishdan, BMT maqsadlariga mos kelmaydigan vositalardan shu yoki boshqa bir tarzda foydalanishdan tiyilishi shart" va "mazkur protokoldagi yoki 1949-yilgi Jeneva konvensiyalaridagi hech bir qoida har qanday tajovuzni yoxud BMT ustaviga mos kelmaydigan boshqa har qanday shaklda kuch ishlatishni qouniylashtiruvchi yoki unga ijozat beruvchi holat sifatida talqin qilinishi mumkin emas".

Qurolli mojarolar borasida xalqaro huquq subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar XGHning huquqiy tartibga solish predmeti hisoblanadi. Subyektlar tomonidan ularning bir-birlariga nisbatan o'zaro xatti-harakat tartibini o'rnatish to'g'risidagi kelishuvlari va bunga yuridik majburiyat xarakterining berilishi, mazkur munosabatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solish usuli hisoblanadi.



Xalqaro gumanitar huquq tushunchasi, asosiy prinsipining shakllanishi va rivojlanishi

XGH normalarining birligi va tizimliliği XGHning eng muhim prinsiplari vositasida ta'minlanadi. Me'yoriy tartibga solishning maqsadini, XGH me'yorlari xakteri va mazmunini aynan shular belgilaydi.

XGHning asosiy prinsiplari deganda me'yoriy tizimning xakterli xususiyatlarini va uning asosiy mazmunini aks ettiruvchi, ijtimoiy shartlashilgan, unumlashgan me'yor va g'oyalar tushuniladi. Prinsip va me'yorlarning o'zaro

nisbati chog'ida bajaradigan funksiyalarining ahamiyati nuqtayi nazaridan ular oliy nufuzga ega.¹

Mazkur prinsiplar ilk bor 1966-yilda 1949-yilgi Jeneva konvensiyalariga asoslangan holda ifodalangan².

XGH prinsiplarining shakllanishi va rivojlanishi XGHning harbiy-texnik doirasi va ilm-fanning o'zgarishi bilan bog'liq murakkab va davomli jarayondir.

XGHning asosiy prinsiplari:

– hamisha, hamma yerda va har qanday sharoitda amal qiladi, hatto konvensiya ishtirokchisi bo'lmagan davlatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi, chunki xalqlarning odatlarini aks etiradi;

– urushayotgan tomonlar xatti-harakatining asosiy qoidalari hisoblanadi;

– umumiy xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga mos keladi³ va to'g'ridan to'g'ri shulardan kelib chiqadi;

– XGH normalarining kelgusida rivojlanishi va talqini uchun asos va negiz hisoblanadi;

– XGH normalarining birligi va tizimlilikini ta'minlaydi⁴;

– o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq.

“Oddiy insoniylikni idrok etish”⁵ va 1899-yilgi Gaaga tinchlik konferensiyasida ifodalangan hamda bugungi kunda 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalariga, 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari hamda tegishli 1979-yilgi unga Qo'shimcha protokolga kiritilgan Martens qo'shimcha sharti XGH umumiy prinsiplari mavjudligining e'tirofi hisoblanadi.

Martens qo'shimcha sharti shuni amr qiladiki, shartnomalarda ko'zda tutilmagan holatlarda “fuqaro shaxslar va kombatantlar, o'rnatilgan odatlar, insoniylik prinsiplari va ijtimoiy ong talablaridan kelib chiquvchi xalqaro huquq prinsiplari himoyasida va ta'sir doirasida qoladilar”.

Mazkur norma xalqaro hamda ichki qurolli to'qnashuvlar chog'ida qo'llanadigan odatiy xalqaro huquq normasi sifatida o'rnatiladi. Shu bilan u:

¹ Лукьяшук И.И. Нормы международного права. – М., 1997 – С.82.

² Жан Пикте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. –М.: МККК, 2001 –С 71-72

³ Xalqaro sud Statutining 38(1) (s)-moddasida xalqaro huquqning asosiy manbalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan

⁴ Купчичини А.М., Рулько Е.Т. Характерные черты и система принципов современного международного права. –Киев, 1979.

⁵ Ik bor: Nyurberg tribunalining asosiy natsist jinoyatchilar haqidagi qarorida top olindi (qarang Nyurbergskiy tribunal. –M. 1982 g)

– huquq implementatsiyasi va ijtimoiy fikr o'rtasidagi o'zaro jonli aloqani ta'minlaydi;

– odatiy normalarni insoniylik prinsilariga muvofiq dinamik talqin etish uchun qo'llanma taqdim etadi va odatiy normalarning rivojlanishi uchun maxsus sharoit o'rnatadi.

Xalqaro gumanitar huquq prinsiplari quyidagi guruhlariga birlashtirilgan:

– xalqaro gumanitar huquqning umumiy prinsiplari;

– urushayotgan tomonlarning urush olib borish vosita va usullarini tanlashlarini cheklash prinsipi;

– harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan yoki bevosita ishtirok etishni to'xtatgan harbiy harakatlar ishtirokchilari va shaxslarning himoyasini ta'minlash prinsipi¹.

Asosiy prinsiplar:

– qurolli mojarolar huquqi va inson huquqlarini qamrab oluvchi, shunga muvofiq harbiy zarurat va jamoat tartibini saqlash hamisha insonga hurmat bilan muvofiq keluvchi, insoniylik huquqiga asoslangan prinsip;

– urushayotgan tomonlar o'z raqiblariga asosiy maqsadi raqibning harbiy qudratini yo'q qilish yoki kuchsizlantirishdan iborat bo'lgan urush maqsadiga nomutanosib zarar yetkazishlari mumkin emasligi prinsipi;

– safdan chiqarilgan shaxs, shuningdek bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmayotganlar hurmat, himoya va insoniy munosabat huquqiga ega ekanligi prinsipi (Jeneva huquqi prinsiplari);

– nizo holatida bo'lgan tomonlarning harbiy harakatlarning usul yoki vositalarini tanlash huquqi cheklanmagan emasligi (Gaaga huquqi prinsipi) prinsipi².

Galdagi har bir prinsip, ilgarigisini asos qilib olib, xalqaro gumanitar huquq rivojining murakkab va izchil dinamikasini tasdiqlagan holda avvalgisidan kelib chiqadi

XGHning umumiy prinsiplariga quyidagilar mansub: daxlsizlik prinsipi, kamsitish va tahqirlash nojoizligi prinsipi, xavfsizlik prinsipi³.

Insoniylik (yoki zarurat) prinsipi– XGHning anchayin hammabop (universal) va umumlashgan prinsipi. Uning ta'sir kuchi qurolli kurashning barcha sohalariga tatbiq etiladi. Urush olib borish vosita va usullarini tanlash masalalarini tartibga solishda ham, shuningdek harbiy mojarolar jabrdiydalari himoyasini ta'minlash masalalarida ham qo'llanadi.

¹ Калугин В.Ю. Курс международного гуманитарного права. – Минск: Тесей, 2006. – С.79.

² Жан Пикте. Развитие и принципы международного гуманитарного права. – М. МККК., 2001. – С.71-72.

³ Qalqad, o'sha joyda. – С.75

Xalqaro va ichki qurolli mojarolar chog'ida qo'llanadi. Qurolli mojarolar jarayonida cheklanmagan zo'rvonlik qo'llashga taqiq o'ratadi. Unga muvofiq, harbiy harakatlar olib borishning insoniy usul va vositalarini tanlash hamisha insonning sha'ni va asosiy huquqlarini hurmat qilish bilan muvofiq kelmog'i lozim.

Masalan, 1949-yilgi Jeneva konvensiyasining harbiy asirlarga munosabat to'g'risidagi 13-moddasiing qoidasi urushayotgan tomonlardan harbiy asirlarga nisbatan "hamisha insoniy munosabatda bo'lish"ni talab etadi.

Harbiy asirlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish majburiyati hali Liber Kodeksi (75-modda), Bryussel deklaratsiyasidayoq (23-modda) e'tirof etilgan, Gaaga qonunida (4-modda) kodekslashtirilgan edi. Fuqaro shaxslarga va safdan chiqqanlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish talabi Jeneva konvensiyalarining umumiy 3-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Urushayotgan tomonlarning o'z xatti-harakatlarida insoniylik prinsiplariga amal qilish majburiyati ikkala Qo'shimcha protokolda ham asosiy kafolatlar sirasida mustahkamlab qo'yilgan¹.

Insoniy munosabat talabi ko'plab harbiy ustav va qo'llanmalarda mustahkamlab qo'yilgan. U davlat ichki va xalqaro (pretsedent) huquqi bilan tasdiqlanadi². Inson huquqiga bo'lgan huquq, shuningdek kishilarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish talabiga ham asoslanadi. Gumanitar yo'sindagi qoidalar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt (1966), Mahbuslar bilan muomala qilishning Asosiy prinsiplari (1990)³, Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (1978) va boshqalarda mavjud.

Shunday qilib, IHXH va XGH normalari aholining turli toifalariga: yaradorlar, bemorlar, kema halokatiga yo'liqqanlar, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar, ko'chirilgan shaxslar, ayollar, bolalar, keksalar, nogironlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish talabini qo'llashning aniq holatlarini o'z ichiga oladi.

Tahqirlashning nojoizligi prinsipi – unga muvofiq, qurolli mojaroning xususiyatidan qat'i nazar, homiylikdagi shaxslarga nisbatan munosabatda irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, millati, siyosiy va boshqa maslagi, ijtimoiy, mulkiy holati yoxud boshqa mezonlari ahamiyat kasb etmasligi lozim.

¹ Дополнительный протокол I, ст 75; Дополнительный протокол II, ст 4.

² Qarang, masalan, ICJ, Nicaragua v. United States of America, Military and Paramilitary Activities, Judgement of 27 June 1986, Merits.

³ Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудия. ООН. – Нью-Йорк, 1992. – С.129.

XGHni qo'llash chog'ida nomuvofiq ayirmachilikka yo'l qo'yish taqiqlanadi. Tahqirlamaslik prinsipini aniqlashtiruvchi XGH normalari xalqaro va ichki qurolli mojarolar chog'ida qo'llanadigan odatiy xalqaro huquq normalari sifatida o'rnatiladi. Ular 3 va 4-Jeneva konvensiyalari hamda ularga Qo'shimcha protokollarda asosiy kafolatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, mazkur prinsip I Qo'shimcha protokolning 1, 9, 43, 44-moddalarida o'z ifodasini topgan. Tahqirlamaslik prinsipi mutlaq emas. Garchi kamsitish taqiqlangan bo'lsa-da, shaxslar o'rtasida ayirmachilikka yo'l qo'yilishi mumkin. Mazkur holatda ijobiy baravar ko'rmaslik (diskriminatsiya) sxoshilinch yordamga muhtojlarga ustunlik taqdim etish maqsadini ko'zlaydi. O'zining tabiiy zaifligi, o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari tufayli ayollar va bolalar, nogironlar, qariyalar alohida himoya va homiylikka muhtoj.

Farqlash o'tkazish prinsipi – fuqaro aholi va kombatantlar o'rtasida, harbiy va fuqaro obyektlari o'rtasida jiddiy faqlashga asoslangan. Mazkur prinsipning mazmuni quyidagi talablar yig'indisidan tashkil topadi: shaxslar bo'yicha cheklov va obyektlar bo'yicha cheklov o'tkazish. (Qarang: QP I 44-modda 3- band, QP I 48 va 52-moddalar, MUS Statuti 8-modda).

QP I 48-moddasida nazarda tutilgan farqlash o'tkazish prinsipi davlatlar amaliyotida xalqaro va ichki qurolli mojarolar chog'ida qo'llanadigan odatiy xalqaro huquq normalari sifatida o'rnatiladi¹. Yadro quroli bo'yicha konsultativ xulosada Xalqaro sud, *farqlash o'tkazish prinsipi XGHning "asosiy prinsiplaridan" hamda "xalqaro odatiy huquqning mustahkam prinsiplaridan"* biri degan xulosaga keldi.

Har holda kombatantlar va tinch aholining tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari III JKning 4-moddasi, I QPning 43-moddasi, I QPning 52-moddasida mustahkamlab qo'yilgan hamda xalqaro qurolli mojarolar chog'ida qo'llanishi joiz. Ichki xususiyatdagi qurolli mojarolar jabrdiydalarini himoyalashga taalluqli II qo'shimcha protokol "kombatantlar", "harbiy obyektlar", "fuqaro aholi" mavjudligini e'tirof etmaydi. Shu tariqa II QP mazkur prinsipni ham, fuqaro obyektlariga hujum qilishni taqiqlashni ham o'z ichiga olmaydi.

Obyektlar bo'yicha cheklov prinsipi shuni nazarda tutadiki: hujum harbiy obyektlar doirasida qat'iy cheklanmog'i lozim; himoyalanmayotgan joylarga hujum uyushtirish taqiqlanadi; agar fuqaro aholi uchun xavfli kuchlarni bo'shatib yuborishni keltirib chiqaradigan bo'lsa, qurilma va

¹ Жан-Мари Хейкерте, Луиза Досвальд-Бек. Обычное международное гуманитарное право. МККК. 2006. Т.1 – С.32.

inshootlarga hujum taqiqlanadi; fuqaro aholidan harbiy obyektlar himoyasi yo'lida foydalanilmasligi lozim. Masalan, sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro tribunal (Sudlov palatasi) Galich ishi bo'yicha "fuqaro shaxs yoki fuqarc obyektlariga shikast yetkazuvchi hujum, har qanday holatda to'g'ridan to'g'ri fuqaro shaxslarga hujum sifatida kvalifikatsiya qilinishi"¹ni belgilab qo'ydi.

Atrof-muhitni himoya qilish prinsipini ham ushbu guruhdagi prinsiplar toifasiga qo'shish mumkin. I Protokolning 55-moddasi atrof-muhitni himoya qilishning zamonaviy konsepsiyasini mustahkamlab qo'ydi: "Harbiy harakatlar olib borish chog'ida tabiiy muhitni keng ko'lamlı, uzoq muddatlı va jiddiy zarar yetkazishdan himoyalash haqida g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Bunday himoya tabiiy muhitga shunday zarar yetkazish maqsadini ko'zlovchi yoxud shunday zarar yetkazish ehtimoli bo'lgan va shu bois aholining salomatligi hamda omon qolishiga ziyon yetkazuvchi urush olib borish usul va vositalarini qo'llashni taqiqlashni o'z ichiga oladi".

Protokollardan joy olgan farqlash prinsipini qo'llashga oid rahbariy qoidalar mazkur prinsipga mislsiz oydinlik va aniqlik baxsh etadi.

Mutanosiblik yoxud proporsionallik prinsipi qonuniy maqsad va unga erishish vositalarini taqqoslovchi mazkur asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra alohida shaxsning erkini cheklashga mazkur cheklovga mutanosib bo'lgan sharoitdagina yo'l qo'yilishi mumkin. Mutanosiblik prinsipi asosida erishilishiga harakat qilinayotgan maqsad va unga erishish yo'lida qo'llanadigan vosita o'rtasidagi nisbat yotadi².

Juse in bello kontekstida "mutanosiblik" termini urush jarayonida qandaydir bir aniq operatsiya yoki harakatni amalga oshirish bilan bog'liq foyda va zararining nisbatidagi (balansidagi) umumiy mo'ljalga aloqador. Shu bilan birga, zarar va ziyon darajasi faqat hujum oqibatida kutilgan va mantiqiy asosga ega bo'lgan harbiy afzallik nisbati bilan belgilanadi. Ikkinchi Jahon urushi davrida Drezdenga uyushtirilgan hujum mutanosiblik prinsipining qo'pol ravishda buzilishiga misol bo'lishi mumkin³ (Qarang: I QP 51(b) va 57-moddalar, Odatiy qurollarning aniq turlari haqidagi Konvensiyaga II QP 3-modda, MUS Statuti 8-modda).

¹ ICTY, Prosecutor v. Stasilak, Galic, Case No. IT-98-29-T, (Trial Chamber), 5 December, 2003, para. 57

² Bosib olingan Palatina hududida de'oni qurilishining huquqiy oqibatları Xalqaro sudning Konsultative xulosasi, 9 iyul 2004 y., qarang: <http://www.ictj.org/homepage/ru/>.

³ Чарльз С. Мэйер. Герода под прицелом: споры и умолчания о бомбардировках с воздуха во время Второй мировой войны. Международный журнал Красного Креста. Сентябрь 2005г. / Пер. с англ. – М.: МККК, 2006 – С.25.

BMT xalqaro sudi o'zining konsultativ xulosasida "atrof-muhitni muhofaza qilish – qaysidir harakat zarurat va mutanosiblik prinsipiga mos kelishini baholashda hisobga olinadigan unsurlardan biri" ekanligini ko'rsatib, mutanosiblik prinsipi qo'llanishini tasdiqladi.

Avstraliya, Gernaniya, Isroil, Ispaniya Niderlandiya harbiy ustavleri va yo'riqnomalarida hujum chog'ida mutanosiblik prinsipi belgilab qo'yilgan. Ko'pchilik davlatlar mutanosiblik prinsipiga xilof hujumlar uyushtirishni jinoyat deb e'lon qiluvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilganlar, Kanada qonunchiligi bunga misol bo'la oladi¹.

Xalqaro gumanitar huquqda qurolli mojarolar jabrdiydalarini himoyalashga va harbiy harakatlar olib borish vositalariga yo'naltirilgan normalar batafsil bayon etilgan. Shuningdek, ularda mazkur normalarga rioya qilishni ta'minlashga mo'ljallangan mexanizmlar belgilab qo'yilgan. Jumladan, u *XGH prinsip va normalarini buzganlik uchun javobgarlik prinsipini* nazarda tutadi. Mazkur prinsip davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi va jismoniy shaxslarning javobgarligini o'z ichiga oladi.

Unga ko'ra, davlat XGHni buzganligi uchun quyidagi holatlarda javobgar bo'ladi:

a)uning idoralari, shu jumladan, qurolli kuchlari tomonidan amalga oshirilgan xilof harakat (IV Gaaga konvensiyasi 3-modda; I Qo'shimcha protokol 91-modda);

b) davlat hokimiyati elementlarini amalga oshirish uchun vakil etgan shaxslar yoki tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan xilof harakat (Xalqaro huquqqa zid qilmish uchun davlatlarning javobgarligi haqidagi moddalar loyihasi, 5-modda);

d) amalda uning ko'rsatmasi yoki rahbarligi yoxud nazorati ostida harakat qilayotgan shaxslar yoki guruhlar tomonidan amalga oshirilgan xilof harakat (Xalqaro huquqqa zid qilmish uchun davlatlarning javobgarligi haqidagi moddalar loyihasi, 8-modda);

e) alohida shaxslar yoki bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xilof harakat uchun, basharti bu haqda davlat xabardor qilingan bo'lsa va bevosita o'zining amali sifatida tan olsa (II Qo'shimcha Protokol, 1-modda).

To'rtala Jeneva konvensiyalarining 49, 50, 126, 146-moddalariga muvofiq ishtirokchi davlatlar Jeneva konvensiyalarini jiddiy ravishda buzgan yoki buzishga buyruq bergan shaxslarga nisbatan samarali jinoiy jazoni ta'minlash uchun zarur qonunchilikni amaliyotga joriy etishlari lozim. XGH qo'llanishining o'zi asosan shunga muvofiq milliy

¹Customary International Humanitarian Law Practice, paragraph 57. Cambridge University Press, 2005.

qonunchilikning qabul qilinishiga bog'liq. Bundan tashqari chora ko'rmaslik jiddiy rioya qilmaslik hisoblanishi mumkin (I Protokol, 86-modda).

Bir qator davlatlar XGHga jiddiy rioya qilmaslik uchun jazoni nazarda tutuvchi jinoiy qonunchilikni amaliyotga joriy etdilar.

Masalan, Bolgariya Jinoyat kodeksida XGHga jiddiy rioya etmaslik jinoyat sifatida qabul qilinadi (III bob, 7-bo'lim va XIV bob, 2-bo'lim)¹.

Jiddiy xilof harakatning oldini olish majburiyati mutlaq xarakterga ega va hatto manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kelishuv ham unga daxl qilishi mumkin emas (51, 52, 131, 148-umumiy modda).

Javobgarlik prinsipini ta'minlash davlatlarning gumanitar huquqning barcha qoidalarini bajarish majburiyatini ko'zda tutadi, ichki qurolli mojarolar chog'ida qo'llanadigan qoidalar ham shular jumlasiga kiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida qonunchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadlaridan biri milliy qonunchilikni amaldagi xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishdan iborat. Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish o'zbek qonunchiligining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. 1994-yilda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amalga kiritilishi bilan, milliy qonunchilikka 152-modda orqali urushning qonun va odatlarini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi zarur o'zgartirish kiritildi.

Urushayotgan taraflarni qurolli kurush olib borishning vosita va usullarini taulashda cheklash prinsipining ajoyib ifodasi Gaaga huquqi normalarida hamda I Qo'shimcha Protokolning I bo'limi Sh qismida o'z aksini topgan: Jami gumanitar huquqning asosi sifatida e'tirof etilgan mazkur umumiy prinsip, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator o'ziga xos taqiqlar uchun manba vazifasini o'tadi.

Urush olib borish vositalari deganda urushayotgan tomonlar qurolli kuchlari tomonidan raqibni safdan chiqarish maqsadida qo'llanadigan qurollar va boshqa vositalar anglashiladi. Bugungi kunda qurolni qo'llash bir qator konvensiyalar, protokollar, deklaratsiyalar hamda urush huquqining odatiy normalari bilan qat'iy belgilanadi.

Urush olib borish usullari – bu urush olib borish vositalarini qo'llash usullari va yo'llari. "Hech kimni tirik qoldirmaslik"ka buyruq berish, ahdiga xiyonat, shaharlar va joylarni talash, genotsidga qo'l urish, fuqaro aholi orasida ochlikni qo'llash, garovga olish, terror uyushtirish, homiylikdagi shaxslarni qirib yuborish va h.k. – harbiy mojaroning

¹ Имплементация международного гуманитарного права. Статьи и документы. МККК. – М., 1998. – С.78.

xarakteridan qat'i nazar, XGHni jiddiy buzish sifatida XGH odatiy normalari bilan tan olingan mutlaq taqiqlar hisoblanadi.

Xalqaro gumanitar huquqni qo'llash sohasi

XGHni qo'llash sohasi hozirgi paytda mavjud XGH normalarini tartibga solishning chegaralarini belgilaydi.

Davlatlararo munosabatlar **XGHning tartibga solish obyekti** hisoblanadi. Xalqaro-huquqiy tartibga solish davlatlararo munosabatlar doirasidan tashqariga chiqishi mumkin emas.

Xalqaro-huquqiy tartibga solish obyektining o'ziga xos xususiyatlari xatti-harakatlari xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan yoki tartibga solinishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini belgilab beradi.

Faqatgina davlatlararo munosabatlar ishtirokchilari (suveren davlatlar, o'z ozodligi va mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar, ayrim xalqaro hukumatlararo tashkilotlar) XGHning subyektlari bo'la oladilar.

Xalqaro gumanitar huquq – bu qurolli to'qnashuvlar vaziyatida davlatlar va alohida shaxslarning xatti-harakatini tartibga soluvchi xalqaro huquq tarmog'i bo'lib, qo'llanish sohasi **shaxs, vaqt, hudud jihatidan** cheklanadi.

Xalqaro gumanitar huquq o'zaro farqli ikki xil vaziyat sharoitida qo'llanadi: *xalqaro qurolli mojarolar chog'ida hamda noxalqaro qurolli mojarolar chog'ida.*

“Urush” ko'p sonli markaziy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati keyingi bir necha asrlar mobaynida tubdan o'zgardi.

Zamonaviy xalqaro-huquqiy hujjatlarda “urush” atamasidan ko'ra ko'proq “qurolli mojaro” atamasi qo'llanadi.

Zamonaviy demokratik davlatlarning urush e'lon qilish va boshlashga nisbatan murakkab konstitutsiyaviy talablari hamda BMT ustavining kuch ishlatishga nisbatan qat'iy cheklovchi moddolari davlatlardan bevosita huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaruvchi muayyan iboralarini qo'llashda o'ta ehtiyotkorlikni talab etadi.

1949-yildan boshlab “qurolli mojaro” tushunchasi an'anaviy “urush” tushunchasining o'rmini egalladi. 1949-yilgi Jeneva konvensiyasini qo'llash uchun obyektiv mezonlar maxsus to'plamini qamrab olish va amal qilish imkoniyati “qurolli mojaro” iborasini tanlashga sabab bo'lib xizmat qildi.

Jeneva konvensiyalarining 2-umumiy-moddasiga muvofiq mazkur atama nafaqat "e'lon qilingan urush holatida", balki "...har qanday boshqa qurolli mojarolar holatida" ham qo'llanadi.

"Qurolli mojarolar" iborasi "urush"ga isbatan ancha keng vaziyatlar ko'lamini (spektrini) qamrab oladi. Chegaralardagi ko'plab vaziyatlar, zo'rvonlik va keskinliklar (chegaradagi to'qnashuvlar, qurollangan bosqinchilar harakati) "urush" tushunchasi bilan qamrab olinmaydi.

1949-yilgi Birinchi Jeneva konvensiyasiga sharhga muvofiq "urush"ni yuridik tavsiflash bo'yicha nihoyasiz bahslashish mumkin. Bir davlat boshqa bir davlatga nisbatan dushmanlik harakatini amalga oshirib, hamisha o'zini go'yoki urush olib bormayotgan, balki politsiyaviy tadbirlarni amalga oshirayotgan yoxud qonuniy o'zini-o'zi himoyalash doirasida harakat qilayotganday ko'rsatishi mumkin. Davlatlar o'rtasida yuz beradigan va qurolli kuchlar aralashuviga olib keluvchi har qanday kelishmovchilik, basharti tomonlardan biri urush holati mavjudligini inkor etayotgan bo'lsa-da, qurolli mojarolar hisoblanadi"¹.

Sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro harbiy tribunal Tadich ishi bo'yicha shunday qaror qildi: "har gal, qachonki davlat qurolli kuchlarni ishga soladigan bo'lsa yoki qachonki hukumat kuchlari va tashkiliy qurolli guruhlar o'rtasida yoxud bir davlat doirasidagi shunday guruhlar o'rtasida davomli qurolli mojarolar yuz beradigan bo'lsa, bunday vaziyatda qurolli mojarolar mavjud hisoblanadi"².

XQM 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining barchasi uchun umumiy bo'lgan 2-moddada yuridik tushuncha sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro qurolli mojarolar	Ichki xarakterdagi qurolli mojarolar
Davlatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuv; mustamlaka hukmroligi va chet el bosqiniga qarshi va irqchilik tartibiga (rejimiga) qarshi BMT ustaviga muvofiq o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish uchun kurash <i>(I Protokol, 1-modda, 4-band)</i>	Qaysidir davlat hududida uning qurolli kuchlari va hukumatga qarshi qurolli kuchlar o'rtasida yoki mas'ul qo'mondonlik ostida bo'lib, mazkur davlating muayyan hududi ustidan nazoratni amalga oshirayotgan va shu boisdan uziuksiz kelishilgan habiy harakatlar olib borish va II Protokolni qo'llash imkonini beradigan boshqa

¹ Pictet Jean S., Commentary of the First Geneva Convention for the Amelioration of the Condition of the Wounded and Sick in Armed Forces in the Field, Geneva, ICRC, 1952, p.32

² "Dushko Tadichga qarshi ayblevchi" ishi bo'yicha Apellatsiyn palatasi qarori. Case № IT-94-1-AR72, (2 October 1995) Para 70.

Xalqaro qurolli mojarolar chog'ida to'rtala Jeneva konvensiyalari va I Qo'shimcha Protokol qo'llanadi.

1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining barchasi uchun umumiy bo'lgan 2-modda **xalqaro qurolli mojarolar vaziyatida** konvensiyalarni qo'llash doirasini belgilaydi. Xalqaro qurolli mojaro tushunchasi davlatlar o'rtasidagi qurolli kurash bilan cheklanishi mazkur moddaning mohiyatidan kelib chiqadi.

Davlatlar o'rtasida yuz beradigan va qurolli kuchlarni harakatga solishni keltirib chiqaradigan har qanday bahs, garchi, tomonlardan biri urush holati mavjudligini inkor etayotgan bo'lsa-da, 2-modda mohiyatiga ko'ra qurolli mojaro hisoblanadi. Mojaroning davomiyligi ham, vayronalik darajasi ham hech qanday ahamiyatga ega emas. Inson shaxsiga hurmat qurbonlar soni bilan o'lchanmaydi¹.

I QP "xalqaro qurolli mojaro"ning tavsifini bir davlat hududidan chiqmagan holda o'z tabiatiga ko'ra xalqaro qurolli mojaro xarakteriga qadar kengaytirdi. I Qo'shimcha Protokolning 1-moddasi mazmuniga muvofiq "milliy ozodlik urushlari" ham xalqaro qurolli mojaro sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Turli-tuman shaklga ega bo'lishi mumkin bo'lgan ichki qurolli mojaroning umumqabul qilingan tavsifi mavjud emas, shunday ekan, bunday shakldagi vaziyatlarni ularni tavsiflovchi obyektiv omillar yordamida tavsiflashga urinish taqozo etiladi.

Ichki qurolli mojaro xalqaro qurolli mojarodan qarama-qarshi tomonlarning huquqiy maqomi bilan farqlanadi.

Noxalqaro qurolli mojaro ishtirokchilari – bu suveren davlat emas, balki o'z hududida bir yoki bir necha qurolli guruhlar bilan mojaroga kirishayotgan bir davlat hukumati yoxud ikkita qurolli guruh bir-biri bilan davlatning qurolli kuchlari aralashuvisiz urushayotgan vaziyat.

Mazkur holatda "qurolli mojaro" iborasi jiddiy mezonni ko'proq yoki kamroq uyushgan qurolli kuchlar o'rtasida oshkora harbiy harakatning mavjudligi mezonini joriy etadi. Ayrim yoxud onda-sonda yuz beradigan zo'ravonlik harakati bilan xarakterlanuvchi ichki tartibsizliklar va keskinlik, garchi hukumat politsiya va harbiy qismlar yordamida huquqiy

¹ Commentary III Geneva Convention. ICRC. 1994. – P.23.

tartibni tiklashga majbur bo'lsa-da, huquq nuqtayi nazaridan qurolli mojaro hisoblanmaydi¹.

Xalqaro qurolli mojaroning (XQM) ichki xarakterdagi qurolli mojarodan navbatdagi farqli jihati xalqaro qurolli mojaroga nisbatan XGHning barcha normalarini qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi. Ichki xarakterdagi qurolli mojarolarga nisbatan esa ularning faqat ayrimlarigina qo'llanadi. Mojarolarning II Qo'shimcha Protokol va 3-umumiy modda ta'siriga duchor bo'ladigan yoki faqat 3-modda ta'siriga duchor bo'ladigan, masalan, muxolifat guruhlarining tashkiliy darajasi II Protokolni qo'llash uchun yetarli bo'lmagan turlicha xillari mavjud.

II QP 1-moddasiga muvofiq mazkur Protokol "I Protokolning 1-moddasi ta'siriga duchor bo'lmaydigan va qaysidir Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar hududida, uning qurolli kuchlari va mas'ul qo'mondonligi ostida bo'lib, hududining biror-bir qismida shunday nazoratni amalga oshiradigan va ularga uzluksiz va kelishiilgan harbiy harakatlarni amalga oshirish hamda mazkur Protokolni qo'llash imkonini beradigan hukumatga qarshi qurolli kuchlar yoki boshqa qurolli guruhlar o'rtasida yuz beradigan barcha qurolli mojarolarga nisbatan qo'llanadi".

Demak, II Qo'shimcha Protokolni qo'llash uchun quyidagi shartlar zarur:

- bir-biriga qarama-qarshi turuvchi tomonlarning mavjudligi;
- mas'ul qo'mondonlik;
- hududning bir qismi ustidan nazorat;
- harbiy harakatlarning uzluksiz va kelishilgan xarakteri;
- II Protokolni qo'llash layoqati².

Ichki qurolli mojaro vaziyatida 1949-yilgi to'rtala Jeneva konvensiyalari uchun umumiy bo'lgan 3-moddani qo'llash tartibi quyidagicha: qurolli mojaroning mavjudligi va uning ichki xususiyati. U ichki xarakterdagi qurolli mojaro sifatidagi aniq bir vaziyatni kvalifikatsiya qilish uchun qachonki qonuniy hokimiyatga qarshi dushmanlik harakati jamoaviy xarakterga ega bo'lsa hamda kam bo'lsa-da (minimum) tashkillashtirilgani bilan ajralib tursa, qo'llanishi mumkin.

3-modda ichki qurolli mojarolar vaqtida qo'llanadigan gumanitar huquqning poydevori hisoblanadi. 3-modda noxalqaro qurolli mojarolar chog'ida barcha vaziyatlarga nisbatan tatbiq etiladigan eng kam (minimal) qat'iy belgilashni (reglamentatsiyani) o'zida ifodalaydi.

¹ Комментарий к Дополнительному протоколу II. МККК. 2000. – С.20.

²Qaralg bata'bil: Комментарий к Дополнительному протоколу II. МККК. 2000. – С.64-66.

II Protokol 3-moddaning qo'llanish shartini o'zgartirmagan holda, uni to'ldiradi, rivojlantiradi va kuchaytiradi. 3-umumiy moddada qoidalarning qo'llanishi nizolashayotgan tomonlarning huquqiy maqomiga daxl qilmasligi aniq belgilab qo'yilgan. Uning qo'llanishi urush holati mavjudligining e'tirofi hisoblanmaydi hamda tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy xarakterini o'zgartirmaydi. 3-modda ham, II Protokol ham faqat gumanitar maqsadlarni ko'zlaydi va har qanday sharoitda barcha shaxslarga asosiy minimal kafolatlarni ta'minlashga mo'ljallangan.

3-moddaning qo'llanish sharti II Protokolni qo'llash shartiga nisbatan kamroq aniqlik kasb etadi. 3-modda II Protokol qo'llanadigan barcha vaziyatlarda qo'llanadi, biroq II Protokol II Protokolning 1-moddasida mustahkamlab qo'yilgan alomatlariga muvofiq vaziyatlarga nisbatan qo'llanadi.

Keyingi paytda xalqaro va ichki qurolli mojarolarni farqlashdan, jangovar harakatlar jarayonida, mazkur mojarolar qanday baholanishidan qat'i nazar, XGHning jami to'plamini qo'llash nuqtayi nazaridan yoki butunlay voz kechishga chaqiriqlar juda tez-tez yangramoqda¹. Yoki qurolli mojaroning boshqa kvalifikatsiyasini kiritish lozim. Masalan, qo'llanadigan zo'rvonlik darajasiga bog'liq tarzda ularni quyidagilarga: 1) qurolli mojaro darajasiga yetmagan ichki tartibsizliklar va g'alayonlar; 2) past jadallik shaklidagi noxalqaro xarakterdagi qurolli mojaro; 3) yuqori jadallikdagi ichki xarakterdagi qurolli mojaro; 4) xalqaro qurolli mojaroga ajratgan holda².

Ammo asosiy tartiblar o'rtasidagi tafovut anchayin katta, tafovut saqlanib qolmoqda, bir-birini takrorlash ro'y berayotgani yo'q.

Ikki xil ko'rinishdagi qurolli mojarolar o'rtasidagi tafovut ijobiy huquqning bir qismini tashkil qiladi, modomiki, 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarini (so'ngra esa ularga 1977-yilgi Qo'shimcha protokolni) qabul qilgan davlatlar, o'zlarining ichki ishlariga, binobarin, o'zlarining suverenitetlariga daxl qiluvchi xalqaro qurolli mojarolar holatiga oid vaziyatlarni tenglashtirishni istamadilar.

Xalqaro jinoiy sudning Rim statuti qurolli mojarolarni xalqaro va ichki mojarolarga ajratishning murakkab tizimini saqlab qoldi.

¹ The Handbook of International Humanitarian Law / Ed by Fleck. Second ed. Oxford University Press. 2008. Section 211

² Коротков А.П., Соковых Ю.Ю. Правовые средства управления кризисными ситуациями: сравнительный анализ международного-правового и внутригосударственного регулирования // Государство и право. – 1997. – №10. – С.65.

SYBXT “Dushko Tadichga qarshi qoralovchi” ishida o‘zining ichki qurolli mojarolar jabrdiydalariga nisbatan teng gumanitar himoyani tatbiq etish xohishini namoyon etdi, ammo o‘zining butun kelgusi amaliyoti davomida u ichki va xalqaro qurolli mojarolar o‘rtasida huquqiy tafovut mavjudligini yana va yana tasdiqladi. Bunday tafovutni tasdiqlatish uchun u har bir aniq vaziyatni u yoki bu mojarolar turiga mansub deb hisoblashning baholash mezonlarini ishlab chiqdi.¹

Xalqaro odatiy huquqning rivoji ikkala normalar majmuining parallel ravishda yaqinlashuvidan dalolat bermoqdaki, keng ko‘lamli yuridik adabiyotlar va xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlili shunga guvohlik beradi. Sud qarorlarini qabul qilishda dalillardan foydalanilmoqda.

MKKK (XQXX) o‘zining xalqaro odatiy gumanitar huquq borasidagi tadqiqotlari natijasida XGH universal xarakter kasb etishi va uning ko‘plab normalari ham xalqaro, ham ichki ziddiyatlar chog‘ida qo‘llanish ekanligi haqidagi xulosalarga keldi, shuningdek odatiy huquqning rivoji ikkala turdagi mojarolarda qo‘llanadigan normalarning uzil-kesil qo‘shilishiga olib kelmaganligini ham qayd qildi. Ikkala turdagi mojarolar o‘rtasidagi aniq tafovut hali hanuz mavjudligicha qolmoqda.

XGH – davlatlarning kelishilgan irodasi mahsuli. U davlatlar tomonidan yaratiladi va qo‘llanadi. XGHning qo‘llanishi biror narsaga bog‘liq bo‘lmasligi lozim, ammo ko‘pincha ma‘lum talablarga, xususan, mojaroni kvalifikatsiyalash talabiga bog‘liq qilib qo‘yiladi. XGHning funksiyasi davlatlarni huquqiy majburiyatlar bilan bog‘lab qo‘yishdan iborat.

XGH shunday bir tizimni ifoda etadiki, uning asosida qurolli mojarolar jabrdiydalari himoyasini ta‘minlash va ularga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lishga da‘vat etuvchi qoidalar yotadi. Bular safdan chiqarilgan yoxud qurolli mojaroda ishtirok etmayotgan to‘rtala Jeneva konvensiyalari hamda 1977-yilgi ularga Qo‘shimcha protokollar homiyligi ostida bo‘lgan shaxslardir.

Xaqaro gumantitar huquqqa binoan **homiylikdagi shaxslarga**² gumanitar huquqning mutlaq himoyasi ostida bo‘lgan shaxslar kiradi. Yanada kengroq ma‘noda, homiylikdagi shaxslar – kimki harbiy harakatlar chog‘ida shartnomaviy yoki odatiy gumanitar huquq himoyasi ostida gilardir. Chunonchi, ularga: yaradorlar, bemorlar, kema halokatiga yo‘liqqanlar, harbiy asirlar, fuqaro aholi va harbiy harakatlarda ishtirok

¹ Рожь, Бартельс. Историческая эволюция правового раздела между международными и немеждународными вооруженными конфликтами. Международный журнал Красного Креста. – 2010 – С 34

²М. 13 ЖК I; m 13 ЖК II, m 4 ЖК III; m. 4 ЖК IV.

etmayotgan yoki ishtirokini to'xtatgan boshqa shaxslar, tibbiy xodimlar va ruhoniylar, gumanitar tashkilotlar hamda fuqaro mudofaasi tashkilotlari xodimlari, shuningdek Homiylikdagi shaxslarning XGHdagi vositachilari mansub bo'lib, ular mutlaq hurmat va himoyadan foydalanishlari shart.

Himoya nafaqat qurolli mojarolar jabrdiydalarini himoyalashning muayyan tartiblariga (Institutlariga) tayanishni ko'zda tutishi, balki urush jabrdiydalari huquqlarining ajralmasligi prinsipiga asoslangan. (Gaaga nizomi, 45–52, 56-moddalar). Himoya taqdim etish majburiyati homiylikdagi shaxslarning uni qabul qilish huquqiga nisbatan ustunlikka ega.

To'rtala Jeneva konvensiyalarining har biri qurolli to'qnashuvlar jabrdiydalarining u yoki bu toifasining himoyasi masalalarini tartibga soladi. I Konvensiyada yaradorlar va bemorlar haqida so'z boradi. II Konvensiya yaradorlar, bemorlar hamda kema halokatiga yo'liqgan shaxslar himoyasiga qaratilgan. III Konvensiya harbiy asirlarni qamrab oladi va IV Konvensiya qarama-qarshi tomon hokimiyati ostida bo'lgan fuqaro shaxslarni qamrab oladi. XGHda homiylikdagi shaxslarni himoyalashning umumiy tizimi qurolli mojarolar oqibatlaridan ularga maxsus, umumiy va minimal himoya taqdim etish asosiga qurilgan. Alohida toifadagi shaxslar maksimal, ya'ni asosiy toifalarga taqdim etiladiganiga nisbatan kuchaytirilgan himoya huquqiga ega. Tibbiy va diniy xodimlar¹, voyaga yetmaganlar² va ayollar³, qochoqlar va (bevanlar) apatridlar⁴ shular jumlasidandir. Minimal himoya – bu to'la himoya huquqiga ega bo'lmagan sharoitdagi shaxslarning ayrim kafolatlar olishi mumkinligi huquqi. Bu josuslar (I QP 46-modda) va yollanma askarlarga (I QP 47-modda) taalluqli bo'lib, ular harbiy asir maqomiga ega bo'lmaganlari holda baribir Jeneva konvensiyalari bilan mustahkamlangan asosiy kafolatlar huquqiga egadirlar⁵.

Shunday bo'lsa-da, homiylikdagi shaxslar toifasiga mansub bo'lmagan jabrdiydalar himoyadan mahrum emas. Modoniki, 3-umumiy modda “harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan shaxslarga” himoya taqdim etadi (Qarang: 3-umumiy modda, II QP, 4-modda). Inson huquqlari bo'yicha Xalqaro huquqqa muvofiq ular, garchi XGH homiylikdagi shaxslarga taqdim etiladigan himoya singari to'la himoya shaklida bo'lmasa ham, himoyadan foydalanadi.

¹ Qarang 24-27 ЖК I, Qarang 16, 42, ЖК II, Qarang 14-16 ДП I.

² Qarang 24 ЖК IV, qarang 77 ДП I.

³ Qarang 27 ЖК IV, qarang 76 ДП I.

⁴ Qarang 46 ДП I.

⁵ Кристоф Свинарски. Основные понятия и институты международного гуманитарного права как система защиты человека. М.ККК. –М., 1997. – С.29.

XGH normalarining vaqt bo'yicha amal qilish doirasi. I JK 5-moddasi, III JK 5-moddasi, IV JK 3-moddasi, I QP 3-moddasi, II QP 2-moddasiga muvofiq. Xalqaro gumanitar huquq uning tinchlik paytida qo'llanuvchi moddalarini istisno qilgan holda qurolli mojaro bilan bog'liq har qanday vaziyat boshlanishi bilan amal qila boshlaydi. XGHning qo'llanishi xususida so'z borar ekan, normalar guruhi muvofiq keluvchi uchta vaziyatni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinci guruh normalarning qo'llanishi nizolashayotgan tomonlar o'rtasida harbiy harakatlarning boshlanishiga muvofiq keladi va qo'llanishining to'xtashi faol qurolli harakatlarning tugallanishiga muvofiq keladi. Shunday qilib, tomonlarning mojaroni qanday kvalifikatsiya qilishlaridan qat'i nazar, harbiy harakatlar boshlanishi faktining o'zi tarafalar zimmasiga XGH qoidalariga amal qilish majburiyatini yuklaydi.

Davlatlarning irodasidan qat'i nazar, vaqt bo'yicha cheklovga ega bo'lmagan qoidalar, normalarning ikkinchi guruhini tashkil etadi. Davlatlarning XGH normalari haqidagi bilimlarni "tinchlik paytida ham, urush paytida ham" (I JK 47-modda, II JK 48-moda, III JK 127-modda, IV JK 144-modda) ommalashtirish sohasidagi majburiyati bunday turdagi normalarga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zining yuridik vazifasiga ko'ra tegishlicha vazifa bajarilgunga qadar o'zining faoliyatini tatbiq etishda davom etishi lozim bo'lgan moddalar, normalarning uchinchi toifasini tashkil etadi. Masalan, maqsadi oilaviy va jamoatchilik aloqalarini saqlab qolish yoki tiklashdan iborat bo'lgan moddalar. Ushbu murakkab masalalarning yechimi qurolli mojaroning o'zidan ko'ra uzroq davom etishi mumkin. Shunday qilib, III JK 122, 123-moddalari, IV JK 140-moddasi va I QP 33-moddasi qoidalarining amal qiliishi, harbiy harakatlarning nihoyasiga yetishi bilan to'xtamaydi.

Agar XGH amal qilishining boshlanishi faol harbiy harakatlarning amalda boshlangan davri bilan belgilansa, XGH normalarini qo'llashning tugallanishini aniqlash masalasida esa qiyinchiliklar yuzaga keladi. Zamonaviy qurolli to'qnashuvlar o'zining beqarorligi, jadallik darajasining pastligi, tashqi aralashuvlar, mojaroning aralash xarakteri bilan tavsiflanadi.

Bularning hammasi XGHni qo'llashning tugallanishi vaqtini aniqlashning yaqqol ifodasi mavjud emasligi bois XGH qoidalarini qo'llashni tugallash masalasini hal qilishni murakkablashtiradi. Demak, I QPning 3-moddasi xalqaro harbiy harakatlar uchun "harbiy harakatlarning umumiy nihoyasiga yetishi/tugallanishi"ni va QP II ichki harbiy harakatlar

uchun “qurolli mojaroning tugallanishi”ni nazarda tutadi. Bundan tashqari, XGHni qo‘llashning tugallanish pallasi harbiy harakatlarning amalda to‘xtatilishi pallasi bilan bog‘liq emas. U qurolli mojaroning gumanitar oqibatlarini bilan bog‘liq vaziyatlarda himoya taqdim etishda davom etadi (Qarang: I JK 5-modda, III JK 5-modda, IV JK 6-modda).

XGH qo‘llanish sobasining geografik chegaralari urushayotgan tomonlarning qurolli kuchlari haqiqatda harbiy harakatlar olib borayotgan hudud bilan belgilanadi. Harbiy harakatlar olib borishning makon chegaralarini belgilash uchun “harbiy harakatlar teatri” tushunchasi qo‘llanadi. Mazkur tushunchaga davlatlarning hududlarida qurolli mojarolar mavjud bo‘lgan quruqlikdagi, havo va dengiz hududlari, shuningdek ochiq dengiz va uning ustidagi havo bo‘shliqlari kiradi.

Jeneva konvensiyalarining mohiyatiga ko‘ra “qurolli mojaro vaziyati” iborasiga nizolashayotgan tomonlarning mazkur mojaro jabrdiydalari himoyasiga va ularga yordam ko‘rsatishga taalluqli bo‘lgan butun hududi mansub¹.

Ichki qurolli mojaro masalasiga kelganda esa umumiy 3-moddada ham, II Qo‘shimcha protokolda ham *ratione loci* qo‘llanishining aniq qoidasi mavjud emas. Ammo shu nuqtayi nazardan II Qo‘shimcha protokol anchayin aniq ifodaga ega, modomiki u mazkur Protokol “1-moddada belgilab qo‘yilganidek, qurolli mojaro daxl qiladigan barcha shaxslarga” nisbatan qo‘llanishini nazarda tutadi. Unga sharhda bunday qo‘llanish daxl qilingan shaxsning mojaroda ishtirok etayotgan davlat hududidagi aniq turgan o‘rniga bog‘liq emasligi masalasiga aniqlik kiritilgan. Ichki qurolli mojarolar chog‘ida *ratione loci*ni qo‘llanish masalasida, qachonki faqat 3-modda ahamiyat kasb etgan holatda, aynan shunday tarzda yondashuvga rioya qilmoq lozim, ya’ni modda mojaroda ishtirok etayotgan davlatning butun hududida qo‘llanmog‘i joiz.

Bunday yondashuv Apellatsiyaviy kamera tomonidan *uning Tadich ishida yurisdiksiya haqidagi masala bo‘yicha qarorida* qabul qilindi, o‘shanda “3-umumiy moddadan joy olgan normalar, shuningdek amaldagi harbiy harakatlar teatrining tor geografik chegaralari parchasidan tashqarida ham qo‘llanishiga qaror qilindi”².

¹Xalqaro harakatning tarkibiy qismini bo‘lgan Xalqaro Qizil Xoch va Xalqaro Qizil Yarim Oy xalqaro fioliyatini tashkil etish haqidagi bitim

Текст соглашения, принятого на основе консенсуса Резолюцией 6 Совета делегатов в Севилье (Испания) 26 ноября 1997 г., <http://www.icrc.org>

² M. Сассоли, А Булье. Правовая защита во время войны. Прецедент №200, МУТР, «Обвинитель против Жан-Поль Акайесу». МККК, 2008. Том IV – С.534

Garchi konvensiyalar uchun umumiy 3-modda va II Protokolning 4 (2)-moddasi kirdikorni “hamma yerda” va “har qanday joyda” tavsiflashni taqiqlasa-da, bunday taqiq, yaqqol ko‘rinib turganidek, Oliy Ahdlashuvchi Tomonlarning hududi bilan cheklanadi (3-umumiy modda va II Protokolning 1 (2)-moddalari). Mazkur hudud bevosita qurolli harakatlar olib borilayotgan front yoki zona bilan cheklanmaydi va harbiy harakatlar mavjud bo‘lgan davlatning butun hududini o‘z ichiga oladi¹.

Zamonaviy XGHda urush harakatlari olib borilayotgan geografik doirani toraytirishga moyillik kuzatilmoqda. Betaraf davlatlar hududida betaraf holatga keltirilgan va qurollardan xoli qilingan hududlarda, shuningdek maxsus xalqaro kelishuvlar orqali tartibga solinadigan kengliklarda urush harakatlari olib borish taqiqlanadi. Jumladan, IV JKning 23-moddasiga binoan urush davrida urushayotgan tomonlar ttarafidan tashkil etiladigan sanitariya zonolari va joylar urush harakatlari teatriga aylantirilishi mumkin emas. Xalqaro huquqning maxsus himoyasida bo‘lgan hududlar (xalqaro kanallar, masalan, 1888-yilgi konvensiya bo‘yicha Suvaysh kanali) va obyektlar (1954-yilgi Gaaga konvensiyasi bo‘yicha madaniy boyliklar; xavfli kuchlarni saqlovchi inshootlar)ga nisbatan istisno nazarda tutilgan.

Zamonaviy xalqaro gumanitar huquq manbalari

Zamonaviy XGH shartnomaviy normalar to‘plamidan, odatiy huquq normalari va jus cogensdan tashkil topgan. Xalqaro huquqning boshqa tarmoqlari bilan qiyoslaganda urush qonunlari va odatlarini kodekslashtirishga intilish xalqaro huquqning kodekslashtirilgan tarmoqlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy xalqaro gumanitar huquq xalqaro huquqning anchayin kodekslashtirilgan tarmoqlaridan biri sifatida ikkita tarmoq ostidan tashkil topgan:

– **“Jeneva huquqi”**, uning maqsadi – safdan chiqqan harbiy xizmatchilarga hamda harbiy harakatlarda faol ishtirok etmayotganlarga, ya‘ni fuqaro aholiga himoya taqdim etishdan iborat.

– **“Gaaga huquqi”** urushayotgan tomonlarning urush harakatlari olib borishdagi huquq va majburiyatlarini belgilaydi hamda raqibga zarar yetkazishning vosita va usullarini tanlashni cheklaydi.

¹ М. Сассоли, А. Буве. Правовая защита во время войны. Президент №205, Швейцария. Дело Ньонтезе. МККК. 2008. Том IV. – С.611

Xalqaro oshkora (publichnoye) huquqda kuch ishlatish taqiqlanganidan keyin jus in bellongne (urush huquqi) ikkala tarmog'i amaldagi xalqaro huquqqa kirdi va uni quyidagicha belgilash mumkin:

Xalqaro gumanitar huquq xalqaro va ichki mojarolarda qo'llash uchun maxsus mo'ljallangan hamda urushayotgan tomonlarning urush harakatlari olib borishda vosita va usullar tanlashini cheklovchi (Gaaga huquqi) shartnomaviy va odatiy normalar majmuini va harbiy harakatlar domiga tortilgan shaxslar va mulklarga himoya taqdim etuvchi normalarni (Jeneva huquqi) o'zida ifodalaydi.

Harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalarini tanlashni cheklashning umumiy prinsiplari bir qator anchayin o'ziga xos taqiqlar uchun manba vazifasini o'tadi. Gaaga huquqini ishlab chiqish sohasidagi tashabbusga Ikkinchi jahon urushining mudhish oqibatlarini turki bo'ldi. Qurolli mojarolar ro'y bergan holda madaniy boyliklarni himoyalash to'g'risidagi 1954-yil 14-maydagi Gaaga konvensiyasi, Tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan harbiy yoki boshqa har qanday vositalardan dushmanlik ruhida foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi 1976-yil 10-dekabrda konvensiya¹ va qurol-yarog'lar ustidan nazoratni amalga oshirishga oid boshqa konvensiyalar Gaaga huquqi qoidalarini to'ldiradi va rivojlantiradi.

Bugungi kunda qurolni qo'llash bir qator konvensiyalar, protokol va deklaratsiyalar, odatiy huquq normalari bilan qat'iy belgilangan. O'zining ortiqcha ziyon yetkazish usul va vositalarining o'sishi hamda rivojini cheklashga yo'naltirilgan normalar bilan aloqasi tufayli Gaaga huquqi yangi dolzarblilik kasb etmoqda. Biroq Gaaga huquqi va zamonaviy qurolsizlanish huquqi o'rtasidagi ko'plab o'xshashliklarga qaramay ularning tabiati va maqsadida jiddiy tafovutlar mavjud.

Masalan, 1925-yil 17-iyundagi gazlar to'g'risidani Jeneva protokolida kimyoviy va bakteriologik qurollarni qo'llash haqidagi qoida mavjud bo'lgani holda, 1993-yil 13-yanvardagi kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqarish, to'plash va qo'llashni taqiqlash va uni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiyada uning mavjud bo'lishiga mutlaq taqiq mavjud.

F.Kalsxofen fikriga ko'ra, qurol-yarog'larni cheklash sohasidagi so'nggi yutuqlarga erishishda BMTning roli mumtoz (klassik) Gaaga va Jeneva huquqlarini, masalan, odatdagi qurollarning aniq turlari to'g'risidagi 1980-yilgi konvensiya², kassetali o'q-dorilar haqidagi

¹ Международное право. Ведение военных действий. Сборник Гаагских конвенций и иных соглашений. МККК. – Москва, 2004.

² Ф. Кальсхофен. Ограничение методов и средств ведения войны. – 2-е изд., испр. – М., 1999. – С.26.

konvensiyalarning (Dublin, 2008) qabul qilinishi orqali sezilarli darajada rivojlantirdi.

1949-yil 12-avgustdagi urush jabrdiydalarini himoyalash to'g'risidagi Jeneva konvensiyalari xalqaro gumanitar huquqning, ayniqsa, muhim kelishuvi hisoblanadi. Ishtirokchilari deyarli barcha davlatlar bo'lgan mazkur kelishuvlar dushman qo'li ostida bo'lgan yaradorlar, bemorlar, harbiy asirlar va fuqaro shaxslar himoyasiga mo'ljallangan. Ular, shuningdek tibbiy funksiyalarni amalga oshirayotgan, yordam ko'rsatish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga mo'ljallangan kasalxonalar va sanitariya-transport vositalari xodimlarini ham nazarda tutadi.

Garchi 1949-yilgi to'rtala Jeneva konvensiyalari puxta va batafsil ishlab chiqilgan qoidalarni o'zida ifodalasa-da, ular kombatantlarning o'zini tutish qoidalari va urush paytida fuqaro aholining himoyasi singari muhim jihatlarni e'tiborga olmaydi.

Mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida 1977-yilda 1949-yilgi Jeneva konvensiyalarini, ularning hech bir qoidasini o'zgartirmagan holda to'ldiruvchi ikkita Protokol qabul qilindi.

1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga xalqaro qurolli mojarolar qurbonlari himoyasiga taalluqli Qo'shimcha Protokol (I Protokol) Jeneva konvensiyalari tomonidan berilgan xalqaro qurolli mojaro tavsifini kengaytirdi hamda mazkur tavsifga urush va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish tavsifini kiritdi hamda harbiy hujumning qonuniy maqsadlari doirasini o'rnatdi.

1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga noxalqaro xarakterdagi qurolli mojarolar jabrdiydalari himoyasiga taalluqli Qo'shimcha Protokol (Protokol II). To'rtala Jeneva konvensiyalari uchun umumiy bo'lgan, o'zi qo'llanadigan ichki nizolar mezonini o'rnatmaydigan 3-moddadan farqli ravishda II Protokol, ichki tartibsizliklar va ahyon-ahyonda sodir bo'ladigan zo'ravonlik holatlari singari jadalligi past vaziyatlarni istisno qilgan holda o'zining qo'llanish sohasini batafsil tavsifladi.

II Protokolni qo'llash shartlari to'rtala Jeneva konvensiyalari uchun umumiy bo'lgan 3-moddada nazarda tutilgan shartga nisbatan ancha keskin.

Qo'shimcha II Protokol:

– harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslar uchun asosiy kafolatlarni belgilaydi (4-modda);

– erkinligi cheklangan shaxslarning huquqlarini sharhlaydi va qurolli mojarolar bilan aloqador huquqbuzarliklari bois sud ta'qibiga yo'liqqanlar uchun sud kafolatini o'rnatadi (5-6-moddalar);

– quyidagilarni hujumga yo'liqtirishni taqiqlaydi: fuqaro aholi va fuqaro shaxslar (13-modda); fuqaro aholining omon qolishi uchun zarur obyektlar (14-modda); xavfli kuchlarni o'zida saqlovchi qurilma va inshootlar (15-modda); madaniy boyliklar va ibodat amallarini o'tash joylari (16-modda);

– fuqaro shaxslarni majburan ko'chirishni taqiqlaydi (17-modda);

– yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga yo'liqqanlarga himoya taqdim etadi (7-modda);

– tibbiy va diniy xodimlarga hamda tibbiy tuzilmalar va sanitariya-transport vositalariga himoya taqdim etadi (11-modda);

– qizil xoch va qizil yarim oy timsollaridan foydalanishni faqat bunga huquqi bo'lgan shahlar va obyektlar bilan cheklaydi.

Gaaga huquqi va Jeneva huquqi urush jabrdiydalari himoyasiga yo'naltirilgan, ammo buning uchun mazkur tarmoqlarni nazarda tutuvchi qoida bir-biridan ma'lum darajada farqlanadi. Agar Jeneva konvensiyalari mojaro oqibatida jabrlanib bo'lgan shaxslar – yaradorlar, kema halokatiga yo'liqqanlar, dushman hokimiyati tasarrufida qolgan shaxslar himoyasiga moyil bo'lsa, Gaaga huquqi esa harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalarini cheklash yo'li bilan asosan kombatantlar va nokombatantlar himoyasiga mo'ljallangan. 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Jeneva konvensiyalariga 1977-yil 8-iyunda ikkita Qo'shimcha Protokollar qabul qilinganidan so'ng Gaaga huquqi va Jeneva huquqi o'rtasidagi tafovut keskin kamaydi.

Mazkur ikkala qoidalar to'plami o'rtasida yaqqol ifodalangan bo'linish chizig'i mavjud emas, faqatgina ikki xil turlicha nomlanish ostida jamlangan ayrim normalar (majmui) kontiniumi mavjud. Bu yerda bir-birini to'ldiruvchi va qulaylik uchun turlicha nom berilgan ikkita qoidalar to'plami haqida so'z boradi; ammo ularning har biriga o'zining aniq belgilangan qo'llanish doirasini baxsh etmoq noto'g'ri bo'lur edi¹.

Xalqaro sud o'zining *yadro qurolli tahdidi yoki uni qo'llashning qonuniyligiga oid Konsultativ xulosasida* (1996), XGHning eng muhim normalari birligini e'tirof etib, shunday xulosaga keldi.

Odat – xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallangan xalqaro ommaviy huquqning manbalaridan biri.

¹ Ф. Бюньон. Право Женевы и право Гааги. Международный журнал Красного Креста 2003: Сборник статей / Пер. с англ. и фр. – М.: МККК, 2004. – С.93.

Norma yaratishning asosiy jarayoni sifatida XGHni kodekslashdagi barcha yutuqlarga qaramasdan, XGH ichki qurolli mojarolar vaziyati bilan bog'liq qoidalarni qat'iy belgilash masalasida unchalik mufassallikka ega emas.

Birinchidan, bugungi kunda barcha davlatlar Jeneva konvensiyalarining ishtirokchilari hisoblanadilar, biroq shartnomalarning hammasi ham shunday e'tirof etilmadi.

Ikkinchidan, ichki qurolli mojarolarda qo'llanadigan XGH qoidalari mufassal emas, balki faqat eng kam himoya kafolatini ifodalaydi.

Uchinchidan, shartnomaviy normalar davlatlarning kelishilgan irodasi natijasi hisoblanadi va ularning sifati ko'pincha tomonlarning siyosiy irodasiga va ularning ma'lum majburiyatlarni o'z zimmasiga olish yoki olmaslik tayyorligiga bog'liq.

Mazkur sabablarning barchasi XGHning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan manbai sifatida odatiy normalarning zarurligi va muhimligining isboti bo'lib xizmat qiladi.

(Qarang: *XGH odatiy normalari ro'yxati. Odatiy XGHga bag'ishlangan tadqiqotga ilova. Jan-Mari Xenkerts. Luiza Dosvald-Bek. 2005. S.260–269*).

Xalqaro sud Statuti odatiy xalqaro huquqni huquqiy norma sifatida e'tirof etilgan yalpi amaliyot sifatida tavsiflaydi (38-modda). Odatiy xalqaro huquqning mavjud bo'lishi uchun ikkita unsur: davlatlar amaliyoti va uning huquqiy norma sifatida e'tirof etilishi zarur.

Xalqaro taomil davlatlar yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan universal qoidani taomil sifatida qo'llashi natijasida vujudga keladi va bu universal qoida uni qo'llayotgan subyektlar uchun qat'iy bo'lmasligi mumkin».¹

Xalqaro sud allaqachon o'zining 1949-yil 9-apreldagi *Korfu ko'rfazi haqidagi ishida* gumanitar huquqning odatiy xarakterga egaligini ko'rsatgan edi.

Hozirgi xalqaro gumanitar huquq² holatining butun qamrovli tadqiqoti, xalqaro konvensiyalar va sud³ qarorlarining tahlili shuni isbotladiki, Jeneva konvensiyasi va Qo'shimcha protokollar normalarining aksariyati bugungi kunda odatiy huquq normalari xususiyatiga ega bo'lib,

¹ Сяядова Л.А. Источники современного дипломатического права: международные договоры и национальное законодательство Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, 2001. – С. 32.

² Жан-Мари Хенкертс, Луиза Досвальд-Бек и др. Обычное международное гуманитарное право. МККК 2006г.

³ Оглаву: Законность угрозы ядерным оружием или его применения. Консультативное заключение Международного суда, 19 июля 1996г., ГАООН, А/51/218, П. 78.; Military and Paramilitary Activities in and against Nicaragua, Merits, ICJ Reports 1986.; ICTY, The Prosecutor v. Dusko Tadic, IT-94-1-AR72, Appeals Chamber, Decision of 2 October 1995; <http://www.un.org>.

XGHning qo'sh huquqiy tabiatga egaligi haqida xulosaga kelishga imkon beradi.

Umumiy va odatiy huquq xalqaro imperativ normalarning jus cogens maxsus kategoriyalarining shakllantirilishi asoslaridir. Ular hatto davlatlarning o'zaro kelishuvlari asosida ham hech qanday chekinishga yo'l qo'ymaydilar. Ularni buzib talqin qilish va yoki buzish xalqaro tartibga nisbatan tajovuz sifatida baholanadi. Ularga qat'iy tarzda rioya qilinib, xalqaro munosabatlarning barcha sohalari va istisnosiz barcha mamlakatlarning o'zaro munosabatlariga tatbiq etilishi shartdir. Jus cogens normalari oliy yuridik kuchga ega¹.

XGHda jus cogens normalari XGHning asosiy prinsiplari hisoblanadi. Imperativ normalarning muhim xususiyati shundaki, ular davlatlar o'rtasida xos munosabatlarni, ya'ni barchaga (erga omnes) tegishli bo'lgan munosabatlarni vujudga keltiradi. XGHni majburiyat sifatida erga omnes rioya qilish Jeneva konvensiyalarining 1-moddasida keltirilgan bo'lib, uning bandlariga rioya qilish zarurati I Qo'shimcha protokolda takrorlanadi.

Odat va shartnomalar xalqaro huquqning yagona manbasi emas. Qo'shimcha manbalar, bu: xalqaro sud va tribunallarning sud qarorlari; jamoat huquqi bo'yicha eng yuqori malakali mutaxassislarining doktrinalari; xalqaro organlar va tashkilotlarning rezolyutsiyalari.

Xalqaro organlar va tashkilotlarning rezolyutsiyalari faqat ma'naviy-siyosiy majburiyatlarni vujudga keltirib, tavsiya xususiyatiga egadir va bevosita xalqaro huquq normalarini yaratmaydi. Ammo ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan normativ hujjatlarning qabul qilinishi yo'li bilan implementatsiya bo'lishi natijasida mamlakat ichki huquqining bir qismiga aylanishi mumkin.

BMT Ustavining 25-moddasi asosida Xavfsizlik Kengashi qarorlari yuridik nuqtayi nazardan majburiy hisoblanib, Ustavning 103-moddasi asosida shartnomadan kelib chiqadigan davlatlarning har qanday majburiyatidan ustundir.

Masalan, BMT Xavfsizlik Kengashining № 1540 (2004) sonli nodavlat subyektlarning ommaviy qirg'in quroliga (OQQ) ega bo'lishi va uni yetkazish uchun vositalarga yo'l topishining oldini olish va uning noqonuniy aylanishining oldini olish haqidagi rezolyutsiyasini bajarish

¹ Международное право: учебник. Отв. ред. Ю.М. Колосов, Э.С. Кривичкова. – М.: Международные отношения, 2001. – С.42.

maqсадida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi BMT Xavfsizlik Kengashining №1540(2004) qarori ijrosini tashkillashtirish choralari haqida” qaror qabul qildi.

Harbiy harakatlar olib borilishining xalqaro – huquqiy reglamentga solinishi

Kombatantlar va fuqaro shaxslar o‘rtasidagi asosiy farqlar

Farqlash prinsipiga asoslanib, nizoda qatnashuvchi barcha tomonlar har vaqtda fuqaro obyektlari va harbiy obyektlar o‘rtasida farq belgilashi zarur. Bu farqlash fuqaro aholi va fuqaro obyektlarni hurmat qilish va himoyalashni ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Bu himoyalash faqat kombatantlar o‘zlarini fuqaro aholidan farqlagan holatdagina amalga oshishi mumkin. (Qarang. QP I, 43-modda, 3-band, 48-modda va 52-modda MUS 8 Statusi).¹

Kombatantlar – nizolashayotgan tomonlar qurolli kuchlari tarkibiga kirgan tibbiy va diniy xodimlardan tashqari shaxslardir va ular harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etish² huquqiga shaxslar”.

Kombatant maqomi shundan iboratki, faqat shu shaxslar harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etish³ huquqiga egadirlar”.

Bu huquq mavjudligi shuni ko‘rsatadiki, kombatant kuch ishlatish huquqiga egadir. Bu yerda u, masalan, fuqaro shaxs bo‘lgan holatida aynan o‘sha amallari uchun javobgar bo‘lgandek, o‘z amallari uchun shaxsiy javobgar emasdir. Dushmanga nisbatan kuch ishlatib kombatant bo‘lmagan shaxs kombatant maqomi imtiyozlaridan foydalana olmaydi. Harbiy harakatlarda noqonuniy ishtiroki uchun u milliy qonunchilik normalari asosida javobgarlikka tortiladi. Bu harakatlar XGHning buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

JK I va JK II 13-moddasi, JK III 4-moddasi asosida ko‘ngillilar kombatant sifatida tan olinadi. Kombatant maqomiga yana dushman yaqinlashganda hujum qilayotgan qo‘shinlarga qarshi kurash olib borish

¹Yana qarang: Комментарий к п.3 ст.44 ДП I.

²Qarang batafsil: Руководство по толкованию понятия о непосредственном участии в военных действиях, в соответствии с МГП» (Разъяснительные рекомендации). Interpretive guidance on the notion of direct participation in hostilities under IHL. NilsMelzer. 2009.

³Qarang batafsil: Руководство по толкованию понятия о непосредственном участии в военных действиях, в соответствии с МГП» (Разъяснительные рекомендации). Interpretive guidance on the notion of direct participation in hostilities under IHL. NilsMelzer. 2009.

uchun ixtiyoriy ravishda qo‘liga qurol olgan egallanmagan hududning aholisi ega bo‘ladi.

Fuqaro shaxslar	Kombatantlar
Harbiy harakatlarda bevosita qatnashmaydilar va bunga haqlari yo‘q.	Harbiy harakatlarda bevosita qatnashadilar va bunga haqlari bor
Faqat harbiy harakatlarda qatnashganlari uchun jazolanishlari mumkin	Harbiy harakatlarda faqat qatnashganlari uchun jazolanishlari mumkin emas

Kombatant tomonidan harbiy harakatlarda ishtirokini to‘xtatgan holatida u vaziyatga muvofiq holda (yaradorlik, asirlik) mos holda homiylik qiluvchi shaxsning maqomiga ega bo‘ladi. XGH buzilishi holatida kombatant o‘zining maqomidan mahrum bo‘lmaydi.

XGHga muvofiq kombatantning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- o‘zini fuqaro shaxsidan farq qilish;
- harbiy amaliyotlarni o‘tkazayotgan paytda insonparvarlik talablari va harbiy zaruriyat o‘rtasida muvozanatni tuta bilish.

Qo‘shimcha protokol II kombatant maqomini nazarda tutmaydi, bu hujjat faqat harbiy harakatlarda qatnashadigan va qatnashmaydigan shaxslar o‘rtasida farq quyadi.

Fuqaro va harbiy obyektlar. Obyektlar bo‘yicha cheklovlar hujum qat’iy ravishda faqat harbiy obyektlarga hamla qilish bilan cheklanishi shartligini nazarda tutadi. Bu prinsipning qo‘llanishi “fuqaro obyekti” va “harbiy obyekti” tushunchalari bilan bog‘liqdir.

QP I 52-moddasi 1-bandiga asosan:

“Fuqaro obyektlari deganda, 2-bandda tushuncha berilgan harbiy obyektlar qatoriga kirmaydigan barcha obyektlar tushuniladi”.

Harbiy obyektning ta’rifi I QP 52-moddasi 2-bandiga muvofiq ba’zi belgilarga egaki, har bir konkret holatda mavjud bo‘lishi shartdir (*Qarang: I QP 52-moddasi 2-bandi.*).

Harbiy obyektlarning asosiy belgilari quyidagilardir:

- obyekt “harbiy harakatlarga samarali ulush qo‘shishi zarur”;
- obyektning vayron etilishi tegishli shart-sharoitda sezilarli harbiy ustunlik berishi zarur.

Keltirilgan ta’rif jang qilayotgan taraflarga sezilarli darajada erkinlik berib, obyektlarni identifikatsiyalashda XGH talablariga rioya qilish borasida katta mas’uliyat yuklatadi.

Obyekt fuqaro yoki harbiy ekanligida shubha uygʻongan taqdirda norma kiritilganki unga muvofiq,

“Odatda, fuqaroviy maqsadlar uchun moʻljallangan obyektidan, masalan, ibodat maskani, uy yoki boshqa xil turar-joy imorati yoxud maktabdan harbiy harakatlarni sumarali qoʻllab-quvvatlashda foydalanilmayotgani borasida muayyan gumon mavjud boʻlgan taqdirda, bunday obyektidan fuqaroviy maqsadlarda foydalanilayotgani taxmin etiladi” (QP I 52-moddasi).

Harbiy harakatlarni olib borishning taqiqlangan usullari va vositalari

Urushni olib borishning taqiqlangan usullari va vositalariga cheklovlar oʻrnatuvchi asosiy hujjatlar 1907-yildagi Gaaga nizomi, 1949-yildagi Jeneva konvensiyasiga 1977-yildagi Qoʻshimcha protokollar va qurollarning konkret turlariga nisbatan qabul qilingan bir qator shartnomalardir.

XGH haddan tashqari qiynaydigan yoki tan jarohati yetkazadigan vosita va usullardan foydalanishni taqiqlaydi. Bu qoida asosida maʼlum turdagi qurollardan foydalanish taqiqlangan. Boshqa turdagi qurollardan foydalanish usullariga nisbatan cheklovlar oʻrnatilgan¹.

Masalan, baʼzi turdagi qurollardan foydalanish usullariga nisbatan cheklovlar oʻz ichiga 1997-yil piyodalarga qarshi minalarni taqiqlash haqidagi Ottava konvensiyasini, 2003-yil urushning portlovchi boqimandalari boʻyicha Protokoli (BMTning 1980-yil odatiy qurollarning konkret turlari boʻyicha konvensiyasiga qoʻshimcha sifatida) va 2008-yil kassetali jang qurolini taqiqlash haqidagi konvensiyani qamrab oladi.

Qurolning nomaʼqul turlarini taqiqlash va cheklash bilan birga XGH odatiy, “joiz” qurol turlarini ishlatishga cheklovlar oʻrnatgan.

Xalqaro gumanitar huquq yana qurolli mojarolarni olib borishning vosita va usullarini tartibga soladi. Qurolli mojaroda harbiy emblemalardan suisteʼmol qilinishining oldini olish va yollanma askarlarga muomala qilish haqida normalar mavjud. Hech kimni omon qoldirmaslik haqida buyruq berish taqiqlanadi.

Qurolsizlantirilgan zonalar va himoya etilmaydigan joylarga nisbatan maxsus qoidalar qoʻllaniladi.

Harbiy harakatlar yuritish vositalari deganda qurol, harbiy texnika va mojaro qilalayotgan tomonlardan raqibga zarar va zarba berish maqsadida qoʻllanadigan vositalar tushuniladi.

¹Qatʼigʻ balafsil: Средства ведения войны. Красного Креста. – 2005. – № 859

Harbiy harakatlar usullari – bu qurolli mojaro vositalarini qo‘llashning uslublari va tartibidir.

Vosita va usullar quyidagicha bo‘linadi: joiz (qonuniy), nojoiz (noqonuniy).

Urush jabrdiydalari va fuqaro obyektlarning xalqaro–huquqiy himoyasi

Yarador, bemor va kema halokatiga uchragan shaxslarni himoyalash XGH – bu qurolli mojarolar jabrdiydalari himoyalalanishini ta‘minlashga qaratilgan normalar majmuidir.

Qurolli mojarolar jabrdiydalari deganda, qatordan chiqarilgan yoki qurolli mojaroda bevosita qatnashmagan shaxslar tushuniladi. Bu yerda XGHda qurolli mojaro jabrdiydalari huquqlari musodara qilinmaydi.

Qatordan chiqarilgan yoki qurolli mojaroda bevosita qatnashmagan shaxslarning ularga nisbatan hurmat, himoyalash va insonparvarlik ko‘rsatilishiga haqliliklari prinsipi butun Jeneva huquqi mazmunini tashkil etadi (*Qarang. JK 112-moddasi va I QP 10-moddasi*).

Noxalqaro xarakterga ega bo‘lgan qurolli mojaroda, daxlsizlik prinsipi Jeneva konvensiyalariga umumiy bo‘lgan 3-moddada berilgan. Bu ma‘no II QP 7-moddasida o‘z tasdig‘ini topgan va u I QP 10-moddasida takrorlangan.

Shunday qilib, bu prinsip konvension xarakterga ega bo‘lib, ichki va xalqaro mojarolarda qo‘llaniladi.

Bu prinsip nizolashayotgan tomonlarga ikki xil majburiyatni yuklaydi: hurmat qilish va himoya qilish.

XGPda urush jabrdiydalari va fuqaro obyektlarining himoyalalanishi yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning hech bir shartlarsiz va majburiyatlarsiz himoya va yordam olishga haqliliklari qoidalariga asoslangandir.

“Yaradorlar va bemorlar” tushunchalarining ta‘rifi I QP 8-modda “a” bandida berilgan bo‘lib, ikkita mezon bilan asoslangan: tibbiy yordamga muhtojlik va har qanaqangi adovatli harakatlardan tiyilish.

I QP 10-moddasiga asosan:

Barcha yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslar, qaysi tarafga mansubliklaridan qat‘i nazar, hurmat va himoyadan foydalanishadi. Barcha sharoitlarda ularga nisbatan insonparvarlarcha munosabatda bo‘lib, ularga qisqa muddatlarda maksimal darajada ahvollariga qarab tibbiy yordam va g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi.

Shunday qilib, I QP cheklovlarni barham berib, “yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslar” tushunchasiga keng qamrovli talqin berdi. Endi bu tushuncha ham harbiylarni va ham Jeneva huquqidan farqli o‘laroq, fuqaro shaxslarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslar zaruriy darajada himoyadan foydalanishlari uchun tibbiy xodimlar munosib himoyaga ega bo‘lishlari zarur. Tibbiy xodimlar va muassasalarning daxlsizligi qurolli mojarolar jabrdiydalarining daxlsizligi prinsipi tabiiy natijasidir. Tibbiy xodimlar va muassasalarning daxlsizligi prinsipi JK 19–35-moddalari va II QP 95-moddasida keltirilgan. “Tibbiy xodim” tushunchasi I QP 8-moddasida keltirilgan va unga muvofiq tibbiy xodim harbiy yoki fuqaro bo‘lishi mumkin.

Tibbiy xodimlarning himoyasi tanho yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarga yordam ko‘rsatish vazifasini bajarish uchun amalga oshiriladi. Bu yerda tibbiy xodimlar tibbiy xizmatlar ko‘rsatayotganda tibbiy axloq me‘yorlariga amal qilishlari zarur.

Raqib tomon qo‘liga tushgan tibbiy xodimlarning himoyasi kafolati 1949-yildagi III QKda nazarda tutilgan.

Ruhoniy tushunchasi va uning yuridik maqomi I QP 8-moddasida keltirilgan. Ruhoniylarning himoyasi va hurmatlash tartibi tibbiy xodimlarnikidan farq qilmaydi.

XGPda tibbiy va ruhoniy xodimlar ularning butun missiyalari davomida davom etadigan alohida mavqelaridan kelib chiqqan holda maxsus himoyadan foydalanadilar.

Harbiy asirlarning himoyasi tartibi

Uchinchi Jeneva konvensiyasi harbiy asirlarning ko‘p tomonlama himoyasini ta‘minlaydi. Bu konvensiya ularning maqomi va huquqlarini belgilab, batafsil tarzda ularga munosabat qilish normalari va asirlikdan ozod etish tartibini aniqlaydi.

Harbiy asirlarni himoyasiga qaratilgan normalar alohida xususiyatga ega. Ilk marta ular 1929-yildagi Jeneva konvensiyasida ishlab chiqilgan edi. Bu normalar Ikkinchi jahon urushi tajribasidan kelib chiqqan holda 1949-yildagi Uchinchi Jeneva konvensiyasida keyinchalik 1977-yildagi I Qo‘shimcha protokolda to‘ldirilgan edi.

Harbiy asir maqomi faqat xalqaro qurolli mojarolar holatida ishlatiladi. Odatda harbiy asir sifatida raqib tomonga asir tushgan bir tomonning harbiy xizmatchilari ta‘riflanadi. Uchinchi Jeneva konvensiyasi yana boshqa shaxslarni ham nazarda tutganki, ular harbiy asir maqomiga ega

bo'lishlari mumkin yoki ularga nisbatan harbiy asir sifatida munosabat qilish mumkin.

Harbiy asirlarni faqat jangda qatnashganlari uchun javobgarlikka tortish taqiqlanadi. Hibs qilish jazo shakli emas: buning maqsadi – faqat bundan keyin qurolli mojaroda qatnashishi oldini olishdir. Ularni ozod qilib harbiy harakatlar to'xtaganidan keyin darhol repatriatsiya(vataniga qaytarish) qilish zarur. Asirlikda ushlab turgan davlat ularni sud orqali harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishi mumkin, ammo XGPga muvofiq qonuniy xislatga ega bo'lgan kuch ishlatganliklari uchun haqli emas.

Harbiy asirlar har qanaqa holatda ham insonparvarlik munosabatiga loyiqdirlar. Harbiy asirlar har bir zo'rlik amalidan va ham qo'rqitish, tahqirlash va olomon qiziqishidan himoyalanih huquqidan foydalanishlari zarur. XGP yana yashash sharoiti, ovqatlanish, gigiyena va tibbiy yordam kabi qamoqda ushlab tomonlarining minimal standartlarini belgilab bergan.

1949-yildagi to'rtinchi Jeneva konvensiyasi yana xalqaro qurolli mojarolar davrida ushlab qolingan fuqaro shaxslarning keng qamrovdagi himoyasi choralarini nazarda tutadi. Xavfsizlikning zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda nizo tomoni fuqaro aholi yashashi uchun maxsus hudud ajratishi yoki bu aholini ushlab qolishi mumkin. Demak, ushlab qolish xavfsizlik talabi bo'lib, jazo sifatida qo'llanilmaydi. Ya'ni har bir ushlab qolingan shaxs, uni ushlab qolishga sabablar bartaraf etilgan zahoti ozod etilishi zarur.

Ushlab qolingan fuqaro shaxslarga nisbatan munosabat va ularni ushlab sharoitini tartib soluvchi XGPning normalari harbiy asirlarga nisbatan qo'llaniladigan XGP normalariga to'liq mosdir.¹

Ichki qurolli mojarolarga nisbatan barcha 1949-yildagi Jeneva konvensiyalariga umumiy bo'lgan 3 modda va II Qo'shimcha protokolda quyidagi nazarda tutilgan:

“Harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmayotgan shaxslar, jumladan, qurolli kuchlar tarkibida bo'lganu qurolini topshirgan, bundan tashqari bemorligi, yaradorligi, qo'lga olinganligi yoxud boshqa har xil sabablarga ko'ra harbiy harakatlarda qatnashmayotgan shaxslar irqi, tana rangi, dini yoki e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va shunga

¹ Печт Елена. Соблюдение процессуальных принципов и гарантий в случае интернирования или административного содержания под стражей в период вооруженного конфликта или в других ситуациях насилия // Красного Креста. – 2005. – № 858. – С.375–391.

o'xshash boshqa jihatlar sababli hech bir kamsitishlarga yo'l qo'yilmagan holda har qanday shart-sharoitda insoniy muomaladan foydalanishi zarur".

Fuqaro aholi himoyasi. Fuqaro aholini himoya qilishga qaratilgan normalar 1907-yildagi Quruqlikdagi jang qonunlari va an'analari haqidagi Gaaga konvensiyasida, 1949-yildagi Jenevaning "Urush davrida fuqaro aholi himoyasi", 1977-yildagi Qo'shimcha protokollari, 1980-yildagi ba'zi qurol turlarini taqiqlash yoki cheklash Konvensiyasida berilgan.

I QPga asosan Fuqaro aholi va alohida fuqaro shaxslar harbiy amaliyotlar munosabati bilan yuzaga keladigan xavf-xatardan saqlanishda umumiy himoyadan foydalanadi (51-modda). Fuqaro aholi fuqaro shaxs hisoblangan barcha shaxslardan iboratdir. Bu ta'rif IV Jeneva konvensiyasining 4-moddasidagi cheklovni olib tashladi. III JK 4-modda 1-3 va 6-bandida ko'rsatilgan guruhlariga kirmagan xohlagan shaxs fuqaro hisoblanadi.

XGP asosida fuqaro aholi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- umumiy himoya (IV JK 27, 51, 54, 57, 58-moddalar, I QP, II QP 13-modda);
- maxsus himoya, masalan, bolalar, ayollar, mayiblar, keksalar, ushlab qolingan v.b. himoyasi (IV JK 16, 17, 24-moddalari, I QP 77-modda, QP, II QP 3,4-moddalari).

Harbiy istiloning huquqiy tartibi. Xalqaro gumanitar huquqga asosan, davlat o'zining suveren huquqi doirasida bo'lmagan hudud ustidan, istilo qilinayotgan tomon hukumati roziligisiz amaliy nazoratni o'rnatasa, istilo holati vujudga keladi.

Istiloning huquqiy tartibiga oid mavjud normalar asosan 1907-yildagi Gaaga konvensiyasining 42-moddasida keltirilgan konsepsiyaga asoslangan:

"Hudud ishg'ol etilgan hisoblanadi, darhaqiqat, agar u dushman qo'shinlari ixtiyoriga o'tsa. Faqat dushman hokimiyati o'rnatilgan va o'z faoliyatini amalga oshirishga qodir bo'lgan hududlarga qarab ishg'ol etilgan deb baholash mumkin".

Istiloning huquqiy tartibiga oid normalarning manbalari 1907-yildagi Gaaga nizomi, 1949-yildagi To'rtinchi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyalari I Protokolining ayrim bandlaridir.

Istiloning tartibiga oid huquqiy normalar, bir tomondan, istilo qilgan davlat xavfsizligi ehtiyojlari va, ikkinchi tomondan, istilo qilingan davlat va mahalliy aholi manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan. Ular yana istilo qilingan hududlarda yashovchi tinch aholi himoyasini ta'minlashga ham qaratilgan.

Istilochi davlat istilo qilingan hududlarga nisbatan suveren huquqqa ega bo'lmaydi va maksimal tarzda u yerda amalda bo'lgan qonunlar va boshqaruv organlar tizimini hurmat qilishi zarur. Istilo muvaqqat xarakterga egaligi va istilochi davlat istilo qilingan hududda status quo ante ni ta'minlashi nazarda tutiladi.

Istilochi davlat mavjud institutlar, qonunlar va boshqa normalar tizimiga maxsus o'zgarishlar kiritishi mumkin, ammo bu o'zgarishlar tartibni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash kabi umumiy maqsadlarga xizmat qilishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro gumanitar huquq tushunchasi va xalqaro munosabatlardagi uning ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Xalqaro gumanitar huquq asosiy prinsiplarining shakllanishi va rivojlanishi haqida fikringizni bildiring.
3. Zamonaviy xalqaro gumanitar huquq asosiy manbalari va ularning mazmunini yoritib bering.
4. Harbiy harakatlar olib borishining qoidalarini izohlang.
5. Urush jabrdiydalari va fuqaro obyektlari qay tartibda himoya qilinadi?

Kazus.

XX asrning 80-yillarida ro'y bergan Eron va Iroq urushida asirga olingan askarlar sud qilinib, qatl etilgan. Bu harakatlar urushda qatnashish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham amalga oshirilgan. Ayrim holatlarda buyruqni bajarmaslik sifatida asirlar sud qilinmasdan shavqatsizlarcha otib tashlangan. Dushmanning yaralangan askarlari ham jang maydonida o'ldirilgan.

Savol: Bu harakatlarga nisbatan xalqaro gumanitar huquqning qaysi normalari qo'llaniladi?

Vaziyatga huquqiy baho bering.

XII BOB. XALQARO IQTISODIY HUQUQ

Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlari. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari va tamoyillari. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. Xalqaro savdo huquqi. Xalqaro moliya huquq. Xalqaro investitsiya huquqi

Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi va subyektlari

O'tgan asrning o'rtalaridan xalqaro huquq turli yo'nalishlarda rivojlana boshladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarning taraqqiy etishi natijasida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yangi norma va qoidalar paydo bo'ldi, xalqaro huquqning tabiati o'zgardi. Xalqaro savdo, atrof-muhitni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish masalalarini tartibga soluvchi yangi soha va institutlar vujudga keldi.¹

Davlatlar va xalqaro ommaviy huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy munosabatlar xalqaro iqtisodiy huquqning predmeti hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarga savdo, tijorat munosabatlari, shuningdek ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, valyuta-moliyaviy, transport, aloqa, energetika, intellektual mulk, turizm va shu kabi sohalarga doir munosabatlar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy huquq – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi norma va tamoyillar yig'indisi.

Xalqaro iqtisodiy huquq davlatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni tartibga soladi. U bir qator sohalarni o'z ichiga oladi: Xalqaro savdo huquqi (Jahon savdo tashkiloti, GATT), Xalqaro iqtisodiy integratsiya huquqi (Yevropa Ittifoqi, NAFTA va Mercosur), Xalqaro moliya huquqi (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi), Xalqaro soliq huquqi, Xalqaro intellektual mulk huquqi va boshqalar².

Hozirgi zamon huquqiy adabiyotlarida xalqaro iqtisodiy huquqning ikkita asosiy konsepsiyasi mavjud. Birinchi konsepsiyaga ko'ra, xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro ommaviy huquqning tarmog'i hisoblanib, xalqaro huquq subyektlarining iqtisodiy munosabatlari uning predmetidir. Hozirgi

¹Malcolm N. Shaw. *International law. Sixth edition. International law today.* Cambridge University Press. New York. 2008. – P.43.

²Subedi: S.P. *International economical law. Section A: Evolution and principles of international economical law.* London. University of London Press. 2007. – P.21-22.

paytda g'arb adabiyotlarida hukmron konsepsiya xalqaro iqtisodiy huquq normalarining manbai xalqaro huquq va davlatlarning ichki huquqlari deb hisoblaydi, xalqaro iqtisodiy huquq o'z ta'sirini davlat hududidan tashqarida bo'ladigan tijorat munosabatlarida ishtirok etuvchi barcha huquq subyektlariga o'tkazadi. Bu ikkinchi konsepsiya g'arbda ilgari surilgan transnatsional huquq nazariyasi bilan tutashib ketadi, chunki bu nazariya xalqaro huquq subyektlari qatoriga davlat bilan birgalikda transnatsional korporatsiyalarni ham kiritadi¹.

Xalqaro iqtisodiy huquq subyektlari. Xalqaro iqtisodiy huquqni xalqaro ommaviy huquq tarmog'i sifatida tushunganimiz uchun mantiqan xalqaro huquq subyektlari xalqaro iqtisodiy huquq subyektlari hisoblanadi. Davlatlar fuqaroviy-huquqiy, tijorat faoliyatlarida, tashqi iqtisodiy aloqalarda to'g'ridan to'g'ri qatnashadilar. Savdo qilayotgan davlatlar xalqaro huquq subyektlari bo'la turib, boshqa bir davlat milliy huquqining subyekti ham hisoblanadi. Masalan, ular chet el kontragentlari bilan bitim tuzib, chet el yurisdiksiyasiga ham bo'ysunadilar. Ammo bu davlatlarning immunitetiga daxldor bo'lmaydi. Davlatlarning o'z immunitetlarini rad etishi uchun (jumladan, sud yurisdiksiyasi, da'voni dastlabki ta'minlashdan yurisdiksiya va sudning majburiy qarorlarini ijro etishdan yurisdiksiya) davlatlarning o'z istak-xohishlari bo'lishi talab etiladi².

Xalqaro iqtisodiy huquqning subyektlariga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar, transmilliy korporatsiyalar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari va tamoyillari

Xalqaro ommaviy huquqning manbalari xalqaro iqtisodiy huquq manbalari hisoblanadi. Rivojlanib kelayotgan xalqaro huquq tarmoqlarining biri bo'lgan xalqaro iqtisodiy huquq uchun manba bo'lib, xalqaro tashkilot va konferensiyalarning qarorlari, ya'ni ularning majburiy xarakterdagi normalari hisoblanadi. Bu normalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular imperativ normalardir. Bu normalar nafaqat "tavsiya etadi", balki tavsiya etuvchi normalar bo'lmaganda huquqqa zid deb hisoblangan harakat (harakatsizlik)ning huquqiy ekanligini bildiradi. Masalan, 1964-yili BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi bizga ma'lum bo'lgan Jeneva tamoyillarini qabul qildi va bu tamoyillarda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qulay bo'lgan bojxona imtiyozlari


¹Odilqoriev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. - T., 2002. - B.248.

²Shu yerda.

haqida tavsiyalar mavjudligini ko'rsatdi (bojxona tarifidan chegirma). Agar bu tavsiya etuvchi normalar bo'lmaganida, bunday imtiyozlar huquqqa zid deb hisoblanar edi.

Xalqaro shartnomalar. Hozirgi dunyoda ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro iqtisodiy huquq normalarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko'p tomonlama shartnomalarni imzolash o'ta muhim ahamiyatga egadir. Aynan ko'p tomonlama shartnomalar xalqaro iqtisodiy huquqning asosini tashkil etadi. Universal xalqaro iqtisodiy shartnomalarga misol qilib 1947-yilgi savdo va tariflar bo'yicha bosh Bitimni, shuningdek keng tarqalgan xomashyo mahsulotlari bo'yicha ko'p tomonlama Bitimni olishimiz mumkin.

Ko'p tomonlama aloqalarning ahamiyatiga qaramay, iqtisodiy sohadagi asosiy hamkorlik ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. Ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi xalqaro shartnomalar orasida umumiy shartnomalarni, siyosiy xarakterga ega shartnomalarni, jumladan, do'stlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu shartnomalarda tomonlarning siyosiy majburiyatlari bilan birga, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, tijorat bitimlarini tuzish majburiyatlari ham mustahkamlanadi.



Eng ahamiyatli xalqaro iqtisodiy huquq normalarini shakllantirishda bir qancha maxsus xalqaro normalar muhim rol o'ynaydi. Ularga savdo shartnomalari kiradi. Ular savdo, dengizda suzish va shu kabilar to'g'risidagi shartnomalar deb nomlanishi mumkin. Ularda, davlatlar va ularning yuridik shaxslari uchun o'zaro munosabatlarda muhim hisoblangan savdo-iqtisodiy rejimining ma'lum turlari mustahkamlangandir. Bular: o'zaro qulaylik rejimi, milliy rejim, preferensial rejim, kamsitmaslik va o'zaro foydali rejimlardir.

Iqtisodiy hamkorlikning savdo va boshqa turlari xalqaro valyuta hisobi va kreditlar to'g'risidagi bitimlar asosida moliyaviy ta'minlash va valyuta to'lovlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tovar ayriboshlash va to'lovlar to'g'risida deb nomlanadigan savdo va valyuta-moliyaviy kelishuvlari yagona shartnoma asosida birlashtirilishi odat tusiga kirib qoldi. Ammo ma'lum hollarda milliy erkin konvertatsiyada bo'lgan, cheklanmagan konvertatsiyada bo'lgan yoki cheklangan konvertatsiyada bo'lgan yoxud konvertatsiyaga ega bo'lmagan valyutalarda hisob-kitob qilish shart qilib qo'yiladigan maxsus to'lov bitimlari ham tuzilishi mumkin. Kliring bitimlari iqtisodiy, savdo operatsiyalaridagi kirim va chiqimlarni o'zaro hisob-kitob qilishni nazarda tutadi. Kliring bitimlaridan konvertatsiyaga ega bo'lmagan valyutalari bor davlatlar foydalanadilar. Kredit bitimlari toza ko'rinishda mavjud bo'lishi, ya'ni bir davlatni ikkinchi bir davlatga qarzni pul, tovar yoki aralash shaklda keyin qaytarish sharti bilan taqdim etishni nazarda tutadi.

Eksport va import operatsiyalarini son jihatidan cheklash zarurati tug'ilganda tovar ayriboshlash deb nomlanadigan bitimlardan foydalaniladi. Bunday bitimlarda tomonlar ma'lum kontingentdagi (kvotadagi) eksport va import tovarlarini jismoniy yoki narx ko'rsatkichlarida yetkazib berishga kelishib oladilar.

Xalqaro odat. Odat – xalqaro huquqning asosiy manbai sifatida ham, xalqaro iqtisodiy huquqning manbai sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda odatning rolini cheklash fikriga qo'shilish ham mumkin, chunki davlatlar o'zaro munosabatlarda qo'llayotgan standartlarga odat huquqi orqali yondashish bilan muammolarning barchasini hal qilib bo'lmaydi.

Chunki hozirda xalqaro huquqning asosiy tamoyillari sifatida chuqur ildiz otgan davlatlarning suverenitetini hurmat qilish, davlatlarning tengligi, xalqaro shartnomalarga rioya etish kabi tamoyillar qadim zamonlardan mavjud bo'lsa-da, davlatlar hozirgacha bu tamoyillarni

o'zlarining ikki va ko'p tomonlama shartoma, bitim va konvensiyalarida mustahkamlashga intilmoqdalar.

Xalqaro tashkilotlarning qarorlari (tavsiyalari, majburiy xarakterdagi qarorlari). Iqtisodiy hamkorlik masalalariga bag'ishlangan ko'p sonli tavsiyalar BMT bosh organlari, shuningdek BMT tizimiga kiruvchi yordamchi tashkilotlar (YUNKTAD, YUNIDO va boshqalar) tomonidan qabul qilinadi. Bu organ va tashkilotlarning qarorlari yuridik majburiy xarakterga ega bo'lmay, tavsiya etuvchi kuchga egadir.

BMT Bosh Assambleyasi davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlari Xartiyasi, Yangi xalqaro iqtisodiy tartib to'g'risidagi Deklarasiya va Yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish bo'yicha harakat Dasturi (1974) kabi asosiy aktlarni qabul qildi. Bu hujjatlarda bir-birini kamsitishga yo'l qo'yilmaydigan o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik asoslari e'lon qilindi¹.

Xalqaro konferensiyalarning hujjatlari ichida xalqaro iqtisodiy huquqning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega hujjatlar mavjud bo'lib, jumladan, BMTning 1964-yilgi savdo va rivojlanish bo'yicha Jeneva konferensiyasining yakunlovchi Aktidagi xalqaro savdo munosabatlari va savdo siyosatini belgilab beruvchi tamoyillari, 1975-yilgi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi aktining "Atrof muhitni himoya qilish, fan-texnika va iqtisod sohasidagi hamkorlik" bo'limi, shuningdek 1990-yilgi EXHK doirasidagi oliy darajadagi uchrashuvda qabul qilingan yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasining "Iqtisodiy hamkorlik" bo'limlarini keltirish mumkin.

Xalqaro ommaviy huquqning asosiy tamoyillari bilan birgalikda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ma'lum bir savdo-siyosiy munosabatlarini tartibga solish uchun maxsus tamoyillardan foydalaniladi. Jumladan:

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- o'zaro majburiyatlar olish;
- o'zaro imtiyozlar berish².

Xalqaro iqtisodiy huquqning asosiy rejimlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:


Kamsitmaslik rejimi. Bu rejimning huquqiy ma'nosi shundaki, bir davlat ikkinchi bir davlatga bir qator huquqlar berishda (jumladan, ularning fuqarolariga va o'z milliy huquqining boshqa subyektlariga),shu

¹Odilqunoyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T., 2002. – B.250.

²Suhedi S.P. International economical law. Section A: Evolution and principles of international economical law. London. University of London Press. 2007. – P.22.

davlatga berilayotgan huquqlar boshqa har qanday uchinchi davlatga berilgan huquqlardan kam bo'lmashligi lozim. Bunday huquq berish qulay sharoitlar yaratish, ya'ni imtiyozlar berishni nazarda tutmaydi. Boshqacha aytganda, kamsitmaslik rejimi boshqa bir davlat uchun, harcha davlatlar uchun umumiy bo'lgan shart-sharoitdan kam bo'lmagan shart-sharoit yaratish majburiyatini bildiradi.

Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi (mumkin qadar qulaylik). Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi bir davlat o'zining hamkor davlati uchun, uchinchi bir davlat uchun amalda bo'lgan yoki amalda bo'lishi mumkin bo'lgan imtiyozli (mumkin qadar qulay) sharoitlarni shu davlatga ham yaratib berish yuridik majburiyatini bildiradi. Mumkin qadar qulaylik rejimining qo'llanish sohasi u yoki bu xalqaro shartnomada mumkin qadar qulaylik to'g'risidagi band bilan belgilanadi. Bu band umumiy shaklda savdo yoki dengiz yo'lining butun bir sohasiga yoki munosabatlarning alohida bir turiga: bojxona to'lovlari (ularning imtiyozli tarifi)ga nisbatan; tranzitga son jihatidan cheklash yoki taqiqlashga; transport rejimiga; soliq, jismoniy va yuridik shaxslarning yuridik huquqlariga va boshqa shu kabi sohalarga taalluqli bo'lishi mumkin.



Milliy tartib (rejim). Milliy tartib bir qator savdo bitimlarida nazarda tutilib, chet davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslarining o'z huquq va majburiyatlarini milliy davlatning jismoniy va yuridik shaxslarining huquq va majburiyatlariga tenglashtirib qo'yishdir. Odatda bu rejim chet ellik

shaxslarning sud ishi yuritishda, fuqarolik huquqiy layoqatga ega bo'lishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida chet elliklarga nisbatan milliy rejim tatbiq etilgan.

O'zaro foyda rejimi. O'zaro foyda tamoyili davlatlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro foydali bo'lmasa, majburlovni ishga solish, bunday munosabatlar adolatli ravishda teng taqsimlanishi nazarda tutiladi.

Murakkab davlatlararo munosabatlarda, jumladan, iqtisodiy munosabatlarda, o'zaro munosabatlarda foyda va majburiyatlarning adolatli taqsimlanishi har bir aniq bitim uchun namuna bo'lib xizmat qila olmaydi, ammo bu tamoyil umumiy xalqaro-huquqiy munosabatlarni muvozanatga solib turadi.

Preferensial tartib (rejim). Preferensial rejim – u yoki bu davlatlar o'rtasida yoki bir guruh davlatlar o'rtasida amalda bo'lgan, eng avvalo, bojxona to'lovlariga tegishli bo'lgan savdo imtiyozlaridir. Misol qilib BMTning savdo va rivojlanish Konferensiyasining tavsiyasiga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan, shuningdek rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida qo'llanilayotgan preferensial tizimni keltirishimiz mumkin¹.

Taqdim etilgan perefrensiyalarga, mumkin qadar qulaylik yaratish tamoyilini buzish deb qaralmaydi.

Ilgari rivojlangan davlatlar tomonidan, mustaqil va yarim mustaqil mamlakatlarga nisbatan shartnomalar tajribasida quyidagi huquqiy rejimlar – “teng imkoniyatlar”, “ochiq eshiklar” va shu kabilardan foydalanish keng tarqalgan edi. Bunday shartnomada nazarda tutilgan shartlar hozirgi davrda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga zid bo'lib, huquqiy deb qaralishi mumkin emas.

Albatta, bir mavzu doirasida xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan iqtisodiy hamkorlikning barcha sohalarini qamrab olish oson emas. Chunki xalqaro iqtisodiy huquqning subyektlari, manbalari va tamoyillari to'g'risidagi umumiy tushunchalardan tashqari, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning alohida sohalarini xalqaro-huquqiy tartibga solib turuvchi juda ko'p sonli xalqaro normativ hujjatlari mavjuddir.

Xalqaro iqtisodiy huquqning alohida sohalarini ko'rib chiqishda, valyuta-moliya sohasida davlatlararo hamkorlikning rivojlanishini va shu sohadagi umumbashariy masalalarni hal etishda Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Tiklanish va taraqqiyot xalqaro banki (TTXB)ning roli to'g'risida juda ko'p sonli misollar keltirishimiz mumkin.

¹ Lukashuk I.I., Saidov A.X Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik – T: Adolat, 2006. – B.250.

Yuqorida keltirilgan soʻzlar BMT doirasida mintaqaviy darajada, avvalambor Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan tuzilgan iqtisodiy komissiyalar doirasida transport va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi davlatlararo hamkorlikka ham tegishlidir.

Xalqaro huquq tarmogʻi boʻlgan xalqaro iqtisodiy huquqni koʻrib chiqar ekanmiz, biz shu narsaga amin boʻldikki, bu huquq tarmogʻi butun bir xalqaro huquqning yaxlit tizimida alohida bir tizimcha boʻlib, hozirgi davrda xalqaro huquqning eng gurkirab rivojlanayotgan tarmogʻi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida Oʻzbekiston Respublikasining tashqi siyosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi iqtisodiy vositalardan foydalanilishi koʻrsatilgan:

– xorijiy sheriklar bilan oʻzaro manfaatli savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsion hamda ishlab chiqarish texnologik aloqalarni oʻrnatish, mustahkamlash va kengaytirish;

– qulay investitsiya muhitini yaratish, Oʻzbekiston iqtisodiyotining ustuvor hamda istiqbolli tarmoqlariga toʻgʻridan toʻgʻri chet el investitsiyalarini va ilgʻor texnologiyalarni jalb etish, oʻzaro hamkorlik asosida eng koʻp qulaylik yaratuvchi siyosatni qoʻllash, asosiy sheriklarga tarif preferensiyalari va boshqa preferensiyalar berish;

– xalqaro iqtisodiy anjumanlar, sammitlar, konferensiyalarda ishtirok etish, biznes anjumanlar, xalqaro koʻrgazma va yarmarkalar tashkil etish, Oʻzbekistonning iqtisodiy, investitsion va sayyohlik salohiyati taqdimotini oʻtkazish;

– eksport-import boʻyicha bitim va kontraktlar tuzish, qoʻshma loyihalarni amalga oshirish, chet el sarmoyasi ishtirokida qoʻshma korxonalar tashkil etish;

– chet ellarda Oʻzbekistonning yetakchi milliy kompaniyalari va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning savdo vakolatxonalarini ochish, iqtisodiy birlashmalar, xalqaro korporatsiya va konsorsiumlarda ishtirok etish;

– Oʻzbekiston hududida erkin iqtisodiy zonalar va xalqaro ahamiyatga molik logistika markazlari tashkil etish;

– chegaradosh mamlakatlarda infratuzilmaviy va iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga koʻmaklashish.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar zamonaviy xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida, xalqaro iqtisodiy huquqni rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar. XXI asr boshida dunyoda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham umumjahon miqyosda, ham mintaqaviy darajada muayyan tizimi shakllandi. Xalqaro iqtisodiy huquqni xalqaro iqtisodiy tashkilotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar barcha xalqaro tashkilotlarga xos bo'lgan maqomga egadir (yuridik tabiati, vakolatlari ko'lami, xalqaro-huquqiy subyektiligi ta'sis hujjati qoidalarida belgilanadi). Ammo xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ko'pincha nosiyosiy hisoblanganligi tufayli davlat ularga iloji boricha kengroq vakolatlar berishga intiladi. Aksariyat xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'zining asosiy vazifasini huquqiy ijodkorlik roli bilan bog'laydilar. Boshqalari esa asosan boshqaruv funksiyasini bajara borib, a'zo davlatlar hududida amal qiladigan boshqaruv hujjatlarini ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida belgilanganidek, O'zbekiston o'z milliy manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yetakchi xalqaro moliya-iqtisodiy va savdo tashkilotlari bilan, avvalo, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va Jahon savdo tashkiloti bilan o'zaro hamkorlikni yo'lg'a qo'yish va rivojlantirishni davom ettiradi.

BMT tizimida xalqaro iqtisodiy munosabatlar bilan bir qator organlar shug'ullanadilar. Bularga quyidagilar kiradi:

- 1) BMT Bosh Assambleyasi;
- 2) BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi (EKOSOS);
- 3) YUNKTAD-BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha komissiyasi;
- 4) YUNIDO-BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha konferensiyasi;
- 5) YUNISITRAL-BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi;
- 6) EKOSOSning beshta mintaqaviy – iqtisodiy komissiyasi (Yevropada – EKE; Osiyo va Tinch okeani mintaqasida – ESKATO; Lotin Amerikasida – EKLA; Afrikada – EKA; harbiy Osiyoda – EKZA)¹.

¹ Lukatskiy I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik – T: Adolat, 2006. – B.252.

Xalqaro savdo huquqi

Xalqaro savdo munosabatlariga iqtisodiy munosabatlar kabi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy o'ziga xosligi, shuningdek ularning o'zaro munosabatlari bilan belgilanadigan xilma-xillik xosdir. Savdo aloqalarini tartibga solishda ikki tomonlama bitimlarning birlamchi ahamiyat kasb etishi ham shu bilan izohlanadi. Ko'p tomonlama xalqaro hujjatlarda bunday bitimlarning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi va ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Jahon savdosini yalpi ravishda, samarali tartibga solish zarurati bir qancha universal tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

1947-yilda xalqaro savdo sohasidagi asosiy hujjat – Tariflar va savdo to'g'risidagi bosh bitim – GATT (GATT – General Agreement on Tariffs and Trade) qabul qilingan. Ushbu bitim savdoni ko'p tomonlama tartibga solishning va, shu bilan bir qatorda, xalqaro savdo huquqining asoslarini tashkil etdi

Bitimda davlatning mumkin qadar qulaylik berish rejimi, kamsitmaslik rejimi, milliy rejim to'g'risidagi qoidalar o'rin olgan. Umuman olganda, uning vazifalari ko'lamini unchalik keng bo'lmagan. Unda, asosan, 1947-yilda ham urushdan oldingi yuqori darajada saqlanib turgan bojxona tariflarini kamaytirish haqida gap borgan

GATTning o'ziga xos ish tartibi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, muzokaralar mavzusi e'lon qilinadi va ushbu mavzu bir necha-yil mobaynida muhokama etiladi. Bunday muzokaralar davrasi "raund" deb ataladi va uning oxirida tegishli qaror qabul qilinadi. 1994-yilda yetti yilga cho'zilgan Urugvay raundi deb atalmish muzokaralar yakuniga etgan, unda 118 davlat ishtirok etgan. Ushbu raund nihoyasi bo'yicha Yakunlovchi akt qabul qilinib, u bir necha bitimlar va ularga ilovalardan iborat. Aktning asosiy matni 500 sahifani tashkil etadi. Asosiy hujjatlar sirasiga quyidagi bitimlar kiradi:

1. Jahon savdo tashkilotini (JST) ta'sis etish to'g'risida;
2. Bojxona tariflari to'g'risida;
3. Tovarlar savdosi to'g'risida;
4. Xizmatlar savdosi to'g'risida;
5. Savdoga taalluqli intellektual mulk huquqlari to'g'risida.

1964-yili BMT Bosh Assambleyasi rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ko'zlovchi mustaqil organ – *BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasini (YUNKTAD)* ta'sis etdi. U Davlatlarning tranzit

savdosi to'g'risida konvensiya, xomashyo mahsulotlari savdosi bo'yicha bitimlar, savdo preferensiyalari global tizimi to'g'risida bitimlar va hokazo hujjatlarni ishlab chiqdi.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) jahon neft bozorida narx-navo barqarorligini ta'minlab turish va uning o'zgarishlariga yo'l qo'ymaslik kabi asosiy vazifani bajaradi. OPEK a'zo mamlakatlarning neft qazib olish siyosatini muvofiqlashtirib turadi.

Xalqaro mahsulot bitimlari – kofe, bug'doy, kakao, shakar, zaytun yog'i, kauchuk, qalayi kabi asosiy xomashyo mahsulotlarini eksport va import qiluvchilarni o'z safida birlashtiruvchi tashkilotlar ana shunday nomlanadi. Bu tashkilotlar muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga sotish borasida kvotalar ishlab chiqadi. Shu maqsadda ular fondlar va mahsulot zaxiralarini tashkil etadilar.

BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (YUNSIKRAL) 1966-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tuzilgan. Uning vazifasi xalqaro savdo huquqini uyq'unlashtirish va unifikatsiyalashtirishdan iborat.

Xalqaro savdo palatasi – xalqaro nohukumat tashkilot bo'lib, 1920-yilda ta'sis etilgan, savdo odatlari va amaliyotini umumlashtirish bilan shug'ullanadi. Palata tomonidan qabul qilingan "Xalqaro atamalarni izohlashning xalqaro qoidalari" (INKOTERMS) keng ommaviylashgan bo'lib, muntazam ravishda yangilab turiladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) xalqaro iqtisodiyot sohasidagi barcha bitimlarni amalga oshirishda asosiy o'rinni egalladi. Uning asosiy vazifalaridan biri – savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida yangi bitimlar tayyorlash. Demak, JSTning faoliyat doirasi savdo sohasi bilangina cheklanib qolmaydi.

JSTga a'zolik savdo uchun foydali shart-sharoit yaratishi bois, ko'pchilik davlatlar unga a'zo bo'lishga intiladilar. Ammo bu oson ish emas, chunki buning uchun har qaysi nomzod tegishli talablarga javob bera olishi, avvalo, uning iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga asoslanganligi tan olinishi kerak.

JST faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

Birinchi yo'nalish — *tariflarni kamaytirish*. Rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etgan mamlakatlar sanoat mahsulotlarining 72 foizi bo'yicha belgilangan tariflarning 38 foizini bir tomonlama tartibda oshirib yubormaslikka rozi bo'ldilar. O'z navbatida, sanoati rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinadigan sanoat

mahsulotlari uchun o'rtacha tarifni 37 foizga kamaytirishga ko'ndilar.

Ikkinchi yo'nalish — *qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosini liberallashtirish*. Bitimda barcha tarifsiz to'siqlarni tariflar bilan almashtirish ko'zda tutilgan

Uchinchi yo'nalish — *mahsulotning kelib chiqishiga doir qoidalar ilk bor yuridik majburiy kuchga ega shaklda JST bitimida qayd etilgan*. Bu qoidalar savdo siyosatida davlatlar zo'ravonligini cheklash va mahsulotlar kelib chiqishi to'g'risidagi milliy qoidalarni proteksion to'siqlarga aylantirishga barham berishga qaratilgandir.

To'rtinchi yo'nalish — *ogohlantiruvchi choralar to'g'risidagi bitimlarda*, agar milliy sanoat jiddiy zarar ko'rayotgan yoki importning mislsiz darajada ortib ketishidan zarar ko'rishi mumkin bo'lsa, ahdlashayotgan tomonlar uchun majburiyatlarni vaqtincha to'xtatib turish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish, shu jumladan tariflar bo'yicha yon berish imkoniyatlari ko'zda tutilgan.

Beshinchi yo'nalish — *antidemping choralari* milliy sanoatni unga nisbatan kuchliroq bo'lgan xorijiy raqibdan, shuningdek xorijiy kompaniyalar va hukumatlarning nohalol savdo siyosatidan himoyalash maqsadini ko'zda tutilgan.

Oldinchi yo'nalish — *subsidiyalarni cheklash* subsidiyalanadigan eksportga qarshi choralar ko'rishga tegishlidir.

Yettinchi yo'nalish — *savdodagi texnik to'siqlar* tovarlarni olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq ko'p sonli va xilma-xil qoidalar, ishlab chiqarish va sanitariya standartlari, sinovlar va hokazolardan iborat. Bunday to'siqlarga barham berishdan ko'zlanadigan maqsad huquqiy tartibga solishni internasionallashtirish, savdo kontraktlari shartlarini soddalashtirish va bu kabi holatlarda yuzaga keladigan nizolarni hal etishdir.

Sakkizinchi yo'nalish — *savdoni xizmatlar ko'magida tartibga solish* tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Masalan, AQSHning umumiy savdo hajmida xizmatlar savdosi 30 foizni tashkil etadi. Hozircha u ko'p sonli milliy hujjatlar hisobiga ushlab turilibdi va yuzaga kelayotgan muammolar mumkin qadar qulaylik berish rejimiga muvofiq ravishda o'zaro yon berishlar yo'li bilan hal etilmoqda.

To'qqizinchi yo'nalish — *intellektual mulk huquqi*. Shu paytga qadar maxsus konvensiyalar bilan tartibga solinar edi. Savdoning intellektual mulkka doir jihatlari bo'yicha JST bitimlari mavjud konvensiyalarga nisbatan ilg'orligi bilan ajralib turadi. Ularda himoyaning nisbatan yuqori standartlari belgilangani buning misolidir.

Xalqaro moliya huquqi

Xalqaro moliya huquqi – davlatlararo valyuta-moliya munosabatlarini, ya'ni hisob-kitob, kredit munosabatlari, savdo bitimlarini moliyaviy ta'minlash, valyuta bozorini takomillashtirish, xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarini tuzish va ularning faoliyatiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy tamoyillar va normalar majmui.

Davlatlar o'rtasidagi valyuta-moliya munosabatlarini tartibga solish ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu sohaga taalluqli qoidalar odatda umumiy mazmun kasb etuvchi iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarda o'z ifodasini topadi.

Valyuta-moliya munosabatlari rivojlanib va murakkablashib borgani sari davlatlar ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tuzishga ko'proq e'tibor bera boshlaydilar. Bunday tashkilotlar orasida 1945-yilda tuzilgan va BMTning ixtisoslashgan muassasasi hisoblangan *Xalqaro valyuta fondi* (XVF) markaziy o'rinni egallaydi. Deyarli barcha davlatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi va MDHning boshqa mamlakatlari ham XVF a'zosi.

Xalqaro valyuta fondining maqsadi quyidagilardan iborat:

- 1) valyuta siyosati sohasidagi hamkorlikni rag'batlantirish;
- 2) jahon savdosining muvozanatli rivojiga ko'maklashish;
- 3) valyutalar barqarorligini saqlab turish;
- 4) raqobat nuqtayi nazaridan kelib chiqib valyutalarning devalvatsiya qilinishiga qarshilik ko'rsatish;
- 5) valyutaning erkin transfertiga ko'maklashish;
- 6) a'zo mamlakatlar to'lov balanslarining muvozanatsizligiga barham berish uchun mablag'lar ajratish.

Xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'lish chog'ida har bir davlat unga tegishli sarmoyaning muayyan ulushiga imzo chekadi. Ana shu kvota bilan davlatga tegishli bo'lgan ovoz soni, shuningdek u olishi mumkin bo'lgan ko'mak miqdori belgilanadi.

Jahon banki juda murakkab xalqaro tuzilmalardan hisoblanadi. Uning tizimiga Jahon banki Prezidentiga bo'ysunuvchi quyidagi to'rtta mustaqil muassasa kiradi:

1) *Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB)*. Aksariyat ko'pchilik davlatlar, shu jumladan O'zbekiston va MDH mamlakatlari ham uning ishtirokchilari hisoblanadi. Bankning maqsadi – ishlab chiqarish sohasiga sarmoya kiritish, shuningdek xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;

2) *Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)* – BMTning ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga xususiy ishlab chiqarish korxonalarini rag'batlantirish yo'li bilan ko'maklashishdan iborat. Ko'pchilik davlatlar, shu jumladan O'zbekiston va MDH mamlakatlari ham uning ishtirokchilaridir;

3) *Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA)* – XTTB otalig'idagi tashkilot, qashshoq mamlakatlarga foizsiz qarzlarni berish bilan shug'ullanadi;

4) *Investitsiya kafolatlari bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (IKKA)*.

Shuningdek, *London va Parij klublari* bank ittifoqlari ham mavjud bo'lib, ular davlatlarga xususiy boshqaruvdagi banklardan tijorat shartlari asosida qarz olib berish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro investitsiya huquqi

Xalqaro investitsiya huquqi davlatlarning sarmoya kiritish borasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi tamoyillar va normalar majmuidir. Xorijiy investitsiyalar – chet el investorlari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va faoliyatning boshqa turlariga omonat qo'yiladigan mulkiy hamda intellektual boyliklarning barcha turlari.

XXI asrning dastlabki-yillari xorijiy investitsiyalar ko'lami va ular bilan bog'liq holda bu sohadagi milliy hamda xalqaro huquq ijodkorligi izchil ravishda yuksalgan davr bo'ldi. Mamlakatimizda chet el investitsiyalarini jalb etishga qaratilgan yangi qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Ko'plab ikki tomonlama shartnomalar tuzildi. Bu hujjatlarning barchasi, umuman olganda, bir tomondan investitsiyalarning huquqiy rejimini liberallashtirishga, ikkinchi tomondan ularni himoyalash darajasini oshirishga qaratilgandir. Ulardan ayrimlari xorijiy investorlarga milliy rejim va hatto erkin kirish imkoniyatini taqdim etadi.

O'zbekiston ishtirok etayotgan bitimlarda milliy rejim taqdim etish ko'zda tutilgan. Asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarni notijoriy qaltisliklardan, ya'ni urush, davlat to'ntarishi, inqilob va hokozalar bilan bog'liq siyosiy qaltisliklardan kafolatlashga qaratilgan.

1988-yili Jahon banki tashabbusi bilan 1985-yildagi Seul konvensiyasi negizida *Investitsiya kafolatlari bo'yicha ko'p tomonlama agentlik* ta'sis etildi. Uning maqsadi — kafolatlar berish, shu jumladan chet el investitsiyasiga notijorat qaltisliklarni sug'urtalash va qayta sug'urtalash yo'li bilan ishlab chiqarishga chet el sarmoyalarini kiritishni rag'batlantirishdan iborat. Bunday qaltisliklar sirasiga valyutani olib chiqishni taqiqlash, nasionalizatsiyalash hamda boshqa shu kabi choralar, shartnomaning buzilishi va, albatta, urush, inqilob, ichki siyosiy g'alayonlar kiritilgan.

Agentlik tashkiliy jihatdan Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki bilan bog'liq bo'lib, unga faqat XTTB a'zolarigina a'zo bo'lishi mumkin. Ammo agentlik yuridik va moliyaviy jihatdan mustaqil hisoblanadi. 120dan ziyod davlat, shu jumladan O'zbekiston va MDHning boshqa mamlakatlari uning a'zolari hisoblanadi.

Investorming agentlik bilan munosabati xususiy-huquqiy shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Unga ko'ra investor sug'urta kafolati summasidan foiz sifatida belgilanadigan miqdorda yillik sug'urta badali to'lab borishga majbur. O'z navbatida, agentlik zarar hajmidan kelib chiqib belgilanadigan muayyan miqdordagi sug'urta to'lovini to'lab borish majburiyatini yuklaydi. Bunda tegishli davlatga nisbatan bildirilgan da'volar subrogatsiya tartibida agentlikka o'tadi.

Xalqaro iqtisodiy nizolarni hal qilish usullari:

Davlatlararo protsessual shakllar
(xalqaro huquq asosida
muzokaralar olib borish, o'zaro
yon berish, kelishuvlarga erishish
va boshqalar)

Milliy sud instansiyalari orqali

MTSRIS, YUNSIKRAL,
Shvetsiya arbitraji, London
xalqaro arbitraj sudi, Amerika
arbitraj assotsiatsiyasi va
boshqa xalqaro arbitraj
vositalarini qo'llash

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy huquq bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
2. Xalqaro iqtisodiy huquq tushunchasi ta'rif bering.
3. Xalqaro iqtisodiy huquq subyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
4. Xalqaro iqtisodiy huquq manbaalariga nimalar kiradi?
5. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning turlari va faoliyati to'g'risida fikrlaringizni bildiring.
6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatlarning immuniteti masalasini yoriting.

Kazus 1.

A va B davlatlari o'rtasida 2010–2015-yillarga mo'ljallangan Savdo munosabatlari bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Mazkur shartnoma shartlariga ko'ra: "Shartnomaning normalarini sharhlash va qo'llash bilan bog'liq tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar mintaqadagi Xalqaro savdo tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ko'rib chiqiladi" deb ko'rsatilgan. 2013-yilning boshida shartnomada qayd etilgan Bosh kotib vafot etadi, shu-yilning oxirida esa A va B davlatlari o'rtasida chet el investitsiyalarini soliqqa tortish masalasi yuzasidan xalqaro nizo kelib chiqadi.

Savol: Mazkur vaziyatni xalqaro iqtisodiy huquq nuqtayi nazaridan tahlil eting. Shartnomada qayd etilgan arbitraj bo'yicha normani qo'llash masalasi yoriting. Mazkur nizo xalqaro huquq normalariga ko'ra kim tomonidan hal etilishi lozim? Xalqaro iqtisodiy nizolarni hal etishda kimlar yoki qaysi organlar ishtirok etishi mumkin?

Kazus 2.

1992-yili A va B davlatlari o'rtasida "Savdo-iqtisodiy hamkorlik prinsiplari to'g'risida"gi hukumatlararo Bitim imzolandi. 1994-yili mazkur Bitim asosida "Gorizont" transmilliy kompaniyasi (ustav kapitalining 59% B. davlatga tegishli) "Stimul" korporatsiyasi (ustav kapitalining 63% A. davlatga tegishli) bilan bir necha xil turdagi tovarlarni yetkazib berish to'g'risida Shartnoma imzolaydi. Biroq "Stimul" korporatsiyasi 1995-yil 1-avgustidan boshlab shartnoma doirasidagi o'z majburiyatlarini bajarmay

qo'yadi va yetkazilgan mahsulot uchun to'lovni to'liq amalga oshirmasdan 386,4 mln. dollar miqdorida qarzdorlikni keltirib chiqaradi.

Savol: Mazkur vaziyatga xalqaro iqtisodiy huquq nuqtayi nazardan baho bering. Kazus shartlaridan kelib chiqib davlatlar va korporatsiyalar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar nimalardan iborat? Mazkur nizoda xalqaro iqtisodiy huquqning qaysi prinsiplari buzilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2012-yil 10-sentabrdagi O'RQ-330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – №9/1 (1437).
2. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T., 2002. – B.377–387.
3. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006. – B.255–277.
4. Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. International law today. – New York: Cambridge University Press, 2008. – P.43.
5. Subedi S.P. International economical law. Section A: Evolution and principles of international economical law. – London: University of London Press, 2007. – P.21-22.

XIV BOB. XALQARO EKOLOGIYA HUQUQI

Xalqaro ekologiya huquqi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro ekologiya huquqining prinsiplari. Xalqaro ekologiya huquqining manbaalari. Xalqaro ekologiya huquqida xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyati. Xalqaro ekologiya huquqida javobgarlik masalalari.

Xalqaro ekologiya huquqi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, BMT tomonidan 1972-yilda 5-iyun Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida belgilanib, global ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, mazkur sohada xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishlari ko'rsatib berildi.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi paytda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni tartibga solish sohasidagi xalqaro konfensiya, protokol va asosiy kelishuvlarning bir nechtasining ishtirokchisi hisoblanadi. Ushbu sohada o'zaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan kelishuvlarni barcha Markaziy Osiyo davlatlari, qolaversa, Yevropa mamlakatlari bilan ham imzolanganligi mamlakatimizda ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda xalqaro ekologiya huquqi – bu umumiy (ommaviy) xalqaro huquqning shakllangan sohasi hisoblanadi.

Xalqaro ekologiya huquqi – xalqaro miqyosda mavjud ekologik qonunlar, prinsiplar hamda xalqaro huquqiy normalarni tartibga solgan holda, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni hamda inson ekologik huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, turli xil manbalardan tabiatga zararlarni oldini olish, dunyo xalqlarga Yer yuzida kelajak avlod manfaatlarini inobatga olgan holda qulay hamda boy tabiiy sharoit hamda yuksak tabiatni ta'minlab berishga qaratilgan normalar majmui hisoblanadi.

Xalqaro ekologiya huquqining maqsadi – atrof tabiiy muhit bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqlar sohasida davlatning va boshqa xalqaro munosabatlar subyektlarining o'zaro huquq va majburiyatlarini o'rnatish orqali insoniyat hatti-harakatlarini tartibga solishning yuridik vositasi (instrumenti) bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro ekologiya huquqining predmeti bo'lib, xalqaro ekologik munosabatlar, dunyo xalqlari, ya'ni insoniyat va atrof-tabiiy muhit

o'rtasidagi o'zaro chambarchas bog'liqlik hisoblanadi. Xalqaro ekologiya huquqining obyekti dunyo xalqlari, millat va elatning yashashi uchun hayot manbai bo'lgan yer, suv, havo (atmosfera), o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmonlar, barcha yer osti boyliklari, butun bir tabiat hisoblanadi. Xalqaro ekologiya huquqining subyekti bo'lib, millatlar, xalqlar, o'z mustaqilligiga ega bo'lgan barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar, xalqaro ekologik munosabatlar ishtirokchisi bo'lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar tan olinadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro huquqiy obyekti deb xalqaro huquq subyektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy obyektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylanishi va ahamiyati nuqtayi nazardan biron-bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan va shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro-huquq subyektlari mulki bo'lgan tabiiy obyektlardir. Ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish faqatgina bitta davlat tomonidan amalga oshira olmaydi, ular xalqaro huquq manbalari orqali tartibga solib turiladi.

Xalqaro ekologiya huquqi obyektlarining ikki turi: xalqaro-huquqiy muhofazalash obyektlari va xalqaro-huquqiy tabiiy obyektlari mavjud.

Xalqaro-huquqiy muhofaza qilish obyektiga havo basseyni, fazo, dunyo okeani, Antarktika, ko'chib yuruvchi hayvonlar va qushlar kiradi.

Xalqaro-huquqiy tabiiy obyektiga – implementatsiya qilingan milliy qonunlar asosida muhofaza qilinadigan va ulardan foydalanadigan tabiiy obyektlar kiradi. Ikki va undan ortiq mamlakatlar hududlarida joylashgan daryolar, ko'llar, dengizlar hamda xalqaro Qizil kitobiga kiritilgan kamyob yoxud yo'q bo'lib ketayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlari kiradi.

Tarixan nazar tashlaydigan bo'lsak, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish, avvalo, ikki tomonlama davlatlararo o'zaro kelishuv va bitimlar asosida rivojlana boshlangan. Bunga misol bo'lib 1839-yil 2-avgustda qabul qilingan Buyuk Britaniya va Fransiya sohillarida baliq va dengiz molyuskalarini ovlash to'g'risidagi Konvensiya hisoblanadi.

Shuningdek ushbu sohada ilk marotaba ko'p tomonlama munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat 1868-yilda qabul qilingan Reyn kemachiligi to'g'risidagi konvensiya bo'lib, ushbu hujjat asosida Reyn daryosi suvlarini ifloslanishidan muhofaza qilish talabalarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish sohasida ko'ptomonlama universal (global) va mintaqaviy (hududiy) xalqaro

konvensiyalar 1600tani hamda ikkitomonlama o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar 3 mingdan ortig'ini tashkil etadi.

Ushbu sohadagi ko'ptomonlama xalqaro hamkorlikning ilk qadami bo'lib 1913-yil 17—19-noyabr kunlari Shveysariyaning Bern shahrida bo'lib o'tgan "Tabiatni xalqaro miqyosda muhofaza qilish to'g'risida"gi nufuzli konferensiya hisoblanadi. Ushbu konferensiyada tabiatni xalqaro miqyosda muhofaza qilish bo'yicha Konsultativ komissiyani ta'sis etish to'g'risidagi kelishuv imzolandi.

Bo'lib o'tgan ushbu nufuzli xalqaro konferensiya ekologik muammolarni xalqaro huquqning maxsus masalalari toifasiga ko'tardi.

1948-yilning oktabr oyida Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Kengash (MSOP) tashkil etildi hamda ushbu kengash 1996-yil oktabr oyida o'zining yigirmanchi Bosh Assambleyasi (xalqaro tashkilotlarning umumiy majlisi)ni o'tkazdi va u "Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha butundunyo kongressi" nomini oldi.

Bundan tashqari, 1962-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi o'zining XVII sessiyasida "Iqtisodiy taraqqiyot va tabiatni muhofaza qilish" nomli rezolutsiyani qabul qilib, unda takomillashtirilgan samarali ichki qonunchilik hamda xalqaro huquq asosida tabiatni muhofaza qilish oldindan yoxud iqtisodiy jihatdan rivojlanish barobarida yoki birgalikda amalga oshirilishi zarurligi e'tirof etildi. Shuningdek, Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Kengash (MSOP) va boshqa xalqaro tashkilotlarni barcha choralarni qo'llagan holda qo'llab-quvvatlab, jamoatchilikni ushbu vazifalarni amalga oshirishda keng jalb etish lozimligini tavsiya etadi.

Yuridik adabiyotlarda taniqli olimlar xalqaro ekologiya huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi uchta bosqichda namoyon bo'lishini e'tirof etadilar. Unga muvofiq, 1-bosqich: 1834—1948-yillar, 2-bosqich: 1948—1972-yillar va 3-bosqich: 1972-yildan to hozirgi vaqtgacha. Ilk bosqich davlatlarning mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolarni hal etishga urinishlari bo'lsa, ikkinchi bosqich BMT faoliyatining boshlanishi hisoblanadi hamda uchinchi bosqich esa ekologiya masalalar bo'yicha global xalqaro konferensiyalarni amalga oshirishda namoyon bo'ldi.

Ma'lumki, xalqaro ekologiya huquqining bir qator xususiyatlari ham mavjud, bular:

Birinchidan, bu xalqaro ekologik huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi va tartibga soladi;

Ikkinchidan, mavjud xalqaro ekologik holat (vaziyat), ekologik xavfsizlik hamda muammolar xalqaro prinsiplar asosida ko'rib chiqiladi va hal etilishi ta'minlanadi;

Uchinchidan, qabul qilingan barcha xalqaro ekologik huquqiy normalar, faqatgina bitta davlat manfaati uchun emas, balki bir nechta davlatlar hamda xalqlar manfaatidan kelib chiqiladi;

to'rtinchidan, ushbu sohada xalqaro miqyosda qabul qilingan barcha normalar xalqaro prinsiplarga asosan amalga oshirilishi davlatlar tomonidan ta'minlanadi va kafolatlanadi.

Xalqaro ekologiya huquqi nafaqat inson huquqlari balki xalqaro huquqning boshqa sohalari bilan ham uzviy bog'liq. Qolaversa, atrof tabiiy muhitni himoya qilish dengiz huquqi va fazo huquqining ham asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Xalqaro ekologiya huquqining prinsiplari

Xalqaro ekologiya huquqining asosiy prinsiplariga BMTning Nizomida, 1970-yilda qabul qilingan BMTning tamoyillari haqidagi Deklaratsiyasida, 1975-yilgi Xelsinki sammitining Yakuniy ro'yxati (hujjat)da hamda xalqaro-huquqiy amaliyotdan kelib chiqqan holda shakllangan prinsiplar kiradi. Xalqaro ekologik prinsiplar xalqaro hamkorlik ishtirokchilarining atrof-muhitni muhofaza qilish va xalqaro huquq obyektlaridan foydalanish borasidagi munosabat qoidalaridir. Xalqaro ekologiya huquqining o'ziga xos prinsiplari butun bir kodifikatsiyalashgan tarzda emas, ular turli xil ko'pgina xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan prinsiplardan iborat bo'lib, ular tavsiya va majburiy xarakterga ega bo'ladi.

Umume'tirof etilgan prinsiplar quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitga insoniyatning umumiy tashvishi;
- davlat hududidan tashqari atrof-muhit insoniyatning umumilliy boyligi hisoblanishi;
- atrof-muhit va uning tarkibiy qismini o'rganish va undan foydalanishning erkinligi;
- atrof-muhitdan oqilona foydalanish;
- atrof-muhit va uning tarkibiy qismini o'rganish va undan foydalanishdagi xalqaro-huquqiy hamkorlikka ko'maklashish (yordam berish);
- atrof-muhitga ehtiyotkorona yondashish;
- atrof-muhitga zarar yetkazishning oldini olish v.b.

– Shuningdek, quyidagi prinsiplar ham amalda, bular:

1. Tabiatni muhofaza qilish va uning mutanosibligini saqlash prinsipi – barcha davlatlar atrof-muhitni muhofaza qilishlari hozirgi va kelajak avlodlar farovonligini ko‘zlab ekologik tadbirlarni birgalikda amalga oshirishlari, barcha davlatlar bir-birlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishlari zarur.

2. Xalqaro muhofaza qilish bo‘yicha hamkorlik prinsipi – atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi muhim prinsip hisoblanib, u ushbu sohadagi davlatlarning shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadi. Bu prinsip Stokgolm deklaratsiyasida mustahkamlanib qo‘yilgan bo‘lib, bu suveren davlatlarning tengligi va har bir davlatning qiziqishlaridan kelib chiqadi.

3. Tabiat boyliklariga nisbatan suverenitetlik prinsipi – bu prinsip dastlab BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 14-dekabrda qabul qilgan “Tabiiy resurslarga nisbatan ajralmas suverenitet” va so‘ngra Stokgolm (1972) konferensiyasining deklaratsiyalarida o‘z ifodasini topgan. Bu prinsipga binoan har bir xalqaro huquq subyekti xalqaro munosabatlarda o‘z tabiiy boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni milliy qonunchilik asosida olib borish huquqiga ega. Bu prinsipga binoan har bir mustaqil davlat tabiiy boyliklarni nafaqat egallash, foydalanish, balki tasarruf qilish huquqidan to‘la foydalanish imkoniyati ochib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi – deb ta’kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida, avvalambor. juda boy xomashyo va tabiiy boyliklaridan o‘zi bilganicha foydalanish huquqini paydo bo‘lishidadir. Bunday foydalanish Chor Rossiya, so‘ngra sobiq Ittifoqi davridagi ekstensiv, ya‘ni pala-partish va chala-yarim emas, balki mustaqillik davrida intensiv tarzda, ya‘ni yuqori darajada samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Milliy manfaatlar milliy qonunchilik asosida himoya qitina boshlandi va texnogen buzilgan landshaftlarni qayta tiklash talablarini keng joriy qilish imkonini berdi. Chunki har bir davlatning tabiiy resurslarga bo‘lgan suverenitetligi, uning xalqi va fuqarolarining yashash huquqini ta‘minlash, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi buyuk ma’suliyat milliy ekologik xavfsizlikni ta‘minlash hissini tatbiq qilish imkonini berdi.

4. Inson ekologik huquqining afzalligi – unga ko‘ra insonning yashashi uchun qulay ekologik sharoit bo‘lishini ta‘minlash, har qanday jarayonda insonni ekologik yashash omili birinchi o‘rinda turishi lozim. Chunki Yer yuzidagi barcha insonlar, ularning irqiy, milliy, diniy, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, yashash huquqiga egadirlar. Yashash huquqi

esa inson huquqlarining birlamchi omilidir. BMT Nizomining 3-xatboshi I-moddasiga binoan xalqaro hamkorlikni davlatlar "inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishlari va ularni rag'barlantirishni rivojlantirishlari" asosida olib borishlari kerak.

5. O'zaro ekologik konsultatsiyalash – bu yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatini keng yoyilishini oldini olish va uni bartaraf qilishning xalqaro strategik maqsad va taktik vazifalarini aniqlab olish, unga qarshi kurashishning chora-tadbirlar qo'lamini va yo'llarini aniqlashtirishga imkon beradi.

6. Xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin almashinish tamoyili – davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo'layotgan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, barcha yer usti va yer osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, aholini atrof-muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida joriy va ishonchli axborotlar va atrof-muhit holatiga doir taxminlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

7. Favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi – davlatlarning o'zaro munosabatlari asosida favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar to'xtatilib qo'yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir etuvchi faoliyat (aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

8. Xalqaro ekologiya huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish – xalqaro miqyosda xalqaro huquq subyektlari orasida kelib chiqadigan ekologik huquqiy nizolarni, davlatlarning o'zaro kelishuviga asosan tuzilgan bitim yoki shartnoma asosida tinch yo'l bilan hal etiladi. Zamon talabi har qanday salbiy jarayonlarni diplomatik vositalar orqali hal qilish va davlatlarning butun kuchini har qanday urushlarga emas, balki insonlarga xavf solayotgan ekologik inqirozlarga sarf qilishlarini da'vat qiladi.

Ma'lumki, Orol dengizi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish borasidagi jahon hamjamiyatning sa'y-harakatlarini safarbar qilish hamda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni takomillashtirish va ekologik falokatning ta'sirini kamaytirish maqsadida 2014-yilning 28-29-oktabr kunlari Urganch shahrida "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro konferensiya

yakunigalariga binoan milliy va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida umumiy miqdori 3 mlrd. AQSH dollari tashkil qilgan kelishuv va shartnomalar imzolangan. Mazkur mablag'ning 200 mln. AQSH dollariga teng miqdorini grant mablag'lar tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, tabiiy resurslardan foydalanish quyidagi prinsiplar asosida tartibga solinadi:

- biologik resurslar faqatgina ularning tiklanishga bo'lgan tabiiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda foydalaniladi;
- tuproqlarning mahsuldorligi ularning uzoq muddatga mo'ljallangan hosildorligini saqlash choralari tufayli yaxshilanadi va saqlanadi;
- ko'p marotaba foydalaniladigan resurslar, shu bilan birga suvlar takroran yoki qayta ishlatiladi;
- qayta tiklanmaydigan bir marotaba ishlatiladigan resurslar ularning zaxirasi, qayta ishlanish samarali imkoniyatlarini hisobga olgan holda tegishli me'yorda ishlatiladi v.b.

Shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro prinsiplar bilan bir qatorda odat normalari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu normalar xalqaro huquqning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib, ayni vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni ham tartibga solib kelmoqda.

Bu turkum prinsiplarga quyidagilarni kiritish mumkin, ya'ni:

- yaqin qo'shnicilik,
- o'zaro hamkorlik,
- ziyon yetkazmaslik va boshqalar.

Ushbu prinsiplarga amal qilgan holda har bir mustaqil davlat o'zining yurisdiksiyasi doirasidan chiqmagan holda o'ziga tegishli tabiat boyliklardan shu tarzda foydalanishi lozimki, unda boshqa qo'shni davlatlar zarar ko'rmasliklari lozimdir. Bu prinsiplar buzilgan holda esa xalqaro huquqning maxsus prinsiplari amal qiladi, ya'ni boshqa davlat huquqini buzganligi uchun tegishli javobgarlik vujudga keladi.

Xalqaro ekologiya huquqining manbalari

Xalqaro huquqda atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish manbalari bu davlatlarning atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga va undan oqilona foydalanishga qaratilgan o'zaro hamkorligi faoliyatini erkin amalga oshirib, butun dunyo hamjamiyati a'zolarining atrof-muhitni muhofaza

qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdagi xohish va irodalari tushuniladi.

Shu asnoda atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilish manbalari deb xalqaro ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar yig'indisiga aytiladi.

Xalqaro shartnomalar va xalqaro odat normalari xalqaro ekologiya huquqining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Hozirda xalqaro huquq shartnomaviy munosabatlar orqali rivojlanib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida atrof-muhitni muhofaza qilishni tartibga solishga ham ta'sir qilmoqda.

Taniqli huquqshunos – ekolog olim O.S.Kolbasovning ta'kidlashicha, “Xalqaro huquqning barcha sohalarida bo'lgani kabi atrof-muhitni muhofaza etish ham shartnomalarda, konvensiyalarda va kelishuvlarda o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak, normativ va yordamchi hujjatlar global ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarni to'ldiradi, rivojlantiradi hamda uni kuchaytiradi”.

Yuridik adabiyotlarda atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilishning manbalarini ikki guruhga bo'linadi:

- birinchidan, konvensiya (kelishuv bitim va shartnomalar)
- ikkinchidan, BMT Bosh Assambleyasining bir qator rezolutsiya, deklaratsiya va xartiyalari hisoblanadi.

Atrof-muhitni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishda muhim markaziy o'rinni rezolutsiyalar egallaydi. Chunki BMT Bosh Assambleyasi rezolutsiyalarida davlatlarning xalqaro hamkorlikdagi ekologiyaga oid asosiy prinsiplari va harakat qoidalari aks etgan. Bunga misol tariqasida BMT Bosh Assambleyasining 1962-yil 18-dekabrda “Iqtisodiy rivojlanish va tabiat muhofazasi”, 1968-yil 3-dekabrda “Insonlarning ekologik huquqlari”, 1980-yil 20-sentabrda “Hozirgi va kelajak avlodlar oldida davlatlarning Yer tabiatini muhofaza qilishdagi javobgarligi to'g'risida” va boshqa bir qator rezolutsiyalarida tabiatni muhofaza qilishning bir butunligi, uning tarkibiy qismlari (komponentlari)ning ajralmasligi, tabiatni muhofaza qilish insonlarni o'rab turuvchi atrof-muhitni muhofaza qilish bilan yagona ma'noni anglatishi e'tirof etilgan. Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish tabiatni muhofaza qilish bilan o'zaro uyg'unlashgan holda bo'lishi, inson huquqlaridan biri qulay bo'lgan ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqi ekanligi, qurollanishni kamaytirish orqali davlatlarning tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish kerakligi kabi qarorlari o'z o'rnini topgan.

1992-yil Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan atrof tabiiy muhit va rivojlanishga bag'ishlangan BMTning Deklaratsiyasida hamda ushbu uchrashuvning 10 yilligiga bag'ishlangan "Barqaror rivojlanish" 2002-yil Yoxannesburg konferensiyasining deklaratsiyasida davlatlarning barqaror rivojlanishi aynan insonlarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish imkoniyati bilan chambarchas bog'langanligini e'tirof etdi. Milliy huquq normalarida ekologik barqarorlikka doir qanday qoida va me'yorlar qabul qilish kerakligini haqida tavsiyalar berildi. Unda insonlarni sog'lom va bexatar atrof-muhitga yashash huquqi davlatlarni ijtimoiy va iqtisodiy sohada barqaror rivojlanishining manbai ekanligi alohida uqtirib o'tildi.

Shuningdek 1990-yil 21-noyabrda qabul qilingan "Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi"da insonlarni yashash huquqi elementi bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni yaratish har bir ishtirokchi mamlakatning burchi ekanligi alohida e'tirof etib o'tilgan.

Bundan tashqari, 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasida qabul qilingan "Umumjahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi"da xalqaro ekologik huquqning 24ta prinsipi qabul qilingan bo'dib, unga ko'ra BMT ga a'zo mamlakatlar o'zining milliy ekologik qonunlarini ularga moslashtirishlari lozimligi mustahkamlangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq: fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqaviy va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish; insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologik tizimlarning barqarorligini saqlab qolish prinsiplari yuqorida qayd etilgan tabiat xartiyasida mustahkamlangan xalqaro qoidalarga mosdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarni to'la huquqli subyekti hisoblanadi. Uning tashqi siyosati xalqaro huquqda umume'tirof etilgan qoida va normalarga asoslanadi. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 53-moddasida O'zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomada milliy ekologik huquq me'yorlaridan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa, mamlakatimizda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi deb belgilangan, ya'ni ularning ustivorligi e'tirof etilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qator xalqaro konvensiya va tegishli protokollarga a'zo bo'ldi hamda ratifikatsiya qildi. Jumladan:

•Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi (1993-yil 18-may);

- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli (1993-yil 18-may);
- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga London tuzatmalari (1998-yil 1-may);
- Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga Kopengagen tuzatmalari (1998-yil 1-may);
- Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining konvensiyasi;
- Tabiiy muhitga harbiy yoki har qanday tajovuzkorona ta'sir vositalaridan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi konvensiya (1993-yil 26-may);
- Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiya (1993-yil 20-iyun) Ushbu konvensiyaga Kioto protokoli (1999);
- Cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya (31.08.1995-yil 31-avgust);
- Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib chiqish va ularni yo'qotishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (1995-yil 22-dekabr);
- Biologik hilma-xillik to'g'risidagi konvensiya (1995-yil 6-may);
- Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1995-yil 22-dekabr);
- Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi konvensiya (1997-yil 1-iyul);
- Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1998-y 1-may);
- Afrika va Yevroosiyo bo'ylab ko'chib yuruvchi suvli-botqoqli hududlar qushlarini muhofaza qilish bo'yicha Kelishuv (AEWA);
- Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoqli hududlar to'g'risidagi Ramsar konvensiyasi .2001-y 30-avgust);
- BMTning 2015-yil 12-dekabrda qabul qilingan Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij bitimi (2017-yil 19-aprel).

Ma'lumki, Parij bitimi iqlim o'zgarishi, 2020-yildan atmosferada issiqlik gazlari miqdorini kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlarni tartibga solish bo'yicha BMTning dastlabki Konvensiyasi doirasida qabul qilingan hujjat hisoblanib, u 2015-yil 12-dekabrda Parijda bo'lib o'tgan Iqlim bo'yicha konferensiyasi chog'ida Kioto protokolining rivoji sifatida qabul qilingan. Ko'zlangan maqsad esa BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha dastlabki Konvensiyasi "hayotga tatbiq etilishini faollashtirish",

xususan, haroratning global o'sishini Selsiy shkalasi bo'yicha o'rtacha 2°C darajadan past holatda ushlab turish va harorat o'sishi Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5 darajada cheklanishi uchun sa'y-harakatlarni ishga solish bilan izohlanadi.

Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha shartnomalar XX asming ikkinchi yarmida juda keng tarqalgan xalqaro huquq manbai bo'lib, ular umumiy, mintaqaviy va ikki tomonlama tuziladi. Hozirga qadar 300 dan ortiq ekologiya sohasidagi munosabatlarni qamrab oluvchi xalqaro shartnomalar tuzilgan bo'lib, ularning ichida eng nufuzli hisoblangan shartnoma umumiy turdagi "Yevropa xavfsizlikni ta'minlashning yakuniy shartnomasi" (Xelsinki, 1975-yil), "Atmosfera, kosmik fazo va suvda yadro qurollarini sinashni to'xtatish to'g'risida" (1963-yil), "Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida" (1968-yil) va boshqa shartnomalar bo'lib, ular butun dunyo mamlakatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ekologiya huquqida xalqaro tashkilotlarning o'rni va ahamiyati

Xalqaro ekologiya huquqining rivojlanishida xalqaro tashkilotlar yetakchilik rolni o'ynaydi. Hozirgi davrda dunyo miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tegishli xalqaro tashkilotlar, muassasalar va idoralar faoliyat olib bormoqdalar hamda doirasiga ko'ra ular universal va mintaqaviy (mintaqaviy) turlarga ajratilgan.

Mutaxassislar ta'kidlashlaricha hozirda dunyo bo'yicha 60dan ortiq turli xalqaro muassasa va agentliklar ekologik muammolar bilan shug'ullanmoqdalar, ular faqat uyushmagan (tarqoq holda) va nomuvofiq tarzda faoliyat olib bormoqdalar.

Faoliyat doirasiga ko'ra turli toifadagi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yo'nalishidagi hamda dunyoning barcha mintaqalardagi davlatlarning ekologik munosabatlariga qaratilgan xalqaro tashkilotlarga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari kiradi. Ma'lumki, BMT 1945-yil 25-oktabrdan buyon faoliyat yuritib kelayotgan eng nufuzli xalqaro tashkilot bo'lib, o'z oldiga barcha davlatlar o'rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash, mustahkamlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadini qo'yadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi BMTning Nizomidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. BMTning eng yuqori toifadagi

organlaridan biri bo'lgan Bosh Assambleya atrof-muhit muhofazasiga doir muammolar yuzasidan unga a'zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tegishli tavsiyalar berish vakolatiga egadir. BMT ning ekologik tadbirlari, uning asosiy organlari yoki yordamchi idoralari orqali amalga oshiriladi. Bosh Assambleya qoshidagi BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) ma'lum bir turdagi aniq vazifalarni bajaradi, uning vakolatlari juda keng miqyosda bo'lib, ular toifasiga ekologik masalalar ham kiradi. Ekologik masalalar uning rahbarligi ostidagi qo'mita va komissiyalar vazifasiga yuklatilgan. Ulardan biri Tabiiy boyliklar qo'mitasi-ekologik vazifalarni bajarishda alohida o'rin tutadi. EKOSOS o'zining qo'mita va komissiyalar faoliyatini umumlashtirib Bosh Assambleyaga tavsiyanomalar beradi va konvensiyalar tayyorlaydi, o'z huquq doirasida xalqaro ekologik konferensiyalar chaqiradi, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda ekologik bitimlar tuzadi.

Aniq bir turdagi ekologik masalalarni BMT ning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari olib boradi. Ushbu tashkilotlar BMT Nizomining 57-moddasiga muvofiq davlatlararo tuzilgan bitimlar orqali tashkil etiladi va o'zlarining ta'sis hujjatlariga binoan bevosita yoki bilvosita ekologik masalalar bilan 63-moddasida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga asoslangan holda shug'ullanadilar. BMT qoshida faoliyat ko'rsatayotgan 16dan ziyod ixtisoslashgan tashkilotidan quyidagilari atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir masalalar bilan bevosita shug'ullanadilar.

YUNEP – BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi 1972-yil 15-dekabrda Stokgolmda BMTning insonni qurshab turgan muhit muammolari bo'yicha o'tkazgan konferentsiyada tashkil topgan bo'lib, u Afrikaning Keniya davlatining poytaxti Nayrobi shahrida shtabi kvartirasi joylashgan. YUNEP ning uchta bo'limi – boshqaruvchilar Kengashi, atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtiruvchi Kengash hamda atrof-muhit Jamg'armasi mavjud. Hal qiluvchi masalalar boshqaruvchilar Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi va amalga oshiriladi. Uning kun tartibiga 8 yo'nalish bo'yicha ekologik masalalar kiradi:

- atrof-muhit sanitariyasi, aholi punktlari va kishilar salomatligi;
- yer va suv muhofazasi, sahrolanishni oldini olish;
- okeanlarni muhofaza qilish;
- tabiat, yovvoyi hayvonlar va genetik resurslar muhofazasi;
- energetik muammolar;
- ekologik o'quv va mutaxassislarni tayyorlash;
- tabiiy resurslar savdosi, iqtisodi va texnologiyalar;

- xalqaro va milliy qonunchilikni kodifikatsiyalash va unifikatsiyalash.

Ushbu tashkilotda uchta bosqichdan iborat dasturiy uslub amalda qo'llaniladi. Birinchi bosqichda ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari bo'yicha ma'lumotlar to'planadi. Ikkinchi bosqichda maqsad va strategiya aniqlanadi hamda alohida tadbirlar rejalashtiriladi, so'ngra uchinchi bosqichda esa tadbirlar tanlab olinishi yuz beradi va u atrof-muhit Jam'arimasidan mablag' bilan ta'minlanadi. YUNEP atrof-muhitni muhofaza qilishga oid xalqaro normalarini rivojlantirishga katta e'tibor berib, boshqa ixtisoslashgan tashkilotlarning tabiatni qo'riqlashga qaratilgan tadbirlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va muvofiqlashtiradi.

BMT tashkilotlaridan yana biri YUNESKO – madaniyat, fan va maorif masalalari bo'yicha tashkilot 1948-yil tashkil topgan va uning Nizomiga muvofiq atrof tabiiy muhit muhofazasiga doir quyidagi masalalarni hal qilishda faoliyat yurgazadi:

- 100dan ortiq mamlakatlar ishtirok etadigan xalqaro ekologik dasturlarga rahbarlik qilish. Shular qatorida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurgazib kelayotgan "Inson va biosfera", Tabiat muhofazasiga doir xalqaro maorif dasturi, Xalqaro gidrologik dastur (1995-yildan buyon YUNESKO va Germaniya fan va texnologiyalar vazirligi loyahasiga binoan Orol dengizi atrofidagi yer usti va osti suvlarini baholash va modellashtirish ishlari olib borilmoqda), Butun dunyo boyligi bo'yicha Komitet, Hukumatlararo okeanografik komissiya, shuningdek atrof-muhit sohasidagi ta'lim to'g'risida Xalqaro dastur va boshqalar kiradi;

- tabiiy obyektlar muhofazasini hisobga olish va tashkil etish. Yer yuzasining turli burchaklarida biosfera qo'riqxonalari tashkil etilgan. Biosfera qo'riqxonalarini tashkil qilish, ularda atrof-muhitga inson faoliyatining ta'sir etish darajasining monitoringini olib borish YUNESKOning universal dasturi asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston hududida 1995-yildan buyon Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi yagona biosfera qo'riqxonalar tizimida ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, 1972-yil 23-noyabrda Parijda qabul qilingan Suv va botqoqdagi boylıklar to'g'risidagi konvensiyani ishlab chiqishda bosh tashabbuskor va tashkilotchi vazifasini bajargan.

BMTning Tabiiy ofatlarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish bo'yicha byurosi – (YUNDR0) turli davlatlar va tashkilotlarga tabiiy ofat natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz holatida yordam ko'rsatishni tashkillashtiradi va olib boradi. Byuro Yer yuzasida sodir bo'layotgan

tabiiy ofatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga va har bir salbiy ekologik jarayonni oldini olishning aniq tadbirlarini qo'llash tavsiyanomalariga ega.

1948-yilda tashkil topgan Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofazalash xalqaro ittifoqi (TMXI) nodavlat tashkiloti 100dan ortiq davlat va 500dan ortiq nodavlat tashkilotlarni a'zo qilib olgan. TMXIning asosiy vazifasi unga a'zo bo'lib kirgan mamlakatlar va ularda faoliyat yurgazayotgan tashkilot, birlashma, uyushma va fuqarolarning ekologik hamkorligini yanada rivojlantirish.

Bu tashkilot quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat yurgazadi:

- tabiiy o'simlik va hayvonot dunyosi hamda ekotizimlarni saqlab qolish;
- noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarni hamda tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish;
- qo'riqxonalar, rezervatsiya, milliy tabiiy bog'larni tashkil qilish;
- ekologik o'quv ishlarini tashkillashtirish.

TMXI tashabbusi bilan Yer sharida noyob, yo'q bo'lib ketayotgan yoki yo'qolib ketish xavfi mavjud o'simlik va hayvon turlari bo'yicha "Qizil kitob" tuzilgan va unga doimo qo'shimchalar kiritilib boriladi. "Tabiatni muhofaza qilishning Butunjahon strategiyasi" dasturi ishlab chiqilgan va bunga asosan O'zbekistonda "Biologik xilma-xillikni saqlab qolishning milliy strategiyasi va rejasi" ishlab chiqilgan.

BMT ning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 1946-yil 23-iyulda tashkil topgan BMT ning eng birinchi tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi atrof-muhitning salbiy o'zgarishi natijasida insonlar salomatligi holati, uni saqlash va mustahkamlashdan iborat. JSST quyidagi ekologik vazifalarni amalga oshiradi:

- atrof tabiiy muhitning sanitar-epidemiologik monitoringini olib borish;
- atrof-muhit holatiga qarab aholida kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirish;
- atrof-muhitning sanitar-gigiyenik ekspertizasini olib borish va uning sifatiga baho berish;
- shaharlarda inson salomatligi masalalarini tadqiq qilish;
- rekreatsion tabiiy mintaqalar va ularda aholini hordiq chiqarish chora-tadbirlarini olib borish.

Shuningdek, u sog'liqni saqlash yuzasidan milliy qonunchilikdagi normalarini xalqaro huquq normalariga qanchalik mos ekanligini tekshiradi. Yerdan, suv resurslaridan, o'rmondan, o'simlik va

hayvonot dunyosi, dengiz va okeanlardagi biologik resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza etish bilan shug'ullanadi.

BMT ning ixtisoslashtirilgan maxsus muassasasi FAO – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti 1945-yil oktabrda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi Rim shahrida, uning faoliyati xalqaro tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish orqali Yer yuzida kundan kunga ko'payib borayotgan aholining, ayniqsa, qishloq aholisining hayot (yashash) darajasini ko'tarish, aholining oziqlanishini yaxshilash, oziq-ovqat va va qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish, FAO faoliyati yuzasidan kelib chiqib yerdan, suv resurslaridan, o'rmondan va boshqa o'simliklardan quruqlikdagi hayvonot olamini, dengiz va okeanlardagi biologik resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza etish bilan shug'ullanadi. Uning sa'y-harakati orqali "Dunyo tuproq xaritasi" tuzilgan, "Umumjahon tuproq xartiyasi" qabul qilingan, aholini joylashtirish, oziq-ovqat muammolari, sahrolanishga qarshi kurash, suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish mavzusidagi bir qator xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda.

1963-yilda FAO – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamkorligida oziq-ovqat mahsulotlar sifati bo'yicha standartlarni o'rnatuvchi "Codex Alimentarius" Komissiyasi tashkil etilib, barcha davlatlar o'zlarining milliy standartlarini shunga mos tarzda ishlab chiqmoqdalar.

Jahon meteorologik tashkiloti – 1947-yil 11-oktabrda-yilda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi Jeneva shahrida joylashgan. 1951-yildan boshlab ushbu tashkilot BMT ning ixtisoslashgan tashkilotlari qatoriga kiritilgan. Uning maqsadi insonlarning xo'jalik faoliyatini planetamiz iqlimiga ta'sir ko'rsatish darajasini hamda ob-havo, iqlim va suv masalalarini tadqiq qiladi va ularga oid materiallar to'playdi.

Hukumatlararo dengiz kengashi tashkiloti – 1948-yil 6-martda tuzilgan bo'lib, uning qarorgohi London shahrida joylashgan. XDK dunyo okeani va dengizlarda suv transportidan foydalanishning ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlab berishda faol ishtirok etmoqda hamda ularning ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha bir qator konvensiyalar ishlab chiqqan. Bu tashkilot o'z tarkibiga 100dan ortiq mamlakatlarni birlashtirib, dengiz suvlarini muhofazasiga doir asosiy xalqaro prinsiplar va uning siyosatini olib boradi.

Hozirda portlardagi tozalash tizimiga doir dengizda kemalarning to'qnashib ketishini oldini olishga bag'ishlangan bir qancha maxsus normalar ishlab chiqqan hamda uni amaliyotga tatbiq etgan. Bu

tashkilotning muhim ishlaridan biri bu kemalarda avariya tizimini va konstruksiyasini ishlab chiqqanligidir, bunga ko'ra kemalarda tashiladigan zaharli, portlovchi, radiaktiv va boshqa shu kabi xavfli yuklarni tashishdan xavfsizlik choralari qanday ko'rilganligi belgilab qo'yilgan. Boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda mintaqaviy dengizlar va atrof-muhit ustidan monitoring olib borish, davlatlarga dengizlarni muhofaza qilish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish to'g'risida konsultativ yordam ko'rsatmoqda.

MAGATE – Atom energetikasi bo'yicha Xalqaro agentlik 1957-yilda tashkil etilgan davlatlararo tashkilot. Shtab kvartirasi Vena shahrida joylashgan bo'lib, ushbu tashkilotga 100dan ortiq davlatlar a'zo. Agentlikning Nizomiga binoan maqsadi atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanishga erishishga ko'maklashish va uni nazorat qilish, 34 mamlakatdan iborat boshqaruvchilar Kengashi orqali quyidagi ekologik masalalarni ko'rib chiqadi:

- atom elektrostansiyalarni qurish va ishlatish qoidalarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish yoki loyihadagi atom elektrostansiyalarni ekologik xavfsizligini ekspertiza qilish;
- atom qurilmalari va materiallarini atrof-muhitga ta'sirini baholash;
- radiatsiyaviy xavfsizlik me'yorlarini belgilash;
- turli atom quollarini sinash, unga tayyorlash yoki laboratoriya sinovlarini o'tkazish bo'yicha monitoringni olib borish;
- yadro yoqilg'isini yetkazib berish;
- yadroviy va noyadroviy davlatlar tomonidan yadro quolini tarkatmaslik majburiyatini bajarilishini nazorat qilish;
- atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida ilmiy va texnik ma'lumotlar almashish.

MAGATE talablariga itoat etmaslik BMT Bosh Assambleyasi Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan davlatlarga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar orqali qarshi kurash chorasini tatbiq etishi mumkin. Nohukumat tashkilotlar orasida 1948-yilda tashkil etilgan tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (MSOP) muhim rol o'ynaydi. Unga davlatlar, milliy va Xalqaro tashkilotlar hamda assotsiatsiyalar a'zo bo'lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklarni saqlash masalalari bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi hamkorlikka ham ko'maklashadi. Shu maqsadda MSOP ushbu sohadagi eng yaxshi milliy va texnika yutuqlarini tatbiq etadi. Fan va maorifni rivojlantirib, tabiatni muhofaza qilish g'oyalarni targ'ib qiladi. Uning tashabbusi bilan

1976-yili Tinch okeanining janubiy qismida tabiatni muhofaza qilish konvensiyasi, 1970-yilda yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan hayvonot va o'simlik dunyosining turlari bilan savdo qilish to'g'risidagi konvensiya, 1979-yilda Yovvoyi hayvonlarning uchib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi.

Xalqaro ekologiya huquqida xalqaro miqyosdagi ekologik jamg'armalarning ahamiyati beqiyos. Bular tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni sanitar va gigiyenik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni moliyaviy jihatdan ta'minlash kabi maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Faoliyat yuritish va amaliy harakat qilish ko'lamiga muvofiq ular umumjahon, mintaqaviy va mintaqalararo turlarga bo'linadi.

Umumjahon ekologik jamg'armalarga BMTning YUNEP tashkiloti qoshidagi "Atrof-muhit jamg'armasi"ni misol qilish mumkin. Bu jamg'arma o'z pul mablag'larini BMTga a'zo davlatlarning badal to'lovlaridan, xalqaro tabiiy obyektlardan davlatlarning maxsus foydalanganlik uchun yig'ilgan to'lovlaridan, xalqaro Gaaga sudi qaroriga binoan atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni xalqaro ekologiya huquqi subyektlari tomonidan iqtisodiy jihatdan qoplash bo'yicha to'lovlardan, yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan xayriya mablag'laridan va turli lotereya, shoular, sport o'yinlari kabi tadbirlardan tushgan pul mablag'laridan to'ldirib boradi. Uning mablag'lari faqatgina atrof-muhit muhofazasi, sanitariya va epidemiologik holatini yaxshilashga yo'naltiriladi.

Xalqaro Qizil kitob – 1972-yili noyabr oyida bo'lib o'tgan YUNESKO tashkilotining konferentsiyasida qabul qilingan "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga muvofiq tuzildi. Unda Yer yuzida noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining biologiyasi, tarqalishi, yo'qolib ketish sabablari va muhofaza qilish choralari ko'rsatib o'tilgan.

Xalqaro tabiatni qo'riqlash ittifoqi 1949-yildan boshlab Qizil kitob uchun ma'lumotlarni to'play boshlagan va 1966-yili "Red data book" nomi bilan ingliz tilida chop etdi. XX asrning 80-yillarning boshiga kelib sut emizuvchilarning 236, qushlarning 485, sudralib yuruvchilarning 141, baliqlarning 194 turlari ushbu kitobga kiritildi.

Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan flora va fauna turlari qaysi bir mamlakat hududida yashashidan qat'i nazar, ular muhofaza qilinishlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan nazorat ostida bo'lishlari kerak. Ko'chib yuruvchi hayvonlar va qushlarning vaqtinchalik yashash makoni bo'lgan

botqoq, ko'l, daryo yoki landshaftlar alohida muhofaza qilinadigan tabiiy obyektlar toifasiga kiritilishini xalqaro huquqiy normalar talab qiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan millitlar tashkilotining munosib a'zosi sifatida uning bir qator dasturlari va maxsus muassasalari bilan hamkrlikni keng yo'lga qo'ygan, ular: YUNEP, YUNESKO, FAO, YUNIDO, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevropa ittifoqi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Butunjahon meteorologiya tashkiloti, Qurg'oqchilik mavjud bo'lgan hududlar uchun qishloq xo'jaligi tadqiqotlari Xalqaro markazi, xalqaro hamkorlik bo'yicha Koreya agentligi (KOICA), xalqaro hamkorlik bo'yicha Yaponiya agentligi (JISA), shuningdek ikkita mintaqaviy komissiya, ya'ni BMTning Yevropa iqtisodiyoti komissiyasi va Osiyo hamda Tinch okeani uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi shular jumlasidandir.

Xalqaro ekologiya huquqida javobgarlik masalalari

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlik xalqaro ommaviy huquqning javobgarlik tizimining bir qismi hisoblanib – xalqaro huquq subyektlari (davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar)ning atrof – muhitga yetkazadigan zararining oldini olish yoki yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan xalqaro-huquqiy me'yorlar va ularga monand ravishdagi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy-huquqiy kompleksi hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyektlarining ekologik zararli yoki qonunga xilof harakatlari, ularning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, texnologik, rekreasion va shu kabi xo'jalik faoliyatlari natijasida kelib chiqadigan atrof-muhit muhofazasiga zid bo'lgan harakat yoki harakatsizliklaridir.

Ushbu javobgarlik kodifikatsiyalashmagan, ya'ni u atrof-muhitga oid aniq bir masalalari bo'yicha faqat odat normalariga asoslanadi. Agarda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatlari BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari yoki mintaqaviy ekologik tashkilotlar tomonidan belgilangan atrof-muhit holatining huquqiy me'yorlari doirasida bo'lsa, bu holat ushbu subyektlarning butun olam tabiati oldidagi iqtisodiy-ekologik javobgarligini paydo qiladi. Buni ularning tabiat va qolaversa kelajak avlodlar oldidagi moddiy va ma'naviy javobgarligi deyish mumkin.

Yuridik adabiyotlarda iqtisodiy-ekologik javobgarlik tabiatga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan amalga oshiriladigan iqtisodiy

tadbir bo'lib, uning subyektlari umumjahon, mintaqaviy yoki submintaqaviy turdagi ekologik jamg'armalarga muntazam ravishda to'lanadigan badal to'lovlari orqali undirib olinadi.

Ayrim kosmik fazoni o'zlashtirishga oid dasturlarni bajaruvchi davlatlar, birlashmalar va xalqaro tashkilotlar 1972-yilda qabul qilingan "Kosmik kemalar orqali zarar yetkazish Konvensiyasi"ning 2-moddasiga binoan tabiatga yetkazilgan zararni qoplashlari kerak.

Ekologik-huquqiy javobgarlik – bu xalqaro ekologik obyektlardan universal, mintaqaviy va ikki davlat o'rtasida belgilangan xalqaro huquqiy me'yorlardan oshirib foydalanish yoki ularni buzish orqali atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash orqali kelib chiqadigan hamda xalqaro huquq subyektlariga qo'llaniladigan moddiy va siyosiy sharoitlarni majburiy kechinmasi yoki ularni yuridik javobgarlikka tortilishi.

Yuridik javobgarlikning noqulay moddiy kechinmasi yoki moddiy javobgarligi ekologik ziyon ko'rgan davlatlarga yoki davlatlar yurisdiksiyasida bo'lmagan ekologik obyektlarga (xalqaro ekologik tashkilotlar orqali) yetkazilgan zararni moliyaviy, natural holda yoki almashtirish orqali qoplashga tushunamiz.

Xalqaro ekologik javobgarlikda faqatgina yetkazilgan mulkiy zararni qoplash kabi javobgarlik turi keng tarqalgan bo'lib, asosan u tabiiy resurslarni huquqqa xilof tarzda egallab olishdan tortib to' ekologik me'yor va talablarni bajarmaslik kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi va buning natijasida atrof-muhitning noqulay tarzda o'zgarishiga olib keladi. Xalqaro ekologik huquqbuzarliklar oddiy huquqbuzarlik va xalqaro jinoyatlarga bo'linib, yetkazilgan zararning miqdoriga qarab tasniflanadi.

Xalqaro ekologik-huquqiy javobgarlikda aybdorlarga nisbatan noqulay siyosiy kechinmalarni qo'llash sanksiyasi mavjud bo'lib, bunda xalqaro tashkilotlar yoki ularning sudlov organlarining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Natijada aybdor deb topilgan xalqaro subyekt xalqaro tashkilotlar safidan chiqariladi va ularga nisbatan turli ko'rinishdagi yoki shakldagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy, ekologik boykot e'lon qilinadi.

Hozirda ushbu ekologik masalalarni hal etishga qodir bo'lgan muassasa, ya'ni 1993-yilda ta'sis etilgan BMTning xalqaro Gaaga sudi tarkibida Ekologik palata faoliyat olib bormoqda. Uning tarkibi yettita doimiy sudyalardan iborat. 1994-yilda esa nohukumat tashkilot sifatida faoliyat olib boruvchi Xalqaro ekologik arbitraj va murosaga kelish sudi ta'sis etildi. Uning tarkibiga 24ta mamlakatdan 29ta huquqshunos-ekologlardan iborat sudyalardan jam

bo'lishdi. Uning Nizomi qabul qilinib, rahbarlik qiluvchi (yetakchi) organining doimiy joylashgan joyi sifatida Meksikaning Mexiko-Siti shahri va Ispaniyaning San-Sebastyan shahri tanlandi.

Ma'lumki, eng nufuzli xalqaro sudlov organi – BMTning xalqaro Gaaga sudi 1945-yil BMT bilan bir vaqtda faoliyat yurita boshladi. Uning a'zolari Bosh Assambleya tomonidan 5 yil muddatga saylanadilar. BMT Nizomining 99-moddasiga binoan Gaaga sudi Xavfsizlik Kengashiga xalqaro ekologik masalalarga doir va ekologik xavfsizlikni saqlash bo'yicha har qanday masalalarni hal qilishga doir takliflar bilan chiqishga huquqlidir.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro ekologiya huquqi xalqaro huquq fani tizimida o'rganilishi ma'lum. *Xalqaro ekologiya huquqining o'ziga xos xususiyatlarini fanning keng ko'lamliligi va boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligini inobatga olgan holda izohlang.*

2. Hozirgi paytda atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi hamda ozon qatlami buzilishi va uni oldini olishning xalqaro huquqiy asoslari haqida nimalarni bilasiz? *Ushbu masalalarni xorijiy davlatlar tajribasi misolida tahlil qiling.*

3. O'zbekiston Respublikasi ekologiya sohasida qaysi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan? *Ushbu hujjatlarni tadrijiy tarzda hayon eting.*

4. Atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilishning manbalari o'ziga xos xususiyatga ega. *Bu borada xalqaro huquqning boshqa sohasining manbalari bilan farqini yoriting.*

5. Atrof-tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilishda xalqaro ekologik tashkilotlarning roli katta. *Ushbu tashkilotlarning xususiyatlari nimalardan iborat?*

Kazus 1.

Tojikiston Respublikasi Regar alyuminiy zavodi (TALKO DUK) tomonidan qo'shni mamlakatlarga transchegaraviy atmosfera havosini ifloslanishi natijasida radiatsiyaviy ta'sirning salbiy oqibatlar mavjud. *Siz uni xalqaro ekologiya huquqi asosida tahlil qiling.*

Kazus 2.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish

bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiyada uning ishtirokchilariga tabrig nutqi so'zlagan edi (Xalq so'zi. – 2014. – 30-oktabr.). Ushbu tabrikda *e'tirof etilgan atrof-muhitni xalqaro muhofaza qilish masalalari haqida so'zlab bering.*

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. –2010. – 12-noyabr.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

3. Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T.: O'zbekiston, 2011. – 360 b.

4. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modiyernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. T.21. – T.: O'zbekiston, 2013. – 414 b.

5. Karimov I.A. Quyosh energiyasi – kelajak energiyasi. Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2013. – 25-noyabr.

6. Karimov I.A. Ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor manaviy xazinadir. Prezidenti Islom Karimovning "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2014. – 16-may.

7. Karimov I.A. "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi // Xalq so'zi. – 2014. – 30-oktabr.

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.

9. O'zbekiston Respublikasi kodeklari (2014-yil 1-oktabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan): to'plam / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2014. – 1056 b.

10. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari

Axborotnomasi. – 2006. – №10. –536-modda.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 24 maydagi “Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” №246 qarori. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami. – 1993. – №5. –20-modda.

12. Алиханов Б.Б., Скрипников Н.К., Умаров Д.М. и др. Развитие и совершенствование экологического законодательства Республики Узбекистан. Монография. – Т.: ООО. PRINT-X, 2013. – 287 с.

13. O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to‘g‘risidagi Milliy ma‘ruza // O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi. – Toshkent: Chinor ENK, 2013. – 258 b.

14. Property Rights in a Social and Ecological Context. – Washington: U.S.A., 1995. – 206 s.

15. Michaelis W. Air pollution. – Germany: Springer, 1997. – 178 s. Brussard L. Cerrato R.F. Soil ecology in sustainable agricultural systems. – S. l. : USA, 1997. – 168 s.

16. M. Janicke, H. Weidner. National environmental policies/ United Nations University. – Germany: 1997. – 320 pg.

17. Jan H.J. European Environmental Law. – London, 2002.

18. Dunyer K. The Environmental Code // Swedish Environmental Protection Agency. – 8 June. –2004.

XV BOB. XALQARO JINOYAT HUQUQI

Mazkur bobda xalqaro jinoyat huquqining tushunchasi, manbalari va tamoyillari, xalqaro jinoyat va uning turlari, Xalqaro jinoyat sudlari faoliyati, jinoyatchilikning turli ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish tartibi hamda jinoyat ishlari bo'yicha davlatlarning xalqaro hamkorligi to'g'risidagi masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasi

Har qanday huquq normasi biron bir davlatning erkinliklarini o'zida aks ettiradi va bevosita uning ichki huquqiga kiritiladi yoki bir nechta davlat erkinliklarining kelishuvi natijasini ifodalaydi. Bularning barchasi xalqaro huquq normalariga kiradi.

Xalqaro jinoyat huquqi tushunchasiga ta'rif berish masalasi milliy hamda horijiy adabiyotlarda har doim bahsga sabab bo'lgan. Uni quyidagi ta'riflar bilan ifodalanganligini kuzatish mumkin:

- xalqaro huquqning maxsus sohasi sifatida;
- xalqaro ommaviy huquqning sohalaridan biri sifatida;
- milliy jinoyat huquqining bir qismi sifatida;
- alohida huquq sohasi sifatida.

Aslida “Xalqaro jinoyat huquqi” o'z ichiga xalqaro huquq, milliy jinoyat huquqi, jinoyiy-ijroya va jinoyat-protsessual normalarini qamrab oluvchi huquqning alohida kompleks sohasi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro jinoyat huquqiga aniq ta'rif berish uchun uning o'rganish doirasini chegaralash mushkul. U huquq sohasi sifatida hali to'liq shakllanmagan va rivojlanish bosqichida ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, hali ko'pchilik masalalar yuzasidan aniq bir fikrga kelinmaganligini aytish mumkin. Xususan, xalqaro jinoyat huquqining subekti, uning predmeti, milliy huquq bilan o'zaro aloqasi masalalaridir.

Xalqaro maydondagi va davlatning ichki tizimidagi jarayonlarning o'zaro ta'siri, xalqaro huquq hamda milliy huquq tizimi o'rtasidagi aloqalarning chuqurlashuvi, shuningdek xalqaro jinoyat huquqi bilan davlatning ichki jinoyat huquqi o'rtasidagi o'zaro munosabatda aks etadi. Xalqaro jinoyat huquqining normalari, qoida tariqasida, davlatning ichki jinoyat huquqi va protsessi orqali shakllanadi.

Xalqaro jinoyat huquqi – xalqaro huquqning subyektlari tomonidan sodir etilgan xalqaro jinoyatlar yoki xalqaro xarakterdagi jinoyatlar uchun aybdor jismoniy shaxslar va davlatlarni javobgarlikka tortish orqali xalqaro huquq–tartibotni jinoyat harakatlardan himoya qilish maqsadida yaratilgan prinsip va normalarni o‘z ichiga olgan xalqaro huquq sohasi.

Yuridik adabiyotlarni¹ tahlil qilish natijasida “xalqaro jinoyat huquqi” tushunchasiga quyidagi ta’rif berilishi mazkur xalqaro huquq sohasini aniq tushunib olishga yordam beradi:


Tinchlikka (agressiya) va insoniyatga qarshi qaratilgan, urushga qarshi (harbiy jinoyat) va genotsid kabi o‘ta og‘ir turdagi xalqaro jinoyatlar bilan bir qatorda xalqaro xarakterdagi jinoyatlar (transmilliy yoki konvensiyaviy jinoyatlar) uchun ham maxsus aktlar (nizomlar, konvensiyalar) yoki kelishuvga binoan milliy jinoyat huquqi normalariga mos keluvchi javobgarlik masalalari belgilangan va xalqaro huquq tartibotni himoya qilish maqsadiga ega bo‘lgan suveren davlatlar, davlat organlari yoki xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik natijasida yaratilgan normalar tizimidir.

Xalqaro jinoyat huquqining manbalari

Hozirgi davrda xalqaro jinoyat huquqining manbalar tizimi shakllanib bo‘lgan. Bu tizim, avvalo, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan shartnomalar ko‘rinishida, bundan tashqari, xalqaro jinoyatlar yoki xalqaro xarakterdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro jinoyat huquqi manbalarining boshqa bir xususiyati uning yagona kodeksi mavjud emasligidadir.

¹ Antonio Cassese. *International criminal law*. Second edition. – New York: Oxford University Press, 2000. – 445 p.; Bassiouni, M.C. *Introduction to International Criminal Law*. – Leiden, Boston, 2013; *International criminal law : a collection of international and regional instruments*. – 4th rev. ed. / edited by Christine Van den Wyngaert, assistant editor, Steven Dewulf. Martinus Nijhoff Publishers. – Leiden/Netherlands. 2011. 2202 p.; Neil Boister. *An Introduction to Transnational Criminal Law*. Oxford University Press. – New York. 2015. 326 p.; Ellen S.Podgor, Roger S Clark. *Understanding international criminal law*. Third edition. LexisNexis. – Danvers/ USA. 2013. 283 p.; Bartram S. Brown. *Research Handbook on International criminal law*. Edward Elgar Publishing Limited. – UK. 2011. 501 p.; Robert J Currie, Joseph Riknof. *Transnational and international criminal law*. Second edition. Irwin Law Inc. – Toronto. 2013. 748p.; Neil Boister, Robert J Currie. *Routledge Handbook of Transnational criminal law*. Routledgepublishing. – New York. 2015. 453 p.; Иногамова –Хетаи Л.В. *Международное уголовное право: учебное пособие для магистрантов*. – М.: Проспект, 2015. – 112 с.; Лебединей И.Н. *Международное уголовное право: Учебное пособие*. – М.: Проспект, 2016. – 112 с.;



Xalqaro shartnoma xalqaro jinoyat huquqining asosiy manbaidir. Xalqaro shartnomalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

Tinchlik davrida hamda qurolli to'qnashuvlar davrida ham sodir etilgan harakatlarni ko'rib chiquvchi xalqaro shartnomalar:

- *Aparteid jinoyatiga chek qo'yish va buning uchun javobgarlik to'g'risidagi 1973 yilgi xalqaro konvensiya;*
- *1945 yildagi Nyurenberg Harbiy tribunalining Ustavi*

Faqat qurolli to'qnashuvlar davrida kuchga kiradigan xalqaro shartnomalar:

- *1949 yilda imzolangan Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Janeva konvensiyalari*

Mazkur xalqaro shartnomalar qatorida xalqaro jinoyat huquqiga tegishli bo'lgan tinchlik davrida ham, qurolli to'qnashuvlarda ham amal qiluvchi moddalar mavjud.

Misol tariqasida:

- *Butunjahon pochta konvensiyasi;*
- *Yadroviy materiallarni jismonan himoyalash haqidagi konvensiya;*
- *Dengiz huquqi to'g'risidagi 1982-yilgi xalqaro konvensiyaning qaroqchilikka qarshi kurashda davlatlarning hamkorligi to'g'risidagi moddalarini keltirib o'tish mumkin.*

Xalqaro jinoyat huquqining manbalariga ma'lum bir sohada tarqalgan, shaxsga nisbatan qo'llanishni cheklovchi, jinoyat yurisdiksiyalarni amalga

oshirish davrida qabul qilingan xalqaro shartnomalarni ham kiritish mumkin.

Xalqaro jinoyat huquqining manbalari bo'lgan shartnomalar agressiv urushga tayyorgarlik, xalqaro tinchlikni buzish kabi jinoyatlarga chek qo'yishda, xalqaro hamjamiyatga jiddiy ziyon yetkazuvchi harakatlar olib borgan davlat yoki jismoniy shaxslarga qarshi xalqlar va davlatlarning kurashida hamda davlatlarning xalqaro javobgarligi sifatida aybdor shaxslarning jinoyat javobgarlikka tortilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, 1973-yildagi Aparteid jinoyatiga chek qo'yish va uning uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning 1-moddasida belgilanganidek, aparteid va undan kelib chiqqan holda olib borilgan siyosat, irqiy segregatsiya (ajratish) va diskriminatsiya (kamsitish) amaliyoti xalqaro tinchlik va xavfsizlikka jiddiy xavf sifatida baholanadi. Zamonaviy xalqaro huquqda xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va javobgarlikka tortish majburiyatini to'g'ridan to'g'ri davlatlarga yuklovchi shartnoma normalari tizimi yuzaga keldi (keyingi paytlarda esa boshqa davlatlar hududida ham umumiy jinoyat harakatlarni sodir etgan jinoyatchilarni jazolash to'g'risida ham kelishuvlar tuzilmoqda).

XX asrning 40-yillarida, xalqaro shartnomalarda o'z aksini topgan bir qator qoidalar hozirgi kunda xalqaro-huquqiy odatlarga aylangan. Biroq xalqaro huquqning boshqa sohalarida bo'lgani kabi xalqaro jinoyat huquqida ham **xalqaro odatlarning** manba sifatidagi roli nisbatan kichik.

Xalqaro jinoyat huquqining odat va shartnomaviy normalarining o'zaro munosabatlariga to'xtalganda ta'kidlash joizki, qoidaga ko'ra urush qonunlari borasidagi shartnomalar normalar xalqaro odatlarning kodifikatsiyasi hisoblanadi va aynan ushbu odatlarga asoslanishni belgilab qo'yish lozim.

Nyurnbergdagi Xalqaro Tribunal 1907-yildagi IV Gaaga konvensiyasida aks ettirilgan qoidalarning aksariyati taraqqiy etgan millatlar tomonidan qabul qilinib, urushning amaldagi qonun va odatlari sifatida ko'rib chiqilganligini e'lon qildi. 1949-yildagi Jeneva konvensiyasiga 1977-yilda qabul qilingan Urush qurbonlari to'g'risidagi Qo'shimcha Protokol esa asosiy qoidalarida amaldagi xalqaro odat huquqini aks ettirdi.

Masalan, 95-moddada urush olib borish usulini tanlash huquqi haqida; 37-moddada sotqinlikni taqiqlash; 38 va 39-moddalarda emblemalar to'g'risida so'z boradi va hokazo.

Xalqaro jinoyat huquqida (urush qonunlari va odatlari qismida) ko'plab xalqaro shartnomalarda xalqaro odat huquqi normalarining o'zida

aks ettirilganligi, ya'ni odat normalari sifatida shartnomaning qoidalari ishtirokchi bo'lmagan davlatlar uchun ham majburiy ekanligi ko'rinadi.

E'tibor bering!

Sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqining jiddiy tarzda buzilishida javobgar shaxslar ustidan sud-tergov ishlari olib boruvchi BMT Xavfsizlik Kengashining 1993-yil 25-maydagi rezolyutsiyasi asosida vujudga kelgan Xalqaro Tribunal Ustavi, BMT Xalqaro Huquq Komissiyasi tomonidan 1994-yildagi 46-sessiyasida qabul qilingan Xalqaro Jinoyat Sudi Statutining loyihasi hamda Insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kodeksining loyihasi (2. 20 va 22-moddalar) urush qonunlari va odallarining odat huquqi xususiyati, bir qator xalqaro shartnomalarda o'z aksini topganligini tasdiqladi. Bu hujjatlarni xalqaro jinoyat huquqining muhim manbalari deb hisoblash mumkin.

Masalan, 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari, 1948-yildagi Genotsid uchun ogohlantirish va jazo to'g'risidagi Konvensiya.

Shartli ravishda yordamchi manba sifatida xalqaro jinoyat huquqi manbalariga u yoki bu darajada xalqaro jinoyat yoki xalqaro xarakterdagi jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi masalasi va jazolashga yo'naltirilgan **davlatning ichki qonunlarini** ham kiritish mumkin.

Bir qator davlatlarning aynan bir masala yuzasidan qabul qilgan ichki qonunlari xalqaro jinoyat huquqining odat normalarini yuzaga kelishiga ta'sir etishi mumkin.

Masalan, davlatlar tomonidan xalqaro terrorchilik harakatlariga qarshi kurash to'g'risida qabul qilgan qonuni, bunday harakatlarni taqiqlovchi, jismoniy shaxslarning xalqaro jinoiy javobgarlikka tortilishi haqidagi masalani qo'yuvchi va ushbu harakatni jinoyat deb ta'riflovchi xalqaro huquq normalarining yaratilishiga olib kelish mumkin (O'zbekiston Respublikasining Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi 2000-yildagi qonuni¹).

Qulchilik va qul savdosini taqiqlash hamda yo'q qilish davlatlarning ichki qonunlar ishlab chiqishi natijasi asosan Amerika davlatlari tomonidan XIX asrda, 1885-yilda Berlin Konferensiyasida qabul qilingan Kongo to'g'risidagi asosiy hujjatning 9-moddasida va Kongo daryosi sohillari hududidan qul bozori sifatida va qullar tashiladigan tranzit yo'l sifatida foydalanishni taqiqlovchi qonunlarda o'z ifodasini topgan. 1926-yilga kelib Qulchilik to'g'risida maxsus Konvensiya qabul qilingan.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Аxbоротномаси - 2001. - №1-2. -15-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами - 2004. - №25 - 287-модда; - 2015. - №32. - 425-модда; - 2016. - №17. - 173-модда.

Biz davlatlarning ichki qonunlarini, ular xalqaro jinoyat huquqining allaqachon mavjud bo'lgan xalqaro odat huquqi normalarini tasdiqlasa ham, xalqaro jinoyat huquqining tamoyil va normalari davlatlar hududida amalga oshirilishi ta'minlanayotganligi uchun ham yordamchi manbalar deb ataymiz.

Misol tariqasida, maxsus shartnomaga asoslangan ekstraditsiya (ushlab berish) institutini keltirish mumkin. Unga ko'ra, yuqoridagi shartnoma mavjud bo'lmagan hollarda xalqaro odat huquq normasi – javobgarlikning muqarrarligi tamoyili hisoblanadi. Jinoyatchini ushlab berish institutiga asoslangan ushbu asosiy tamoyil "aut dedere aut judicare" nomli atamada o'z aksini topgan. Mazkur tamoyil bugungi kunda borgan sayin keng taraqqiy etib bormoqda Ushbu iboraning o'zbek tilida tarjimasi "topshir yoki sud qil" kabi ma'nolarni anglatadi.

Xalqaro jinoyat huquqining manbai sifatida *sud qarorlari* alohida ahamiyatga ega. Sud qarorlari umumiy tamoyillar kabi xalqaro huquqning ma'lum bir normalari yaratilishiga katta ta'sir etadi (ayniqsa, urush qonuni va odatlari borasida).

Sud qarorlarida ko'rsatilgan Nyurnberg tamoyillari asosiy xalqaro jinoiy javobgarlikka tortiluvchi jinoyatlar ro'yxati va xalqaro huquqning yangi normalari yaratilishiga asos bo'ldi. Ular qatoriga Genotsid jinoyatining oldini olish va buning uchun jazolash to'g'risidagi 1948-yilgi konvensiyani kiritish mumkin.

1949-yilda qabul qilingan Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasida harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan. Bu masala 1907-yildagi Gaaga konvensiyasida tilga olinmagan, lekin Nyurnberg Tribunalining Nizomi va hukmlarida bevosita muhokama qilingan.

Sud qarorlari to'g'ridan to'g'ri faqatgina taraflar tomonidan bajarilish majburiyatini yuklaydi. Xalqaro Sud Statutining 59-moddasida sud qarorlari faqat "mazkur ish yuzasidan ishda ishtirok etayotgan tomonlar va ushbu ish uchun" majburiyligi belgilangan. Lekin boshqa bir shunga o'xshash ish ko'rilsa, sud ko'rilgan ish yuzasidan chiqargan qarorlarni va uning dalillarini yoki butun sud qarorining o'zini inobatga olishi mumkin.

Sud qarorlarini xalqaro jinoyat huquqining tuzilishi va rivojlanishida muhim rol o'ynovchi bilvosita yoki yordamchi manbalarga kiritish mumkin.

Xalqaro jinoyat huquqining yordamchi manbalariga *xalqaro tashkilotlar*, avvalo *BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi kabi organlarning qarorlarini* ham kiritish lozim.

Xalqaro sud o'z Statutining 38-moddasida o'zining bir qator ishlarida xalqaro tashkilotlar rezolutsiyalardan foydalangan bo'lsa-da, ularni

xalqaro huquq manbalari sifatida ta'kidlab o'tmagan. Aksariyat olimlar xalqaro tashkilotlarning qarorlarini xalqaro huquq va xalqaro jinoyat huquqining bilvosita manbalari deb hisoblashadi.

BMTning turli idoralari tomonidan bevosita jinoyat huquqiga tegishli bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ular qatoriga "Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari", "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, qadr-qimmatni kamsituvchi g'ayrinsoniy muomala turlariga barham berish to'g'risida"gi Deklaratsiya, "Mansabdor shaxslarning huquq-tartibotni tartibga solish xatti-harakati" kodeksidir.

Bu xalqaro hujjatlar guruhiga "Odil sudlovdagi tenglik tamoyili"; "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, qadr-qimmatni kamsituvchi g'ayrinsoniy muomala turlariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya; "Qamoq jazosi yoki boshqa turdagi hibsga olishning turlarida shaxslarni himoyasiga tegishli tibbiy etika kodeksi"; "Hibsga olish yoki qamoq jazosining qanday turi bo'lishidan qat'i nazar, barcha shaxslarni himoyalash tamoyili qonunlari" kabilarni ham kiritish mumkin.

Birinci guruh hujjatlari davlatlarga tavsiyalar sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, qonunlar bilan birga xalqaro kelishuvlarning ham ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, "Qiynoq va boshqa shafqatsiz, qadr-qimmatni kamsituvchi g'ayrinsoniy muomala turlariga barham berish to'g'risida"gi Deklaratsiya 1987-yil kuchga kirgan xuddi shu nomdagi Konvensiyaning ishlab chiqilishini tezlashtirdi.

Xalqaro jinoyat huquqining prinsiplari

Xalqaro huquq har qanday huquq sohasi singari muayyan tizim, institut, tartibga solish usul va prinsiplarga egadir. Prinsiplar xalqaro huquqda o'zining odatiy huquqiy mezon, huquq sohasi doirasidagi normalar uchun rahbariy qoida tarzidagi funksiyasini bajaradi. Shunday ekan, xalqaro huquqning maxsus sohasi sifati xalqaro jinoyat huquqi ham xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplariga tayanadi. Ushbu prinsiplarga zid kelmagan ravishda xalqaro jinoyat huquqining maxsus prinsiplari ishlab chiqilgan.

Xalqaro jinoyat huquqi umumiy va maxsus prinsiplar asosida boshqarilgandagina o'zining asosiy ijtimoiy ahamiyatga molik tashkiliy-huquqiy vazifalarini bajaradi.

Xalqaro jinoyat huquqining umumiy prinsiplar Nyurenberg Tribunali Nizomida o'z aksini topgan bo'lib, keyinchalik 1948-yilgi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi hamda 1966-yilgi Fuqaroviy va siyoviy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktda mustahkamlandi.

1998-yilning Xalqaro Jinoyat Sudi Statutining 3-bo'limida xalqaro jinoyat huquqining maxsus prinsiplar belgilandi.

Ushbu prinsiplarga quyidagilar kiradi:

1. • *nullum crimen sine lege*
2. • *nulla poena sine lege*
3. • *ratione personae prinsipi (ortga qaytish kuchining yoqligi)*
4. • *Xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlar uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik prinsipi*
5. • *18 yoshga yetmagan shaxslar uchun yurisdiksiyadan intisnolik prinsipi*
6. • *Mansabdandan kelib chiqib ish yuritishga yo'iq ymaslik prinsipi*
7. • *Komandir va boshqa boshliqlarning javobgarligi prinsipi*
8. • *O'tish muddati qo'llanilmasligi prinsipi*
9. • *Sub'ektiv tomon prinsipi*
10. • *Jinoiy javobgarlikdan ozod etilish prinsipi*
11. • *Dalillardagi yoki huquqdagi xato prinsipi*
12. • *Boshliqning buyrug'i va qonun imzolash prinsipi*

Nullum crimen sine lege prinsipi. Mazkur prinsipga ko'ra, shaxs sodir etgan harakat sud yurisdiksiyasida belgilab qo'yilgan jinoiy harakatlarga mos kelmasa, u Statut bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Jinoyatni aniqlashda esa aniq tadqiqotlar olib borish va analogik jihatdan ko'rib chiqilmasligi lozim. Aniqlashtirishda ikki fikrlilik holati yuzaga kelgan taqdirda masala tergov jarayonida ishtirok etayotgan, sud ish yurituvini olib borilayotgan yoki aybdor deb topilgan shaxs foydasiga hal etiladi. Mazkur prinsip Sud Statutidan mustaqil holatda xalqaro jinoyat huquqiga oid har qanday harakatning jinoyat sifatidagi kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi;

Nulla poena sine lege prinsipi. Mazkur prinsipga ko'ra sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs Xalqaro jinoyat sudi Statutidagi qoidalarga mos tarzda javobgarlikka tortilishini ko'rsatib o'tadi.

Ratione personae prinsipi (ortga qaytish kuchining yo'qligi). Mazkur prinsipga ko'ra shaxs Statut kuchiga kirguncha bo'lgan davrda sodir qilgan harakatlari uchun Statutda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ushbu masala yuzasidan sud ishi tugallanmagan yoki so'nggi qaror chiqarilmagan taqdirda sud qilinayotgan yoki ishi ko'rib chiqilayotgan shaxs uchun yengilroq jazo qo'llaniladi;

Xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlar uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik prinsipi Xalqaro Harbiy Tribunal Nizomi insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan hamda harbiy jinoyatlar uchun javobgar

shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazolash uchun ishlab chiqilgan edi. Tribunal ushbu huquqni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishda xalqaro jinoyat huquqi to'g'ridan to'g'ri qo'llanishini ta'kidladi.

Mazkur prinsip xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlarni taqiqlashdagi mohiyatini to'ldirish bilan birga, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning javobgarlikka tortilishi va jazolanishni ta'minlaydi.

Xalqaro huquq doirasidagi jinoyatlarni sodir etganlikda shaxslarning ayblanishi va javobgarlikka tortilishi prinsipi quyidagi hujjatlarda o'z tasdig'ini topgan:

– 1993-yil 22-fevralda sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan xalqaro gumanitar huquqning buzilishi kabi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish maqsadida tashkil etilgan Xalqaro Tribunal Nizomining 7 va 23-moddalarida;

– 1994-yil 1-yanvardan 1994-yil 31-dekabrgacha bo'lgan vaqt mobaynida Ruanda va qo'shni mamlakatlar hududida sodir etilgan genotsid, xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi jinoyati sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortuvchi Xalqaro Tribunal Nizomining 6-22 moddalarida;

– BMTning 1950-yildagi "Nyurnberg tribunali Nizomi tomonidan tan olingan va bu Tribunalning yechimi aks ettirilgan xalqaro huquq prinsiplari"ni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan BMTning Xalqaro Huquq Komissiyasining 2-sessiyasida;

– 1954-yil insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan Jinoyat Kodeksi loyihasining 1-moddasida;

– Shaxsiy javobgarlik prinsipining yakuniy ko'rinishi Xalqaro Jinoyat Sudi Statutining 25-moddasida aniqlashtirildi.

18 yoshga yetmagan shaxslar uchun yurisdiksiyadan istisnolik prinsipi. Mazkur prinsip jinoyat sodir etish vaqtida 18 yoshga yetmagan har qanday shaxsga nisbatan Sud yurisdiksiyaga ega emasligini anglatadi;

Mansabdand kelib chiqib ish yuritishga yo'l qo'ymaslik prinsipi. Ushbu prinsip Xalqaro Jinoyat Sudi Statuti, shaxs qanday lavozimni egallab turganligidan qat'i nazar, barcha uchun teng qo'llanilishini anglatadi. O'z navbatida davlat yoki hukumat boshlig'i lavozimida bo'lganlik, parlament yoki hukumat a'zosi, tayinlangan mansabdor shaxs yoki hukumatning mansabdor shaxsi bo'lganlik Xalqaro Jinoyat Sudi Statutiga binoan hech qanday holatda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmaslikka yoxud jazo turining yengilroq shakli tayinlanishiga asos bo'la olmaydi. Shaxsning lavozimi maxsus protsessual normalar yoki immunitetlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lsa ham, xalqaro huquq yoki milliy huquqqa tegishli

bo'lsa ham hech qanday holatda bunday shaxsga nisbatan sud yurisdiksiyasi qo'llanilishini taqiqlanmasligi shart;

Komandir va boshqa boshliqlarning javobgarligi prinsipi. Mazkur prinsip jinoyatlar uchun Xalqaro Jinoyat Sudi Statutining boshqa jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini to'ldiriladi. Unga ko'ra harbiy komandir sud yurisdiksiyasiga tushuvchi kuch bilan amalga oshirilgan, vaziyat taqozosi bilan, buyruq berish yoki nazorat qilish bilan amalga oshirilgan jinoiy ishlar va sodir etilgan jinoiy harakatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Uning boshqaruvi yoki nazorati natijasida belgilangan tarzda bunday kuchlarning jinoyat sodir etishi yoki jinoyat sodir etishiga urinishlari holatlari, uning xizmat lavozimidan foydalangan holda jinoyat sodir etilishining oldini olmaganligi, jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yganligi, yuzaga kelgan vaziyatlarni bartaraf etmaganligi yoki yuqoridagi holatlar kuzatilganida vaziyatni bilishi va tegishli idoralarga jinoiy ish olib borish, taftish o'tkazish uchun taqdim etmaganligi natijasida jinoiy ish yoki harakat sodir etiladi va buning uchun komandir yoki mas'ul shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Yuqorida qayd etilmagan, boshliq va bo'ysunuvchi munosabatlariga aniqlashtirish lozim. Boshliqning faol boshqaruvi yoki nazorati natijasida uning bo'ysunuvchilari tomonidan amalga oshirilgan jinoyatlar, bo'ysinuvchilarining olib borayotgan jinoiy harakatlari va sodir etgan jinoyatlarini bila turib yoki bilmaslikka olib, jinoyat haqida keltirilgan aniq axborotlarni ham ko'rib turib yoki bilmaganlikka olib jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yganligi uchun ham sud yurisdiksiyasida qayd etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladi va jazolanadi;

O'tish muddati qo'llanilmaslik prinsipi. Mazkur prinsip Xalqaro Jinoyat Sudi yurisdiksiyasiga tushuvchi jinoyatlarga nisbatan hech qanday vaqt belgilanmasligini aniqlashtiradi. Ya'ni mazkur Statutda belgilangan jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, qancha vaqt o'tishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortilishini anglatadi.

Subyektiv tomon prinsipi. Unga ko'ra Xalqaro Jinoyat Sudi yurisdiksiyasiga tushgan jinoyatlarning shaxs qasddan yoki bila turib amalga oshirgan holatlarda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Mazkur prinsip maqsadlariga shaxs noqonuniy faoliyat, jumladan, bu harakatlarni aynan o'sha shaxs sodir etishni ko'zlagan, sodir etgan voqealarning oddiy jarayonlarida jinoiy harakatlar sodir bo'lishini bilgan holda faoliyat olib borgan holatlar tegishlidir. Bu prinsip maqsadi yo'lida voqeahodisalarning obyektiv jarayonlarida, holatlar mavjudligini "ongli ravishda" anglashni bildiradi;

Jinoiy javobgarlikdan ozod etish asosining prinsipi. Mazkur prinsip shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish asoslarini belgilab beradi. Shaxs:

birinchidan, jinoyat sodir etilgan vaqtda qonunga zid harakat qilganayotganini, qonun buzilayotganini anglaganini, qonun talablariga zid faoliyat olib borayotganligini tushunishiga imkon bermaydigan ruhiy kasallikka chalingan yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan taqdirda;

ikkinchidan, qonunga qarshi ish olib borayotganligini, xatti-harakatlarini qonun talablaridan kelib chiqib bajarish lozimligini anglash imkoniyatidan mahrum qiluvchi intoksikatsiya holatida bo'lsa (o'z xohishi bilan intoksikatsiya (zaharlanish) oqibatida sud yurisdiksiyasidagi jinoyatlar sodir etilishini bilgan yoki bunday harakat xavfliligini ko'rmaganga olgan holatlar bundan mustasno);

uchinchidan, agar shaxs harbiy jinoyatlar sodir etilgan holatlarda o'zini yoki boshqa bir shaxsni himoya qilish uchun atayin harakat qilgan bo'lsa, ushbu shaxs yoki boshqa bir shaxsning tirik qolishi uchun o'ta muhim bo'lgan voqealarni yoki harbiy xususiyatga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarishda muhim bo'lgan holatlarda harakat olib borsa, o'sha shaxsga yoki boshqa bir shaxsga nisbatan mavjud xavfning darajasidan kelib chiqib, ilojsizlikdan noqonuniy harakatlar olib borsa;

to'rtinchidan, shaxsning o'limi yoki og'ir turdagi tan jarohati yetkazilish xavfi tug'ilgan holatda Xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelgan harakat sodir etsa, o'zi yoki boshqa shaxsga nisbatan yuqoridagi aziyatlar yetkazilgan paytda bu xavfni, katta ziyon yetkazishni istamagan holda bartaraf etish, unga chek qo'yish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday xavf-xatarlar boshqa shaxslar tomonidan yoki bu shaxs bilan bog'liq bo'lmagan boshqa vaziyatlardan kelib chiqadi. Bu jihatdan sud unda ko'rilayotgan ish yuzasidan jinoiy javobgarlikdan ozod etish asoslari qo'llanilishini aniqlashi lozim. Sud jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi biror bir asosni ish bo'yicha sud jarayonlari boshlanmasidan oldin ko'rib chiqishi mumkin. Jinoiy javobgarlikdan ozod etish asoslarini qo'llash jarayoni himoya sud palatasi va Xalqaro Jinoyat Sudi Prokuroriga yuqorida aytib o'tilgan holatlardagi asoslarni taqdim etishdan iborat. Bu jarayonlarning barchasi sud jarayonlari boshlangunicha, prokuror tegishli tarzda ularga tayyorgarlik ko'ra olishi uchun, amalga oshirilishi lozim. Bunday xabardan so'ng sudning sudlov palatasi qaror qabul qilishdan oldin, himoya mazkur asoslardan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun foydalana olishini aniqlab, prokuror va himoyachini eshitib ko'rish lozim. Agar himoyachining bu asoslardan foydalanishiga ruxsat etilsa, sudning

sudlov palatasi prokurorga bu asoslar bilan bog'liq dalillarni tayyorlashi uchun tanaffus e'lon qiladi;

Dalillardagi yoki huquqdagi xato prinsipi. Mazkur prinsip keltirilgan faktidagi xato jinoyatning muhim subyektiv tomonini e'tiborga olmagan holatdagina jinoiy javobgarlikdan ozod etishga asos bo'la olishini aniqlashtiradi. Harakat sud yurisdiksiyasiga tushuvchi jinoyat ekanligi bilan bog'liq bo'lgan hollarda huquqdagi xato jinoiy javobgarlikdan ozod etilishga asos bo'la olmaydi, ya'ni sodir etilgan harakat sud yurisdiksiyasidagi jinoyatlar sirasiga kiritilmasa ham, sud bu masala bilan shaxsan shug'ullanmasa ham uni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi, sud bu masala bilan shaxsan shug'ullanmasa ham boshqa huquq-tartibot organlari, masalan, mahalliy sudlar tegishli tartibda uni jinoiy javobgarlikka tortishi lozim bo'ladi. Biroq huquqdagi xato aniq jinoyatning muhim, zaruriy tomonlarini ko'rib chiqmagan holatlarda jinoiy javobgarlikdan ozod etishga asos bo'la oladi;

Boshliqning buyrug'i va qonun imzolash prinsipi. Mazkur prinsip shaxs yuridik jihatdan davlat yoki boshliqning buyruqlarini bajarishga majbur bo'lsa yoki buyruq noqonuniyligini bila turib sud yurisdiksiyasiga tushuvchi jinoyatlarni boshliqning yoki davlatning (harbiy yoki fuqarolik ko'rinishida bo'lgan taqdirda ham) buyruqlari asosida sodir etsa ham jinoiy javobgarlikdan ozod etilmasligini bildiradi¹.


Shunday qilib, xalqaro jinoyat huquqining maxsus prinsiplari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari asosida shakllangan bo'lib, xalqaro huquq subyektlari ularga qat'iy rioya qiladi va ularni tan oladi.

Xalqaro jinoyat turlari

Xalqaro jinoyatlar deb insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi.

Xalqaro jinoyatlarning ro'yxati ilk bor 1945-yilgi Nyurnberg xalqaro harbiy tribunalining Nizomi va 1946-yilgi xuddi shunday Uzoq Sharq bo'yicha Tokio tribunalining Nizomida keltirilgan edi. Nyurnberg xalqaro harbiy tribunal Nizomining 6-moddasida xalqaro jinoyatlar uch guruhga bo'linadi:

¹Костенко Н.И. Международная уголовная юстиция. Проблемы развития. – М., 2002 – С.68–77.



Xalqaro Jinoyat Sudining Rim Statutida quyidagi nomlar bilan xalqaro jinoyat turlari belgilangan :

- 1) genotsid;
- 2) insoniyatga qarshi jinoyatlar;
- 3) harbiy jinoyatlar;
- 4) agressiya.

Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarning ro'yxati 1949-yilgi urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi I Protokolga qo'shimcha qilib to'ldirildi va ular "jiddiy huquqbuzarlik" deb tasniflangan.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar 1968-yilgi Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga muddat qo'llanmaslik to'g'risidagi konvensiyada ilk marotaba xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. O'shanda Insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga qurolli hujum va okkupatsiya natijasida aholini haydab chiqarish, aparteid, genotsid siyosatini olib borish oqibatida kelib chiqadigan nonsoniy harakatlar kiritilgan. 1973-yilgi Aparteid jinoyatlarining oldini olish va jazolash to'g'risidagi konvensiyada esa irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholandi.

1976-yilda BMTning Xalqaro huquq komissiyasi davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi moddalar loyihasini ma'qulladi. Bunga ko'ra ekosisid, qulchilik va mustamlaka hukmronligi ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi. Shu sababli xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqiladigan jinoyatlar soni ortib bordi.

Bunga 1991-yilda Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan qabul qilingan Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasi misol bo'la oladi. Bu Kodeksda jinoyatlar umumiy va xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga bo'linmaydi. Shuning uchun unda umum tan olingan qoidalarga asosan xalqaro jinoyatlar deb quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: agressiya, agressiya tahdidi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mustamlaka hukmronligi va chet el hukmronligining boshqa shakllari, genotsid, aparteid, inson huquqlarini doimiy va ommaviy ravishda buzish, alohida jiddiy harbiy jinoyatlar, atrof-muhitga qasddan va jiddiy zarar yetkazish.

Xalqaro jinoyatlarning aniq bir tizimga ega emasligi uni hujjatlarda har xil turlarga ajratilganligini ko'rish mumkin. Lekin shunga qaramasdan, xalqaro huquq normalari va davrlarning milliy qonunchiligini hisobga olib, xalqaro jinoyatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- tinchlikka qarshi jinoyatlar (agressiya);
- insoniyatga qarshi jinoyatlar (genotsid, aparteid, biotsid, yadro qurollarini tarqatmaslik kabilar);
- harbiy jinoyatlar (urush qoidalari va odatlarini buzish, yollanmachilik);
- xalqaro harakterdagi jinoyatlar (xalqaro terrorizm, qulchilik, giyohvandlik, odam savdosi, qiynoq, pullarni qalbakilashtirish, jinoiy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, ekologik jinoyatlar, madaniy boyliklarni yo'q qilish kabilar)

“Agressiya”(lot. aggressio, aggredior – xuruj, hujum qimoq) – xalqaro huquqda bir davlatning BMT Ustavini buzgan holda boshqa davlat yoki ma’lum bir davlatning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatishi.

Agressiyaga ta’rif BMT Bosh Assambleyasining 1974-yilgi 3314 (XXIX)-sonli Rezolutsiyasida keltirilgan.

“Genotsid” (tarjimasi – urug‘, qabilalarni o‘ldirish, qirg‘in qilish) irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilariga asosan butun bir aholini jismonan yo‘q qilishni bildiradi.

Bunday jinoyatning obyektiv tomoni 1948-yilgi Genotsidning oldini olish va unga jazo tayinlash to'g'risidagi Konvensiyada quyidagicha ta'riflangan edi:

E'tibor bering!

“Har qanday milliy, irqiy, etnik yoki diniy guruhlarini qisman yoki to'liq yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar genotsid deb tushuniladi”.

Genotsidga misol qilib Germaniya, Chili, Janubiy Afrika, Kampuchiya va boshqa mamlakatlarda totalitar rejim hukm surgan paytdagi qirg'inbarotlarni keltirish mumkin.

“Apartheid” (tarjimasi – alohida yashash) irqiy kamsitilishning keskin shakllaridan biri bo'lib, davlatlarning butun bir aholisining guruhi, irqiga ko'ra davlatdagi boshqa aholiga nisbatan huquqlari kamsitiladi, ular siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinadilar.

Bir irqning ikkinchi bir irq ustidan hukmronlikni o'rnatish va ushlab turish hamda ularga doimiy ravishda zulm o'tkazish uchun aholi maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi.

1973-yilda BMT Bosh Assambleyasi Apartheid jinoyatining oldini olish va buning uchun jazolash to'g'risida konvensiya qabul qildi. Unga ko'ra apartheid xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi, xalqaro huquqqa, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat deb topildi.

Bunday jinoyatning subyektlarini, qayerda sodir etilganidan va qanday sababga ko'ra sodir etilganidan qat'i nazar, davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot a'zolari va jismoniy shaxslar tashkil qiladi. Ijrochilardan tashqari apartheid aktlarini amalga oshirishda hamkorlik qilgan yoki qo'llab-quvvatlaganlar, bevosita yordam bergan shaxslar va tashkilotchilar ham jazoga tortiladi. Bunday jinoyatlarga nisbatan ham universal yurisdiksiya o'rnatilgan. Aybdorlar Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan biron-bir davlatning sudiga tortilishi mumkin. Zarur holda jinoyatchi biron-bir davlatga beriladi, chunki apartheid siyosiy jinoyat hisoblanmaydi. Shuning uchun jinoyatchilarni biron-bir davlatga ushlab berish (ekstraditsiya) o'sha davlatning milliy qonunchiligi yoki xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi (Apartheid jinoyatining oldini olish va uni sodir etganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi konvensiyaning 9-moddasi). Konvensiyada

davlatlar rozilik bergan taqdirda xalqaro jinoiy tribunal tashkil etish mumkinligi nazarda tutilgan.

“Ekotsid” (tarjimasi – uy, turar joylarni yo‘q qilish) xalqaro harbiy jinoyat bo‘lib, atrof muhitga, tabiatga sivilizatsiya uchun ijtimoiy xavfli tajovuz qilishni bildiradi.

Uning tarkibiy qismi harbiy ekosid, ya‘ni urushda dushmandan harbiy ustunlikka erishish va g‘alabani ta‘minlash uchun tabiiy shart-sharoitlardan majburiy foydalanish hisoblanadi. Bunda quyidagilarning farqini bilish kerak:

a) geofizik urushlar – vulqonlar, zilzilalarni majburiy ravishda o‘z foydasiga o‘zgartirish, ozon qatlamini vayron qilish, abadiy muzliklarga ta‘sir o‘tkazish va boshqacha shaklda Yer sharining tuzilishi yoki tarkibini sun‘iy o‘zgartirib, urushda g‘alaba qilish;

b) meteoroologik urushlar, texnik va boshqa vositalar yordamida bo‘ron, dovul, sunami, momaqaldiroq, ko‘chkilar vujudga keltirish, qor, yomg‘ir yog‘dirish va boshqa usullar bilan iqlimni o‘zgartirish;

d) yadro quroli, radiatsion, bakteriologik, zaharli, yondiruvchi, infratovushli, radiochastotali va shu kabi ommaviy qirg‘in qurollari (OQQ) va boshqa taqiqlangan qurollardan foydalanish.

Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasida bu jinoyatlar “oldindan o‘ylab va atrof-muhitga jiddiy zarar” yetkazadigan jinoyat deb ataladi, bunda atrof-muhitga, tabiatga uzoq vaqt va jiddiy zarar yetkazishga qasd qilinganligi tushuniladi. Bu moddaga berilgan sharhda atrof-muhitni himoya qilish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligi, shuning uchun sivilizatsiyaning asosiy manfaatlariga jiddiy qasd qilgan ijrochilarni xalqaro jinoiy javobgarlikka tortish ko‘rsatib o‘tiladi.

Shunday qilib, ekotsid insonni o‘rab turgan tabiatni tuzatib bo‘lmas darajada o‘zgartirishga olib kelish bilan bog‘liqdir. Ekotsidning xalqaro xavfi shundaki, uning oqibatleri chegara bilmaydi, bir davlatning ekologik muvozanati buzilishi undan ancha uzoqda bo‘lgan boshqa bir davlatning atrof-muhitiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

“Biotsid” (tarjimasi – hayotni tugatish) xalqaro jinoyat sifatida ekosiddan oxirgi o'n besh yil ichida ajralib chiqdi. Biotsidning ekosiddan farqi shundaki, u faqat insoniyatga qarshi qaratilgan bo'ladi.

Uning manbai agressiv urush va qurolli to'qnashuvlar hisoblanadi va shu jarayonda bu jinoyat amalga oshiriladi. Tinchlik davrida biosid amalga oshirilmaydi.

Keng ma'noda, “biotsid” so'zi qurolli mojarolarda g'alaba qozonish va dushman ustidan harbiy ustunlikka erishish uchun ommaviy qirg'in qurollari yordamida biosferani, ya'ni tirik organizmlar, tirik tabiat, odamlar va boshqa tirik mavjudotlarni maqsadli ravishda yo'q qilishni anglatadi.

Yadroviy moddalarni o'g'irlash. Yadro texnikasi va ishlab chiqarishi rivojlanishi bilan yadro moddalarini o'g'irlashga qarshi kurash muammolari ham yuzaga keldi. 1980-yil 3-martda yadroviy moddalarni jismoniy himoya qilish to'g'risida maxsus konvensiya qabul qilindi. Konvensiyada yadroviy moddalarni g'araz maqsadlarda o'g'irlash va tarqalishining xavfsizligini hisobga olib, himoya qilish, jinoyatchilarni ushlab berish va javobgarlikka tortish tartibi aniq belgilab berildi.

Konvensiya qoidalari tinchlik maqsadlarida ishlatilayotgan va xalqaro tashuvda bo'lgan yadro moddalariga nisbatan qo'llaniladi. Konvensiyada vakolatli organlarning ruxsatisiz oldindan o'ylab amalga oshirilgan quyidagi har qanday harakat jazoga loyiq huquqbuzarlik deb topilgan: kishilarning o'limiga yoki mayib bo'lishiga sabab bo'ladigan yoki mulkchilikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yadroviy moddalarni purkash, yo'q qilish, o'zgartirish, birovga berish, foydalanish, egalik qilish yoki olish; yadroviy moddalarni o'g'irlash yoki uni talash; yadro moddalarini aldash orqali o'zlashtirish, olish yoki sotish; kuch ishlatish yo'li bilan yoki kuch ishlataman deb tahdid solish yoki qo'rqitishning boshqa shakllari bilan yadro moddalarini berishga majbur qilish¹.

“Terrorizm” atamasi lotincha “terror” so'zidan olingan bo'lib, sarosimaga solish, qo'rqitish ma'nolarini anglatadi.

Xalqaro terrorizm xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, begunoh kishilarning o'limiga sabab bo'ladi, davlatlar va ular vakillarining

¹Ст. 7 Конвенция о физической защите ядерного материала от 3 марта 1980 г.

diplomatik vakolati buzilishiga olib keladi. Xalqaro uchrashuv va aloqalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi, shuningdek davlatlar o'rtasidagi transport aloqalarini izdan chiqaradi.

Terrorizm asosan begona hududda amalga oshiriladi va chet el davlati yoki davlatlari, shuningdek o'zining agressiv siyosiy maqsadlariga erishish uchun terrorchilik aktlaridan manfaatdor bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi.

1937-yilda 24ta davlat vakillari Terrorizmning oldini olish va uni tugatish to'g'risidagi konvensiya hamda terrorchilar va boshqa jinoyatchilarni sud qilish uchun Xalqaro jinoyat palatasi to'g'risidagi konvensiyani imzoladilar. Konvensiyada terrorchilik jinoyati deb hisoblanadigan harakatlarning ro'yxati to'la ko'rsatib berilgan va aybdor shaxslarni jazolash tartibi belgilangan. Konvensiya terrorchilik aktlarini amalga oshirishni maqsad qilib olganlarni jinoyiy guruhlar deb tan oladi. 1937-yilgi Konvensiya bir qancha davlatlar sababli kuchga kirmadi, lekin konvensiyaning ahamiyati shundaki, birinchi marta xalqaro siyosiy terrorizmni xalqaro xarakterdagi jinoyat deb kvalifikatsiya qildi.

Oxirgi o'n yillikda xalqaro konferensiyalar va tashkilotlarda diplomatlar va davlat vakillarining daxlsizligini buzish hollari ro'y berdi. Bu, o'z navbatida, xalqaro hamkorlik va xalqaro xavfsizlikka tahdid soladi. Bunday xavf 1973-yil 14-dekabrda Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar jumladan, agentlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish va ularni jazolash to'g'risidagi konvensiyaning davlatlar tomonidan qabul qilinishini tezlashtirdi.

Shunday qilib, hozirgi zamon terrorchilik faoliyatining an'anaviy shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Yadroviy terrorizm quol sifatida radioaktiv moddalardan foydalanishu nazarda tutadi.

Biologik terrorizm urush olib borishning biologik vositalardan (bakteriyalar, viruslar va sh.k.) foydalanib, aholuni eng ko'p darajada yo'q qilishga qaratilgan.

Kimyoviy terrorizm. Kimyoviy qurollar – yadroviy va bakterologik qurollarga nisbatan terrorchilik operatsiyalarini olib borish vositasi sifatida ancha oson va qulay hisoblanadi

Kiberterrorizm (kiberetik urush) - kompyuter tarmoqlariga hujum 90-yillar oxiriga kelib «kompyuter tenonizini» vujudga keldi. Hozirgi kunga qadar kibernetonizm hukumatlar tamog'iga sezilarli darajada zarar kelturmagan bo'lsa-da, ammo e'tibor bersh lozim bo'lgan omillardan bo'lib hisoblanadi.

Sonoviy terrorizm deganda bunncludan, Yening sun'iy yo'ldoshlari va boshqa kosmik apparatlarni yo'q qilish yoki ularning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qilish ikkincludan, terrorchilarni aloqa bilan ta'minlash yoki jangovar terrorchilik operatsiyalarida foydalanish uchun kosmik apparatlarni egallab olish tushiniladi.

Qulchilik, qul savdosi va odam savdosining boshqa shakllari.
Qulchilikni taqiqlash, aniqrog'i, qullar bilan savdo qilish masalasi ilk bor 1815-yilda Vena kongressida ko'rib chiqilgan va bunda Qullar bilan savdo qilishni bekor qilish to'g'risida deklaratsiya qabul qilingan edi. Bu deklaratsiya qulchilikni bekor qilmagan, balki qullar bilan savdo qilish va mahkumlarni bir joydan ikkinchi joyga tashishni taqiqlagan edi, xolos.

Hozirgacha amalda bo'lgan 1926-yil 25-sentabrdagi Qulchilikka qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya ham qulchilikni butunlay taqiqlash to'g'risida moddaga ega bo'lmay, Konvensiya ishtirokchilariga "bosqichma-bosqich" va qisqa muddatlarda qulchilikni tugatishni taklif qiladi. 1926-yilgi Konvensiya qullar bilan savdo qilishni taqiqlaydi va ishtirokchi davlatlarga inson bilan savdo qilishning har qanday shaklining oldini olish majburiyatini yuklaydi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng BMTda qulchilik masalasi ko'rib chiqildi. EKOSOS (Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash) qoshida qulchilik masalalariga bag'ishlangan maxsus Qo'mita tuzilgan bo'lib, bu Qo'mita qulchilik muammolarini o'rganib chiqdi va bir qancha mamlakatlarda qulchilikning mavjudligini aniqladi, shuningdek qulchilikka o'xshash institutlar mavjudligini ko'rsatib o'tdi.

1956-yilning 7-sentabrda “Qulchilikni, qul savdosini va qulchilikka o‘xshash institut va odatlarni tugatish to‘g‘risida” qo‘shimcha Konvensiya qabul qilindi. Bu konvensiya biror kishini qulga aylantirmoqchi bo‘lgan, qullar tashish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, qulga aylantirish uchun kishilarni turli qiynoqlarga soluvchi kishilar, qul qilib sotishga majbur qiluvchilarning jazoga tortilishini nazarda tutadi¹. 1956-yilgi Konvensiyada ham 1926-yilgi Konvensiyada bo‘lgani singari qulchilikni qisqa muddatda, tezlik bilan tugatish to‘g‘risida hech bir ko‘rsatma yo‘q.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish. Giyohvandlik vositalarini tarqatishga qarshi kurash bo‘yicha konvensiya, bitim va bayonnomalar qabul qilingan. Giyohvandlik jamiyat rivojlanishining doimiy hamrohi bo‘lib qoldi va unga qarshi bir qancha davlatlar va BMT organlari kurash olib borayotganiga qaramay, u o‘sib bormoqda. Buning asosiy sababi jamiyatdagi hayot tarzi va dunyodagi ko‘pgina davlatlarda giyohvandlik vositalarini tarqatish bilan noqonuniy ravishda shug‘ullanayotgan jinoiy tashkilotlar faoliyatining keng tarmoqlanib borayotganidir.

1961-yil 30-martda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi konvensiyada (ilgari amalda bo‘lgan barcha konvensiyalarning o‘rniga qabul qilingan) narkotik moddalarning ro‘yxati tuzildi².

Konvensiya davlatlarga o‘z hududida narkotik moddalarning tayyorlanishi va tarqatish ustidan nazorat o‘rnatishni nazarda tutadi, bunday moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish (sotish, sotib olish, tashish) bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibini tasniflab beradi.

1961-yilgi Konvensiyaga asosan 1968-yilda Giyohvandlik moddalarni nazorat qilish bo‘yicha xalqaro qo‘mita tuzilgan. Qo‘mitaning 13ta a‘zosi bo‘lib, ular EKOSOS tomonidan individual tartibda besh-yil muddatga saylanadi. Qo‘mita Giyohvandlik moddalar to‘g‘risidagi konvensiyaga hukumatlarning rioya etishini nazorat qiladi; davlatlardan giyohvandlik moddalarning yillik ishlab chiqarilishi, ishlatilishi, chetga chiqarilishi va chetdan olib kelinishi haqida, shuningdek qancha zaxiraga ega ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar so‘raydi; xalqaro savdo uchun giyohvandlik moddalar sotilishini aniqlaydi va giyohvandlik moddalar savdosi ustidan nazoratni amalga oshiradi; giyohvandlik moddalar savdosi, aylanishi, tarqalishi masalalari bo‘yicha davlatlarga axborot beradi va ularning

¹Ст.ст. 5-6, 17 Дополнительной конвенция об упразднении рабства, работорговли и институтов, обычаев, сходных с рабством от 7 сентября 1956 г

²Ro‘yxatiga qarang: <http://www.ecad.nv/oon/oon61-52.html>.

axborotini tinglaydi; zarur hollarda BMT oldiga EKOSOS orqali giyohvandlik moddalarini eksport va import qilishga embargo qo'yish masalasini qo'yadi.

Bundan tashqari, BMT doirasida 1946-yildan buyon giyohvandlik moddalar bo'yicha komissiya ishlamoqda. Bu komissiya EKOSOS tomonidan to'rt yilga saylanadi va giyohvandlik moddalarni ishlab chiqaruvchi hamda xarid qiluvchi 30ta davlat vakillaridan iborat komissiya nazorat qilinadigan giyohvandlik moddalarining ro'yxatini belgilaydi, ro'yxatga o'zgartishlar kiritadi, giyohvand moddalariga oid xalqaro bitimlarni nazorat qilish va hayotga tatbiq etish bo'yicha kengashga yordam beradi, ilmiy-texnik axborot almashish bo'yicha tavsiyalar beradi, giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish masalalari yuzasidan xulosalar tayyorlaydi, xalqaro konvensiya loyihalarini ishlab chiqadi. Komissiya, shuningdek psixotrop moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish masalasini ko'rib chiqib, Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya loyihasini tayyorlagan.

1971-yilning 21-fevralida Psixotrop moddalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi. Psixotrop moddalarga trunkvilizatorlar, amfetilinlar, barbituratlar, LSD va boshqalar kiradi. Konvensiya, odamlarning markaziy asab tizimi, fikri, xatti-harakatiga ta'sir qilib, miya funksiyasining buzilishi, gallyutsinatsiyaga olib kelishiga qarab psixotrop moddalar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish mezonlarini belgilab berdi¹.

BMTning Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi konvensiyasi ishtirokchi davlatlarga ochiq dengizda kemalar tomonidan amalga oshiriladigan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari bilan noqonuniy savdo qilishning oldini olishda hamkorlik qilish majburiyatini yuklaydi.

Dengizdagi qaroqchilik. Shaxsiy maqsadlarda xususiy kema yoki uchish apparati ekipaji yoki yo'lovchilari, boshqa kema yoki uchish apparatiga qarshi, bortdagi shaxslar yoki mol-mulkka nisbatan ochiq dengizda, biron-bir davlat yurisdiksiyasidan tashqarida sodir etilgan har qanday g'ayrihuquqiy akt, ushlab turish yoki har qanday bosqinchilik qaroqchilik hisoblanadi².

Qaroqchilikka qarshi kurash bo'yicha bir qancha bitimlar mavjud

- 1922-yilgi Vashington deklaratsiyasi;
- Ochiq dengiz haqidagi 1958-yilgi Jeneva konvensiyasi;
- Dengiz huquqi bo'yicha 1982-yilgi BMT konvensiyasi.

¹П. 4 ст. 2 Венской конвенции о психотропных веществах от 21 февраля 1971 г.

²Ст. 15 Конвенции об открытом море 1958 г.

Havo kemalarini noqonuniy egallash va fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qaratilgan boshqa noqonuniy aktlar. Samolyotlarni qo'lg'a olish va olib qochish, shuningdek fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga boshqacha aralashish ekipaj va yo'lovchilar hayotiga xavf soladi, havo transportining faoliyat tartibini buzadi. Hozirgi paytda davlatlarning havo transportidagi jinoyatlarga qarshi kurashi 1970-yil 16-dekabrda Havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi va 1971-yil 23-sentabrda Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risidagi Monreal konvensiyasi asosida olib borilmoqda.

Xalqaro jinoyat sudlari

Nyurnberg va Tokio Xalqaro harbiy tribunallari. Ikkinchi jahon urushi paytida ittifoqchilar og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'ri va adolatli bo'lishi lozimligini talab qildilar.

1943-yil 30-oktabrdan boshlab gitlerchilar sodir etgan vahshiyliklar uchun javobgarlik to'g'risidagi Moskva deklaratsiyasi qabul qilindi. Moskva deklaratsiyasiga ko'ra, gitlerchilarning qilgan jinoiy harakatlari va vaxshiy jinoyatlari uchun javobgarlikka tortib, jinoyatni qayerda sodir etganliklaridan qat'i nazar, ularni sudlash edi. Sud qidiruv, tergov va jazolashni milliy yurisdiksiyalarga asoslanmagan holatda ham amalga oshirishni lozim deb topdi.

1945-yil 8-avgust kuni Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH va SSSR hukumatlari tomonidan uzoq muzokaralar natijasi o'laroq, Londonda Xalqaro harbiy tribunal tashkil qilishga kelishib olindi.

Kelishuvga asosan Xalqaro harbiy tribunal Nizomi tuzildi. Unga binoan to'rt nafar sudya va ularning o'rinbosarlari, bevosita kelishuvda ishtirok etgan to'rtta hukumatdan ikkitadan vakil hamda shu davlatlarning jazo aktlarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'ruvchi va dalillarni keltiruvchi ayblov komissiyasi tuzildi.

Nyurnberg Nizomida uning yurisdiksiyasi belgilanib, umumiy tamoyillari qabul qilindi. Nizomga binoan jinoiy javobgarlikka tortish, sudlash va harbiy jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan joriy qilingan hukmlarni ijro etish Tribunalga topshirildi.

Shu tariqa, Xalqaro harbiy tribunal jinoyatchi Germaniya gitlerchilarining harbiy boshliqlarini javobgarlikka tortuvchi uchta asosiy xalqaro jinoyat turini belgiladi. Nizomning 6-moddasida tinchlikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarni jinoiy

javobgarlikka tortish subyektlari va doirasi ko'rsatildi. Ular tarkibiga boshliqlar, tashkilotlar, yollanganlar va vazifa topshirilganlar, og'ir jinoyat deb topilgan holatlarning birortasini amalga oshirishda yoki amalga oshirish maqsadida kelishuv va shartnomalarda ishtirok etganlar kiritildi.

Nizom hamda Xalqaro harbiy tribunalning shakllanishida davlatlar faqat Birlashgan Millatlar Tashkilotining munosabatidan kelib chiqib yondashdilar va o'z oldilariga butun dunyo hamjamiyati nomidan harbiy jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadini qo'ydilar.

Yaponiyaning asosiy harbiy jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortishning xuddi shunday tamoyillari Tokio xalqaro tribunalining Nizomiga kiritildi.

1945-yil 3-sentabrda militar Yaponiya uchun Ikkinchi jahon urushi mag'lubiyat bilan yakunlandi. Yapon militaristlari dunyo xalqlariga nisbatan o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishdi. Bu bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechimi sifatidagi Potsdam konferensiyasida yapon harbiylarini javobgarlikka tortish masalasi qo'yildi. 1945-yil dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan. SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlarining majlisida Yaponiya uchun ittifoq birlashmasi, Uzoq Sharq uchun kompetensiya va komissiya tashkil etish ma'qullandi.

Uzoq Sharq komissiyasi yapon harbiy jinoyatchilarini hibsga olish, sud qilish va javobgarlikka tortish masalalarini aniqladi hamda 1946-yil 19-yanvardagi boshqaruvchi ittifoq mamlakatlarning munozaralaridan so'ng Uzoq Sharq uchun Xalqaro harbiy tribunalning Nyurnberg Tribunalinikiga o'xshash Nizomi tasdiqlandi.

Tribunal 20 nafar sudlanuvchi ustidan hukm chiqardi. Tokio Tribunali hukmlarida harbiy asirlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan javobgarlikka tortish masalasi keng miqyosda ko'rib chiqildi. Bu masala Nyurnberg Tribunalida alohida ko'rib chiqilmagan edi.

Nyurnberg va Tokio Tribunallarining hukmlari xalqaro huquq tarixida insoniyatga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlarni sud qilishning ilk xalqaro sud aktlari ekanligi hamda bu jinoyatlarning sodir etilishini asosiy qo'llab-quvvatlagan boshliqlari, tashkilotchilari, ijrochilari muqarrar hukm qilinib, shafqatsiz jazolanganligi bilan ulkan ahamiyat kasb etadi. Nyurnberg va Tokioda chiqarilgan hukmlar tarixiy saboqlarni unutgan holda harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etuvchi hukumat vakillari, alohida yuqori lavozimdagi shaxslar, agressiv doiralar uchun jiddiy ogohlantirish bo'lib xizmat qildi.

Sobiq Yugoslaviya va Ruanda Xalqaro harbiy tribunallari. Sobiq Yugoslaviya va Ruanda hududida xalqaro huquqning buzilishi va

insonlarning jabrlanishiga sabab bo'lgan harakatlar BMT Xavfsizlik Kengashining 1993 va 1994-yillarda ikkita favqulodda xalqaro jinoiy sud – sobiq Yugoslaviya hududida xalqaro huquqning jiddiy buzilishi va jinoiy harakatlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan shaxslarni sud qiluvchi xalqaro jinoiy tribunal, 1991-yilda hamda 1994-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davr mobaynida Ruanda va qo'shni mamlakatlar hududida amalga oshirilgan genotsid, xalqaro huquqning buzilishi, Ruanda aholisiga nisbatan genotsid jinoyati va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etgan shaxslar ustidan jinoiy ish ochish va sud qilish bilan shug'ullanish uchun xalqaro jinoiy tribunal tashkil etishni taqozo etdi.

Sobiq Yugoslaviyadagi holatning maqomi 1949-yildagi Jeneva konvensiyasidan kelib chiqqan holda xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi hamda insoniyat va genotsidga qarshi jinoyatlarga tegishli bo'lib, Tribunalning yurisdiksiyasiga kiritilgan.

Ruanda voqeasi uchun Tribunal xalqaro xususiyatga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlar, genotsidga oid, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlarni hamda 1949-yildagi Jeneva konvensiyasidan kelib chiqib va 1977-yildagi bu Konvensiyani to'ldiruvchi, xalqaro xususiyatga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlar normalarini o'z ichiga oluvchi Ikkinchi hisobotga asosan urush qurbonlarini himoyalash to'g'risidagi umum qabul qilgan normalarning buzilishi jinoyatlarini ko'rib chiqish maqsadida tashkil etildi.

Xalqaro tribunallarning yurisdiksiyalari jismoniy shaxslarga ularning Nizomdagi o'rniga mos ravishda tarqatiladi.

Xalqaro tribunallarning tashkil etilishi sodir etilgan jinoyatlarga milliy sudlarning munosabatlarini e'tiborga olmagan holda amalga oshirilishiga e'tibor berish lozim. Bundan kelib chiqadiki, tribunallar bunday jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslar bilan bog'liq jinoyatlarni to'liq hal eta olmaydi. Lekin aynan o'sha ish yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atish xalqaro Tribunal vakolatiga kiritilgan.

Demak, Yugoslaviya va Ruanda uchun tashkil etilgan Xalqaro tribunallar davlatlarning faol harakatisiz ish olib bora olmaydi. BMT Nizomining VII bobiga binoan Xavfsizlik Kengashi chiqargan qaror barcha davlatlarga sud qarorlarini amalga oshirishda zaruriy choralar ko'rish vazifasini yuklaydi. Tribunallarning Nizomlari davlatlarga yordam ko'rsatish, aybdorlarni qidirish, topish va tribunallarga topshirish majburiyatlarini yuklaydi. Bularning barchasi jinoiy va jinoiy-protsessual qonunchilikka tegishli qoidalar kiritilishini talab qiladi.

Shu asnodagi Yugoslaviya va Ruanda yuzasidan ish ko'ruvchi xalqaro tribunallarning tashkil etilishi va faoliyati sud qurilmalari va xalqaro jinoyat huquqida muhim qadam bo'ldi hamda Xalqaro jinoyat sudi tashkil etilishiga turki bo'ldi.

Xalqaro jinoyat sudi. Jahon hamjamiyatiga butun dunyoda sodir etiladigan xalqaro jinoyatlarni ko'rib chiqqan sud zarur edi. Bundan tashqari, ayni paytda milliy sudlar jazosidan qochgan jinoyatchilarni javobgarlikka tortib oluvchi, haqiqatan ham jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradigan qat'iy mexanizm zarurati vujudga keldi.

BMT Xalqaro jinoyat sudi ko'rinishida Nyurnberg tribunalining tamoyillarini qabul qilganiga ham yarim asrdan oshdi. Nyurnberg tribunali *ad hoc* tribunal hisoblansa-da, uning tamoyillari xalqaro jinoyat huquqiga asos bo'lgan. Qat'iy e'tirof etish mumkinki, keyingi bosqichlarda hukumatlar doimiy xalqaro jinoyat sudi zarurligini nafaqat tushunib yetishdi, balki tashkil etiluvchi institutning asosiy parametrlarini yaratishdi hamda bu oddiy bo'lmagan masalaning yechimi yo'lida amaliy harakat boshlashdi.

Milliy yurisdiksiyalar hal etish layoqatiga ega bo'lmagan xalqaro (transmilliy) jinoyatlarni sud qiluvchi xalqaro doimiy jinoyat sudi yaratish fikri XX asr boshlaridayoq paydo bo'lgan. 50-yillarning boshlarida Xalqaro jinoyat sudi maqomidagi ilk loyiha paydo bo'lgan, ammo siyosiy sabablar ta'sirida uning ustida ish olib borish to'xtab qolgan.

BMTning Xalqaro huquq komissiyasi BMT Bosh Assambleyasi topshirig'iga binoan uzoq tanaffusdan so'ng 1982-yil uzilib qolgan ishini davom ettirib, tinchlikka, xavfsizlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar haqida avval yaratilgan Kodeksni yangilashga kirishdi. Natijada shunday to'xtamga kelindiki, agar insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kodeksi o'zi bilan xalqaro jinoyat sudini yaratmasa, haqiqiy hisoblanmaydi¹.

1989-yilda dunyodagi siyosiy vaziyat o'zgarishi bilan Xalqaro jinoyat sudini yaratish jarayoni boshlandi. Xorvatiya, Bosniya-Gersegovina va Kosovodagi Serb agressiyasi amalga oshirgan uyushgan jinoyatchilik harakatlarida ko'pchilik davlatlar Xalqaro jinoyat sudini yoqlab chiqdilar.

1989-yilda BMT Bosh Assambleyasi 44/39-rezolutsiyasida buni hisobga olib, insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyat harakatlarni ko'rib chiquvchi Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish masalasi bilan shug'ullanishni Xalqaro huquq komissiyasiga taklif etdi. Xuddi shunday rezolutsiya Karib orollari mamlakatlari tomonidan ham

¹UN Reports. S/25704. 1993. 3 May. P. 7

1990-yilda qabul qilingan. Komissiya bunday xalqaro jinoyat sudini tashkil qilish masalasini ko'rib chiqqan edi¹.

BMT Bosh Assambleyasi ushbu masalani nazorat qilgan holda 1990-yil 28-noyabrdagi 45/41 va 1991-yil 9-dekabrda 46/54-rezolutsiyalarida takroran Xalqaro jinoyat sudini yaratishga faol amaliy harakat qilish talabi bilan chiqdi.

Xalqaro huquq komissiyasi 1991-1992-yillarda qabul qilingan Insoniyat tinchligiga va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kodeksi ustida faol ish olib borib, Xalqaro jinoyat sudini yaratish masalasini ko'rib chiqdi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun Xalqaro jinoyat sudi yaratilishi lozim degan fikrga kelgan ishchi guruh ko'p tomonlama shartnoma maqomidagi loyihani qabul qilgan.

1992-yilda BMT Bosh Assambleyasi Xalqaro huquq komissiyasi ma'ruzasiga asosan 47/33-rezolutsiyasida qaror qabul qilgan va davlatlarga BMT Bosh Kotibiga ishchi guruhning ma'ruzasi yuzasidan yozma ravishdagi mulohazalarini taqdim etishni taklif qildi. O'z navbatida, Xalqaro jinoyat sudini tashkil qilish to'g'risida ko'p tomonlama shartnoma ishlab chiqish loyihasi ustida faol ish olib borayotgan Xalqaro huquq komissiyasini qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur masalaga urg'u bergan.

1994-yilda Xalqaro huquq komissiyasi ishchi guruh tomonidan tayyorlangan loyihani qabul qilib oldi va, o'z navbatida, bu loyihani ko'rib chiqish, Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qabul qilish uchun diplomatik konferensiya tashkillashtirish taklifini berdi².

Shu tariqa, BMT Xalqaro huquq komissiyasi avval mavjud bo'lmagan Xalqaro jinoyat sudi, yangi tizim yaratish yo'lidan borgan.

BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 15-dekabrda 51/207-rezolutsiyasida 1998-yilda Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish to'g'risida konvensiya qabul qilish va loyihani yakunlash maqsadida diplomatik konferensiya o'tkazishni belgiladi.

Italiya hukumati Xalqaro jinoyat sudi tashkil qilish to'g'risidagi masalalarni hal etish bo'yicha Diplomatik konferensiyaning aynan o'z hududida 1998-yil 15-iyun–17-iyulda bo'lishiga chin dildan xohish bildirdi va Bosh Assambleya o'zining 1997-yil 15-dekabrda 52/60-rezolutsiyasida BMTga teng huquqli a'zo davlatlarning Xalqaro

¹UNReports A/45/10. – P.106–165.

²Верещетин В.С. О работе 46-й сессии Комиссии международного права ООН // Международный журнал международного права. – 1994. – №4. – С.36–43.

jinoyat sudi to'g'risidagi diplomatik konferensiyasini Rim shahrida o'tkazish taklifini mamnuniyat bilan qabul qildi.

BMT Bosh Assambleyasi Tayyorlov qo'mitasidan 1996-yil 15-dekabrda 51/207-rezolyusiyasiga munosib holda ishni davom ettirishni so'radi. Tayyorlov qo'mitasi 1998-yil 16-mart–3-aprelda Xalqaro jinoyat sudi loyihasi konvensiyasining ishini tugallash o'zining Konferensiya sessiyasini o'tkazish vaqtiga to'g'ri kelgan.

Konferensiya 1998-yil 15-iyundan 17-iyuldagacha BMTning Rimdagi Qishloq xo'jaligi tashkiloti qarorgohida o'tkazildi.

Shu tariqa, 1998-yil 17-iyulda Konferensiyada jinoyatlar, sud ishi tartibi, uning davlatlar bilan o'zaro aloqalari aniqlangan Rim Xalqaro jinoyat sudi ko'pchilik ovoz (120 nafar tarafdor, 7 nafar qarshi, 21 nafar betaraf) bilan ma'qullandi.

BMT Bosh Kotibi Xalqaro jinoyat sudi hujjatlarini imzolash paytida, 1998-yil 17-iyulda: "Sudning tashkil etilishi kelajak avlodlarga yana umid beradi va u inson huquqlari to'g'risidagi umumiy qonun sari qo'yilgan ulkan qadam" deb nutq so'zlagan.

Xalqaro jinoyat sudi loyihasi 60ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingach kuchga kirishi lozim edi. 2002-yil 12-aprelda bu amalga oshdi, 10ta davlat vakillari BMT Bosh Kotibi Kofi Annanga BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida ratifikatsiya yorliqlarini taqdim etdi. Bugungi kunda Sudning a'zo davlatlarining soni 124tani tashkil etadi¹.

Xalqaro jinoyat sudining qarorlari ortga qaytish kuchiga ega emas, ya'ni 2002-yil 1-iyuldan, ya'ni Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti rasman kuchga kirgan kundan boshlab sodir etilgan jinoyatlarga sudning yurisdiksiyasi joriy qilinadi (11-modda).

Davlatlarning jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorligi


Ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiya va qonunlariga muvofiq, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro huquq normalarining ustuvorligi belgilandi. Bu esa xalqaro huquq standartlarining milliy qonunchilikka tatbiq etilishi, qonunlarni ularga muvofiqlashtirish masalalariga yangicha qarash zaruratini yuzaga keltirdi. Milliy qonunchilik va tegishli tartib-qoidalarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi, o'z navbatida huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini, ayniqsa jinoyat sodir qilgan shaxslar va protsessning boshqa subyektlari huquq va

¹<https://www.icc-cpi.int/>

manfaatlarini ta'minlashga doir qonunchilikni takomillashtirishni talab qiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam hamda ekstraditsiya institutlari jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu holda xalqaro huquqiy hamkorlik turli ko'rinishlarda bo'ladi. Shuning uchun uni ikki asosiy yo'nalishda ta'riflash mumkin, ya'ni bunday hamkorlikning mazmuniga ko'ra va xalqaro bitimning darajasiga ko'ra.



Xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorligini tartibga solishga yo'naltirilgan norma va tamoyillar majmui sifatida qonuniylik va huquq-tartibotni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Zero, qonuniylik va huquq-tartibotga jinoyat qilmish uchun javobgarlikning muqarrarligi so'zsiz ta'minlangan sharoitdagina samarali amal qilinishi mumkin.

Xalqaro jinoyatlarga qarshi kurash to'g'risidagi ko'p tomonlama konvensiyalarda jinoyatchilarni ushlab berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilingan davlatga yuridik majburiyat sifatida qaralmaydi. Biroq Konvensiyalarning ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'zlarida o'rtasida tuzilayotgan shartnomalarda xalqaro jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchilarni ushlab berishni o'zlariga majburiyat qilib olganlar. Hatto davlatlar o'rtasida jinoyatchilarni ushlab berish to'g'risida maxsus shartnoma bo'lmagan taqdirda ham bu ko'p tomonlama Konvensiyalarning har biri davlatlar tomonidan shunday jinoyat qilgan shaxslarni ushlab berish uchun yuridik asos sifatida ko'rib chiqilishi,

xalqaro jinoyatlar to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomalarda bundan ham keskinroq choralar belgilanishi mumkin.

Qayd etish joizki, Xalqaro jinoyat sudiga hamda harbiy tribunallarga xalqaro jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish masalasi ham juda muhim hisoblanadi. Bu borada, mazkur Sudlarning Nizom va Statutlarida qayd etilganidek, a'zo davlatlar o'rtasida kelishib olinadi.

Jinoyat sodir qilgan shaxslarni ekstraditsiya qilish xalqaro-huquqiy institut ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, xalqaro huquqning ushbu instituti tayanadigan xalqaro-huquqiy asoslarga alohida to'xtalib o'tish zarur. Zotan, xalqaro hamjamiyatning ekstraditsiya institutining huquqiy asoslarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratayotganligi bejiz emas.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stiligi doirasida uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, jumladan ekstraditsiya masalalari borasida bir qator muhim tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi:

– “Uyushgan jinoyatchilik va xavfli jinoyatlarning boshqa turlariga qarshi kurash borasida 2000-yilgacha mo'ljallangan o'zaro chora-tadbirlar to'g'risida”gi davlatlararo dasturning qabul qilinishi;

– 1993-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning ichki ishlar vazirliklari huzurida uyushgan jinoyatchilik va xavfli jinoyatlarning boshqa turlariga qarshi kurash bo'yicha Byurolar ochilishi;

– Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida 1993-yilda tuzilgan Minsk konvensiyasi;

– MDH davlatlari o'rtasida 2000-yilda imzolangan Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Kishinyov konvensiyasida Minsk konvensiyasi yanada mukammallashtirilgani va mintaqada o'zaro hamkorlikning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilganligini ko'ramiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi 20ga yaqin jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik qilish to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlar imzolagan. Sudlanganlarni jazo o'tash uchun topshirish masalalari bo'yicha bitimlar ham mavjud.

Mazkur bitimlar asosida odatda quyidagi masalalar tartibga solinadi: jinoyat sodir etuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni ayirboshlash; tayyorlanayotgan va sodir etilgan jinoyatlar haqida axborot almashish; sud qarorlarining ijrosiga ko'maklashish; boshqa davlat hududida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan fuqarolarga, shu jumladan, o'z fuqarolariga qarshi jinoyat ta'qibni amalga oshirish; shaxslarni javobgarlikka tortish

maqsadida qidirish; shaxslarni ushlab berishni ta'minlash maqsadida qamoqqa olish.

Ma'lumki, jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik jinoyat ishlari bo'yicha ushlab berish va talab etish to'g'risida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar yoki ekstraditsiya masalalari to'g'risidagi ko'p tomonlama konvensiyalarda ko'zda tutilgan bo'lishi bilan birga ichki qonunchilik normalarida ham o'z aksini topgan.

Shu o'rinda, O'zbekiston qo'shilgan eng muhim konvensiyalardan biri 1993-yil 22-yanvardagi Minsk konvensiyasi hisoblanadi. Uning mazmuni Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Gruziya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina o'rtasida fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlar bo'yicha huquqiy munosabatlar va huquqiy yordamni tartibga solishga bag'ishlangan. O'zbekiston ushbu konvensiyani 1994-yil 21-fevralda ratifikatsiya qilgan bo'lib, unga hozirga qadar amal qilib kelmoqda. Minsk konvensiyasi jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatishning turli jihatlarini, jumladan ekstraditsiya masalasini ham tartibga soladi. Xususan, unda ekstraditsiyani amalga oshirish tartibi, shartlari va protsessual masalalari tartibga solingan. Konvensiya chambarchas geosiyosiy aloqalar bilan bog'langan va, eng muhimi, milliy qonunchilik hamda odil sudlov tizimi o'zaro yaqin bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2002-yil 7-oktabrda esa MDH davlatlari Minsk konvensiyasi qoidalariga va uni qo'llash bo'yicha to'qqiz-yillik tajribaga asoslanib, Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Kishinyov konvensiyasini imzoladilar. Shundan so'ng, Minsk konvensiyasi Kishinyov konvensiyasini ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun o'z kuchini yo'qotdi (uni ratifikatsiya qilmagan davlatlarga nisbatan amal qilishda davom etmoqda).

Kishinyov konvensiyasini uning ishtirokchilari sifatida Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Molodova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va Ukraina Respublikalari uni imzoladilar. Hozirda ushbu Konvensiya Armaniston (19.02.2005), Belarus (27.04.2004), Ozarbayjon (27.04.2004), Qirg'iziston (01.10.2004), Qozog'iston (27.04.2004) va Tojikiston (17.05.2005) Respublikalari uchun kuchga kirgan.

Shu ma'noda ekstraditsiya jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyatchilarni ta'qib etishning davlatlararo darajadagi eng samarali

usullaridan biri bo'lib, amaliyotda shaxs huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning samarali tizimini ta'minlaydi hamda, jinoyat sodir etgan shaxs, qayerda bo'lishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortilishi muqarrar ekanligini kafolatlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlarning roli

Xalqaro miqyosdagi korrupsiyaga qarshi vositalar huquqiy majmuasida korrupsiyaga qarshi kurashni ta'minlashga mo'ljallanganlari alohida ahamiyat kasb etadi. Universal, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar shunday xalqaro huquqiy vositalar sirasiga kiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda turli davlatlar milliy qonunchiligining umumiy yondashuvini birxillashtirishda BMT, Yevropa Kengashi, Xalqaro bank, Amerika davlatlari Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi xalqaro tashkilotlar katta rol o'ynaydi.

BMT tomonidan korrupsiyaning xalqaro xarakteri, uning transmilliy ekanligi anglanishi davlatlararo darajada choralar qabul qilinishini talab etdi. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov sohasidagi dasturlari doirasida amalga oshiriladigan Global dasturlarning diqqat markazida korrupsiya muammosi turadi.

BMTning Global dasturlari doirasida mamlakatlarda korrupsiyani aniqlash va oldini olishda yordam ko'rsatiladi. Dasturga muvofiq har qanday milliy dasturning maqsadi quyidagilardan iborat:

birinchidan, korrupsiyalashuvning ehtimoli va kelib chiqish sabablarini aniqlash;

ikkinchidan, vijdonini sotmaslikning shunday muhitini yaratish kerakki, bu uning shtirokchilarining o'yin qoidalari va fe'l-atvorini o'zgartirsin;

uchinchidan, pirovardida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash.

Xususan, dastur doirasida davlat xaridlari va xalqaro tijorat bitimlari sohasida yuqori shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga ko'maklashuvchi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, sudyalalar, prokurorlar, huquqni muhofaza etuvchi va moliyaviy organlar uchun siyosatni ishlab chiqishga mas'ul shaxslar uchun o'quv tashkil etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan sohada qabul qilingan dastlabki xalqaro hujjatlardan biri BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1975-yil 15-dekabrda qabul qilingan rezolutsiya hisoblanadi. U "korrupsiyaning barcha ko'rinishlari"ni qoralab, "hukumatlarni ularning milliy" yurisdiksiyasi

doirasida bunday korrupsiyaning oldini olish va huquqbuzarlarni jazolash uchun barcha zarur choralarni ko'rishga chaqiradi.

Keyinchalik BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan munosabatda bo'lish bo'yicha Sakkizinchi Kongressida maxsus "Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya" rezolutsiyasi qabul qilindi.

Unda BMT Kotibiyati tomonidan tayyorlangan eng muhim qo'llanma "Korrupsiyaga qarshi kurashning amaliy choralari" qabul qilindi.

Rezolutsiya a'zo davlatlarga korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqish hamda korrupsiyaning barcha turlariga jinoiy-huquqiy munosabat bildirishning mosligiga doir masalani ko'rib chiqish va boshqalarni tavsiya etadi.

1996-yilda BMT Bosh Assambleyasi (BMT BA) "Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyutsiyasi"ni qabul qildi, u korrupsiyaning xalqaro jihatlari bilan bog'liq, ayniqsa, korporativ tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy faoliyatga nisbatan muammolarni diqqat bilan ko'rib chiqishga chaqiradi.

Shuningdek, BMTning 1996 yilgi "Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risida"gi deklaratsiyasi ham ma'lum, unga muvofiq davlat, boshqa masalalar bilan bir qatorda, xorijiy davlatlar mansabdor shaxslari poraxo'rlikni qattiq jinoyat sifatida ko'rib chiqish hamda BMTga a'zo davlatning istalgan xususiy yoki davlat korporatsiyasi yoxud jismoniy shaxsidan har qanday davlat amaldori yoki boshqa mamlakatning vakillik organiga saylangan shaxsi tomonidan pora sifatida olingan mablag'ni soliqqa tortilishdan ozod etilishini bekor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Shunday qilib, BMT korrupsiya muammosining xalqaro xarakterini e'tirof etdi va unga qarshilik ko'rsatishning hamma tan oladigan shakl va metodlarini topishga harakat qilmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarning barchasi tavsiyaviy xarakterga ega hamda muammoni hal etishga amalda ta'sir ko'rsatmaydi. Biroq mazkur hujjatlar ko'rib chiqilayotgan masalaga nisbatan xalqaro normalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi hamda davlatlarning ichki huquqlari normalariga ta'sir ko'rsatishga qodir.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Uyushgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi konvensiyaning qabul qilinishi muhim bosqich bo'ldi, u a'zo davlatlar uchun majburiy xarakterga ega. Mazkur Konvensiyaning maqsadi uyushgan transmilliy jinoyatchilikning oldini yanada samaliroq olish va unga qarshi kurash ishidagi hamkorlikka ko'maklashishdan iborat.

Transmilliy korrupsiya biror-bir mamlakatda iqtisodiy faoliyat olib borish yoki uni davom ettirish yoxud nomunosib ustunlikka erishish maqsadida xorijiy mansabdor shaxslarni pora evaziga o'z tomoniga og'dirib olish shaklida namoyon bo'ladi.

Xalqaro kelishuvda ilk bor uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshirilgan jinoiy daromadlarni legallashtirish singari jiddiy jinoyatlarda ishtirok etganlik yoxud ulardan foyda olganlik uchun javobgarlik qat'iy belgilandi.

BMTning mazkur Konvensiyasi bir qator mufassal tushunchalarni taqdim etadi, uyushgan jinoiy guruh, jiddiy jinoyat, tarkiban rasmiylashgan guruh, jinoiy daromadlarni legallashtirish, asosiy huquqbuzarlik va boshqalar shular jumlasidandir (2-modda). Konvensiyada uyushgan jinoiy guruhda ishtirok etishning kriminallasuvi (5-modda), jinoiy daromadlarni legallashtirishning kriminallasuvi (6-modda) ko'zda tutilgan, shuningdek korrupsiya aktlarini, ya'ni pora olish va pora berishni kriminallashtirish hamda ichki qonunlar uchun yagona standartlar asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashni ta'minlash maqsadida oshkora mansabdor shaxslar orasida korrupsiyaning oldini olish va aniqlash uchun qonunchilik va boshqa choralarni qo'llash talablari (8-modda va 9-modda) ham ko'zda tutilgan.

Biroq BMT Konvensiyasida bayon etilgan qoidalarning butun ijobiyiligiga qaramasdan jahon hamjamiyati oldida hamon korrupsiyani bartaraf etish uchun global yondashuvni ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi alohida tamoyillar va fe'l-atvor standartlarini qabul qilish zarurati qolmoqda edi.

Natijada BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil oktabrdagi 58-sessiyasida BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi qabul qilindi.

Mazkur Konvensiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

korrupsiyani yanada samaraliroq va ta'sirchanroq oldini olish hamda unga qarshi kurashga yo'naltirilgan choralar qabul qilish va ularni mustahkamlashga ko'maklashish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va texnik yordamni rag'batlantirish, yengillashtirish va qo'llab quvvatlash, shu jumladan aktivlarning qaytishi yuzasidan choralar ko'rishni, halollik va vijdonini sotmaslikni, mas'uliyatni hamda oshkora ishlarni va xalq mulkini munosib ravishda boshqarishni rag'batlantirish (1-modda);

Konvensiya barcha mamlakatlar o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi huquqiy normalari va davlat tomonidan tartibga solish

rejimlarini mustahkamlash uchun qo'llashlari mumkin bo'lgan keng qamrovli standartlar paketlarini, tadbirlar va qoidalarini joriy etadi. U korrupsiyaning oldini olish yuzasidan choralar ko'rishga chaqiradi va davlat sektorida ham, xususiy sektorda ham korrupsiyaning ko'p uchraydigan shakllarini qonundan tashqari deb e'lon qiladi.

Konvensiya, shuningdek hujjat qoidalarini amalga oshirish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ – Konvensiya ishtirokchi davlatlari Konferensiyasini ta'sis etdi.

Bundan tashqari, Konvensiya oshkora mansabdor shaxslarning mulkiy holatini, daromad va xarajat manbalarini tekshirishning ta'sirchan moliyaviy nazorat mexanizmini yaratishni, ... e'tirof etishga asoslangan tadbirlarni qo'llash orqali aktivlarni qaytarish imkoniyatini ko'zda tutadi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda BMT jahon hamjamiyatining zo'r berishi orqali korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy poydevorini shakllantirishda muvofiqlashtiruvchilik funksiyasini o'z zimmasiga olgan degan xulosaga kelish qiyin emas.

Yevropa Kengashining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi Konvensiyalari. 1996-yilda Yevropa Kengashi Ministrlar Qo'mitasi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha harakatlar Dasturini qabul qildi, uning doirasida ikkita konvensiya – 1999-yil 27-yanvardagi Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya va 1999-yil 4-noyabrdagi Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiya tayyorlandi va imzolash uchun ochildi.

Hozircha Yevropa Kengashiga kirmaydigan, taklif etilgan Yevropa davlatlari hamda Yevropaga oid bo'lmagan davlatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya va boshqa ayrim davlatlar ularni ishlab chiqishda ishtirok etishdi) ham ikkala konvensiyaning ishtirokchilari bo'lishlari mumkin.

Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish maqsadida Konvensiyalar ishtirokchilari ichki huquq normalariga quyidagi majburiyatlarini oladi:

korrupsiyaga bosh qo'shish,

bunday ishlar bo'yicha jinoiy yurisdiksiya;

yuridik shaxslarning javobgarligi, sanksiya va boshqa ta'sir choralari;

odil sudlov bilan hamkorlik qiluvchi shaxslar va guvohlarni himoya qilish;

dalillar to'plash va daromatlarni musodara qilishga ko'maklashish yuzasidan choralar;

korrupsiyaga qarshi kurash organlari va mansabdor shaxslarni ixtisoslashtirish;

mamlakat ichida huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligini ta'minlash.

Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyaning kirish qismida tegishli qonunchilik va oldini olish choralari qo'shgan holda jamiyatni korrupsiyadan himoya qilishga qaratilgan umumiy jinoyatga doir siyosatni birinchi galda o'tkazish zarurligi ta'kidlanadi.

Konvensiya ishtirokchi davlatlarining jinoyat huquqi sohasidagi xalqaro hamkorligini kengaytirish, faollashtirish va munosib ishlab turishini ta'minlash Konvensiyaning maqsadi hisoblanadi.

II "Milliy darajada zarur bo'lgan qabul qilingan choralar" bo'limida korrupsiyaviy jinoyatlarning 13 turi tavsiflangan. Shu bilan birga, Konvensiya ishtirokchi davlat tomonidan uning milliy qonunchiligiga muvofiq o'zga korrupsiyaviy jinoyatlar tarkiblariga nisbatan har qanday jinoiy yurisdiksiyani amalga oshirishni istisno etmaydi.

Konvensiyada o'rnatilgan jinoyat-huquqiy normalarining tahlili (2-11-moddalar) Konvensiya korrupsiyaviy jinoyatlar subyektlari doirasini kengaytirayotganligidan dalolat beradi.

Konvensiyaning yuridik shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlar tufayli javobgarligiga taalluqli qoidalarini Yevropa huquqining novellalari qatoriga kiritish mumkin. Konvensiyaning 18-moddasiga muvofiq "har bir tomon shunday qonunchilik va boshqa choralarni ko'radiki, ular yuridik shaxslarning pora evaziga faol sotilish, xizmat vakolatidan g'arazii maqsadlarda foydalanish va jinoiy daromadlarni legallashtirishdan iborat, mazkur Konvensiyaga muvofiq shunday jinoyatlar sifatida kvalifikatsiya qilingan hamda o'zining shaxsiy sifatida yoki yuridik shaxsda yetakchi lavozimni egallovchi yuridik shaxs organi tarkibida, quyidagi yo'llar bilan qattiq jinoyatlarni sodir etganligi sababi javobgarlikka tortilishi mumkinligini ta'minlash uchun talab etilishi mumkin bo'lsin:

yuridik shaxs nomidan vakillik funksiyalarini bajarish;

yoki yuridik shaxs nomidan qarorlar qabul qilish huquqini amalga oshirish;

yoki yuridik shaxs doirasida nazorat funksiyasini amalga oshirish.

hamda bunday jismoniy shaxsning yuqorida eslatilgan jinoyatlarda sherik (hamtovoq yoki vasvasaga soluvchi) sifatidagi ishtiroki".

Konvensiyaning 23-moddasiga muvofiq bank siri dalillar to'plash va korrupsiyadan olingan daromadni musodara qilishga ko'maklashish bo'yicha choralarni amalga oshirish uchun to'siq hisoblanmaydi.

Tomonlar guvohlar va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida odil sudlov bilan hamkorlik qiluvchi boshqa shaxslarning himoyasi bo'yicha

lozim choralarni ko'rish hamda korrupsiyada ayblanayotgan shaxslarni xalqaro ta'qib etishga ko'maklashish, bir-birlariga zarur axborotlarni taqdim etishda, dalillar to'plashda, daromadlarni musodara etishda, jinoyatchilarni topshirishda yordamlashish majburiyatini oladi (22-modda).

Konvensiya davlatlar uchun korrupsiyaga qarshi harakat qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik tamoyillarini – ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalardan foydalanishni ko'zda tutadi, ular mavjud bo'lmagan taqdirda esa tomonlarning bir-birlariga uning qoidalarida belgilangan, mumkin bo'lgan maksimal yordam ko'rsatish majburiyatini yuklaydi.

Shu tufayli mazkur Konvensiyaning muhimligini qayd etish lozim, chunki u davlatlar tomonidan imzolanganidan so'ng, korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etgan shaxslar endi mazkur mamlakatlar hududidan jinoiy ta'qibdan qochish uchun foydalana olmaydi. Konvensiyaning jinoiy javobgarlik haqidagi qoidalarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) zimmasiga yuklatilgan.

Korrupsiya uchun grajdanlik-huquqiy javobgarligi to'g'risidagi Konvensiyani ko'rib chiqishga o'tamiz, u grajdanlik huquqi va korrupsiya sohasida umumiy xalqaro normalarni aniqlashga dastlabki urinish hisoblanadi.

Konvensiyada korrupsiyani tavsiflashga urinish amalga oshirilgan. 2-modda korrupsiyani, pora yoki boshqa bo'lishi lozim bo'lmagan ustunlikni to'g'ridanto'g'ri yoki bilvosita talab, taklif, taqdim etish yoki qabul qilish sifatida tavsiflaydiki, u pora yoki lozim bo'lmagan ustunlikni oluvchining o'z vazifalarini munosib tarzda bajarishini buzadi.

Konvensiyaning maqsadi korrupsiya aktlari natijasida ziyon ko'rgan shaxslar uchun, ularga ko'rilgan ziyon uchun haq olish imkoniyatini o'z ichiga oluvchi, o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishga imkon beruvchi samarali huquqiy himoya vositalarini yaratishdan iborat.

Konvensiya uchta bobga ajratilgan bo'lib, ular quyidagilarni qamrab oladi: milliy darajada qo'llaniladigan choralar, xalqaro nazorat va bajarilishi ustidan nazorat hamda yakuniy qoidalar. Konvensiyani ratifikatsiya qilish chog'ida davlatlar uning printsiplari va normalarini, o'zlarining muayyan holatlarini hisobga olgan holda o'zlarining ichki qonunchiliklariga kiritish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

Konvensiyada quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- javobgarlik (davlatlarning oshkora mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiya aktlari uchun javobgarligini qoʻshgan holda);
- jabrlanuvchining ehtiyotsizligi: tovon miqdorini kamaytirish yoki vaziyatdan kelib chiqqan holda uni rad etish;
- bitimlarning yuridik kuchi;
- korrupsiya haqida xabar beruvchi mansabdor shaxslarni himoya qilish;
- hisobotlar va auditlarning ishonchligi va aniqligi;
- dalillar olish;
- sudlarning yakuniy qarorni ijro etish uchun zarur boʻlgan mulklarning butligi toʻgʻrisidagi farmoyishi va koʻrib chiqilayotgan masala hal etilgunga qadar mavjud holatni ushlab turishi;
- xalqaro hamkorlik.

Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) Konvensiyaga qoʻshilgan ishtirokchi davlatlar oʻz zimmalariga olgan majburiyatlarning bajarilishi ustidan monitoringni amalga oshiradilar. Ushbu Konvensiya – Yevropa Kengashiga aʼzo davlatlar, aʼzo boʻlmagan, uni tayyorlashda ishtirok etgan davlatlar (Belarus, Bosniya va Gersegovina, Kanada, Vatikan, Yaponiya, Meksika hamda Amerika Qoʻshma Shtatlari) hamda Yevropa Hamjamiyati uchun ochiq. Hali GREKO aʼzosi boʻlmagan davlatlar, Konvensiyani ratifikatsiya qilish chogʻida avtomatik ravishda Konvensiya kuchga kirgan sanadan boshlab GREKO aʼzosiga aylanadi.

Shunday qilib, Yevropa Kengashi ham transmilliy, ham davlat ichidagi korrupsiyaga qarshi yoʻnaltirilgan, birinchi galda uning tomonidan erishiladigan geografik chegaralarda yanada samaraliroq huquqiy oʻzaro yordam koʻrsatish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida huquqiy normalarning uygʻunlashgan modelini yaratadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (IHTT) Konvensiyasi. IHTT hujjatlari qoidalarinining ushbu tahlili doirasida korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga solish borasida ahamiyatga ega. Mazkur tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi huquqiy tashabbuslari asosan ikkita hujjatga – 1997-yil 23 -mayda IHTT Kengashi tomonidan tasdiqlangan, Xalqaro tijorat operatsiyalarida poraxoʻrlikka qarshi kurash yuzasidan qayta koʻrib chiqilgan Tavsiyalar hamda 1997-yil 21-noyabrda qabul qilingan, xalqaro tijorat operatsiyalarini oʻtkazish chogʻida xorijiy davlat organlarining mansabdor shaxslarini pora berib sotib olishga qarshi kurash boʻyicha Konvensiyaga asoslangan.

Birinchi hujjat – ham jinoyat-huquqiy, ham nojinoyat-huquqiy xarakterdagi oldini olish va jazo choralari hamda Tavsiyalarning amalga oshirilishining borishini kuzatib borishga yo'naltirilgan ijroning nazorati va tahlili metodikasini o'z ichiga oluvchi yaxlit dasturdan iborat manba. Ikkinchi hujjat muayyan masalaga – tijorat faoliyatini amalga oshirish chog'ida xorijiy davlat amaldorlariga pora berishni jinoyat deb e'lon qilishga bag'ishlangan. Maqsadlardan biri xalqaro ishchan operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida alohida shaxslardan va kompaniyalardan pora undirish holatlarini bartaraf etishda hukumatlarning rolini oshirishdan iborat.

IHTT bevosita iqtisodiyotga taalluqli korrupsiyaga e'tiborni qaratadi, ya'ni ko'rib chiqilayotgan sohada faqat cheklangan, tijorat uchun teng "o'yin maydoni" yaratishga taalluqli nafsoniyatga ega.

IHTT Konvensiyasining maqsadi "funktional ekvivalent"ni o'rnatishdan iborat. Konvensiya a'zo davlatlar oldida – huquqiy sanksiyalarni joriy etish uchun choralarni mustaqil tanlash huquqini anchayin bir xillashtirishga da'vogarlik qilmaydi.

Masalan, Konvensiyaning 3-modda 3-bandiga muvofiq Tomonlar xorijiy davlatning mansabdor shaxsi pora berib sotib olingan pora summasi va daromadlari hamda qiymati ko'rsatilgan daromadlarga muvofiq bo'lgan mol-mulkning olib qo'yilishi yoki musodara etilishi yoki mutanosib samarasni ta'minlovchi moliyaviy sanksiyalar qo'llanishi bo'yicha tegishli choralar ko'rishga majburdirlar. Bu o'rinda Konvensiya o'zining egiluvchanligini namoyon etadi, harakatlar erkinligi zarurligini ko'zda tutadi.

IHTT Konvensiyasida umumjahon miqyosidagi mezonlardan foydalanish orqali "chet el korxonasining mansabdor shaxsi" tushunchasi ochib beriladiki (1-modda 4-band), bu IHTTning tijoratning teng "o'yin maydoni"ni yaratish maqsadiga mos keladi.

IHTT Konvensiyasida hamda Yevropa Kengashining Konvensiyasida ham yuridik shaxslarning javobgarligi ko'zda tutiladi (2-modda). Biroq ham jinoiy, ham jinoiy xarakterga ega bo'lmagan sanksiyalar ko'zda tutilgan. Mazkur holatda jazo jinoyatning kelib chiqishi manbayining tavsifidan ko'ra ko'proq aybdorlik darajasi tavsifidan kelib chiqib beriladiki, bu jazo miqdori haqida qaror qabul qilishda katta tanlash erkinligini yaratadi. Bundan tashqari, tomonlardan har biri uchun xorijiy davlatning mansabdor shaxsini pora berib sotib olganlik uchun jazolanishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha grajdanlik-huquqiy yoki ma'muriy sanksiyalar qo'llash imkonini ko'zda tutadi (3-modda 4-band).

IHTTning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan, tavsiflangan huquqiy tashabbusining muhimligi uchta jihat bilan belgilanadi:

Birinchidan, u mamlakatga korrupsiyaviy to'lovlar oqimini qisqartiradi;

Ikkinchidan, u xalqaro hukumat tashkilotlari, xususiyl sektor va umuman fuqarolik jamiyati faoliyatini rag'batlantiruvchi o'ziga xos katalizator rolini o'ynadi hamda so'nggi 10 yilda siyosatning tubdan o'zgarishiga ko'maklashdi;

Uchinchidan, u global miqyosda boshqaruv normalarini ishlab chiqish uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashda Jahon Bankining roli. To'qsoninchi yillarning o'rtalariga qadar Jahon Banki korrupsiyaga qarshi kurashda yordam ko'rsatish imkoniga ega emasdi, modomiki u sof ichki siyosiy muammo hisoblanardi. Boz ustiga, to'qsoninchi yillarning o'rtalariga qadar "korrupsiya" so'zining o'zini qo'llashni cheklovchi qoidalar amal qilardi. Biroq Djeymz Vulfenson Jahon Bankining Prezidenti bo'lganidan so'ng korrupsiya taraqqiyotga naqadar to'sqinlik qilayotganligidan dalolat beruvchi yangi ma'lumotlar paydo bo'ldi, vaziyat o'zgardi hamda 1997-yildan boshlab Jahon Banki mazkur sohada muhim rol o'ynab kelmoqda.

2007-yilning mart oyida Direktorlar kengashi tomonidan Jahon Banki tashkilotlari guruhining Strategiyasi bir ovozdan ma'qullandi, u mijoz mamlakatlarga davlat boshqaruvini takomillashtirishda va korrupsiyaga qarshi kurashda ko'maklashish miqyoslarini kengaytirishga qaratilgan.

2007-yilning dekabrda Strategiyani amalga oshirish rejasi e'lon qilindi hamda Davlat boshqaruvini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo'yicha Kengash tuzildi.

Strategiya to'rtta muhim yo'nalishlar bo'yicha harakat qilishga chaqiradi:

- mamlakat miqyosida munosib boshqarishni qo'llab-quvvatlash va korrupsiyaga qarshi kurash;

- bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda korrupsiyaning oldini olish;

- davlat sektorida amalga oshiriladigan boshqaruvni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tadbirlarda xususiyl sektorning rolini kuchaytirish;

- hamda korrupsiyaning ko'lamini qisqartirish bo'yicha global zo'r berishlarni qo'llab-quvvatlash. Global miqyosda Bank davlat sektori

tomonidan boshqarish samaradorligini oshirishga ko'mak beruvchi yetakchi donor hisoblanadi.

2011-yilda Jahon Banki tarkibida mustaqil tergov bo'linmasi sifatida Korrupsiya, tovlamachilik va korporativ qoidabuzarliklarga qarshi kurash departamenti (INT) tashkil etildi. Ushbu departament Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar doirasida tovlamachilik va korrupsiyada ayblovlar bo'yicha hamda muassasa xodimlari tomonidan yo'l qo'yiladigan qoidabuzarliklardagi ayblovlar bo'yicha tergovlar o'tkazadi hamda o'z xulosalarini kelgusida choralar ko'rish uchun Bank rahbariyatiga taqdim etadi. Zarurat bo'lgan chog'da Departament o'z tergov natijalari xususida tegishli a'zodavlat hukumatiga ham xabar qiladi.

Korrupsiya, tovlamachilik va korporativ qoidabuzarliklarga qarshi kurash departamentining bosh vazifasi quyidagilardan iborat:

Bank loyihalari doirasidagi tovlamachilik va korrupsiya to'g'risidagi xabarlarni, xodimlarning odobdan tashqari fe'l-atvori haqidagi, shu jumladan ular tomonidan sodir etilgan tovlamachilik va korrupsiya holatlari va boshqalar to'g'risidagi xabarlarni tergov qilish.

Bankning boshqaruv va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi Strategiyasida Departamentga bo'lg'usi kredit operatsiyalari doirasida risklarni kamaytirish masalalari yuzasidan yanada kengroq maslahatlar, yo'l-yo'riqlar va tavsiyalar taqdim etish vazifasi topshirilgan.

2007-moliyaviy yilda Departament yangi Axborotni ixtiyoriy fosh etish dasturini (AIFED) joriy etdi. AIFED Bank loyihalarini amalga oshirish kontraktlarida ishtirok etayotgan kompaniyalarga korrupsiya amaliyotidan voz kechish; Bankning sanksiyasi ostiga tushuvchi odobdan tashqari fe'l-atvor haqidagi axborotni ixtiyoriy ravishda fosh etish; talablarga rioya etish dasturini qabul qilish, uning doirasida Mas'ul kuzatuvchi uch yil mobaynida talablarning bajarilishi monitoringini olib boradi; o'tgan qoidabuzarliklar haqidagi axborotlarni fosh etganlik uchun litsenziyasining oshkora chaqirib olinishidan qochish imkoniyatini taqdim etadi. Kompaniya to'liq va faol hamkorlik evaziga maxfiylikdan foydalanadi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro jinoyat huquqining milliy jinoyat huquq tizimi bilan o'zaro aloqasi qanday?

2. Xalqaro huquq bo'yicha jinoyat hisoblanadigan har qanday faoliyat uchun muayyan davlat jazo bermagan taqdirda qaysi xalqaro tamoyil qo'llaniladi?

3. Umuman, xalqaro jinoyat huquqining sohasini tashkil qilishda, bir tomondan, agressiv urushni rejalashtirish, rivojlantirish va olib borish kabi o'ta og'ir xalqaro jinoyatlarni, boshqa tomondan esa narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash maqsadida bu kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishni nazarda tutuvchi tamoyil va normalar umumlashtirilishi mumkinmi?

4. Terrorizm xalqaro jinoyatlar turiga kiradimi yoki transmilliy jinoyat turiga? Fikringizni asoslab bering.

5. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlarni turli sohalar bo'yicha tinch-totuv munosabatlarni buzadigan faoliyat deb hisoblash mumkinmi?

6. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro tribunallarning o'rni qanday va bugungi xalqaro jinoyat huquqiga ta'siri mavjudmi?

7. Xalqaro harbiy tribunallarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

8. Nima uchun harbiy tribunallarni tashkil etish zarurati paydo bo'ldi?

9. Ekstraditsiya instituti nima maqsadda tashkil etilgan va bugungi kunda qanday yo'lga qo'yilgan?

10. Xalqaro jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarda ishtirok etishini izohlang.

Kazus 1.

Italiya fuqarosi Pokiston orqali O'zbekiston hududiga kirib kelganida, aeroportda bojxona xodimlarining tekshiruvi natijasida unda katta miqdorda giyohvandlik vositalari borligi aniqlandi. Pokiston hukumati jinoyatchini ushlab berishni talab qildi, chunki giyohvandlik vositalari Pokiston hududidan olib chiqib ketilgan. Shuningdek, jinoyatchining ta'kidlashicha, giyohvandlik vositalari Italiya hududida tarqatilishi lozim bo'lgan hamda jinoyatchi Italiya fuqarosi bo'lganligi uchun Italiya hukumati ham ushlab berishni talab qilgan.

Ushbu holatda fuqarolikning qanday huquqiy ahamiyati mavjud? Hudud bo'yicha qaysi jinoyat qonuni tamoyili amal qiladi? Yuqoridagi jinoyat O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga to'g'ri keladimi? 1988-yilgi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha BMT Konvensiyasining ushbu holatda qanday ahamiyati bor?

Kazus 2. 1976-yil iyunda Angola poytaxti Luandada 13ta ingliz va amerika yollanma askarlari ustidan sud bo'lib o'tdi. Ular Angola xalqiga qarshi qurolli mojaroda pul evaziga qatnashishga rozi bo'lganlikda va Angolani ozod qilishga qurol bilan to'squinlik qilganlikda ayblandi.

Sudda yollangan askarlarni himoya qilgan Angliya va AQSH advokatlari yollanganlik uchun jazo belgilovchi xalqaro hujjat mavjud emasligini ta'kidlashdi.

Mazkur holatga huquqiy baho bering.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Antonio Cassese. International criminal law. Second edition. Oxford University Press. – New York, 2000. 445 p.;
2. Bassiouni M.C. Introduction to International Criminal Law. – Leiden, Boston, 2013. 1122 p.;
3. Bartram S. Brown. Research Handbook on International criminal law. Edward Elgar Publishing Limited. – UK. 2011. 501 p.; International criminal law: a collection of international and regional instruments. -- 4th rev. ed. / edited by Christine Van den Wyngaert, assistant editor; Steven Dewulf. Martinus Nijhoff Publishers. – Leiden / Netherlands. 2011. 2202 p.;
4. Clive Nicholls, Clare Montgomery and Julian B. Knowles. The law of extradition and mutual assistance. Second edition. Oxford University Press. – New York. 2007. 787 p. Neil Boister. An Introduction to Transnational Criminal Law. Oxford University Press. – New York, 2015. 326 p.;
5. Ellen S. Podgor, Roger S. Clark. Understanding international criminal law. Third edition. Lexis Nexis. – Danvers / USA, 2013. 283 p.;
6. Krit Zeegers. International Criminal Tribunals and Human Rights Law. International Criminal Justice Series. T.M.C. Asser Press. - The Hague, The Netherlands. 2016. 438 p.;
7. M Cherif Bassiouni. International Extradition: United States Law and Practice (6th Edition). Oxford University Press, 2015. 1233 p.;
8. Neil Boister, Robert J Currie. Routledge Handbook of Transnational criminal law. Routledge publishing. – New York, 2015. 453 p.;
9. Robert J Currie, Joseph Riknof. Transnational and international criminal law. Second edition. Irwin Law Inc. – Toronto, 2013. 748p.;

10. Взаимодействие международного и сравнительного уголовного права. Учебное пособие / Научный редактор профессор Н.Ф.Кузнецова; отв.ред. проф. В.С.Комиссаров. – М.: Издательский Дом «Городец», 2009. – 288 с.

11. Волженкина В.М. Нормы международного права в российском уголовном процессе. – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс»; Санкт-Петербургский юридический институт Генеральной прокуратуры РФ, 2001. – 359 с.;

12. Волеводз А.Г. Правовое регулирование новых направлений международного сотрудничества в сфере уголовного процесса. – М.: Издательство «Юрлитинформ», 2002. – 528 с.

13. Иногамова, Хегай Л.В. Международное уголовное право. Учебное пособие для магистрантов. – М.: Проспект, 2015. – 112 с.

14. Костенко Н.И. Международная уголовная юстиция. Проблемы развития. – М., 2002. – 448 с.;

15. Лебединец И.Н. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2016. – 112 с.;

16. Панов В.П. Международное уголовное право. Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М, 1997. – 320 с.;

17. Табалдиева В.Ш. Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства. Учебное пособие. – М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2004. – 192 с.

XVI BOB. XALQARO AXBOROT HUQUQI

Mazkur bobda talabalar xalqaro axborot huquqi tushunchasi, axborot tarqalishining texnik jabhalarini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish, jurnalistlarning xalqaro-huquqiy maqomi, xalqaro axborot huquqining sohaviy tamoyillari, ommaviy axborot mazmunining xalqaro-huquqiy reglamentatsiyasi hamda axborot tarqalishining texnik jabhalarini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish haqidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ladi.

Xalqaro axborot huquqi tushunchasi

Xalqaro axborot huquqi – bu xalqaro huquq subyektlarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanish jarayonida foydalanadigan (yoki foydalanishga ruxsat beradigan) huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi maxsus xalqaro tamoyil va normalar majmuidir.

Ommaviy axborot vositalariga elektraloqa (radioeshittirish, teleko'rsatuv, kompyuter aloqa tarmoqlari orqali axborot uzatish), shuningdek adadlangan nashrlarni, ovozli va vizual mahsulotlarni kitoblar, gazetalar, jurnallar, gramplastinkalar, magnitafon tasmlari, kinolentalar, videomagnitafon tasmlari va h.k. shaklida tarqatish kiradi.

Har-yili dunyoda 400 milliondan ortiq nusxada gazetalar, 600 mingdan ortiqroq turdagi kitoblar nashr etiladi, aholi ixtiyorida 1 milliarddan ko'proq radiopriyomnik, 500 milliondan ortiq televizor bor, 25 mingdan ko'proq stansiyalar radioeshittirishlar olib boradi.

Xalqaro ommaviy axborotning ko'plab masalalari xalqaro davlat huquqiy munosabatlarining mavzusi sanaladi. Huquqning mazkur sohasi normalari ommaviy axborot tarqalishining texnik jabhalarini ham, uning mazmuniga oid masalalarni ham tartibga soladi. So'nggi yillarda BMT va boshqa tashkilotlarda kibermakonning huquqiy rejimi hamda axborot xavfsizligi masalalari qizg'in muhokama qilinmoqda.

Shuningdek, "ommaviy kommunikatsiya" atamasi ham qo'llanilib, u o'z ichiga nafaqat axborot tarqatilishini, balki axborot manbalari hamda ularning iste'molchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, ya'ni javob axborot aloqasini o'z ichiga oladi.

Ommaviy axborot milliy va xalqaro ijtimoiy fikr shakllanishining muhim vositasi, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarini xalqaro miqyosda qo'llash g'oyaviy kurash bilan chambarchas bog'liqdir.

G'oyaviy kurash – bu faqat biror iqtisodiy yoki ijtimoiy tizimning afzalliklarini targ'ib qilish degani emas. U aholi ommasiga diniy nuqtayi nazarlarni singdirish, davlat tomonidan olib borilayotgan ichki siyosat hamda tashqi siyosat yo'nalishini asoslanganligi, madaniyatning yoyilishi, hayot tarzi va h.k. reklamasi bilan bog'liq. Shu sababli sovuq urush tugashi bilan g'oyaviy kurashga ham barham berildi deb o'ylash xato bo'lar edi. G'oyaviy kurash, g'oyalar musobaqasi siyosiy qarama-qarshilikka aylanib ketmasligi kerak ekanligi boshqa gap. Xususan, xalqaro huquq aynan shunga ko'maklashishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, xalqaro darajadagi "axborotning erkin oqimi" konsepsiyasiga qo'shilmalikning iloji yo'q. Ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi davlatlarning o'z milliy axborot vositalarining transc chegaraviy darajadagi faoliyati uchun xalqaro javobgarligini inkor qilmasligi lozim.

BMT Bosh Assambleyasining 1946-yil 14-dekabr 59 (I)-rezolutsiyasida "axborot erkinligi, so'zsiz, uning imtiyozlaridan foydalanayotganlardan ularni suiiste'mol qilmaslikni istash hamda bilishni talab qiladi", deb qayd etiladi.

1948-yil qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'lon qilingan har bir insonning "istalgan vosita bilan hamda davlat chegaralaridan qat'i nazar, axborot izlash, olish va tarqatish" huquqi va erkinligi (19-modda) mutlaq bo'lishi mumkin emas. Umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida inson huquq va erkinliklari amalga oshayotganida cheklashlar bo'lishi mumkinligi e'tirof etiladi. Bunday cheklashlarga bir necha omillar mezon bo'lishi mumkin: ular qonun bilan belgilangan bo'lishi lozim; ular faqat boshqalarning huquq va erkinliklarini lozim darajada tan olinishi va hurmat qilinishi hamda axloq, jamoatchilik tartibi va demokratik jamiyatdagi umumiy farovonlikning adolatli talablarini ta'minlash maqsadidagina belgilanishi mumkin. 1966-yil Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasi bu ro'yxatga axborot erkinligini "davlat xavfsizligini", "aholining salomatligini yoki ma'naviyatini muhofaza qilish uchun" qonunchilik tomonidan cheklash huquqini qo'shimcha qiladi.

Shunisi aniqki, ommaviy axborotni u joylashgan manba bo'lmish davlat chegaralari tashqarisida tarqalishi axborot erkinligini xalqaro-huquqiy cheklashini ham taqozo etadi.

Ommaviy axborotni bir tomonlama oqimiga qarshi chiqar ekan, rivojlanayotgan mamlakatlar BMTning Axborot bo'yicha qo'mitasi hamda YUNESKOda adolatli axborot va aloqa tartibi to'g'risidagi masalani qo'yadi.

Ommaviy axborot vositalaridan xalqaro foydalanish sohasida mazmuniy jihatdan tashqari muhim texnik jabha ham mavjud. Radioto'lqinlardan foydalanish ishida xalqaro hamkorlik bo'lmaganida edi, radiostansiyalar to'siqlar zalvoridan ishlamay qolgan, ko'plab nusxada tarqatilayotgan mahsulot esa bojxona to'siqlari bois xorijdagi iste'molchiga yetib bormagan bo'lar edi. Shu sababli davlatlar axborot materiallari oqimi almashinuvini tashkillashtiruvchi ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar tuzadilar. Xalqaro ommaviy axborot almashinuvini tartibga soluvchi tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan 50dan ortiq ko'p tomonlama shartnoma hujjatlari mavjud.

Xalqaro huquq ommaviy axborotni tarqatish sohasida faqat muhofaza qilish va tartibga soluvchilik vazifalaridan kelib chiqmaydi. Mazkur sohada xalqaro huquqning ommaviy axborot almashinuvini kengaytirishga, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunishga, jahon tamadduni taraqqiyotiga, xalqaro munosabatlar sohasini demokratlashtirishga ko'maklashish zaruratidan kelib chiqadigan ta'minotchilik vazifasi ham katta ahamiyatga ega.

Axborot tarqalishining texnik jabhalarini xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish

Ko'p nusxadagi ommaviy axborot mahsulotini mamlakatdan mamlakatga olib kirish va olib chiqish masalalari, eng avvalo, bojxona qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ayni paytda qator xalqaro shartnomalar ham mavjud.

1954-yili 1949-yilda YUNESKO doirasida qabul qilingan Ko'rish va tinglashga mo'ljallangan ta'limiy, ilmiy va madaniy xususiyatga ega bo'lgan xalqaro almashinuvlarni yengillashtirish to'g'risidagi Kelishuv kuchga kirib, unda ishtirokchilarga mazkur materiallarni olib kirishda o'zaro bojxona imtiyozlarini taqdim qilish ko'zda tutiladi.

Nashrlarning xalqaro almashinuvi to'g'risidagi 1958-yil konvensiya davlatlar o'rtasida madaniy-oqartuv va ilmiy-texnik xususiyatdagi almashinuvni tartibga soladi. Uning ishtirokchilari o'z zimmalariga hukumat organlari o'rtasidagi hamda tijorat maqsadini ko'zda tutmaydigan nohukumat oqartuv, ilmiy-texnikaviy va madaniy muassasalararo nashr

almashinuvini rag'batlantirish majburiyatini oldilar. Konvensiyaga ko'ra almashinuvlar milliy kitob almashinuv markazlari orqali amalga oshiriladi. Davlatlar o'z markazlarini bojxona bojlarini to'lashdan ozod qilishga va bojxona rasmiyatchiligini bajarayotganda qulay sharoitni ta'minlashga rozi bo'ldilar. Almashinuvning aniq masalalari ikki tomonlama kelishuvlarda tartibga solinishi lozim bo'ladi.

Rasmiy nashrlar va hukumat hujjatlari bilan o'zaro almashinuv to'g'risidagi 1958-yil konvensiyasi ishtirokchilar o'rtasida ikkitomonlama asosda hukumat xabarlari, parlament hisobotlari, ma'muriy nashrlar, davlat ichidagi bibliografiya hamda ma'lumotnomalar, qonunchilik va sud qarorlari to'plamlari bilan almashinuvni ko'zda tutadi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi ishtirokchi davlatlari 1975-yilgi Yakunlovchi hujjatda o'zlarining hududlarida boshqa mamlakatlarning gazetalari, vaqtli hamda vaqtli bo'lmagan bosma nashrlarini ularning firmalari hamda mutasaddi tashkilotlari o'rtasidagi tegishli kelishuv va shartnomalar asosida tarqatilishini yaxshilash maqsadini bildirdilar.

Elektraloqa yordamida ommaviy axborotni tarqatish masalasi ancha murakkabroq. Radioto'lqinlar signallari bojxona va chegara to'siqlarini chetlab xorijiy hududlarga etib boradi. Bu Yerning sun'iy yo'ldoshlari va kompyuter axborot tarmoqlari orqali xalqaro televizion ko'rsatuvlarga ham taalluqlidir.

Ushbu kanallar orqali ommaviy axborot tarqalishini ko'pincha aholisi axborot olayotgan davlatlar hududida nazorat qilishning imkoni yo'q. Boshqa tomondan, uzatuvchi va qabul qiluvchi apparaturaning texnik jihatdan mosligini ta'minlash, shuningdek o'zaro to'siqlarga yo'l qo'ymaslik muhim. Shu sababli mazkur sohada xalqaro hamkorlik tamoyili, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida keng eshittiruvchi texnikaning paydo bo'lishi bilan uzatuvchi stansiyalarga o'zaro zarar yetkazishdan qochish maqsadida radiochastotalardan foydalanishni xalqaro tartibga solish masalasi paydo bo'ldi. 1906-yil Berlin konvensiyasi Xalqaro radiotelegraf uyushmasini ta'sis etdi, 1992-yilda esa Madrid konferensiyasida Xalqaro Elektraloqa Uyushmasi (XEU) tuzilib, u hozirgi kunda BMTning maxsuslashtirilgan muassasalaridan biri hisoblanadi. 1922-yilda Jenevada Xalqaro elektraloqa uyushmasining hozir amalda bo'lgan Nizomi va Konvensiyasi qabul qilindi. XEUNing maqsadlari barcha elektraloqa turlaridan foydalanishni takomillashtirish va ulardan oqilona foydalanish, texnik vositalarni rivojlanishiga hamda ulardan imkon

qadar samarali foydalanishga yordamlashish, texnik ko'mak taqdim etish, yangi texnologiyalarni tarqatish, tinch-totuv munosabatlarni yengillashtirish yo'lida elektr aloqa xizmatlaridan foydalanish va boshqalardan iborat.

Elektraloqa vositalaridan foydalanish XEUNing asosiy hujjatlariga oid ma'muriy qoidalar bilan tartibga solinadi va barcha a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Bu Xalqaro Elektraloqa Reglamenti va Radioaloqa Reglamentidir.

XEU radiochastota skeptrini taqsimlash va radiochastotalarni ajratish hamda tegishli pozitsiyalarni geostatsionar yo'ldoshlar orbitasida qayd etishni shunday amalga oshiradiki, ular turli mamlakatlar radiostansiyalari o'rtasidagi zararli to'siqlarlardan xalos bo'lishga yordam beradi. Shuningdek u elektraloqaning xalqaro standartlashtirilishini ham yengillashtiradi.

XEUNing asosiy hujjatlariga nafaqat a'zo davlatlar, balki davlatdan elektraloqa xizmatini yaratish va undan foydalanishga ruxsat oladigan va xalqaro xizmatlarda (masalan, INMARSAT xalqaro dengiz sun'iy yo'ldoshi aloqa tizimi) qatnashadigan foydalanuvchi tashkilotlar ham amal qilishlari lozim.

XEUNing oliy organi – to'rt yilda bir marotaba chaqiriladigan Vakolatli konferensiyadir. U o'zining boshqaruv organi bo'lmish 43 kishidan iborat tarkibdagi XEU Kengashini saylaydi. XEU, shuningdek bosh kotibni, uning o'rinbosari va Byuro sektorlar direktorlarini hamda 9 kishidan iborat Radioreglament qo'mitasi a'zolarini saylaydi.

XEUda uch sektor tashkil qilingan: Radioaloqa sektori, Elektraloqalarini standartlashtirish sektori va Elektraloqani rivojlantirish sektori.

Har uch sektor yo'nalishlari bo'yicha Imtiyozli konferensiyalardan tashqari tegishli xalqaro va mintaqaviy assambleyalar o'tkaziladi.

Radioreglament qo'mitasi muhim vazifani – XEU a'zolari tomonidan qilingan chastotali o'zlashtirishlarni qayd etishni amalga oshiradi. Radioaloqa Reglamentiga ko'ra barcha chastotalar xizmatlarning hududlari, maydoni va toifasiga ko'ra taqsimlangan (radioeshittirish, sun'iy yo'ldoshli, havo orqali harakatlanuvchi, dengiz orqali harakatlanuvchi va h.k.) chastotani o'zlashtirish – bu davlatning elektraloqa o'rnatish ishini belgilangan chastotada, belgilangan nurlanish quvvatida va belgilangan vaqtda amalga oshirish niyatini anglatadi. Chastotani o'zlashtirish, agar u oldin qayd etilgan moslamalarga to'squinlik qilmasa, qayd etiladi.

Yuzaga kelgan bahsli masalalar tomonlarning o'zaro kelishilgan usullari yordamida hal qilinadi, mazkur masala bo'yicha kelishuvga erishilmagan taqdirda arbitraj yo'li bilan hal qilinadi. Arbitraj qarori qat'iy va majburiy hisoblanadi.

Harbiy radiuskunalarga nisbatan XEU a'zolari to'la erkinlikka ega (XEU Nizomining 48-moddasi).

Nizomga ilovada qator muhim ta'riflar mavjud. Radioeshittirishlar xizmati – bu radioaloqa xizmati bo'lib, u aholi tomonidan bevosita qabul qilinishi uchun (tovushni, televideniyei uzatish yoki uzatishning boshqa ko'rinishlari) mo'ljallanadi. Xalqaro elektraloqa xizmati – bu turli mamlakatlarda joylashgan yoki turli mamlakatlarga tegishli har qanday turdagi elektraloqa korxonalari yoki stansiyalari o'rtasidagi elektraloqa xizmatidir. Elektraloqa – bu radio, tarmoq, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlari orqali belgilarni, ishoralarni, yozma matnni, tasvir hamda tovushlari yoki istalgan turdagi xabarlarini har qanday uzatish, nurlantirish yoki qabul qilishdir.

XEU a'zolari davlat xavfsizligiga tahdid tug'diradigan yoki uning qonunlariga, jamoatchilik tartibiga yoki odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan istalgan xususiy elektraloqani uzish huquqiga ega (Nizomning 34-moddasi).

Sun'iy Yer yo'ldoshlarining paydo bo'lishi elektraloqa texnikasida tub burilish yasadi: uni ancha arzon va ishonchli qilib qo'ydi. XEU, shuningdek elektraloqaning texnik jabhalari bilan, shu jumladan, sun'iy yo'ldoshlarning geostatsionar orbitadagi joylashish nuqtalarini taqsimlash bilan shug'ullana boshladi. XEU Nizomining 44-moddasida geostatsionar sun'iy yo'ldoshlarining radiochastotalari va orbitasi cheklangan tabiiy zaxira hisoblanib, ularni samarali, oqilona va tejamli ishlatishi lozim, toki rivojlanayotgan mamlakatlarning alohida ehtiyojlarini hamda ba'zi mamlakatlarning geografik holatini hisobga olgan holda turli mamlakat yoki mamlakatlar guruhining ushbu orbita hamda chastotalardan adolatli foydalanish imkoniyati ta'minlansin, deb belgilanadi.

Radioaloqa Reglamentiga ko'ra radioeshittirish sun'iy yo'ldosh xizmati radioaloqa xizmati sifatida ta'riflanadi, unda fazo stansiyalari orqali uzatilayotgan yoki qayta namoyish qilinayotgan signallar bevosita aholi tomonidan qabul qilinishiga mo'ljallangan (bevosita teleko'rsatuvlar). 1982-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 37/92 rezolutsiyasini qabul qildi, u o'z ichiga "Davlatlar tomonidan sun'iy Yer yo'ldoshlaridan bevosita teleko'rsatuvlar namoyish etish uchun foydalanishni tartibga soluvchi tamoyillar"ni olgan bo'lib, unga ko'ra

sun'iy yo'ldoshlar yordamidagi xalqaro BTN (bevosita televizion namoyish) xizmati faqat XEU hujjatlari bilan tasdiqlangan maxsus kelishuvlar asosida hamda BTN tomonidan qabul qilingan tamoyillarga muvofiq tarzda tuzilishi mumkin.

1974-yilda Bryusselda Sun'iy yo'ldoshlar tomonidan uzatilgan signallarni tashuvchi dasturlarni tarqatish to'g'risidagi Konvensiya imzolandi. Konvensiyaning maqsadi — aholiga sun'iy yo'ldosh orqali uzatiladigan va faqat oldindan belgilangan (qayd etilgan) stansiyalar tomonidan qabul qilinishga mo'ljallangan televizion dasturlarni noqonuniy qayta namoyish etishning oldini olishdan iborat. Konvensiya ishtirokchilari o'z hududlarida signallar mo'ljallanmagan organlar tomonidan signallarning tarqatilishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oldilar.

1965-yilda Stansiya orqali eshittirish va ko'rsatuvlarni milliy hudud tashqarisida namoyish etishning oldini olish to'g'risida Kelishuv imzolandi. U ochiq dengizdagi dengiz kemalari bortida "qaroqchilik" nohalol reklamasi tarqatilishiga qarshi kurashni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 10-iyuldan XEUning teng huquqli a'zosi hisoblanadi. O'zbekistonning XEUga a'zoliqi quyidagilarni ta'minlaydi:

— O'zbekiston Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan xalqaro telefon, telegraf, teleks, faksimil aloqa, ma'lumotlar uzatish masalalarida hamkorligi, respublika xalqaro telekommunikatsiya tarmog'ining yagona texnologik siklda, yagona norma va andozalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishi, XEUga a'zo davlatlarning telekommunikatsiya tizimlari bilan hamkorlik imkoniyati;

— O'zbekiston Respublikasining jahon radiochastota spektrini taqsimlash va o'zlashtirishdagi manfaatlarini himoya qilish; O'zbekiston Respublikasi hududidagi teleko'rsatuv va radioeshittirish stansiyalari hamda boshqa radioelektr vositalarining faoliyat rejimi va mezonlarini tasdiqlash;

— xalqaro telekommunikatsiya almashinuvi uchun telekommunikatsiyalarning tranzit va oxirgi xarajatlari bo'yicha xorijiy operatorlar (tashkilotlar) bilan o'zaro hisob-kitobning yagona tartibini kelishish va qo'llash;

— xalqaro telekommunikatsiya vositalarini rivojlantirish borasidagi yagona siyosatning asosiy yo'nalishlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda, shuningdek XEU tomonidan global axborot-alloqa infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarda ishtirok etish;

– XEU tadqiqot komissiyasi faoliyatining natijalarini, boshqa mamlakatlarning tadqiqot va ishlanmalarini respublika aloqa xizmatlarini rivojlantirish va respublikani axborotlashtirish yoʻlida qoʻllash;

– texnik va maslahat koʻmagi olishi;

– respublika mutaxassislarining telekommunikatsiyalarning turli yoʻnalishlari hamda AAT (Axborot-alloqa texnologiyalari) boʻyicha malakasini oshirishi imkoniyati;

– telekommunikatsiyalar va AATni rivojlantirish xalqaro siyosatining boshqa muhim yoʻnalishlarini muvofiqlashtirish va amalga oshirish imkoniyati.

Ommaviy axborot mazmunining xalqaro-huquqiy reglamentatsiyasi

Hozirgi zamon xalqaro huquqi muayyan gʻoyalarning tarqatilishini man qiladi, yana boshqa birlarining tarqatilishini esa ragʻbatlantiradi.

BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 3-noyabr 110 (II) rezolutsiyasi har qanday mamlakatda olib borilayotgan tinchlikka xavf soladigan yoki kuchaytiradigan, tinchlikni izdan chiqaradigan yoki zoʻravonlikni vujudga keltirish maqsadi boʻlgan yoki shunga qodir har qanday targʻibotni qoralaydi. BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 15-noyabr 127 (II) Rezolutsiyasi davlatlarga ular oʻrtasidagi doʻstona munosabatlarga zarar etkazishi mumkin boʻlgan yolgʻon yoki buzib koʻrsatuvchi xabarlarini tarqatishga qarshi kurash yuzasidan chora-tadbirlar qabul qilishni taklif qildi. 1966-yil Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 20-moddasida har qanday urushlarni targʻib qilish qonun bilan man qilinishi lozim ekanligi belgilab qoʻyilgan.

1936-yil Radioeshittirishlardan tinchlik maqsadlarida foydalanish toʻgʻrisidagi Jeneva konvensiyasi davlatlarga oʻz hududida bir mamlakat aholisiga ichki tartiblarga yoki boshqa mamlakatning xavfsizligiga qarshi harakatlarga undashi mumkin boʻlgan radioeshittirishlar olib borishni man etadi. U ishtirokchilar zimmasiga oʻz hududida bu turdagi eshittirishlarni toʻxtatish yuzasidan choralar qabul qilishni, ayni paytda, ularning radiostansiyalardan uzatayotgan eshittirishlari urushga yoki uni keltirib chiqaruvchi harakatlarga chaqirmasligini nazorat qilishni yuklaydi. Konvensiya davlatlar oldiga “hukumat radioxizmatlarini boshqarish uchun tegishli yoʻriqnoma va qoidalar nashr qilish va shunday xizmatlar tomonidan ularning bajarilishini taʼminlash”, shuningdek “tegishli qoidalarni milliy muassasalarning nizomlariga yoki har qanday

konsenssiya kompaniyasining faoliyat shartlariga yoki boshqa xususiy korxonalariga tatbiq qilinadigan qoidalarga kiritish va bu kabi qoidalarni har qanday mustaqil eshittirish tashkilotlari tomonidan barjarilishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar qabul qilish" majburiyatini qo'yadi.

Jeneva konferensiyasida qabul qilingan alohida rezolutsiyada radioeshittirishlarni mo'ljallangan xalqlar tilida olib borishda o'ta bosiqlikni namoyon qilish zaruratiga e'tibor beriladi.

BMTning Bosqinchilik va davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi 1981-yil Deklaratsiyasiga davlatlarning har qanday ig'vo tarqatuvchi kampaniyalarga, bosqinchilik yoki boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish maqsadida haqoratomuz yoki dushmanlarcha targ'ibotdan o'zini tiyish majburiyatini e'tirof etuvchi qoida kiritilgan.

Barcha turdagi irqiy kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi 1965-yilgi xalqaro konvensiya o'z ishtirokchilari zimmasiga biror shaxs yoki tashkilot tomonidan irqiy kamsitishni amalga oshirilishini taqiqlash majburiyatini yuklaydi va irqiy jihatdan yuqoriligi to'g'risidagi g'oya yoki nazariyaga asoslangan har qanday targ'ibotni qoralaydi.

Pornografik nashrlarga murojaat qilish va ular savdosining oldini olish to'g'risidagi 1923-yil xalqaro konvensiyaga ko'ra, davlatlar pornografik materiallarning tarqatilishiga to'sinlik qilishda, jumladan, ularni olib kirish va davlat chegaralari tashqarisiga chiqishiga yo'l qo'ymaslikda hamkorlik qilish majburiyatini oldi.

BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 110 (II)-rezolyutsiyasi davlatlarga o'z ixtiyorlaridagi barcha axborot va targ'ibot vositalari bilan BMTning Nizomi maqsad va tamoyillari asosida hamda barcha xalqlarga, shubhasiz, tinchlik tilashga mo'ljallangan barcha axborotning tarqatilishini rag'batlantirish uchun davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarga ko'maklashish tomon qadam tashlashni taklif qiladi.

BMTning Yoshlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va bir-birini tushunish g'oyalari tarqatish to'g'risidagi 1965-yilgi Deklaratsiyasiga ko'ra yoshlar tarbiyasi, ta'lim va xabardor qilishning barcha vositalari yoshlar o'rtasida tinchlik, gumanizm, erkinlik va xalqaro birdamlikning, shuningdek xalqlarni yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi boshqa g'oyalarning tarqatilishiga ko'maklashishi lozim.

1978-yilda YUNESKOning ommaviy axborot vositalarini tinchlik va xalqaro bir-birini tushunishni mustahkamlash, inson huquqlarini rivojlantirish va irqchilik, aparteid hamda urush qo'zg'ashga qarshi kurash ishiga hissasiga oid asosiy tamoyillari to'g'risida Deklaratsiyasi qabul

qilindi. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ommaviy axborot vositalari barcha tomonidan birdek e'tirof etilgan maqsad va tamoyillarga oid barcha axborotni tobora ko'proq targ'ib etish orqali tinchlik va xalqaro bir-birini tushunishni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Unda barcha davlatlar o'rtasida, xususan, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari turlicha bo'lgan davlatlar o'rtasida axborotning ikki tomonlama va ko'p tomonlama almashinuvi zarurati qayd etiladi.

BMT tomonidan 1982-yilda qabul qilingan BTN tamoyillari ushbu faoliyatga xalqaro huquq, jumladan, BMT Nizomini qo'llanishi mumkinligidan kelib chiqadi, shuningdek uning davlatning suveren huquqlariga, jumladan, aralashmaslik tamoyiliga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash yo'lida barcha davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunishni rivojlantirish hamda do'stona munosabatlar va hamkorlikni mustahkamlashga uyg'un bo'lishi zarurligiga asoslanadi.

Ommaviy axborot vositalari orqali salbiy mafkuraviy ta'sir ko'rsatish xavfi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1952-yilda Xalqaro rad etish to'g'risidagi Konvensiyaning qabul qilinishiga olib keldi (1962-yili kuchga kirdi). Konvensiya ishtirokchi davlatlar zimmasiga o'z muxbirlari hamda axborot agentliklariga boshqa davlatlardan tushgan yolg'on yoki buzilgan va uning obro'siga yoxud boshqa mamlakatlar bilan munosabatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni nashr etish yoki tarqatishni rad etish majburiyatini yuklaydi.

Yevropa davlatlari teleeshittirishlarning axloq, ma'naviyat va jamoatchilik fikriga bo'lgan ta'siriga katta ahamiyat beradilar.

1989-yilda Yevropa Kengashi doirasida maxsus Transchejaraviy televidenie to'g'risidagi konvensiya imzolangan.

1991-yilda MDHni tuzish to'g'risidagi Kelishuv a'zo davlatlarga axborotni Hamdo'stlik doirasida uzatish erkinligini kafolatlanishini ko'zda tutadi (5-modda). MDH Nizomida umumiy axborot makonini rivojlantirishga ko'maklashish to'g'risida qoida mavjud (19-modda).

Boshqa mintaqalar ham mazkur sohadagi hamkorlikni rivojlantirmoqda. 1973-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning pul (yakka hokim) axborot agentliklari yaratildi.

Xalqaro axborot huquqining sohaviy tamoyillari

Sohaviy tamoyillarning mavjudligi – bu yoki bu guruh normalarini xalqaro huquq sohasiga ajratish maqsadga muvofiq ekanligining asosiy belgisidir.

Yuqorida bayon qilingan xalqaro huquq normalarining majmui va ularni tatbiq etish amaliyoti ommaviy axborot vositalaridan xalqaro foydalanishni tartibga soluvchi qator maxsus tamoyillarni ta'riflash imkonini beradi.

Har bir davlat o'z chegaralaridan tashqarida ommaviy axborotni tarqatish huquqiga ega.

Davlatlar qator urushni, irqiy kamsitishni, aparteid, pornografiya va boshqa shu kabilarni targ'ib qiluvchi, demokratiyaga qarshi, reaksiyon g'oyalarni tarqatishdan o'zlarini tiyishlari va tarqatilishining oldini olishlari lozim.

Davlatlar milliy ommaviy axborot vositalaridan davlatning ichki ishlariga aralashish, boshqa davlatlarga nisbatan ig'vo kampaniyalari, haqoratlovchi yoki dushmanlarcha targ'ibot yo'lida foydalanishdan o'zlarini tiyishlari hamda bunga yo'l qo'ymasliklari lozim.

Davlatlar ilg'or umumdemokratik g'oyalarning tarqalishini rag'batlantirish uchun mas'uldirlar.

Davlatlar ommaviy axborot vositalari orqali xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga zid bo'lgan ma'lumotlarning tarqatilishiga qarshilik ko'rsatishga haqli.

Barcha xalqlar ommaviy axborot vositalari yordamida tarqatiladigan ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqiga egalar.

Barcha davlatlar o'z ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va ulardan transc chegaraviy miqyosda foydalanish huquqiga egadir.

Davlatlar xorijda g'oya hamda ma'lumotlarni tarqatuvchi milliy ommaviy axborot organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun mas'uldirlar.

Milliy ommaviy axborot vositalari organlari faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1977-yil 541–I-son “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonuni (Mazkur Qonun yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvar “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” O'zRQ–78-son Qonunida tasdiqlangan).

Jurnalistlarning xalqaro-huquqiy maqomi

Jurnalistlar diplomatik imtiyoz hamda immunitetlarga da'vo qila olmaydi, negaki o'z fuqarolik davlati nomidan vakillik vazifalarini amalga oshirmaydi. Odatda, ular mahalliy axborot agentliklarida shunday agentliklarning o'rtasidagi kelishuvlar bo'yicha akkreditatsiyadan o'tadilar.

Ayni paytda jurnalistlarning mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarini rivojlantirish ishidagi muhim o'rni barcha davlatlar tomonidan e'tirof etilgan. Shu sababli EXHK ishtirokchi davlatlari 1983-yil Madrid uchrashuvining yakunlovchi hujjatida EXHKning 1975-yilgi Yakunlovchi hujjatida ko'zda tutilgan jurnalistlarning ish sharoitlarini ularga chiqish vizalarini haddan ortiq kechiktirmasdan berish, ko'p martalik vizalarni bir yil muddatga berish va mamlakat bo'ylab safarlarni yengillashtirish orqali yaxshilashda davom etishga kelishib oldilar.

Boshqa tomondan jurnalistlar zimmasiga xalqlar o'rtasidagi munosabatlar muhitiga ular faoliyatining ta'siri bo'lishi uchun javobgarlikdek katta axloqiy mas'uliyat yuklanadi. Shunga ko'ra, ko'plab milliy ommaviy axborot vositalari tashkilotlari jurnalistlarning kasbiy etikasi kodeksini qabul qiladilar. Biroq 1946-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Xalqaro Jurnalistlar Tashkiloti (XJT)ning jurnalistlar uchun yagona xalqaro axloq kodeksini ishlab chiqishga bo'lgan urinishi omadsizlikka uchradi. XJT boshqa maqsadlarini amalga oshirish bilan birga jurnalistlar huquqlarini himoya qilish bilan ham shug'ullanadi.

Shuni e'tirof etish lozimki, qurolli ixtiloflar hududida bo'lgan jurnalistlar ko'pincha ularning qurboniga aylanadilar. 1949-yil Jeneva konvensiyasiga qo'shimcha I Protokol jurnalistlarni himoya qilish yuzasidan maxsus chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Qurolli ixtilof hududlarida xavfli kasbiy safarlarda bo'lgan jurnalistlar fuqaro shaxslar, ya'ni nokombatlar hisoblanadilar. Ular Jeneva konvensiyalari hamda 1977-yil Qo'shimcha Protokollariga muvofiq himoya qilinadilar. Jurnalistlar Protokolga ilovada keltirilgan yagona xalqaro namunadagi shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma olishlari mumkin. Guvohnoma jurnalist fuqaroligi bo'lgan davlat hukumati tomonidan yoki jurnalist ishlaydigan davlat milliy axborot agentligi tomonidan beriladi. Mazkur hujjat uni taqdim etuvchining jurnalist sifatidagi maqomini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda jurnalistlarning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining "Jurnalist kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi 1997-yil 24-apreldagi 402-I-Qonuni bilan qoidalashtirilgan.

Nazorat savollari

1. Xalqaro ommaviy axborotni tarqatish vositalarini sanang va tavsiflab bering.
2. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini asoslab bering.
3. XEU maqsalarini hamda asosiy hujjatlarini tavsiflang.
4. Xalqaro huquq tomonidan qanday g'oyalarni tarqatish taqiqlanadi yoki rag'batlantiriladi?
5. Ommaviy axborot xalqaro huquqining qanday sohaviy tamoyillari mavjud?

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar

1. Вещунов Б.К. Новые документы Международного союза электросвязи / Московский журнал международного права. – 1994. – №2. – С.134–141.
2. Колосов Ю.М. Массовая информация и международное право. – М., 1974.
3. Колосов Ю.М., Сепов Б.А. Новый международный информационный порядок и проблема поддержания мира. – М., 1983.
4. Робинов А.А. Международно-правовые проблемы ответственности провайдеров за распространение материалов, содержащих информацию экстремистского характера // Московский журнал международного права. – 2003. – №2. – С.143–149.
5. Шульс О.С. «Приватизация» насилия и информационная война в XXI веке // Московский журнал международного права. – 2003. – №4. – С.178–193.
6. Действующее международное право. В трех томах. Т.3. – М., 1997.

XVII BOB. XALQARO HAVO HUQUQI

“Havo kengliklari” tushunchasi. Xalqaro havo huquqi – havo aloqalarini tartibga soluvchi normalar tizimi. Xalqaro parvozlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari. Havo kengliklarida yo‘lovchi va yuk tashishning xalqaro-huquqiy jihatlari. Xalqaro ko‘lamda fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta‘minlash. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) va uning standartlari

Havo kengliklari tushunchasi

Bugungi kunda havo kemalari boshqa transportlarga qaraganda eng tezkor va qulay vosita bo‘lib, yo‘lovchilar va yuklarni dunyoning har qanday nuqtasiga yetkaza oladi. Havo kemalarining yordami bilan xalqaro hamjamiyatning barcha a‘zolari o‘rtasida xalqaro transport aloqalari rivojlanibgina qolmay, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy sohalarida ham o‘zaro hamkorlik kengaydi. Xalqaro havo transportlarining samarali va barqaror faoliyati natijasida xalqaro havo aloqalarining global tarmog‘i yo‘lga qo‘yildi va hozirda undan barcha davlatlar keng foydalanmoqda. Davlat siyosati va iqtisodiyoti rivojida katta o‘rin tutuvchi havo munosabatlarining huquqiy jihatlarni o‘rganish, xalqaro havo aloqalarining global tarmog‘ining harakati, xalqaro fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta‘minlash, havoda yo‘lovchi va yuk tashish, xalqaro havo kengliklari va davlat hududi tarkibidagi havo kengliklaridan foydalanishning huquqiy asoslarini tahlil qilish xalqaro huquqiy bilimlarning rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi.

Mamlakatimizda havo aloqalarini takomillashtirish, fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha chuqur o‘ylangan, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiya oshirilmoqda. Aviatsiya davlatning ilmiy va texnikaviy imkoniyatlarini, uning iqtisodiy qudrati va xavfsizligini belgilab beradigan asosiy tarmoqlaridan biridir. Aviatsiya xavfsizligi va parvozlarni sifatli amalga oshirishni ta‘minlash, aviatsiya texnikasiga xizmat ko‘rsatishda eng ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek malakali kadrlar tayyorlash sohasida erishilgan yuksak natijalar nufuzli xalqaro aviatsiya tashkilotlari tomonidan bir necha bor taqdirlandi.

Zamonaviy xalqaro huquqda keng ma‘noda hudud deganda, yer sharining quruqlik va suv qismi, yer osti va havo bo‘shlig‘i, shuningdek

kosmik kengliklar va undagi osmon jismlari tushuniladi. Hududni yurisdiksiya bilan bog'laydigan boshqa qarashlar ham mavjud.

O'zbekistonda davlat hududining tarkibi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi – O'zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat. Havo va kosmos o'rtasidagi chegara hozirgi paytda, ayniqsa, "havo kengliklari" tushunchasiga oydinlik kiritishda muhim ahamiyatga ega.

XX asrning birinchi qismida havo kengliklari tabiiy chegarani bilmaydi, uning balandligi cheksiz, degan fikr olimlar tomonidan keng muhokama qilingan. Kosmik hududning zabt etilishi uning asossiz ekanligini ko'rsatdi.

Havo kengliklari – havo kemalari parvoz qila oladigan davlatlarga tegishli bo'lgan yoki bo'lmagan havo hududlari. Havo kengliklari – davlat suvereniteti to'liq o'rnatilgan yoki hech qaysi davlatga tegishli bo'lmagan xalqaro havo hududlaridir. Havo kengliklari o'z navbatida ikki qismga bo'lib o'rganiladi: 1) davlat suverenitetiga tegishli havo kengliklari (undan faqat davlatning roziligi asosida foydalanish mumkin); 2) xalqaro havo kengliklari (okeanlar, xalqaro dengizlar, Arktika, Antarktika, xalqaro bo'g'ozlar ustida joylashgan havo hududi, undan barcha davlatlar teng darajada foydalanadi).

Xalqaro havo huquqi – havo aloqalarini tartibga soluvchi normalar tizimi

O'tgan asr boshlarida xalqaro munosabatlarda xalqaro havo yo'llarini tartibga soluvchi huquqiy prinsiplar va normalar yo'q edi. Ular fan-texnika taraqqiyotining xalqaro huquqqa ta'siri natijasida yuzaga keldi.

1913-yil yozida nemis harbiy samolyotlarining fransuz davlat chegaralari ustidan bir necha bor parvoz qilishi natijasida Germaniya va Fransiya o'rtasida diplomatik mojaro paydo bo'ldi. Fransiya Germaniyaga nota yo'llab, unda o'z havo hududida fransuz hukumatidan ruxsat olmasdan parvoz qilgan nemis harbiy samolyotlariga qarshi qat'iy noroziligini bildirdi. Mojaroni hal qilish maqsadida Fransiya va Germaniya 1913-yil 23-iyunda ikki tomonlama shartnoma tuzishdi. Ushbu shartnoma orqali ular o'z quruqlik hududi ustida joylashgan havo kengliklariga o'zlari egalik qilish huquqini tan oldilar, shuningdek ikki

davlat harbiy havo kemalarning boshqa davlat hududida o'sha chet davlat qanday ruxsat bergan bo'lsa, xuddi shunday parvozlar amalga oshirishga kelishishdi. Fransuz va nemis hududida harbiy bo'lmagan havo kemalarning parvozigina faqat vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan, uchishga huquq beruvchi ekipaj guvohnomasini olish sharti bilan ruxsat beriladigan bo'ldi.

1913-yilgi fransuz-nemis bitimi havo huquqi bo'yicha birinchi tarixiy hujjat edi. U davlat hududi tarkibidagi havo kengliklarida rejim qanday bo'lishi kerakligi masalasida davlatlarning pozitsiyasi (havo kemalari parvozi uchun erkiniik yoki davlat suvereniteti ostida)ni uzil-kesil aniqlashda muhim rol o'ynadi.

XX asrning boshida birinchi samolyotlar paydo bo'lishi bilan xalqaro huquq doktrinasida havo kengliklarida rejim va bu munosabatlarda davlatlarning huquqlari to'g'risida o'tkir diskussiya avj oldi. Ayrim olimlarning fikricha, davlat hududi tepasidagi havo kengliklari havo kemalari parvozi uchun ochiq va erkin bo'lishi lozim. Boshqalari esa davlat hududi ustida joylashgan havo kengliklari davlat suvereniteti ostida bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari surishdi.

Havo huquqi nazariyasi fransuz yuristi P. Foshilning "Havo kengliklari va aerostatlarning huquqiy maqomi" asaridan boshlanib, unda havo erkinligi konsepsiyasi (sayyoramizning barcha havo kengliklari parvoz qilish uchun to'liq erkin bo'lishi lozimligi haqida) asoslanadi.

Birinchi jahon urushidan keyin 1919-yilda tashkil qilingan Parij tinchlik konferensiyada havo navigatsiyasi to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Unda a'zo davlatlar quruqlik va suv hududi ustida joylashgan havo kengliklarida davlat to'liq va tanho suverenitetga egaligini bosh prinsip sifatida so'zsiz tan olishdi (Konvensiyaning I-moddasi). "Havo erkinligi" davlatlar manfaatlariga to'g'ri kelmaganligi uchun rad qilindi, Birinchi jahon urushidagi harbiy harakatlar uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy voqealıklar bilan mos kelmasligini ko'rsatdi.

1919-yilgi Parij konvensiyasi xalqaro huquqning tarmog'i bo'lmish xalqaro havo huquqi shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynadi. Unda ko'rsatilgan bir qator qoidalar 1944-yil Ikkinchi jahon urushi yakunlanishi arafasida Chikagoda qabul qilingan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi konvensiyada mustahkamlandi. 1919-yilgi Parij konvensiyasida ilk bor havo kengliklarida davlatlarning to'liq va tanho suverenitetga egaligi asosiy prinsip sifatida belgilandi.

1929-yil 4-12-oktabrda Varshavada xalqaro xususiy huquq bo'yicha ikkinchi xalqaro konferensiya tashkil etildi va Yurist-ekspertlar xalqaro

texnik qo‘mitasi (SITEJA) tomonidan ishlangan konvensiya loyihasi qabul qilindi. Xalqaro aviatahshish jarayonlari va qoidalarini soddalashtirishda muhim rol o‘ynagan 1929-yilgi Xalqaro havo tashishlariga oid ayrim qoidalarni unifikatsiya qilish to‘g‘risidagi Varshava konvensiyasi shunday paydo bo‘ldi. Uning konstruktiv mazmuni tufayli xalqaro aviatahshish rivojiga halal berayotgan juda ko‘p to‘siq va noqulayliklar olib tashlandi. Tashish qoidalarini unifikatsiya qilish natijasida chalkash milliy tashish qoidalari o‘rniga xalqaro aviatahshishlarda muhim bo‘lgan, barcha davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan yagona xalqaro rejim o‘rnatildi. Bunday rejimning o‘rnatilishi faqat xalqaro tashishlarni tartibga soluvchi asosiy unifikatsiyalangan normalar shakllanishida burilish davr bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushi tugashiga oz qolganda, 1944-yil 7-dekabrda 52ta davlat vakillari qatnashgan Fuqaro aviatsiyasi masalasi bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘z ishini yakunladi.

AQSH o‘zining o‘rni yuqoriligidan foydalanib, “havo erkinligi”ning iqtisodiy foydasini keng tarkib qildi. Ammo bu tashabbus ishtirokchi davlatlarning qarshiligiga duch keldi. Konferensiyada AQSH, Angliya, Kanada, Yangi Zelandiya tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risidagi konvensiya loyihasi taklif etildi. Konferensiyada asosiy kurash tijoriy “havo erkinligi” masalasida bo‘ldi. AQSH tomonidan konvensiya loyihasiga kiritilgan “havo erkinligi” to‘g‘risidagi qoidalar chiqarib tashlandi. Biroq bu qoidalar Xalqaro havo aloqalari vaqtida tranzit to‘g‘risidagi kelishuv (26 davlat qo‘shilgan) va Xalqaro havo transporti to‘g‘risidagi kelishuvlarga (11 davlat qo‘shilgan) kiritildi.

Konferensiya Yakuniy hujjat qabul qilinishi bilan tugadi. Uning tarkibida ikkita hujjat mavjud edi: Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risidagi vaqtincha kelishuv (34 davlat tasdiqlagan) va Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risidagi Konvensiya (Chikago konvensiyasi) (38 davlat qo‘shilgan).

Chikago konvensiyasi zamonaviy xalqaro havo huquqi rivojida ulkan rol o‘ynadi va bu hozir ham davom etmoqda. Bularni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

birinchidan, ushbu hujjat xalqaro havo aloqalari doirasida amalga oshiriladigan muntazam va nomuntazam parvozlar sohasida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi universal qoidalarni o‘zida mujassamlashtirdi;

ikkinchidan, konvensiya havo huquqiga doir normalarni birlashtirish, yangi normativ-hujjatlarni ishlab chiqarish, takomillashtirishga turtki bo‘ldi. U 1963, 1970, 1971 va 1988-yilgi konvensiyalarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qildi;

uchinchidan, konvensiya BMTning ixtisoslashtirilgan organi, xalqaro havo munosabatlaridagi asosiy tashkilot bo'lmish IKAO uchun nizom vazifasini bajaradi;

to'rtinchidan, konvensiya IKAO tomonidan standartlar va tavsiyalar qabul qilish yo'li bilan xalqaro aeronavigatsiyani bir xil texnologik rejim bilan ta'minlaydi va tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining eng dastlab qo'shilgan xalqaro hujjatlaridan biri – Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Chikago konvensiyasi hisoblanadi (1992-yil 3-iyunda qo'shilgan, 1992-yil 12-noyabrda kuchga kirgan).

Demak, xalqaro havo huquqi – xalqaro huquq subyektlari o'rtasida havoda yo'lovchi va yuk tashish, havo kengliklaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash, havo kengliklarining huquqiy rejimiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi.

Xalqaro parvozlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Suveren havo kengliklarida xalqaro parvozlarga ruxsat etilgan tartib prinsipi havo kengliklarida to'liq va tanho suverenitet prinsipining ma'nomazmunini aks ettirib, u xorijiy jismoniy va yuridik shaxslarning har qanday xalqaro parvozi suveren davlatning ruxsati bilan amalga oshirilishini bildiradi.

Ruxsat etilgan tartib prinsipi davlat hududida xalqaro parvozlarni huquqiy tartibga solishda davlat vakolatlarini anglatadi. Bu vakolatlar qonun chiharuvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Qonunchilik jabhasida davlat o'z ixtiyoricha quyidagilarni belgilaydi: a) xalqaro parvozlarni qonunga asosan amalga oshirish (xalqaro shartnoma, qonun, maxsus ruxsat va boshqalar); b) milliy va xorijiy aviatashuvchilarga xalqaro havo tashishlarini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartib-qoidalari; d) davlat hududida xalqaro parvozlarni amalga oshirish chog'idagi majburiyatlar va talablar; e) davlat hududida xalqaro parvozlarni nazorat qilish uchun choralar; g) ruxsat etilgan tartibni buzuvchi huquq buzarlilik uchun javobgarlik.

Ijro etishda davlat havo bilan bevosita daxldor bo'lgan organlarning vakolatlarini belgilaydi. Ko'pchilik davlatlarda bu vazifani havo transporti bo'yicha organlar amalga oshirib, ular fuqaro havo transportining texnika (aeronavigatsiya va aviatsiya xavfsizligi), iqtisodiy (tijoriy) va boshqa faoliyatini tartibga solish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro parvozlar davlatlar o'rtasidagi shartnoma yoki davlatlar tomonidan beriladigan maxsus ruxsat asosida amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro havo huquqida xalqaro parvozlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) muntazam xalqaro parvozlar – ikki yoki undan ortiq davlatlarning kelishuvi asosidagi, belgilangan havo yo'llarida doimiy amalga oshiriladigan aviatashkilotlar havo kemalarining parvozlari. 1944-yilgi Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Chikago konvensiyasining 6-moddasida muntazam parvozlar maxsus ruxsatnoma bo'yicha va shu ruxsatnoma talablariga muvofiq davlat hududi ustida amalga oshiriladi, deyilgan. Muntazam parvozlarga bo'lgan huquq havo aloqalari to'g'risidagi hukumatlararo bitimda mustahkamlanadi. Bunday parvozlar bilan ko'pincha tijorat maqsadlarida yo'lovchi, bagaj, yuk va pochta tashishlar bajariladi;

2) nomuntazam xalqaro parvozlar – davlatlar havo kemalari tomonidan amalga oshiriladigan doimiy bo'lmagan parvozlar. Bunday parvozlardan asosiy maqsad tijorat emas, balki tezkor va muhim vazifalarni amalga oshirishdir. Chikago konvensiyasida, ishtirokchi davlatlar hududida tijorat maqsadlarida bo'lmagan, maxsus ruxsatnomasiz nomuntazam parvozlarni amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi qoida keltirilgan. So'nggi vaqtlarda xorijiy davlatlar tomonidan nomuntazam parvozlarni amalga oshirish qoidalarini davlatlar o'z milliy qonunchiligida mustahkamlab qo'ymoqda;

3) tranzit xalqaro parvozlar – xorijiy davlat hududini kesib o'tuvchi, unga qo'nadigan yoki qo'nmaydigan havo kemalarining parvozlari. Tranzit xalqaro parvozlar 1944-yilgi Chikago konvensiyasi, ko'p tomonlama kelishuvlar (1944-yilda qabul qilingan Xalqaro tranzit havo aloqalari va Xalqaro havo transporti to'g'risidagi Chikago kelishuviari), 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi va havo aloqalari to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuvlarga muvofiq bo'lishi lozim.

Tranzit parvozlar havo qatnovining bir qismi hisoblanib, boshqa davlat hududida boshlanib yakunlanadi. Tranzit parvozlarga davlat hududi ustida ruxsat berish yoki huquq berish har bir davlatning ixtiyoriga, vakolatiga tegishli. Bu huquq davlat hududi ustida xorijiy havo kemalarining tranzit parvozi masalalarini hal qilish bo'yicha parvozlarning ruxsat etilgan prinsipiga asoslanadi.

Agar davlat 1944-yilgi Xalqaro havo aloqalari davomida tranzit to'g'risidagi ko'p tomonlama Chikago konvensiyasida ishtirok etayotgan

bo'lsa (yoki havoda "ikki erkinlik"), uning havo kemalari boshqa ishtirokchi davlat hududida tranzit parvozlarni notijorat maqsadlarda qo'nib yoki qo'nmasdan amalga oshirish mumkin. Ayniqsa, davlat hududi ustida qo'nishsiz tranzit parvozlarga ruxsat olish uchun davlatlar tomonidan juda ko'p tushuntirishlar, turli xil qoidalar o'rnatiladi. Umuman olganda, xalqaro tranzit parvozlarni milliy qonunchilik yoki havo aloqalari to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuvlar bilan tartibga solinadi.

1944-yilgi Chikago konvensiyada xalqaro nomuntazam parvozlarni (5-modda) va muntazam havo aloqalari (6-modda) o'rtasidagi farqlar ko'rsatiladi. Konvensiyaning 5-moddasida ta'kidlanganidek, har bir davlat xalqaro nomuntazam parvozlarni amalga oshiruvchi boshqa davlatlarning havo kemalariga notijorat maqsadlarda qo'nish va tranzit parvozlarni amalga oshirishga, ruxsatnoma olinmagan taqdirda ham huquq beradi. Yana shu moddada aytiladiki, nomuntazam tijorat parvozlarni "bortga qabul qilish, yo'lovchi, yuk yoki pochmani tushurish imtiyozlaridan foydalanadi, bunday yuklash va tushirishni bajaradigan har qanday davlat, ma'qul ko'rsa, bunday qoidani, shartni yoki chegarani belgilash huquqiga ega". Chikago konvensiyasining 5-moddasi xalqaro nomuntazam parvozlarni, tashishlarni tartibga soluvchi asosiy normaga aylandi. Ayrim ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarda nomuntazam parvozlarni amalga oshirish tartibi belgilanadi. Konvensiyaning 6-moddasiga binoan har qanday xalqaro havo aloqalari ishtirokchi davlatlar hududi va samoviy hududida maxsus roziligisiz yoki sanksiyasiz amalga oshirilishi mumkin emas. Davlatlar o'rtasida havo aloqalarini o'rnatish uchun ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalarni tuzish zarurdir. Shuning uchun, albatta, "shartnoma tuzish yo'li bilan xalqaro havo aloqalari o'rnatiladi va amalga oshiriladi" degan mazmundagi jumla kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qonun odatda milliy havo kengliklarida xorijiy havo kemalarining parvozini amalga oshirishning ikkita asosini belgilaydi:

xalqaro shartnoma, agar u mavjud bo'lmasa, maxsus ruxsatnoma. Mamlakatimizda havo munosabatlariga oid asosiy hujjat 1993-yil 7-maydagi O'zbekiston Respublikasi havo kodeksi hisoblanadi. 2007-yil 12-sentabrdagi Parvozlarni xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasining "O'zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish qoidalarini (O'zR AQ-91) tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i O'zbekiston Respublikasi havo kengliklaridan foydalanish qoidalari va parvozlarni amalga oshirish masalalarini to'liq tartibga solishga qaratilgan.

Davlatlar uchun havo chegarasini kesib o'tish munosabatlarida chet el havo kemasining davlat hududiga kelishi, bo'lishi va zarar yetkazishining aniq tartibi belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini kesib o'tish aniq belgilangan havo uchish yo'laklarida "Davavianazorat" inspeksiyasi (Parvozlarning xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi) nazorati ostida amalga oshiriladi.

Quyidagilar "Davavianazorat" inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- fuqaro va eksperimental aviatsiya faoliyati sohasida davlat nazorati;

- parvozlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha fuqaro aviatsiyasi faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etish va ta'minlash;

- parvozlarning xavfsizligini ta'minlash, fuqaro havo kemalari hamda fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha normativ va qoidalarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

- o'z vakolatlari doirasida havo qatnoviga xizmat ko'rsatish tashkil etilishi va O'zbekiston Respublikasining havo hududidan foydalanish ustidan nazorat qilish;

- fuqaro havo kemalarini hamda fuqaro va eksperimental aviatsiya aerodromlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- fuqaro aviatsiyasining aviatsiya texnikasi ishlanmalari, modifikatsiyalari va foydalanish, texnik hujjatlarini tasdiqlash;

- fuqaro va eksperimental havo kemalari bilan yuz bergan aviatsiya halokati va baxtsiz hodisalarni surishtirish;

- yo'lovchilar va yuk tashish, aeroportlarda havo kemalariga xizmat ko'rsatish va fuqaro aviatsiyasida aviatsiya ishlarini bajarish bo'yicha faoliyatni litsenziyalashni tashkil etish;

- xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi manfaatlarini ifodalash, "Davavianazorat" inspeksiyasi vakolatlariga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha boshqa davlatlarning aviatsiya ma'muriyatlari va tuzilmalari bilan o'zaro aloqa qilish hamda hamkorlikni ta'minlash.

O'z havo kengliklarida uchishga ruxsat bergan davlat chet el havo kemasining kelish tartibi, qatnovi, qo'nish joyini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi havo kengliklarida davlat chegarasini xorijiy havo kemasining kesib o'tishi faqat belgilangan xalqaro havo

trassalarida, qo'nish esa xalqaro parvozlar uchun ochiq aeroportlarda amalga oshiriladi.

Xalqaro havo aloqalari amaliyotida tez-tez tranzit parvozlar to'g'risida ta'kidlanadi. Bu davlat hududida xorijiy havo kemasining tijorat yoki notijorat, texnik maqsadlarida qo'nadigan yoki qo'nmaydigan parvozdır. Bunday parvozlar havo qatnovining bir qismi hisoblanib, boshqa davlat hududida boshlanib yakunlanadi. Tranzit parvozlarga davlat hududi ustida ruxsat berish yoki huquq berish har bir davlatning ixtiyoriga, vakolatiga tegishli. Bu huquq davlat hududi ustida xorijiy havo kemalarining tranzit parvozi masalalarini hal qilish bo'yicha parvozlarning ruxsat etilgan prinsipiga asoslanadi.

Xalqaro parvozlarni tartibga solish – davlat vakolatlarining alohida bir bo'lagi, shuning uchun ham bu munosabatlar ommaviy-huquqiy xarakterga ega. Uchish qoidalari, parvozlar xavfsizligini ta'minlash, havo aloqalarini boshqarish, parvozlar davomida nazoratni amalga oshirish – bularning bari xalqaro parvozlarga oid masalalar hisoblanib, bu yerda davlat alohida o'rin tutadi. 1993-yilgi O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksi "Xalqaro parvozlar" nomli alohida bobni o'z ichiga olib, unda O'zbekiston Respublikasining havo kemalarining xorijiy davlat hududidagi parvozi va horijiy havo kemalarining O'zbekiston Respublikasi hududida parvozlarni amalga oshirish shartlari va tartibi belgilangan.

O'zbekiston aviatahuvchisi boshqa davlatda xalqaro parvozlarni muntazam amalga oshirishi uchun, u tegishli davlat bilan havo aloqalari to'g'risidagi bitimga muvofiq, hukumat tomonidan tayinlangan bo'lishi lozim. Tabiiyki, ungacha aviatahuvchiga ekspluatant guvohnomasi, aviatahish va xalqaro parvozlarni amalga oshirishga qodirlikni va tashuvchi sifatida huquqiy layoqatlilikni anglatuvchi litsenziya va sertifikat berilgan bo'lishi lozim. Tashuvchi qilib tayinlangach, xalqaro parvozlar va tashishlar amalga oshiriladigan davlatda undan talab qilinadigan zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilishi kerak. Bundan tashqari, tashuvchi xalqaro parvozlarni va tashishlarni amalga oshirish uchun, qaysi davlatga uchish amalga oshirilayotgan bo'lsa, u yerda tijorat va texnik masalalarni hal qilish uchun IKAO (Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti)dan kodlarni olishi lozim.

Ro'yxatga oluvchi davlatning boshqa davlatga havo kemasini ijaraga berish munosabatlarida huquq va majburiyatlarning o'tishi o'ziga xos bo'lib, tashuvchi uni 1944-yilgi Chikago konvensiyasini to'ldiruvchi, 1980-yil IKAO Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 83 bis "Tegishli

vazifa va majburiyatlarning o'tishi" nomli tuzatishdan kelib chiqib, unga rioya qilgan holda ijaraga oladi. Ushbu tuzatish 1997-yil 20-iyunda kuchga kirgan.

83 bis modda umumiy xarakterdagi tuzatishlarni o'z ichiga oladi. Uni ratifiatsiya qilishning o'zi havo kemasining eksplutanti – registratsiya qiluvchi davlatning vazifa va vakolatlari boshqa davlatga avtomatik o'tganini bildirmaydi. Huquq va majburiyatlar o'tishi uchun davlatlarga maqbul ikki tomonlama shartnoma tuzish yo'li bilan rasmiylashtirilishi lozim. Bundan tashqari, 83 bis modda beriladigan majburiyatlar chegarasini belgilaydi: bu masaladagi har qanday bitim Chikago konvensiyasining 12 (Uchish qoidalari), 30 (havo kemalarining radiojihozi), 31 (Uchishga loyqlik to'g'risidagi guvohnoma) va 32 (Ekipaj a'zolariga guvohnoma)-moddalaridagi vazifa va majburiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Agarda bitim bo'yicha vazifa va vakolatlar boshqa davlatga o'tmasligi ko'rsatilgan yoki bu haqda hech qanday qoida kiritilmagan bo'lsa, o'z-o'zidan javobgarlik ro'yxatga oluvchi davlat zimmasida qoladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasining havo kemalarida muntazam xalqaro parvozlar O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati belgilagan tartibda tayinlangan tashuvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi havo kemalarining xalqaro parvozlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, tegishli xorijiy davlatlarning vakolatli organlari tomonidan yakka parvoz uchun beriladigan maxsus ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi havo kemalari mazkur havo kemalarini tasarruf etuvchi yoki ularning egalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, tashkilotlar va fuqarolar ruxsati bilan yakka xalqaro parvozlarni amalga oshirishi mumkin. Xorijiy davlat samoviy hududida O'zbekiston Respublikasi fuqaro havo kemasining parvozigaga maxsus ruxsatnoma olish uchun so'rovnomanini Aviatsiya ma'muriyati, davlat va eksperimental havo kemasining parvozi uchun esa O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi yuboradi. Bunday so'rovnomalar kema hujjatlariga, ekipaj to'g'risidagi ma'lumotlarga taalluqli barcha talablarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va parvoz rejalashtirilgan xorijiy davlat hududida amal qiladigan boshqa talab va qoidalarga rioya qilingan holdagina amalga oshiriladi.

Chet el havo kemalarining O'zbekiston Respublikasi samoviy hududidagi parvozlari:

- a) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari;
- b) parvoz uchun maxsus ruxsatnomalar asosida va ularning shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur ruxsatnomalarni:

- fuqaro havo kemalarining yakka parvozi uchun – Aviatsiya ma'muriyati;
- fuqaro havo kemalaridan boshqa kemalarning yakka parvozi uchun – O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi beradi.

Milliy va xorijiy havo kemalarining O'zbekiston Respublikasi hududidan havoga ko'tarilishi, shuningdek ularning O'zbekiston

Respublikasi hududiga uchib kirgandan keyingi qo'nishi xalqaro parvozlari uchun ochiq aerodromlarda amalga oshiriladi. Samoviy hududda xalqaro parvozlari belgilangan havo yo'llari bo'ylab bajariladi. Havo kemalari O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini O'zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda maxsus ajratilgan xalqaro havo trassalari yoki havo yo'laklari bo'ylab kesib o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish to'g'risidagi Nizomga muvofiq tabiiy ofat, falokat, avariya, avariya vaziyati hamda odamlar hayotiga xavf tug'ilgan boshqa sharoitlarda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi samoviy hududidan foydalanish to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda beriladigan maxsus ruxsatnoma olinganida yuqoridagi qoidalardan istisnoga yo'l qo'yish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro parvozlarni amalga oshirish, havoda yo'lovchi va yuk tashish, fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash bir-biri bilan bog'liq munosabatlar bo'lib, havo aloqalariga doir barcha xalqaro shartnomalar ushbu masalalarni o'z ichiga oladi.

Havo kengliklarida yo'lovchi va yuk tashishning xalqaro-huquqiy jihatlari

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asosining transport munosabatlarini tartibga soluvchi qismini umumqabul etilgan xalqaro norma va qoidalarga yaqinlashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Xalqaro shartnomalar va qonunlar xalqaro havo kengliklarida yo'lovchi va yuk tashish munosabatlarini tartibga soladi. 1929-yil 12-oktabrda imzolangan havo orqali xalqaro tashishlarga taalluqli ayrim qoidalarni birxilllashtirishga doir Varshava konvensiyasida ko'rsatilishicha,

yo'lovchi va yukni ikki va undan ortiq mamlakat o'rtasida tashish xalqaro tashish deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 94-moddasida havo kemasining parvozi davomida yangi yuk olgan yoki olmaganligidan yoxud parvozda tanaffus bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'i nazar, qo'nish manzillari:

a) ikki davlat hududida;

b) agar boshqa davlat hududida oraliq qo'nish manzili nazarda tutilgan bo'lsa, bir davlat hududida bajariladigan parvozlari chog'idagi tashish ishlari havo transportida xalqaro tashish deb hisoblanadi.

Havo qatnovi va havo transporti sohasidagi hamkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan barcha ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda "xalqaro havo qatnovi" deganda, birdan ortiq davlatning samoviy hududi orqali amalga oshiriladigan havo qatnovi tushuniladi.

Bugungi kungacha havo kengliklarida yo'lovchi va yuk tashish munosabatlarini tartibga soluvchi bir qator xalqaro konvensiyalar qabul qilingan:

1929-yilda Varshavada imzolangan havo orqali xalqaro tashishlarga taalluqli ayrim qoidalarni birxillashtirishga doir konvensiya va unga doir Protokollar;

1944-yilgi Xalqaro havo yo'llarida tranzit to'g'risidagi bitim;

1956-yilgi yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya va unga doir bayonnoma;

havo kemalariga huquqlarning xalqaro tan olinishi to'g'risidagi konvensiya;

1944-yilgi Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risida Chikago konvensiyasi va unga doir Protokollar;

Xalqaro havo yo'llarida tranzit to'g'risidagi Bitim.

Havo kengliklarida yo'lovchi va yuk tashishning umumiy prinsiplari 1944-yil 7-dekabrda Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Chikago konvensiyasi va uning ilovalari doirasida o'z yechimini topdi. Bu Konvensiya o'z mazmuniga ko'ra juda keng qamrovli bo'lib, davlatlar o'rtasidagi parvozlarning huquqiy asoslarini ham xalqaro qatnovlarda foydalaniladigan aviatsiyaga qo'yiladigan asosiy transport-texnik talablarini ham belgilaydi.

Shuningdek, havo kemalarining huquqiy rejimini, ya'ni havo kemasining garovi shartlarini, uni xatlash tartibini belgilaydigan transport konvensiyalari jumlasiga 1996-yil 27-dekabrda O'zbekiston qo'shilgan

Havo kemalariga huquqlarning xalqaro tan olinishi to'g'risidagi konvensiyani kiritish mumkin.

Havoda yo'lovchi va yuk tashish munosabatlarini tartibga solishda eng muhim hujjatlardan yana biri bu 1929-yili Varshavada imzolangan havo orqali xalqaro tashishga taalluqli ayrim qoidalarni birxillashtirish to'g'risidagi konvensiya va unga qo'shimcha protokollar kiradi.

Ushbu konvensiyalar "Varshava tizimi" ga kiruvchi xalqaro shartnomalar hisoblanadi. Oxirgi paytlarda havo transportida xalqaro tashishlarga doir qoidalarni birxillashtirish yo'lida amaliy qadamlar tashlanmoqda. Buning sababi shuki, "Varshava tizimi"ga kiruvchi xalqaro shartnomalarning yuridik holati noqulayliklar tug'dirmoqda va buni quyidagilarda ko'rish mumkin: 130 davlat Varshava konvensiyasi ishtirokchisi bo'lib, Gaaga bayonomasiga – 120 davlat qo'shilgan, Gvadalaxara konvensiyasiga esa 65 davlat a'zodir. Shu bilan birga, Gavtemala protokoliga 11 davlat, 1–4-Monreal protokollariga 19tadan 25tagacha davlat a'zo bo'lib, bu protokollar hali kuchga kirmagan, shu sababli bu hujjatlarning yuridik kuchi tashuvchining ularda belgilangan javobgarligi chegarasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi havo kodeksining 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi samoviy hududga u to'la va tanho egalik qiladi. Respublikaning samoviy hududi O'zbekiston davlati hududining ajralmas qismidir.

Davlatning hududiy ustuvorligi omili shuni bildiradiki, har bir davlat o'z hududida transport faoliyatini tartibga solishda mutlaq huquqqa ega. Shu sababli mamlakatlar o'rtasida yo'lovchi va yuk tashish aloqalarini tashkil etishda davlatlarning roziligi bo'lishi zarur.

Xorijiy davlat hududiga yuklar va yo'lovchilarning kirib kelishi o'zining yuridik shart-sharoitiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki xil vaziyatda, birinchidan, xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashish to'g'risida xalqaro shartnoma bo'lmagani holda, ikkinchidan, mazkur masalaga oid ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnoma bo'lgani holda sodir bo'lishi mumkin. Bu holat davlatlar huquqiy rejimiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o'rtasida 1996-yil 27-maydagi havo qatnovi va havo transporti sohasida hamkorlik qilish to'g'risida tuzilgan Bitimning 4-moddasiga ko'ra Ahdlashuvchi tomonlar o'zaro belgilab olgan yo'nalishlar bo'yicha kelishilgan qatnovlarga tegishli ruxsatnomalar berish tartibini shartlashib olganlar. Havo kengliklarida tashish tariflari to'g'risidagi xalqaro

shartnomalar, odatda, tariflarning amal qilish sohasi va qo'llanish tartibi haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga oluvchi umumiy qoidalardan; masofalar jadvalaridan; tashish haqi jadvalaridan; tashish chog'ida undiriladigan qo'shimcha yig'imlar, imtiyozlar va cheklavlari kabi qoidalardan iborat. Yuk tariflar to'g'risidagi xalqaro shartnomalar, bundan tashqari, tashiladigan yuklarning nomma-nom ro'yxati (nomenklaturasi)ni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o'rtasida havo qatnovi to'g'risida 1995-yil 16-fevralda imzolangan bitimning 10-moddasida aviatsiyada tariflarni belgilash va uni hal qilish yo'llari ko'rsatiladi. Unga ko'ra tariflar har qanday shartlashilgan yo'llarda foydalanishga ketadigan xarajatlarni, foydaning oqilona miqdorini, avialiniya tavsiyasini hamda belgilangan yo'nalishlarning har qanday qismi uchun boshqa aviakorxonalarining tariflarini qo'shgan holda barcha tegishli omillarni hisobga olib oqilona me'yorlarda belgilanishi lozim. Kelishib olingan tariflar tomonlarning aviatsiya ma'murlari tomonidan tasdiqlanishi lozim, agar ular tasdiqlamasalar, hech qanday tarif kuchga ega bo'lmaydi.

Xalqaro aviatransport uyushmasi (IATA) yuklarni havo yo'lida tashishning maxsus qoidalarini nashr etgan.

Xalqaro shartnomalar asosan davlatlar imzolaganidan (ratifikatsiya qilganidan, qo'shilganidan) keyin kuchga kiradi. Lekin ayrim xalqaro shartnomalar qatnashchi davlatlar jamlaganda muayyan miqdordagi transportga ega bo'lsa yoki muayyan hajmdagi xalqaro tashishlarni bajarsa, kuchga kiradi. Konvensiyaning kuchga kirishidagi bunday qo'shimcha shart havo transporti masalalariga doir ayrim xalqaro shartnomalarga kiritilgan. Masalan, havo transportida xalqaro tashishlarga doir ayrim qoidalarni unifikatsiyalash haqidagi Varshava konvensiyasiga o'zgartirish kirituvchi Gvatemala bayonnomasida IKAOga kiruvchi davlatlarning havo orqali tashish hajmi 40 foizni tashkil etishi ko'rsatilgan. Bu bayonnomaga O'zbekiston qo'shilmagan.

Ko'pgina mamalakatlarning qonunchiligi, amaliyoti va nazariyasida tashuvchining qonunini qo'llashga moyillik ancha aniq ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi havo kodeksining talab qo'yish tartibi, da'voning eskirishi va sudga ko'rish ehtimoli to'g'risidagi 122, 127, 135-moddalari Varshava konvensiyasiga muvofiq holda o'z yechimini topgan. Ammo Varshava konvensiyasining 32-moddasida yuk tashishga oid nizolarning hakamlilik sudiga taalluqliligi masalasi havo kodeksida uzilkesil hal etilmagan.

Xalqaro ko'lamda fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash

Chikago konvensiyasining Muqaddimasida belgilanganidek, konvensiyaning vazifasi va IKAOni tuzishdan maqsad: "Xalqaro fuqaro aviatsiyasining tartibli va xavfsiz rivojlanishini yo'lga qo'yish"dan iborat. Shuning uchun konvensiya va uning 18ta ilovasida aeronavigatsiyaning texnik xavfsizligini ta'minlashning yagona talablari e'tirof etilgan. Ushbu talablar aviatsiya sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olib, doimo yangilanib borishni taqozo etadi. Davlatlar IKAO doirasida vaqti-vaqti bilan, zarurat tug'ilgan hollarda quyidagilarga taalluqli xalqaro reglamentlar va qoidalarni ishlab chiqadi: havo kemalarining parvozga loyiqligi, uchuvchi va texnik personalning malakasi; havo kemalarining ro'yxatga olinganligi va bort hujjatlari; aeronavigatsiya xaritalari va aloqa tizimi; aeroportlar va qo'nish maydonchalarining tavsifi; parvoz qoidalari va havo harakatini boshqarish amaliyoti, shuningdek aeronavigatsiyaning samaradorligi va xavfsizligiga taalluqli qoidalar.

Davlatlar quyidagilarni bajarishga majbur:

a) aeroportlar, yordamchi xizmatlar, havo yo'llari va aviatexnikaning teznik jihatdan ishonchliligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

b) fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish harakatlariga qarshi kurashish.

IKAOning rahbarligida XX asrning ikkinchi yarmida fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishga qarshi kurash bo'yicha davlatlar hamkorligini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan bir qator konvensiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, Havo kemalarini noqonuniy egallashga qarshi kurash to'g'risidagi 1970-yilgi Gaaga konvensiyasi va Fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlar bilan kurash to'g'risidagi 1971-yilgi Monreal konvensiyasi. Ushbu konvensiyalarda parvozda bo'lgan havo kemalarini kuch ishlatish yo'li yoki kuch ishlatish bilan qo'rqitish yoxud qo'rqitishning boshqa shakllari bilan egallash og'ir jinoyat deb, e'tirof etilgan. Monreal konvensiyasi fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga tahdid qiluvchi jinoiy aktlar ro'yxatini yanada kengaytirdi va unga aniqliklar kiritdi. Jumladan: parvozdagi havo kemasi bortida bo'lgan shaxslarga nisbatan zo'rlik; foydalanishda bo'lgan havo kemasining parvozi xavfsizligiga tahdid soluvchi oldindan yolg'on ma'lumotlar berish va boshqalar. 1988-yilda Monreal konvensiyasiga qo'shimcha protokol qabul qilinib, bu protokol xalqaro parvozlarga xizmat ko'rsatadigan aeroportlarda noqonuniy zo'rlik aktlari bilan kurashishga qaratilgan.

Aviatsiya xavfsizligiga ziyon yetkazgan fuqaroviy havo kemalarni olib qochish va noqonuniy egallash hollari mavjud bo'lganligi sababli, IKAO Chikago konvensiyasiga maxsus 17-Ilova – "Xavfsizlik. Fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashish harakatlaridan himoya qilish"ni ishlab chiqdi. Ilovada xalqaro fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashish aktlaridan himoya qilish bilan bog'liq barcha masalalarda yo'lovchilarning, ekipajning, yerdagi xizmatchilarning va umuman jamiyatning xavfsizligi birinchi darajali ahamiyatga ega, deyiladi.

Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, aviatsiya texnikasi va yerdagi uskunalarining texnik jihatdan ishonchligini ta'minlash yo'li bilan aviatsiya texnikasini xavfsiz va tartibli ravishda rivojlantirish. Bu masala IKAO zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Shu bois havo kemalarining parvozga yaroqliligi hamda uchuvchi va texnik xodimlarning ixtisosligi, havo kemalarining ro'yxatga olinishi va bort hujjatlari, aeroportlar tavsifi, parvoz qoidalari va shu kabi boshqa masalalarga taalluqli xalqaro reglamentlar ustida IKAO doirasida doimiy ravishda ish olib borilmoqda.

Ikkinchidan, fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy ravishda aralashishning oldini olish va bunday hollarga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Fuqaro aviatsiyasi faoliyatga noqonuniy ravishda aralashishga qarshi kurashda davlatlar hamkorligiga doir uchta universal konvensiya qabul qilingan:

1963-yilgi Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va ba'zi boshqa aktlar to'g'risidagi Tokio konvensiyasi;

1970-yilgi Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;

1971-yilgi Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan g'ayriqonuniy harakatlar bilan kurashish to'g'risidagi Monreal konvensiyasi, shuningdek Monreal konvensiyasini to'ldiradigan 1988-yilgi Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi aeroportlarda g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to'g'risidagi Protokol.

Bu hujjatlarda parvozdagi havo kemasini g'ayriqonuniy tarzda egallab olish, parvozdagi havo kemasi bortidagi shaxslarga zulm o'tkazish, yerdagi aeronavigatsiya uskunalarini ishdan chiqarish yoki ulardan foydalanishga aralashish, havo kemasi parvozi xavfsizligini xatar ostiga qo'yuvchi yolg'on ma'lumotlar haqida xabar qilish aktlariga nisbatan universal yurisdiksiya belgilangan.

Bunday xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan "topshir yoki jazola" prinsipi qabul qilingan. O'z hududida gumon qilinayotgan jinoyatchini qo'lga olgan har qanday davlat uni sud qilishga yoxud topshirishga majbur. Bu boradagi tegishli qoidalar havo yo'llari to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlarga ham kiritiladi.

Tashuvchilar o'rtasida tuziladigan kelishuvlar yordami bilan aviatashuvchilar xalqaro havo aloqalarini amalga oshirishdagi turli xil amaliy masalalarni tezkorlik bilan aniqlash va hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jumladan, yoqilg'i ta'minoti, uchishga texnik tayyorgarlik, samolyot remonti, bortdagi tashkiliy xizmat, kodlardan birgalikda foydalanish, yer usti va aeronavigatsion xizmatlar va shu kabilar. Bunday kelishuvlar asosida davlatlar o'rtasida emas, aviatashuvchilar o'rtasida axborot almashinuv, texnik, tijoriy, ekspluatatsion va boshqa munosabatlar rivojlanadi. Shunday qilib, 50-yillarda va undan keyingi vaqtlarda xalqaro havo aloqalari amaliyotida davlatlar aralashmaydigan faoliyat sohasi joriy qilindi.

Korporativ tartibga solishning yarim asrlik tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunday kelishuvlarning mazmuni juda ko'p omillar bilan bog'liq, birinchi navbatda uning predmeti bilan. Bu kelishuvlar normalari o'zida aviatashish faoliyati bilan bog'liq xalqaro ommaviy va xususiy, ichki milliy munosabatlarni mujassamlashtirgan. O'z tabiati bo'yicha bunday kelishuvlar kollizion normalardan iborat bo'lib, aviatashuvchilarning o'zlari tomonidan yaratilgan korporativ normalar, xalqaro va milliy huquq normalaridan ancha farq qiladigan, keng qo'llashga qaratilgan. Ularni qabul qilishda aviatashuvchilarning mustaqilligi cheklangan xarakter kasb etadi. Chunki korporativ normalar xalqaro va milliy huquqning imperativ qoidalariga zid bo'lmasligi kerak.

Aviatashuvchilarga yo'l ochish va ruxsat berish tartibini davlatlar o'zaro ikki tomonlama kelishuv, shartnomalar tuzish bilan joriy etadi, ularga mustaqil faoliyat uchun zaruriy qoidalarni belgilaydilar, shu bilan birga nodavlat hamkorlikni amalga oshirish tartibini ham bevosita davlatlar ko'rsatib berishadi. Shuning uchun aviatashuvchilar o'rtasida tuziladigan korporativ kelishuvlar faqat xalqaro aviatashishni amalga oshirish va xalqaro havo aloqalarini muntazam va nomuntazam ekspluatatsiya qilish vaqtida vujudga keladigan nodavlat xususiy ikki tomonlama munosabatlarni tartibga soladi.

Davlatlar va xalqaro tashkilotlar xalqaro fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashishlardan himoya qilishga katta e'tibor qaratadi. Bu

maqsadda IKAO havo kemalarini noqonuniy ushlab va o'g'irlashga qarshi beshta huquqiy hujjatni ishlab chiqqan.

Bu sohadagi birinchi hujjat 1963-yil 14-sentabrda Tokioda qabul qilingan havo kemalari bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqa ayrim harakatlar to'g'risidagi konvensiya hisoblanadi. Konvensiya havo kemalari bortida tartibni saqlash, bortda joylashgan shaxslar va mulk xavfsizligini ta'minlash, havo kemalari uchish xavfsizligiga tahdid qiladigan va qilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va boshqa jinoyat hisoblanmaydigan harakatlarga doir masalalarni qamrab olgan.

1963-yil Tokio konvensiyasi havo kemalarini noqonuniy ushlab yoki uni ekspluatatsiyasiga noqonuniy aralashishni yuridik kvalifikatsiya qilish bo'yicha birinchi harakat hisoblanar edi.

Ammo aslini olganda konvensiya havo kemasi ustidan nazoratni jinoyatchilardan olib uning komandiriga qaytarish, uchishni davom ettirish, havo kemasi ekipaji va yo'lovchilarini belgilangan joyga yetkazishni davlatlar tomonidan ta'minlash majburiyatini belgilaydi.

1963-yilgi Tokio konvensiyasi havo kemalarini noqonuniy egallashni xalqaro jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilmaydi, xalqaro huquq prinsiplariga asosan uni jinoyat sifatida tan olmaydi va davlat ichki huquqida havo kemalarini ushlab jinoyat sifatida belgilashni majburiyat qilib yuklamaydi.

Bundan tashqari, konvensiya predmetiga havo kemalari parvozi xavfsizligiga tahdid solmaydigan siyosiy va diniy motivlar bo'yicha noqonuniy ushlab harakatlari kirmaydi. U yana gumon qilinayotgan jinoyatchini, agar uni topshirish to'g'risidagi tegishli iltimosnoma mavjud bo'lmasa, jinoiy surishtiruv maqsadida vakolatli organlarga topshirish majburiyatlariga doir qoidalarni ham o'z ichiga olmaydi.

Shunga qaramasdan, 1963-yilgi Tokio konvensiyasi samolyotlarni o'g'irlash va noqonuniy ushlabga qarshi kurashishda dastlabki qadam bo'ldi.

Bu sohadagi ikkinchi hujjat 1970-yil 16-dekabrda Gaagada qabul qilingan Havo kemalarini noqonuniy ushlabga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya bo'lib, havo kemalarini noqonuniy ushlab jinoyat sifatida birinchi bor kvalifikatsiya qildi. Shundan beri, havo kemalari uchish vaqtida bo'lishi, jinoyat havo kemasi bortida sodir etilgan bo'lishi kerak. Konvensiyaga muvofiq, ahdlashuvchi davlatlar o'z yurisdiksiyasini belgilashlari lozim: davlatlar havo kemalarini ro'yxatdan o'tkazgan bo'lishi mumkin; havo kemasi tashishlarni amalga oshiradigan davlat hududi, qachonki jinoyatchi bortda joylashgan bo'lsa; yoki agar gap

ijaraga berilgan havo kemasi haqida ketayotgan bo'lsa, ijaraga beruvchining asosiy joyi joylashgan davlat hududi va boshqalar.

Hududida jinoyatchi joylashgan davlat, agar jinoyatchini topshirish to'g'risida yuqorida keltirilgan davlatlardan biri bilan shartnoma mavjud bo'lmasa, o'z yurisdiksiyasini belgilashi lozim. Jinoyatni ochish maqsadida tegishli davlatning vakolatli organlariga jinoyatchi topshirilishi lozim.

1970-yilgi Gaaga konvensiyasining ahamiyati shundan iboratki, davlatlarning ichki milliy huquqiga muvofiq xavfli jinoyat sifatida havo kemalarini noqonuniy ushlab turish harakati davlatlar tomonidan tan olinishini talab qildi va noqonuniy aralashish xalqaro jinoyat deb topishdi va Ahdlashuvchi davlatlar buni universal prinsip sifatida belgilashdi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) va uning standartlari Xalqaro havo transporti faoliyati masalalari bilan juda ko'p xalqaro tashkilotlar shug'ullanadi. Ularning ichida eng nufuzlisi BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi – Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) hisoblanadi. Bugungi kunda IKAOga 190 ta davlat a'zo bo'lib, bu davlatlar havo kengliklarida ushbu tashkilotning ko'magidan muntazam foydalanadi.

Xalqaro aviatsiya tashkilotlarining ko'pchilik qismini (200ga yaqin) nohukumatlararo aviatsiya tashkilotlari tashkil qiladi. Ularni iqtisodiy, ekspluatatsion-texnik, ilmiy aviatsiya tashkilotlarga ajratish mumkin. Shunday aviatsiya tashkilotlari ham borki, ular havo sug'urtasi, aviatsiya turizmi va sporti, aviatsiya tibbiyoti kabi sohalar uchun ixtisoslashgan. Shubhasiz, bu tashkilotlar ichida yetakchisi – havo transporti xalqaro assotsiatsiyasi (IATA) bo'lib, u o'zida jahonning besh qit'asi aviakompaniyalarini birlashtirgan. Bugungi kunda IATA muhimligi jihatdan global miqyosda xalqaro havo transporti sohasida aviakompaniyaning yagona iqtisodiy, huquqiy, texnik siyosatini shakllantirish muhim rol o'ynovchi IKAOdin keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) 1947-yil 4-aprelda tashkil qilingan. IKAO Ustavining ahamiyati shundan iboratki, uning maqsadi va vazifalari, tuzilishi va vakolatlariga taalluqli asosiy qoidalar 1944-yilgi Chikago konvensiyasining ikkinchi bo'limida o'z aksini topgan. IKAO faoliyatiga doir ayrim normalarni Chikago konvensiyasining birinchi va uchinchi bo'limlarida uchratish mumkin.

IKAO o'z faoliyatini mintaqaviy byurolar yordamida olib boradi. Masalan, Yevropa mintaqaviy byurosi (Parij), Afrika mintaqaviy byurosi

(Dakar), Yaqin Sharq mintaqaviy byurosi (Qohira), Janubiy Amerika mintaqaviy byurosi (Lima), Osiyo-Tinch okeani havzasi mintaqaviy byurosi (Bangkok), Shimoliy Amerika va Karib havzasi mintaqaviy byurosi (Mexiko) va Sharqiy Afrika mintaqaviy byurosi (Nayrobi). IKAONing shtab-kvartirasi Monrealda (Kanada) joylashgan.

IKAO funksiya va vakolatlari maxsus xarakterga ega. Xalqaro havo transporti rivojiga xizmat qiluvchi xalqaro aeronavigatsiya prinsip va metodlarini ishlab chiqish maqsadida IKAONing muvofiqlashtiruvchi, operativ, nazorat, tartibga soluvchi va arbitraj fuksiyalari ajratilgan. Ularni amalga oshirish uchun IKAO xalqaro havo transporti va xalqaro aeronavigatsiya masalalarini hal qiladi va qarorlar qabul qiladi. IKAONing vakolatlari uning organlari faoliyatida ko'rinadi. Masalan, faqat Assambleya IKAO ishchi dasturini qabul qilish, Chikago konvensiyasiga tuzatish va yangi tavsiyalar kiritish vakolatiga ega.

IKAO Kengashi IKAO Bosh Kotibini tayinlash, ishchi organlarni tashkil qilish, xalqaro standartlar va tavsiyalar qabul qilish va a'zo davlatlar o'rtasida nizolarni hal qilish huquqiga ega.

IKAO Ustavini tashkilot mexanizmining tashkiliy-huquqiy jihatlarni ta'minlovchi normalar tashkil qiladi. Aynan shu normalar IKAO qanday organlardan iborat bo'lishi, ularning bir-biriga bog'liqligi va bo'ysunishi, o'z vazifalarini bajarish uchun qanday metodlardan foydalanishlari mumkinligi, faoliyatni amalga oshirishi lozim bo'lgan shakllarini belgilaydi.

IKAO Ustavi a'zolik tartibini, organlarning tuzilishi va ishini tashkil qilish, protsedura qoidalarini qo'llash, xalqaro aeronavigatsiya qoidalarini unifikatsiyalash, rasmiyatchilikni soddalashtirish tartibi, Chikago konvensiyasiga tuzatish kiritish, yangi konvensiyalarni ishlab chiqish va qabul qilish, a'zo davlatlar o'rtasida kelishmovchilik va nizolarni hal qilish, xalqaro havo transportini rivojlantirishda a'zo davlatlarga texnik yordam ko'rsatish va IKAO ma'muriy faoliyatini amalga oshirish tartibini o'z ichiga oladi.

IKAO a'zosi bo'lishi uchun Chikago konvensiyasini imzolab, konvensiyaga davlatning qo'shilganligi to'g'risidagi xabarni depozitariy (AQSH)ga yuborish lozim. Xabar olingan kundan keyin 30 kun ichida qo'shilish kuchga kiradi va konvensiyaning barcha ishtirokchilariga bu haqda ma'lum qilinadi. IKAO a'zolarining dastlabki va keyinchalik qo'shilgan a'zolari farqlanadi.

Birinchi davlatlar 1944-yil Chikago konferensiyasida qatnashgan va Chikago konvensiyasi qabul qilingan vaqtda unga qo'shilgan davlatlar

hisoblansa, keyingilari konvensiya kuchga kirgandan keyin qo‘shilgan davlatlar hisoblanadi. Konvensiyaga qo‘shilishda qaysidir davlatga imtiyozlar berilmagan.

IKAO tuzilishi – Ustavga muvofiq tashkil etilgan uning doimiy organlari yig‘indisi. IKAO tuzilishi muayyan tashkiliy qoidalarga asosan tuzilgan. Ularning asosiysi IKAOning har bir organi maqsadlari, funksiyalari va vakolatlari aniq belgilangan. Boshqa qoidalar IKAO umumiy maqsad va vazifalarini bajarish va ularni birlashtirish maqsadida IKAOning har bir organi vazifalari aniq taqsimlangan. Shuning uchun, IKAO tuzilishi uning organlari ishi taqsimoti va ular o‘rtasidagi harakatni muvofiqlashtirish qanday shaklda amalga oshirilishi to‘g‘risidagi qoidalardan iborat, degan tushunchani beradi.

IKAOning asosiy organi IKAO Assambleyasi hisoblanib, u xalqaro havo transporti va xalqaro aeronavigatsiya sohasida IKAOning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilash uchun uch-yilda bir marta chaqiriladi. Assambleya ishida IKAOga a‘zo davlatlarning barchasi ishtirok etadi.

IKAO Kengashi asosiy ijro qiluvchi doimiy organ bo‘lib, Assambleya qarorlarini hayotga tatbiq qiladi va IKAO sessiyalari oralig‘idagi vaqt davomida tashkilot faoliyatiga rahbarlik qiladi. Kengash tarkibiga o‘ziga xos qoidalar va mezonlar bo‘yicha 33ta davlat saylanadi. Kengashga to‘g‘ridan to‘g‘ri Aeronavigatsiya komissiyasi, Aviatransport qo‘mitasi, Aeronavigatsiya ta‘minotini birgalikda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘mita, Noqonuniy aralashish bo‘yicha qo‘mita, Yuridik qo‘mita, Moliya qo‘mitasi va Kotibiyat bo‘ysunadi.

IKAO o‘z faoliyatda uchish-texnik norma va qoidalarni ishlab chiqadi. Ular ikki xil bo‘lib, “IKAO standartlari” va “IKAO tavsiyalari” deb nomlanadi. Bu standartlar va tavsiyalar barcha davlatlardagi uchish jarayonlarini, xalqaro aeronavigatsiya qoidalarini muvofiqlashtiradi, xavfsiz parvozni ta‘minlashga ko‘mak beradi.

Hozirgi kunda standartlar va tavsiyalar 1944-yilgi Chikago konvensiyasiga 18ta ilova sifatida rasmiylashtirilgan. Ularda fuqaro aviatsiyasining shaxsiy tarkibiga doir talablar, ob-havo va uchish qoidalari, havo kemalarining uchishga loyiqligi, aerodromlar, qidirish va qutqarish, aeronavigatsiya kartalari, havo kemalarida yuk tashish, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa qoidalar keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Havo kengliklari deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro havo huquqi bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
3. Xalqaro havo huquqi bilan bog'liq asosiy xalqaro shartnomalar to'g'risida ma'lumot bering.
4. Xalqaro parvozlarni amalga oshirishning umumiy qoidalarini tushuntirib bering.
5. Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning xalqaro va milliy huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
6. Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlashning xalqaro standartlari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksida ko'rsatilgan xalqaro parvozlarni amalga oshirish tartibini ayting.

Kazus

2005-yil Fransiya havo kengliklari bo'ylab Belgiya harbiy samolyoti parvozni amalga oshirdi. Ushbu parvozni amalga oshirish o'zaro kelishuvda qayd etilmaganligi bois samolyot Fransiya harbiy kuchlari tomonidan urib tushirildi. Fransiya urib tushirishdan oldin 2 marta ogohlantirish berganini bildirdi. Biroq Belgiya hukumati har qanay holatda ham ushbu harakatni amalga oshirish xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga zid ekanligini bildirib, BMT Xalqaro sudiga murojaat qildi.

Vaziyatga huquqiy baho bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Ҳаво кодекси: Расмий нашр — Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги. — Т.: Адолат, 2013.
2. “Ҳаво транспортида йўловчи ва багаж ташиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Парвозлар хавфсизлигини назорат қилиш давлат инспекцияси бошлиғининг буйруғи, 11 апрель 2011 йил // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».
3. Парвозлар хавфсизлигини назорат қилиш давлат инспекциясининг “Ўзбекистон Республикаси самовий ҳудудида фуқаро ва экспериментал авиациясининг парвоз қилиш қоидаларини (ЎзР АҚ–91) тасдиқлаш тўғрисида”ги Буйруғи. 12 сентябрь 2007 йил

// Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Парвозлар хавфсизлигини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2004 йил 26 февралдаги 90-сонли қарори. // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

5. Халқаро хаво транспортида ташишларга доир айрим қоидаларни бирхиллаштиришга доир 1929 йил Варшава конвенцияси ва унинг протоколлари // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

6. Халқаро фуқаро авиацияси тўғрисидаги 1944 йилги Чикаго конвенцияси ва унга қўшимча протоколлар // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

7. 1970 йилги Ҳаво кемаларини гайриқонуний гарзда эгаллаб олишга қарши кураш тўғрисидаги Гаага конвенцияси // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

8. 1971 йилги Фуқаро авиацияси хавфсизлигига қарши йўналтирилган гайриқонуний ҳаракатлар билан курашиш тўғрисидаги Монреаль конвенцияси, шунингдек Монреаль конвенциясини тўлдирадиган 1988 йилги Халқаро фуқаро авиациясига хизмат кўрсатувчи аэропортларда гайриқонуний зулм актлари билан курашиш тўғрисидаги протокол // Информационно-правовая система законодательства Республики Узбекистан – «Norma».

9. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи (Халқаро оммавий ҳуқуқ). Дарслик. – Т., 2002.

10. Лукашук И.И., Сайдов А.Х. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи назарияси асослари: Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2006.

11. Рашидов К.К. Халқаро қўламда йўловчи ва юк ташиш ҳуқуқи: Дарслик. – Т: ЖИДУ, 2007.

12. Бордунов В.Д. Международное воздушное право. Учебное пособие. – М.: НОУ.ВКШ, «Авиабизнес»; изд-во «Научная книга», 2006.

13. Международное космическое право / Под ред. Жукова Г.П. и Колосова Ю.М. – М., 1999.

XVIII BOB. XALQARO XAVFSIZLIK HUQUQI

Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va paydo bo'lishi. Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va tamoyillari. Yalpi xavfsizlik tushunchasi va ta'minlanishi. Mintaqaviy xavfsizlik. Qurolsizlanish va qurollanishni cheklash

Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va paydo bo'lishi

Insoniyat tarixida bir davlat ikkinchi bir davlatning xavfsizligi va manfaatlariga zarar keltirgan holda o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida qirg'inbarot urushlar va qurolli to'qnashuvlarning uzluksiz zanjirini keltirib chiqargan. Ammo urush va qon to'kilishi vaziyatida ham hayotning dunyoning tinch rivojlanish yo'llarini qidirib topish jarayoni rivojlanib bordi.

Urush va tinchlik masalalarini hal qilishga O'rta asrlar va Uyg'onish davri mutafakkirlari o'zlarining muhim hissalarini qo'shganlar. XV asrdayoq Chex qiroli Irji Podebrad Yevropa monarxlarining ittifoqini tuzish loyihasini taklif qilgan bo'lib, bu loyiha xalqaro munosabatlarda Rim Papasi hokimiyatini cheklashi, Turkiya tajovuziga qarshi Yevropa davlatlarining kuchini birlashtirishi va Yevropada tinchlikni ta'minlashi kerak edi.

Xalqaro xavfsizlik huquqi – bu xalqaro huquqning tinchlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy prinsiplariga mos keluvchi huquqiy va boshqa usullar hamda tinchlikka va xalqaro xavfsizligiga tahdid soluvchi agressiyalar va vaziyatlarga qarshi davlatlar tomonidan ko'rilayotgan kollektiv chora-tadbirlar majmuidir¹.

Xavfsizlikning yangi konsepsiyasini shakllantirishga Rim klubi, Pal'me, Brandt, Brundtland komissiyalari, shuningdek boshqa huquqshunos va siyosatchilar katta hissa qo'shdilar.

Shveysiyaning sobiq Bosh vaziri U. Pal'me tashabbusi bilan tuzilgan qurolsizlanish va xavfsizlik masalalari bo'yicha mustaqil Komissiya BMT

¹Xalqaro xavfsizlik huquqi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Mas'ul muharrir va ad'zboshi muallifi Y.M.Kolosov; – T.: TDYI nashriyoti, 2009. 7 bet.

Ustavida ko'rsatib o'tilgan kollektiv xavfsizlik tizimi etarli darajada samara bermaganligini tahlil qildi¹.

Yalpi tinchlik konsepsiyasi XVII–XIX asr mutafakkirlarining asarlarida rivojlantirildi va keng tarqaldi. Ular urush va tinchlik muammolarini tadqiq qilishda tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma g'oyalari tayandilar. Ular urushni jamiyatning muqarrar yo'ldoshi deb emas, balki jamiyatning ijtimoiy tartibga solinmaganligi oqibati deb tushungan edilar. Shuning uchun urushlarni davlatlarning ichki va tashqi munosabatlarini tartibga keltirish yo'li bilan, bunda xalqaro-huquqiy xarakterga ega choralarni qo'llab tinchlikni saqlash mumkin degan xulosaga kelgan edilar.

• Xavfsizlikni ta'minlash zarurati **yalpi xalqaro xavfsizlik konsepsiyasi** vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

• Ushbu konsepsiya xalqaro munosabatlarni urush chiqishi imkoniyatini istisno etadigan tarzda tashkil qilishni nazarda tutadi.

• Taklif qilinayotgan tizimning diqqatga sazovor xususiyati shundan iboratki, u yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni barqaror etishga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab oladi.

BMT Bosh Assambleyasi 1986-yil 5-dekabrda va 1987-yil 7-dekabrda xalqaro tinchlik va xavfsizlik yalpi tizimini tashkil etish to'g'risida maxsus rezolyutsiyalar, 1988-yil 7-dekabrda – “BMT Ustaviga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga nisbatan yalpi yondashuv” rezolyutsiyasini qabul qildi.

Urush va tinchlik muammolarini hal qilishda 1899-yili bo'lib o'tgan Gaaga tinchlik konferensiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu konferensiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u, avvalambor, qurollanish poygasini cheklash konferensiyasi edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida xavfsizlikni ta'minlashga doir bir qancha loyihalar ishlab chiqilib, ular urushni taqiqlash va qurollanish poygasini cheklash uchun xizmat qildi.

Davlatlar suvereniteti, yaxlitligi va ularning tengligini ta'minlash, agressiya va boshqa tinchlikni buzuvchi harakatlarga qarshi xalqaro huquqning norma va prinsiplari paydo bo'ldi. Ushbu norma va prinsiplarga rioya qilinmagan holatda xalqaro huquq subyektlariga javobgarlik belgilovchi BMT Xavfsizlik Kengashi va BMT Xalqaro sudi tashkil

¹ Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro oinmaviy huquq). Darslik. – T., 2002. – B.262.

etildi¹. Yadro qurolining paydo bo'lishi, buning natijasida Yer yuzida umuman hayotning yo'q bo'lib ketish tahdidi, urush va tinchlik masalalarini hal qilishning yangi yo'llarini izlab topishga majbur qildi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash umumiy g'oyasining ishlab chiqilishi bu talabga bo'lgan javob edi. Insoniyat xavfsizlikning yangi mezonlarini qidirib topishi lozimligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida milliy xavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun imkon qadar qulay tashqi sharoitlar yaratib lozimligi, O'zbekiston tinchlikparvar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik o'choqlariga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Konstitutsiyaga, "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunga va Harbiy doktrinaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarda ishtirok etmaydi.

Hozirgi zamon sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlash deganda, davlatning o'zini tashqi tahdidlardan jismoniy va axloqiy-siyosiy jihatdan himoya qila olishigina tushunilmasligi kerak. Chunki milliy xavfsizlikni ta'minlash xalqaro xavfsizlik bilan uzviy aloqador bo'lib, yalpi tinchlikni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashga ham bog'liqdir. Harbiy harakatlar olib borishning hozirgi zamon usul va vositalarini tahlil qilish milliy xavfsizlikni faqat qudratli mudofaani tashkil etish va harbiy-texnik vositalar bilan ta'minlab bo'lmazligini ko'rsatadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb va Sharq o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshilik BMT Ustavining 39-51-moddalarida ko'rsatib o'tilgan BMT qurolli kuchlarini tuzish va unga kollektiv xavfsizlik organi maqomini berish (BMT Xavfsizlik Kengashi) hamda shu orqali jahon hamjamiyati va alohida davlatlarga ta'sir qilish vositalari, o'zini oqlamaganligini ko'rsatib o'tdi.

¹ Malcolm N. Shaw. *International law. Sixth edition. Development of International law.* Cambridge University Press. New York, 2008. – P 214.

BMT Xavfsizlik Kengashi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash majburiyatini olgan.¹ Kengash o'n besh a'zodan iborat bo'lib, uning beshtasi doimiy (AQSH, Rossiya, Xitoy, Angliya, Fransiya) va o'ntasi muvaqqat a'zolar hisoblanadi. Qarorlar jami to'qqiz a'zoning ovozi bilan qabul qilinadi, uing ichida, albatta, doimiy a'zolarning ovozlari bo'lishi shart. Doimiy a'zoldardan birining qarshi ovoz berishi "veto huquqi" hisoblanib, uni qo'llash bilan bog'liq masala ko'pgina muammolarga sabab bo'lmoqda. Natijada Xavfsizlik Kengashi tarkibini o'zgartirish, a'zolar sonini oshirishga qaratilgan yondashuvlar paydo bo'ldi.²

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, BMT Ustavi jahon hamjamiyati a'zolariga "qurolli kuchlarni umumiy manfaatlarni hisobga olib qo'llash" majburiyatini yuklar ekan, qurolli kuchlardan foydalanishni markazlashtirish tamoyilini ishlab chiqdi. Alohida hollarda davlatlarning yakka va kollektiv tartibda mudofaadan foydalanish huquqini ham saqlab qoldi. Ammo siyosiy voqelikka nazar tashlaydigan bo'lsak, urushdan keyingi holat bu tamoyilni puchga chiqarganini ko'ramiz.

Yuridik jihatdan oladigan bo'lsak, xavfsizlikning yangi konsepsiyasi xalqaro-huquqiy tartibotda shunday tizimni rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadiki, bunda hozirgi dunyoda umuminsoniy qadriyat va manfaatlarni tor milliy va sinfiy manfaatlardan ustun qo'yib, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishni erkin tanlash va shu orqali siyosatda huquqning ustunligini ta'minlashga xizmat qilishi kerakligiga asoslanadi.

Xalqaro huquq samaradorligi hamda davlatlarning insoniyat oldidagi kollektiv mas'uliyati ikkita asosiy vazifani xalqaro hamkoriikda hal etishga qaratilgan. Birinchi vazifa, xalqaro miqyosda amalda bo'lgan tinchlikni saqlab turish mexanizmini saqlab qolish bo'lsa, ikkinchi vazifa yangi huquqiy normalarni yaratishdir.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1987-yilda qabul qilingan Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan bosh tortish tamoyilining samaradorligini oshirish to'g'risidagi Deklaratsiya va 1988-yilgi Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid

¹ Articles 23, 24, 25 and 28 of the UN Charter.

² See e.g. the Report of the High Level Panel on Threats, Challenges and Change, 2004, A/59/565, especially paras. 244 ff. detailing the two proposals made (models A and B respectively) and Secretary-General, In Larger Freedom, A/59/2005, paras. 167 ff. The General Assembly has also been considering the question of the 'equitable representation on and increase in the membership of the Security Council' and an open-ended working group was established in 1993 to consider the matter further: see General Assembly resolution 48/26. In 2007, the President of the General Assembly appointed five facilitators, who reported that expansion of the Council needed to be based both on the contribution of member states to the maintenance of international peace and security and to the other purposes of the United Nations and one equitable geographical distribution, while addressing the under representation of developing countries as well as small states, A/61/47, pp. 11 ff. See also Chesterman et al., United Nations, chapter 17; A. Blanc-Altemir and B. Real, 'La Reforme du Conseil de Sécurité des Nations Unies: Quelle Structure et Quels Membres?', 110 RGDIP, 2006, p. 801, and Y. Blum, 'Proposals for UN Security Council Reform', 99 AJIL, 2005, p. 632.

soladigan vaziyat va nizolarning oldini olish hamda ularni tugatish va bunda BMTning rolini oshirish to'g'risidagi Deklaratsiya umumiy xavfsizlikning xalqaro-huquqiy kafolatlarini yaratishga qaratilgan muhim qadamlardan hisoblanadi.

Xalqaro xavfsizlik huquqining maqsadi va tamoyillari

Xalqaro xavfsizlik huquqining asosiy maqsad va tamoyillari xalqaro ommaviy huquqning maqsad va tamoyillari bilan mushtarakdir, bu esa xalqaro xavfsizlik huquqining xalqaro ommaviy huquq tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Xalqaro xavfsizlik huquqining asosiy hujjati xalqaro huquqniki singari BMT Ustavidir.

BMT Ustavida bosh maqsad quyidagicha ifodalangan: "xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash". Bu maqsadga erishish yo'li ham ko'rsatilgan: "tinchlikka bo'lgan tahdidning oldini olish va tugatish, agressiya akklarini va tinchlikning buzilishining boshqacha ko'rinishlarini bostirish uchun kollektiv choralarini samarali qo'llash".

Tinchlikning buzilishiga olib keladigan xalqaro nizolar va vaziyatlarni hal etishni tinch vositalar bilan olib borish. Bunda ikki vazifani: keng xalqaro hamkorlik orqali samarali kollektiv choralar hamda tahdidning oldini olish va tinch yo'l bilan hal etishda asosiy e'tiborni ehtiyotkorlikka qaratish zarurligini qayd etib o'tish joiz.

BMT Ustavi xalqaro xavfsizlikning asosiy tamoyillarini ham belgilab bergan. Bu tamoyillardan birinchisi nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish va kuch ishlatmaslik hamda kuch ishlatish bilan tahdid solmaslik tamoyilidir. Bu tamoyillarni amalga oshirish uchun ustav davlatlarni BMTga uning harakatlarida har tomonlama yordam berishga chorlaydi va BMT biror davlatga nisbatan olib borayotgan oldini olish va majburlov xarakteriga ega bo'lgan har qanday chorani qo'llashda boshqa davlatlar shu davlatga yordam berishdan o'zini tiyishlariga chaqiradi.

Bundan tashqari, Ustav BMTga shunday huquq berganki, bunga ko'ra BMTga a'zo bo'lmagan davlatlar ham aytib o'tilgan tamoyil bo'yicha xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashlari zarurdir (2-modda 6-band).

Faqatgina aytib o'tilgan tamoyillargina emas, balki xalqaro huquqning boshqa tamoyillari ham xalqaro xavfsizlik huquqining asosini tashkil qiladi. Bu qoida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan maxsus qayd etib o'tilgan. Samarali kollektiv choralar suveren tenglik, ichki ishlarga

aralashmaslik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyillarini hurmat qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Inson huquqlarini hurmat qilish, demokratiya, tinchlikka yo'naltirilgan xavfning oldini olishda birinchi darajali ahamiyatga egadir. Har bir inson yashash huquqiga ega, davlat va xalqaro hamjamiyat esa insonning ana shu huquqi amalga oshishi uchun xalqaro tartibni ta'minlashi lozimdir (1948-yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasining 3 va 28-moddalari). Bundan insonning tinchlikka bo'lgan huquqi ajralib chiqadi, bu esa xalqlar va davlatlarning tinchlikka bo'lgan huquqi bilan bog'liqdir. Xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqi to'g'risidagi 1984-yilgi Deklarasiyada Bosh Assambleya "xalqlarning muqaddas tinchlik huquqi" iborasini ishlatdi, buni ta'minlash esa davlatlarning eng muhim majburiyati bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro xavfsizlik huquqi xalqaro huquqdagi tub o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Urush endi unda ishtirok etuvchi davlatlarning ishigina bo'lib hisoblanmaydi. Agressiya "tinchlikka qarshi jinoyat" hisoblanadi. Umumiy tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash – xalqaro huquqning bosh vazifasidir. Davlatlarning urushga bo'lgan huquqi yuridik jihatdan tan olinmaydi. Urush, kuch ishlatish endi faqat bir davlatning vakolati hisoblanmaydi. Bu xalqaro hamjamiyatning ishidir.

Yalpi xavfsizlik tushunchasi va ta'minlanishi

BMT Ustavi bo'yicha tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash tizimi. BMT davlatlarning birgalikdagi harakati asosida xalqaro xavfsizlik va tinchlikni saqlash va mustahkamlash quroli sifatida tuzilgan edi. BMT Ustavining muqaddimasi xalqaro tinchlikning quyidagi asoslarini ko'rsatib berdi: urushga barham berish; asosiy inson huquqlarini ishonchli mustahkamlash; xalqaro huquqning ahamiyatini oshirish; ijtimoiy taraqqiyotga yordam berish va erkin hayot shart-sharoitlarini yaxshilash hamda bu maqsadda uchta asosiy shartni bajarish: birgalikda, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida tinch-totuv yashash; xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun kuchlarni birlashtirish; qabul qilingan tamoyillar va tamoyillarni qabul qilish va usullarni o'rnatish orqali qurolli kuchlardan umumiy manfaatlarda foydalanish.

BMT Ustaviga ko'ra xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash xalqaro huquq normalari va umume'tirof etilgan tamoyillar asosida tashkil etilishi, bu sohada vakolatlari aniq belgilangan Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Bosh Assambleya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga bag'ishlangan har qanday ish yoki masalani muhokama qilishi, jumladan, bu sohadagi hamkorlikning umumiy tamoyillarini ko'rib chiqishi va shu asosda davlatlarga va Kengashga muhokamagacha yoki muhokamadan keyin ham o'z tavsiyalarini berishi mumkin.

Xavfsizlik Kengashiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun asosiy mas'uliyat yuklatilgan (24-modda). U BMT nomidan oldini olish va majburlov harakatlarini qo'llash huquqiga ega bo'lgan, jumladan, BMTga a'zo davlatlarning birlashgan qurolli kuchlarini ishlatish huquqiga ega BMTning yagona organi hisoblanadi.

BMT Ustavida ko'rsatib o'tilganidek, bunday kuchlarni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni tiklash yoki saqlash uchun agressiya akti bo'lganda, tinchlik buzilganda, tinchlikka tahdid solinganida "faqat umumiy manfaatlar uchun" alohida hollarda boshqa choralarni qo'llash samara bermaganida va Ustavga zid maqsadlarda foydalanilmagan holdagina qo'llash mumkin va lozim bo'ladi.

Ustavning 43-moddasi BMT a'zolari tomonidan Xavfsizlik Kengashi ixtiyoriga zarur qurolli kuchlar, yordam va xizmat ko'rsatish vositalarini berishi tartibini belgilab bergan. Bunday aloqa BMTga a'zo davlatlar bilan Kengash o'rtasida tuziladigan maxsus Bitim va Bitimlar ratifikatsiya asosida qilish orqali; Xavfsizlik Kengashining talabiga ko'ra, ya'ni uning qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Xavfsizlik Kengashi Harbiy Shtabli Qo'mita (XSHQ) yordamiga tayanib, qurolli kuchlarni tuzish va qo'llash bilan bog'liq barcha masalalarni hal qiladi. XSHQ Kengashning doimiy a'zolarining Shtab boshliqlari yoki ularning vakillaridan iborat bo'ladi (47-modda). Ammo 43-modda ham, 47-modda ham Kengashning doimiy a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lgani uchun amalda qo'llanilmadi. Buning natijasida 1947-yildan boshlab XSHQ o'z faoliyatini amalga oshirmadi va BMT qurolli kuchlarini tuzish va yaratish sohasida o'z holicha ish ko'rdi. BMTda uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan va tinchlikni saqlashda BMT mexanizmining samaradorligini oshirish uchun bir qancha rezolutsiya va deklaratsiyalar qabul qilindi.

BMTning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan rezolutsiya va deklaratsiyalari:

- Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash to'g'risidagi 1970-yilgi Deklaratsiya;
- Agressiya ta'rifi to'g'risidagi 1974-yil 14-dekabrda Bosh

Assambleyaning 3314 (XXIX) Rezolutsiyasi;

– Xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi nizolar va vaziyatlarning oldini olish va tugatish hamda bu sohada BMTning roli to'g'risidagi 1988-yilgi Deklaratsiya;

– Xalqaro tinchlik, xavfsizlikni mustahkamlash va BMT Ustaviga asosan barcha sohada xalqaro hamkorlik qilish to'g'risidagi Bosh Assambleyaning 1989-yil 15-noyabrdagi 44/21-rezolutsiyasi.

Yuqorida sanab o'tilgan aktlar orasida 1974-yilgi Agressiya ta'rifini to'g'risidagi rezolutsiya asosiy o'rinni egallaydi. U aralash akt hisoblanadi. Unda agressiyaga umumiy ta'rif berilgan va agressiyaga qarshi aktlar sanab o'tilgan.

Mazkur rezolutsiya **agressiyani** "bir davlatning ikkinchi bir davlatning suvereniteti, hududiy daxlsizligi va siyosiy mustaqilligiga qarshi qurolli kuch ishlatish yoki BMT Ustaviga mos kelmaydigan boshqacha tarzda ta'sir o'tkazish", deb tavsiflaydi.

3-modda agressiya ta'rifini aniq agressiv aktlar orqali belgilab beradi. Agressiya ta'rifida sanab o'tilgan agressiv aktlar ro'yxati to'liq deb hisoblanmaydi. "Xavfsizlik Kengashi deyiladi 4-moddada Ustav qoidalariga ko'ra boshqa agressiv aktlar mavjudligi haqida xulosa chiqaradi".

Xavfsizlik Kengashi agressiv aktlarni belgilash bo'yicha o'z vakolatlaridan kelib chiqib, birinchilik tamoyilidan tashqari boshqa mezonlardan foydalanadi. Bu haqida Agressiya ta'rifining 2-moddasida quyidagicha yozib qo'yilgan: "Xavfsizlik Kengashi Ustavga muvofiq quyidagicha xulosa chiqarishi mumkin: agressiya akti amalga oshganda, uning oqibatidan qat'i nazar, u hech qanday holatlarda oqlanmaydi".

Qurolli kuchlarni noqonuniy qo'llash aktining jiddiylik omili Xavfsizlik Kengashiga agressiya akti bilan qurolli kuchlarning cheklangan yoki tasodifiy holda qo'llanganligi o'rtasidagi chegarani belgilab beradi, bu esa tinchlikka tahdid yoki tinchlikning buzilishi deb baholanishi mumkin.

2-moddadan agressiv maqsadning mezonini hisobga olish zarurligi kelib chiqadi. Ma'lum bir vaziyatlarni ko'rib chiqishda Xavfsizlik Kengashi birinchilik tamoyilidan foydalanib qolmay, tomonlarning

agressiv maqsadlarini ham hisobga oladi. Bu yo'nalishda muhim ko'mak bo'lib Agressiya ta'rifining 5-moddasi hisoblanadi, bu modda agressiyani, u siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki boshqa xususiyatga egaligidan qat'i nazar, oqlamaydi.

Agressiya ta'rfi agressiyani xalqaro javobgarlikka olib keluvchi xalqaro tinchlikka qarshi jinoyat sifatida tasniflaydi. Bu modda agressiya natijasida egallangan hudud yoki boshqa muhim manfaatlar qonuniy bo'lmaydi, deb hisoblaydi.

Agressiya ta'rifining 7-moddasida muhim qoida belgilangan bo'lib, unga ko'ra ta'rifning hech bir unsuri xalqlarning mustaqilligi va ozodligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi, mustamlakachilik va irqiy rejim ostida bo'lgan xalqlarni bu rejimga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlaydi. Bu modda mustamlaka va mazlum xalqlarning o'z ozodligi uchun kurashini tan oladi.

Agressiya ta'rfi 1974-yili BMTga a'zo 138 davlat ishtirokida qabul qilingan edi. Ana shu holatni hisobga olgan holda, shuningdek u BMT Ustavining bir qancha qoidalariga oydinlik kiritgani va ishonchli bo'lgani uchun, bu ta'rifga barcha davlatlar uchun ham, Xavfsizlik Kengashi uchun ham majburiy yuridik kuchga ega, deb qarashimiz mumkin.

1991-yilning 9-dekabrida Bosh Assambleya Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash sohasida BMTning o'rnini to'g'risidagi Deklaratsiyani ma'qulladi. Deklaratsiya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash bilan bog'liq funksiyalarni bajarishda Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya har qanday nizo va vaziyatga nisbatan to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerakligini bayon etadi.

Deklaratsiya faktlarni aniqlash uchun missiya tuzish masalalarini ham tartibga soladi. Bunday missiyalarni tuzish va jo'natish to'g'risidagi qarorni Kengash yoki Assambleya qabul qiladi. Bunday missiyani biron-bir davlat hududiga yuborish uchun o'sha davlatning oldindan roziligini olish kerak bo'ladi. Deklaratsiya missiyani tashkil etish va amalga oshirish uchun Bosh kotib xizmatidan foydalanishni tavsiya qiladi. Bosh kotib missiyaga jalb qilingan ekspertlar ro'yxatini tuzib chiqadi yoki yangilaydi. Shu bilan birga, Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyaning maxsus yordamchi organlari xizmatidan ham foydalanishi mumkin.

BMT doirasidagi tinchlikni saqlashning hozirgi zamon konsepsiyasi Xavfsizlik Kengashining dasturida ma'qullangan BMT Bosh kotibining "Tinchlik uchun kun tartibi" ma'ruzasida bayon qilingan. Dastur preventiv

diplomatiya, tinchlikni ta'minlash, tinchlikni saqlash va tinch qurilish sohaslarida BMTning kompleks rolikidan kelib chiqadi.

Preventiv diplomatiya tomonlar o'rtasida paydo bo'ladigan kelishmovchiliklarni oldini olishga, mavjud nizolarni mojarolarga aylanib ketmasligiga qaratilgan va mojarolar paydo bo'lganida, ularning ko'lamini cheklashga qaratilgan harakat deb tushuniladi. Uning doirasida ishonchni mustahkamlash choralaridan keng foydalanishni, tinchlikka xavf tug'ilganida uning oldini olish tizimi va faktlarni yig'ish bo'yicha missiya tuzishni, BMT qurolli kuchlarini preventiv ishga solish, qurolli kuchlar va qurol-aslahalardan xoli zonalardan preventiv (ehtiyot oldini olish) choralar sifatida foydalanishni taqozo qiladi.

Tinchlikni ta'minlash – bu BMT Ustavining VI bobida ko'rsatib o'tilgan muzokaralar va boshqa tinch vositalar yordamida bir-biriga dushman tomonlarni murosaga chaqirishga yo'naltirilgan harakatdir.

Tinchlikni saqlash mojarolarning oldini olish va tinchlikni o'rnatish uchun harbiy personal yordamida operatsiyalar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mojarolardan keyingi tinchlikni ta'minlash – bu mojarolardan so'ng tegishli tuzilmalarni yaratish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlar bo'lib, ular mojarolarni keltirib chiqargan kuchlarni tugatish orqali tinchlikni saqlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Tinchlikni saqlash hozirgi zamon konsepsiyasining eng muhim unsurlaridan biri sifatida BMT Ustavidagi qoidalarni rivojlantirishda BMTning mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro yaqin hamkorligi va aloqasi hisoblanadi. BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1994-yilning 9-dekabrida qabul qilingan BMT bilan mintaqaviy organlar o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish to'g'risidagi Deklaratsiya xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash sohasida ana shunday hamkorlikning turli shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi: o'zaro axborot almashish va maslahatlashuvlar, BMT organlari faoliyatida ishtirok etish, moddiy, personalga oid va boshqa tusda yordam berish, tinchlikni saqlashni kuchaytirish borasida BMT tomonidan mintaqaviy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

Mintaqaviy xavfsizlik

BMT Ustavi xalqaro xavfsizlikning umumiy tizimidan tashqari, xalqaro tinchlikni saqlashning mintaqaviy tizimini yaratish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Ustavning 52-moddasida belgilab qo'yilganidek, mintaqaviy organlarning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash

borasidagi faoliyati BMT Ustavining tamoyillari va maqsadlariga muvofiq bo'lsa, Ustav bunday mintaqaviy bitim va organlarning mavjud bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi.

Yuqoridagi fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, xavfsizlikning mintaqaviy tizimlari yalpi xavfsizlik tizimining bir qismi hisoblanadi. BMT Ustavi mintaqaviy bitim va organlar bilan Xavfsizlik Kengashi o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatdi. Bunday bitim va organlar doirasida davlatlar mintaqaviy nizolarni Xavfsizlik Kengashi ko'rib chiqqunga qadar tinch yo'llar bilan hal etish uchun o'zlarining butun kuchlarini ishga solishlari lozim. O'z navbatida, Xavfsizlik Kengashi mintaqaviy nizolarni mintaqaviy bitim va organlar yoki manfaatdor davlatlarning tashabbusi yoxud o'z tashabbusi bilan tinch hal etilishini qo'llab-quvvatlashi darkor. Albatta, bu holat Xavfsizlik Kengashi tomonidan nizoning har qanday bosqichida, bu nizo xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solayotgani yuzasidan tekshiruv o'tkazilishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Xavfsizlik Kengashi o'z rahbarligi ostida majburiy harakatlar olib borishi uchun mintaqaviy organ va bitimlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Ammo mintaqaviy organlarning Xavfsizlik Kengashidan vakolat olmasdan turib majburiy harakatlarni olib borishga haqqi yo'q. Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniyaga qarshi koalitsiya davlatlariga qarshi urush olib borgan davlatlar bundan mustasnodir.

Mintaqaviy tashkilotlar – ADL (Arab davlatlari Ligasi), ABT (Afrika birligi Tashkiloti), ADT (Amerika davlatlari Tashkiloti) ta'sis aktlarida ularning a'zolariga qarshi qurolli hujum bo'lganda kollektiv choralar ko'rish to'g'risidagi qoidalar mavjud. Masalan, O'zaro yordam to'g'risidagi 1947-yilgi Amerika davlatlari shartnomaning (Rio-de-Janeyro Pakti) muqaddimasida umumiy mudofaa va o'zaro yordam majburiyati ko'rsatib o'tilgan va Shartnoma "har qanday Amerika davlatlariga qarshi qurolli hujumda o'zaro samarali yordam va bu davlatlarga qarshi agressiya tahdidining oldini olish" uchun tuziladi. Shartnomada Amerika davlatlarining birortasiga qarshi qaratilgan qurolli hujum barcha Amerika davlatlariga qarshi qaratilgan qurolli hujum deb qaraladi, shu sababli barcha ishtirokchi-davlatlar qarshi kurash uchun yordam berishga majburdir.

Shu davrga qadar mintaqaviy tashkilotlarning amaliy faoliyatida kollektiv mudofaa tartibida biror-bir qurolli kuchlar birlashmalari tuzilgani yo'q. Buning o'rniga ular tinchlikni saqlash uchun kuch tuzishga kirishdilar. Masalan, 1971-yili Arab davlatlari Ligasi Liviyadagi turli diniy guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga barham berish uchun Arab kuchlarini

tuzdilar. 1981-yili ABT Chad guruhlari o'rtasidagi bitimlarning bajarilishini kuzatishga mo'ljallangan, Tinchlikni saqlash uchun Afrika kuchlarini tuzdilar. Bu ikki operatsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

MDH Nizomida Tinchlikni saqlash kollektiv kuchlari va harbiy kuzatuvchilar guruhi to'g'risidagi 1992-yilning 20-martidagi Bitim hamda Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi 1992-yil 15-maydagi Shartnomadan kelib chiqib, nizolarni hal etish va mojarolarning oldini olish to'g'risida hamda kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan. MDH Nizomining 12-moddasi BMT Ustavining 51-moddasidagi kollektiv va individual tarzda o'zini o'zi mudofaa qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur hollarda Birlashgan qurolli kuchlardan foydalanish huquqini, shuningdek tinchlik operatsiyalarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) doirasida umumiy xavfsizlik muammolari bo'yicha ish olib borish bilan birga (qurol-aslahalarni nazorat qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, qurolsizlanish va xavfsizlikka bo'lgan ishonchni mustahkamlash, nizolar kelib chiqish xavfini kamaytirish va boshqalar), mahalliy va mintaqaviy mojarolarni tartibga solish va oldini olish bo'yicha ham ma'lum ishlar qilinmoqda. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining (YXHK) 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan Xelsinkidagi YXHKga a'zo davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining uchrashuvida YXHK doirasida tanglikdan chiqarish tizimini yaratish, jumladan, tinchlikni saqlash uchun operatsiyalar o'tkazish uchun bir qancha qarorlar qabul qilingan edi.

Tang vaziyatlarni tartibga solishning birinchi bosqichida faktlarni o'rganish bo'yicha missiya, maxsus ma'ruzachilar missiyasi va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning yangi mexanizmidan foydalanishi belgilab olindi. Mojarolar kuchayib ketganda tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunday qaror Vazirlar Kengashining yig'ilishida yoki uning agenti sifatida harakat qiladigan Rahbariy kengashda qabul qilinadi. Operatsiyani o'tkazishda manfaatdor tomonlarning roziligi kerak bo'ladi. Operatsiya harbiy kuzatuvchilar guruhi yoki tinchlikni saqlash uchun kuchlar yuborishni nazarda tutadi. Bu operatsiyada ishtirok etuvchi shaxsiy tarkibni YXHTga a'zo davlatlar taqdim etadi.

Operatsiyalar ikki davlat o'rtasida chiqqan nizolarda ham, bir davlatning ichki nizolarida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu operatsiyalarning asosiy vazifasi – o't ochishni tugatishni nazorat qilish, qo'shinlarning olib chiqib ketilishini kuzatish, qonuniylik va tartibni saqlashga yordam berish, gumanitar yordamlar berish va boshqalar. Bu

operatsiyalar majburlov harakatlarini nazarda tutmaydi va beg'araz amalga oshiriladi. Rahbariy kengash tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar ustidan umumiy siyosiy nazoratni olib boradi va rahbarlik qiladi. MDH singari YXHT ham operatsiyalarni BMTning rolini hisobga olgan holda olib boradi. Jumladan, Xelsinki qarorlarida YXHK raisi YXHKning operatsiyalari haqida BMT Xavfsizlik Kengashini to'liq axborot bilan ta'minlaydi, deyilgan.

Tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazishda YXHT mavjud tashkilotlar – EI, NATO, MDH, G'EI kabilarning tajribasi va resurslaridan foydalanishi mumkin. Har bir holatda YXHT bunday tashkilotlarning yordamidan foydalanish to'g'risida qaror qabul qiladi.

1994-yilgi davlat va hukumat boshliqlarining Budapesht sammitida Xavfsizlikning harbiy-siyosiy jihatlari bo'yicha axloq Kodeksi qabul qilindi va u 1995-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi. Bu hujjatda asosiy e'tibor YXHT mintaqasi va undan tashqarida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash asosida milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratildi. Unda xavfsizlik bir butun ekanligi, har bir ishtirokchi davlatning xavfsizligi boshqa ishtirokchi-davlatlarning xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqligi qayd qilindi. Davlatlar o'z xavfsizliklarini boshqa davlatlarning xavfsizliklari hisobiga mustahkamlamasdan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish majburiyatini oldilar.¹ Bu yo'nalishda YXHT o'mi alohida ekanligi qayd etib o'tildi. Hujjatda xavfsizlikni ta'minlashning birgalikdagi va milliy choralarining quyidagi yo'nalishlari: qurolsizlanish, terrorizmga qarshi kurash, individual va kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi, ishonchni mustahkamlash, sog'lom iqtisodiy va ekologik muhitni yaratish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

YXHT doirasida kuzatuvchilar guruhi Dnestrbo'yi, Tog'li Qorabog', Checheniston, Abxaziya va Gurjistonda, tinchlikni saqlash kuchlari Albaniyada tinchlikni saqlash operatsiyalarini o'tkazdi.

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishga da'vogar yana bir tashkilot bu *Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)*dir. Bu tashkilot 1949-yilning 4-aprelida tashkil topgan bo'lib, davlatlararo Shimoliy Atlantika shartnomasi hisoblanadi va shu yilning 24-avgustidan kuchga kirgan.

Shimoliy Atlantika shartnomasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning matni BMT Ustavi qoidalari asosida tuzilgan bo'lib, shartnomadagi atamalar BMT Ustavidagi atamalarga o'xshashdir. NATOning maqsadi tinchlik va xavfsizlikni saqlash va kollektiv mudofaani tashkil qilish uchun

¹ Lukashuk I.I., Saidov A. X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006. – B.314.

uning a'zolari kuchlarini birlashtirish hisoblanadi. Ularning o'zaro yordam ko'rsatish va qurolli kuchlarni qo'llash bo'yicha majburiyati Shartnoma asosida o'rnatiladi. Bu tashkilotning Yevropadagi yoki Shimoliy Amerikadagi bir yoki bir necha a'zolariga uyushtirilgan qurolli hujum shartnomaga a'zo barcha davlatlarga qarshi qaratilgan hujum deb hisoblanadi (shartnomaning 5-moddasi). Bunda ular BMT Ustavining 51-moddasiga asosan individual yoki kollektiv mudofaani amalga oshirish huquqidan foydalanib harakat qiladilar.

Shimoliy Atlantika shartnomasi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari BMT Ustavidagi huquq va majburiyatlariga zid emas yoki Xavfsizlik Kengashining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagi bosh mas'uliyatiga zarar keltirmaydi.

Shartnoma ishtirokchilari xalqaro munosabatlarda BMT maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan tarzda kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilishdan o'zini tiyib turish majburiyatini olganlar, barcha nizolarni tinch vositalar bilan hal qilish, xalqaro munosabatlarning tinch va do'stona rivojlanishiga yordamlashishga kelishib olishadi.

Shimoliy Atlantika shartnomasi o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun murakkab siyosiy va harbiy tuzilmani yaratgan. NATOning oliy organi Shimoliy Atlantika Kengashi (SHAK) hisoblanadi, u turli darajada: davlat va hukumat boshliqlari, tashqi ishlar vazirlari, doimiy vakil qilingan elchilar darajasida amal qiladi. So'nggi holatda u Doimiy kengash sifatida ish ko'radi. Kengash doirasida tashqi aloqalar masalalari bo'yicha keng siyosiy maslahatlar olib boriladi, xavfsizlikni ta'minlash, harbiy hamkorlik, xalqaro tinchlikni saqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Qarorlar bir ovozdan qabul qilinadi. Doimiy ishchi organ – Kotibiyat tuzilgan bo'lib, u NATO Bosh kotibi boshchiligida faoliyat yuritadi.

Siyosiy va ijtimoiy sohalarida NATOga a'zo mamlakatlarning hamkorligini tashkil etish uchun Siyosiy va Iqtisodiy qo'mitalar tuzilgan.

Shimoliy Atlantika shartnomasi Tashkiloti bilan NATOga a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun 1991-yili "Tinchlik yo'lida hamkorlik" (TYH) dasturi va bu dasturga rahbarlikni amalga oshirishga qaratilgan Shimoliy Atlantika Hamkorligi Kengashi (SHAK) tuzilgan edi. 1993-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi NATO bilan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Bryusselda (Belgiya) NATOning qarorgohida O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda NATOda bo'lgan o'zgarishlar tufayli TYH dasturida ham yangi o'zgarishlar bo'ldi. Bu NATOga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar bilan mudofaa va harbiy sohada hamkorlikning yanada faolroq bo'lishini ta'minlaydi, buni biz Deyton bitimini (IFOR) bajarishni ta'minlash bo'yicha tashkil qilingan kuchlar hamda Bosniya va Gersegovinadagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha tashkil qilingan kuchlar (SFOR) misolida ko'rishimiz mumkin. Bu doirada NATOga a'zo va a'zo bo'lmagan davlatlar ishtirokida inqirozlarning oldini olish uchun operatsiyalar o'tkazishda ko'p millatli operativ kuchlar (KOK) va hamkorlarning shtab unsurlarini (HSHU) tuzish nazarda tutilgan.

1997-yilning 30-mayida NATO Kengashi sessiyasida 44 ta davlatni o'z ichiga olgan Yevro-Atlantika Hamkorlik Kengashi (YAHK) tuzildi, unga NATOga a'zo davlatlardan 16tasi, sobiq Ittifoq respublikalarining barchasi, sobiq Varshava shartnomasi ishtirokchilarining barchasi, shuningdek Avstriya, Finlyandiya, Shveysiya va Shveysariya davlatlari kirdi. EAHK maqsadi tinchlikni saqlash uchun operatsiyalar o'tkazish, inqirozlarning oldini olish, xavfsizlik siyosati va boshqa ko'plab o'xshash masalalarni hal etish bo'yicha ko'p tomonlama maslahatlashuvlar o'tkazish hisoblanadi.

Quolsizlanish va quollarni cheklash

Quolsizlanish deganda, urush olib boruvchi vositalarni cheklash, qisqartirish va batamom tugatishga qaratilgan kompleks choralar tushuniladi. Quolsizlanishning umumiy huquqiy asosi bo'lib BMT Ustavi hisoblanadi. 11-modda "Tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish borasidagi hamkorlikning umumiy tamoyillari" bo'lib, uning birinchi bandiga "Quolsizlanish va qurol-aslahalarni tartibga solishni belgilovchi tamoyillar" kiradi. Bu tamoyillarni ko'rib chiqish Bosh Assambleya vakolatiga kiradi va u bu masalalar bo'yicha Xavfsizlik Kengashi va BMTga a'zo-davlatlarga tavsiyalar beradi. Xavfsizlik Kengashi "Qurol-aslahalarni tartibga solish tizimini tuzish rejalari"ni shakllantirish uchun (26-modda) javob beradi; bu vazifani bajarishda Xavfsizlik Kengashiga Harbiy shtabli qo'mita o'zining maslahatlari bilan yordam beradi va "Qurol-aslahalarni tartibga solish va quolsizlanish imkoniyatlari" (47-modda, 1-band) masalalari bo'yicha ham o'z maslahatlari va yordamini beradi.

"Quolsizlanish" va "Qurol-aslahalarni tartibga solish" atamaları BMT Ustavini tuzuvchilar tomonidan kiritilgan. "Qurol-aslahalarni tartibga solish"

atamasi o'z mazmuniga ko'ra keng ishlatiladigan "Qurol-aslahalar ustidan nazorat" atamasiga yaqin turadi.

Xalqaro huquqda umumiy tan olingan qurolsizlanish tamoyilidan quyidagi majburiyatlar kelib chiqadi: qurolsizlanish bo'yicha amalda bo'lgan shartnomalarga to'liq va og'ishmay amal qilish; shartnomalarda ko'rsatilgan, qurolsizlanish va qurollanish poygasini cheklashga yo'naltirilgan tadbirlarda ishtirok etish; qurolsizlanishga qaratilgan, xalqaro nazorat ostida to'liq va umumiy qurolsizlanish bo'yicha yangi shartnomalar, yangi normalar yaratishga erishish.

Ko'rib chiqilayotgan sohada asosiy normalarning manbai quyidagi xalqaro shartnomalar hisoblanadi: universal (Yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi 1968-yilgi Shartnoma), mintaqaviy (Lotin Amerikasida yadro quolini taqiqlash to'g'risidagi 1967-yilgi Shartnoma), ikki tomonlama (Raketaga qarshi mudofaa tizimini cheklash to'g'risidagi 1972-yilgi Shartnoma). Bu sohadagi shartnomalarni maqsadi va obyektiga qarab ham tasniflash mumkin (qurollanishni cheklash yoki cheklash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar; ommaviy qirg'in quollari yoki oddiy quollar bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar).

Universal xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini kuchayishi, ularning qurolsizlanish sohasida qabul qilgan rezolutsiyalarini xalqaro huquqning qo'shimcha manbai sifatidagi ahamiyatini oshib borishiga xizmat qiladi. Qurolsizlanish masalalari bo'yicha qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining bir qancha rezolutsiyalariga, shakllanayotgan xalqaro huquq normalari sifatida qarashimiz mumkin. Bir qancha hollarda BMT Bosh Assambleyasining rezolutsiyalarini shartnoma normalarining qo'shimcha implementasiya vositasi deb hisoblashimiz mumkin. Ular qatoriga Tinch okeanining janubiy qismida yadrosiz zona to'g'risidagi 1985-yilgi Shartnomani to'liq amalga kiritishini ta'minlashga qaratilgan rezolyutsiyani qo'shishimiz mumkin. 1989-yili Bosh Assambleya tomonidan shartnoma normalariga rioya etilishini tekshirish mexanizmining yaratilishi (1925-yilgi Urushda bo'g'uvchi, zaharlovchi va boshqa gazli va bakteriologik vositalarni qo'llashni taqiqlash to'g'risidagi Jeneva protokoli), ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bunga ko'ra BMT Bosh kotibining vakillari kimyoviy quollarning qo'llangani to'g'risidagi xabarlarni maxsus tartibda tekshiradilar.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi davlatlarni to'g'ridan to'g'ri qurolsizlanishga majbur etuvchi normalarga ega emas. Bu sohadagi asosiy majburiyatlarning mohiyati quyidagicha: "erkin muzokaralar olib borish;

xalqaro nazorat ostida to'liq va samarali quolsizlanishga erishish to'g'risida shartnomalar tuzish va ularni bajarish". Bunday maqsadlar hozirgi kundagi barcha shartnomalarning muqaddimasida ko'rsatib o'tilgan.

Hozirgi kunga kelib quolsizlanish choralarini qisman belgilaydigan normalar majmui vujudga keldi va amal qilmoqda. Qisman choralarning mohiyati – quollarning alohida turlarini taqiqlash va tugatish, ularni ishlab chiqarish, to'plash va qo'llashni taqiqlash, ayrim quollarni sifat va son jihatidan cheklash, quollarni sifat jihatidan takomillashtirish imkoniyatini qisqartirish hamda turli xil quollarni joylashtirish rayonlari va sohalarini qisqartirishdan iboratdir.

Ommaviy qirg'in quollariga taalluqli kompleks normalar ancha rivojlangan. 1948-yilda BMT tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga asosan, bunday quollar "shunday tartibda belgilanishi lozimki, bunday quollarga atom, radioaktiv moddalar yordamida ishlaydigan, kimyoviy va biologik (bakteriologik) quollar, shuningdek kelajakda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan, o'zining tavsifiga ko'ra yuqorida eslatib o'tilgan quollarning kuchiga teng bo'lgan quollarni kiritish mumkin".

Hozirgi zamon xalqaro huquqi yadro quollarining atmosferada, koinotda va suv ostida sinovlarini taqiqlaydi .

SSSR parchalanib ketganidan so'ng yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi normalarga rioya qilishda bir qancha qiyinchiliklar tug'ildi. Chunki SSSR o'rnida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlarning to'rttasida (Belarus, Qozog'iston, Rossiya va Ukraina) yadro quollari qoldi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida erishilgan shartnomaga asosan 1996-yili yadro zaryadiga ega bo'lgan barcha quollar Rossiya Federatsiyasi hududiga olib chiqib ketildi, lekin yadro zaryadiga ega bir qancha quollar Ukraina hududida qoldi. Bir qancha urinishlardan so'ng Ukraina bu quollarni Rossiya Federatsiyasiga topshirishga rozilik berdi.

Strategik quollarni tartibga solish oxirgi vaqtgacha faqat Sovet-Amerika munosabatlari doirasida amalga oshirilgan edi (Strategik hujum quollarini cheklash sohasidagi bir qancha choralar to'g'risidagi 1972-yilgi Muvaqqat bitim, Strategik hujum quollarini cheklash to'g'risidagi 1979-yilgi Shartnoma kuchga kirmagan bo'lsa-da, bir necha yillar qo'llanib kelindi, Strategik hujum quollarini cheklash va qisqartirish to'g'risidagi 1991-yilgi Shartnoma). SSSR parchalanib ketganidan so'ng bu sohadagi ma'lum majburiyatlar yuqorida nomi qayd qilib o'tilgan sobiq Ittifoq respublikalariga ham yuklatildi, ammo muzokaralarda to'liq

ishtirok etish Rossiyani huquqiga aylandi. Qolgan respublikalarga o'z hududida qolgan qurollarni tezroq tugatish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Ommaviy qirg'in quollariga, yadro quollaridan tashqari, kimyoviy va biologik (bakteriologik) quollar ham kiradi. Biologik quollar butunlay taqiqlangan, uni nafaqat urushda qo'llash, balki yaratish, ishlab chiqish va to'plash ham mumkin emas, zaxiradagilari esa yo'q qilinishi yoki tinchlik maqsadida ishlatilishi kerak (bakteriologik (biologik) va zaharli qurollarni yaratishni, ishlab chiqish va zaxiraga to'plashni taqiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risidagi 1972-yilgi konvensiya).

1925-yildan boshlab urush olib borishda kimyoviy qurollarni ishlatish noqonuniy deb hisoblanadi (Urushda bo'g'uvchi, zaharlovchi va boshqa shunga o'xshash gazlar va bakteriologik vositalarni qo'llashni taqiqlash to'g'risidagi 1925-yilgi Protokol).

1997-yilning 29-apreldan kimyoviy qurollarni ham butunlay taqiqlash amal qila boshladi. Bu 1993-yili imzolangan Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, zaxiraga to'plashni va qo'llashni taqiqlash hamda uni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiya kuchga kirganidan so'ng sodir bo'ldi.

Universal norma ommaviy qirg'in quollariga teng keluvchi, vayrongarchiliklarni keltirib chiqaradigan, tabiatga ta'sir qiluvchi va har qanday harbiy yoki boshqa zararli vositalardan foydalanishni taqiqlaydi (Tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi har qanday harbiy yoki boshqa zararli vositalardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi 1977-yilgi konvensiya).

Yevropa davlatlari Yevropa hududida ma'lum kelishuvlar asosida keng miqyosda hujum harakatlarini boshlash va qo'qqisdan hujum uyushtirishga imkon bermaydigan darajada o'zlarini oddiy qurol va harbiy texnikalarni qisqartirish majburiyatini olganlar (Yevropada oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi 1990-yilgi Shartnoma). Bundan tashqari, qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibini cheklash choralari ham mavjud (Yevropadagi oddiy qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibining soni to'g'risidagi 1992-yilgi Vena muzokaralarining yakunlovchi akti), shuningdek 1999-yili YXHTning Istanbul sammitida Yevropada qanotlar bo'yicha cheklash to'g'risida Shartnoma qabul qilindi. Ushbu sammitda, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov YXHTning yuqori minbaridan turib nutq so'zladı. O'z nutqida Prezidentimiz Yevropa xavfsizligi, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligining yangi modeli to'g'risida fikr bildirdi.

Qurolli kuchlarni va qurol-aslahalarni cheklash va qisqartirish bilan birga qurolsizlanish maqsadlariga hududlarni neytrallashtirish va demilitarizatsiyalash yo'li bilan ham erishish mumkin.

Qurolsizlantirish (demilitarizasiya) – bu ma'lum hudud yoki makonda o'rnatilgan xalqaro-huquqiy tartib bo'lib, bu joydan tinchlik davrida harbiy maqsadlar uchun foydalanish shartnomaga ko'ra taqiqlanadi. Bunday chora o'sha joydagi harbiy istehkom va inshootlarni yo'q qilishni nazarda tutadi va u yerda qurolli kuchlarning joylashishini taqiqlaydi.

Neytrallashtirish deganda, ma'lum hudud va makonda harbiy harakatlar olib borilishi va bu joydan harbiy operatsiyalarda baza sifatida foydalanilishi shartnoma asosida taqiqlanishi tushiniladi. Neytrallashtirishdan maqsad – neytrallashtirilgan hududda urush boshlanib ketishining oldini olish yoki o'sha hududga yaqin joyda urush harakatlarining oldini olish yoki neytrallashtirilgan hududda harbiy harakatlar boshlanib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Qurolsizlantirilgan va neytrallashtirish amalga oshirilgan hududlarga misol tariqasida Yer sharining Antarktika qismini ko'rsatishimiz mumkin. Ommaviy qirg'in qurollarining barcha turlariga nisbatan qisman demilitarizatsiyaga misol qilib shunday qurollarni dengiz tubiga joylashtirish va o'rnatishning taqiqlanganini ko'rsatishimiz mumkin. To'liq yoki qisman yadroviy demilitarizasiya va neytralizatsiyaning aniq shartnomaviy-huquqiy choralari Lotin Amerikasi, Tinch okeanining janubiy qismini, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada o'rnatilgan, boshqacha aytganda, u yerlarda yadrosiz zona barpo qilingan. Ular tomonidan o'rnatilgan rejimning samarali amal qilishi Yerning janubiy yarim sharida yadrosiz zonalar paydo bo'lishiga olib keldi. Markaziy Osiyoda ham Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning sa'y-harakatlari bilan yadroviy quroldan xoli zonani barpo etish davom etmoqda.

Qurolsizlanish va qurollanishni cheklash choralariga xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari tutashib ketadi. Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari maxsus, shartnomaviy yoki boshqa shakllarda bo'lishi mumkin va bunda bir tomonning harakati ikkinchi tomonga hech qanday ziyon yetkazmasligiga ishonch tug'ilishi kerak.

Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash choralari qurolsizlanish choralari bo'lmasa-da, bu choralar qurolsizlanish uchun sharoit tug'dirib berishi mumkin, bunday choralar ochiq muzokaralar olib borish uchun qulay sharoit yaratib beradi va boshlangan muzokaralarning muvaffaqiyatli tugashiga ko'maklashadi. Vujudga kelishida xavfsizlik va ishonch choralari tomonlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash, dengizda suzish xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qilgan bo'lsa, hozirga kelib harbiy faoliyat haqida axborot olish, harbiy faoliyat o'tkaziladigan joylarga kuzatuvchilar guruhini jo'natish, havodan kuzatish olib borish

imkoniyatini yaratib bermoqda. Qurol-aslahalarni qisqartirish va cheklash choralari to'g'risidagi shartnomalar asosida tuziladigan organlar ishonchni mustahkamlash funksiyalarini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik o'choqlariga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi ta'kidlanadi.

BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo'li bilan aholi, ayniqsa, yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha masalalarni hal etishda O'zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot bilan hamkorlikda quyidagi qo'shma loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda:

1. "Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi (CARICC)ni tashkil etish" Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 15,4 mln. AQSH doll.).

2. "Treatment II – narkotik moddalarga qaramlikning oldini olish va uning sog'liq uchun salbiy oqibatlari" Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1 mln. 490 ming AQSH doll.). Sog'likni saqlash, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklarining 7 ta mutaxassislari loyiha doirasida 2009-yil 24-avgustdan 17-sentabrgacha Toshkent shahrida o'tkazilgan mintaqaviy treninglarda o'qitildi. 2010-2011-yillarda loyihani amalga oshirish dasturiga muvofiq o'qitish treninglari tashkillashtirildi.

3. "Oilaviy hayot ko'nikmalarini shakllantirish dasturi vositasida yoshlar o'rtasida psixoaktiv moddalarning noqonuniy iste'mol qilinishi, OIV/OITS va jinoyatchilikning oldini olish" Mintaqaviy loyihasi. O'zbekiston ushbu loyihada 2017-yilga qadar ishtirok etadi.

4. "Chegara punktlarini mustahkamlash orqali Afg'onistonning shimoliy marshrutlari orqali o'tuvchi noqonuniy opiumlarning aylanishiga qarshi kurashish" Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1,3 mln. AQSH doll.).

5. “BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkilotining konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo'yish global dasturi”. Konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo'yicha global dastur (GPCT) 2004-yilda BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini birlashtirish orqali bu kabi jinoyatchilik faoliyatiga chek qo'yish maqsadida ishlab chiqilgan.

6. “Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjondagi prekursorlar ustidan nazorat qilish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 6 mln. AQSH doll.).

7. “Markaziy Osiyo va Afg'oniston Islom Respublikasi davlatlari huquqni muhofaza qilish organlari shaxsiy tarkibini narkotik moddalarga qarshi kurash sohasida malakasini oshirish”, Rossiya–NATO Kengashi Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 2.140.000 AQSH doll.)¹.

Nazorat savollari

1. *Xalqaro xavfsizlik huquqi tushunchasi va uning tarixiy shakllanishini ta'riflab bering.*

2. *Xalqaro xavfsizlik huquqi normalari qaysi manbalarda mustahkamlangan*

3. *Xalqaro xavfsizlikning darajalari qanday?*

4. *Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari nimadan iborat?*

O'zbekiston Respublikasining xalqaro tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi sa'y-harakatlari to'g'risida so'zlab bering.

Kazus

2006-yilda KXDR yadro qurolini sinash uchun yer ostida yadro portlashini amalga oshirishini bildirdi. Ayrim davlatlar bu qarorga shubha bilan qaragan bo'lsa, boshqalar KXDRda bunday imkoniyat mavjud emasligini ta'kidladi. Shunga qaramasdan, sinov o'tkazish rejalashtirilgan hududda haqiqatdan ham yerosti qimirlashi, balki yadro portlashi yuz bergani aniqlandi.

Xalqaro hamjamiyat KXDR harakatini noto'g'ri deb hisobladi. Bir qator davlatlar unga sanksiya qo'llash lozim, degan fikrni bildirdilar.

¹ <http://mfa.uz/uz/cooperation/security/2111/>

Savol: KXDRning harakatlari xalqaro xavfsizlikka tahdid deb hisoblanadimi? KXDRga nisbatani sanksiya qo'llash mumkinmi? BMT Xavfsizlik kengashi bu holatda qanday choralar qo'llash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2012-yil 10-sentabrdagi O'RQ-330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. Oliy Majlis palatalarining axborotnomasi. – 2012. – №9/1 (1437).

2. Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E. Hozirgi zamon xalqaro huquqi (Xalqaro ommaviy huquq). Darslik. – T., 2002. – B.377–387.

3. Lukashuk I.I., Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Darslik. – T.: Adolat, 2006. – B.255–277.

4. Xalqaro xavfsizlik huquqi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi Y.M.Kolosov; – T.: TDYI nashriyoti, 2009.

5. Malcolm N. Shaw. International law. Sixth edition. International law today. Cambridge University Press. New York, 2008. – P 43.

Glossariy:

Absolut apatrizm – jismoniy shaxsning tug‘ilgan vaqtdan boshlab yuzaga keladi

Anklav – boshqa bir davlatning hududi ichida har tomonidan o‘ralgan va dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan ikkinchi davlatning hududi.

Anneksiya – bu bir davlat tomonidan ikkinchi davlatning butun hududini yoki bir qismini egallab olish va bir tomonlama tartibda o‘z hududiga qo‘shib olish.

Antarktika deb, xalqaro huquqda Antarktida qit‘asi va unga tutash bo‘lgan orollar, muzliklar, ochiq dengiz suvlari va dengiz tubi hisoblanadi.

Apatrid – fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

Aralash rejimli hudud – milliy va xalqaro rejimga ega bo‘lgan hududlar.

Aholi deganda, ma‘lum bir davlat hududida yashab kelayotgan va ushbu davlatning yurisdiksiya ostidagi barcha jismoniy shaxslar nazarda tutiladi.

Bipatrid – ikki davlat fuqaroligiga ega bo‘lgan shaxs.

Boshpana berish deganda, o‘z fuqaroligi bo‘lgan davlat tomonidan siyosiy, diniy qarashlari yoki ilmiy ishlari, adabiyot asarlari uchun ta‘qib etilayotgan shaxsga boshqa davlat o‘z hududiga qirib kelishi va boshpana berishi nazarda tutiladi.

Chet el fuqarosi – ma‘lum bir davlatning fuqarosi bo‘lmagan, ammo uni hududida doimiy yoki vaqtincha ravishda istiqomat qiladigan va, albatta, boshqa bir davlatning fuqaroligiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

Daryo farvateri – daryodagi kemalar harakati uchun mo‘ljallangan, navigatsiya uchun xavfsiz bo‘lgan va daryo talvegasidan (eng chuqur joylaridan) o‘tgan yo‘l.

Daryo talvegasi – daryodagi eng chuqur bo‘lgan joylar.

Davlat hududi deb, ma‘lum milliy davlatning suvereniteti ostidagi bo‘lgan hududlar tushuniladi.

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi – davlatlar, agarda ular bir xildagi barcha huquq va majburiyatlarga ega bo‘lsa, xalqaro munosabatning teng huquqli a‘zosi bo‘ladilar: ular xalqaro munosabatlarning boshqa a‘zolarining suverenitetini hurmat qilishlari lozimligini angladi.

Delimitatsiya – davlat chegarasini belgilash bosqichlaridan biri bo‘lib, bunda kelishuv tomonlari chegara chiziqlarini umumiy

yo'nalishdarini aniq muhokama qilgan holda shartnomaviy kelishuv asosida jug'rofiy xaritaga tushirish hisoblanadi.

Demarkatsiya – bu chegaralarni belgilashdagi delimitatsiyadan so'ng amalga oshiriladigan bosqich bo'lib, unga topografik ishlarni bajarish, mahalliy hududni aerofotos'yomka qilish, va shularni asosida chegarada aniq chiziqchalar bilan belgilangan chegaraning topografik xaritasi tuzilishi va chegaraning mahalliy sharoitda chiziqlar bilan belgilash hisoblanadi.

Diplomatiya – bu tashqi siyosatni amalga oshirish yo'llari va uslublari.

Doimiy neytralitet – bu davlatning sodir bo'layotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday urushlarda ishtirok etmaslik va davlatning shunday urushlarga jalb etilishiga undovchi har qanday harakatlardan o'zini tiyish yuzasidan majburiyatni olgan xalqaro-huquqiy maqomi hisoblanadi.

Ekspatriatsiya – bu vaqtinchalik yoxud doimiy ravishda, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda o'z Vatanini hududidan chiqarilib yuborilish, ya'ni bu doktrinada jismoniy shaxsning o'z ixtiyoriga ko'ra fuqaroligini to'xtalishi va Vatanini tark etishi erkinligi nazarda tutilgan.

Ekstraditsiya – jinoyat sodir etgan jinoyatchini ma'lum bir davlat tasarrufiga berish.

Erkin shahar – bu xalqaro shartnomaga asosan iqtisodiy, ma'muriy va madaniy xalqaro-huquqiy munosabatlarda qatnashish imkonini beruvchi xalqaro-huquqiy maqom berilgan o'zini o'zi boshqaruvchi siyosiy tuzilma.

Filiatsiya deb, jismoniy shaxsning kelib chiqishiga qarab, ya'ni inson tug'ilganida mazkur tug'ilgan jismoniy shaxsning xohish-istagidan qat'i nazar, davlat tomonidan fuqarolik avtomatik ravishda taqdim etilishi hisoblanadi.

Fuqarolikdan mahrum qilish – asosan jismoniy shaxsning ixtiyoriga qarshi amalga oshiriladi va uning ma'lum bir xatti-harakatlarini natijasida davlat tomonidan qo'llaniladi.

Hudud deb, xalqaro huquqda boshqa maydonlarda ma'lum yuza (chegara) bilan chegaralangan, yuridik maqom va shunga mos ravishda huquqiy tartibga ega bo'lgan yer maydoni, shuningdek yerdan tashqaridagi kosmik maydon tushuniladi.

Imperativ va dispozitiv normalari – davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan va tan olingan umumiy xalqaro huquq normasi bo'lib, undan og'ishga yo'l qo'yilmaydi. Davlatlar o'zaro

kelishuv asosida ulardan voz kechishi mumkin, agarda ushbu chekinish boshqa davlatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasa.

Inson huquqlari bo'yicha kengash – BMT tizimidagi xalqaro huquqni himoya qilish organi, u Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'rniga tashkil etilgan. BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organi sanaladi. Inson huquqlari bo'yicha kengash BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 15-martda 60/251-rezolyutsiyasi bilan ta'sis etilgan. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashini tashkil qilish to'g'risidagi rezolyutsiyasida keltirilishicha: "Kengash a'zolari inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish borasida eng yuqori standartlarni qo'llab-quvvatlashlari lozim". Kengash a'zolaridan birortasi inson huquqlarining qo'pol va tizimli ravishda buzilishini qat'iy sodir etgan bo'lsa, Bosh Assambleya, a'zolarining uchdan ikki qismining ovoz berishi orqali, uning huquqlarini va imtiyozlarini to'xtatib qo'yish vakolatiga ega.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi – 1998-yil 1-noyabrdan doimiy asosda ishlaydi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi tomonidan (19-m.) Konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarni hurmat qilishni ta'minlash maqsadlarida uning ishtirokchilari bo'lmish va konvensiyani talqin qilish va qo'llashga oid barcha masalalarda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining majburiy yurisdiksiyasini tan olishlari to'g'risida maxsus bayonot bergan davlatlar uchun tashkil etilgan.

Jus cogens – umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi

Ko'proq qulaylik yaratish rejimi – chet el fuqarolari uchun maksimal darajada davlat tomonidan qulayliklar yaratish.

Kontinental shelf – bu dengizbo'yi quruqlik qirg'oqini suv ostidagi 200–350 dengiz milyasiga teng bo'lgan tabiiy davomidir.

Maxsus rejim – milliy qonunchilikga ko'ra yoki xalqaro huquqiy normalarga rioya qilgan holda chet el fuqarolari uchun maxsus huquqlar taqdim etish.

Maxsus tarzda fuqarolikka ega bo'lish yo'llaridan biri – bu fuqarolikni in'om etish. Ya'ni jismoniy shaxsning davlat uchun ko'rsatgan jasoratlari yoki davlat manfaatlariga xizmatlari uchun fuqarolikni in'om etish yo'li mavjud.

Mehnatkash-migrantlar – mehnat haqi, mablag' olish maqsadida boshqa davlatda mehnat qilib yashab ketayotgan chet el fuqarolari.

Millatlar – deb tarixan yuzaga kelgan quyidagi alomatlar bilan belgilanadigan odamlarning birligi tushuniladi: hududlarning birligi;

iqtisodiy hayotning birligi; madaniyat umumiyligida namoyon bo'lgan ruhiy uyg'unligi.

Milliy rejim – mazkur davlatning chet el fuqarolariga davlatning o'zini fuqarolariga mansub bo'lgan barcha huquqlarni taqdim etish. Ya'ni chet el fuqarolari davlatning o'zini fuqarolari bilan huquqlari tenglashtirilish.

Nisbiy apatrizm – jismoniy shaxsning fuqaroligini yo'qotganligi.

Okkupatsiya – bu bir davlatning hududini ikkinchi davlatning qurolli kuchlari tomonidan suverenitetga ega bo'lish maqsadi bo'lmagan holda vaqtinchalik egallab olish.

Optatsiya – bu ma'lum bir davlatning bir qismi ikkinchi davlatning tasarrufiga o'tib, boshqa davlatning huquq tarkibiga kirganda, ixtiyoriy fuqarolikni tanlash yo'li.

Orfografik chegaralar – bu hududni chegaralaridagi tabiiy to'g'anoqlarni (tog'lar, daryolar, ko'llar, dengizlar va h.k.) hisobga olgan holda belgilangan chegaralardir.

Pacta sunt servanda – prinsipi bir tomondan 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi va 1986-yilgi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnoma huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida mustahkamlangan mustaqil, sohaviy xalqaro shartnomalar prinsipi sifatida harakat qilsa, ikkinchi tomondan esa u xalqaro majburiyatni vijdonan bajarish umumiy prinsipining ifodasi hisoblanadi.

Qochoqlar – harbiy harakatlar sababli o'z mamlakatlarini tark etishga majbur bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Qon huquqi prinsipi qo'llanilganida, fuqarolik tug'ilgan bolaning ota-onasining fuqaroligiga qarab beriladi. Bu holatda tug'ilgan joyi e'tiborga olinmaydi.

Quruqlikda belgilangan davlat chegaralari – bu bir davlatning hududini qo'shni davlat hududidan ajratib turadigan chiziqlardir.

Reintegratsiya – bu maxsus tarzda fuqarolikka ega bo'lish yana bir usuli, ya'ni birlamchi fuqarolikni yangidan tiklash hisoblanadi.

Repatriatsiya – bu o'zining tarixiy vataniga qaytish deb tushuniladi, va mazkur tushuncha asosan majburan ko'chirilgan shaxslar, qochoqlar, emigrantlar, asirga tushgan shaxslar uchun qo'llaniladi.

Sessiya – bu o'z hududini ma'lum qismini o'z xohishi bilan boshqa davlatga turli kompensatsiya almashuvi asosida boshqa davlat tasarrufiga berish.

Suverenitet – davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanib, aynan suverenitetning mavjudligi davlatning xalqaro huquqning boshqa barcha subyektlaridan ajratib turadi. Suverenitet davlatning mustaqil siyosiy-hududiy tuzilma sifatida tavsiflaydi. Suverenitet – davlatning o‘z hududi doirasidagi ustunligi va uning tashqarisida, aniqrog‘i xalqaro munosabatlarda mustaqilligidir.

Transfert – bu ma‘lum hududiy, siyosiy o‘zgarish sababli ba‘zi hollarda (hududni bir qismi boshqa davlat tasarrufiga o‘tganida) avtomatik fuqarolikni o‘zgarib ketishi.

Tuproq huquqi prinsipi qo‘llanilganida esa bolaning ota-onasining fuqaroligi qayerda bo‘lishidan qa‘ti nazar, fuqarolik tug‘ilgan yerida beriladi, ya‘ni farzand qonunchiligida tuproq huquqi prinsipi qo‘llanadigan davlatda tug‘ilsa, unga mazkur davlatning fuqaroligi beriladi.

Xalqaro daryolar bir necha davlatlar hududida oqib boradigan, yoki ikki va undan qo‘p davlatlarning hududini chegarasidan o‘tadigan daryolar hisoblanadi.

Xalqaro huquq – bu davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomaviy va odatiy normalarning yig‘indisi va alohida huquqiy tizim.

Xalqaro huquq funksiyalari – xalqaro-huquqiy tartibga solish predmeti hisoblangan munosabatlarga xalqaro huquq tomonidan ta‘sir ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari.

Xalqaro huquq manbaalari – Xalqaro huquq manbalarini xalqaro-huquqiy normaning ifodasi shakli sifatida hisoblash odat tusiga kirgan.

Xalqaro huquq normalari – bu davlatlar va boshqa subyektlarning faoliyati va o‘zaro munosabatlarining umummajburiy qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyekti – bu xalqaro huquqdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘luvchi, uni himoya qiluvchi hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlarga kirishuvchi hisoblanadi.

Xalqaro huquq subyektliligi – bu u yoki bu tuzilmaning unga xalqaro huquq subyekti maqomini beruvchi yuridik xossasidir.

Xalqaro huquq tizimi – xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir-biriga bog‘liq norma va prinsiplar yig‘indisi.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari – xalqaro munosabatlar subyektlarining xalqaro hayotdagi to‘plangan eng muhim masalalarga oid ifodalangan hamda umumlashtirilgan umume‘tirof etilgan yurish-turish normalaridir.

Xalqaro kanallar – bu okean va dengizlarni birlashtiruvchi va quruqlik hududini kesib o‘tuvchi hamda xalqaro kemalar harakatlanishi yo‘lda foydalaniladigan sun‘iy gidrotexnik qurilmalar.

Xalqaro munosabatlar – bu xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdagi aloqalar va munosabatlar majmuidir.

Xalqaro odatlar – xalqaro huquq normalarini tashkil etib, u shunday yurish-turish qoidasiki, unda xalqaro huquq subyektlarining har doim takrorlanuvchi bir turdagi o‘xshash xatti-harakatlarining mahsuli sifatida namoyon bo‘lib huquqiy norma sifatida tan olinadi.

Xalqaro rejimli hududlar deganda, davlat chegarasidan tashqaridagi quruqliklar va suvlar, ya‘ni hech bir davlatning suvereniteti ostida bo‘lmagan quruqliklar, ochiq dengiz, va ular ustidagi havo bo‘shligi, kontinental shelfdan tashqarida joylashgan dengiz osti hududlar tushuniladi.

Xalqaro shartnomalar – bu davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yozma shaklda tuzilgan, bunday kelishuv bitta, ikkita hujjatda yoxud bir nechtasida o‘z ifodasini topganligidan, shuningdek uning aniq nomlanishidan qat‘i nazar, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan kelishuv hisoblanadi.

“Xabeas korpus” taomili – bu hibsga olingan shaxsni qamoq ostida ushlab turishga javobgar bo‘lgan mansabdor shaxsga yo‘naltirilgan sud buyrug‘ining an‘anaviy nomi. Ushbu taomil birinchi marta Angliyada 1679-yilda joriy etilgan – Habeas Corpus Act. “Xabeas korpus” taomili kontinental Yevropadagi deyarli barcha mamlakatlarda qo‘llaniladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

XALQARO HUQUQ

DARSLIK

Muharrirlar: S.Tosheva, K.Abduvaliyeva, X.Yuldasheva
Musahhih: N.Niyazova, R.Yunusova
Texnik muharrir: A.Yuldashev
Kompyuterda sahifalovchi: M. Talipova

Bosishga ruxsat etildi: 03.11.2018 y. Bichimi 60x84^{1/16}.
Ofset qog‘ozi. Risograf usulda. Times garniturası.
Shartli bosma tabog‘i: 28,25 Buyurtma raqami № 35.
Adadi: 300 nusxa.

MChJ “Fan va ta’lim poligraf” bosmaxonasida chop etildi.
100170, Toshkent shahar, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 24-uy.

ISBN: 978-9943-380-73-8



9789943380738